

81-2

H-24

Orzigul Hamroyeva

# ONA TILI

MA'RUZALAR TO'PLAMI



Yozuvchining nomi, tugʻilgan va vafot etgan sanalari, taʼlimi, faoliyat yillari, asarlarining umumiy belgilari

Ushbu maʼruza toʻplamining tarkibi va mazmuni haqida maʼlumot berilgan

Oʻzbek tilining imlo qoidalarini oʻz ichiga olgan

Natijada birinchi va ikkinchi qoʻyilgan

Ushbu maʼruza toʻplamining tarkibi va mazmuni haqida maʼlumot berilgan

# ABDULLAH

Koʻnikma sifatida birinchi qoʻyilgan

Ushbu maʼruza toʻplamining tarkibi va mazmuni haqida maʼlumot berilgan

**Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

Ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

--	--

Orzigul HAMROYEVA

# **ONA TILI**

## **MA'RUZALAR TO'PLAMI**



Toshkent  
«Akademnashr»  
2018



UO'K: 811.512.133(042)

KBK: 81.2 O'zb-9

H 24

H 24 Hamroyeva, Orzigul.

Ona tili: ma'ruzalar to'plami [Matn] / O.Hamroyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 336 b.

ISBN 978-9943-4727-0-9

UO'K: 811.512.133(042)

KBK: 81.2 O'zb-9

*Aziz abituriyent!*

*Oliy ma'lumotli bo'lishni istagan har bir inson ona tilimiz – o'zbek lisonining grammatik xususiyatlarini bilishi shart. Mazkur ma'ruzalar to'plami ham ushbuni inobatga olgan holda va sizning oliy o'quv yurtiga kirish imtihoniga ona tili fanidan har tomonlama mukammal tayyorlanishingiz uchun qulaylik yaratish maqsadida yaratilgan. U umumta'lim maktablari va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari darsliklaridagi ma'lumotlar, shuningdek, so'nggi yillarda test sinovlarida berilgan savollar asosida tayyorlandi. Ushbu qo'llanma ma'lumotlarning aniqligi, foydalanishga qulayligi bilan ham ahamiyatlidir.*

*Taqrizchilar:*

f. f. d., professor **B.Mengliyev**,

f. f. n., dotsent **M.Rahmatov**



ISBN 978-9943-4727-0-9

© O.Hamroyeva «Ona tili: ma'ruzalar to'plami»

© «Akademnashr», 2018



## Dunyo tillari

Til insonlar o'rtasida muhim aloqa vositasi sanalib, odamlarning o'zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi. Shuning uchun **til ijtimoiy hodisa** sifatida e'tirof etiladi. Har bir millat o'z hayoti davomida aloqa aralashuv quroli sifatida **asosan bitta tildan** foydalanadi. Bugungi kunda yer yuzida yetti milliarddan ko'proq aholi yashaydi. Har millatning o'z tili bor. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra, bugungi kunda dunyoda **7000 dan ortiq til** mavjud ekan. Tillar qancha ko'p bo'lmasin, til oilalari u qadar ko'p emas. Til oilalari qachonlardir bir tildan tarqalgan, grammatik, leksik xususiyatlari o'xshash bo'lgan tillardan tarkib topadi. Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda yer yuzida **20 dan ortiq til oilalari** mavjud. Til oilalari tarkibidagi tillar o'zaro **qarindosh tillar** sanaladi. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh tillar, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari yo'q tillar esa **qarindosh bo'lmagan tillar** sanaladi. Endi til oilalari bilan tanishib chiqamiz.

**1. Hind-yevropa tillari oilasi.** Ushbu til oilasi o'z tarkibida bir qancha guruhlarga bo'linadi: **a) slavyan guruhi** (*chex, belorus, rus, ukrain, slovak, polyak, xorvat, makedon, serb, sloven* tillari); **b) german guruhi** (*ingliz, nemis, shved, norveg, dat, island, golland* tillari); **d) roman guruhi** (*ispan, fransuz, portugal, rumin, italyan, moldavan* tillari); **e) boltiq guruhi** (*latish, litva, latgal* tillari); **f) eron guruhi** (*afg'on, fors, tojik, osetin, kurd va boshqa* tillar); **g) hind guruhi** (*hind, bengal, urdu, panjob, gujarat* kabi tillar). Ba'zi manbalarda hind-yevropa tillari oilasi tarkibidagi german, roman, eron kabi guruhlar til oilasi atamasi ostida ham beriladi.

**2. Oltoy tillari oilasi.** Bu til oilasiga **turk, mo'g'ul, manjur, yapon, koreys** kabi til tarmoqlari kiradi. Mutaxassislar fikricha, oltoy tillar oilasi tarkibidagi **turkiy tillar tarmog'i qadimda mo'g'ul va tungus-manjur tillari bilan birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til oltoy tili deb atalgan.** Turkiy tillar oilasi o'z ichida 3 guruhga bo'linadi: **o'g'uz guruhi** (*ozarbayjon, turkman, usmonli turk* tillari); **qipchoq guruhi** (*qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash, qoraqalpoq* tillari); **qorluq guruhi** (*o'zbek, uyg'ur* tillari).

**3. Fin-ugor tillari oilasi.** Bu til oilasi ham o'z ichida 2 guruhga bo'linadi: **fin guruhi** (*fin, eston, karel, komiziryan, komi-permyak, udmurt, mariy, mord va boshqa* tillar); **ugor guruhi** (*venger, mansiy, xantiy* tillari).

**4. Som-xom tillari oilasi.** Bu til oilasi o'z tarkibida 5 guruhni birlashtirgan: **semit (som) tillari guruhi** (*arab, axmar, xarari, oysor, ivrit* tillari); **qushit tillari guruhi** (*galla, somali, saho, beja* tillari); **berber tillari guruhi** (*kobil, shilx, rif, tamazist* tillari); **chad-xom tillari guruhi** (*xause, kotoko, angas, karekare, sura, chuzgu, mubi* tillari); **arab guruhi** (*qadimgi arab tili*).

**5. Kavkaz tillari oilasi.** Bu oila 4 guruhga bo'linadi: **g'arbly guruh** (*abazin, abxaz, kabardin, ubix* tillari); **nax guruhi** (*ingush, chechen, batsbiy* tillari); **dog'iston guruhi** (*avar, dargin, lak, lezgin, karatin, gunzib* tillari); **janubiy guruh** (*megrel, chan, gruzin, kartaliy, svan, guriy* tillari).

**6. Xitoy-tibet tillari oilasi.** Bu oilaga **tay-xitoy guruhi** (*xitoy, dungan, tay, laos, chjuan, vyetnam* tillari), **tibet-birma guruhi** (*tibet, birma* tillari) kiradi.

**Dravid, malay-polinez, avstrallya, papua, afrika** kabi til oilalari ham muxassislar tomonidan ajratilgan.

Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi. Shu munosabat bilan tillar o'lik hamda tirik tillarga ajratiladi. Insonlar o'rtasida aloqa shakli sifatida ishlatiladigan tillar tirik til, jamiyatdan uzilgan, insonlarning o'zaro aloqasiga xizmat qilmaydigan til o'lik til deyiladi. Lotin tili, qadimgi hind tili yoki sanskrit, qadimgi slavyan tili, qadimgi xorazmiy tili bugungi kunda muloqot jarayonida ishlatilmagani bois o'lik tillar sirasiga kiradi.

### **Dunyo tillari tizimida o'zbek tilining tutgan o'rni**

O'zbek tili turkiy tillarning qorluq guruhiga mansubdir. Turkiy tillar ichida **faqat o'zbek tili «o»lovchi til sanaladi.** Turkiy tillar oilasida **30 ga yaqin til bor.** Bu tilda so'zlashuvchilar, asosan, Osiyo, shuningdek, Yevropa, Amerika, Avstrallya qit'alarida yashashadi. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachoy-bolqor, qo'miq, tatar, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, chuvash...

Turkiy tillar agglyutinativ tillar sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatik ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar aksari asosdan keyin qo'shildi: **lit + sey + dosh + lar + im + ga.**

1989-yil 21-oktyabrda o'zbek tili O'zbekistonning davlat tili sifatida rasman e'lon qilindi. 1995-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IV sessiyasida «Davlat tili haqida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi hamda «Davlat tili haqida»gi Qonunning 1-moddasida «*O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili*» ekanligi qonuniylashtirilgan. «Davlat tili haqida»gi Qonunning 2-, 4-, 6-, 10-, 14-moddalarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoyalaniadi.



# O'zbekiston Respublikasining Qonuni

## Davlat tili haqida

(Yangi tahrirda)

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

**2-modda.** O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

**4-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi.

**5-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

**6-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish tilni erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda.** O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan vakillari zich yashaydigan joylarda ma-



*halliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.*

**9-modda.** *Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.*

*O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.*

**10-modda.** *Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.*

**11-modda.** *Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.*

*Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.*

**12-modda.** *O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda boshqa maqbul tilda beriladi.*

**13-modda.** *Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.*

**14-modda.** *O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.*

**15-modda.** *O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, otasining ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.*

**16-modda.** *Televideniye va radioeshittirishlar davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.*

**17-modda.** *Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.*

**18-modda.** *Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra boshqa tilda amalga oshiriladi.*

**19-modda.** *Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.*

*O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.*

**20-modda.** Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

**21-modda.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

**22-modda.** Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalar va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23-modda.** O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

**24-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi.

### **Mashhur ijodkorlar tomonidan ishlatilgan so'zlar miqdori**

Alisher Navoiy 26035 ta

Aleksandr Pushkin 21193 ta

Vilyam Shekspir 20000 dan ortiq

Migel de Servantes 18000 dan ortiq

Abdurahmon Jomiy 17600 ta

Abdulla To'qay 14000 dan ortiq

### **Til jozibasi aks etgan misralar**

1. Turonlik – unvonimiz, turkistonli – shonimiz,  
Vatan – bizim jonimiz, fido o'lsun qonimiz. **(Cho'lpon)**
2. Alp o'g'lonlar o'lkasi bu Ko'hna Turon  
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang,  
Yarim jahon bunyod etgan sohibqiron,  
Alisherning avlodlari ilm istang! **(Muhammad Yusuf)**
3. Tilingni so'zlashga soz, muhayyo qil,  
Tilingni o'q qil-u aqlni yoy qil. **(Firdavsiy)**
4. O'z tilini unutgan xalqning  
Bog'larida o'sgan gullarin  
Chirmab uxlar zaharli ilon. **(Xurshid Davron)**
5. Insonning qiymati emas siym-u zar,  
Insonning qiymati ilm ham hunar. **(Bedll)**



6. Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,  
Qo'lingdan kelgancha tera olsang bas. **(Rudakiy)**
7. O'zbek o'g'lonlari botir bo'lur. **(Fitrat)**
8. Olibmen taxti farmonimg'a oson  
Cherik chekmay Xitodin to Xuroson... **(Navoiy)**
9. Kimki o'rganishni uyat, or demas,  
Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos. **(Ganjaviy)**

### **Manbalarda o'zbek xalqi madhi**

1. Qadimgi Gretsiya Yevropada sivilizatsiya o'chog'i sifatida qanday o'rin tutgan bo'lsa, O'zbekiston va o'zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o'lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o'rin egallaydi. **(Chingiz Aytmatov)**

2. O'zbekning fe'l-atvori barchaga ayon: u yerni, tabiatni sevadi. Do'ppisi-da suv tashib bo'lsa-da daraxt ko'kartiradi. O'zbek tom ma'noda bunyod-kordir. **(I.A.Karimov)**

3. Bizkim o'zbeklar ko'pni ko'rgan, o'z boshidan ne-ne kunlarni, ne-ne tarixiy sinovlarni o'tkazgan, shonli o'tmishiga, qadim-qadimdan o'z davlatiga ega bo'lib kelayotgan xalqmiz. O'zbek xalqining ichi to'q, baquvvat, tagli-tugli, palagi toza. O'zbeklarning tafakkur ummoni buyukdir. **(A.Ibrohimov «Bizkim o'zbeklar...»)**

4. «O'zbek degan so'z qaysi ma'noni bildiradi deganda, eng avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, bu so'z «o'z» va «bek» so'zlaridan iborat bo'lib, shulardan birinchisi «asl», «ajoyib», «tagi mustahkam», «sardor» ma'nolarini bildiradi. Demak, bu so'zning ma'nosi asl bekdir. «O'zbek» degan nom ancha oldindan ma'lum bo'lib, «musulmoncha tarbiyalangan» degandek tushunilgan, ya'ni ular... musulmon Osiyo madaniyatiga yo'l ochishgan; o'troq va asl dehqon; harbiy millat; savdoda og'ir, vazmin, sanoatda mo'tadil; ochiqko'ngil, mard, jiddiy, haqiqiy turkiy himmatga ega; sovuqqonlikni odob-axloq namunasi hisoblaydi... **(Herman Vamberi)**

5. Tor ko'ngullik beklar, «man-man» demang, kenglik qiling,  
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidir, tenglik qiling. **(T.Farog'iy)**

### **O'zbek adabiy tillining taraqqiyot bosqichlari**

Jamiyat oilalardan tashkil topganidek, tillar ham turli-tuman oilalarga bo'linadi. Til oilalari shu tilga asos bo'lgan til nomi bilan yuritiladi. Demak, hozirgi barcha turkiy tillar (o'zbek, uyg'ur, ozarbayjon, usmonli turk, tatar, xakas, yoqut va boshqalar) uchun qadimgi turkiy til umumiy til (bobo til) sanaladi. Hozirgi turkiy tillarning shakllanish tarixini ko'pchilik olimlar quyidagi davrlarga bo'ladilar:



1. Oltoy davri.
2. Eng qadimgi turk davri.
3. Qadimgi turk davri.
4. O'rta turk davri (hozirgi barcha turkiy xalqlar va ular tillarining shakllanish hamda rivojlanish davri).

Mutaxassislar fikricha, turkiy tillar qadimda mo'g'ul va tungus-manjur tillari bilan birgalikda bitta oilani tashkil etgan va bu til **oltoy tili** deb atalgan. Keyinchalik oltoy tili tarmoqlanib ketgan. Afsuski, bu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar bizgacha yetib kelmagan, lekin **qadimgi turkiy til** davriga oid bir qancha yozma manbalarga egamiz. O'rxun-enasoy, uyg'ur (qisman moniy), sug'd yozuvlari shular jumlasidandir. Mazkur yozuvlar hozirgi turkiy tillarning barchasi uchun umumiy sanaladi.

*Biz qo'rqmadimiz, sungusdimiz – Biz qo'rqmadik, jang qildik. Neke qorqurbiz – Nimadan qo'rqamiz. Turk budun yoq bolmazun! Bodon bolsin! – Turk xalq yo'q bo'lmasin! Xalq bo'lsin!* (O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridan)

O'rxun-enasoy yozuvi haqidagi dastlabki yangiliklar **N.K.Vidzen, S.U.Remezov, I.Tabbet-Stralenberg, D.G.Messerschmidt, M.A.Kastren** kabi tadqiqotchilar tomonidan e'lon qilingan. **N.M.Yadrinsev 1889-yili Mo'g'ullistondagi Qoraqum shahristoni** xarobalaridan ikkita katta bitiktosh topgan. Bu toshlar Kultigin va Bilga xoqon sharafiga qo'yilgan bitiktoshlar edi. **V.V.Radlov, V.Tomsen, P.M.Melloranskly** kabi olimlar bu sirli yozuvlarni o'qishga qattiq kirishganlar. **1893-yil 25-noyabr kuni V.Tomsen** birinchi bo'lib bitiktoshlar sirini ochganligini e'lon qildi. Bu vaqtda **V.V.Radlov 10 ta harfni** o'qib ulgurandi. Mazkur sirli yozuvlar turk xalqiga tegishli ekan. Enasoy hamda O'rxun daryolari havzalaridan topilgani uchun ular O'rxun-Enasoy yozuvlari deb atala boshlandi. Hozirda ularning **700 ga** yaqin namunalari fanga ma'lum.

#### *Qadimgi turkiy til davriga oid so'zlar lug'ati:*

<b>budun</b>	xalq	<b>ko'ch</b>	urug', zot
<b>billig</b>	bilim	<b>o'kush</b>	ko'p
<b>ingek</b>	sigir	<b>o'z</b>	jon, vujud
<b>yag'l</b>	dushman, yov	<b>art</b>	tepa, dovon
<b>batsiq</b>	g'arb	<b>erik</b>	mard, botir, erkin

**Eski turkiy til.** XI asrlardan qorluq qabila ittifoqi kuchaya boshladi va qoraxoniylar sulolasi hukmronligidagi o'z davlatini tashkil etdi. Qoraxoniylar Sirdaryo havzasi hamda somoniylarga qarashli bo'lgan Buxoro va Samarqandga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qoraxoniylar davlati mayda uyg'ur qabilalarini hamda Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi turk-eron aholisi yashaydigan madaniy yerlarni o'ziga bo'ysundirgan holda X asr oxirlarida islom dinini qabul qilib Markaziy Osiyoning eng madaniy turk davlatiga aylandi.

Qoraxoniylar tomonidan ikki rivojlangan madaniy markazning – sharqda uyg'ur madaniyatining va g'arbda, Markaziy Osiyoda, turk-eron madaniyatining birlashtirilishi uning yozma madaniyatida ham o'z ifodasini topdi. Qoraxoniylar davrining eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklaridan biri **Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»** nomli qomusiy asaridir. Bu asar turkiy tillarning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to'la ma'lumot beruvchi qimmatli manba. Mahmud Koshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk bor barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o'rtasidagi umumiy jihatlar va farqlarini aniqlagan holda **qiyosiy-tarixiy tilshunoslik** deb nomlanuvchi tilshunoslik yo'nalishiga asos soldi.

Qoraxoniylar davrining ikkinchi yirik yozma yodgorligi **Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»** («Baxt keltiruvchi bilim») asari hisoblanadi. Shuningdek, **Xo'ja Ahmad Yassaviyning hikmatlari, Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»** asarlari bu davrning eng buyuk adabiy manbalaridir.

Qoraxoniylar davri adabiy tili hozirgi Markaziy Osiyodagi barcha turkiy tillarning shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lgan til sanaladi, shuning uchun bu davr tili ko'pchilik turkiyshunoslar tomonidan **eski turkiy til** deb yuritiladi.

*«Devonu lug'otit turk»dan parcha:*

1. *«Turkiylar, aslida, 20 qabiladir. Har bir qabilaning allaqancha urug'lari bor. Men bulardan asosiylarini – ona urug'larini yozdim, shoxobchalarini tashladim».*

2. *«Devonu lug'otit turk»da o'sha davrda bajanak, qipchoq, o'g'uz, boshqird, basmil, yabaqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'raq, uyg'ur kabi turkiy qabilalar tili umumturkiy adabiy tilni tashkil qilgan. Ulardan eng yengili – o'g'uz; eng to'g'risi, yaxshisi – yag'mo, tuxsi; eng o'chiq, ravon til – Xoqoniy o'lkasida yashovchilarning tili ekanligi aytilgan.*

3. Erik erni yag'lig', ermagu bashi qanlig' – Tirishqoqning labi yog'lig', erinchoq, dangasaning boshi qonlik.

4. Emgak ekinda qolmas – Mehnat bekorga ketmaydi.

5. O'kuz azaqi bo'lg'incha buzag'u bashi bo'lsa yik – Ho'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq.

6. Uma kelsa, qut kelur – Mehmon kelsa, baraka keladi.

7. Erdamsizdan qut chertilur – Dangasadan baxt ketadi.

8. Kichikda qatig'lansa, ulg'azu sevnur – Yoshlikda mashaqqat cheksa, ulg'ayganda sevinadi.

9. Erdam boshi til – Odobning boshi til.

*«Qutadg'u bilig»dan parcha:*

Qayu yerda bo'lsa uqush birla o'g,

Ani er atagil, necha o'gsa o'g.

Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,

Yavuz ersa kaz te, kichik ersa o'g



(Qaysi odamda zehn va aql bo'lsa,  
 Uni er atab, qancha bo'lsa-da maqta.  
 Kishida aql, zehn, bilim mukammal bo'lsa,  
 Yomon bo'lsa ham odam, kichik bo'lsa ham ulug', katta de).

«Hibat ul-haqoyiq»dan parchalar:

1. Aya do'st, biliklik yizin izlagil,  
 Qali so'zlasang so'z bilib so'zlagil  
 (Ey do'st, bilimli kishi izidan yur,  
 Agar so'zlasang o'ylab so'zlagin).
2. Tiling bekta tutgil, tishing sinmasun,  
 Qali chiqsa bekta, tishingni siyur  
 (Tilingni tiy, tishing sinmasin,  
 Agar tiymasang, u tishingni sindiradi).
3. Ko'ni bo'l, ko'ni qil, atin ko'ni,  
 Ko'ni teyu bilsun xaloyiq seni  
 (To'g'ri bo'l, to'g'ri ish qil, to'g'ri deb atal,  
 Odamlar seni to'g'ri deb bilsin).

*Eski turkiy til davriga oid so'zlar lug'ati:*

<b>ko'kramak</b>	na'ra tortmoq	<b>ellq</b>	hukmdor
<b>sandilach</b>	sa'va	<b>bo'gu</b>	dono
<b>qirg'illach</b>	qaldirg'och	<b>al</b>	qizil
<b>sandug'ach</b>	bulbul	<b>ko'ni</b>	to'g'ri, rost, haqqoniy

**Eski o'zbek adabiy tili.** Qoraxoniylar davri adabiy tili o'zbek tilining shakllanishi uchun asos vazifasini bajargan bo'lib, bu davrdagi ikki adabiy til an'anasi – **sharqiy (qorluq-uyg'ur) adabiy til va g'arbiy (qipchoq-o'g'uz) adabiy til** o'zbek tilining shakllanishiga xizmat qildi. Xususan, **g'arbiy til** an'anasida yozilgan **Qul Allning «Qissayi Yusuf» dostoni (1239-yil)** hamda **sharqiy til** an'anasida yozilgan **Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» (1309 -1310)** asari o'zbek adabiy tilining shakllangan davrini ifodalovchi asarlar sirasiga kiradi. A.Borovkov «Tafsir» (XIII asr) tilini eski o'zbek tilining yorqin namunasi sifatida e'tirof etgan. «O'g'uznoma», «Tafsir» (Qur'onga izohlar, sharhlar, tushuntirishlar), Qutbning «Xusrav va Shirin», Sayfi Saroyining «Gullston», Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarlari eski o'zbek tilida yaratilgan dastlabki namunalardir.

O'zbek atamasi tarixda ilk bor XII asrda Rashididdinning «Mo'g'ullar tarixi» asarida atoqli ot ma'nosida tilga olinadi. Jaloliddin Manguberding qo'shin boshliqlaridan biri O'zbektoy deb atalgan.

O'zbek degan so'zning «o'ziga bek», «otliq qo'shin», «sodda», «to'g'ri», «insofli», «saxiy», «odamoxun», «diltortar», «suyukli» kabi ma'nolari mavjud.



O'zbek tilining takomillashuvida Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy singari o'nlab, yuzlab so'z ustalari xizmat qilgan bo'lsalar, mavlono Alisher Navoiy uning obro'yini dunyoga tanitdi. Navoij davri va Navoiygacha bo'lgan davrda o'zbek tili **turk lafzi, turkly til** nomi bilan yuritilgan. XVI asrdan o'zbek urug'larining nomi butun xalqning nomiga aylanib ketdi. Shuningdek, o'zbek tili mo'g'ullar bosqinidan so'ng shu yerga egalik qilgan **Chig'atoy** nomi bilan, rus bosqini davrida esa ruslar tomonidan **sart tili** nomi bilan ham yuritilgan. Demak, eski o'zbek tili **XII – XIII asrdan XX asr boshlarigacha** bo'lgan o'zbek tili tarixini o'z ichiga oladi va juda katta yozma manbalarni mujassamlashtiradi.

**Eski o'zbek adabiy tili davri namunalaridan parcha:**

1. Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ngida «ch, i», «ki», «chi» lafzidir, orttirurlar, yo mansabning, yo hunarning, yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar. Mansabda andog'ki, qo'rchi, suvchi, xizonachi va kerak-yarog'chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yo'sunlug' ko'ptur. Hunar va peshada andog'ki, qushchi va borschi va qo'ruqchi va tamg'achi va jibachi va yo'rg'achi va halvochi va kemachi va qo'ychi. («**Muhokamat ul-lug'atayn**»)

2. Bu ulus to xublar ko'rduk, ey o'zbekim,

Dilraboliqda sizingdek sho'xi ra'no ko'rmadik. (**Atoiy**)

3. Shoh-u toj-u xil'atikim, men tomosha qilg'ali,

O'zbekim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas. (**Navoiy**)

4. Qaro meng ol yangoqingg'a yaroshur,

Boshim doim adoqingg'a yaroshur. (**Xorazmiy**)

*Eski o'zbek tiliga oid so'zlar lugati:*

cherik	askar	huvaydo	ayon, ravshan
ev	uy	kilk	qamish qalam
qopungda	eshigingda	pesha	kasb, hunar
ulus	xalq	bilmon	bilmayman
butradi	tarqaldi	behbud	sog'lomlik

**O'zbek tilshunosligi bo'limlari**

<b>Fonetika</b>	Tilning tovush tizimini o'rganadi.
<b>Grafika</b>	Tovushning yozuvdagi aksi – harfni o'rganadigan bo'lim.
<b>Leksikologiya</b>	So'zning atash ma'nosini, lug'aviy ma'nosini, shakl va ma'no munosabatlarini o'rganadigan bo'lim (yunoncha, « <b>lexikos</b> » – «so'z, so'zga dolir», « <b>logos</b> » – «ta'llimot»).
<b>Morfologiya</b>	So'zning grammatik ma'nosi, so'z turkumlari va ularning grammatik shakllarini o'rganuvchi bo'lim (yunoncha, « <b>morphe</b> » – «shakl», « <b>logos</b> » – «ta'llimot»).

<b>Sintaksis</b>	So'zlarning bog'lanishi, gap va uning turlarini o'rganuvchi bo'lim (yunoncha, « <b>syntaxis</b> » – « <b>yopishtirish, bog'lash</b> »)
<b>Morfemika</b>	So'zning ma'noli qismini o'rganuvchi bo'lim (so'z tarkibi: asos va qo'shimcha).
<b>Orfografiya</b>	So'zlarni adabiy til me'yorlariga mos holda to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rgatuvchi bo'lim (yunoncha, « <b>orfo</b> » – « <b>to'g'ri</b> », « <b>grafo</b> » – « <b>chizmoq</b> »).
<b>Orfoepiya</b>	To'g'ri talaffuz qilish me'yorlarini o'rgatuvchi bo'lim (yunoncha, « <b>orfo</b> » – « <b>to'g'ri</b> », « <b>epos</b> » – « <b>so'zlam</b> », « <b>nutq</b> »).
<b>Frazeologiya</b>	Turg'un bog'lama, iboralarni o'rganuvchi bo'lim.
<b>Etimologiya</b>	So'zlarning tarixiy asoslarini, kelib chiqishini o'rganuvchi bo'lim.
<b>So'z yasallishi</b>	So'z yasallish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
<b>Punktuatsiya</b>	Tinish belgilarining to'g'ri ishlatilish yo'riqlarini o'rgatuvchi bo'lim.
<b>Uslubiyat</b>	Nutq uslublari va ularning qo'llanishi o'rinlari, shartlari, turlari, birliklarini o'rganuvchi bo'lim.
<b>Til tarixi</b>	Tilning hozirgi kunga qadar bosib o'tgan yo'lini, tarixiy ildizlarini, taraqqiyoti, o'rnini o'rganuvchi bo'lim.
<b>Dialektologiya</b>	Tilning sheva qatlamini o'rganuvchi bo'lim.
<b>Leksikografiya</b>	Lug'at turlarini, rivojlanishi bosqichlarini, tilning lug'atshunoslikka oid muammolarini o'rganuvchi bo'lim.
<b>Paremiologiya</b>	Barqaror birikmalarni (ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, tasviriy ifoda) o'rganuvchi bo'lim.
<b>Paremlografiya</b>	Barqaror birikmalarning tilda to'g'ri yozilish qoidalarini o'rganuvchi bo'lim.
<b>Atamashunoslik</b>	Tildagi kasb hamda ilmga oid atamalarni, istilohlarni o'rganuvchi bo'lim.
<b>Onomastika</b>	Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablarini o'rganadi (lotincha, « <b>onuma</b> » – « <b>nom</b> »).

### **O'zbek tilshunosligi rivojiga hissa qo'shgan tilshunoslar:**

#### **Ayub G'ulomovich G'ulomov (1914 – 1984)**

A.G'.G'ulomov o'zbek ilmiy tilshunosligining asoschisidir. U 1914-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Asarlari:

1. «O'zbek tilida aniqlovchilar» (1940).
2. «O'zbek tilida kelishiklar» (1940).
3. «O'zbek tilida ko'plik kategoriyasi» (1944).
4. «O'zbek tilida urg'u» (1947).
5. «Sodda gap sintaksisi» (1948).
6. «Sodda gap» (1955).



7. «O'zbek tilida tarixiy so'z yasalishi muammolari» (1955).
8. «Fe'l» (1957).

### **Hamid Ne'matov**

1941-yili tavallud topgan. Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbek tili tarixi, leksikologiyasi, morfologiyasi bo'yicha tadqiqotlar yaratgan. Asarlari:

1. «Qadimgi tarixiy yodgorliklarning funksional morfologiyasi».
2. «O'zbek tilining sistemaviy leksikologiyasi asoslari» (professor Ravshan Rasulov bilan hamkorlikda).

### **Alibek Rustamov**

Filologiya fanlari doktori (1968), professor (1968), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi. Asarlari:

1. «Navoiyning badiiy mahorati» (1979).
2. «Qofiya nima?» (1975).
3. «Mahmud Zamaxshariy» (1971).
4. «Alisher Navoiy asarlarining grammatik xususiyatlari» (akademik G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda).
5. «Qadimgi turkiy til» (1982) (G'anijon Abdurahmonov bilan hamkorlikda).

### **Iristoy Qo'chqortoyev**

Filologiya fanlari doktori (1978), professor (1981), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (2000). Asarlari:

1. «Ferdinand de Sossyurning lingvistik konsepsiyasi» (1976).
2. «So'z ma'nosi va uning valentligi» (1977).
3. «Badiiy nutq stilistikasi» (1975).
4. «Turkiy filologiyaga kirish» (1976).
5. «Tilshunoslikka kirish» (1976).
6. «Umumiy tilshunoslik» (1980).
7. «Lingvistik ta'limot tarixi» (1980).

### **Ernst Begmatov**

Filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov o'zbek nutq madaniyati, leksikologiyasi muammolarini hal qilishda barakali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Asarlari:

1. «Kishi nomlari imlosi» (1970).
2. «O'zbek ismlari imlosi» (1972).
3. «O'zbek ismlari» (1999) (14600 ismning izohini o'z ichiga olgan).



### **Shavkat Rahmatullayev**

Filologiya fanlari doktori, professor Shavkat Rahmatullayev o'zbek tili leksikologiyasi, leksikografiyasi, morfologiyasining rivoji uchun katta hissa qo'shgan olimdir. O'zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojlanishida uning xizmati katta. Shuningdek, o'zbek tilining izohli, etimologik, imlo lug'atlarini tuzishda barakali mehnat qilib kelmoqda. Asarlari:

1. «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati» (1964).
2. «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (1978).
3. «O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati» (1980).
4. «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» (1984).
5. «O'zbek tilining qisqacha etimologik lug'ati» (2000).

### **Azim Hojiyev**

Filologiya fanlari doktori (1968), professor (1977), O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (2000). Azim Hojiyev o'zbek tili morfologiyasi, so'z yasalishi, leksikologiyasi va leksikografiyasi, orfografiyasi bo'yicha tadqiqotlar yaratgan. Asarlari:

1. «O'zbek tilida ko'makchi fe'llar» (1966).
2. «To'liqsiz fe'l» (1970).
3. «Fe'l» (1973).
4. «Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi» (1979).
5. «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (1980).
6. «O'zbek lingvistik terminlarining izohli lug'ati» (1984).
7. «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati» (2002).

### **Shonazar Shoabdurahmonov**

Filologiya fanlari doktori (1964), professor (1967), O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi (1974) Shonazar Shoabdurahmonov o'zbek tili fonetikasi, o'zbek tilining badiiy-estetik vazifasi, leksikografiyasi, morfologiyasi, dialektologiyasi yuzasidan qator salmoqli asarlar yaratdi. Asarlari:

1. «O'zbek tilida yordamchi so'zlar» (1953).
2. «Fonetika. O'zbek tili fonetikasiga doir ba'zi masalalar» (1953).
3. «O'zbek tilida punktuatsiya» (1955).
4. «O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari» (1962).
5. «O'zbek dialektologiyasi» (1962, 1969, 1978).

### **G'anijon Abdurahmonov**

O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi G'anijon Abdurahmonov o'zbek tilshunosligi taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan olimlardan biridir. Asarlari:

1. «O'zbek tilida sifatlar substantivatsiyasi» (1951) nomzodlik dissertatsiyasi.
2. «O'zbek tilida qo'shma gap sintaksisi asoslari» (1960) doktorlik dissertatsiyasi.
3. «Hozirgi o'zbek adabiy tili, II qism, Sintaksis».
4. «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» (prof. Sh.Shukurov bilan hamkorlikda).
5. «Qadimgi turkiy til» (akad. A.Rustamov bilan hamkorlikda).

### **Mazluma Asqarova**

Mazluma Asqarova – filologiya fanlari doktori, professor. Asarlari:

1. «Ravishdosh».
2. «Qo'shma gap sintaksisi».
3. «Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar» (akad. G'.Abdurahmonov bilan hamkorlikda).



## FONETIKA

**Fonetika** (yunoncha, «**phone**» – «tovush») tilning tovush tizimini o'rganadi. Nutqimizni bo'laklarga ajratadigan bo'lsak, uning oxirgi bo'linish nuqtasi tovushlar bo'ladi. **Og'zaki nutqning eng mayda, boshqa bo'laklarga bo'linmaydigan qismi tovush deyiladi.** Nutqimizni ikki xil yo'l bilan bayon qilamiz: og'zaki yoki yozma. Tovushlar zanjiri asosida bayon qilingan nutq og'zaki nutq, harflar ketma-ketligi asosida bayon qilingan nutq esa yozma nutqdir. **Graflka** yozma nutqning harflar tizimini o'rganadigan bo'limdir. Tovushning yozuvdagi ifodasi *harf* deyiladi. Bir tovush bir harf bilan ham, ikki harf bilan ham ifodalanishi yoki bir harf ikki tovushni ifodalashi mumkin: *v, a, e, o* harflari bir tovushni ifodalasa, *ch, sh, ng* singarilarda ikki harf bir tovushni ifodalaydi. *J* (jo'ja, jajji) va *j* (jurnal, jirafa) harflarida bir harf ikki tovushni ham ifodalashi mumkin.

### Nutqiy faoliyat

So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot uzatish va axborotni qabul qilish faoliyati *nutqiy faoliyat* sanaladi. Nutqiy faoliyat yozma ravishda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ham nutqiy jarayon qatnashchilari ikki guruhga bo'linadi. Xat yo'llovchi shartli ravishda so'zlovchi, uni qabul qiluvchi (o'quvchi) esa tinglovchi sanaladi. Nutqiy faoliyat muayyan jamiyatning aloqa vositasi hisoblanuvchi til yordamida yuzaga chiqadi. Mashhur shveysariyalik olim Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini ta'kidlaydi hamda tilshunoslikda til va nutq tushunchalarini farqlaydi.

Nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til sanaladi.


**Hali voqelanmagan imkoniyat tarzidagi, ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi – til, shu tilning muayyan shaxs nutqiy faoliyatida bevosita namoyon bo'lishi, voqelanishi nutqdir.**

Til va nutq umumiylik – xususiylik, imkoniyat – voqelik, mohiyat – hodisa zidlanishini o'zida namoyon etib, bir-biriga zidlanadi va bunday zidlanish har bir til sathlariga xos birliklarning nomlanishida ham o'z ifodasini topadi.

**Tilning fonologik sathining birligi fonema bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi fon (allofon) yoki tovush hisoblanadi.**

Bundan tashqari, til va nutq quyidagi xususiyatlarga ko'ra bir-biridan farqlanadi:

1. Til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa shaklidir.
2. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa har bir shaxs yaratadi.
3. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog'liq holda uzoq bo'ladi, nutqning hayoti esa qisqa, xususan, og'zaki nutq so'zlangan paytdagina mavjuddir. Ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin.
4. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda, o'zgaruvchan hodisa sanaladi.



5. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin.

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutqiy faoliyat kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikrlashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki va yozma tarzda.

Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shaklidagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi insonlar o'rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, u boshqa joyda va zamonda yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz. Nutqning bu shakllari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Nutq ayrim shaxsga tegishli bo'lishi (monologik, ikki kishi o'rtasida yuz berishi (dialogik) va bir necha kishilar o'rtasida (polilogik) mumkin. Nutq ko'rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy-ta'siriy vositalari bilan farqlanadi.

### **Nutq tovushlarining uch tomoni**

Kundalik hayotimizda har xil tovushlarni eshitamiz: mashinalar signali, hayvonlarning qichqirig'i, parrandalarning sayrashi, suvning shildirashi va boshqalar. Havo to'lqinlari orqali qulog'imiz bilan eshitiladigan barcha hodisalarni **tovush** deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi.

*Tabiiy tovushlardan inson tovushlarining farqi shundaki, u inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda ketma-ket talaffuz qilinadi. Bu esa har qanday nutq tovushining uch tomoni mavjud ekanidan dalolat beradi.*

1. *Tovushning talaffuz (fiziologik) tomoni.* Nutq tovushlari insonning nutq a'zolari harakati natijasida maydonga keladi. Nutq tovushlarining bu tomoni uning talaffuz (fiziologik) belgisi hisoblanadi va u fiziologiya fani bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Nutq apparati o'pka, bo'g'iz, tovush paychalari, og'iz bo'shlig'i, tanglay, til, lab, burun, tish kabi a'zolarni o'z ichiga oladi.

2. *Tovushning akustik (fizik) tomoni.* Har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma'lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr



belgilariga ega bo'ladi. Tovushning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o'rganiladi.

3. *Tovushning vazifaviy (lingvistik) tomoni.* Nutq tovushlari ma'lum maqsadda talaffuz etiladi. Tovushlarning ketma-ket talaffuz qilinishidan ma'lum axborot uzatiladi. Demak, tovushlar ma'noli birliklar tarkibida ularni moddiy tomondan shakllantirish va ma'nosini bir-biridan farqlash vazifasini bajaradi. Masalan, *sol*i bilan *sholi* so'zlari birinchi tovushlari bilan, *sot* va *sut* so'zlari o'rtasidagi tovushlari bilan farqlanadi. Bu tovushning vazifaviy tomoni hisoblanadi. Tovushlarning bunday belgilari vazifaviy belgisi sanaladi va u faqat inson tovushlariga xos.

Tilshunoslik fani uchun vazifaviy tomoni muhim. Shuning uchun vazifaviy belgi lingvistik (tilshunoslik) belgi deb ham yuritiladi.

### **Tovushlarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari**

Nutq tovushlari bir qancha akustik va artikulyatsion (talaffuz) belgilariga ega. Bu belgilarning barchasi fonetika uchun muhim, chunki mazkur belgilarni to'la hisobga olgandagina u yoki bu tovushning xususiyatiga to'g'ri javob berilgan bo'ladi. Lekin fonologiya uchun yuqoridagi belgilarning ko'pchiligi muhim emas. **Fonologiya uchun faqat bir tovushni ikkinchi tovushga taqqoslaganda ularni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarigina ahamiyatli.**

Zidlanayotgan ikki birlikni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgilar **farqlovchi** belgilar, ularning har ikkisida takrorlanadigan, ikkisi uchun ham umumiy bo'lgan belgilar **birlashtiruvchi** belgilar sanaladi. Masalan, **t** va **d** tovushlarini olaylik. Birinchi tovush til oldilik, portlovchilik, jarangsizlik belgilariga, ikkinchisi esa til oldilik, portlovchilik, jaranglilik belgilariga ega. Bu ikki tovushning yuqoridagi belgilarini bir-biriga qiyoslasak, dastlabki ikki belgi (til oldilik, portlovchilik) har ikkisida takrorlanadi. Uchinchi belgi (jarangli – jarangsizlik belgisi) bilan esa ular bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra, birinchi va ikkinchi belgilar ular o'rtasidagi birlashtiruvchi belgilar, uchinchi belgi farqlovchi belgi hisoblanadi. Demak, **t** va **d** tovushlari hosil bo'lish o'rni (til oldilik) va hosil bo'lish usuliga (portlovchilik) ko'ra birlashtiruvchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra (jarangli – jarangsizlik) farqlovchi belgilarga ega. Fonemalarni belgilashda yaqin, o'zaro o'xshash tovushlarni bir-biriga zidlash va ular o'rtasidagi farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarni aniqlash katta ahamiyatga ega.

### **Tovush va fonema**

Tilshunoslik fanida tovush va fonema tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanish fan uchun juda muhim bo'lgan xususiylik va umumiylik munosabatini aks ettiradi. Biz nutqiy jarayonda bevosita tovushlarni eshitamiz. Masalan, *i* tovushini olaylik. U, avvalo, har bir shaxsning o'ziga xos talaffuzini o'zida namoyon qiladi. Shu bilan birga, so'zlar tarkibida **yondosh** tovushlar ta'siriga beriladi. Masalan, *tushib* so'zining ikkinchi bo'g'inidagi *i*

birinchi bo'g'indagi *u* ning ta'sirida *u* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. **Bilan, tilim, sira** so'zlari tarkibida esa *l* va *r* dan oldin kelgani uchun bilinar-bilinmas aytiladi. **Qilliq, qizliq** kabi so'zlar tarkibida til orqa tovush ta'sirida *u* ga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari, unga so'zlovchining qaysi shevaga mansublik belgisi qo'shiladi. Xullas, nutq jarayonida xilma-xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunga qaramay, ularning hammasida takrorlanadigan umumiy jihatlar bor: *torlik* belgisi va *lablanmaganlik* belgisi. Shu belgilari bilan *a* ga, *o* ga, *u* ga zidlanadi. Ana shu birlashtiruvchi belgilar ma'lum xususiylikni umumiyliklarga birlashtirishga yordam beradi. Umumiylik so'zlovchi va tinglovchilar xotirasida mavjud bo'ladi. Shuning uchun bu umumiylik turlicha talaffuz qilinishiga qaramay, so'zlovchi va tinglovchilar o'rtasida bir xil tushunishga olib keladi.

**Nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog'imiz bilan eshitgan eng kichik va boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan nutq parchasi *tovush* sanaladi.**

Bevosita kuzatishda bir necha tovushlar orqali talaffuz qilinuvchi so'z va uning ma'noli birliklarini shakllantirish hamda farqlash vazifasini bajarishga xoslangan, ketma-ketlik jihatidan boshqa mayda bo'lakka bo'linmaydigan eng kichik til birligi *fonemadir*.

Masalan, *tosh – tom* so'zlarini *sh* va *m* farqlaydi. Demak, *sh* va *m* alohida-alohida fonemalardir. Yoki *tosh – tesh* zidligida *o* va *e*; *tosh – qosh* zidligida *t* va *q* ma'noni farqlash uchun xizmat qiladi, shuning uchun ular ham mustaqil fonemalar sanaladi.

Tilning fonologik (fonetk) sathi birligi *fonema* bo'lsa, fonemaning real talaffuz qilingan, quloq bilan eshitilgan ko'rinishi *fon (allafon)* yoki *tovush* hisoblanadi.

### Fonemalar tasnifi

1. **B** va **a** fonemalarini bir-biriga solishtirsangiz, ular bir qator belgilari bilan farqlanganini ko'rasiz. Birinchidan, **b** fonemasini talaffuz etganda o'pkadan chiqayotgan havo oqimi labning labga tegishidan hosil bo'lgan **to'sliqqa urilib** uni yorib portlab chiqadi. **A** fonemasini talaffuz qilayotganda esa o'pkadan chiqayotgan havo hech yerda **to'sliqqa uchramaydi**. Demak, fonemalar o'rtasidagi birinchi farqlanish **to'sliqqa uchrash-uchramaslik belgisi** ekan.

2. **B** fonemasini talaffuz qilganingizda **shovqinga ovoz qo'shiladi**. **A** fonemasi esa faqat **ovozdan iborat**. Ko'rinadiki, **b** va **a** lar o'rtasidagi ikkinchi farqlovchi belgi **shovqin belgisidir**. Bu belgi **b** da bor, **a** da yo'q.

3. **A** so'z ichida kelib **bo'g'in hosil qiladi**. **B** esa bunday xususiyatga ega emas. Demak, fonemalarni farqlash uchun xizmat qiladigan belgilardan yana biri **bo'g'in hosil qilish-qilmaslikdir**.

Fonemalar bir-biridan o'pkadan chiqayotgan havoning og'iz bo'shlig'ida to'sliqqa uchrashi yoki uchramaslik belgisiga ko'ra, shovqinga ega yoki egamaslik belgisiga ko'ra hamda bo'g'in hosil qilish-qilmaslik belgisiga ko'ra



ikki turli bo'ladi: **unli fonemalar** va **undosh fonemalar**. Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farqlashdir.

### Unlilar tasnifi

O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay chiqishi natijasida hosil bo'ladigan faqat undan (ovozdan) iborat va bo'g'in hosil qiladigan fonemalar unli fonemalar deyiladi. Tilimizda 6 ta unli fonema bor: *a, o, e, o', u, i*.

Unlilar labning ishtiroki, og'izning ochilish darajasi (tilning ko'tarilish darajasi) va tilning yotqlik darajasiga ko'ra tasniflanadi.

#### I. Lablarning ishtirokiga ko'ra:

1) lablangan unlilar: *u, o'*.

2) lablanmagan unlilar: *i, e, a*.

Bu jihatdan *o* unlisi oraliq holatda qoladi.

#### II. Tilning yotqlik darajasiga ko'ra:

1) old qator unlilar: *i, e, a*;

2) orqa qator unlilar: *u, o', o*.

#### III. Og'izning ochilish darajasi belgisiga ko'ra:

1) tor unlilar (til o'rtasining tanglayga tomon yuqori ko'tarilishi natijasida hosil bo'ladi. Shuning uchun yuqori ko'tarilish yoki yuqori tor ham deyiladi): *u, i*;

2) o'rta tor yoki o'rta keng unlilar: *e, o'*;

3) keng unlilar (quyi ko'tarilish yoki quyi tor): *a, o*.

### Undoshlar tasnifi

O'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ining ma'lum bir joyida yoki bo'g'izda to'siqqa uchrashidan hosil bo'ladigan, shovqin ishtirok etadigan va bo'g'in hosil qilolmaydigan fonemalar undosh fonemalar deyiladi. Undosh tovushlarning hosil bo'lishida bo'g'iz bo'shlig'i, og'iz bo'shlig'i va til muhim ahamiyatga ega. O'pkadan chiqayotgan havo xuddi mana shu joylarda turli xil to'siqlarga duch keladi. Buning oqibatida esa undosh tovushlarning hosil bo'lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratiladi. Ba'zi hollarda unga jarang ham qo'shiladi.

Tilimizda 24 ta undosh fonema bor: *b, v, g, d, z, j, j, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h, ng*. Bu undosh tovushlardan *ng* yozuvda maxsus belgilar bilan berilmaydi.

Undosh tovushlar uch tomondan tasnif qilinadi:

#### I. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

1. *Lab undoshlari*: Talaffuzda lab ishtirok etgan tovushlar *lab tovushlari* deyiladi.

a) *lab-lab* undoshlari: *m, p, b*;

b) *lab-tish* undoshlari: *v, f*.

2. *Til undoshlari*. Tilning tish va tanglayga tegishidan hosil bo'lgan tovushlar *til tovushlari* deyiladi. Til qismlarining harakatiga ko'ra:

a) *til oldi* undoshlari: *t, d, s, z, ch, j, sh, l, r, n, z*;

b) *til o'rtta* undoshi: *y*;

d) *til orqa* undoshlari: *g, k, ng*;

e) *chuqur til orqa* tovushlari: *q, g', x*.

3. *Bo'g'iz undoshi*. O'pkadan chiqayotgan havoning bo'g'izda qisilishidan hosil bo'lgan tovush *bo'g'iz* undoshidir. Bo'g'iz tovushiga *h* kiradi.

4. *Burun undoshlari*. To'siqqa uchragan havoning burun orqali o'tishidan hosil bo'lgan tovushlar *burun tovushlaridir*. Burun tovushlariga *m, n, ng* undoshlari kiradi.

## II. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

1. *Portlovchilar*: *b, p, d, t, g, k, j, q, m, n, ng*.

2. *Sirg'aluvchilar*: *v, f, z, dj, s, y, r, l, sh, g', x, h*.

3. *Qorishiq*: *ch*.

## III. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

1. *Jarangli* undoshlar tarkibida shovqin bilan birga ma'lum darajada ovoz ham ishtirok etadi: *b, v, g, z, j, y, g', l, m, n, ng, r*.

2. *Jarangsiz* undoshlar ovoz mutlaqo qatnashmaydigan, faqat shovqindangina iborat bo'lgan tovushlardir: *p, f, k, t, s, ch, sh, q, x, h*.

8 ta jarangli undosh tovush jarangsiz juftiga ega. Qarang:

Jaranglilar: *b v d j dj z g g' y l m n r ng - -*

Jarangsizlar: *p f t ch sh s k q - - - - - x h*

Shuningdek, undoshlar tarkibiga ko'ra *sof* va *qorishiq*, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra *sonorlar* va *shovqinlilar* sifatida ham tasniflanadi. *Qorishiq* undoshlar bitta: *ch*. Qolgan barcha undoshlar tarkibiga ko'ra *sof* undoshlar hisoblanadi. *Sonorlar* (ovozdorlar) esa beshta: *l, m, n, ng, r*. Bular ichida *l* – yon tovush, *r* – titroq tovush.

*Nutq tovushlarining asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farqlashdir.*

## Fonema va harf

Biz nutqimizni yozma ravishda ham bayon qilamiz. Bunda yozma nutq harflar ketma-ketligidan tashkil topadi. Fonemaning yozuvdagi aksi harf deyiladi. Shuning uchun har bir tilda harflar shu tilning fonemalariga qarab olinadi. Bir fonemaga bir harf to'g'ri kelishiga harakat qilinadi. Harflarni xotirda yaxshi saqlash va lug'at tuzishda ma'lum izchillikka amal qilish maqsadida harflar muayyan tartibda joylashtiriladi. Muayyan tartibda joylashtirilgan harflar tizimi alifbo deyiladi. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosida har bir unli fonema alohida-alohida harflar orqali ifodalangan bo'lsa, undoshlarda fonemalarda ikki harf orqali ifodalash hollari uchraydi: *sh, sh, ng*. Bu holatning aksini ham kuzatishimiz mumkin. Ya'ni bir harf ikki tovushni ifodalaydi: *j* (*jo'ja, jajji, jijan*), *j* (*jurnal, jirafa, vijdon*). Tilimizda mavjud tovushlardan ikkitasi o'zlashma, ya'ni boshqa tillardan kirib kelgan: **j** va **f** (*jirafa, vijdon, fan, futbol* kabi).



## Bo'g'in va uning turlari

Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar birikmasi bo'g'in deyiladi. Bo'g'in unli tovushlar asosida hosil bo'ladi. Har bir bo'g'inda bitta unli qatnashadi, shuning uchun so'zda nechta unli bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'ladi. So'zning o'zak va qo'shimchalarga ajralishi bilan bo'g'inlarga ajralishi teng emas. Masalan, *go'sht-ni, barg-ga* so'zlarida o'zak va qo'shimchalar bilan bo'g'inlar teng kelayotgan bo'lsa, *go'sh-ti, bar-gi* so'zlarida teng emas.

Savod chiqarishda va yozuvda bo'g'in juda katta amaliy ahamiyatga ega. Bo'g'inni tashkil qilishda unli va undosh tovushlar xilma-xil shaklda bir-biriga qo'shiladi:

unli – undosh: *ol, uy, il...*

undosh – unli: *ha, ma, na...*

unli – undosh – unli: *ola, uka, ura...*

undosh – unli – undosh: *bir, til, kir...*

undosh – unli – undosh – unli: *vafo, qora, bola...*

undosh – unli – undosh – unli – undosh: *bodom, g'azab, lobar.*

O'zbek tilidagi so'zlar *kel, bur, suv* kabi bir bo'g'inli, *osmon, qadrdon, iqbol* so'zlaridek ikki bo'g'inli, *kelajak, xayolot, muhabbat* singari uch bo'g'inli, *yotoqxon, gumburlamoq, xoinona* kabi to'rt bo'g'inli, *radiokarnay, gultojixo'roz, abadiylashtirmoq* kabi besh va undan ortiq bo'g'inli bo'ladi.

Bo'g'inlar ikki turga bo'linadi: *ochiq bo'g'in* va *yopiq bo'g'in*. Unli bilan tugagan bo'g'in *ochiq*, undosh bilan tugagan bo'g'in *yopiq* bo'g'in hisoblanadi. Masalan: a) *ma-sa-la, ta-la-ba...*; b) *mak-tab, daf-tar...*

Unli bilan boshlangan bo'g'inlar **berkitilmagan bo'g'in**, undosh bilan boshlangan bo'g'inlar **berkitilgan bo'g'in** deyiladi. Masalan, *iq-bol* so'zining birinchi bo'g'ini **berkitilmagan**, ikkinchi bo'g'ini **berkitilgan**.

## Urg'u va uning turlari

So'z bo'g'inlaridan yoki gapda ishtirok etayotgan so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz etilishi *urg'u* deyiladi. Urg'u yordamida nutq ko'rkamlashadi. Urg'u so'zni gap tarkibida boshqa so'zdan ajratish hamda so'z fonetik tarkibini uyushtirish vazifasini bajaradi. Turkiy, jumladan, o'zbek tilida urg'u o'rniga ko'ra ko'chib yuruvchi urg'u sanaladi. Masalan, *o'rik – o'rikzór – o'rikzorlár – o'rikzorlarga*.

Ko'rinadiki, o'zbek tilida urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Biroq shunday grammatik shakllarimiz mavjudki, ular urg'u olmaydi:

1. **-cha**. Ravish yasovchi grammatik shakl: yangicha, eskicha, erkakcha. Ushbu qo'shimcha omonimlik xususiyatga ega bo'lib, erkalash-kichraytirish shakli bo'lgan holatlarda urg'u oladi: *uychá, kitobchá*.

2. **-tacha**. Chama son shakli: *beshtacha, o'ntacha*.

3. **-ma.** Fe'ning bo'lishsizlik shakli: o'qima, gapirma. Ushbu qo'shimcha omonimlik xususiyatga ega bo'lib, ot, sifat yasovchi shakl vazifasini bajar-ganida urg'u oladi: ol*má*, qaynat*má*.

4. **-dek, -day.** So'z sovchi grammatik shakl: gulday, nurdek.

### 5. Yuklamalar:

a) **-gina:** mengina, ukamgina. Omonim xarakterga ega bo'lib, erka-lash-kichraytirish shakli sifatida ishlatilganida urg'u oladi: qizgina, ukaginam;

b) **-ku:** keldi-ku, bordi-ku;

d) **-mi:** keldi-mi, oldi-mi;

e) **-da:** keldi-da, sezdi-da;

f) **-chi:** men-chi, ukam-chi. Omonim xarakterga ega bo'lib, so'z yasovchi grammatik shakl vazifasini bajargan holatda urg'u oladi: ishchi, gulchi;

g) **-dir.** Ushbu shakl yuklama vazifasini bajargan holatda ham, kesimlik shakli vazifasini bajargan holatda ham urg'u olmaydi: kelgandir, borgandir, kitobdir, oydir.

6. **-ov, -eva, -ev, -ova.** Shaxs nomlarini shakllantiruvchi grammatik shakl-lar: Maqsudov, Muslimova.

7. **-man, -san, -dir, -miz, -siz, -lar.** Kesimlik shakllari, ya'ni bog'lamalar: o'quvchiman, baxtlisan.

8. **Sari, sayin, kabi, uzra, qadar, haqida, yanglig', bilan, tufayli, uchun.** Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Urg'u sof ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Masalan, *osmón uzra*.

O'zbek tiliga arab, fors-tojik, rus va boshqa yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlarda urg'u barqaror o'ringa ega. Bu urg'uning o'sha tillardagi ahamiyati bilan bog'liqdir. Masalan, tadbir, monitoring, reklama, tijorat, ma'lum, ba-hor va hokazo. Bunday so'zlarga qo'shimchalar qo'shilsa ham, urg'u o'rnini o'zgartirmaydi. Mazkur holatni quyidagi so'zlarda ham uchratish mumkin: *dóim, gazéta, hámma, mumkín, ammó, albátta, áсло, állakim, konstitútsiya, óyday, óbraz, hamísha, rádío*.

Urg'u 2 xil bo'ladi:

1. So'z urg'usi (leksik urg'u).

2. Gap urg'usi (frazaviy urg'u, ma'no urg'usi, logik urg'u, mantiqiy urg'u).

So'z bo'g'inlaridan birining boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishi *so'z urg'usi*, gap tarkibidagi so'zlardan birining boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishi *gap urg'usi* yoki *mantiqiy urg'u* (*ma'no, frazaviy*) deyiladi.

So'z urg'usi semantik vazifa (ma'no farqlash) bajaradi.

akadémik – ot, ilmiy unvon	akademik – sifat, akademik litsey
bog'lar – ot	bôg'lar – fe'l (bog'laydi)
etik – ot	étik – sifat
átlas – ot (xarita)	atlás – ot (mato)
hózir – sifat	hozir – ravish



yángi – sifat	yangi – ravish
botín – ot	bótin – fe'l
bandá – ot (Allohning bandasi)	bánda – ot (asir)
otíng – ot	óting – fe'l
shaharchá – ot	shahárcha – ravish
changú – ot	chángi – fe'l
tóza – sifat	tozá – raivsh
tortmá – ot	tórtma – fe'l
olmá – ot	ólma – fe'l
téxník – ot	texnik – sifat

Ma'no urg'usi ma'lum bir so'zning boshqalariga nisbatan ta'kidlab, ajratib aytilishini ta'minlaydi. Ma'no urg'usi, asosan, kesimning oldida turadi. Masalan: *Kecha akam Farg'onadan Toshkentga samolyotda keldi.* (to'ldiruvchi) *Kecha akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga keldi.* (hol – Toshkentga) *Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg'onadan keldi.* (hol – Farg'onadan) *Akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga kecha keldi.* (hol – kecha) *Kecha samolyotda Farg'onadan Toshkentga akam keldi.* (ega – akam)

**Ma'no urg'usi quyidagi so'zlarga tushishi doimiy holat sanaladi:**

- ajratilgan bo'lak;
- so'roq olmoshi;
- kesim oldidagi so'z;
- undalma nutq jarayoniga jalb qilingan holda;
- kirish so'zlar.

### Ohang va uning nutqdagi ahamiyati

Og'zaki nutq oqimi bo'linuvchanlik xususiyatiga ega tovushlar ketma-ketligidan iborat. ***Bunday bo'linuvchanlik xususiyatiga ega tovushlar qatori segment birliklar qatori hisoblanadi.*** Lekin og'zaki nutqimiz faqat segment birliklardangina tashkil topmaydi. Bundan tashqari, ketma-ket joylashgan va bo'linuvchanlik xususiyatiga ega tovushlar qatori ustiga qo'yilgan ustsegment birliklarga ham ega bo'ladi, mazkur birliklar nutqimiz ta'sirchanligini ta'minlaydi.

***Ustsegment birliklar urg'u, to'xtam (pauza), nutqning emotsional bo'yog'i (darak, so'roq, buyruq, his-hayajon va boshqalar) kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqorida ko'rsatilgan ustsegment birliklarning jami nutq ohangini tashkil etadi.*** Qarang: «*Eng buyuk jihod: insonning nafsi bilan: shayton bilan qilgan: jihodidir: Sen ham: doim: ularga qarshi kurash*». Bu gap 7 ta sintagmadan iborat.

Og'zaki nutqimiz esa segment birliklar bilan ustsegment birliklarning o'zaro munosabatidan iborat. Ko'pincha bunga imo-ishoralar, mimikalar qo'shib nutqimizning yanada ta'sirli, bo'yoqdor bo'lishiga xizmat qiladi.

## GRAFIKA

### O'zbek yozuvi tarixi

Boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi ham o'tmishda bir qancha yozuv tur-laridan foydalangan. Avesto, o'rxun-enasoy, sug'd, xorazm, uyg'ur yozuvlari shular jumlasidandir. Bu yozuvlarda xalqimiz tarixi, urf-odatlari, madaniyati va san'atiga aloqador qimmatli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

O'zbek xalqi 1930-yilga qadar bir necha yuz yillar davomida arab grafi-kasiga asoslangan turkiy yozuvdan foydalanib kelgan. Abu Ali ibn Sinoning tabobatga oida bebaho asarlaridan tortib Navoiy, Bobur, Lutfiy, Mashrab, Fur-qat, Fitratning aql bovar qilmas go'zal satrlari aynan ana shu yozuvda bitilgan.

1930-yildan 1940-yilga qadar xalqimiz lotin yozuvidan foydalangan. 1940-yilning may oyidan boshlab esa rus grafikasiga asoslangan o'zbek yo-zuvi amalda tatbiq etildi. 1993-yil 2-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikas-ining «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

1995-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asos-langan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kirit-ish haqida»gi Qonuni e'lon qilindi. Yangi tahrirdagi qonunga ko'ra, o'zbek alifbosidagi 31 harf va 1 tutuq belgisi 26 ta harf va 3 harflar birikmalariga almashtirildi.

### Hozirgi alifboda unllarning ifodalanishi

Hozirgi o'zbek adabiy tili fonetik jihatdan markaziy dialektlarga asoslana-di. Mazkur dialektlarda 6 ta unli fonema bor.

Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga ham 6 ta unli harf kiritilgan: A a, I i, O' o', E e, O o, U u.

Kirill alifbosidagi ye, yo, yu, ya unli harflari yangi alifboda quyidagicha ifodalanadi:

Ye – ye: yetti, yelkan, yemish;

Yo – yo: yolg'iz, yoqut, yomon;

Yu – yu: yutuq, yumush, yupqa;

Ya – ya: yaxshi, yakka, yangi.

### Hozirgi alifboda undoshlarning ifodalanishi

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush bor. Yangi alifboda ular 20 ta harf va 3 ta harflar birikmasi bilan ifodalanadi.

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Bb, Dd, Ff, Gg, Hh, Jj, Kk, Ll, Mm, Nn, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Vv, Xx, Yy, Zz, G'g' harflari uchun xalqaro andazadagi belgilar olingan.



Sh, Ch, Ng tovushlari uchun quyidagi harflar birikmasi olingan: Sh sh, Ch ch, Ng ng.

Ruscha baynalmilal so'zlardagi s harfini ifodalash uchun Ss harfi ishlatiladi: sirk, sensor, sikl.

Bunday so'zlarda s unidan keyin kelganida bitta t orttiriladi: litsey, militsiya.

### Fonetik o'zgarishlar

Nutq jarayonida tovushlarni ketma-ket keltirish yo'li bilan turli xil ma'no'li birliklarni hosil qilamiz. Masalan, t-o-sh, b-o-sh, q-o-l. Yuqoridagi so'zlar tarkibidagi tovushlar alohida-alohida emas, balki uzluksiz talaffuz qilinadi, so'zlar uzluksiz talaffuz qilinganida uning tarkibidagi bir tovush hali to'liq talaffuz qilinmay turib nutq a'zolari ikkinchisiga tayyorlanib turadi. Natijada tovushlar zanjiri vujudga keladi. Talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjirida turli fonetik o'zgarishlar ro'y beradi. Masalan, *oq* so'zi asosiga *-gach* qo'shimchasini qo'shsak, asos oxiridagi chuqur til orqa *q* dan so'ng til orqa *g* undoshi kelib chuqur til orqa tovushidan til orqa tovushiga birdaniga o'tishi qiyinlashadi. Talaffuz noqulayligi vujudga keladi. Ana shu noqulaylikni bartaraf etish, qulaylikka erishish uchun ikkinchi tovush ham chuqur til orqa tovushiga aylantiriladi. Solishtiring: *oqqach*, *ekkani* kabi.

Nutq jarayonida talaffuz qulayligiga erishish harakati tufayli ketma-ket ke- layotgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida o'zgarishlarga uchrashi fonetik hodisalar deyiladi. Fonetik hodisalar unilarga ham, undoshlarga ham taalluqli.

O'zbek tili agglyutinatív til sanaladi. Agglyutinatív tilning muhim xususiyatlaridan biri shuki, so'zga qo'shimchalar qo'shilganida ham so'zning tovush tarkibi o'zgarmaydi. Biroq shunday holatlar mavjudki, asosga grammatik shakl qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish kuzatiladi. O'zbek tilida asosan 3 fonetik o'zgarish kuzatiladi:

1. **Tovush tushishi.** Asosga grammatik shaklning qo'shiluvi natijasida bir tovushning talaffuz hamda yozuvda tushib qolishi hodisasi tovush tutishi deyiladi. Tovush tushishi unli fonemaga ham undosh fonemaga ham tegishli. a) so'z yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush tushishi sodir bo'ladi: *qiyin + a = qiyna*, *past + ay = pasay*, *ayir + im = ayrim*, *buyur + uq = buyruq*, *yig'i + la = yig'la*, *qizil + ar = qizar*, *sariq + ay = sarg'ay*, *og'iz + aki = og'zaki...*; b) sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush tushishi sodir bo'ladi: *men + ni = meni*, *sen + ning = sening*, *shahar + i = shahri*, *qorin + im = qornim*, *mag'iz + i = mag'zi*, *ko'ngil + i = ko'ngli...*; d) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush tushishi sodir bo'ladi: *men + niki = meniki*, *qayir + il = qayril*, *ayir + il = ayiril*, *ikki + ala = ikkala*, *yetti + ov = yettov*, *olti + ovlon = oltovlon...*

2. **Tovush almashishi.** Asosga grammatik shaklning qo'shiluvi natijasida bir tovushning boshqa tovushga almashishi tovush almashishi hodisasi deyiladi.

ladi. Tovush almashishi unli, undosh fonemaga ham tegishli: a) so'z yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush almashishi sodir bo'ladi: *son + a = sana, ong + la = angla, qiyna + q = qiynoq, sayra + qi = sayroqi, hayda + vchi = haydovchi, yosh + a = yasha, yosh + ar = yashar...*; b) sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush almashinishi sodir bo'ladi: *terak + i = teragi, tirnoq + im = tirnog'im, qishloq + ing = qishlog'ing...*; d) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush almashishi sodir bo'ladi: *kelar + ma = kelmas, o'qi + v = o'quv...*

**3. Tovush ortishi.** Asosga grammatik shaklning qo'shiluvi natijasida bir tovushning talaffuz hamda imlododa ortishi tovush ortishi hodisasi deyiladi. Tovush ortishi hodisasi unli, undosh fonemaga ham tegishli: a) so'z yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush ortishi sodir bo'ladi: *isi + q = issiq, sasi + q = sassiq, qot + iq = qattiq, shu + day = shunday, his + iy = hissiy, shar + os = sharros, achi + iq = achchiq*; b) sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush ortishi sodir bo'ladi: *shu + im = shunim, o'sha + ing = o'shanning, u + ga = unga, bu + dan = bundan, parvo + ing = parvoying, mavqe + im = mavqeyim*; d) lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiluvi natijasida tovush ortishi sodir bo'ladi: *de + il = deyil, ye + il = yeyil, de + ish = deyish.*

Asosdagi bu kabi fonetik hodisalar agglyutinativ til xususiyatiga yod. Mazkur holat flektiv tillarning ta'siri natijasida sodir bo'lgan. Bu esa tilimizda flektiv tillarga xos xususiyatlar uchrashidan dalolat beradi. Bu kabi holatlar **fuziya (fleksiya)** hodisasi deyiladi.

Biz yuqorida kuzatgan fonetik hodisalar adabiy til me'yorlari asosida amalga oshdi. Biroq shunday fonetik hodisalar mavjudki, bu hodisalar faqat talaffuz doirasida sodir bo'ladi.

**1. Assimilyatsiya** – «moslashtirib olmoq» degan ma'noni anglatadi. Talaffuzda bir noo'xshash tovush oldingi yoki keyingi tovush ta'sirida o'xshash tovushga moslashadi. Bu moslashish 2 xil yo'l bilan amalga oshadi: a) progressiv assimilyatsiya – oldingi tovushning ta'sirida keyingi tovush moslashadi: *ketdi – ketti, itdan – ittan, otdan – ottan*; b) regressiv assimilyatsiya – keyingi tovush ta'sirida oldingi tovush oldingi tovushga moslashadi: *sezsin – sessin, tuzsiz – tussiz, manman – mamman, shanba – shamba.*

**2. Dissimilyatsiya** – «noo'xshashlik» degan ma'noni bildiradi. Bu fonetik o'zgarishda ikki o'xshash tovush ta'sirida o'xshash tovushlarning noo'xshash tovushlarga aylanish holati kuzatiladi. Bu moslashish 2 xil yo'l bilan amalga oshadi: a) progressiv dissimilyatsiya – oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush o'zgaradi: *zarur – zaril, zarar – zaral, birorta – bironta*; b) regressiv dissimilyatsiya – keyingi tovushning ta'sirida oldingi tovushning o'zgarishi: *ushta (uchta), maxtanchoq (maqtanchoq).*

**3. Metateza** – nutqda yonma-yon kelgan ikki undosh tovushning o'rin almashish holati kuzatiladi. Bu holat metateza hodisasi deyiladi: *tuproq – turpoq, yomg'ir – yog'mir, daryo – dayro, sariyog' – sayroq, aylanmoq – aynalmoq.*



## ORFOGRAFIYA

**Orfografiya** (yunoncha, «orfo» – «to'g'ri», «grafo» – «yozaman») to'g'ri yozish me'yorlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi sanaladi. Nutqimizda shunday so'zlar uchraydiki, ularning talaffuz va yozuv shakllari muvofiq kelmaydi. Bunday so'zlar adabiy til me'yorlariga muvofiq yozilishi kerak. Bu kabi so'zlar quyidagi yozuv tamoyillari asosida yoziladi:

**1. Fonetik tamoyil.** Bu yozuv tamoyili qanday talaffuz qilinsa, shunday yozilishi qoidasiga asoslanadi. Ya'ni asosga grammatik shakllarning qo'shiluvi natijasida sodir bo'ladigan fonetik o'zgarishli so'zlar ayni shu yozuv tamoyili asosida yoziladi: *qaynoq, sana, angla, pasay, susay, qizar, qiyna, so'roq, sayroqi, o'quv, qishloqqa, teragi, mavqeyim, bulog'i, shunga, meni, seniki, ayrim, qayril, ikkov, o'shancha, shunday, issiq, qattiq, deyilmoq, og'zaki, ekani, chiqqan...*

**2. Morfologik tamoyil.** Bu yozuv shaklida, so'zlar fonetik yozuv tamoyilining aksi qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, adabiy til me'yorlari asosida yoziladi: *savob, otdan, tort, ommaviy, afzal, avtobus, afv, omonim...*

**3. Shakliy tamoyil.** Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ayni shu tamoyil asosida yoziladi: *teatr, stol, shkaf, kompyuter...*

**4. Tarixiy-an'anaviy tamoyil.** Bu yozuv tamoyilida so'zning tarixiy shakli qanday bo'lsa, bugungi kunda ham o'sha shakli yozilishini taminlaydi: *Ena-soy – Yenisey, Ovro'pa – Yevropa, Olmoniya – Germaniya.* Ikki xil yozilish shakliga ega so'zlar ham ayni shu tamoyil asosida yoziladi: *kaptar – kabutar, podshoh – podsho, varaq – varoq, machit – masjid, shabada – shabboda...*

**5. Farqlash tamoyili.** Tutuq belgisi hamda urg'u yordamida farqlanuvchi so'zlar ayni shu yozuv tamoyili asosida yoziladi: *san'at – sanat, qal'a – qala, sur'at – surat, kó'zlar – ko'zlár, ólma – olma.*

### O'zbek tilining imlo qoidalarini

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos belgisi sanaladi. So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma'noda har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.

Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yili tasdiqlangan.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqishga qulay imkoniyat yaratdi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi bu jarayonni tezlashtirib yubordi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-avgustda 339-sonli «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi.

## 1. Harflar imlosi:

a) unlilar imlosi (1 – 7-bandlar);

b) undoshlar imlosi (8 – 32-bandlar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33 – 37-bandlar).

3. Qo'shib yozish (38 – 50-bandlar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51 – 56-bandlar).

5. Ajratib yozish (57 – 65-bandlar).

6. Bosh harflar imlosi (66 – 74-bandlar).

7. Ko'chirish qoidalari (75 – 82-bandlar).

## Unlilar imlosi

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

*A a* harfi *savol, zamon, bahor* so'zlarida «*o*» kabi aytilsa ham, har vaqt «*a*» yoziladi.

*O o* harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda «*a*» singari talaffuz etiladi, biroq hamisha «*o*» yoziladi: *kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist va h.k.*

*Shuningdek, o ba'zan o'* kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir «*o*» yoziladi: *tonna, noyabr, boks, tort va h.k.*

*I i* harfi *bilan, bilim, til, tilak, har xil, qism* kabi so'zlarda qisqa aytiladi va «*i*» yoziladi, *badiiy, ommaviy, Lutfiy* singari so'zlarda «*i*» cho'ziq aytiladi, lekin doimo «*i*» yoziladi.

*U u* harfi *yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun* kabi so'zlarda «*i*»ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan «*u*» yoziladi.

*O' o'* harfi *o'zbek, o'lka, o'simlik* kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

*E e* harfi *e'lon, ehtirom, fe'l, bermoq, meros, mone, tole, kofe* kabi so'zlarda old qator, o'rta-keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

«*Ye*», «*yo*», «*yu*», «*ya*» harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:

*ye*: yetti, yetmish, yetim; *yo*: yolg'iz, yomon, yong'oq; *yu*: yulduz, yumshoq, yumuq; *ya*: yakka, yangi, yaroqsiz.

*Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean* singari so'zlar talaffuzida unlilar orasida «*y*» undoshi qo'shib aytilsa ham, yozuvda aks ettirilmaydi.

*Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot* kabi so'zlar o'rtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

## Undoshlar imlosi

1. «*B*» tovushi *borib, javob, hisob, bob, xitob* kabi so'zlarda «*p*», *qibla, tobla* so'zlarida «*v*» tarzida aytilsa ham, «*b*» yoziladi.

2. *Avtomat, avtobus, avtomobil* kabi so'zlarda «*v*» tovushi «*f*» tarzida talaffuz qilinsa-da, doimo «*v*» yoziladi.



3. *Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl* singari so'zlarda «f» tovushi «p» kabi aytiladi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim «f» yoziladi.

4. *Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot* kabi so'zlarda «d» tovushi «t» tarzida aytilsa-da, har vaqt «d» yoziladi.

5. *Iztirob, tuzsiz, bo'zchi* so'zlarida «z» tovushi «s» kabi aytiladi, biroq asliga mos ravishda «z» yoziladi.

6. *J j* harfi *jon, jahon, juma, g'ijjak, vaj* so'zlarida til oldi, jarangli, portlovchi «j», *jurnal, ajdar, garaj, tiraj* so'zlarida esa til oldi, jarangli, sirg'aluvchi «dj» undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. *Sh sh* harfi *shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh* kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. *Sh* harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

8. *Ch ch* harfi *chumoli, choy, achchiq, soch* kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. *R r* harfi *rahmat, rahm, diyor*; *L l* harfi *lola, bol, olmoq*; *Nn* harfi *non, ona, osmon*; *G g* harfi *gul, ega, eg*; *K k* harfi *kam, ikki, tok*; *Y y* harfi *yetti, yuz, dunyo, toy*; *Ng ng* harfi *ko'ngil, tong, ong*; *Q q* harfi *qizil, oq, aql*; *G' g'* harfi *g'oz, og'a, tog'*; *X x* harfi *xalq, axborot, baxt*; *H h* harfi *hamma, hosil, ehson, isloh* kabi so'zlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. *Farzand, band, poyezd* so'zlaridagi «d» undoshi, *go'sht, past, artist* so'zlaridagi «t» undoshi talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, *metall, kilovatt, kongress* kabi so'zlar oxiridagi qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham, yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi *a'lo, ta'lim, e'lon, she'r, fe'l* kabi so'zlarda unlikdan keyin kelib uning cho'ziqroq aytilishini ta'minlaydi.

13. *Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda *o'* unlisi cho'ziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qo'yilmaydi.

14. *San'at, in'om, mas'ul* kabi so'zlarda unlikdan oldin qo'yilib uning undosh tovushdan ajratib aytilishini ta'minlaydi.

### Asos va qo'shimchalar imlosi

1. *A a* harfi bilan tugagan fe'llarga *-v, -q, -qi* qo'shimchalari qo'shilganida *a* unlisi *o* aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, qayna – qaynoq, sayra – sayroqi*.

Shuningdek, *o'qi – o'quvchi, sovi – sovuq, to'qi – to'quvchi* so'zlarida *i* unlisi *u* ga aylanishi mumkin.

2. *K, k* harfi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ular *g* va *g'* ga aylanadi: *yurak – yuragi, bilak – bilagim, tilak – tilagim; buloq – bulog'im, quloq – qulog'ing, qishloq – qishlog'i* kabi. *Erki, ishtiroki, huquqi, ravnaqi* singari so'zlarda bunday holat kuzatilmaydi.

3. *Singil, o'rin, ko'ngil, o'g'il, shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi, *qayir, ayir* so'zlariga nisbat yasovchi qo'shimcha, *ikki, olti, yetti* so'zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilsa, asosda tovush tushishi ro'y beradi.

4. *U, shu, o'sha* kabi olmoshlarga *-da, -dan, -day, -dagi, -dosh, -cha* qo'shimchalari qo'shilsa, bitta *n* orttiriladi, aksincha, *men, sen* olmoshlariga *-ni* va *-ning* qo'shimchalari qo'shilsa, bitta *n* tushirib qoldiriladi: *bunda, shundan, o'shancha, meni, sening* kabi.

5. *Parvo, obro', mavqe* so'zlariga egalik qo'shimchalari (I va II shaxsda) qo'shilsa, bitta *y* tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *parvoyi, obro'yim, mavqeyim* kabi.

6. *-boz, -bon* qo'shimchalari *-voz, -von* kabi aytilsa-da, doimo asl shakli bo'yicha yoziladi: *dorboz, bog'bon* kabi.

7. *-dir* nisbat yasovchi qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi: *yondir, bordir, quvdur* kabi (kel so'zi bundan mustasno), qolgan o'rinlarda *-tir* shaklida aytiladi va shunday yoziladi: *ektir, quyultir, kestir* kabi.

8. *-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina* qo'shimchalari uch xil aytiladi va yoziladi: *ertaga, ertagacha, borgach, borguncha, borgudek, borgan; eshikka, eshikkacha, chiqqach, chiqquncha, chiqqani* kabi.

**Eslatma:** *bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* so'zlari bunga kirmaydi.

### Qo'shib yozish

1. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qabulxona, tabriknoma, taklifnoma, bedapoya, ommabop, xushxabar, hamsuhbat, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab*.

2. *-(a)r* (inkori *-mas*) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

3. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

4. Narsani boshqa biror narsaga nisbatlash, o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, devqomat, sheryurak, bodomqovoq, qirg'iyko'z* kabi.

5. Narsalarning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganini bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, oshrayhon, molqora, nosqovoq, ko'zoynak* kabi.

6. Narsani uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi kabi belgilari asosi-



da bildiruvchi qo'shma otlar qo'shib yoziladi: *olaqarg'a, qizilishton, achchiq-tosh, mingoyoq* kabi.

7. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi: *Yangiyo'l, To'rtko'l, Mirzaobod, Xalqobod*.

8. Ruscha, baynalmilal yoki tarjima qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi: *telestudiya, fotoapparat, radioto'lqin, elektrarra* kabi.

9. Qisqartma so'zlar har doim qo'shib yoziladi: *O'zMU, ToshDPU*.

### Ajratib yozish

1. Qo'shma fe'llar, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari har doim ajratib yoziladi: *kirib chiqdi, olib keldi, oshkor etdi, aytib qo'ya qoldi, o'qib chiqdi*.

2. *Har, hech, bir, u, shu, o'sha, hamma* kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi: *har kim, hech narsa, bir zum, bu yerda, o'sha joyda, hamma vaqt* kabi.

3. Ko'makchilar o'zi bog'langan so'zdan ajratib yoziladi: *Vatan uchun, siz bilan, shahar tomon*.

**Eslatma:** *bilan* va *uchun* ko'makchilarining qisqargan *la* va *chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *onam-la, sen-chun* singari.

1. Sifatning orttirma darajasini yasovchi *to'q, och, tim, tang, jiqqa* kabi so'zlar ajratib yoziladi: *tim qora, och ko'k, to'q sariq* kabi.

1. Qo'shma sonlar ajratib yoziladi: *o'n to'qqiz, bir yuz yigirma besh, ikki ming birinchi* va hokazo.

2. *Yildan yilga, kundan kunga* kabi ko'rinisdagi birliklar ham ajratib yoziladi.

3. *Nuqtayi nazar, tarjimayi hol, dardi bedavo* kabi izofali birikmalar ham ajratib yoziladi.

### Bosh harflar imlosi

1. Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusi bosh harf bilan yoziladi: *Alisher Navoiy, Anvar Muhammadiyev, G'ulom Alimov Aminovich, Abdurauf Fitrat* kabi.

2. Mamlakatlar, shaharlar, qishloqlar, shaharchalar, daryo, dengiz, tog', tepa, adir nomlari ham bosh harf bilan yoziladi: *Hindiston, Muborak, Qo'ng'irtog', Qashqadaryo, Qora dengiz* va h.k.

3. Korxonalar, tashkilot, muassasa nomlari, adabiyot va san'at asarlari, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalarining nomlari bosh harf bilan yoziladi: *«Malika» firmasi, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, «O'z-qishloqxo'jmashxolding» kompaniyasi, «Damas» avtomobili, Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Xorazm chanqovbosti ichimliklar zavodi, Qizilqum kombinati, «Amudaryo» jurnali, «Shaytanat» asari* va h.k.

4. Muhim tarixiy sanalar va bayramlar nomi bosh harf bilan yoziladi:

*Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Xotira kuni.*

5. Oliy darajadagi davlat tashkilotlari, xalqaro birlashmalar nomidagi har so'zning ilk harfi bosh harf bilan yoziladi: *O'zbekiston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Yevropa Ittifoqi Kengashi* kabi.

6. *Mudofaa vazirligi, Davlat test markazi, «Umid» jamg'armasi, Xususiy mulkdorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi* kabi tashkilotlar nomining birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi.

7. Oliy darajadagi unvonlar va mukofotlar nomi tarkibidagi so'zlar har biri bosh harflar bilan yoziladi: *«O'zbekiston Qahramoni» unvoni, «Oltin Yulduz» medali.*

Shuningdek, *«Sog'lom avlod uchun» ordeni, «Shuhrat» medali* singari mukofotlarning birinchi so'zi bosh harf bilan yoziladi.

8. Har bir gap bosh harf bilan boshlanadi: *Har qanday intilish, izlanish, ijod xalq manfaatlariga xizmat qilsagina u qadrlidir. (A.Oripov)*

### Chiziqcha bilan yozish

1. Juft so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *yaxshi-yomon, o'y-xayol, ota-ona, sekin-asta, yosh-qari, katta-kichik, orzu-umid.*

2. Juft so'z qismlari orasida *-u, -yu* yuklama-bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z ajratib yoziladi: *ota-yu ona, mehr-u oqibat, kecha-yu kunduz.*

3. Orttirma darajadagi sifatlar qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *to'ppa-to'g'ri, qip-qizil, yam-yashil, dum-dumaloq.*

4. *Uyma-uy, dam-badam, oyma-oy* singari so'zning *-ma, ba-* qo'shimchalari yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi.

5. Yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi; *-chi, -a, -ya, -ku, -da* kabi yuklamalar chiziqcha bilan yozilsa, *-gina, -mi, -oq, -yoq* kabi yuklamalar qo'shib yoziladi: *sen-chi, keldim-ku, men-a, keldi-da, menmi, ugina, keliboq.*

6. Tartib sonlar arab raqamlari bilan yozilsa, chiziqcha bilan yoziladi: *9-sinf, 6-xona, 1016-yil.*

7. Rim raqamlaridan so'ng chiziqcha ishlatilmaydi: *XX asr, V sinf* kabi.

### Bo'g'in ko'chirish qoidalari

1. Satrga sig'may qolgan so'zlar keyingi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi: *tad-birkor, tadbir-kor, kol-lej, ma'-lum, ta'-lim* kabi (tutuq belgisi birinchi bo'g'inida qoldiriladi).

2. So'z boshida kelgan yolg'iz unli hech vaqt yakka o'zi qoldirilmaydi: *e'-lon* emas, *e'lon*, *u-ka* emas, *uka*, *mudofa-a* emas, *mudo-faa* singari.

3. So'z tarkibida ikki undosh yonma-yon kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafi-ya, foto-grafiya* kabi.



4. *Sh, ch, ng* harflar birikmasi doim birgalikda yoziladi: *ko-shona, pu-chuq, de-ngiz* kabi.

5. Qisqartma so'zlar, yil, oy, raqam bilan yozilgan sonlar keyingi qatorga ko'chirilmaydi: *O'zMU, ToshDPU, 2001, 19, XX* kabi.

6. *10-«A» sinf, 26-uy, 100 gr, 25 sm, 10 mm* kabi ko'rinishdagi birikmalar ham bir-biridan ajratilmaydi.

### O'zbek alifbosi

Harfning ma'lum bir tartibda joylashuvi **alifbo** deyiladi. Alifbo so'zi arab yozuvidagi harflar tartibining birinchi va ikkinchi harflari *alif* hamda *bo* (be) nomlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan. Hozirgi o'zbek alifbosi lotin yozuviga asoslanganligi tufayli **lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi** deyiladi.

<b>Aa</b>	<b>Bb</b>	<b>Dd</b>	<b>Ee</b>	<b>Ff</b>	<b>Gg</b>	<b>Hh</b>	<b>Ii</b>
<b>Jj</b>	<b>Kk</b>	<b>Ll</b>	<b>Mm</b>	<b>Nn</b>	<b>Oo</b>	<b>Pp</b>	<b>Qq</b>
<b>Rr</b>	<b>Ss</b>	<b>Tt</b>	<b>Uu</b>	<b>Vv</b>	<b>Xx</b>	<b>Yy</b>	<b>Zz</b>
<b>O'o'</b>	<b>G'g'</b>	<b>Sh sh</b>	<b>Ch ch</b>	<b>Ng ng</b>			

## ORFOEPIYA (TALAFFUZ) VA IMLO

Og'zaki nutqda bir necha xil talaffuz qilinuvchi tovush, qo'shimcha va so'zlardan adabiy tilga qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yorini sanaladi. *To'g'ri talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi* tilshunoslik bo'limiga *orfoepiya* (yunoncha, «orfo» – «to'g'ri», «epos» – «so'zlamoq, nutq») deyiladi.

### Unli tovushlar talaffuzi va imlosi

#### A unlisining talaffuzi va imlosi

**A a** harfi lablanmagan, til oldi, keng unli tovushni ifodalaydi. Bu unli yumshoq o'zakdagi til orqa **k, g** va boshqa til oldi undoshlari bilan yonma-yon kelganida old qator ochiq tovush sifatida aytiladi: *aka, man, olam, kalla, gala* kabi.

Lekin chuqur til orqa **q, g', x** undoshlaridan so'ng kelganida orqa qator unlilik aytiladi va asliga muvofiq yoziladi: *qand, qarz, g'aliz, xamir, xat* kabi.

**A a** harfini to'g'ri yozishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

– *bahor, zamon, palov, tamom* kabi so'zlarda **a** unlisi **o** ga moyil aytilsa ham, **a** yoziladi;

– *mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli, taajjub* kabi so'zlarda cho'ziq talaffuz qilinadi va **a** yoziladi;

– *disk, bank, tank, stolb* kabi rus tili orqali o'zlashgan so'zlarning oxiri qo'sh undosh bilan tugagani sabab o'zbek tilida bu so'zlarga **a** qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *diska, banka, tanka, stolba*;

– *xavf, gavda, navbat, vafo, varaq* kabi so'zlarda **v** undoshi bilan yonma-yon kelganida **o** ga moyil aytilsa ham, asliga ko'ra **a** yoziladi;

– ayrim ruscha o'zlashma so'zlarda **ya** undoshi **a** aytiladi va yoziladi: *sentabr, oktabr, flaga* kabi.

#### O unlisining talaffuzi va imlosi

**O o** harfi lablangan, til orqa keng unli tovushni ifodalaydi. Yondosh tovushlardan qat'i nazar, so'zlarning barcha bo'g'inlarida kelib cho'ziq unli sifatida talaffuz qilinadi va asliga ko'ra yoziladi: *ona, bobo, nom, havo, oq, qoramol* kabi. O'zlashma so'zlarda **u** yoki **o'** bilan **o** o'rtasida aytilsa ham, **o** tarzida yoziladi. Masalan, *opera, tonna, noyabr, bolt, nota, rol, tok (elektr)* kabi.

Ba'zi so'zlarning urg'usiz bo'g'inlarida **o** unlisi **i** kabi talaffuz qilinsa ham, **o** yoziladi: *traktor, direktor, ekspeditor, kartoshka* kabi.

Qo'shimchalar qo'shilishi natijasida **o** tovushi imlosiga oid quyidagi o'zgarishlarga diqqat qiling: *parvo, avzo* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilganida bir **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoyingiz, parvoying, parvoyi, avzoyimiz, avzoyingiz, avzoyi* kabi.



Fe'l asosli so'zlardan ot yoki sifat yasovchi *-v, -q, -qi* qo'shimchalari **a** unlisi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganida **a** tovushi **o** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *sina + v = sinov, sayla + v = saylov, tara + q = taroq, sayra + qi = sayroqi* kabi.

### I unlisining talaffuzi va imlosi

**I (I)** harfi lablanmagan, til oldi, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi. **I** tovushi *tilak, bir, tish, dil* kabi so'zlardagi qisqa **I** unlisi o'rnida; *mohir, shoir, ilmiy, adabiy, lirika* kabi so'zlarning urg'uli bo'g'inidagi cho'ziq **I** o'rnida; *qish, qir, g'ilof, xizmatchi, xil* kabi so'zlarda chuqur til orqa **q, g', x** tovushlari bilan yonma-yon keladigan qisqa hamda qattiq **I** unlisi o'rnida va rus tilidan o'tgan *vimpel, bilina, vishka, richag* kabi so'zlardagi ruscha **ы** unlisi o'rnida yoziladi.

So'z o'zagining ochiq bo'g'inida **l, e, a** unllaridan biri kelsa, keyingi yopiq bo'g'inda **I** yoziladi. Masalan, *bilim, iliq, etik, beshik, sariq, vakil* kabi.

Arab-fors va rus tilidan o'zlashgan bir bo'g'inli so'zlarning qo'sh undoshlari o'rtasida qisqa **I** talaffuz etilsa-da, ammo yozilmaydi. Masalan, *fikr, ilm, ufq, matn, litr* kabi.

So'zlarning birinchi bo'g'inida **r, l** undoshlaridan oldin kelgan **I** unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinsa ham, yozuvda **I** harfi bilan yoziladi. Ikki bo'g'inli so'zlarning birinchi bo'g'inida lablashgan **u** unlisi ta'sirida ikkinchi bo'g'inidagi **I** unlisi **u** holida talaffuz qilinsa ham, **I** yoziladi. Shunday yozilishi bilan ikkinchi bo'g'inida **u** yoziladigan otlardan farqlanadi.

### E unlisining talaffuzi va imlosi

**E** harfi lablanmagan til oldi, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi. So'z tarkibidagi o'rniga qarab turlicha aytiladi va yoziladi:

- *kecha, ekran, ne'mat* kabi so'zlarda to'liq talaffuz qilinadi;
- *telefon, teatr, okean, material* kabi so'zlarda **I** ga monand aytiladi, lekin **e** yoziladi.
- so'z boshida yopiq bo'g'inda **I** ga moyil aytilsa ham, **e** yoziladi: *ehtimol, eshik, ehson, ertak* kabi;
- so'z boshida ochiq bo'g'inda, ikki undosh orasida qisqa aytiladi va doim **e** yoziladi: *erta, meva, sezgir, tepki* kabi;
- so'z boshida tutuq belgisidan oldin cho'ziqroq va **I** ga moyil aytiladi va **e** yoziladi: *e'zoz, e'tibor, e'lon, e'tiqod* kabi.

### U unlisining talaffuzi va imlosi

**U (u)** harfi lablangan, til orqa, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi. Quyidagi holatlarda **u** unlisi **I** tovushiga moyilroq aytilsa ham, **u** yoziladi:

– oldingi bo'g'inlarida **a, o, u** unlilaridan biri bo'lgan va shundan so'nggi yopiq bo'g'in boshidagi **v** tovushidan keyin: *qovun, ovul, tovuq, sovuq, tarvuz, quvur, chuvur-chuvur* kabi;

– birinchi bo'g'inida **u** bo'lgan so'zlarning ikkinchi bo'g'inida: *uzun, uzum, chumchuq, tushuncha, yulduz, yutuq, yumush* kabi;

– birinchi bo'g'inida **u** bo'lgan so'zlarning keyingi ochiq bo'g'ini **q** yoki **g'** bilan boshlansa: *bug'u, urg'u, uyqu, tuyg'u, yog'du* kabi;

– tarkibida **u** bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarning oxirgi ikki undoshi o'rtasida **u** aytilsa ham, yozilmaydi: *umr, uzr, rukn, hukm* kabi.

### **O' unlisining talaffuzi va imlosi**

**O' o'** harfi lablangan, til orqa, o'rta keng unli tovushni ifodalaydi. So'zning ochiq bo'g'inlarida nisbatan kengroq, yopiq bo'g'inlarida esa torroq talaffuz qilinadi. Masalan, *so'lim, qo'riq, to'plam, ko'krak* kabi.

**O'** unlisi, asosan, so'zning birinchi bo'g'inida uchraydi: *o't, ko'l, ko'za, o'jar, to'lqin* kabi.

Ko'pgina so'zlarning birinchi bo'g'inida **o'** kelsa, ikkinchi bo'g'inida **i** yoziladi: *do'ppi, ko'prik, to'qimoq, so'zlik* kabi.

Rus tili orqali o'zlashgan *tort, tok, kubok, bochka, nota* kabi so'zlardagi **o** unlisi o'zbekchada **o'** ga moyil aytilsa ham, asliga ko'ra **o** yoziladi. Lotin yozuviga asoslangan alifbomizda *mo'tabar, mo'tadil, mo'jiza* kabi so'zlarda **o'** unlisidan keyin tutuq belgisi qo'yilmaydi, ammo **o'** cho'ziqroq talaffuz qilinadi.

### **Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi**

Adabiy talaffuz va imlo me'yoriga asosan qator unlilar *oa, ao, ai, aa*, tarzida aytiladi va shunday yoziladi.

Qator kelgan unlili so'zlar boshqa tillardan kirib kelganligi tufayli bunday so'zlardagi qator unlilarni og'zaki nutqdagi yo bir cho'ziq unliga aylantirish (masalan, muallimni malim) yoki qator kelgan unlilar o'rtasiga ayrim undoshlarni qo'shish yo'li bilan tilimizga moslashtirishga harakat qilinadi. Masalan, soat so'zi Farg'onada sohat, Toshkentda sog'at tarzida talaffuz qilinadi.

*Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean* singari so'zlar talaffuzida unlilar orasida y undoshi orttirib talaffuz qilinsa-da, yozuvda aks etmaydi.

*Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot* kabi so'zlarda bir unli talaffuz qilinmasa ham, yozuvda aks etadi.



## Undosh tovushlar talaffuzi va imlosi

### B – p undoshlarining talaffuzi va imlosi

**B b** harfi lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Soʻz oʻrtasida va, asosan, soʻz oxirida jarangsizlashib **p** tarzida aytilsa ham, doimo **b** yoziladi. Masalan: *sabab – sabap, javob – javop, zarb – zarp, muftalo – muftalo, ibtido – iptido* kabi.

**P p** harfi lab-lab, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Bu tovush koʻpincha **b** va **f** undoshlari oʻrnida talaffuz qilinsa ham, asliga koʻra **b** va **f** yoziladi. Masalan, *kelib – kelip, gʻarb – gʻarp, insof – insop, ulfat – ulpat* kabi.

### V – f undoshlarining talaffuzi va imlosi

**V v** harfi lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Sof oʻzbekcha soʻzlarda va soʻz boshida kelmaydi, *arab-fors* tilidan oʻzlashgan soʻzlarda esa turli oʻrinlarda kela oladi: *vaqt, vafo, tavsif, sovun, qovurgʻa* kabi. Soʻz oxirida keluvchi **v** soʻzlashuv nutqida **p** yoki **f** ga oʻtadi, ammo qoidaga muvofiq **v** yoziladi. Masalan, *Norqulov – Norqulop, Olimov – Olimof, avtomat – aptomat, kooperativ – kooperatip* kabi.

**F f** harfi lab-tish, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Talaffuzda baʼzan **p** ga oʻtsa ham, **f** yoziladi. Masalan, *fasl, safar, futbol, latif, isrof, insof* kabi.

**F** undoshi *fil, futbol* singari soʻzlarda **p** holida oʻqilsa ham, **f** bilan yoziladi.

*Afzal, afgʻon* kabi soʻzlarda **f** undoshi **p** yoki **v** holida oʻqilsa ham, **f** bilan yoziladi.

### G – k undoshlarining talaffuzi va imlosi

**G g** harfi til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Soʻz oxirida jarangsiz **k** kabi eshitiladi, ammo yozuvda **g** tarzida yoziladi. Masalan, *barg, tug, pedagog, eg* singari.

Imlo qoidasiga koʻra, oxiri **g** bilan tugagan soʻzlarga **g** undoshi bilan boshlanadigan *-ga, -gacha, -gach, -gan, -gina* kabi qoʻshimchalar qoʻshilganida **k** tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq **g** yoziladi. Qarang: *bargga, egguncha, dialoggacha, tuggin*.

**K k** harfi til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Oxiri **k** bilan tugagan soʻzlarga egalik qoʻshimchalari qoʻshilganida **k** jaranglashadi va **g** tarzida aytiladi hamda shunday yoziladi. Masalan, *yurak – yuragim, tilak – tilagi* kabi.

### D – t undoshlarining talaffuzi va imlosi

**D d** harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Soʻz oxiridagi **d** doimo jarangsiz talaffuz qilinadi. Biroq asliga muvofiq **d** yozilaveradi:

*band – bant, avlod – avlot* kabi. Soʻzning oxirida **d** tovushidan oldin **n** kelsa va bunday soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilsa, **d** talaffuz etilmaydi, ammo yoziladi: *payvandchi – payvanchi, balandroq – balanroq, xursandchilik – xursanchilik* kabi.

**T t** harfi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Soʻz oxiridagi **t** talaffuzda koʻpincha tushib qoladi, biroq asliga muvofiq yozilaveradi: *doʻst – doʻs, daraxt – darax* kabi. Bunday soʻzlarga qoʻshimchalar qoʻshilganida ham talaffuzda **t** undoshi eshitilmay qoladi, ammo bu hol imlodagi aks etmaydi: *doʻslik – doʻstlik, dasroʻmol – dastroʻmol, mashiniga – mashinistga* kabi.

Jonli nutqda **t** bilan tugagan soʻzlarga **ch** undoshi bilan boshlanuvchi qoʻshimchalar qoʻshilganida **t** ning **ch** ga aylanish hodisasi yuz beradi: *sutchi – suchchi, yigitcha – yigichcha, uyatchan – uyachchan* kabi.

### **Z – s undoshlarining talaffuzi va imlosi**

**Z z** harfi til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Jonli nutqda soʻz oxirida kelgan **z** tovushi jarangsizlanib **s** tovushiga moyil talaffuz qilinadi, biroq asliga koʻra **z** yozilaveradi: *boramiz – boramis, ogʻiz – ogʻis, Matiz – Matis* kabi. Bu holatni **z** bilan tugallangan oʻzakka jarangsiz undoshlar qoʻshilganida ham kuzatish mumkin: *yuz soʻm – yus soʻm, soʻzsiz – soʻssiz, izchil – ischil* kabi. **S s** harfi til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. **E, I** unlilaridan oldin kelganida yumshoq talaffuz etiladi: *sezgi, sekin, silamoq, sim* kabi.

### **J – sh undoshlarining talaffuzi va imlosi**

**J j** harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Sof oʻzbekcha soʻzlarda portlovchi tovush tarzida, fors-tojikcha va ruscha oʻzlashmalarda sirgʻaluvchi tovush kabi talaffuz qilinadi. Qiyoslang: *jon, ajoyib, jaji* – portlovchi **j**; *ajdar, mujda, janr* – sirgʻaluvchi **j**. Jonli nutqda **ch** yoki **sh** tovushlariga moyil aytiladi, ammo asliga muvofiq yoziladi: *toj – toch, boj – boch, garaj – garash, massaj – massash* kabi.

**Sh sh** harfi til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Til oldi undoshlari bilan kelganida yumshoq, orqa qator unlilar bilan yonma-yon kelganida esa qattiq talaffuz qilinadi: *shirin, ishkal, shol, shoʻx* kabi.

Rus tili orqali oʻzlashgan soʻzlarda yumshoq va choʻziqroq aytiladi hamda doim **sh** yoziladi: *meshchan, plash, borsh, obshina* kabi.

### **Gʻ – q undoshlarining talaffuzi va imlosi**

**Gʻ gʻ** harfi chuqur til orqa, sirgʻaluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Soʻz oxirida **gʻ** tovushi baʼzan qoʻshimchalar taʼsirida **x** tarzida aytilsa ham,



**g'** yoziladi: *bog'cha* – *boxcha*, *belbog'cha* – *belboxcha*, *zag'cha* – *zaxcha* kabi. Imlo qoidalariga ko'ra, **g'** bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi va **g** bilan boshlanadigan boshqa qo'shimchalar qo'shilsa, o'zakdagi **g'** va qo'shimchadagi **g q** tarzida talaffuz etilsa-da, asliga muvofiq yoziladi: *sog'ga*, *tog'ga*, *sig'guncha*, *yog'gan* kabi.

**Q q** harfi chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Jonli nutqda so'z o'rtasi va oxirida q tovushi **g'** va **x** ga moyil aytilsa ham, imloda asliga ko'ra yoziladi: *botqoqlik* – *botqog'lik*, *baliq* – *balig'*, *shu yoqda* – *shu yog'da*, *to'qson* – *to'xson*, *vaqt* – *vaxt* kabi. **Q** undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganida **q** jaraglashib **g'** ga o'tadi va bu hodisa imloda aks etadi: *taroq* – *tarog'i*, *qo'shiq* – *qo'shig'im*, *o'rtoq* – *o'rtog'ing* kabi. Ammo bir bo'g'inli so'zlarda, chetdan o'zlashgan so'zlarda bunday paytda **q** undoshi aslicha aytiladi va yoziladi: *haq* – *haqqi*, *to'q* – *to'qin*, *ishtiyiq* – *ishtiyoqi*, *huquq* – *huquqim*, *ravnaq* – *ravnaqi* kabi. **Q** bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi **-ga** va **g** bilan boshlanadigan boshqa qo'shimchalar qo'shilganida **g** undoshi **q** tarzida aytiladi va bunday so'zlar qo'shaloq **q** bilan yoziladi: *soliiqqa*, *yoqqach*, *chiqquncha*, *qo'rqqudek*, *achchiqqina* kabi.

## **X – h undoshlarining talaffuzi va imlosi**

**X x** harfi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. So'z o'rtasida va oxirida ba'zan **q** tovushiga moyilroq aytilsa ham, asliga muvofiq yoziladi. Masalan, *axloq* – *aqloq*, *mix* – *miq*, *soxta* – *soqta* kabi. O'zbek tilida, asosan, **e** dan boshqa unlilar bilan yonma-yon kelganida yoziladi va ularning qattiqroq talaffuz qilinishiga sababchi bo'ladi: *xalq*, *xabar*, *to'xta*, *axtar*, *xush*, *xamir* kabi.

**H h** harfi bo'g'iz undoshi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. O'zbek tilida bu tovush *oh*, *e*, *ha* kabi undov so'zlarda, asosan, arab-fors tilidan o'zlashtirilgan so'zlarda uchraydi.

**H** harfi ifodalagan tovush **x** tovushiga nisbatan yumshoqroq, nafisroq talaffuz etiladi: *himoya*, *hosil*, *hokim*, *Shohista*, *ohang*, *sahna*, *tuhfa* kabi.

Jonli nutqda **h** tovushi ba'zan o'zidan keyingi undosh kabi aytiladi yoki butunlay talaffuz etilmaydi: *mahkam* – *makkam*, *mahsi* – *massi*, *dahlsiz* – *dalsiz*, *shahodatnoma* – *shaodatnoma* kabi. Kundalik so'zlashuvda yumshoq bo'g'iz tovushi **h** undoshining ko'pincha qattiq, chuqur til orqa tovushi **x** tarzida aytilishi adabiy me'yorga xos. Chunki bu tovushlarning bir xilda talaffuz etilishi so'z ma'nosini butunlay o'zgartirishi mumkin: *shoxi* – *shohi*, *hol* – *xol*, *hil* – *xil*.

**So'zlarning yozilishiga e'tibor bering:** *sulh*, *bahor*, *subh*, *sahv*, *sahifa*, *sahro*, *sayyoh*, *ruhoniyy*, *ruhan*, *ruhiyy*, *rohat*, *rahm*, *rahmat*, *mehmon*, *pinhon*, *ohista*, *oh-zor*, *ohu*, *muhtaram*, *mahalla*, *mahkam*, *lahza*, *ishtaha*, *zohid*,

ahvol, ahd, ahamiyat, muharrir, muhtasham, muhtoj, muhabbat, muhayyo, muhrdor, muhim, muhlat, muhojir, muhokama, muhr, mehr, mehnat, mahsulot, mohtob, mahkum, zahmat, himmat.

### M - n undoshlarining talaffuzi va imlosi

**M m** harfi lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. **E, i** old qator unllaridan oldin kelganida yumshoq (*meva, mehmon, miqyos* kabi), orqa qator unllilar, chuqur til orqa undoshlari bilan yonma-yon kelganida esa qattiq (*somon, mol, muborak, mo'min* kabi) talaffuz qilinadi.

**N n** harfi til oldi, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Bu tovush **b, m** undoshlari oldida kelganida **m** tarzida aytiladi, ammo asliga ko'ra yoziladi: *tanburchi – tamburchi, minbar – mimbar, yonbosh – yombosh, manmanlik – mammanlik* kabi. Jonli nutqda **n** tovushining ba'zan o'zidan oldingi undosh ta'siriga uchrab o'sha tovush tarzida qo'shiloq aytilishi adabiy talaffuz me'yoriga ziddir: *gapni – gappi, yo'lni – yo'lli, ko'zni – ko'zzi* kabi.

### Ch - ng harflarining talaffuzi va imlosi

**Ch ch** harfi til orqa, qorishiq, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. **Ch** harfi bilan tugallanuvchi o'zakka qo'shimcha qo'shilganida hamda ayrim so'zlarda **ch** tovushi **sh** kabi aytiladi, ammo asliga muvofiq yoziladi: *uchta – ushta, uchdi – ushdi, kichkina – kishkina, qarich – qarish* kabi.

**Ng ng** harfi til orqa, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi. Bu tovush so'z boshida uchramaydi. So'zning o'rtasi (*manglay, ingichka* kabi) va oxirida (*teng, ong* kabi) kela oladi. Mazkur harfning imlosida quyidagi holatlarga e'tibor berish lozim: *jang, zang, so'ng, ko'ndalang, durang, ingramoq* kabi so'zlarda uchraydigan til orqa **ng** tovushi o'rnida ishlatiladi. Bunday so'zlarni bo'g'inlarga ajratganda **ng** harfiy birikmasi **n** va **g** harflariga ajratilmaydi va alohida tovushlar sifatida talaffuz qilinmaydi; *kongress, tangens, burungi* kabi so'zlarda **ng** alohida tovushlar **n** va **g** ni ifodalaydi, shu sababli bo'g'in ko'chirishda ajratib yoziladi. **Ng** tovushi ikki unli o'rtasida kelganida ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi va bir satrdan boshqasiga shunday ko'chiriladi: *si – ngil, de – ngiz, opa – ngiz* kabi. Agar **ng** tovushidan so'ng undosh kelgan bo'lsa, **ng** tovushi birinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi: *sing – lim, teng – qur, ang – lagan* kabi.

### Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi

Tarkibida yonma-yon bir xil undoshlar kelgan so'zlar qo'sh undoshli so'zlardir. Qo'sh undosh bir xil undoshning yonma-yon kelishidir. Qo'sh undoshlar, odatda, o'zbek tilida so'z o'rtasida keladi: *malla, shavvoz, tizza, do'ppi* kabi. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda so'z oxirida ham qo'llanadi: *gramm, metall, kilovatt* kabi. Bunday so'zlarda o'zakdagi qo'sh undoshlar



kabi ayni tovush bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganida bir harf yozilmaydi: *kongress + si = kongressi, kilogramm + mi = kilogrammi* kabi.

Og'zaki nutqda so'z o'rtasida qo'shaloq kelgan undoshlardan biri ba'zan talaffuz qilinmasa-da, yozuvda to'liq saqlanadi: *million – milion, komissar – komisar, oddiy – odiy* kabi.

Talaffuzda qo'sh undoshlardan birini aytmaslik adabiy talaffuz maromiga ziddir, ayniqsa, o'zbek tilida bu holat ma'no farqlashga xizmat qiladi: *sodda – soda, modda – moda, billur – bilur, tilli – tili, nonning – noning, molli – moli* kabi.

Bu so'zlarga har qanday qo'shimcha qo'shilsa (unli bilan boshlanadigan qo'shimcha: *metall + i = metali*; undosh bilan boshlanadigan qo'shimcha: *metall + ga = metalga*; shu tovush bilan boshlanadigan qo'shimcha: *metall + lar = metallar*), oxirgi qo'sh undoshdan biri tushiriladi: *kilogramm + mi* kabi.

### **Qator undoshlar talaffuzi va imlosi**

Bir bo'g'inida yonma-yon ikki xil undosh kelgan so'zlar *qator* undoshli so'zlardir. So'z boshidagi qator undoshlar o'rtasiga yoki oldiga bir qisqa unli qo'shib talaffuz qilinsa ham, bu qisqa unli yozilmaydi. *Go'sht, do'st, barg* kabi so'z oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushib qolsa ham, yozuvda ifodalanadi. *Paxta, nimcha, o'simlik* so'zlarida ham yonma-yon kelgan ikki undosh bor, lekin bu undoshlar bir bo'g'inda bo'lmagani uchun qator kelgan undoshlar hisoblanmaydi. Shuningdek, alifbomizdagi bir tovushni ifodalash uchun ishlatiladigan harf birikmalari ham qator undoshli so'zlar sanalmaydi. Shuni esda tutish kerakki, qator undoshli so'zlarga har qanday grammatik shakl qo'shilishidan qat'i nazar, qator undoshli so'z hisoblanaveradi: *do'sti, sehring, mehrdan*. Harflar birikmasi qator undosh sanalmaydi: *singil, ko'ngil, chora, charchoq, shodlik, shahar*.

Shuningdek, so'zning oxirida ham *st* (*ost, ust*), *lt* (*yilt, milt*), *rt* (*to'rt, turt, qurt*) kabi qo'sh undoshlardan tashqari boshqa undoshlar yonma-yon kelmaydi.

### **Tutuq belgisining vazifalari**

1. Unlini cho'zish. Unlidan keyin kelib uning cho'ziqroq talaffuz qilinishini talab etadi: *ma'no, a'lo, ta'na*.

2. Unlini undoshdan ajratish. Undoshdan keyin qo'llanib unlining undoshdan ajratib talaffuz etilishini ifodalaydi: *jur'at, in'om*.

3. Harflarni farqlash. «S» va «h» undoshlarini «sh» harf birikmasidan farqlash uchun ishlatiladi: *as'hob, ls'hoq*.

4. So'zning ma'nosini farqlash. *Ta'na – tana, da'vo – davo, san'at – sanat, ta'qib – taqib, she'r – sher, sa'va – sava, sur'at – surat, qal'a – qala, a'yon – ayon* kabi so'zlarda so'zlar o'rtasidagi ma'noni farqlashga xizmat qiladi.

Eslatma: *mo'tadil, mo'jiza, mo'tabar* kabi so'zlardagi tutuq belgisi yozuvda tushirib qoldiriladi.

## PUNKTUATSIYA

### Tinish belgilarining qo'llanishi asoslari

O'zbek tilida tinish belgilari va ularni yozma nutqda to'g'ri qo'llash yo'l-yo'riqlarini o'rganuvchi bo'lim **puntuatsiya** deb ataladi. Hozirgi yozma adabiy tilda, asosan, 10 ta tinish belgisi ishlatiladi: nuqta (.), vergul (,), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), qavs ( ), ko'p nuqta (...), tire (–), qo'shtirnoq («»), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:).

Tinish belgilarining ishlatilishi gapning mazmun-mohiyati bilan birga grammatik xususiyatiga qarab ham belgilanadi.

### Nuqta va uning qo'llanishi

Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan ishlatila boshladi.

Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq va undov gaplardan so'ng: *Milliy istiqlol shrofati bilan yangicha tafakkur shakllanmoqda. O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma. Farzandlarimiz doimo sog' bo'lsin.*

2. Atov gaplardan keyin: *Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.*

3. Ism, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganida ularning birinchi harfidan so'ng: *M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Cho'lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S.Pushkin – rus poeziyasining quyoshi.*

4. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotlarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng: *va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so'zlashuv tilida); G'.G'. (G'afur G'ulom), Nav. (Navoiy), Toshk. (Toshkent).*

5. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin: *Bobo dehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.*

6. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi: *21.03.2012.*

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo'llaniladigan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin: *Tovushlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.*

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi: *2 · 2 = 4 (ikki karra ikki to'rt).*



## Vergul va uning qo'llanishi

Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan ishlatila boshlagan. O'zbek matnlarida XX asr boshlaridan uchraydi. Undan quyidagi o'rinlarda foydalaniladi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida: *Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishi, do'stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.* (M.Inomova)

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: *Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga. purviqor tog'lar!*

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng: *Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi *ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom* kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi: *Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima qildingiz?*

5. Ajratilgan bo'laklar orasida: *Onaga, eng ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, ilm-fan kundan kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasida: *Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan – daryo, o'tirgan – bo'ya.*

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi: *Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetaklamasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.*

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi: *Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.*

9. Kochirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi: *«Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim», – deb aytgandi Abu Rayhon Beruniy.*

## So'roq belgisi va uning qo'llanishi

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* – so'roq so'ziga taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga kelib qolgan. O'zbekcha matnlarda 1885-yildan uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlagan.

So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. So'roq gaplarning oxirida: *Yomonliklarning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo'ldim. (darak gap) Vazifani bajarib bo'ldim? (ohang o'zgaradi)*

2. *Kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi* kabi so'roq olmoshlaridan so'ng: *Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga qo'yiladi. «*Toping!*» *ma'nosida: Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» qissasida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi.*

### Undov belgisi va uning qo'llanishi

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislar fikricha, u lotincha *lo* – undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqtaning qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Undov belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng: *Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.*

– *Ana tuproq, mana tuproq! – deydi. – Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq! (Tog'ay Murod)*

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi: *Siz ham oyoq ishlating! – deb buyurdi. Suv ostida o'pqonlar ko'p. Tortib ketmasin! (P.Qodirov)*

3. So'z boshida kelib kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng qo'yiladi: *Ey arslonlar arslon! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! (A.Fitrat)*

4. *Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so'z-gaplar his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qo'yiladi: – *Balli-balli! – dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi. Yo'q! Borolmayman, – dedi qayrilib. (A.Qodiriy)*

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida undov belgisi berilishi mumkin: «*Boburnoma*»da *tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.*

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo'yiladi: *Charos kafti bilan yuzini to'sgancha o'zini orqaga tashladi.*

– *A-a-a!!! – dedi chinqirib. (O' Hoshimov)*

– *Chiqar buni, jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

– *Xanjarimiz qonsirag'on! (A.Qodiriy)*

7. His-hayajon bilan aytilgan so'roq, shuningdek, ritorik so'roq gaplardan so'ng: *Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog'insang, qanday baxt bu!*

### Qavs va uning qo'llanishi

Qavs o'zbek yozuvida XIX asr oxirgi choragidan ishlatila boshlangan. Dastlab «*Turkiston viloyatining gazetisi*»da 1873-yili ishlatilgan. U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:



1. Kirish gaplarda: *O'zbekiston paxta ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSh, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o'rinda turadi), eksport bo'yicha AQShdan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi.*

2. Remarkalarda: *Xon (yolg'iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur.*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbaida: *Ilm insonlarning hayoti, madori, rahbari, najotidur. (Abdulla Avloniy) Jannat onalar oyog'i ostidadur. (Hadisdan) «Qasosli dunyo». («Avlodlar dovoni» romanidan)*

4. Izoh ma'nosidagi so'z yoki so'z birikmalarida: *Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayitining (Iyd al-Adha) birinchi kuni O'zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so'z bo'lib, tarjimada xalq hokimiyati (demos - xalq, kratos - hokimiyat) ma'nosini bildiradi.*

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi: *«Qutadg'u bilig» (Baxt keltiruvchi bilim). Shuhrat (G'ulom Allmov Aminovich) atoqli o'zbek yozuvchilaridan biridir.*

Izoh: Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi:  $(57 + 38) - 17 = ?$

### Ko'p nuqta va uning qo'llanishi

Ko'p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran «Turkiston viloyatining gazetisi»da muntazam qo'llangan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida: *To'ra biroz o'ylanib tur-gach podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi.*

– *Mana shu imperiya...*

*Miryoqub hech narsa anglamadi. (A.Cho'lpon)*

2. So'zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun: *Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'ladi.*

– *Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, – deya yig'ladi. – Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a... (T.Murod) Qish... Butun atrof oppoq libosda...*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa: – *Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?*

– *Xo'sh, xo'sh?*

– *Ilkimdan kelgancha... – deb boshlanar edi.*

– *Ha-ha, bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrati Navoiyning hikmatlaridur. (X.To'xtaboyev)*

4. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa: *Muhammadyor yolg'iz:*

– Turkistonda birinchi m...m...m...artaba tia...t...t...tr, – dedi-da, fikrg'a toldi.

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa: – *Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?*

– ...

– *Tushundingizmi deyapman? (X.Sultonov)*

6. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida: *Nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing. Xayri...oh, a...loq, ...abar.*

### **Tire va uning qo'llanishi**

Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan ishlatila boshlagan. Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida: – *Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi?*

– *Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo'q.*

– *Siz tabibmisiz o'zi?*

2. Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida: *Til – millatning qalbi. Yer – don, dehqon – xazinabon. Mehnating – boyliging. Bu – sening ishing. Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.*

3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik – barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*

4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: *«Oddiylik axloqiy barkamolli-kning bosh shartidir», – deb yozgandi L.N.Tolstoy.*

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida: *1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:*

– *«Amir Temur» ordeni;*

– *«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa: *Olamni quyosh yoritadi, insonni – ilm.*

7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida: *O'zbekiston Milliy sug'urta kompaniyasi – «O'zbekinvest». Veksel – qimmatbaho qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.*

8. Zid, shart ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: *Qor yog'di – izlar bosildi. Vaqting ketdi – baxting ketdi. Qo'shning tinch – sen tinch.*

9. Kirishlar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi: *Biz – yoshlar – millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida – bir paytlari bu yerdan turib ulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi – katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.*

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida: *Toshkent – Andijon «Oltin vodi» poyezdi 6-yo'lga kelib to'xtadi.*



11. Nashr, kitobat ishlarida: *Sultonov X. Onamning yurti: Qissa va hikoyalar.* – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

*Eslatma:* Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi. 307 – 23 = 284. Bugun Toshkentda –3°C sovuq bo'ladi.

### Qo'shtirnoq va uning qo'llanish o'rinlari

Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: *«Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa», – degandi Sa'diy Sheroziy. I.V.Gyote shunday deb aytgan edi: «Donishmandlik faqat haqiqatdadir». «Er kishiga zeb-u ziynat, – degan edi Ali-sheer Navoiy, – hikmat va donishdir».*

2. Sitatalar qo'shtirnoq ichida yoziladi: *Buyuk yozuvchimiz A.Qahhorning quyidagi gaplari hali-hanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: «Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, birinchi asari bilan yashnab kiradi. Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...»*

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatiq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi: *...oradan yana bir necha oy o'tib uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning «jinoiyati» o'n bir yillik qamoq bilan «taqdirlandi». (T.Malik) «Xalq artisti» beliga o'q tekkanday erta-yu kech to'rdagi karavotga yonboshlab «Teatr» jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo'lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A'zamov) Toshkentda Germaniyaning «Daymler-Bens» konserni vakolatxonasi ishlab turibdi.*

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi: *«Lison ut-tayr» (Qush tili) asari haqida suhbatlashdik. «Ma'rifat» gazetasi, «Saodat» jurnali, «Mening oppoq kabutarlarim» spektakli, «Sohibqiron» dramasi, «Amir Temur» portreti.*

5. Korxonalar, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi: *«O'zdunrobita» qo'shma korxonasi, «Kochxolding» konserni, «Kamolot» ijtimoiy harakati, «Istiqlol» tennis sport majmuasi, «Diyor» savdo uyi, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi, «O'zbekavtotrans» davlat aksionerlik korporatsiyasi, «O'zDEUavto» O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodi, «Chorsu» mehmonxonasi.*

6. Transportlarning (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi: *«Neksiya» rusumli yengil mashina,*

«Boing» samolyoti, «Otayo'l» mikroavtobusi, «Rayhon» alkogolsiz ichimligi, «Kibo» oyoq kiyimi, «Hojimatov damlamasi».

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi: «El-yurt hurmati» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'xis etildi. Professor Q.G' Abdullayev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bndlari qo'shtirnoq ichida beriladi: 1995-yilning 6-may kuni «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi: 11-«A» sinfi «Quvnoqlar va zukkolar» bahsida g'olib chiqdi. O'qituvchimiz bugungi javobimga «besh» baho qo'ydi.

### **Ikki nuqta va uning qo'llanishi**

Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng: *Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman. (A.Qahhor)*

2. Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelganida undan so'ng: *Bundan so'ng qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo'ldanoq tanchada o'tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:*

– *Sir ochildi! (A.Qodiriy)*

3. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin: *O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.*

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng: *Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni».*

*Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:*

*I. Jamoaning Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.*

*II. Navro'z – umumxalq bayramini ko'tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.*

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin: *Toshkentda «Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzuyida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.*

6. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun: *Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdul-*



layev raqibini 27:21 hisobi bilan yengdi. «Andijon» (Andijon) va «Paxtakor» (Toshkent) jamoalari o'rtasidagi o'yin durang natija bilan tugadi – 2:2

7. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda biror gap boshqa gapni izohlasa, uning sababi yoki natijasini ko'rsatsa: *Abror qizni darrov tanidi: u qo'shni mahalladagi do'konda ishlardi.*

*Eslatma:* Hisob-kitob ishida bo'luv alomati sanaladi:  $100 : 2 = 50$ .

### Nuqtali vergul va uning qo'llanishi

Nuqtali vergul o'zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi. U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo'lmagan hollarda. *Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi, o'quvchining ko'z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o'ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o'zining jafokashligi, g'ayrati, farosati, el-yurt uchun qavg'urishi bilan sazovor bo'lgan bir chel keladi. (A.Qahhor) Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo'lishi kerak, ana o'shanda aqlim ham harakatga keladi. (J.J.Russo) Hayhotday hovli fayzsiz; daraxtlar ostini o't-o'lan bosgan, hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg'a loqayd kezib yuribdi. (O.Otaxonov)*

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganida: *Ish kuchini yelga berma, yerga ber; jamg'armani selga berma, elga ber!*

*Yaxshini yomon dema, olishing bo'lsa ham:*

*Yomonni yaxshi dema, yaqining bo'lsa ham.*

3. Uyushiq bo'laklar guruhlanib, o'zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganida har bir guruhni anglatuvchi so'zdan keyin: *Gerb rangli tasvirda bo'lib, Humo qushi kumush rangda; quyosh, boshhoqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuv tillarangda; g'o'za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog'lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.*

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida: *Otabek timsoliga tavsif:*

a) *Otabek – o'qimishli, o'z davrining yetuk kishisi;*

b) *Otabek – mard va jasur yigit;*

d) *Otabek – o'z ahdiga sodiq, vafoli yor.*

### Tinish belgilarining qo'shaloq holda ishlatilish o'rinlari

O'zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma'nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo'llash hollari ham uchrab tura-di. Ularning qo'llanilishidagi asosiy o'rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so'roq gaplar oxirida so'roq va undov belgilari ketma-ket qo'yiladi: – *Axir, ablah, – derdi Yunus, – bironing uyiga oyog'ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg'atgani ibo qilmaysan?!* (**A.Qahhor**)

2. So'roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikita yoki uchta bir xil belgi qo'yilishi mumkin: *Ey purviqor tog'lar! Nega jimsizlar, nega!!!* (**A.Cho'lpon**)

3. So'roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so'ng ko'p nuqta qo'yiladi: «*Ertaga! – deya xotirjam dilidan o'tkazdi va birdan to'xtadi. – Xo'sh, ertaga nima bo'ladi?..*» (**N.Qillchev**)  
*Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:*

– *Topdi-mm!.. Topdi-im!..* (**Sh.Bo'tayev**)

4. Muallif gapi va ko'chirma gaplar o'rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin: «*Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi*», – deb yozgandi **A.Qahhor**.

### Tinsh belgilari ishlatilgan gaplar

1. Endi senlar o'qib, oq-qorani taninglar, – deydi Xoliyor amaki. – Hozir dunyo ilmi odamlarniki.

2. Tilingni asragin, tishing sinmasin.

3. Musayev soatiga qaradi: o'n bir yarim.

4. Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini sumpurdilar.

5. Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi. (**Oybek**)

6. Yana uvlar dahshat shamoli, Ko'kni qora bulut quchadi. (**Temur Fattoh**)

7. Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo'naymiz. (**X.To'xtaboyev**)

8. Kuz keldi, yig'im-terim boshlandi. (**Qamchibek Kenja**)

9. Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, osmon dil qulfini zaminga sochdi. (**T.Sodiqova**)

10. Bulbul sayrar, chumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan. (**H.Olimjon**)

11. Siddiqjon to'xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi. (**A.Qahhor**)

12. Sabr bila bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur. (**A.Navoiy**)

13. Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin! (**Hadis**)

14. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagan-cha o'rnimdan turib ketaman. (**O' Hoshimov**)

15. Kumush choyshab yopib dalalar qor qo'ynida uxlab qoladi. (**Uyg'un**)

16. Qattiq charchagan edim, nima deb javob berganimni bilmayman. (**Said Ahmad**)



17. Zal jim, xalq parda ochilishini kutar edi. (**A.Qahhor**)
18. Kechasi shamol tindi, yo'l azobidan horigan kishilar qattiq uyquga ketdilar. Oyim endi o'rnidan turayotgan edi, eshik shahd bilan ochildi.
19. Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi.
20. Quyosh tik ko'tarilgan, uning otashi yer yuzini yondirishga qasd qilgandek avjga mingan edi.
21. Yangi shahar ko'chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi.
22. Havo ochiq, quyoshning iliq nuri qirov bosgan marzalardan yengil bug' ko'tariladi.
23. Uning vajohatini ko'rib Zaynab cho'chidi, salom berishni ham unutdi. (**T.Malik**)
24. Meni ham olib ket, gado bo'lsang gado bo'laman, ado bo'lsang sening yo'lingda ado bo'laman. (**S.Slyoyev**)
25. Tilingni o'z ixtiyoringda asra, so'zingni ehtiyot bilan so'zla. (**A.Navoly**)
26. G'ayratlining yuragi qaynar, g'ayratsizning yuragi o'ynar. (**Maqol**)
27. Odamning turli fe'l-atvorli do'stlari bo'ladi, hammasi bilan fe'liga, tabiatiga qarab yaxshi muomala qilish zarur. (**M.Mahmudov**)
28. Vaqtida aytiladigan so'zni asrama, aytmas so'z tevaragiga yo'lama. (**A.Navoly**)
29. Yurtim, dalalaring bebaho, tuprog'ing tabarruk. (**T.Murod**)
30. Agar biron asarim kitobxon og'ziga tushsa, mendan oldin u sevinib ketardi. (**S.Ahmad**)
31. Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.
32. Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing. (**A.Oripov**)
33. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan og'ganida birdan uyg'onib ketasiz. (**O'Hoshimov**)
34. Mening bir jaydari falsafamdir shu: hargiz iltimosga kuning qolmasin. (**A.Oripov**)
35. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qo'llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari timdalandi. (**A.Qahhor**)
36. Borliq jim: har bitta darchada zangori shu'lalar porlaydi. (**E.Vohidov**)
37. Omon ovchining ov sarguzashtlari ko'plarni qiziqtirdi: ko'plari hikoya eshitish uchun kelardi. (**Sh.Xolmirzayev**)
38. Saida bunga juda suyundi: demak, hisobot yuzasidan bo'ladigan muzokara juda qizg'in tus oladi. Urilmoq ham foyda: pishiq bo'lasiz, tajriba hosil qilasiz.
39. Faqat bitta iltimos: bir bayt o'qiyman, shuni yaxshilab eshiting.
40. Tilmoch bitta qadam bosib eshikka tomon borarkan, aylanib orqasiga qaradi: keng zal bo'm-bo'sh, xuddi yetimchadek ko'rinadi.
41. Ko'm-ko'k yopiqli uzun stol ustida sud a'zolaridan birining ko'zoynak qutichasi qolib ketgan; zal o'rtasidagi og'zi ochiq pechdan o'tinning charsillab yongani eshitiladi.

42. Chol undan balandroq keldi: men brigadirlikdan tushmayman deb chiqib ketdi.

43. Qayerdadir xo'roz qichqirdi: tong otishi yaqinlashgan.

44. Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini yumdi: nur yo'qolibdi. **(TMalk)**

45. Yaxshisi shu: har kuni savob ish qilishga odatlan.

46. Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.

47. Axir, shu qarorga keldilar: bolalarni buvimga topshiradigan va akam o'zi bilan shaharga olib ketadigan bo'ldi.

48. Suv keldi: giyoh bitmas cho'llar obod bo'ldi.

49. Dam o'tmay Chotqol yonbag'irlaridagi go'zal vohada oqshom o'z husn-jamolini namoyon etdi: shahar va qishloqlarda yulduzsimon elektr chiroqlari ko'zni qamashtirib porladi.

50. Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman. **(A.Qahhor)**

51. Turkiston o'lkamiz vodiylari, sahrolari keng, tog'lari buyuk, aholisi turk – o'zbekdir.

52. Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin.

53. Siz o'z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning qarog'larisiz, ammo unutmang: tanbal, daqqi, bezori kishi ma'naviy nogiron degan so'z.

54. Respublikamiz hayotida muhim bir voqea yuz bersa, biz sabrsizlik bilan Abdulla Qahhor nima der ekan deb kutardik, ustoz yozuvchi, albatta, hammani hayratga soladigan, ko'pchilikka ma'qul bo'ladigan bir gapni aytardi.

55. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon!

56. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirishmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishlari tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi.

57. Damingizni chiqarmasdan turing: men sizni yuragingizga bir alam bermoqchiman: agarda u yurak hech narsa kor qilmas bir ma'dandan iborat bo'lmasa, agarda jinoyatga ko'nikish orqasida har qanday hisdan mahrum bir misga aylanmagan esa, men unga achitib-achitib bir alam berayin deyman.

58. Xadicha xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'pdi, duo qildi; irim qilib o'zi kuzatgani chiqmadi.

59. Kampirning jig'ibiyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysagancha, uyiga kirib ketdi.

60. Istiqloq davri bolalari g'ayratli, shijoatli; ko'zida chaqini, ko'ksida yolqini bor. **(Dilshod Rajab)**

61. Ertaga cho'qqini egallaymiz; sovuq qattiq emas, shamol bo'lishi ham kutilmaydi.



62. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazini ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. *(A.Oripov)*

63. Navoiy Husayn Boyqaro qoshiga kirib vaziyatni tushuntirdi; isyonchi valiahdi bilan mustahkam sulh barpo etish kerakligini talab qildi.

64. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgudir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi?

65. Qish oxirlamoqda, qorlar erigan, hamma joyda loygarchilik; yo'lda arava tugul, piyoda ham zo'rg'a, qo'rqa-pisa qadam bosadi.

66. Alisherning ishqi tushibdimi – o'rgaturmiz.

67. Xalqning sabr-toqati cheksiz emas. U dengizga o'xshaydi; goh to'lib, goh ozayib turadi.

68. Bora-bora shunga odatlanib qoldim: hamma darsdan a'lochi bo'ldim.

69. Ilm bir daryo – ichi to'lmish dur-u gavhar bilan.

70. Yig'i aralash yerga tushmoqchi bo'ldimi yo qirqayotgan shoxining qanchalik «joni» qolganini sinab ko'rmoqchi bo'ldimi, joyidan qo'zg'alishini biladi – shox qasir-qusur qilib pastga ag'darildi.

71. Hayratga tushmasman bu holdan sira, Dunyo, bu – quvg'indi ohuday yelar.

72. Ezgu ishni hech qachon keyinga qoldirmaslik kerak: har qanday pay-salga solish bema'nilik va ko'pincha xavflidir.

73. Bir narsa kishida umid uyg'otadi: farg'onaliklar nafaqat asrimizning so'nggi yilini, balki yangi mingyillikni munosib ko'rsatkichlar bilan kutib olishga harakat qilmoqdalar.

74. Abdulla Qahhor oddiy dehqondan tortib to akademikkacha – ham-maning ko'nglini topa olardilar, odamning ko'ngliga tushadigan birgina kaliti bor, bu kalit – kamtarlik, oddiylkdir.

75. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan og'ganida birdan uyg'onib ketasiz.

76. Senga taalluqli bo'lgan insonlar, muhit va ishlaringdan ko'ngling to'lishidir, ammo bu dunyoning hisob-kitobi juda qattiq: bermaguningcha ololmaysan!

77. Hamal keldi – amal keldi.

78. Suv keldi – cho'llarda hayot boshlandi.

79. Yuragida qanday dard bor – mana bu menga sir.

80. To'rt mashina o'g'it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

81. Suv keldi – nur keldi.

82. G'animlar duch kelar – jang bo'lar puxta.

83. Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi – yiqilasan kishi.

84. Qor yog'di – don yog'di.

85. Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.

86. Yurgan daryo – o'tirgan bo'yra.

87. Shu payt ko'ksiga beozor botib turgan narsa – tuproqli tumori yodiga tushibdi. *(N.Jaloliddin)*

88. Ishning ko'zini bil – dala ham obod, choyxona ham.
89. Men tirikman – o'lja bo'lmaydi otim.
90. Donoga ishora – nodonga kaltak.
91. Kimki mehnatning zo'rini qilibdi – odamning sarasi ana shu.
92. Qirq to'rt so'mdan yigirma yetti so'mni olib tashladik – o'n yetti so'm qoldi.
93. Endi nima bo'lib shundoq bo'lganini aytib o'tishga fursatim yo'q – idorada odamlar kutib o'tiribdi. (**A.Qahhor**)
94. Usta Turdining gapi o'rinli edi: modomiki hamma «qilko'prik»dan o'tar ekan, yo jannatga o'tib ketadi, yo do'zaxga yiqiladi.
95. Men bir dirham bilan barchalaringizning istaklaringizni qondiraman, chunki sizlar ko'pchiliksiz, dirham esa bitta, ammo shu bir dirham ko'p hunar ko'rsata oladi: u ajratadi va birlashtiradi ham.
96. Eng xosiyatli buloq – ilm chashmasi: undan suv ichgan sayin tashnalik yo'qolmaydi.
97. Nastarin gullashi bilan qizlar undan «baxt» qidirishadi: niyati amalga osharmish.
98. Farzandini dunyoga keltirgan onaning o'y-xayolida birgina orzu mujassam yashaydi – u ham bo'lsa, farzandlarning barkamol inson bo'lib yetishishidir.
99. Hazrati Navoiyda shunday gap bor: birovning oldida aytish mumkin bo'lmagan gaplarni, qilish mumkin bo'lmagan ishlarni kimsa yo'g'ida ham aytmasa, qilmasa, o'sha odam donodir.
100. So'z doriga o'xshaydi – ortiqchasi zarar qiladi.
101. Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini ochdi: nur yo'qolibdi.
102. Bugun barcha bir butun millat bo'lib uyg'onmas ekan, kelajak yo'lidagi uy-ro'zg'orimiz kamol topmaydi – fikrsizlik, nodonlik oyog'imizga tushov bo'laveradi.
103. Agar ayb ishdan tiyilsang – demak, o'zingni boshqaryapsan. Otam so'zimni eshitdi: yelkasi osha qaradi-da: – Ha! – deb to'ng'illab qo'ydi.
104. Jahonda nimaiki oq bo'lsa, unga ona suti timsol; nimaiki jo'shqin bo'lsa, unga ham ona mehri timsol; nimaiki chidamli, sabr-toqatli bo'lsa, ona irodasi timsol; kimki pok muhabbat, mehridaryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi timsol.
105. U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo'lsa, bu xushqad, xushsurat.
106. Siz Sherali Jo'rayev bugun Toshkentda ijro etgan yangi qo'shiqning ikki kundan keyin Termiz shahridagi ovoz yozish nuqtalarida yangrayotganiga ajablanmaysiz, chunki bilasiz: yaxshi qo'shiq ham xushxabardek tez tarqaladi.
107. Yalqovlik – xuddi zang: ishlab to'zganga qaraganda tezroq yemiradi.
108. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqaga sotadi.



109. Shoxmoylar tantanalariga to'q-farovon joylarda qishloqning barcha ahli tayyorgarlik ko'rgan: har bir xonadon turli taomlar tayyorlagan, non-u qatlama, patirlar yopilgan, bo'g'irsoq va po'ssiqlar pishirilgan.
110. Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan: endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi.
111. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shedin katta yozuvchimi?
112. Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.
113. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u xilvat va pinhonlikni yoqtiradi.
114. Ovg'a kirishadigan sohibchanga qushlardan: qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; urishadigan qushlardan: dakan xo'roz, oddiy xo'roz, amirxon xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib, cho'pqaqasda, to'rqafasda saqlanadi); sayraydiganlardan: qumri, sa'va, bulbul, mayna va boshqalar.
115. Ahror ovoz egasini tanidi: Hasan naychi edi.
116. Qor yog'di – izlar bosildi.
117. San'atkor tajang edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi.
118. Uyda xizmatchi ovqat qilib qo'ygan ekan, san'atkorning tomog'idan hech narsa o'tmadi – ikki piyola choy ichdi, xolos...
119. Traktorist tanqid qilganiga san'atkor asti chiday olmas edi: traktor qayoqda-yu, masalan, «chorzarb» qayoqda, traktorist qayoqda-yu ashulachi qayoqda!
120. Abror qizni darrov tanidi: u qo'shni mahalladagi do'konda ishlar edi.
121. Bir joyda turganimda deyarli fikr qilolmayman; tanam hamma vaqt harakatda bo'lishi kerak, ana o'shanda aqlim ham harakatga keladi.
122. Xuddi bobom kabi jiddiyat va qunt bilan ishga kirishmoqchi bo'lsan: chol o'tkir gazanlarni mendan yashirib ketgan ekan.
123. Qushlarning sho'xlik bilan sayrashlari mayin, yoqimli va mungli bu ovozni bosolmaydi; daraxtlarning shitirlagan ovozi qulog'imga yozning xayrlashuv qo'shig'idek eshitilardi.
124. Abdullatif otasining ketidan quvmadi – uch kun Sherozda qolib ketdi.
125. Qiz avval qo'rqdi, otasi uning Sidiqjon bilan so'zlashib turganini emas, bog'ga tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi – bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi; keyin yangi bir olamga kirib, otasining qamchisini ham, jingil ostida pusib yotgan kurk tovuqni ham unutdi.
126. Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun, qilt etgan shabada yurmaydi.

127. O'qishlar har xil bo'ladi: birov ermak uchun o'qiydi, birov hordiq chiqarish uchun, birov o'qiyotgan kitobini ilmiy tahlil qilish uchun, birov bo'lak mashg'ulot bo'lmaganidan vaqt o'tkazish uchun, birov asardagi voqeaga, qahramonning taqdiriga qiziqib o'qiydi.

128. Eh, bu yerning nimasini aytasan: xayoldagi jannatning xuddi o'zi.

129. Hech o'ylaysanmi: qishloqda shuncha voqealar bo'lib o'tdi.

130. O'zimcha hayronman: nega bu kishilar kitob o'qirkanmiz deb shuncha taraddudlanib o'tirishibdi?

131. G'uncha guldin ham go'zalroq, chunki uning bag'rida ikki hayot – o'z hayoti va yana gul hayoti ham bor.

132. Bunisi oq mum, harom emas: shimsa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi.

133. Fe'l-u atvorining o'zgarmas darajada qat'iyligi – ayol tabiatiga yotdir.

134. Uch balodin saqlasin:

Charxi balokash bo'lmasin.

135. Qozoq sahrosi – bu beaded sahro,

Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.

136. Bu o'zbek yigit – tanti, mehribon.

137. Kuz guli – Rangi o'chgan, umri kechgan.

138. Hayotning poyonsiz ummoni ichra

Bor shunday g'ariblar – temirlar hissiz.

139. O'zbek tuprog'iga kuzning hazin nafasi kelib kirishi bilan daraxtlar za'faron libosga burkanadi, bog'chalardagi gullar labidan tiriklik suvi qochadi; sarg'ish rang – o'lim va musibat rangi tevarak bo'ylab yoyiladi.

140. Ezgu ishni hech qachon keyinga qoldirmaslik kerak: har qanday pay-salga solish bema'nilik va ko'pincha xavflidir.

141. Ishning oqibatini, nima bo'lishini bilish – oqillikdan, ammo keladigan falokatga chora izlamay qayg'u chekib o'tirish – nodonlikdan dalolat beradi.

142. Bugun barcha bir butun millat bo'lib uyg'onmas ekan, kelajak yo'li-dagi uy-ro'zg'orimiz kamol topmaydi – fikrsizlik, nodonlik oyog'imizga tushov bo'laveradi.

143. Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgarmabdi: hamon o'sha-o'sha.

144. Yozgan xatiga qarab bexato aytish mumkin: bu odam sermulohaza, latif, dono, izlanuvchan, dilgir, kuyunchak, mehribon yo bo'lmasa, shoshqa-loq, ziqna, asabiy, dag'al, dali-g'uli va hokazo.

145. Kel, o'zbek qadrdonim, kel, mening aziz qo'nog'im bo'l, qalbing huzurli o'lsun, – dedi u o'rnidan turib.

146. So'z doriga o'xshaydi: ortiqchasi zarar keltiradi.

147. O'ttizinchi yillarning o'rtalarida, bolaligimni o'ylaganimda chal-akam-chatti tush ko'rganday bo'lar edim: dumli yulduz chiqqan edi; Babar (Bobur bo'lsa kerak) degan yigitni otqorovul miltiq bilan otganda o'lmagan edi.



148. E'tibor bering: shoir she'riyat olamiga kirishi bilanoq asarlarini o'z ona tilida yoza boshlagan.
149. Oyim endi o'rnidan turayotgan edi, eshik shaxt bilan ochildi.
150. Abdullatif otasining ketidan quvmadi – uch kun Sherozda qolib ketdi.
151. Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo'yab ko'rdi – yulduzlar o'z rangida xira miltillab turaveradi.
152. Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini ochdi: nur yog'ilibdi.
153. O'zimcha hayronman: bu kishilar nega taraddudlanib o'tiribdi?
154. Bir oqil aytarmish: tingla, qarindosh,  
Siringni fosh etma, kerak bo'lsa bosh.
155. Men hovlimga keldim, bolaligimda ko'rganlarimdan yolg'iz shu jiyda qolibdi – tarvaqay, g'adir.
156. Faqat bu elga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan boyligim – madrasa-yu rasadxonam, nodir xazinam – to'plagan kutubxonam va, nihoyat, yaratgan asarlarim – barchasi poymol bo'lishidan qo'rqaman.
157. Osmonda yoqutdek yirik yulduzlar porlaydi, tungi oyning o'rog'i daryoda qalqib-qalqib suzadi.
158. Bor so'zni keltirsam, sig'dirmas naql,  
O'zida bor odam bilar: so'z – aql.
159. Ovg'a kirishadigan qushlardan: qarchig'ay, miqqiy, qirg'iy; uri-shadigan qushlardan: dakan xo'roz, kaklik, bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqiladi va cho'p qafasda saqlanadi), sayraydiganlardan: sa'va, bulbul, mayna va boshqalar bor edi.
160. Ahror ovoz egasini tanidi: Hasan naychi edi.
161. Yolg'on o'rmonga o'xshaydi: unga qanchalik kirib boraversang, un-dan chiqib olish ham shunchalik chuqurlashaveradi.
162. Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining ko'zlari darrov ko'rdi: poygakda bir kishi eshikni gavdasi bilan to'sib, qaqqayib turardi.
163. O'g'il ham, qiz ham, kim bo'lishidan qat'i nazar, o'qishda, mehnatda, safarda o'ziga fe'li, muomalasi bilan yoqib qolgan kishi bilan do'stlashadi.
164. Hasharda hamma ishladi: yoshlar ariq tozaladi, qizlar maydonni su-purdi, kattalar mashinaga yukni ortdi.

## MORFEMIKA

Morfemika tilshunoslikning soʻz tarkibi, yaʼni maʼnoli qismi haqidagi boʻlimidir (yunoncha, «**morphe**» – «shakl, forma»). Soʻzlarning eng kichik maʼnoli qismlarini oʻrgatuvchi tilshunoslik boʻlimi morfemika sanaladi. Soʻz tarkibi har doim ikki qismdan iborat boʻladi. *Litsey-dosh, quvon-ch, maslahat-chi, fikr-iy, ish-i* soʻzlaridan birinchi qism asos sanaladi, ikkinchi qism esa qoʻshimcha qismidir.

### Asos (yetakchi morfema)

Soʻzning asosiy maʼnosini ifodalab, mustaqil qoʻllana oladigan qism asos deyiladi. Asos soʻzning tub maʼnoli qismi sanaladi. Asosda qoʻshimchalar qoʻshish natijasida turli xil maʼnolar yuzaga chiqariladi. Masalan, *tin – ch, tin – ish, tin – ch – lik, tin – im – siz, be – tin – im* kabi soʻzlarning asosi «tin» soʻzidir, lekin qoʻshimcha qoʻshilishi bilan maʼno oʻzgarib bormoqda.

Ayrim soʻzlar tarixiy taraqqiyot natijasida oʻzining tub – asos qismini oʻzgartirishi, boshqacha shaklga kirishi mumkin. *Yomgʻir (yom-gʻir), koʻmir (koʻm-mir), olgʻa (ol(d)-ga)* kabi soʻzlarni asos va qoʻshimcha qismga ajratib boʻlmaydi. Turkiy tillarda, xususan, oʻzbek tilida asos koʻpincha birinchi boʻlib keladi. Masalan, *tadbir – kor, toy – choq* kabi.

Bir asosdan yasalgan soʻzlar asosdosh sanaladi: *fikrdosh, fikriy, ham-fikr, fikran* singari. Baʼzi hollarda oldin ham qoʻshimcha qoʻshilishi mumkin. Masalan, *bexabar, nodavlat, serhashamat, bamaʼni*. Bunday qoʻshimchalar, asosan, sifat turkumida uchraydi. Biror narsaga egalikni (*badavlat, baquvvat, serfarzand, serqatnov*) yoki ega emaslikni (*beibo, behayo, nooʻrin, nomard*) bildiradi.

Qoʻshimcha qoʻshilishi bilan baʼzan asosda oʻzgarish roʻy berishi mumkin.

1. **Tovush tushadi:** past + ay = pasay, sust + ay = susay, oʻrin + a = oʻrna.
2. **Tovush almashadi:** ong + la = angla, son + a = sana, quvna + q = quvnoq.
3. **Tovush ortishi:** u + ga = unga, shu + da = shunda, bu + dan = bundan.

### Qoʻshimchalar (koʻmakchi morfemalar)

Tilning imkoniyatlari shu darajada boyki, oz vositalar bilan cheksiz tushunchalarni, xilma-xil axborotlarni ifodalash mumkin. Yangi-yangi tushunchalarni ifodalashda ilgari tilimizda mavjud boʻlgan soʻzlarga koʻmakchi morfemalarni qoʻshib yangi soʻz hosil qilish usuli keng qoʻllaniladi. *Ana shunday usul bilan yangi soʻz hosil qilish soʻz yasalishi sanaladi. Koʻmakchi morfemalar qoʻshish yoʻli bilan yangi soʻz yasalishi doimo ikki qismning boʻlinishini talab qiladi:*



1. So'z yasashga asos qism.

2. Yasovchi qism.

*Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shilib unga yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan, shuningdek, so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qism qo'shimcha (ko'makchi morfema) deyiladi.* Qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

a) asosga qo'shilib yangi ma'no hosil qiluvchi qo'shimchalar **so'z yasovchi** qo'shimchalar deyiladi. Masalan, *oq* asosiga *-la* qo'shimchasining qo'shilishidan «*oq rangga kiritish*» ma'noli yangi so'z yasalgan;

b) asosga qo'shilib uning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklash yoki o'zi qo'shilayotgan so'zni boshqa so'zga bog'lash vazifasini bajaruvchi qo'shimchalar **shakl yasovchi** qo'shimchalardir. Masalan, *-lar* qo'shimchasi *gul* asosiga qo'shilib uning ma'nosidan boshqa yangi ma'no yasamaydi, gulning birdan ortiqligini bildiradi.

*Yasovchi qismni tashkil etgan morfemalar so'z yasovchi morfemalar deyiladi.*

Masalan, *terim* so'zi *ter* so'ziga *-im* so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. *Terimchi* so'zi esa *terim* so'ziga *-chi* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Demak, birinchi so'zda yasovchi asos *ter*, ikkinchi so'zda esa *terim*dir. Demak, *terim* so'zi uchun *ter* so'zi yasalish asosi, *terimchi* so'zi uchun *terim* so'zi yasalish asosi hisoblanadi. *Ishchi*, *ishla* so'zlarining yasalish asosi bir xil, chunki *ishchi* so'zi uchun ham, *ishla* so'zi uchun ham yasalish asosi *ish* so'zidir. Bir asosdan hosil bo'lgan so'zlar so'z yasalish uyasini tashkil etadi. *Suvchi* so'zi «*suv quyish bilan shug'ullanuvchi shaxs*» ma'nosini, *temirchi* so'zi «*temir bilan ish ko'ruvchi shaxs*», *toshloq* so'zi «*toshga serob joy*» ma'nosini bildiradi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yasovchi morfema asosida yangi yasalgan so'z yasashga asos bo'lgan so'zning ma'nosiga asoslanadi, uning ma'nosi bilan bog'liq bo'ladi. Agar yasalgan so'z bilan yasashga asos qism o'rtasida ana shunday bog'lanish bo'lmasa, yasama so'z hisoblanmaydi. Qiyoslang: *tepki* – «*tepishga xoslangan*» so'zi *tep* so'zi bilan mazmunan bog'lanadi, lekin *tulki*, *eski* so'zlarini *tul* va *ki*, *es* va *ki* qismlarga ajratib bo'lmaydi, chunki *tulki* va *eski* so'zlari *tul* – «*beva*», *es* – «*aql*», «*xotira*» so'zlari bilan mazmunan bog'lanmaydi.

*Yetakchi morfemalarga qo'shilib yangi so'z hosil qilmaydigan, so'zning turli xil shakllarini vujudga keltiradigan morfemalar shakl yasovchi morfemalar deyiladi.* Masalan, *yaxshigina*, *Zamiraxon*, *ukamni* va h.k.

**Shakl yasovchi** morfemalar sintaktik munosabatni bildirish-bildirmasligiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

1. Sintaktik munosabatni bildirmaydigan morfemalar. Bu morfemalar *lug'aviy shakl yasovchi* qo'shimchalar sanaladi.

2. Sintaktik munosabat bildiradigan morfemalar. Bu morfemalar *sintaktik shakl yasovchi* qo'shimchalar deyiladi.

*O'qigach* so'zidagi *-gach* morfemasi *o'qi* so'ziga qo'shilib undan yangi so'z yasamagan, bu so'zga qo'shimcha ma'no yuklagan. Shuning uchun bu shakl lug'aviy shakl yasovchi morfema sanaladi.

*Yetakchi morfemaga qo'shilib undan yangi so'z yasamaydigan va o'zi qo'shilgan so'zni boshqasiga bog'lash uchun xizmat qilmaydigan shakl yasovchi morfemalar lug'aviy shakl yasovchi morfemalar deyiladi.* Bu qo'shimchalar so'zga qo'shimcha ma'no yuklashga xizmat qiladi. Lug'aviy shakl yasovchilarga quyidagi qo'shimchalar kiradi: 1. Otlarning ko'plik shakli (*-lar*). 2. Otlarning qarashlilik qo'shimchasi (*-niki*). 3. Fe'ning bo'lishsizlik shakli (*-ma*). 4. Fe'ning zamon shakllari (*-di, -ib, -gan, -moqda, -yotir, -yotib, -yap, -ajak, -adi, -ur, -ar, -ay (-y)*). 5. Fe'ning vazifaviy shakllari (*-ish, -uv, -moq, -mak, -ar, -gan (-kan, -qan), -ayotgan, -adigan, -ydigan, -ib, -guncha (-kuncha, -quncha), -gancha (-kancha, -qancha), -gani (-kani, -qani), gach (-kach, -qach)*). 6. Fe'ning munosabat shakli qo'shimchalari (shaxs-sondan tashqari) (*-sa, -ay, -aylik, -gin, -sin, -ing, -inglar, -moqchi*). 7. Sifat darajalari shakllari (*-imtir, -mtir, -ish, -roq*). 8. Otlarning erkalash-kichraytirish qo'shimchalari (*-cha, -gina, -choq, -chak, -jon, -oy, -xon, -bek...*). 9. Fe'ning nisbat shakllari (*-in (-n), -il (-l), -ish (-sh), -t, -tir, -dir, -ir, -ar, -iz, -gaz (-kaz, -qaz), -giz (-kiz, -qiz)*). 10. Son shakllari (*-ta, -tacha, -lab, -larcha, -tadan, -ov, -ala, -ovlon, -inchi (-nchi)*).

So'zga qo'shilib uning ma'lum morfologik shaklini ko'rsatuvchi va boshqa so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi shakl yasovchi morfemalar sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Egallik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalari sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi.

### **Morfemalarning agglyutinativ tabiati**

O'zbek tili boshqa turkiy tillar qatori morfologik jihatdan agglyutinativ tillar sirasiga kiradi. Agglyutinativ tillar quyidagi xususiyatlari bilan flektiv tillardan ajralib turadi:

- 1) qo'shimchalar so'zga asosdan keyin qo'shiladi;
- 2) nechta grammatik ma'no bo'lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatik shakl qo'llaniladi;
- 3) grammatik shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi;
- 4) grammatik ma'noning ko'payishi bilan so'zning grammatik shakllari ham chapdan o'ngga qarab cho'zilib boradi;
- 5) grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi so'zning fonetik tarkibini o'zgartirmaydi.

Lekin ayrim so'zlarda qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zning tovush tarkibi o'zgaradi: tovush tushadi, ortadi, almashadi. Bu esa o'zbek tilida ham ba'zi so'zlarda flektiv til elementlari mavjudligini ko'rsatadi. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida so'zning tovush tarkibi o'zgarishi fuziya (fleksiya)



deyiladi. O'zbek tilida ko'makchi morfemalar, ya'ni qo'shimchalar yetakchi morfemaga undan keyin kelib ulanadi. Masalan:

*zamon – dosh*

*zamondosh – lar*

*zamondoshlar – im*

*zamondoshlarim – ga*

Asosga avval so'z yasovchi qo'shimcha, so'ng lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha, eng oxirida esa sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha qo'shiladi.

Ularning joylashishi quyidagicha bo'ladi:

*Asos + so'z yasovchi qo'shimchalar + lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar + sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar.*

Asosga so'z yasovchi qo'shimcha, shakl yasovchi qo'shimchalar ikkitadan qo'shilsa, ular ketma-ket ulanadi, yuqoridagi tartib buzilmaydi.

Masalan, *mulk – dor – lik, bi – lim – li, jo'sh – qin – lik, ko'k – ish – roq, ket – a – yotir – man, sinf – dosh – lar – im – dan, bor – a – yotgan – ingiz – ni, varaq – la – sh – ni* kabi.

Ba'zi sifatlarda bu tartib o'zgarishi mumkin. Sifat yasovchi old qo'shimchalar asosdan oldin keladi. Masalan, *be – farosat, be – e'tibor, ser – suv, no – o'rin* kabi. Lekin bunday old qo'shimchalar o'zbek tilida juda kam.

Shuningdek, ayrim so'zlarda umumiy tartib buzilishi ham kuzatiladi. Masalan, *es – la – gan – lik* kabi. Bunda asos + so'z yasovchi + shakl yasovchi + so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilmoqda. Bu kabi tartib o'zgarishini quyidagi so'zlarda ham kuzatishimiz mumkin: *o'z – i – cha* (asos + sintaktik shakl yasovchi + so'z yasovchi), *maqta – n – choq* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *sovi – t – gich* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *isi – t – ma* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *qur – il – ma* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *o'ch – ir – g'ich* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *qaqsha – t – qich* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *muz – la – t – gich* (asos + so'z yasovchi + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi), *zerik – ar – li* (asos + lug'aviy shakl yasovchi + so'z yasovchi).

### Old qo'shimchalar va ularning xususiyatlari

O'zbek tili asrlar davomida arab, fors-tojik, rus tillari bilan o'zaro aloqada yashab keldi. Buning natijasida tilimizga o'sha tillarga xos yasalmalar va so'z yasalish qolipi ham o'zlashdi. Shulardan biri old qo'shimchali so'zlar va old qo'shimchalar hisoblanadi. Bular quyidagilar:

**ba-**: batafsil, badavlat, bahaybat;

**be-**: bexavotir, beg'ubor, befarosat;

**no-**: noumid, noqulay, norozi;

**ser-**: sergap, serzavq, serhosil.

Shuningdek, kam qo'llanuvchi *badfe'l*, *badjahl*, *badnafs*, *xushxabar*, *xushro'y*, *xushvaqt*, *hamfikir*, *hamshahar*, *hamsuhbat* singari so'z yasalishi holatlari ham mavjud. Bu old qo'shimchalar fors-tojik tilidan kirgan bo'lib, sifat turkumiga oid so'z yasaydi.

*ba-*, *ser-* qo'shimchalari, asosan, otga qo'shilib asosdan anglashilgan belgi-xususiyatning me'yordan ortiq, ko'p ekanligini bildirsa, *be-*, *no-* qo'shimchalari xuddi shu narsalarga ega emaslikni anglatadi. Taqqoslang: *baquvvat*, *serma'no* – *behayo*, *noo'rin*.

Mazkur qo'shimchalar *-li*, *-siz*, *-dor* qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *badavlat* – *davlatli*, *beqiyos* – *qiyossiz*, *noo'rin* – *o'rinsiz*, *sertashvish* – *tashvishli*.

### Qo'shimchalarda shakldoshlik

Shakldoshlik nafaqat leksemalarga, balki qo'shimchalarga ham xos xususiyat sanaladi. Qo'shimchalarning ayrimlari ifodalanishiga ko'ra aynan bir-biriga o'xshasa ham, mazmun-mohiyati bilan keskin farqlanadi. Shakli bir xil, vazifasi har xil qo'shimchalar shakldosh qo'shimchalar deyiladi.

Masalan, *-in* qo'shimchasi

Ot yasovchi	Sifat yasovchi	Ravish yasovchi	Fe'lining nisbat shakli
tiqin	to'lin	ostin-ustin	ilin
yig'in	erkin	birin-ketin	ko'rin
chaqin	yashirin	qishin-yozin	qilin

*-in* ko'makchi morfemasi ot, sifat, ravish so'z turkumiga oid so'zlarni yasab so'z yasovchi vazifasini bajargan bo'lsa, fe'lining nisbat shaklini hosil qilgan holatda lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini o'tagan. Demak, *-in* grammatik shakl so'z yasovchi va shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi.

Bunday qo'shimchalar o'zbek tilida ko'plab uchraydi. *-ma*, *-chi*, *-li*, *-dor*, *-ch*, *-(i)sh*, *-ar*, *-ik*, *-ish*, *-qin*, *-chaq*, *-(a)y*, *-siz* kabi qo'shimchalarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Shakldosh qo'shimchalar quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

1. So'z yasovchilar doirasida, ya'ni so'z yasovchi qo'shimcha so'z yasovchi qo'shimcha bilan shakldoshlik hosil qiladi:

qalamdon (ot) – qadrdon (sifat);

toshqin (ot) – jo'shqin (sifat);

tepki (ot) – kechki (sifat);

qatlama (ot) – bo'g'ma (sifat);

o'roq (ot) – qo'rzoq (sifat);

yoshlik (ot) – sirdaryolik (sifat);



yuzsiz (sifat) – so'zsiz (ravish);  
yugurik (sifat) – ko'rik (ot) – birik (fe'l).

2. So'z yasovchi qo'shimcha so'z shakli yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh bo'ladi:

kelinchak (erkalash, hurmatlash shakli) – erinchak (sifat yasovchi);  
gapirma (fe'lning bo'lishsiz shakli) – burma (sifat yasovchi);  
yuzlab (chama son shakli) – haftalab (ravish yasovchi);  
qizcha (kichraytirish shakli) – erkakcha (ravish yasovchi);  
Barnoxon (hurmat shakli) – kitobxon (ot yasovchi);  
do'sti (egalik qo'shimchasi) – boyi (fe'l yasovchi).

3. Har qanday holatda so'z shakli yasaydi:

oqish (ozaytirma shakli) – kelish (harakat nomi);  
otam (egalik shakli) – ko'rdim (shaxs-son shakli);  
ukang (egalik shakli) – bording (shaxs-son shakli).

### Qo'shimchalarning ma'nodoshligi

Qo'shimchalarda shakldoshlikdan tashqari ma'nodoshlik hodisasi ham uchraydi. Ba'zan ma'lum bir so'z yasash ma'nosini ifodalash uchun birdan ortiq qo'shimchalardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Masalan, *-li* o'rniga *-kor*, *-dor*, *bo-*, *ba-*, *ser-* qo'shimchalarini qo'llash mumkin:

itoatli – itoatkor;  
shirali – shirador;  
savlatli – basavlat;  
sutli – sersut;  
obro'li – boobro'.

Shuningdek, *-chi* o'rnida *-shunos*, *-kash*, *-kor*; *-siz* o'rnida esa *be-*, *no-* old qo'shimchalarini qo'llash mumkin:

adabiyotchi – adabiyotshunos;  
aravachi – aravakash;  
g'allachi – g'allakor;  
hayosiz – behayo;  
o'rinsiz – noo'rin.

Hamma holatlarda ham yuqoridagicha ma'nodoshlik yuzaga kelavermaydi. Masalan, ***nodavlat tashkilotlari*** deyish o'rniga ***bedavlat tashkilotlari*** deyilsa, uslubiy g'alizlik yuzaga keladi. Demak, qo'shimchalardagi ma'nodoshlik nutqning muayyan davrdagi me'yorlari asosida yuzaga keladigan til hodisasi hisoblanadi.

### Qo'shimchalarda zid ma'nolilik

Nutqning ravon, ta'sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo'yoqdor bo'lishida zid ma'noli qo'shimchalardan foydalanishning ahamiyati katta. Ma-

salan, *-li* qo'shimchasi *-siz, be-, no-* qo'shimchalariga nisbatan qarama-qarshi qo'yiladi: *aqlli – aqlsiz, iboli – beibo, o'rinli – noo'rin* kabi.

Bunday qo'shimchalar, asosan, sifat so'z turkumida ishlatiladi. *ser-* qo'shimchasi *be-* qo'shimchasiga, *ba-* qo'shimchasi *-siz* qo'shimchasiga, *bo-* qo'shimchasi *-siz* va *be-* qo'shimchalariga, *-dor* qo'shimchasi *-siz* va *be-* qo'shimchalariga nisbatan zid ma'nolidir.

Bunday qo'shimchalarni ikki guruhga bo'lish mumkin: biror belgi-xususiyatga, shakl-shamoyilga yoki rang-tusga egalikni bildiruvchi qo'shimchalar (*-li, bo-, ser-, ba-, -dor*); shunday belgiga egamaslikni ifodalovchi qo'shimchalar (*-siz, be-, no-*).

Masalan:

badavlat – davlatsiz;  
shirador – beshira, shirasiz;  
sero't – o'tsiz;  
boobro' – beobro', obro'siz;  
ko'ngilli – ko'ngilsiz.

Qo'shimchalar shakldoshligi, ma'nodoshligi va zid ma'noliligi nutqni ko'rkamlashtiradi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, uning uslubiy jihatdan rang-barang bo'lishini ta'minlaydi, ta'sirchanligini oshiradi.

### Nutqda bir asosli so'zlardan foydalanish

Tildagi so'zlar yangi paydo bo'lgan so'zlar hisobigagina emas, balki oldindan muomala-munosabatda mavjud bo'lib kelgan so'z asosida yangi leksemalarni hosil qilish yo'li bilan ko'payib boradi. Bitta asos vositasida bir necha yangi so'z yasalishi mumkin: *suvli, sersuv, suvsizlik*. Bir asosli so'zlar asosdosh so'zlar deyiladi.

**Namunalar:** *tinch, tinim, tinimsiz, notinch, notinchlik; gulli, guldor, gulchi, gulchilik, sergul; shoxli, shoxdor, shoxsimon, sershox; obro'li, obro'siz, boobro', beobro'* va hokazo.

Eslatma: *gulga, gulni, guldan, gullar, gulcha* kabi so'zlar asosdosh so'zlar sanalmaydi. Asosdosh bo'lishi uchun bir asosdan so'z yasovchi grammatik shakllar orqali yangi so'zlar yasalgan bo'lishi kerak.



## SO'Z YASALISHI

### So'z yasallshi haqida umumiy ma'lumot

Tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarishda, rivojlanishdadir. Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarida paydo bo'lgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi so'zlar yuzaga keladi. Yangi so'zlar ikki xil yo'l bilan yasaladi:

1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyati asosida.
2. Boshqa tillardan so'z olish asosida.

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi so'zlarning hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga qo'shimcha qo'shish usuli yoki so'z qo'shish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri olingan. Endi «kompyuter bilan ishlovchi shaxs» tushunchasini ifodalash ehtiyojini qondirish uchun kompyuter so'ziga o'zbek tilida oldindan «ma'lum mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini ifodalovchi *-chi* qo'shimchasidan foydalanildi. *Kompyuterchi* «kompyuter bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini bildiradi.

*Tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga ma'lum yasovchi vositalar qo'shish bilan yangi so'z hosil qilinishi so'z yasallshi hodisasi, shunday hodisani o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi esa so'z yasallshi deyiladi.*

Demak, so'z yasallshi atamasi ikki ma'noda: a) so'z yasallshi hodisasi ma'nosida; b) so'z yasallshi hodisasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi ma'nosida qo'llaniladi.

### So'z yasallshi tizimi

1. *Ter, terim, terimchi.* 2. *Tara, taroq, taroqchi* so'zlariga e'tibor bersangiz shuni sezasizki, birinchi guruhdagi so'zlarning hammasida *ter* so'zi takrorlanadi, ikkinchi guruhdagilarida esa *tara* qismi hammasi uchun umumiydir. Ko'rinadiki, so'z yasallshi hodisasi o'zining ichki tuzilishiga ega bo'ladi va ikkita tarkibiy qismni o'z ichiga oladi: a) yasashga asos qism; b) yasovchi vosita. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda yasalmani tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan *terim* so'zida *ter* qismi yasashga asos, *-im* qismi yasovchi vosita, ikkala qismning qo'shilishidan hosil bo'lgan hosila – *terim* yasalma hisoblanadi. *Terimchi* so'zida esa *terim* yasashga asos qism, *-chi* yasovchi vosita, *terimchi* esa yasalma sanaladi. *So'zning yasallsh tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi. So'zning ma'noli qismlarga bo'linishi uning morfemik tuzilishi hisoblanadi.*

So'zda nechta ma'noli qism bo'lsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, *terimchi* uchta ma'noli qismdan tashkil topgan: *ter – im – chi*. *Terimchilar* so'zi esa to'rtta ma'noli qismdan iborat: *ter – im – chi*

– lar. *Terimchilarga* so'zi esa beshta ma'noli qismdan iborat: *ter – im – chi – lar – ga*.

Ko'rinadiki, so'zning morfemik tuzilishi yasovchi qo'shimchalarni ham, shakl yasovchi qo'shimchalarni ham o'z ichiga oladi. So'zning morfemik tuzilishini belgilashda ma'noli qismlar so'z yasovchi yoki shakl yasovchi ekanligining ahamiyati bo'lmaydi. Qanday ma'noli qismlardan – morfemalardan iboratligi e'tiborga olinadi.

So'zning yasalish tuzilishi faqat yasovchilarnigina o'z ichiga oladi. Shakl yasovchi (so'z o'zgartiruvchi) qo'shimchalar so'z yasalish tuzilishiga kirmaydi.

So'z yasalish tuzilishi doimo ikki tarkibiy qism: yasashga asos va yasovchi vositani o'z ichiga oladi. Agar so'zda birdan ortiq so'z yasovchi qo'shimchalar ishtirok etsa, eng oxirgisi yasovchi vosita hisoblanadi, oldingilari esa yasashga asos qism tarkibiga kiradi. Masalan, *taroqchi* so'zida *-chi* yasovchi vosita, *taroq* yasashga asos, *taroqchi* yasalma; *taroq* so'zida esa *-q* yasovchi vosita, *tara* yasashga asos, *taroq* yasalmadir.

Shuni ta'kidlash joizki, so'z yasalishi tuzilishida yasashga asos qism bilan yasalma o'rtasida mazmuniy bog'liqlik, mazmuniy davomiylik bo'ladi. Yasalmada yasashga asos davom etadi. Masalan, *tepki* so'zi yasalma bo'lib, *-ki* yasovchi vositasida *tep* so'zidan yasalgan. *Tepki* yasashga asos qism ma'nosini davom ettiradi: 1. *Tepki uchun xoslangan moslama* (otish qurolida). 2. *Tepki zarbasi* (tepki yedi).

### So'z yasallish usullari

So'z yasashga asos qismning qanday xususiyatga egaligiga ko'ra so'z yasallishining bir necha usullari bor:

- 1) yasashga asos qismga qo'shimchalar qo'shish orqali (affiksatsiya);
- 2) so'zlarni qo'shish orqali (kompozitsiya).

Masalan, *ishla* so'zi *ish* qismiga (yasashga asos) *-la* qo'shimchasini qo'shish yo'li bilan hosil bo'lgan. Bu *affiksatsiya* usulidir. *Qo'shma korxonalar, ishlab chiqarish* singari so'zlar esa ikki so'zni bir-biriga qo'shish asosida hosil qilingan. Bu *kompozitsiya* usulidir.

Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashning mahsuldor usuli qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan so'z yasash – affiksatsiyadir. Bu usul tilda mavjud bo'lgan muayyan so'z yasash qoliplari asosida yuzaga chiqadi. Shuning uchun so'zlovchi xotirasida so'z yasashning qoliplari mavjud bo'ladi. Masalan, *ot + chi* – shaxs oti yasovchi (*ishchi, terimchi, suvchi*); *ot + li* – belgining mavjudligi yoki ortiqchiligi (*suvli, mevali*) va hokazo. Ana shu so'z yasash qoliplari asosida turli-tuman so'zlar hosil qilinadi.

*So'zlovchi xotirasida so'z yasash qoliplari va ularning ma'nolari haqida ko'nikmaning mavjud bo'lishi har qanday yangi yasalmaning oson tushunilishiga imkon beradi.*



So'z yasash qoliplari va ularning ma'nolari bir xil yasovchi qo'shimchali so'zlarni ma'lum uyalarga birlashtirish asosida aniqlanadi.

**Masalan:**

traktorchi	yig'la	binokor
kombaynchi	sizla	g'allakor
suvchi	qo'lla	paxtakor
ekskvatorchi	oqla	o'ymakor
tikuvchi	ishla	sholikor

### So'z yasash jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar

Turkiy, jumladan, o'zbek tili morfologik jihatdan *agglyutinativ tillarga* kiradi. Agglyutinativ tillar quyidagi xususiyatlari bilan flektiv tillardan ajralib turadi:

- 1) nechta grammatik ma'no bo'lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatik shakl qo'llaniladi. Masalan, *yoz – ma – say – di – m*;
- 2) grammatik shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi;
- 3) grammatik ma'noning ko'payishi bilan so'zning grammatik shakllari ham chapdan o'ngga qarab cho'zilib boradi;
- 4) grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o'zgartirmaydi.

O'zbek tilida so'z yasash jarayonida so'z yasash asosiga yasovchi qismning qo'shilishi natijasida asos qismning tovush tarkibida ba'zan o'zgarish ro'y berishining guvohi bo'lamiz. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. *Sust, past* singari so'zlarga *-ay* yasovchi vositasi qo'shilganida yasashga asos qismda mavjud bo'lgan oxirgi «*t*» undoshi tushib qoladi: *past + ay = pasay, sust + ay = susay* kabi.

2. *Qizil, sariq* kabi ikki bo'g'inli so'zlardan *-ar, -ay* yasovchi vositalari yordamida yangi so'z yasalganida yasashga asos qism bo'lgan *qizilning il* qismi va *sariqning* ikkinchi bo'g'inidagi *i* unlisi tushib qoladi: *qizil + ar = qizar, sariq + ay = sarg'ay* kabi.

3. *So'ra, sayla, quvna, to'qi, o'qi* kabi ikkinchi bo'g'ini *a* bilan tugagan so'zlarga *-q, -v* yasovchi qo'shimchalari qo'shilganida yasashga asos qism oxiridagi *a* unlisi *o* unlisiga, *i* unlisi *u* unlisiga aylanadi: *so'ra + q = so'roq, sayla + v = saylov, quvna + q = quvnoq, to'qi + v = to'quv, o'qi + v = o'quv* kabi.

4. *O'yin, qiyin* kabi ikki bo'g'inli so'zlarga *-a* yasovchi qo'shimchasi qo'shilganida yasashga asos qismning ikkinchi bo'g'inidagi *i* unlisi tushib qoladi: *o'yin + a = o'yna, qiyin + a = qiyna* kabi.

5. *Son, yosh, ong, ot* kabi so'zlarga fe'l yasovchi *-a* yoki *-la* qo'shimchasi qo'shilganida asos qismda tovush o'zgarishi ro'y beradi: *son + a = sana, yosh + a = yasha, ot + a = ata, ong + la = angla* kabi.

Ko'rsatilgan o'zgarishlarning o'ziyoq o'zbek tilida ba'zi hollarda fuziya (fleksiya) elementlari ham mavjudligini ko'rsatadi.

## ADABIY TIL HAQIDA MA'LUMOT

### Adabiy til shakllari

#### Adabiy til

Har kuni radio va televideniye orqali turli axborotlarni eshitganingizda, gazeta va jurnallar o'qiganingizda, siz mansub bo'lgan qishloq yoki shahar aholisi gaplashayotgan tilning radio, televideniye, matbuot tilidan ma'lum farq qiladigan tomonlarini payqaysiz. Bundan ko'rinadiki, hozirgi o'zbek tili-miz adabiy til va mahalliy xalq shevalarini o'z ichiga oladi.

*Tarixan tarkib topgan, qat'iy me'yorlarga bo'ysunuvchi, so'zlashuvchilarning qaysi hududda yashashidan qat'i nazar, barchasi uchun umumiy bo'lgan til adabiy til sanaladi.*

Adabiy til har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug'at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat'iy me'yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlangaqligi bilan xarakterlanadi.

Bu jihatdan adabiy til xalq shevalariga qarama-qarshi qo'yiladi.

*Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o'zida namoyon qilgan til shakli mahalliy shevalar hisoblanadi.*

Shevalar shu xususiyatlari bilan boshqa hududga mansub shevalardan, ayni paytda, adabiy tildan farqlanadi.

Adabiy til xalq shevalaridan oziqlangan holda muttasil rivojlanib boradi. Demak, adabiy til xalq shevalaridan uzilgan til emas.

Adabiy til xalq shevalari negizida so'z ustalari tomonidan umumlashtirish, qat'iy me'yorlarni ishlab chiqish yo'li bilan hosil qilinadi. Hozirgi o'zbek adabiy tili ko'proq qarluq, qisman qipchoq va o'g'uz shevalari negizida vujudga kelgan. Qarluq shevasi vakillari ko'proq Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlari va ularning atroflaridagi hududlarda istiqomat qilishadi. Shuningdek, bu sheva vakillarini Markaziy Osiyoning bir qancha joylarida, xorijiy mamlakatlarda ham uchratish mumkin. Har bir ziyoli o'zi mansub hudud tili xususiyatlaridan qutulib, adabiy tilda gapirish ko'nikmasiga ega bo'lmog'i lozim. Masalan, *ashi, kevotti, kelutti, kelopti, oka, aqa-baqa* singari shakllarni nutqda qo'llash so'zlovchida nutq madaniyatining shakllanmaganidan dalolat beradi.

Adabiy til yozma va og'zaki shakllarga ega bo'ladi.

*Harflar vositasida yozma ravishda bayon qilinuvchi adabiy til yozma adabiy til sanaladi.* Masalan, gazeta-jurnallar tili, ish qog'ozlari tili va boshqalar.

*Tovushlar vositasida og'zaki ravishda bayon qilinuvchi adabiy til shakli og'zaki adabiy til deyiladi.* Masalan, radio, televideniye orqali uzatiluvchi su-xandon yoki jurnalist nutqi va hokazo.

Adabiy tilning rivojlanishida badiiy asarlarning xizmati katta, chunki adabiy til me'yorlarining shakllanishida adabiyotning ta'siri kuchli bo'ladi. Shun-



ga qaramay, adabiy til bilan badiiy til bir narsa emas. Badiiy tilda adabiy til bilan birgalikda turli shevalarga yoki kasb-hunarga mansub personajlar nutqi ham ishtirok etadi.

Odamlar aqlining chirog'i bilim,  
Balodan saqlanish yarog'i bilim. (*Rudakiy*)

Badiiy til (badiiy nutq) adabiy tilning og'zaki so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, rasmiy uslub singari uslublardan biri, ya'ni badiiy uslub sanaladi. Ko'rinadiki, adabiy til badiiy tildan kengroq tushuncha bo'lib, badiiy tilni ham o'z ichiga oladi.

Hamzaning hajviy she'ri – «*Mevalar mojarosi*»da hamda E.Vohidovning «*Nutq haqida*» nomli she'rida badiiy tilning go'zal shaklini kuzatish mumkin.

### **Qo'llanilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so'zlar**

So'zlar qo'llanilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan va chegaralangan so'zlarga bo'linadi.

*Umumxalq tilida keng qo'llaniladigan va shu tilda so'zlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lgan so'zlar qo'llanilish doirasi chegaralanmagan so'zlar deyiladi. Ular neytral leksika atamasi bilan ham yuritiladi. Masalan, non, un, bug'doy, qalam, daftar, qor kabi.*

*Faqat ma'lum sotsial guruh hamda ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, umumxalq tiliga xos bo'lmagan so'zlar chegaralangan so'zlar hisoblanadi.*

Bunday so'zlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Hududiy chegaralangan so'zlar (dialektizmlar).
2. Sotsial chegaralangan so'zlar.

### **Shevaga xos so'zlar yoki dialektizmlar**

*Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qo'llanilib, boshqa hududda yashovchi o'zbek tili vakillari uchun xos bo'lmagan so'zlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) so'zlar yoki dialektizmlar deyiladi. Bu so'zlardan bittasi umumxalq tili bo'lgan adabiy til uchun qabul qilinadi va ana shu so'z adabiy til uchun me'yor sanaladi. Masalan, *shoti* (Andijon, Farg'ona, Namangan) – *narvon*, *takya* (Xorazm) – *do'ppi*. *Do'ppi* so'zining sheva variantlari: *takya*, *kallapo'sh*, *qalpoq*.*

*Dovuchcha* – Toshkentda, Farg'onada – *g'o'ra*; adabiy tilda *chumoli*, Samarqandda, Buxoroda – *mo'rcha*, Xorazmda – *qarindja*; adabiy tilda – *tuxum*, qipchoq shevalarida – *mayak*, Xorazmda – *yumirta*. Xorazmda: *uchak* – *tom*, *ay* – *oy*, *go'rmak* – *ko'rmoq*; Buxoroda: *inak* – *sigir*.

*Ma'lum ijtimoiy guruh doirasidagina ishlatiladigan so'zlar sotsial chegaralangan so'zlar deyiladi. Masalan, «otarchilar» doirasida qo'llaniladigan so'zlar: *yakan* – *pul*, *danap* – *qiz bola*; temiryo'l kuzatuvchilari doirasida*

qo'llaniladigan so'zlar: *qaychi – taftishchi, kolxoz – chiptasiz yo'lovchi*. Bunday so'zlar *argolar* deb yuritiladi. Ayrim argolar umumtil leksikasidan olindi. Bunday vaqtda mazkur so'zlar umum tildagiga nisbatan boshqa ma'noda qo'llaniladi. Masalan, kolxoz umumtil leksikasida eskirgan bo'lib, jamoa xo'jaligini ifodalagan, temiryo'l kuzatuvchilari tilida boshqa ma'noni ifodalaydi.

Shuningdek, ayrim tabaqa vakillari tilida faol ishlatiladigan leksemalar ham uchrab turadi, ular *jargonlar* deyiladi. Masalan, olampanoh, volidayi muhtarama, padari buzrukvor, manzirat qilmoq va hokazo.

Bundan tashqari, tilimizda qo'llanadigan eskirgan so'zlar, yangi paydo bo'lgan so'zlar (neologizmlar), atamalar, kasb-hunarga doir so'zlar ham qo'llanilish doirasi chegaralangan so'zlarga kiradi.

### **O'zbek tili leksikasining boyish manbalari**

O'zbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib, rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin: 1) o'z ichki imkoniyatlari asosida; 2) boshqa tillardan so'z olish asosida. Ularning birinchisi ichki manbalar, ikkinchisi esa tashqi manbalar hisoblanadi.

1. O'zbek tili leksikasining birinchi yo'l bilan boyib borish imkoniyatlari juda keng. Masalan: a) ilgari qo'llanilib, keyin iste'moldan chiqib ketgan so'zlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi; b) yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi so'z yasash: *uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor), dizaynchi (dizayner)* va boshqalar; d) dialektal so'zlarni faollashtirish (shevalardan adabiy tilga so'z olish): mengzamoq (*Xorazm*) – *o'xshatmoq, tenglashtirmoq, qiyoslamoq* ma'nosida.

2. O'zbek tili leksikasi tashqi manbalar asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta til mavjud emas. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmaganidagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy ham shunga da'vat qilgan. Keyingi davrlarda tilimizga Yevropa tillaridan bir qancha so'zlar yangi tushunchalar bilan birgalikda kirib keldi: *monitoring, diler, skaner* kabi. Bularning hammasi o'zbek tili leksik imkoniyatlarini kengaytirib, boyitmoqda.

O'zbek tili leksik qatlamining barchasi o'z qatlamga oid so'zlar bo'lmay, balki boshqa tillardan o'zlashib qolgan so'zlardan ham iborat. Xususan, arabcha: *saodat, a'lo, she'r, shoir, maorif, qoida, muomala, kitob*; forscha: *badjahl, dazmol, ruxsat, donishmand, ro'za, xo'roz*; rus tilidan: *mashina, gazeta, ruchka, stol, obyekt, parta, paravoz*; lotincha: *bioximiya*.



### Tojik tilida

*chorpoya*

*olov*

*chopon*

*kissa*

*dasta*

*buqa*

*jild*

*oftob*

*osmon*

### O'zbek tilida

*so'ri*

*o't*

*to'n*

*cho'ntak*

*sop*

*novvos*

*muqova*

*quyosh*

*ko'k*

Tojik tilidan so'z o'tishi natijasida qo'shma va juft so'zlar ham paydo bo'lgan: *bosh (pana)*, *qon (xo'r)*, *qo'sh (nay)*, *shirin (so'z)*, *yalang (bosh)*, *qahr-g'azab*, *to'y-tomosh*, *sog'-salomat*, *achchiq-chuchuk*.

### Neologizmlar

Tilimizda yangilik bo'yog'iga ega so'zlar neologizm, ya'ni yangi paydo bo'lgan so'zlar deyiladi. Masalan, *litsey*, *kollej*, *broker*, *kompyuterchi*, *dallolchilik*, *monitoring*, *sichqoncha*, *magistr*, *bakalavr*. Tilning yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlari tashqi va ichki omil asosida boyishi mumkin.

### Eskirgan so'zlar

Tilimizning ma'lum davrida qo'llanib, hozirgi kunda foydalanilmaydigan so'zlar eskirgan so'zlardir. So'zlarning eskirishi ikki xil yo'l bilan amalga oshadi:

1. *Tarixiy so'zlar yoki istorizmlar*. So'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *jallod*, *mingboshi*, *qozi*, *vazir* kabi.

2. *Arxaik so'zlar*. Bunday so'zlarda so'z eskiradi, xolos. U ifodalagan tushuncha qoladi. Masalan, *usturlob (teleskop)*, *riyoziyot (matematika)*, *handasa (geometriya)*, *cherik (askar)*, *o'kush (ko'p)*, *talim (bir qancha)*.

Tarixiy va arxaik so'zlar bugungi kunda ishlatilishi mumkin, biroq ularning qo'llanilish doirasi chegaralangan. Bu kabi so'zlar faqat badiiy asarlarda ishlatilishi mumkin. O'sha davr muhitini berish maqsadida ijodkor arxaik so'zlarni ishlatib o'quvchiga davr ruhini berishga harakat qiladi. Xususan, A.Qahhorning «Jonfig'on» hikoyasida bu ruhni ko'rishimiz mumkin.

### Uyadosh so'zlar

Bir mazmuniy uyaga (guruhga) mansub so'zlar **uyadosh so'zlar** deyiladi. Tilimizdagi barcha so'zlar ongimizda ma'lum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa so'zlarning xotirada oson saqlanishi va nutqiy

jarayonda ulardan oson foydalanish imkonini beradi. Masalan, *buzoq, sigir, sovliq, novvoz, buzoqboqar* kabi so'zlar *qoramol; qo'zichoq, qorako'l terisi, qo'chqor, qo'ychivon* so'zlari *qo'y* so'zi ma'no guruhi atrofida birlashadi.

### Tasviriy ifoda

Biror narsa-hodisani boshqa bir narsa-hodisaga o'xshatish orqali tasvir-lab ifodalash **tasviriy ifodalar (parafrazalar)** deyiladi. Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi sanaladi. Tasviriy ifodalar nutqimiz ta'sirchan-ligini ta'minlaydi, shuning uchun bir qancha uslubiy vazifalarni bajaradi.

#### Namunalar:

mo'yqalam sohiblari – rassomlar;  
salomatlik posponlari – shifokorlar;  
charm qo'liqop ustalari – bokschilar;  
g'azal mulking sultoni – Alisher Navoiy;  
hayotimiz qomusi – Konstitutsiya;  
qanotli do'stlar – qushlar;  
qora oltin – neft va ko'mir (omonim);  
zangori ekran – televizor;  
aql gimnastikasi – shaxmat va matematika;  
baraka urug'i – bug'doy;  
kumush tola – paxta, pilla (omonim);  
hayvonlar podshosi – sher;  
dala malikasi – makkajo'xori.

**Evfemizm** – beodob, qo'pol, noqulay so'z va so'z birikmalarini so'zlashuv tiliga xos qulay so'z va so'z birikmalari bilan almashtirish: *xotin oldi – uylandi; o'ldi – vafot etdi, qazo qildi, bo'g'oz – ikkiqat, homilador.*

**Tabu** – aynan aytilmaydigan yoki man etilgan so'zlar: *kal – siyqabosh, qoraqurt – biy.*



## ATAMASHUNOSLIK (TERMINOLOGIYA)

### Atamalar

*Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash uchun ma'nosi maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birikmalari atama deyiladi.* Atamalar 2 xil yo'l bilan olinadi: 1. Tashqi omil. Shunday fan sohalari borki, bu fandagi barcha uchun tushunarli bo'lishi kerak. Bu kabi atamalar barcha til doirasida bir xil bo'ladi. Masalan, fonema, kosinus, sinus. 2. Ichki omil. Atamalar umumxalq tilida mavjud so'zlarni maxsuslashtirish yo'li bilan ham hosil qilinadi. Masalan, matematikada *ildiz* tushunchasi umumxalq tili-dagi ildiz tushunchasidan farqlanadi. Yoki *qosh* so'zi duradgorlik kasbida ham umumxalq tilidagi «odamning yuz qismida ko'z kosasidan tepada yoysimon shaklda o'sib chiqqan yung» ma'nosidan boshqa tushunchani ifodalaydi.

Atamalarni tartibga solish har bir tilda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun atamalarni yaratish tamoyillari va ularni tartibga solish muammolari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limi borki, bu bo'lim atamashunoslik (terminologiya) deb yuritiladi. Atamashunoslikning o'rganish birligi atamalardir.

Har bir fan kasb-hunar tarmog'i atamalarsiz ish ko'ra olmaydi. Shuning uchun atamashunoslik muammolari faqat tilshunoslikninggina muammosi bo'lib qolmay, u barcha fan va kasb-hunarning ham asosiy masalalaridan-dir. Shu bois Vazirlar Mahkamasi qoshida barcha fan, kasb-hunar sohalarida atamalarni tartibga solish muammosi bilan shug'ullanuvchi Atamashunoslik qo'mitasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Atamalarni imkon qadar milliylashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish (kichik korxonalar, jamoa xo'jaligi, tad-birkor, qo'shma korxonalar kabi), shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tilidan kirib kel-gan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish (kompyuter, fermer, dizayn) hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili hisoblanadi. Shuning uchun xalq o'rtasida keng iste'molda bo'lgan radio (ovoznigora emas), aeroport (tayyoragoh emas), institut (oliygoh emas), avtobus (ko'pkursi emas), tele-fon (durovoz emas), samolyot (uchoq emas) kabi atamalar tilimizda saqlab qolindi.

### Atamashunoslik muammolari

Har qanday fan sohasining rivojida shu fanga doir atamalarni izga so-lish katta ahamiyatga ega. Istiqloлга erishgunga qadar o'zbek ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalardagi atamalarning rivojiga e'tibor berilmadi. Natijada ata-malarning ko'pchiligi rus tilida qanday bo'lsa, shundayligicha olindi. Masalan, *spravka, doklad, kanselyariya* va boshqalar.

Mustaqillik sharoitida atamalarni izga solish eng dolzarb vazifalardandir.

Atamalarni tartibga solish harakati mustaqillikning ilk davrlarida turli yo'sinda olib borildi: a) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o'rniga arab-fors tilidan atamalar tanlash: *aeroport* o'rniga *tayyoragoh*, *samolyot* o'rniga *tayyora*, *institut* o'rniga *oliygoh*, *rayon* o'rniga *nohiya*, *radio* o'rniga *ovoznigor*, *telefon* o'rniga *durovoz* kabilar; b) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib o'zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobili bo'lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o'zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo'llash. Masalan, *aksiya* – *hissa*, *aksioner* – *hissador*, *kanselyariya* – *devonxona*, *pechat* – *muhr*, *gimn* – *madhiya*, *tamojnya* – *bojxona*, *bank* – *banka*, *samolyot* – *samolyot*, *vertolyot* – *vertolyot*, *raketa* – *raketa*, *tank* – *tank*, *telefon* – *telefon*, *kompyuter* – *kompyuter* kabi. Atamalarni izga solishning keyingi yo'li istiqbolli yo'l ekanligi hammaga ayon bo'ldi, chunki boshqa tillardan atama qabul qilmaydigan birorta til yo'q. Masalan, *telefon*, *kompyuter* atamaları dunyoning hamma tillariga kirib borgan.

Hozirgi kunimizda o'zbek tili *birja*, *dizayn*, *lizing*, *marketing*, *menejment*, *monitoring*, *audit* singari yuzlab boshqa tillardan olingan atamalar hisobiga boyib bormoqda.

1798-yili yaratilgan Muhammad Xoksoning «Muntaxab ul-lug'at» asarida astronomiya, matematika, musiqashunoslik, adabiyot faniga oid atamalar berilgan: *sath*, *vatar*, *mintaqqa*, *xatti ustuvo (ekvator)*; *ag'oni*, *nag'ma*, *surud*, «*Hijoz*», «*Ajam*», «*Iroq*», *nag'amot*, *musiqa*, *navo*, *ohang*, *bad'e*, *tashbeh*, *ramz*, *radif*, *fasohat*, *majoz*, *nazm*, *hijo*, *she'r*.

Huquqshunoslikka oid atamalar: *amnistiya*, *arbitraj*, *arxiv*, *audit*, *bankrot*, *brifing*, *vaucher*, *viza (ruxsatnoma)*, *grant*, *deklaratsiya*, *demokratiya*, *dividend*, *dotatsiya*, *investitsiya*, *interpol*, *kadastr*, *kvorum*, *kvota*, *kongress*, *konstitutsiya*, *lizing*, *magistr*, *patent*, *reglament*, *sanatsiya*, *sanksiya*, *tender*, *terror*, *ekstremizm*.

Atamalar qo'llanishiga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1. Kasbiy atamalar. 2. Ilmiy atamalar. Ma'lum kasb-hunar doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'zlar kasbiy atamalar deyiladi. Masalan, *chaplama qilib suvamoq*, *jiyak qilmoq*, *jo'yakni katta olmoq*, *pushtani keng tashlash*.

Ma'lum fan doirasida aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llaniladigan so'zlar ilmiy atamalar deyiladi. Masalan, *arxeologiya*, *etnografiya*, *antropologiya*, *sharq*, *ibtidoiy to'da*, *qabila*, *milod*, *kalendar* kabi.



## LEKSIKOLOGIYA

### So'z va leksema

Leksika atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

- a) tilning lug'at tarkibi, so'zlar yig'indisi;
- b) lug'at tarkibini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bo'limi.

Leksika atamasining ikkinchi ma'nosi uchun leksikologiya atamasi ham qo'llaniladi.

Leksikologiya (yunoncha, «**lexikos**» – so'z, so'zga doir va «**logos**» – ta'limot) leksika (so'z) haqidagi ta'limot demakdir. Xullas, so'z va uning leksik ma'nolarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi leksikologiya (ba'zan leksika) deyiladi.

A.Navoiy asarlaridagi gul so'zi ma'nolariga e'tibor bering: gul nomlari: *nasrin, nastarin, nargis, nilufar, savsan, rayhon, xino, zanboq guli, lola, sad-barg, ra'no, hazorg'uncha, zag'far, sumanpar*; yoqimli hidi va go'zal ko'rinishi bilan gulni eslatuvchi gilyohlar: *sunbul, ishqiy pechan*; manzarali daraxtlar: *sarv, ar-ar, arg'uvon, shamshod* kabi. *Guloroy* – gul kabi bezangan, *gulrez* – gul to'kuvchi, *gulpo'sh* – gul yopingan, qip-qizil gulday kiyingan, *gulbang* – yoqimli ovoz, bulbul ovozi, *guldastaband* – majozan quyosh nurlari kabi iboralar Navoiy asarlarining mazmunini ochib berishda katta xizmat qiladi. Navoiy sinonimiya vositasida turli variantlarda ishlatgan *gul, chechak, vard, shugufa* kabi. Shu bilan birga, gulga oid ko'pchilik iboralardan omonimiya yordamida turli ma'nolar hosil qilingan: *gul (chechak), gul (bezak), gul (yashnamoq), gul (mahbuba), gul (go'dak), gul (umuman, inson), gul (qizamiq)* singari.

So'zlarning borliqdagi qanday narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-ho'lalarni bildirishi uning *atash (leksik, lug'aviy) ma'nosi* sanaladi.

Nutqimiz so'zlarning qo'shiluvidan hosil bo'ladi. So'zni talaffuz qilganimizda va qulog'imiz bilan eshitganimizda go'yo u faqat tovushlar ketma-ketligidan tashkil topgan butunlikdek tuyuladi. So'zni bunday tasavvur qilish bir yoqlamadir, chunki har qanday tovushlar birikmasi so'zni hosil qilavermaydi. Masalan, *so'*, *ko's* singari tovush birikmalarini so'z deb bo'ladimi? Yo'q. So'z bo'lish uchun tovushlar birikmasining o'zigina kifoya qilmaydi. Ma'lum tovush va tovushlar birikmasi ma'no bilan bog'langanidagina so'zga aylanadi. Yuqoridagi tovush birikmalarining tartibini o'zgartirsak, ular ma'lum ma'no bilan bog'lanadi. Masalan, *o's, so'k* kabi. Demak, so'zning ikki tomoni: **moddiy tomoni** (tovush yoki harflar ketma-ketligi) va **ma'no tomoni** mavjud. Ma'lum ma'no bilan bog'langan va morfologik shakllangan tovush yoki tovushlar birikmasi so'z sanaladi.

So'z ikki xil ma'no bildiradi. Bu ikki xil ma'noni opa so'zi misolida ko'rib chiqaylik. *Opa* so'zi *aka, uka, singil* singari so'zlar bilan qarindoshlik ma'no-

si bilan bir guruhga birlashadi. Ayni paytda, bir guruhga mansub bo'lgan yuqoridagi so'zlar bir-biriga zidlanganida ma'lum ma'nolari bilan o'zaro farqlanadi.

Xususan, *opa* so'zi o'gay opaga zidlanganida qon-qarindoshlik (o'gay emaslik ma'nosini bildirishi bilan; *opa* so'ziga zidlanganida *men* bilan bir bo'g'inga mansublik ma'nosini bildirishi bilan; *aka*, *uka* so'zlariga zidlanganida ayol jinsiga mansublik ma'nosi bilan; *singil* so'ziga zidlanganida opaning mendan kattalik, singilning esa kichiklik ma'nosiga egaligi bilan farq qiladi.

*Opa so'zining boshqa qarindoshlik bildiruvchi so'zlar bilan birlashtirib turadigan, ayni paytda, ularni bir-biridan farqlaydigan ma'nolari jami uning atash ma'nosi yoki leksik ma'nosi deyiladi.*

*Opa so'zi yuqoridagi ma'nodan tashqari shaxslik, bosh kelishik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu ma'nolar uning grammatik ma'nosi sanaladi.*

Ko'rinadiki, nutq jarayonida har bir so'z leksik va grammatik ma'nolari uyg'unligidan tashkil topadi.

Odatda, leksik va grammatik ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlikka nisbatan **so'z** atamasi ishlatiladi.

Grammatik ma'nosiz faqat leksik ma'no bildiruvchi til birligi uchun **leksema** atamasi qo'llaniladi.

Bunday vaqtda **so'z** morfologiya birligi sifatida, **leksema** esa leksikologiya birligi sifatida bir-biridan farqlanadi. So'zning gapdagi vazifasi esa **sintaksis**-da o'rganiladi. Shuning uchun morfologiya, sintaksis, leksikologiya bo'limlari uzviy aloqada ish olib boradi.

Demak, tahlil jarayonida gap tarkibidan so'zlarni ajratamiz. So'zlar esa leksema grammatik qo'shimchalarga bo'linadi. **Tilning lug'avliy (leksik) ma'no bildiruvchi birligi leksema sanaladi.** Lug'atlarda bosh so'z sifatida leksemalar beriladi.

Ushbu leksemalarning ma'no tadrijiga e'tibor bering:

*Boshqacha – o'zgacha – ajib – ajoyib – g'alati – g'aroyib – alomat – antiqa.*

*Tuzuk – durust – bir navi – yaxshi – zo'r – a'lo – gap yo'q – mixdek.*

### **Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar**

Tilimizdagi so'zlarning juda katta qismi ko'p ma'nolidir, chunki kishilar o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so'zlar qo'llayveradigan bo'lsa, so'zlarning soni o'ta ko'payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo'lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolardi.

Shuning uchun har qaysi tilda sanoqli til birliklarining turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana



shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo'lgan so'zlarga yangi-yangi ma'nolar yuklanadi. Natijada ko'p ma'noli so'zlar maydonga keladi. Masalan, *tosh* so'zi dastlab «qattiq», «sovuq jism» ma'nosida qo'llangan. Keyinchalik «qattqlik» ma'nosini faollashtirib *toshbag'ir*, *bag'ritosh* birikmalarida bag'irning sifatlovchisi vazifasida ko'chma ma'noda qo'llanila boshlangan. Yoki *ko'z* so'zi dastlab faqat «tirik organizmning qabariq shaklga ega ko'rish a'zosi» ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik «qabariqlik» ma'nosini faollashtirish asosida «daraxtning ko'zi», «yorug'lik bilan ta'minlash» ma'nosini faollashtirish orqali «derazaning ko'zi» ma'nolarida qo'llanila boshlandi.

Shu bois o'zbek tilida so'zlar *bir ma'noli* va *ko'p ma'noli* so'zlarga bo'linadi. *O'n*, *Toshkent*, *Mirzacho'l* singari aniq bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilgan so'zlar *bir ma'noli so'zlar* deyiladi. Nutqiy jarayonda ikki va undan ortiq ma'noda qo'llanuvchi so'zlar *ko'p ma'noli so'zlar* deyiladi. **Polisemiya** (yunoncha, «*poli*» – «ko'p», «*semia*» – «ma'no») ko'p ma'noli demakdir. Polisemiya **monosemiyaga** (yunoncha, «*mono*» – «bir», «*semia*» – «ma'no») zidlanadi. Ko'p ma'noli so'zlar o'z va ko'chma ma'noga ega bo'ladi. So'zlarining nutq jarayoniga bog'liq bo'lmagan atash ma'nosi o'z ma'no sanaladi. So'zning o'z ma'nosi, asl tub ma'nosi denotativ ma'no deyiladi. So'zning nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib hosil qiladigan yondosh ma'nosi ko'chma ma'no hisoblanadi. So'zning ko'chma ma'nosi konnotativ ma'no deyiladi.

Masalan, *odamning qulog'i* – o'z ma'noda, *qozonning qulog'i* – ko'chma ma'noda. O'z va ko'chma ma'no birikib ko'p ma'noli so'zni hosil qiladi.

Masalan: *Osmon uzoq, yer qattiq. (o'z ma'nosi) Qattiq ovoz eshitildi. (ko'chma ma'no) Uy supurilgan, toza. (o'z ma'nosi) Do'stimning qalbi pok, toza. (ko'chma ma'nosi)*

Ushbu birliklarda hokim so'z ko'chma ma'noda qo'llangan: *istiqbol yo'li, baxt koshonasi, dard dengizi, derazaning ko'zi, buloq ko'zi, ishning ko'zi*.

Ushbu birliklarda tobe so'z ko'chma ma'noda qo'llangan: *iliq munosabat, chuqur tekshirmoq, xira odam, sovuq xabar, oltin bosh, oltin kuz, qozonning qulog'i, temir intizom*.

Ko'p ma'noli so'zlarda ma'no qanchalik ko'p bo'lmasin, lekin u bir so'z hisoblanaveradi. Shuning uchun ko'p ma'noli so'zlarda ma'nolardan biri to'g'ri ma'no (yoki o'z ma'no), qolganlari esa ko'chma ma'no bo'ladi. Ko'chma ma'nolar nutq tarkibida boshqa so'zlar bilan bog'langanida namoyon bo'ladi, nutq tarkibidan ajratilganida esa to'g'ri ma'nosi asosiy ma'no bo'lib qoladi. Masalan, ko'z so'zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, «tana a'zosi» ma'nosini anglatadi.

Bir ma'noli so'zlar tilimizda kam sonni tashkil qiladi va ilmiy, kasb-hunarga doir atamalarni, shuningdek, yangi paydo bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Yangi so'zlar (neologizmlar) ham davr o'tishi bilan qo'shimcha ma'nolarni anglatadi va, tabiiyki, ko'p ma'noli so'zga aylanadi.

Ushbu gaplardagi ***ko'chma ma'nodagi fe'llarga*** e'tibor bering. *Tojixon Saidaning kelganidan xursand bo'ldi, minnatdorchilik bildirgani so'z, o'tqaz-*

*gani joy topolmay qoldi. Tushirilgan molning isini chiqarmadi. Shundan so'ng ikkiyovi shuncha qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Murodxo'ja domlaning mehmonxonasida bir haftalik so'z boyligini aytib tomom qildi. Mamlakatning istiqboli ham, kelajagi ham yoshlar, sog'lom insonlar qo'lida bo'lishi tabiiy holdir.*

Ko'p ma'noli so'zlar xuddi shakldosh so'zlar singari bir xil shakl va talaffuzga ega bo'ladi. Shakldosh so'zlar bir qarashda ko'p ma'noli so'zlarga o'xshab ketadi. Ularni bir-biridan farqlash kerak. Ko'p ma'noli so'zlar bir so'zni o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llashdan hosil bo'ladi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash ikki va undan ortiq so'zlardir.

Quyidagi so'zlarni polisemantik yoki omonim so'zga ajratib ko'ramiz.

*Do'st, yosh, yuz, nafis, mol, oyoq, bel, tut, yengil, gul, sher, sana, uch, o'ch, quloq* kabi so'zlar – polisemantik so'zlar.

*Yosh, yuz, mol, bel, tut, yengil, gul, sana, uch, o'ch, quloq* – omonim so'z ham bo'la oladi.

### **Ko'chma ma'no va uning turlari**

Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi sifatida ham qo'llaniladi. Bunday vaziyatda bitta nom bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarining nomi sifatida xizmat qiladi. Masalan, *burun* so'zi «tirik organizmning yuz qismidan bo'rtib chiqqan nafas olish organi» ma'nosini ifodalaydi, shu bilan birga, *burun* «yerning suvlikka tomon bo'rtib chiqqan qismi» ma'nosini ham bildiradi. Predmetlar o'rtasidagi *tashqi o'xshashlik* (yuz qismidan bo'rtib chiqqan *burun* bilan yer qirg'og'ining dengiz yoki okeanga qarab bo'rtib chiqishi o'rtasidagi o'xshashlik) birining nomini ikkinchisi o'rnida qo'llashga asos bo'lgan.

Ma'no ko'chishining nima asosda ro'yobga chiqishiga ko'ra *metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik* singari turlari mavjud.

### **Metafora va uning uslubiyati**

Nutqimizdagi eng keng tarqalgan ma'no ko'chish usuli metaforadir.

**Metafora** (yunoncha, «*metaphora*» – «*ko'chirish*») – biror predmet belgisining, harakatning o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirish. Masalan, *tandirning og'zi* birikmasida *og'iz* so'zining ma'nosi odam yoki hayvon og'ziga *tashqi o'xshashligi* asosida vujudga kelgan. Narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik turli asosda bo'lishi mumkin:

1. Ikki predmet o'rtasidagi *shakliy* o'xshashlik. Masalan, *odam qulog'i* va *qozon qulog'i*.

2. Ikki predmet *qayerda joylashishi* bo'yicha o'xshashlik. Masalan, *itning dumi*, *samolyot dumi* va boshqalar.



Metafora usulida o'xshatilayotgan narsaning rangi, harakat-holati, xususiyati, o'rni, payti, shaklga munosabati jihatidan o'xshashligiga asoslanadi. Metaforada, asosan, odam tana a'zosi nomi (yuz, bosh, og'iz, burun, quloq, til, oyoq); hayvon, paranda yoki hasharotning biror a'zosi nomi (qanot, dum); kiyim qismi (etak, yoqa); qo'yiladigan ismlar (Yo'lbars, Bo'riboy, Qoplonbek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Oyxon, Arslon, Bobur, Gilosxon, Charos, Ozoda) o'sha xususiyatga o'xshashligi uchun o'xshatib ma'no ko'chiriladi. Metafora o'xshatishlarga juda yaqin turadi. -dek, -day, singari, yanglig', xuddi, go'yo kabi o'xshatuvchi vositalar orqali hosil qilinadi.

### **Namunalar.**

1. Bola onasining oldiga tushib pildirab ketdi. 2. Otam yetimlarning boshini siladi. 3. Mungli kuy yurakni tirnar edi. 4. Soraxon qo'l siltab, onamning o'zlari ham urishqoqlar dedi. 5. Yo'lchining so'zlariga hayratlanib, chol yoqasini ushladi. 6. Bolalar yopishavergach, xaltani ochishga majbur bo'ldi-da, labini burib vaysay boshladi. 7. Kuyov qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Ishoning, dada, Karomatni boshimga ko'taraman», – dedi. 8. O'shanda ham Yusuf amaki dadamni yolg'izlatmay, holidan xabar olib turgan. 9. Kuyov bo'lmay qaro yer bo'lgur na o'ligini ko'rsatadi, na tirigini.

#### **1. Rahmi kelib bulutning**

*Yig'lab to'kar yoshini.*

*Qushlar qochar, majnuntol*

*Ko'taradi boshini.*

*Bulutning orasidan*

*Quyosh kulib qaraydi,*

*Majnuntolning yuvilgan*

*Sochlarini taraydi. (Erkin Vohidov)*

#### **2. Qalam ushladimmi, demak, o'yin bas,**

*Yayrab ocholmaydi gul dudog'ini.*

*Shundoq yurak yutib so'rasha olmas*

*Xonamda qoldirgan qo'g'irchog'ini.*

*Burchak-burchakda jim tortishar burun,*

*Bilmam, qanday o'y-u xayol ichida.*

*Tuzsiz she'rlarim deb shirindan shirin*

*Bolalarim yurar oyoq uchida... (Muhammad Yusuf)*

Birgina palak so'zining ma'nolariga e'tibor bering.

1) palak. Ma'lum bir urug'dan ko'karib chiqib, yer yuzalab o'sib, gullab hosil beradigan poliz o'simligining tanasini bildiradi: qovun palak, tarvuz palak, bodring palak. Masalan: «...So'lg'in palaklarda o'smay qolib ketgan xomaklar yiltillab qolar, goh surmaday qorayib ko'rinar edi». Bu gapda palak so'zi o'z ma'nosida qo'llanilgan;

2) palak. Polizchilar nutqida ba'zan qovun yoki handalak urug'i tushunchasida ham qo'llaniladi. Masalan, «To'rt egat palak ekdim». Bu gapdagi palak so'zida sinekdoxa asosida ma'no ko'chgan;

3) palak. Xalqimiz urf-odatiga ko'ra, qizlarni kuyovga uzatish uchun gul (kashta) ipakli matolar tayyorlanadi. Masalan:

Iblisni rahbar deb qarshi oldilar,

Balki, sayladilar undan ham ortiq.

Poyiga ipakdan palak soldilar,

So'ng yuksak bir taxtni etdilar tortiq,

Ushbu she'rda metafora asosida palak so'nining ma'nosi ko'chgan;

4) palak. «Parvoyi palak» iborasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik, e'tiborsizlik bilan qarash, beg'amlik ma'nolari tushuniladi. «Atrofda bo'layotgan voqealarga Mo'ydingning parvoyi palak edi»;

5) palak. O'xshatish ma'nosida ham qo'llaniladi. «Bir palakdan har xil xamak chiqadi deganlari rost ekan-da», – dedi so'fi yonidagilarga qarab.

### Metonimiya va uning uslubiy xususiyatlari

**Metonimiya** (yunoncha, *metonymia* – qayta nomlash) qayta nomlash demakdir. Narsa va hodisalar o'rtasida makon hamda zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishidir. *Navoiyni qo'lga oldim* deganda shoir bilan uning asarlari o'rtasidagi aloqadorlik mavjud bo'lgani sababli Navoiy emas, uning asarini qo'lga olish tushuniladi. Choy ichiladigan joy bilan choy qaynatiladigan buyum o'rtasidagi aloqadorlik asosida (*Samovarda osh yedik*) birining nomi ikkinchisiga ko'chgan. Metonimiya tilshunoslikdagi otlashish xususiyatiga o'xshaydi. Ya'ni ikki predmetning biri tushib qolib ikkinchi shu ma'noni bildirib turaveradi.

#### Namunalar.

1. U bemorning oyog'iga o'tirdi.
  2. «Rossiya»ga qanday borsam bo'ladi? (Bekatdagi yo'lovchining murojaati)
  3. Ichak-chovog'im tugadi, endi kalla sotaman (Qassobning gapidan).
  4. Mabodo «Besh bolali yigitcha» kelmadimi? (Kitobxonning sotuvchiga bergan savolidan)
  5. Navbatim sumka ko'targan «jinsi»dan keyin (Xaridorning javobi).
  6. Navoiyni kechadan beri ko'tarib yuribman (O'quvchining nutqidan).
  7. Zal oyoqqa turdi – zalda yig'ilganlar oyoqqa turdi.
  8. Auditoriya kuldi – auditoriyada o'tirganlar kuldi.
  9. Kecha rentgenga tushdim.
  10. Lermontov mutolaasiga kirishdim.
  11. «Chorsu»ga qanday borsam bo'ladi?
- Quyidagi birliklarning hokim so'zi tushirilsa, metonimiya asosida ma'no



ko'chishi kuzatiladi. «Oltin vodiy» poyezdi, olmaning afrosiyob navi, «Paxtakor» futbol jamoasi, amarfuzin malhami, Hojimatov damlamasi, Sarimsoqovning yarimmaydoni, rentgen apparati, «Chorsu» mehmonxonasi, «Ford» avtomobili, «Toshkent» qahvaxonasi. «Toshkent» qahvaxonasida o'tirdik – «Toshkent»da o'tirdik.

### Sinekdoxa va uning uslubiy xususiyatlari

– Farzandi bormi?

– Tirnoqqa zor.

Yuqoridagi dialogda tinglovchi so'zlovchining savoliga «Yo'q!» deb javob berishi ham mumkin edi, lekin u «tirnoqqa zor» iborasini ishlatishni ma'qul ko'rdi. Bu bilan suhbat mavzusiga aylangan shaxsning farzandi yo'qligini bayon qilish bilangina cheklanib qolmasdan, uning farzand ko'rishga tashnalgini ham alohida ta'kidlab ko'rsatdi.

Nima uchun *farzand* yoki *bola* o'rniga *tirnoq* so'zi ishlatilyapti?

Tirnoq – bolaning kichkinagina a'zosi. Shu a'zoga ham zorligi, tashna ekanini bildirish bilan bolaga zorligi bo'rttirib ko'rsatilyapti.

Bu o'rinda butun bir narsa, ya'ni bola uning qismi – tirnog'i orqali ifodalanyapti. Bunday ma'no ko'chish usuli sinekdoxa hisoblanadi. *Uyimizda uchta tuyog'imiz bor.* Ushbu gapda hayvonning bir qismi orqali butun tana ifodalangan. Yoki *Devorning ham qulog'i bor* degan gapda *quloq* so'zi orqali odam nazarda tutilgan. Quloq insonning bir tana a'zosi.

**Sinekdoxa** (yunoncha, «*synechdoche*» – «*birgalikda anglash*») bo'lak orqali butunni yoki butun orqali bo'lakni ifodalashni bildiradi. Qo'l, oyoq, bosh, tish, burun, chakka so'zlari qism orqali butun yoki aksincha holatda sinekdoxa asosida ma'no ko'chishiga asos bo'lishi mumkin.

#### Namunalar:

1. Olma archayotib qo'lini kesib oldi.
  2. Dunyoda o'zimizdan keyin qoladigan tuyog'imiz... faqat shu Otabekdir.
  3. Olma guli gul emas, taqsam chakkamda turmas.
  4. Yig'ilishga mo'ylovni chaqirib keling.
  5. G'ildirakni yurgizdim.
  6. Cho'loqqa achinish bilan qaradi.
  7. Sajda aylar zohid ul mehrob aro, Men sajda qilurman egma qoshima.
- (B.Mashrab)
8. Besh qo'l barobar emas.
  9. Hozirgi yoshlarimizga ko'z tegmasin, ular bizdan ko'ra aqlliroq, bilimdonroq bo'lib o'sishyapti.
  10. Guruhimizni birlashtirish uchun unga bir bosh kerak bo'lib qoldi.
  11. Eshikka chiqing.
  12. Kechgacha tuz totmadi.

Mumtoz she'riyatda *oy yuz, qorako'z, oq bilak, sarv qad, egma qosh* kabi atamalar yor timsolini ifodalash uchun ishlatiladi va ular ham sinekdoxaga misol bo'la oladi.

Sinekdoxa nutqimizning ta'sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo'lishida katta ahamiyatga ega.

### Vazifadoshlik va uning uslubiyati

*Ko'chalarni chiroqlar yop-yorug' qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.* Yuqoridagi ikki gapda qo'llanilgan *chiroq* so'zining ma'nosiga e'tibor bersangiz, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga o'xshamaydigan narsalarni ifodalayotganiga guvoh bo'lasiz. Birinchisida «elektr toki orqali yorituvchi noksimon (lampochka) yoki tayoqsimon asbob»ni, ikkinchisida esa «kerosinga pilik solish vositasi bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob»ni bildiradi. Bu asboblarning shakliga ko'ra bir-biriga o'xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo'q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bajaradi. Ana shu vazifaviy bir xillikka ko'ra ilgari yog'ga pilik tekizish orqali yoritiladigan shishasiz, ochiq asbob nomi keyinchalik asos qismga shisha o'rnatilgan yoritgich asbobni, keyinroq elektr tokidan foydalanishga o'tilganidan so'ng lampochkalarni ham ifodalash uchun qo'llaniladi. Natijada chiroq so'zi bir-biriga o'xshamaydigan xilma-xil yorituvchi vositalarga nisbatan qo'llanila boshlandi.

*Narsa va hodisalar o'rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi orqali ikkinchisining ifodalanishi vazifadoshlik asosida ma'no ko'chishi deyiladi.*

Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so'zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boyligini his qilishimizga yordam beradi.

#### Namunalar:

1. Ko'chamizda chiroq porladi.
2. Mashinaning eshigini ochib do'stini chiqardi.
3. Samolyotning qanoti pishiq metaldan ishlangan.
4. Askarlarimiz Vatanimiz sarhadlarini ko'z bo'lib, quloq bo'lib qo'riqlamoqda.

5. Bu xushxabarni do'stlaringma yetkazish uchun oyoq bo'lib yugurdim.

Qanot, yurak, oyoq, ko'z, bosh kabi so'zlarda vazifasi asosida ma'no ko'chishiga qarab ma'no ko'chishining vazifadoshlik turi hosil bo'ladi.

Eslatma: ushbu so'zlar metafora, metonimiya, sinekdoxa yoki vazifadoshlik asosida ko'chma ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Masalan: quloq – mefora (qozonning qulog'i), sinekdoxa (devorning qulog'i bor), vazifadoshlik (Vatan sarhadlarini quloq bo'lib qo'riqlamoq). Yurak – metafora (Bu ish uning yuragi edi), vazifadoshlik (Bu ashyo mashinaning yuragi-ku, axir), sinekdoxa (Hatto shuncha yuraklarning ezilishiga ham qarab turmadi).



## Kinoya

Ishlatilgan so'z teskari ma'noda qo'llanadi. Ushbu so'z kinoya asosida aytilayotganini bildirish maqsadida yozuvda qo'shtirnoqqa olinadi. ... *oradan yana bir necha oy o'tib uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning «jinoiyati» o'n bir yillik qamoq jazosi bilan «taqdirlandi».*

## Tag ma'no

O'zbek xalqida bir gapning zamirida, albatta, boshqa gapni aytib o'tish xususiyati juda ko'p uchraydi. Tag ma'no ayni shu ma'no ko'chish turi bo'lib, ifodalayotgan gapning ko'chma – tag ma'nosi tushuniladi. *Xotin: Sizga tekuncha alvastiga tegsam bo'lmasmidi?! Er: Afsuski, yaqin qarindoshlar orasida nikoh man qilingan.*

## So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra to'rt turga bo'linadi:

1. Omonimlar – shakldosh so'zlar.
2. Sinonimlar – ma'nodosh so'zlar.
3. Antonimlar – zid ma'noli so'zlar.
4. Paronimlar.

## Omonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari

Aytilishi va yozilishi bir xil bo'lib, turli atash ma'nolarini bildirgan so'zlar **shakldosh so'zlar** deyiladi. Masalan:

<i>tut</i>	<i>kul</i>	<i>chang</i>	<i>ko'k</i>	<i>qiziq</i>
<i>yut</i>	<i>mushak</i>	<i>bog'</i>	<i>kurash</i>	<i>yengil</i>
<i>oq</i>	<i>bog'</i>	<i>sir</i>	<i>ko'ch</i>	<i>quymoq</i>
<i>yot</i>	<i>oy</i>	<i>dog'</i>	<i>oqin</i>	<i>soch</i>
<i>et</i>	<i>taxt</i>	<i>tuman</i>	<i>partiya</i>	<i>soz</i>
<i>uch</i>	<i>bor</i>	<i>qil</i>	<i>oz</i>	<i>sumalak</i>
<i>yoq</i>	<i>tush</i>	<i>jumla</i>	<i>palla</i>	<i>suz</i>
<i>karam</i>	<i>bas</i>	<i>bo'z</i>	<i>qirq</i>	<i>tom</i>
<i>qo'y</i>	<i>band</i>	<i>dam</i>	<i>qiyom</i>	<i>tor</i>
<i>ot</i>	<i>hadis</i>	<i>kech</i>	<i>qoq</i>	<i>til</i>

Shakldosh so'zlarni ko'p ma'noli so'zlardan yuqorida farqlagan edik. Shakldosh so'zlar bir so'z turkumi doirasida yoki bir necha turkum doirasida bo'lishi mumkin. Shakldoshlik bir yoki bir necha turkum doirasida uchrashi mumkin. E'tibor bering:

1. Davlat I – yurt, el, mamlakat (ot)  
Davlat II – boylik (ot)

2. Karam I – sabzavot (ot)

Karam II – muruvvat (ot)

3. Kadr I – biror tashkilot yoki muassasaning uzoq muddat ishlab kelayotgan tajribali xodimi, umuman, barcha xodimlar (ot)

Kadr II – kinoplyonka yoki fotoplyonkadagi ayrim surat (lavha) (ot)

4. Mushak I – odam yoki hayvon tanasidagi qisqarish xususiyatiga ega to'qimalar (ot)

Mushak II – yonganida turli rang bilan yorug'lik sohib jilolanadigan buyum (ot)

Mushak III – bo'yi qisqa, uchi to'mtoq (sifat)

5. Chang I – g'ubor (ot)

Chang II – musiqa asbobi (ot)

6. Yozmoq I – xat yozmoq (fe'l)

Yozmoq II – dasturxon yozmoq (fe'l)

Shakldosh so'zlar har xil turkum doirasida ham sodir bo'ladi.

1. Uch I – parvoz qilmoq (fe'l)

Uch II – raqam (son)

Uch III – uch qismi, tomoni (ot)

2. Tik I – tikmoq (fe'l)

Tik II – tikka (ravish)

Tik III – dag'al ipdan to'qilgan qalin mato (ot)

3. Tut I – meva (ot)

Tut II – ushlamoq (fe'l)

4. Chaqmoq II – chaqin, yashin (ot)

Chaqmoq III – chaqish (fe'l) kabi

**Namunalar.** 1. Hech bo'lmaganidan kech bo'lgan yaxshi. Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning. 2. Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib eng yorug' yulduzdan seni so'rayman. 3. Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi. Yaxshilarning etagini tut, adashmaysan. 4. Arg'amchiga qil quvvat. Nomusni yoshlikdan ehtiyot qil.

Lug'aviy omonimlar nutq jarayonida so'z o'yini uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, zakiylik san'atida ulardan o'rinli foydalanish askiyachilarning mahorati sanaladi. Masalan, Abdulhay maxsum Navbahor payrovi bo'yicha askiyasi: «Ikkovlaring ham o'ta dangasasizlar. Yakshanba kuni olma bog'ga kirib daraxtlarni oqlaymiz desam: «Bizni *ish kam* joyga yetaklang», – deysizlar». Bu o'rinda *ish kam* «uzum ko'taradigan moslama» va «ish kam» ma'nolarini bildirish uchun qo'llangan. Yoki: «Bir gap eshitib qoldim. Saydullaxon choyxonada nasiyaga muomala qilib, idoraga pul topshirmagan ekan, hisobchilar o'zini o'tqazib olib, «cho'tiryapti» deb eshitdim».

O'zbek tilida leksik omonimlar juda ko'p ishlatilgani sababli ular maxsus she'riy janr – tuyuqqa ham asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan:



*Bunim yo'q, unim yo'q,*

*Uyimda unim yo'q.*

*Ishimda unum yo'q,*

*Aytishga unim yo'q.*

Yoki:

*Yoshliging g'animat, bolam, o'sib, un.*

*Chiqarma behuda sado hamda un.*

*Ko'r, quyosh tig'ida va tegirmonda*

*Ezilib so'ng aziz bo'ldi bug'doy – un.*

Badiiy adabiyotda omonimlarni qo'llash orqali *tajnis* (jinsdosh) va *iyhom* san'atlari yuzaga chiqadi.

*Maoni ichra, shohim, qil yorarsan,*

*Ajunda har ne qilsang qil, yararsen.*

Ushbu masnaviyda ikki so'z *tajnis*ga asos bo'lgan (qil, yaramoq).

*Iyhom* san'ati esa «shubhaga solish» degan ma'noni anglatadi. Bir so'z ikki ma'noda tushunitiladi.

*Sendek saname ko'rman Lutfi(y) Chig'atoyda,*

*Chin so'yla, Xito xo'blarig'a ne bo'lursan?*

Ushbu baytda *Chin* so'zi ikki ma'noda tushunilishi mumkin: rost va Xitoy.

### Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari

Bir umumiy ma'noni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so'zlar **ma'nodosh so'zlar (sinonimlar) deyiladi**. Ma'nodosh so'zlar bir ma'noni xilma-xil so'zlar orqali turli nozik ma'no qirralari bilan ifodalashda, so'z sehrini namoyish etishda, nutqni bezashda, ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

So'z maqomidagi sinonimlar lug'aviy (leksik) sinonimlar, qo'shimcha maqomidagi sinonimlar esa affiks sinonimlar sanaladi.

Lug'aviy sinonimlar bir umumiy ma'noni ifodalasa ham, lekin ularning ma'no darajasi, ijobiy yoki salbiy bahoga egaligi, ma'lum uslubga xoslanishi bilan farqlanadi. Masalan, *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, bo'kirmoq* so'zlari *so'zlash* umumiy ma'nosi bilan bir xil bo'lsa ham, ular ovozning baland-pastligiga ko'ra farqlanadi. Shuningdek, *to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq* so'zlari ham *so'zlash* umumiy ma'nosi orqali yuqoridagi so'zlar bilan birlashadi, lekin ulardan salbiy bahoga egaligi bilan farqlidir. *Irod etmoq, bayon etmoq* singari so'zlar *kitobiy uslubga* xoslanishi bilan farqlanadi. Yoki *oraz, uzor, ruxsor, chehra, yuz, bet, aft, bashara, turq* singari sinonimlar inson bosh qismining old tomoni ma'nosini ifodalaydi. Lekin *oraz, uzor, ruxsor, chehra* so'zlarida ijobiy baho, *oraz, uzor, ruxsor* so'zlarida badiiy uslubga xoslanish belgisi mavjud, *bet, aft, bashara, nusxa, turq* so'zlarida salbiy baho munosabati mavjud va bu salbiy baho ularda darajalanib, kuchayib boradi (*betga nisbatan aftda* salbiy baho kuchliroq,

*turqda esa hammasidan ham kuchliroqdir. Demak, bu beshta so'zda salbiy baho kuchayib boradi).*

Har qanday uslubiy xoslanish va so'zlovchining bahosidan xoli bo'lgan sinonimlar qatori a'zosi **dominanta** (uslubiy xoslanish va baho bildirishga ko'ra neytral) hisoblanadi. Demak, yuqoridagi sinonimlar qatorida **yuz** dominanta sanaladi.

Sinonimlar qatori a'zolaridan nutq jarayonida o'rinli foydalanish so'zlovchining maqsadini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashda katta ahamiyatga ega.

Sinonimik qatorga e'tibor bering: *bu, shu, mana shu; aziz, mo'tabar, qadrdon, ulug', muqaddas; vatan, yurt, mamlakat, el; inson, odam, kishi, bashar; gavdali, jussali, barvasta, norg'ul, barzangi; gangimoq, dovdiramoq, esankiramoq, kalovlanmoq, talmovsiramog; go'zal, suluv, chiroyli.*

Sinonim so'zlarning ishlatilishi badiiy adabiyotda tanosub san'atiga asos bo'ladi.

*Mengiz yo ravzayi rizvonmudur bu?*

*Og'iz yo g'unchayi xandonmudur bu? (Atoiy)*

Sinonimlar, asosan, bir xil so'z turkumi doirasida hosil bo'ladi. Masalan, *gavdali, jussali, barvasta, norg'ul, barzangi (sifat).*

### **Antonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari**

Biz o'zimizni qurshab turgan olamni sezgi a'zolarimizning bosh miyamizga bergan axboroti yordamida bilib olamiz. Bilish jarayonida narsa va hodisalarni, harakat-hoatlarni, belgi va xususiyatlarni bir-biriga zidlash, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Jaloliddin Rumiyning ta'kidlashicha, har qanday «ashyo»ning qimmatini ziddi bilan ayon bo'ladi, ziddi bo'lmagan narsani ta'rif etish imkoniyatdan tashqaridir. Tangri nurning oshkor bo'lishi uchun qorong'i etib yaratilgan mazkur olamni mavjud ayladi... Odam ro'parasida Iblisning, Muso qarshisida Fir'avning, Ibrohim oldida Namrudning va Mustafo qarshisida Abu Jahlning paydo bo'lishini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Ma'nosi qarama-qarshi bo'lgan so'zlar **zid ma'noli so'zlar** yoki **antonimlar** deyiladi. Zid ma'noli so'zlar doimo ikki qarama-qarshi a'zodan iborat bo'ladi. Birini aytsak, ikkinchisi xayolimizga keladi. Masalan, *achchiq* deyishimiz bilan *shirin* esimizga tushadi. Zid ma'noli so'zlar birgalikda qo'llanib yangi so'z hosil qilishi mumkin. Masalan, *yosh-u qari* – bari, *achchiq-chuchuk* – ovqat turi, *uzoq-yaqindan* – hammayoqdan kabi.

*Antonimlar shakliga ko'ra qo'shimcha holidagi antonimlar va so'z holidagi antonimlarga bo'linadi.* So'z maqomidagi antonimlar lug'aviy (leksik) antonimlar, qo'shimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar deyiladi.

Affiks antonimlar: -li, -siz, no-, be-; be-, ba-, no-, ser- kabi.



Lug'aviy antonimlar: katta – kichik, yaxshi – yomon, do'st – dushman, mehnatsevar – dangasa, yolg'onchi – rostgo'y, toza – iflos, urush – tinchlik, kulmoq – yig'lamoq, ost – ust, qisqa – uzun, kelmoq – ketmoq.

Badiiy adabiyotda zid ma'noli so'zlarni bir-biriga zidlash asosida badiiy san'at hosil qilinadi. Bunday san'at tazod deyiladi.

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,*

*Ko'zlarimga necha tong otquncha uyqu kelmadi. (A.Navoiy)*

Antonimlar, asosan, bir xil so'z turkumi doirasida hosil bo'ladi. Masalan: yaxshi (sifat) – yomon (sifat), do'st (ot) – dushman (ot), keldi (fe'l) – ketdi (fe'l).

#### **Namunalar:**

1. Yaxshi so'z – jon ozig'i, yomon so'z – bosh qozig'i.
2. Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.
3. Oz so'zla, ko'p tingla. Eskisiz yangi bo'lmas, yomonsiz yaxshi.
4. Kattaga hurmat, kichikka izzat.
5. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur.
6. Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor.
7. Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur.
8. Yomonning yaxshisi bo'lguncha yaxshining yomoni bo'l.
9. Yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi.
10. Kam gapirsang, ko'p eshitasan.
11. Oyoq kiyiming tor bo'lsa, dunyoning kengligidan ne foyda?!
12. Erni er qilgan ham xotin, qaro yer qilgan ham xotin.
13. Qo'y bir terining ichida necha ozib, necha semiradi.
14. Holvani hokim yer, kaltakni yetim yer.
15. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

#### **Paronimlar va ularning uslubiyati**

Bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlar **paronimlar** deyiladi. Talaffuzi yaqin bo'lgani uchun bunday so'zlarni bir-biri bilan almashtirib qo'yish qo'pol uslubiy xatolikka olib keladi. Masalan:

*Abzal* – ot-ulovni egarlash yoki aravaga qo'shish uchun zarur asboblar-ning jami.

*Afzal* – yaxshi, a'lo, ortiq so'zlarining ma'nodoshi.

*Daho* – kuchli zehn va iste'dod.

*Daha* – shahar tarkibidagi ma'muriy birlik.

*Amr* – buyruq, farmon.

*Amir* – o'tmishdagi davlat rahbari.

Paronimlar bir xil so'z turkumi doirasida ham, har xil so'z turkumi doirasida ham uchraydi: serob (sifat) – sirob (ot), sada (ot) – sado (ot).

devon – dovon	undash – undosh	jiyron – jayron	dala – tala
ramz – razm	urish – urush	azm – azim	dil – til
yolqin – yorqin	uzuk – uzik	xalos – xolos	dur – tur
sayil – sayr	tang – tong	ahl – ahil	sodda – soda
sada – sado	so'kmoq – so'qmoq	lahim – lahm	besh – pesh
bob – bop	soliq – solih	qattiq – qatiq	bol – pol
tub – tup	sudxo'r – sutxo'r	paxta – puxta	mard – mart
fol – pol	siroq – serob	kift – kaft	sof – sop
ana – ona	siqim – sig'im	dars – darz	sir – pir



## NOMSHUNOSLIK (ONOMASTIKA)

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limi onomastika (lotincha, «**onoma**» – «nom») deyiladi.

Joy yoki shaxslarga qo'yilgan nomlar ularning ma'lum belgilari asosida qo'yiladi. Masalan, Hamzaobod shahri shu joyda ma'lum davr yashab, mehnat qilgan Hamza nomi bilan; Qipchoq, Saroy qishloqlarining nomlari shu qishloq aholisining etnik kelib chiqishi bilan; Qatorterak, Uchtol, Beshariq, Baland masjid singari joy nomlari shu joydagi o'simlik, bino, suv inshooti xususiyati bilan bog'liq ravishda qo'llangan. Shaxsga qo'yilgan nomlarda esa ota-onaning orzu-umidi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisi (Xoldor, Anor, Qovoqvoy), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshavoy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumavoy) o'z aksini topgan bo'ladi.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi:

1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar antroponimlar («**antropos**» – «shaxs, odam»; «**onuma**» – «nom»): Ahmad, Karim va hokazo. Antroponimlarning old hamda orqasiga qo'shilib keluvchi lug'aviy unsurlar: bek, boy, bobo, buva, mir, mirza, xo'ja, qul, beka, bibi, begim, bonu, gul, oyim, poshsha, momo, sho.

2. Geografik obyektlar va ularning nomlari toponimlar (lotincha, «**topos**» – «qishloq, shahar, maydon, ko'cha»; «**onuma**» – «nom»): Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi.

a) aholining yashash maskanlarini nomlashda xalqning iqtisodiy turmush tarzi, shug'ullanuvchi kasb-kori ham hisobga olinadi. Vaqtlar o'tishi bilan hunar garchi o'zgarib ketsa-da, joy nomlari saqlanib qoladi: *Miskarchilik, Ko'nchilik, Egarchi, Jiyakchi, Taqachi, O'qchi, Miltiqsoz, Bo'rchi, Ketmonchi, Charmgarguzar, Tandirchi, Sovungarlik*;

b) toponimlarni nomlashda joyning relyefi ham hisobga olinadi. Masalan, *Uzunko'cha, Balandqishloq, Chuqursoy, O'rta Chirchiq, Yuqori Chirchiq kabi*;

d) suv havzalari bilan atalgan joy nomlari ham uchraydi. Achchiqko'l – Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanidagi qishloq. Achchiqko'l – asli suv havzalaridan biri – ko'lning nomi, ko'l suvining achchiqligi, o'ta sho'r ekanligi, iste'mol qilish uchun yaroqsizligi ko'lning shu tarzda nomlanishiga sabab bo'lgan. Ko'l hozirda yo'q bo'lib ketgan, lekin uning nomi shu atrofdagi aholi turarjoyi atamasi sifatida saqlanib qolgan. Aniqrog'i, ko'l nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan. Ana shunday qishloq nomlariga e'tibor bering: Shaytonko'l (Farg'ona viloyati Beshariq tumani), Oydinko'l (Farg'ona viloyati Buvayda tumani), Qorako'l (Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani), Oqko'l (Farg'ona viloyati Dang'ara tumani), Damko'l (Farg'ona viloyati Farg'ona tumani), Qo'g'aliko'l (Namangan viloyati Mingbuloq tumani), Bordimko'l (Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani), Darvozako'l, Sho'rko'l (Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani), Chapko'l, Polvonko'l (Namangan viloyati

Norin tumani), Oltinko'l (Andijon viloyati Oltinko'l tumani), Bordonko'l (Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani) singari qishloq nomlari hozirda mavjud:

e) ba'zi joy nomlariga kishi ismi va mansab nomi atama bo'lib qolgan. Nazarmahram – Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim kishi ismi va Qo'qon xonligi davridagi amal – mansabga oid atamalardan biri mahram so'zidan tarkib topgan. Mahram – xonga yaqin bo'lgan va uning huzuriga kira oladigan kishi. Shuningdek, mahramlar saroydagi boshqa ishlarni ham bajarganlar. Ko'rinadiki, o'tmishda mansab nomlari ko'pincha amal egasining nomiga qo'shib aytilgan.

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar zoonimlar (lotincha, «soom» – «hayvon», «opuna» – «nom»): *To'rtko'z, Bo'ribosar*.

4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo'yilgan nomlar gidronimlar («gidro» – «daryo, suv»; «onuma» – nom): *Orol dengizi, Balxash ko'li va hokazo*.

O'zbek nomshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan olimlarimizdan biri Ernst Begmatovdir. Professor E.Begmatov onomastikaning antroponim yo'nalishi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan: «Kishi nomlari imlosi» (1970), «O'zbek ismlari imlosi» (1972) kitoblari bu sohadagi qimmatli manba hisoblanadi. 1999-yili nashr etilgan «O'zbek ismlari» kitobida 14600 ta ismga izoh berilgan.



## PAREMIOLOGIYA

### Barqaror birikmalar

Nutqiy jarayonda fikrimizni bayon qilish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Masalan, *Toshkentdagi istiqlol davrida qurilgan inshootlarni ko'rib og'zim ochilib qoldi*. Bu gapda *og'zim ochilib qoldi* birikmasi so'zlovchi tomonidan nutqqa tayyor holda olib kirilgan.

*Og'zi ochilib qolmoq* birikmasi nutq jarayoniga qadar ham tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud va mazmunan bir leksema – *hayron bo'lmoq* leksemasi ifodalangan ma'noga teng keladi. Yoki *yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda* deydi xalqimiz jumlasida *deydi xalqimiz* birikmasi tarkibidagi so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'lsa, undan oldingi so'zlar so'zlovchining nutqiga qadar xalqimiz tomonidan yaratilgan, tilimizda tayyor holda mavjuddir.

*Ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.*

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma'no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi *paremiologiya* (lotincha, «**parema**» – «barqaror», «**logos**» – «ta'limot»), barqaror birikmalar lug'atini tuzish muammolarini o'rganuvchi bo'lim esa *paremiografiya* sanaladi.

### Barqaror birikmalar tasnifi

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Frazelogizmlar.
2. Maqol va matallar.
3. Aforizmlar.

### Frazelogizmlar – iboralar

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda

olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar frazeologizmlar deyiladi. **Iboralarning ma'nosi, odatda, bir so'zga teng keladi.** Iboralar har doim ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Iborani tashkil etgan so'zlar uning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, *Rais daladagi hosilni ko'rib boshi osmonga yetdi.* Bu gapda *boshi osmonga yetdi* iborasi butun holda kesim vazifasida keladi.

Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi. Shuning uchun rasmiy hamda ilmiy uslubga qo'llanmaydi. Iboralar ham omonimlik, sinonimlik va antonimlik xususiyatiga ega.

Omonim iboralar: boshiga ko'tarmoq (hurmat qilmoq, to'polon qilmoq), ko'z yummoq (vafot etmoq, e'tibor bermaslik).

Sinonim iboralar: suvga kirs quruq chiqmoq – pixini yorgan, do'ppisini osmonga otmoq – og'zining tanobi qochmoq – boshi osmonga etmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bemoq, qildan qiyiq qidirmoq – tirnoq ostidan kir qidirmoq.

Antonim iboralar: ko'ngli toza – ichi qora, qovog'idan qor yog'moq – og'zining tanobi qochmoq, ko'kka ko'tarmoq – yerga urmoq.

#### **Namunalar:**

1. Tapa sochi tikka bo'lmoq – achchiqlanmoq.
2. O'pkasini cho'pga ilgan – shoshqaloq.
3. Xamirdan qil sug'urgandek – oson.
4. Ko'zi to'rt bo'lmoq – kutmoq.
5. Tomdan tarasha tushganday – birdan.
6. Taqdirga tan bermoq – ko'nmoq.
7. Yerga ursa ko'kka sapchidigan – sho'x.
8. Dali-g'uli – ko'nglida kiri yo'q.
9. Og'ziga talqon solmoq – jim turmoq.
10. Quloq solmoq – eshitmoq.
11. Misi chiqmoq – oshkor bo'lmoq.
12. Ipdan ignasigacha – boshdan oxir.
13. Qildan qiyiq qidirmoq – ayb izlamoq.
14. Yerga urmoq – kamsitmoq.
15. Qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq.

Gaplarda iboralarning ishlatilishiga e'tibor qiling.

1. *Unga yetib olganimda vujudimni sevinch qoplagan, kutilmagan uchrashuvdan boshim osmonga yetgan edi.* (O'.Umarbekov) 2. *Issiqning va yog'liq ovqatlarning damini kesish uchun hech kim piyoladan, choynakdan qo'l uzmas edi.* (Oybek) 3. *Ba'zan dovon oshishingga ko'zing yetmay, yuraging orqangga tortib ketadi.* 4. *So'nggi bir-ikki soat ichida yuz bergan bu ikki quvonchli hodisa Rahim Saidovning boshini aylantirib qo'ygan, kim*



bilandir ularning o'rtoqlashgisi kelib qolgan edi, 5. Voy, qulog'ingizga tanbur chertyapmanmi? Uzukni-da. Qarang, shunaqasi menga juda yarashar ekan. (O'.Umarbekov) 6. Tansiq go'yo bo'g'ilganday uh tortdi. Shunday qarindoshlarni ko'kka ko'targan dadasidan xafa bo'ldi u. (Oybek) 7. Zokir o'z bo'yniga olgan tashvishining naqadar qiyinligini endi sezdi. (P.Qodirov) 8. Ammo Egamberdi mashinaning quli. Tez orada uncha-muncha mexanikka ham so'z bermay qo'yadi u. (Oybek) 9. Bu yoqda Jamol Bo'riboyevday og'aynilari bo'lgan, yulduzni benarvon uradigan bunaqa odamlardan hayiqmoq kerak. (O.Yoqubov) 10. Rabbimning marhamatiga loyiq yashamoq, dunyo noz-ne'matlariga shukr keltirmoq, dard yopishganida sabr-toqatli bo'lmoq, baxtli onlarida es-hushini yig'ishtirib olmoq chinakam mo'minning fazilatidir. (Gazetadan) 12. Arava bo'lsa almisogdan qolgan, yana sinibdi. 13. Aravani quruq olib qochish evi bilan-da, avval burningni artsang-chi... (S.Abdulla) 14. Ishqilib, baraka topsin, shu doktorlar boshing yostiqaqa tekkanida ioningga ora kirishadi. 15. Yo'qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. 16. Qizlar har zamonda ishdan bosh ko'tarib bir-biriga gap otishadi. (S.Ahmad) 17. Qorasochning dili siyoh bo'lib, birdan xo'rliqi keldi. (S.Azimov) 18. Amalda ishni izdan chiqarib yuboribsiz. 19. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak: qurilishni ham, kollektivni ham sariq chaqqa sotadi. (A.Muxtor) 20. Hoji xola ko'zi ilinib, endi xurрак ota boshlagan edi. 21. ...Uning ko'zlari qinidan chiqayozdi. (Oybek)

Tog'ay Murod «Otamdan qolgan dalalar» romanida «Tulki qiziga to'y berdi» iborasini shunday izohlagan: «Qor laylaklab-laylaklab yog'di. Qor yerga tushib-tushmay yog'di. Laylakqor taqqa tindi. Yerda qor tugul, nam-da bo'lmadi. Qor havosi-da bo'lmadi. O'ynab qo'yay, bundayin havoni oti nima bo'ldi? Qor yog'madi deyin dedim – havoda laylaklab qor o'ynadi. Laylaklab qor yog'di deyin dedim – yerda qordan nishona bo'lmadi. Dehqon bunday havoni: – Tulki qiziga to'y berdi, – deydi».

### **Iboralarning qo'shma so'z va so'z birkmalaridan farqi**

Iboralar ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topganligi bois qo'shma so'z va so'z birkmalariga o'xshaydi, lekin ular qo'shma ma'noga ega ekanligi, ta'sirchanligi bilan qo'shma so'zlardan; barqarorligi, nutqqa tayyor holda olib kirilishi bilan so'z birkmalaridan farqlanadi.

*Shifokor dorini bolaning qulog'iga quydi – Onasi o'g'liga bu ishi noto'g'ri ekanligini qulog'iga quydi.*

### **Maqollar**

Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birkmalar maqollar sanaladi. Masalan: *Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha to'nka dam oladi.*

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo'ladi.

So'zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqqa olib kiradi. Maqollar fikrni ta'sirchan, bo'yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o'rinli foydalanish so'zlovchining mahorati hisoblanadi.

#### **Namunalar:**

*O'zga yurtda shoh bo'lguncha  
O'z yurtida gado bo'l.*

*Bekorchining beti yo'q,  
Qozon osar eti yo'q.*

*Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas.*

*Ignadek teshikdan tuyadek shamol kiradi.*

Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatiladi. Xususan, *Ignadek teshikdan tuyadek shamol kiradi* maqoli o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Majozan «Ozgina, kichkina kamchilikni, xavf-xatarni nazar-pisand qilmay yurma, shundan senga katta ziyon-zahmat yetishi mumkin, ehtiyot bo'l» degan ma'noda ham qo'llaydilar. «Yolg'iz baloga indamasang ko'payadi» degan maqol ham borki, u keyingi aytilgan ma'noda ishlatiladi.

#### **Matallar**

Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallar hisoblanadi. Matallar o'z ma'nosida ishlatiladi. Masalan: *Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.* *Qimirlagan qir oshar.*

Matallar ham xuddi maqollar singari hayotni uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovning «Hikmatnoma» («O'zbek maqollarining izohli lug'ati») kitobidan olingan quyidagi matallarga e'tibor bering. «So'zni ko'ngilda pishqarmaguncha tilga kelturma va har nekim ko'ngilda bor tilga surma». Matallar A.Navoiy qalamiga mansub ushbu hikmatli so'zning variantlari sifatida keltiriladi: «O'ylamaguncha so'ylama», «Ko'p o'yla, oz so'yla», «O'n qatim o'yla, bir qatim so'yla», «Dilda pishir, tilda gapir», «O'ynab gapir-sang ham o'ylab gapir», «Tez so'zlagan tez pushmon bo'lar».

#### **Hikmatli so'zlar – aforizmlar**

*Dehqoni boy yurt qudratli bo'lur, Qudratli yurtning dehqoni boy bo'lur.*  
(Islom Karimov)



*Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalqning turmush tajribasiga tayanib ma'lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalar hikmatli so'zlar (aforizmlar) deyiladi.*

*Masalan:*

*Odami ersang demagil odami*

*Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. (Allsher Navoiy)*

Shuningdek, aforizmlarga hadislar, shoir va mutafakkirlarning, alloma va davlat arboblarning purma'no so'zlari kiradi. Hikmatli so'zlar (aforizmlar) barqarorlik, mazmuniy yaxlitlik, takroriylik (ya'ni nutqda doimo bir xil tuzilishda quyma holda takrorlanish) belgilariga ko'ra boshqa barqaror birliklar bilan umumiylik kasb etsa ham, aniq muallifi borligi bilan ulardan farqlanadi.

*Tilimizning tovlanib turishida shoir uchun ne-ne bitmas-tuganmas xazinalar bor. (M.Shayxzoda)*

*Til uslub uchun shaxmat taxtasidagi shohdir. (K.Fedin)*

*Kitobxonga bir fikrni anglatish uchun yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan ochiq, ravon va sodda til kerak. (A.Qahhor)*

*O'zbek tili xazinasidagi so'zlar shu qadar ko'p va jilokorki, bu tilda hech qiynalmasdan go'zal asarlar: she'rlar, qissa va hikoyalar bitish mumkin. (N.Tixonov)*

## LEKSIKOGRAFIYA (LUG'ATSHUNOSLIK)

Leksikografiya (lotincha, «leksikos» – «so'z», «grapho» – «chizmoq, yozmoq») tilshunoslikning lug'at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug'ullanuvchi bo'limidir.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug'at tuzish tamoyillari va usullarini tashkil etadi. Leksikografiya amaliyoti esa lug'at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so'zlarni kartochkalarga tushirish, sistemaga solish va saqlash singarilarni o'z ichiga oladi.

Leksikografiya nazariyasida lug'at turlari, so'zlik tarkibi va so'z maqolasining tuzilishi asosiy o'rinni egallaydi.

Avvalo, lug'atlar ikki turli bo'ladi: 1) *ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar*; 2) *filologik (lingvistik) lug'atlar*.

*Bu ikki turdagi lug'atlar lug'at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug'atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o'z ichiga olsa ensiklopedik (qomusiy) lug'at; ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga olsa filologik (lingvistik) lug'at hisoblanadi.*

Lug'atlar haqida to'xtalganda qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud Koshg'ariyni, albatta, tilga olish kerak bo'ladi. Atoqli tilshunos olim Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari turkiy xalqlarning ilk lug'ati sanaladi.

Muallif uni 1072-yili yoza boshlagan va 1074-yili tugatgan. Bunga qadar u bir necha o'n yillar davomida Chindan (Xitoy) tortib to Rumba (Vizantiya) qadar bo'lgan ulkan hududda yashovchi turkiy qabilalarni birma-bir o'rganib chiqqan. Bu haqda uning o'zi shunday deb yozadi:

– Men turklar, turkmanlar, o'g'izlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim. Men bu kitobni maxsus alifbe tartibidagi hikmatli so'zlar, sa'jlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim.

Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim.

Devon ikki qismdan iborat: «Muqaddima» va «Lug'at».

Undan mehnat va marosim qo'shiqlari, o'gitnomalar, munozara shaklidagi to'rtliklar, Alp Er To'nga (Afrosiyob) marsiyasi kabi ajoyib adabiy yodgorliklar o'rin olgan.

### **Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar va ulardan foydalanish**

Ensiklopedik (qomusiy) lug'atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o'z ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lug'atlar ma'lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy-iqti-



sodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o'z izohini topadi.

Qomusiy lug'atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi. Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

Misol uchun, 14 jildlik O'zSEning 1-jildini tayyorlash ishida 14 ta akademik, akademiyaning 13 ta muxbir a'zosi, 88 ta fan doktori, professor, 539 ta fan nomzodi va boshqa ko'plab mutaxassislar qatnashgan. Unda 3350 ta maqola mavjud. Mazkur jild ustida 1965 – 1971-yillar mobaynida tayyorlov ishlari olib borilgan.

1971 – 1980-yillar oralig'ida O'zSEning 14 jildi nashrdan chiqqan. O'sha davr uchun bu juda katta voqea edi, lekin ushbu qomusiy lug'atdagi ko'plab maqolalar bugungi kun talabiga javob bermaydi, eskirdi. Ularni qayta ishlash, mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan yoritish lozim bo'lib qoldi. Shu tufayli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»ni yaratish to'g'risida maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida **2000 – 2006-yillarda 12 jildli «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»** yaratildi. Toshkent shahrida ensiklopedik lug'atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug'ullanayotgan alohida muassasa – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti faoliyat ko'rsatmoqda.

#### *Ensiklopedik lug'atlar:*

1. Bolalar ensiklopediyasi. 3 jildlik. – Toshkent, 1987 – 1988. Kitobdagi barcha maqolalar alfavit tartibida joylashgan. Birinchi kitob A – Y harflari bilan, ikkinchi kitob K – R harflari bilan, uchinchi kitob S – H harflari bilan boshlanadigan maqolalarni o'z ichiga olgan.

2. «Salomatlik» ensiklopedik lug'ati. Afoniya so'zi izohi: Afoniya (yunoncha, **a** – inkor qo'shimcha va **phoni** – ovoz) – shivirlab gapirish qobiliyati saqlangan holda ovoz chiqmay qolishi. A. turli kasalliklar: hiqildoq, nerv sistemasi, shuningdek, organizmning umumiy kasalliklari belgisi bo'lishi mumkin. Chin, paralitik, funksional va spastik A. farq qilinadi.

3. «Uy-ro'zg'or ensiklopedik lug'ati. Ism qo'yish (206 – 208-betlar), kutubxona (248 – 249-betlar), elektr asbob (500-bet). Desert so'zining izohiga e'tibor bering. Desert – dasturxonga issiq ovqatdan so'ng tortiladigan shirin taomlar (kisel, kompot, krem va boshqalar), ho'l mevalar, konditer mahsulotlari. Desert uchun maxsus idishlardan foydalaniladi (desert likop, desert qoshiq, pichoq va shu kabilar) (167-bet).

### **Filologik lug'atlar va ularning turlari**

Filologik lug'atlar ma'lum bir tildagi so'zlarni o'z ichiga oladi. So'zlar muayyan bir tartibda (yo alfavit asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

Filologik lug'atlarning o'zi, avvalo, izohli va tarjima lug'atlarga bo'linadi.

*Tildagi so'zlarni izohlashga qaratilgan lug'atlar izohli lug'at, muayyan tildagi so'zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug'atlar esa tarjima lug'at sanaladi.*

### Izohli lug'at. Tarjima lug'at. Ulardan foydalanish

1981-yili Moskvadagi «Russkiy yazik» nashriyotida nashr qilingan 2 jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2006 – 2008-yillarda O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti tomonidan nashr qilingan va 80 ming so'z hamda so'z birikmasini o'z ichiga olgan 5 jildlik «O'zbek tilining izohli lug'ati», 2001-yili Toshkentdagi «Sharq» nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati tomonidan nashr etilgan «O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati» izohli lug'atga misoldir. Bir tilda qo'llanuvchi so'zlarning boshqa tildagi muqobilini ko'rsatuvchi tarjima lug'at deyiladi. Masalan: yoki o'zbekcha-ruscha, inglizcha-o'zbekcha-ruscha lug'atlar.

*Izohli lug'atlar so'zlikning tanlanishiga ko'ra umumiy va tarmoq lug'atlarga bo'linadi. Tilning barcha so'zlarini izohlashga qaratilgan lug'atlar umumiy izohli lug'atlar, ma'lum bir tarmoqqa doir so'zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug'atlar tarmoq lug'at hisoblanadi (masalan, kasb-hunarga doir lug'atlar, ma'lum fan sohasi bo'yicha atamalar lug'ati va boshqalar).*

Har qanday lug'at shu lug'atning egasi bo'lgan xalqning katta madaniy va ma'naviy boyligi sanaladi.

#### Izohli lug'atlarning nashrlari:

1. Navoiy asarlari lug'ati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972. – 784 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: Russkiy yazik, 1981. 1-jild. – 632 b; 2-jild. – 716 b.
3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1983. 1-jild. – 656 b; 1983. 2-jild, – 644 b; 1984. 3-jild. – 622 b; 1984. 4-jild. – 634 b.
4. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. – Toshkent: Sharq, 1998. – 318 b.
5. O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001.

#### Namunalar:

1. Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov, R.Shukurovning «O'zbek till antonimlarining izohli lug'ati»dagi *achchiq* va *shirin* so'zlari izohiga e'tibor bering.

Achchiq 1	Shirin 1
Ta'mi qalampirnikiga o'xshash achchiq	Ta'mi shakarnikiga o'xshash shirin
achchiq dori	chuchuk dori
achchiq anor	chuchuk anor

Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. (Otalar so'zi)



Achchiq 2	Shirin 2
Kishining izzat-nafsigiga tegadigan, xafa qiladigan achchiq so'z	Kishiga rohat bag'ishlaydigan, xursand qiladigan shirin so'z
achchiq turmush	shirin turmush
achchiq anor	chuchuk anor

Achchiq savol berib shirin javob kutma. (Maqol)

2. A.O'lmasov, N.To'xliyevning «Bozor iqtisodiyoti» (qisqacha lug'at-ma'lumotnoma) asarida polis so'zining izohiga e'tibor bering.

**POLIS** (fr. **polici**, ital. **pollissa** – tilxat) – shaxsiy yoki mulkiy sug'urta shartnomasi zarurat tug'ilganida sug'urtachiga qarshi da'vo qo'zg'atib zararni undirish uchun sudga taqdim etiladigan rasmiy hujjat.

3. «O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati»dan (Toshkent: O'qituvchi, 1984) keltirilgan bog' so'zining ma'nolariga e'tibor bering.

**Bog' 1** ot. Biror narsaning to'dalab bog'langan holati (puchok). Bog'lam-oq, bog'lash. *Bir bog' beda, bir bog' piyoz (ukrop, kashnich, rediska).*

**Bog' 2** (tojikcha) ot. Uzum (tok), mevali daraxtlar ko'p ekilgan yer uchastkasi (sad). *Bog'bon, bog'dor, bog'iston, bog'cha (bolalar bog'chasi), bog'rog', bog'-bo'ston. Uzumini ye, bog'ini surishtirma. Bog'ga boqsang, bog'bo'ladi, botmon dahsar yog' bo'ladi. (Maqol)*

### Imlo lug'ati va undan foydalanish

Har bir tilda shu tildagi so'zlarni to'g'ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmuyi bo'ladi. Bu imlo yoki orfografiya qoidalari deyiladi. Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yili yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tilishi munosabati bilan imlo qoidalariga ham sezilarli darajada o'zgartirishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yili professor A.Hojiyev muharrirligida yangi «O'zbek tilining imlo lug'ati» nashr qilindi.

Imlo lug'atlarida so'zlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tartibida beriladi.

#### Imlo lug'atlarining nashrlari:

1. Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi. – Toshkent: Fan, 1940.
2. Ibrohimov S., Rahmonov M. Imlo lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1956, 1964.
3. Ibrohimov S., Begmatov E., Ahmedov A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Fan, 1976.
4. O'zbek tilining imlo lug'ati / A.Hojiyev tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

So'zlarning yozilishiga e'tibor bering.

*Afg'on, afv, battar, baynalmilal, gramm, istehzo, tamagir, taqiqlamoq, iste'dod, xayol, xohlamoq.*

### **Etimologik lug'at va undan foydalanish**

Tildagi har bir so'z o'zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega. Masalan, ichkari so'zi *Ich* o'zagidan va tomon ma'nosini bildiruvchi *-gar* qo'chimchasidan iborat.

**Tildagi so'zlarning kelib chiqish tarixini o'z ichiga olgan lug'atlar etimologik lug'atlar hisoblanadi.**

Professor Sh.Rahmatullayevning ko'p yillik samarali mehnatlari tufayli o'zbek tilida ham dastlabki etimologik lug'at paydo bo'ldi.



## USLUBIYAT (STILISTIKA)

### Nutq uslublari tasnifi

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi. O'zbek tilining nutq uslublari o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi o'zbek tili uslubiyati deyiladi.

So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan so'zlar va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar *uslubiy xoslangan so'zlar*, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa *uslubiy betaraf so'zlar* sanaladi. Uslubiy xoslangan so'zlar: *mazkur, binobarin, dudoq, qaroq, nigoh tashlamoq, nota, bayonnoma, o'rtoq, muhtasham, ilonning yog'ini yalagan, nutq ijod etmoq, za'faron*. Uslubiy betaraf so'zlar: *kitob, daftar, oila, hayot, til, so'zlamok, gapirmok, uy, ovqat*.

O'zbek adabiy tili uslublari XIX asr ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan.

O'zbek tilining ichki tuzilishinigina o'rganish bizga bu til haqida to'la axborot berolmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *muhtaram, qimmatli, aziz* singari so'zlarni ma'lum shaxs bildiruvchi so'zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo'shib ishlatishingiz mumkin: *Muhtaram Solijon Soqi-yevich! Qimmatli aka, aziz opajon* kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishilarga qo'llay olmaysiz. Agar shunday birikmalarni qo'llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz.

O'zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) ilmiy uslub; 4) rasmiy uslub; 5) badiiy uslub. Bulardan so'zlashuv uslubi **og'zaki nutqqa xos bo'lsa**, qolgan uslublar **yozma va og'zaki** shakllarga xos. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma'ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma'ruzaning o'zi esa og'zaki nutqqa xos. Shuningdek, badiiy uslubning ham yozma va og'zaki (xalq og'zaki ijodi) ko'rinishi borligini bilasiz.

### So'zlashuv uslubi

Kundalik hayotda, oilada, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning o'zaro muloqot shaklini yuzaga keltiruvchi uslub so'zlashuv uslubi deyiladi. So'zlashuv uslubi ikki turga bo'linadi: adabiy va oddiy so'zlashuv uslubi. *Ma'lum adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan, tartibga solingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi sanaladi*. Adabiy tilning og'zaki shakli adabiy so'zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlar, televideniye ko'rsatuvlari shu uslubda olib boriladi. *Adabiy til me'yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli esa oddiy so'zlashuv uslubi hisoblanadi*. Oddiy so'zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga bunga teskari bo'lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yiladi. Oddiy

so'zlashuv uslubida gap bo'laklarining tartibi ham ancha erkin bo'ladi. Ba'zan shevaga xos so'zlar, qo'pol, dag'al so'zlar ham kuzatiladi, lekin ularni qo'llash so'zlovchining madaniy nutq sohibi emasligini ko'rsatadi.

Oddiy so'zlashuv uslubida so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib axborot uchun eng kerakli so'zlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to'ldiriladi.

Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so'raysiz:

– Beshinchidan ikkita (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o'tirmaysiz).

Oddiy so'zlashuv uslubi nutq muomalasi jarayonida (erkinlik bilan) adabiy til hamda sheva elementlari ishtirok etishi, fikriy idrokni keng qamrovli bayon qilishi bilan ta'riflanadi. Bu uslubda so'z tartibi qoidaga muvofiq bo'lishi (*Kecha konsert bo'ldi klubda*); ko'chma, obrazli-emotsional vositalar ko'proqligi (*g'ayrat qil, shalvira; Alini qarang, og'zi qulog'ida* kabi); dialogik shaklda bo'lib, to'liqsiz gaplar, imo-ishoralarning ko'p ishlatilishi (kelyapti (navbatchi), *Ketdimi? – Ha*, kabi); takrorlar (*Kelib-kelib shu gapni topdingmi?*); talafuzda erkinlik (na'lat (la'nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llanadi.

So'zlashuv uslubining har ikkala turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha kinoya, piching, qochirimlarga boy bo'ladi. Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati **erkinligidir**.

### Publitsistik uslub

Publitsistika (lotincha, «**publika**» – «xalq, omma») davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari (gazeta-jurnal, radio, televideniye) uslubi, Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub hisoblanadi. Publitsistik uslub 2 xil shaklga ega: og'zaki va yozma shakl.

Radio-televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari publitsistik uslubning og'zaki shakliga mansub. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton, pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shaklida namoyon bo'ladi. Publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar,



bo'yoqdor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi, muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u *muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik, soddalik, tushunarlilik, axborot berish, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish belgilariga ega*. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo'poruvchilik, siyosiy tanglik, bitim, reja, qurultoy, anjuman, kengash, hukumat rahbarlari, davlat* va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o'zi, masalan, gazeta, radio, televideniya da beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o'zida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Biroq ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko'rinishlaridir. U ham bo'lsa *nutqning jamiyatga qaratilganidir*.

Publitsistik uslub namunasi: «Tursunboyga aytar so'zlarim» maktubi.

### **Badiiy uslub**

Ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali *obrazli* ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga *estetik ta'sir etuvchi* nutq uslubi **badiiy uslub** sanaladi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub sanaladi.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatiladi.

Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida *axborot berishdan (kommunikativ vazifa bajarishdan)* tashqari o'quvchiga *ta'sir qilish (ekspresiv)* vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangan. *Badiiy uslub*, ulardan farqli ravishda, *Inson amally hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi*. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo'llashi yoki o'zi yangilarini yaratishi mumkin bo'ladi.

Shu bois bu uslubda yozuvchilar mavjud so'zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o'ziga xos so'z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon etishga xizmat qiladi.

Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lamini, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Barcha turdagi san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi olingan parchalarga e'tibor bering. Badiiy uslubning dramatik turiga mansub asarlar tiliga diqqat qiling.

*Domla: – Shariat ilmi va zaruriyati diniya bilmoq uchun boyvachchani o'qutmak, albatta, sizga lozimdur.*

*Boy: – Shariat ilmimi o'qutmakni lozim bilmayman, chunki ani mufti yo imom va muazzin qilmoqchi emasman. Azbaski, davlatim anga yetar.*

A.Qahhorning «O'jar» hikoyasidan olingan parchani o'qib badiiy uslubning hikoya janriga xos belgilarga diqqat qiling.

*– Hozir, hozir! – dedi. – Suyar! Ho Suyar! Bu yoqqa chiq, o'g'lim! E, yotganmiding! Mayli, bu yoqqa o'tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shedin katta yozuvchimi?*

Badiiy uslub namunasi:

*Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman,*

*Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay.*

*Bu yorug' dunyoda bormi, bilmayman,*

*O'z o'g'lin yo'lga intizor menday... (Muhammad Yusuf)*

## Ilmiy uslub

Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi. Ilm-fan sohasida qo'llanuvchi nutq uslubi ilmiy uslubdir. Ilmiy uslub daliliy ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta'rif-qoidalarga) ega bo'lish, atamalarning keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi: 1) *sof ilmiy uslub*; 2) *ilmiy-ommabop uslub*.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi olimlar uchun ishlatiladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasiga doir atamalar keng qo'llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi. Ilmiy-ommabop uslubda maxsus ata-



malar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi. Namunaga e'tibor bering:

*Tovushdoshlikning ma'no bilan singishib ketgan oliy namunalari Navoiy asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, shoir «Xamsa»sining Nizomiy Ganjaviyga bag'ishlangan qismlaridan birida:*

*Ganja ganjurikim chekib ko'p ranj,*

*Qo'ymish erdi jahonda besh ganj, –*

*deydi. Bu baytda «ishtiyoq» deb atalgan san'at ham bor. «Ishtiyoq» so'zining badiiy termin bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan. So'z yasalishi ishtiyoq deyiladi. Shunga asosan gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni «ishtiyoq» deb ataganlar.*

Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir-biridan farqlanadi. *Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon etish kuchli bo'ladi.*

Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar ishlatiladi.

## Rasmiy uslub

Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi. Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxonalar, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozi singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoyat aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi: **axborot uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi** amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topadi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni

shundaki, bunday matnlarning kesimi III shaxs majhul nisbatdagi fe'llar orqali ifodalanadi (*ogohlantirilsin, topshirilsin* kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Bu uslub hujjatlilik xarakteri bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlik, unda muayyan nutqiy shtamplar, kasbga oid so'zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Darak va buyruq gap shakllaridan foydalaniladi.

Tayyor nutq formulalari (shu asosida, shunga ko'ra, ma'lum qilamizki, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ... ga asosan (muvofiq), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy tasviriy vositalar bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllari, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi, til material hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

**Namuna:**

Asaka akademik litseyi direktori  
D.Mo'minovga 2-bosqich talabasi  
M.Abdullayevdan

### ARIZA

2012-yilning 4 – 6-aprel kunlari Chirchiq shahrida respublika birinchilik uchun boks bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalarda ishtirok etishim uchun ruxsat berishingizni hamda ko'rsatilgan kunlarda darslardan ozod qilishingizni so'rayman.

(imzo) M.Abdullayev  
2012-yil 2-aprel



## GRAMMATIKA

### MORFOLOGIYA

**Grammatika** (yunoncha, *grammatika* – «harf o'qish va yozish san'ati», «harf») atamasi tilning morfologik hamda sintaktik qurilishi va bu qurilishni o'rganadigan tilshunoslik bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, **grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi.**

**Morfologiya** (yunoncha, *morfos* – «shakl», *logos* – «ta'limot») so'z shakllari haqidagi ta'limotdir.

Tilshunoslikning leksikologiya bo'limi ham, morfologiya bo'limi ham so'z haqida bahs yuritadi, lekin bu ikki bo'lim so'zning qaysi tomoniga e'tibor qaratishi bilan bir-biridan farqlanadi. Leksikologiya leksik so'z(leksema)larni, ularning atash ma'nolarini o'rgansa, morfologiya so'zning grammatik ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllarni, ya'ni so'zning morfologik shakllarini o'rganadi. Masalan, *qalam*, *qalamning*, *qalamni*, *qalamga*, *qalamdan*, *qalamda* shakllari bir so'zning (*qalam* so'zining) turli shakllari hisoblanadi. Bu so'z shakllarining hammasida takrorlanayotgan *qalam* qismi ikkita ma'noga ega. Birinchi ma'nosi yozish, chizish uchun mo'ljallangan grafit toshga yog'och qoplama o'rnatilgan o'quv qurolini bildiradi. Bu qalam leksemasining (leksik so'zning) atash ma'nosi sanaladi. Leksik so'zning atash ma'nolari leksikologiyada o'rganiladi. Shu bilan birga, *qalam* so'zi *daftar*, *kitob* so'zlari singari *nima?* so'rog'iga javob bo'lib, predmetlik, bosh kelishiklik, birlik ma'nolariga ham ega. Bu esa qalam so'zining ikkinchi ma'nosi – grammatik ma'nosi sanaladi. Ana shu grammatik ma'nolar va ularni ifodalovchi vositalar morfologiya bo'limida o'rganiladi.

Demak, **morfologiya so'z turkumlari va ularning grammatik shakllari bo'yicha bahs yuritadi.**

Ko'rinadiki, so'zning leksik ma'nosi bilan ularning predmetlik, belgi, harakat singari ma'nolarini ifodalovchi umumiy grammatik ma'nolari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. So'zlarni turkumlarga ajratishda so'zlarning leksik ma'nosi ustiga qo'yilgan umumiy grammatik (predmet, belgi-xususiyat, harakat-holat kabi) ma'no asosiy tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Demak, morfologiya bilan sintaksis o'rtasida ham chambarchas bog'liqlik mavjud. Morfologiyadagi har bir so'z shakli gap tarkibida ma'lum sintaktik vazifa bajaradi, ma'lum gap bo'lagi vazifasida keladi. Grammatik shakllar gap tarkibidagi bo'laklarni bir-biriga bog'lovchi yoki gap bo'lagiga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, tilshunoslikning leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud.

## So'z turkumlari

So'zlarning so'rog'i va qanday umumlashgan ma'no ifodalashiga ko'ra guruhlariga bo'linishi **so'z turkumlari** sanaladi. So'z turkumlari ma'no va vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. *Mustaqil so'zlar*. 2. *Yordamchi so'zlar*. 3. *Oraliqdagi so'zlar*.

Atash ma'noli so'zlar (predmet, belgi, miqdor, harakat-holat kabi) yoki ular o'rnida qo'llanib ma'lum so'roqlarga javob bo'luvchi va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keluvchi so'zlar **mustaqil so'zlar** deyiladi. Masalan: Gul – nima? Chol – kim? Chiroyli – qanday? Yuztacha – nechta? Keldi – nima qildi? *Fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish* mustaqil so'zlar sirasiga kiradi.

Ma'lum so'roqqa javob bermaydigan, atash ma'nosiga ega bo'lmagan, faqat grammatik ma'no ifodalovchi, lekin o'zidan oldin kelgan so'zga grammatik shakl sifatida qo'shilib u bilan bir lug'aviy urg'u ostida birlashmaydigan so'zlar **yordamchi so'zlar** deyiladi. Masalan, ammo, ham, faqat, -chi (ayt-chi), -mi (sizmi) kabi. Yordamchi so'zlarga *ko'makchi, yuklama va bog'lovchi* kiradi.

Bundan tashqari, mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan, ularning har ikkisiga xos belgini o'zida ma'lum darajada aks ettiradigan **oraliqdagi so'zlar** ham bor. Bunday so'zlar *undov so'zlar, modal so'zlar, taqlid so'zlarni* o'z ichiga oladi.

## Mustaqil so'z turkumlari

### OT SO'Z TURKUMI

**Ot** – shaxs, narsa ma'nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, *kim? nima? qayer?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar. *Kim?* so'rog'i shaxsni bildiruvchi so'zlarga, *nima?* so'rog'i narsa-buyumni bildiruvchi so'zlarga, *qayer?* so'rog'i joy nomini bildiruvchi so'zlarga beriladi. Shunga ko'ra, otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari, o'rin-joy otlariga bo'linadi.

### Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Otlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy otlarga bo'linadi. Faqat bir asosdan tarkib topgan otlar **sodda ot** hisoblanadi. Masalan, *uy, yer, tosh, tuz, daraxt*.

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan otlar **qo'shma ot** sanaladi. Masalan, *qo'lqop, oltingugurt, beshiktebratar*.

**Qo'shma otlar qo'shib va ajratib yoziladi:**

a) qo'shma otlar, asosan, qo'shib yoziladi: *boychechak, xo'rozqand, ko'ksulton, atirgul*;

b) ikkinchi qismi turdosh otdan iborat yoki obod, bo'yi, orti, oldi kabi so'zlar bilan ifodalangan atoqli otlar qo'shib yoziladi: *Kattaqo'rg'on, Uchtepa, Boltiqbo'yi, Kavkazorti, Hamzaobod*;



d) ikkinchi qismi atoqli otdan iborat qo'shma otlar ajratib yoziladi: *Markaziy Osiyo, Quyi Chirchiq*.

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli asoslardan tarkib topgan otlar **juft otlar** deyiladi. Masalan, *o'g'il-qiz, idish-tovoq, ota-ona*.

Ikkinchi qismi birinchi qismining tovush o'zgarishi asosidagi takroridan tarkib topgan otlar **takroriy otlar** sanaladi. Masalan, *tuz-puz, tovoq-povoq, tovuq-povuq*.

**Juft va takroriy otlar** qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

### Otlarning tarkibiga ko'ra turlari

Otlar ham boshqa turkumlar kabi tarkibiga ko'ra 2 turga bo'linadi: 1. Tub. 2. Yasama. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'lmaydigan otlar tub otlar deyiladi: *kitob, maktabga, onalar, xola, bahor, ishlarimiz, bog', nihol, mamlakat*.

Tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha ishtirok etadigan otlar yasama otlar sanaladi: *so'roq, yaxshilik, ishchi, supurgi, dehqonchilik*.

Yasama otlar 2 xil yo'l bilan hosil qilinadi: 1. Affiksatsiya. 2. Kompozitsiya. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan otlar sodda, yasama ot hisoblanadi. Masalan, *chizg'ich, haydovchi, o'roq, dangasalik* kabi.

Kompozitsiya usuli bilan hosil qilingan otlar qo'shma yasama otlar sanaladi. Masalan, *qorbo'ron, tillaqosh, laylakqor, gultojixo'roz* kabi.

### Atoqli otlar va ularning imlosi

Biror shaxs, narsa yoki joyga atab qo'yilgan nomlar **atoqli otlardir**. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko'ra *shaxs nomlari* va *joy nomlariga* bo'linadi.

### Shaxs nomlari va ularning imlosi

Kishilarning ismi, otasining ismi, familiyasi, taxallusini bildiruvchi otlar *shaxs nomlari* sanaladi. Shaxs nomlari *antroponimlar* deyiladi. Familiyalar shaxs ismidan so'ng otasining ismini qoldirish (Usmon Nosir), otasining ismiga *-ov(a)*, *-(y)ev(a)* qo'shimchasini qo'shish (Erkin Vohidov) bilan ifodalangani. Bundan tashqari, *Abdu-*, *-qul*, *-berdi*, *-jon*, *-boy*, *-oy*, *-bek*, *-xo'ja*, *-bonu* kabi kishi nomlari ko'rsatkichlari ham shaxs nomlariga qo'shiladi.

### Joy nomlari va ularning imlosi

Ma'lum bir geografik hududga atab qo'yilgan nomlar **joy nomlari sanaladi**. *Mamlakat, o'lka* nomlari *qo'shma so'z* shaklida bo'lganida *tarkibidagi har bir so'z bosh harf* bilan yoziladi: Amerika Qo'shma Shtatlari, O'rta Osiyo, Janubiy Korea, O'rta Chirchiq, O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi kabi.

Tarkibida *bo'yi, orti, oldi* so'zlari ishtirok etgan joy nomlari qo'shib yoziladi. Masalan, *Boltiqbo'yi, Orolbo'yi, Kavkazorti*.

Quyidagi matndagi joy nomlarining imlosiga e'tibor berish bilan birga *Toshkent* so'zi etimologiyasi bilan ham tanishing.

U vaqtda *Toshkent* ikkita shahardan iborat bo'lib, birini *Eski shahar*, ikkinchisini *Yangi shahar* deyishardi. Ikkalasi o'z davrining o'zgacha ikki dunyosi hisoblanib, ularning muayyan chegarasi ham bor. Ko'p sirlarning guvohi bo'lgan sirli *Anhor* chegara edi. Uning o'ng qirg'og'i Qo'qon xoni qurgan *O'rda* choyxonasidan boshlansa, chap qirg'og'i *Eski shaharga* qaratilgan *Tuproqqo'rg'on* harbiy qal'asidan boshlanardi.

### **Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari**

*Xalqaro tashkilot va oliy davlat tashkilotlari va oliy mansablarning nomlari* tarkibidagi **har bir so'z bosh harf bilan yoziladi**: Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

*Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi* tarkibidagi **birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi**: Sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent traktor zavodi, Oliy xo'jalik sudi, Quvasoy sement zavodi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Toshkent agrar universiteti.

*Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabilarga berilgan shartli nomlar* **qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan** (birikmali holatlar-da faqat birinchi so'zi) yoziladi: «Turkiston» saroyi, «Sharq gullari» (firma).

Quyidagi hollarda qo'shtirnoq ishlatilmaydi:

1. Kinoteatr, jamoa xo'jaligi nomlari shaxs nomiga qo'yilgan bo'lsa, nomidagi, nomli so'zlari ishtirok etsa. Bobur nomidagi jamoa xo'jaligi, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

2. Shahar, tuman nomlari qo'shtirnoqqa olinmaydi: Toshkent shahri, Uchtepa tumani.

Quyidagi so'zlarning yozilishiga e'tibor bering.

*Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, «Qo'shchinor» mas'uliyati cheklangan ishlab chiqarish birlashmasi, Bulung'ur tuman hokimligi, Urganch davlat universiteti, «Lazzat» oshxonasi, «Afrosiyob» mehmonxonasi, Toshkent agrar universiteti, «Bahor» konsert zali, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Oliy xo'jalik sudi, Buxoro viloyati hokimligi, «Damas» avtomashinasi, «O'qituvchi» nashriyoti, «Umid» firmasi, «Istiqbol» fermer xo'jaligi, «Malika» ishlab chiqarish birlashmasi, «Nuroni» jamg'armasi, Samarqand chinni zavodi, Quvasoy sement zavodi, «Turkiston» saroyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Guliston davlat universiteti, Sog'liqni saqlash vazirligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Oliy Majlisi, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent traktor zavodi.*



## Tarixiy sana va bayram nomlari

Tarixiy sana va bayramlar nomlari tarkibidagi **birinchi so'z bosh harf bilan** yoziladi. Quyidagi so'zlarning yozilishiga e'tibor bering.

1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z bayrami, 9-may – Xotira va qadrlash kuni; 1-sentabr – Mustaqillik kuni; 8-dekabr – Konstitutsiya kuni; 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni.

## Suv havzalari va inshootlari nomlari

Suv havzalari va inshootlari nomlari tarkibidagi **birinchi so'z bosh harf bilan** yoziladi. Masalan, *Chirchiq daryosi, Qora dengiz, Amu-Buxoro kanali* kabi.

Ushbu gaplarga e'tibor bering, suv havzalarining arxaik variantini esda saqlang.

1. Yoz boshlanib, *Yaksart* bo'yidagi o'tlar qovjiray boshladi. 2. O'sha yili Eron shohi Darayavush *O'kuzdan* kechib Sug'diyonani bosib oldi. 3. Kir *Araks* daryosiga ko'prik qurishni buyurdi. 4. Bu jodudan ikki ko'zim, biri *Sayhun*, biri *Jayhun*.

## Turdosh otlar

Bir turdagi shaxs, narsa, o'rin-joy, faoliyat-jarayon nomlarini bildiruvchi otlar turdosh otlar sanaladi: *Vatan, ona, qalb, xona, oila, hayot, masala* kabi. Turdosh otlar shaxs otlari, narsa otlari, o'rin-joy otlari, faoliyat-jarayon otlari, mavhum otlar kabi turlarga bo'linadi.

## Shaxs otlari

Shaxs otlari kim? so'rog'iga javob bo'lib, shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko'ra nomlab keladi. Masalan, *bola, ishchi, amma, vazir, oqsoqol, malika, duradgor* kabi.

Shaxs otlarining bir guruhi o'zakka **-chl** (ishchi), **-soz** (aravasozi), **-kor** (paxtakor), **-xon** (kitobxon), **-dosh** (sinf-dosh), **-boz** (dorboz), **-voz** (kaptarvoz), **-vchi** (haydovchi) qo'shimchalarini qo'shish yordamida yasaladi.

**-vchi** qo'shimchasi I unlisi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganida I unlisi **u** shaklida, **a** bilan tugagan fe'llarga qo'shilganida **a** unlisi **o** shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: *o'qi + vchi = o'quvchi, hayda + vchi = haydovchi* kabi. Undosh bilan tugagan fe'llarga **-uvchi** shaklida qo'shiladi: *quruvchi, suzuvchi*.

**-lik** qo'shimchasi o'rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo'shilib shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi. Atoqli otlarga qo'shilgan **-lik**

qo'shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi: *toshkentlik, qo'qonlik*.

Shaxs oti yasovchi qo'shimchalarning aksariyati omonim xarakterga ega.

1. **-chi** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha hamda yuklama bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *bekorchi (odam), yolg'onchi (bola)*. Yuklama: *kel-chi, sen-chi?*

2. **-kor** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *o'ymakor, naqshinkor*.

3. **-xon** qo'shimchasi otlarning lug'aviy shakli, ya'ni erkalash-kichraytirish qo'shimchasi bilan omonimlik hosil qiladi. Masalan, *Dilnozaxon, Gavharxon*.

4. **-boz** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *xotinboz, qimorboz*.

5. **-lik** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qishlik (kiyim), attorlik (do'kon)*.

#### Namunalar.

1. Bittasi toshkentlik Yusufbek hojining o'g'li Otabek. 2. Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi. 3. Dehqonchilik sirini professorlar o'rgatgan emas bizga. Paxtakorning o'z kitobi bor. Bu kitob uning ko'kragida. 4. Shavkat eng oldin enasi bilan quchoqlashib xayr-xo'shlashibdi.

#### Narsa otlari

Nima? so'rog'iga javob bo'lib, jonli va jonsiz narsalarning nomini bildirgan otlar narsa otlari deyiladi. Masalan, *arslon, boychechak, sho'rva, ko'ylak, do'ppi, bo'ri, qozon, go'sht, pichoq, qoshiq, tesha, palto, tulki, arra, bolta, chuchvara, ketmon, choynak, piyola, rayhon, yalpiz, oy, yulduz, quyosh, sher, ayiq, lola, palov, shim, cho'mich*.

Narsa otlari **-gich (tishkovlagich)**, **-g'ich (o'chirg'ich)**, **-qich (tutqich)**, **-gi (supurgi)**, **-qi (tutatqi)**, **-k (elak)**, **-q (tarog)**, **-oq (o'roq)**, **-indl (chiqindl)**, **-ma (qo'llanma)**, **-don (guldon)** kabi qo'shimchalar bilan yasaladi.

Narsa oti yasovchi qo'shimchalarning aksariyati omonim xarakterga ega.

1. **-g'ich** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *yulg'ich (odam)*.

2. **-qich** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qaqshatqich (zarba)*.

3. **-gi** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *yo'zgi, kuzgi*.

4. **-qi** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *sayroqi, o'ynoqi*.

5. **-k** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha hamda fe'llarning shaxs-son shakli bilan (sintaktik) omonimlik hosil qiladi. Sifat: *chirik*. Fe'l: *keldik, bordik*.



6. **-q** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qaynoq, dumaloq*.

7. **-oq** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qo'rqoq*.

8. **-ma** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha hamda fe'llarning bo'lishsizlik shakli (lug'aviy) bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *burma, qaynatma (sho'rva)*. Fe'l: *borma, o'tirma*.

9. **-don** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qadrdon, bilimdon*.

#### **Namunalar.**

1. Mundoq razm solib qarasam, ko'pchilikning qo'lida kosov, bolta, o'rog.  
2. Mashinada kichkina sovutqich ham bor edi. 3. Oqqirov kasalligi q'o'za barqlariga uya quradi, tuqroqda, o'simlik chirindilari orasida qishlaydi. Bahorda yana ekinlarni kasallantiradi. 4. Direktor o'sha terilar uchun xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining oltin medalini oldi. 5. Eshikni ochishim bilan dadam qo'lidagi gazetasini, oyim supurgini tashlab menga qaradi. 6. Kissasida yarimta o'chiroq'ich bilan kecha ochgan qalami bor ekan. 7. Bu uchrashuv «Qizingiz yozdi» she'riy to'plami bosilguncha bo'lib o'tgan edi. 8. Qovurma antiqa bo'lgan ekan, ochig'ini aytsam, bunaqa shirin go'shtni umrimda yemagan edim. 9. G'ildiraklarning bir qiyomda taraqlab tebranishidan ko'zim ilinibdi. 10. Suzma va qatigining inson salomatligi uchun foydasi ko'p.

### **O'rin-joy otlari**

Qayer? so'rog'iga javob bo'lib, o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi otlar o'rin-joy otlari sanaladi. Bunday otlar o'rin-joy ma'nosi bilan birga narsalik ma'nosini ham anglatadi, shuning uchun qayer? so'rog'i bilan birga nima? so'rog'ini olishi ham mumkin.

**-zor (gulzor), -loq (o'tloq), -iston (qabriston), -goh (saylgoh), -xona (osh-xona)** qo'shimchalari o'rin-joy otlarini yasaydi: *shahar, qishloq, gular, mahalla, tuman, viloyat, ko'cha, gulzor, olmazor, saylgoh, sharq, g'arb*.

O'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalarning ayrimlari omonim xarakterga ega.

1. **-loq** qo'shimchasi otlarning erkalash-kichraytirish qo'shimchasi (lug'aviy) bilan omonimlik hosil qiladi. Masalan, *bo'taloq*.

#### **Namunalar.**

1. Har qalay, o'zi tug'ilib o'sgan qishloq. Bolaligini eslatadigan guvala devorlar bilan qurshalgan ko'chalar, suvga cho'milgan jimjit soylar, olisda sadafdek chaqnab turgan cho'qqilar, yam-yashil o'tloqlar ko'ngliga-taskin berar-ku! 2. Daryozadan chiqib, katta yo'ldan biroz yurilgach chap tomondagi tolzor ko'chaga burilishdi. 3. O'ktam Komila orqasidan yurib olchazor orqali keng, tekis, bahavo maydonga chiqdi. 4. Cho'pon otaning katta hovlisi, otlar

bog'langan bostirmasi, sigirlar boqiladigan molxonasi va qo'ylar turadigan ikkita katta qo'rasi bor edi. 5. Qutidor do'koniga jo'naganidan keyin O'ftoboyim To'ybekani mehmonxonaga buyurdi va o'zi xamir qilishga o'tirdi. 6. U shosha-pisha kiyinib endi tashqariga chiqayotgan ham ediki, eshik ohista taqillab, ostonada Mehriniso ko'rindi. 7. Biz ko'chib kelgan hovli katta edi. Qator qilib solingan ikki uy, bir ayvon. 8. Bu yerlarni qo'riqxonaga aylantirar emish, shuning uchun uy hayvonlarini boqish mumkin emas ekan.

### Faoliyat-jarayon otlari

Shaxs va narsalarning faoliyat-jarayonini nomlovchi otlar faoliyat-jarayon otlari deyiladi. Faoliyat-jarayon otlari **-lik (yoshlik)**, **-chilik (chorvachilik)**, **-garchilik (loygarchilik)**, **-(l)k (ko'rik)**, **-(l)m (terim)**, **-(l)q (chopiq)**, **-(u)m (unum)** qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Faoliyat-jarayon otlari yasovchi qo'shimchalarning aksariyati omonim xarakterga ega.

1. **-lik** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qishlik (kiyim)*, *attorlik (do'kon)*.

2. **-(l)k** qo'shimchasi sifat yasovchi hamda fe'l yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *suzik (ko'z)*, *yugurik*. Fe'l: *birik*.

3. **-(l)m** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha hamda otlarning egallik shakli (sintaktik) bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *ayrim*, *qisim*. Otning egallik shakli: *kitobim*, *maktabim*.

4. **-(l)q** qo'shimchasi sifat yasovchi hamda fe'l yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *tiniq*, *siniq*. Fe'l: *yo'liq*.

#### Namunalar:

1. O'rindiqning bir chekkasida o'tirgan ayol unga mehribonlik bilan tikilib turardi. 2. Dadam kunduzi g'o'zani chopiq qilib juda charchagan ekan, sira uyg'onmadi. 3. Yoshlikdagi gunohlari uchun yangamdan kechirim so'ramoqchilar. 4. Ta'tilda o'qituvchi opamiz sayohatga olib boradigan bo'ldi. 5. Bog'chada mazza edi. Kuni kecha xayrlashuv tantanasi bo'ldi. 6. Shofyorlik kursini bitirib, konda ishlay boshladim. 7. Bilim kishining ko'nglini yoritadi, unga ro'shnolik beradi. 8. Yoshlik qaytib kelmaydi. 9. Bu dunyoda uning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q: duradgorlig-u suvoqchilik, chilangarlig-u ustachilik – hammasini eplaydi. 10. Ancha ovoraqarchilik bilan bir mashina paxta olib qaytdik. 11. Huriniso ipakchilik zvenosining boshlig'i bo'lgan ekan. 12. Shomurod asli yilqichining bolasi, dehqonchilikni xushlamaydi. 13. Yolqin akam traktor terimidan bo'shaganidan keyin hovlining kamchiliklarini tuzatadi.

### Aniq va mavhum otlar

Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lgan narsalarni bildirgan otlar aniq otlar deyiladi: *kitob*, *mashina*, *uy*, *eshik*, *dutor* kabi.



Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan otlar mavhum otlar deyiladi: *dev, xayol, aql, o'y, go'zallik* kabi.

Aniq otlar birlik va ko'plik shaklida qo'llana oladi, ammo mavhum otlar ko'plik shaklida qo'llanganida ko'plik ma'nosi emas, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolari ifodalanadi.

Mavhum otlar **-lik (ahillik), -ch (ishonch), -inch (sevinch)** qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Mavhum ot yasovchi qo'shimchalarning ayrimlari omonim xarakterga ega.

1. **-lik** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *qishlik (kiyim), attorlik (do'kon)*.

2. **-ch** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *tinch*.

**Namuna:** *yaxshilik, yomonlik, tinchlik, ovunch, xurramlik, ahillik, o'kinch*.

1. U o'z qalbida kechayotgan tuyg'ularning nomini bilmas, shu daqiqadagi holatini o'rtoqlariga ham izohlab berolmas edi. 2. Hunarlarini, didlarini rosa ishlatib, chiroyli bino solib bersalaring bas. 3. Hasad – yurakning zanglashi, qaysarlik mag'lubiyat sababchisidir. 4. Oyog'ingiz yugursa magsadingizga yetkazadi, tilingiz yugursa boshingizga falokat keltiradi. 5. Yalqovlik muhtojlik eshigidir. 6. Narsa deb odamlar e'tiboridan qolish yomon. 7. Havo qalbning haqiqiy ko'zglasidir. 8. Shu sevinch ikkovlariga ham kuch-g'avrat, ham dadillik baxsh etgandek bo'ldi. 9. Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyulgan totli havosi hammamizning ruhiyatimizni ko'tarib yubordi. 10. Osmon hadsiz, ufqlar, qirlar jimirlaydi zarrin yog'duda. 11. Osmon kabi tiniq tuyg'ular mavj uradi bu yosh ko'nglimda. 12. Vujudimda hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafaqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi. 13. Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamiihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. 14. Mardlik – insonning husni.

## Otlarning lug'aviy shakllari

### Son shakllari

Otlarning birlik yoki ko'plik sonda qo'llanilishi otlarda *son* deyiladi. Otlarning *-lar* qo'shimchasini olgan shakli ko'plik shakli, *-lar* qo'shimchasini olmagan shakli esa birlik shakli sanaladi. Demak, otlarda birlik sonning maxsus qo'shimchasi yo'q.

Otlarda ko'plik ikki xil bo'ladi:

1. *Morfologik yo'l*. **-lar** qo'shimchasi orqali hosil qilinadi: uylar, do'stlar, binolar kabi.

2. *Sintaktik yo'l*. Birlikdagi ot oldidan birdan yuqori sanoq sonlarni (besh-ta, ikkita, o'nta) va daraja-miqdor ravishlarini (ko'p, ancha) keltirish orqali

hosil qilinadi: *ko'p odamlar, yigirmata maktab, ancha yillar*. Sintaktik usul bilan hosil qilingan ko'plikda ot tarkibida, asosan, ko'plik qo'shimchasi ishlatilmaydi. *Ikkita kitoblar emas, ikkita kitob*.

**-lar qo'shimchasi sof ko'plikdan tashqari uslubiy vazifalar ham bajaradi.**

1. Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash. *Bolalarning shovqinidan boshlarim og'rib ketdi*. Ushbu gapda **-lar** grammatik shakli bosh so'zining ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash vazifasini bajargan. *Ko'zlarimga ishonmayman*. («O'tkan kunlar») Bu jumladagi ko'zlarimga so'zini birlik shaklga – ko'zimga shakliga almashtirib ko'ring. Ikkinchi holat bilan birinchi holat bir xil ma'noni – birlik ma'nosini (bir kishining ko'zini) ifodalasa ham, lekin bu ikki holat ta'sirchanlik, ifodalilik belgisiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisida yuqoridagi belgilar bor, ikkinchi holatda esa yo'q. Ba'zan tasviriylik, ifodalilikni kuchaytiradi: *ko'z yoshini artdi – ko'z yoshlarini artdi*.

2. Tur, na'v. Donalab sanalmaydigan narsa va hodisalarni bildiruvchi otlar birlik shaklida kelsa ham, aslida, jamlikni bildiradi. Masalan, *Ko'chaga qum to'kilgan. Ariq to'la suv, ichgani tashna, bolam*.

Bunday so'zlar ko'plik shaklini olganida ko'pincha narsa va hodisaning xilma-xil ekanligini bildiradi. *Suvlar (gazli suv, mineral suv kabi); bozordagi unlar. Do'konlarda nonlar va ichimliklar sotilmoqda. Tumanimiz markazida yog'lar ishlab chiqarilmoqda*.

1. Umumlashtirish. Ko'plik qo'shimchasi atoqli otlarga qo'shilganida o'zi qo'shilgan otning ko'pligini emas, balki uning boshqalar bilan birgalikda ekanligini bildiradi. *Olimjonlar kelishdi (Bir nechta Olimjon emas, Olimjon va uning yaqinlari). Nigora Saidlarnikiga kirganida uyning chiroqlari yoqilgan, Said bilan dadasi televizor ko'rib o'tirishar edi. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek guvullab Usmonlarnikiga jo'nashdi*.

2. Hududiy kenglik. Geografik nomlarga qo'shilganida shu geografik joyning kengroq, atrofdagi joylar bilan birgalikda ekanligini bildiradi. *Mirzacho'llar obod bo'ldi (Mirzacho'l va unga yaqin joylar)*.

3. Hurmat. Qarindoshlik bildiruvchi so'zlarga ko'plik shakli qo'shib hurmat ma'nosini bildiradi. Bunday vaqtda egalik qo'shimchalari bilan birga qo'llanadi. Shaxslarga qarab egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishiga ko'ra egalik va ko'plik shakllarining o'rinlashishi farqlanadi. Masalan, I va II shaxs egalik qo'shimchalaridan oldin kelsa grammatik ko'plikni, keyin kelsa hurmat ma'nosini ifodalaydi. *Opamlar – opalarim, amakimlar – amakilarim* kabi. III shaxsda **-lar** qo'shimchasi, asosan, egalikdan oldin joylashadi. Xayrini-so dadamning opalari bo'ladilar. Ayni shu o'rinda ma'nosiga qarab ko'plik ma'nosida ham kelishi mumkin.

4. Kesatiq. O'zlik olmoshiga qo'shilgan ko'plik shakli kesatiq ma'noni bildiradi. *Bu ishga o'zlari bosh-qosh bo'lganlar* (ma'nosiga qarab hurmat ma'nosida ham ishlatiladi).



5. Makon, zamon. *Bu voqeadan keyin ancha suvlar oqib o'tdi.*

Otlar son shakli omonim xarakterga ega. **-lar** grammik shakli fe'ning III shaxs ko'plik shakli (sintaktik) bilan omonimlik hosil qiladi. Masalan, *keldilar, ko'zlar.*

### Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari

Otlarning **-cha**, **-choq**, **-chak**, **-aloq** qo'shimchalarini olgan shakli kichraytirish shakli; **-gina** (**-kina**, **-qina**), **-jon**, **-xon**, **-oy** qo'shimchalarini olgan shakli esa erkalash shakli hisoblanadi. Kitob – kitobcha, uy – uycha, bola – bolaginar, do'ndiq – do'ndiqcham, toy – toychoq, kelin – kelinchak, uka – ukajon, Salima – Salimaxon, oyi – oyijon kabi.

Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari omonim xarakterga ega.

1. **-cha** qo'shimchasi ravish yasovchi qo'shimcha hamda sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Bunda mazkur ikki grammatik shakl urg'u olish-olmasligiga ko'ra farqlanadi. Otlarning kichraytirish va erkalash shakli **-cha** urg'u olsa, ravish yasovchi shakli urg'u olmaydi. Ravish: *yangi-cha, eskicha, erkakcha*. Sifat: *toshkentcha*.

2. **-chak** qo'shimchasi sifat yasovchi qo'shimcha sifatida otlarning kichraytirish shakli bilan omonimlik hosil qiladi. Sifat: *erinchak, kuyunchak*.

3. **-choq** qo'shimchasi sifat yasovchi, ot yasovchi qo'shimcha sifatida otlarning kichraytirish shakli bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *o'yinchoq*. Sifat: *maqtanchoq*.

4. **-loq** qo'shimchasi o'rin-joy oti yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *o'tloq, qumloq*.

5. **-xon** qo'shimchasi shaxs oti yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *g'azalxon, kitobxon*.

6. **-gina** qo'shimchasi ayiruv-chegaralov yuklamasi bilan omonimlik hosil qiladi. **-gina** shakli egalikdan keyin joylashsa yuklama; egalikdan oldin joylashsa erkalash qo'shimchasi vazifasini bajaradi. **-gina** yuklama vazifasini bajarsa urg'u olmaydi. Taqqoslang: *onaginam, ukaginam*. Yuklama: *ukamgina, xolanggina*.

### SIFAT SO'Z TURKUMI

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar sifat deyiladi. *Chiroyli ko'ylak, baland bino, devoriy gazeta, qiziq gap, kuzgi ekin*.

Ma'lum belgi bir necha so'zlar orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan, *katta, ulug', ulkan, buyuk, gigant; chiroyli, go'zal, xushro'y, bejirim va b.* Bunday so'zlar muayyan bir umumiy ma'no asosida birlashsa-da, lekin ular bir-biridan ma'lum farqlanishga ham ega. Bunday farqlanish ularning boshqa so'zlar bilan bog'lanishida, ma'lum uslubga xoslanishida aniq namoyon

bo'ladi. Masalan, *odam* so'zi *katta*, *buyuk*, *ulkan*, *ulug'* sifatlarini qabul qila oladi, lekin *gigant* sifati odam bilan bog'lana olmaydi. Chunki u qurilishlarda binolarning shakl-belgisini ifodalashga xoslangan. Shuningdek, *ulug'*, *buyuk* so'zlari shakl belgisidan tashqari xususiyat belgisini ham ifodalaydi. Bunday vaqtda ular bilan ma'nodosh bo'lib keladi. *Uulkan*, *gigant* so'zlarida esa bunday ma'no yo'qligi uchun ular bilan ma'nodoshlikni hosil qila olmaydi.

Shuning uchun sifatlarning ma'nodoshlarini bilish va o'z o'rnida qo'llay olish so'zlovchining nutqiy mahoratini ko'rsatadi.

Sifatlar quyidagi **sintaktik vazifalarni** bajaradi:

1. Otga bog'lansa sifatlovchi aniqlovchi. *Uulkan* binolar o'lkamiz chiroyiga chiroy qo'shmoqda.

2. Fe'lga bog'lansa hol (ravish holi). U bo'lgan voqealarni mendan ko'ra yaxshiroq bilar edi.

3. Gapning oxirida kelsa ot kesim. Bu inson men uchun hamma narsadan aziz.

### Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi

Sifatlar tarkibiga ko'ra tub va yasama so'zlarga bo'linadi. Tarkibida so'z yasovchi qo'shimchalar bo'lmagan sifatlar tub sifatlar, asos va yasovchi qismdan iborat sifatlar yasama sifatlar hisoblanadi. Yasama sifatlar asosga qo'shimchalar qo'shish (affiksatsiya) yoki so'z qo'shish (kompozitsiya) yo'li bilan hosil qilinadi.

**-li**, **ser-**, **-dor**, **-siz**, **no-**, **-chan**, **-ma**, **-iy (-viy)** kabi qo'shimchalar sifat yasovchi qo'shimchalar sanaladi.

**-li**, **-dor**, **ba-**, **ser-**, **-mand** qo'shimchalari asosda ifodalangan belgiga ega-likni bildiradi. Bu qo'shimchalar (**-mand** qo'shimchasidan tashqari) ifodalangan belgiga ega emaslikni bildiruvchi **no-**, **-siz**, **be-** qo'shimchalari bilan zid ma'nolidir: *suvli* – *suvsiz*, *sertashvish* – *tashvishsiz*, *bahavo* – *havo-siz*.

**-gi (-ki)** qo'shimchasi payt bildiruvchi otlarga qo'shilib paytga xos belgini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *ertalabgi*, *kuzgi*, *qishki*. Odatda, **-gi** shakli jo'nalish kelishigidan keyin joylashib qoladi. Masalan, *teatrdagi*, *hovlidagi*. Ayni shu o'rinda **-gi** shakli so'z yasovchilik vazifasini bajaraveradi.

**-simon** qo'shimchasi o'xshashlik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *maymunsimon*, *sharsimon*;

**-(v)iy** qo'shimchasi xoslik belgisini bildiruvchi sifatlar yasaydi: *qonuniy*, *devoriy*, *zamonaviy*, *samoviy*.

**Ba-**, **bo-**, **no-**, **ser-**, **be-** kabi old qo'shimchalar fors-tojik tilidan o'zlashgan qo'shimchalar bo'lib, asosan, sifat so'z turkumiga oid so'z yasaydi.

Sifat yasovchi shakllar:



-li	<i>aqlli, bilimli</i>	-chan	<i>ishchan, harakatchan</i>	-k	<i>chirik, chuchuk</i>
ba-	<i>bahavo, badavlat</i>	-ma	<i>burma, bo'g'ma</i>	-ik	<i>suzik, yugurik</i>
be-	<i>beandisha, beodob</i>	no-	<i>nodavlat, nohaq</i>	-q	<i>qaynoq, chanqoq</i>
bo-	<i>boobro'</i>	-qi	<i>sayroqi, o'ynoqi</i>	-iq	<i>tiniq, siniq</i>
ser-	<i>sersuv, serdavlat</i>	-kash	<i>dardkash</i>	-oq	<i>qo'rqoq, qochoq</i>
-iy	<i>ilmiy, qonuniy</i>	-dor	<i>guldor, rangdor</i>	-qoq	<i>urishqoq, tirishqoq</i>
-vly	<i>oilaviy, zamonaviy</i>	-choq	<i>maqsanchiq, erinchoq</i>	-ag'on	<i>chopag'on</i>
-mand	<i>kasalmand, ayolmand</i>	-chak	<i>kuyunchak</i>	-gir	<i>səzgir</i>
-siz	<i>orzusiz, yuzsiz</i>	-kir	<i>keskir, o'tkir</i>	-qin	<i>sotqin, jo'shqin</i>
-gi	<i>kuzgi, yozgi</i>	-qir	<i>chopqir, topqir</i>	-chi	<i>yolg'onchi,</i>
-in	<i>to'lin, erkin</i>	-chiq	<i>qizg'anchiq</i>	-lik	<i>qishlik, kiyimlik</i>
-im	<i>ayrim</i>	-ch	<i>tinch</i>	-don	<i>qadrdon, bilimdon</i>

### Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari

Sifatlarining tub va yasama bo'lishidan xabardorsiz. Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz belgi bildiruvchi so'zlar tub sifatlar sanaladi. Masalan, *go'zal, xunuk, oq, qora* kabi. Yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan hosil qilingan sifatlar yasama sifat hisoblanadi. Masalan, *suv* so'ziga **-li** qo'shimchasi qo'shish orqali asos ifodalagan narsaning mavjudligi, me'yordan ortiqligi (*suvli*), **-siz** qo'shimchasini qo'shish orqali esa, aksincha, asos ifodalagan narsaning yo'qligi yoki me'yordan kamligi (*suvsiz*) bildiriladi.

Sifat yasovchi **-li** qo'shimchasi **-dor, -kor** qo'shimchalari va **ba-** old qo'shimchasi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi, shuning uchun birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *go'shtli – go'shtdor, gunohli – gunohkor, mazasiz – bemaza* kabi; lekin doim ham bir-biri bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, yurakli, kuchli so'zlarini *bayurak, yurakdor, yurakkor, kuchdor, bakuch, kuchkor* deb bo'lmaydi.

Sifat yasovchi **-siz** qo'shimchasi **be-, no-** old qo'shimchalari bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Masalan, *umidsiz, beumid – noumid*; lekin doim ham bir-biri bilan almashtirib bo'lmaydi. Masalan, *aqlsizni beaql* deyish mumkin, lekin *noaql* deb bo'lmaydi. Shuningdek, *nomard, noma'lum* singari so'zlardagi **no-** old qo'shimchasini **be-** old qo'shimchasi va **-siz** qo'shimchasiga almashtirib bo'lmaydi, chunki bu so'zlar fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tayyor holda o'tgan. Hozirgi o'zbek tilida yasalgan emas.

Shunga ko'ra, sifat yasovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega.

## Sifat yasovchi qo'shimchalarning omonimligi

1. **-ma** shakli ot yasovchi hamda fe'ning bo'lishsizlik shakli (lug'aviy) hosil qiluvchi qo'shimcha sifatida omonimlik hosil qiladi. Masalan: Ot: *qo'llanma, ko'rgazma*. Fe'ning lug'aviy shakli: *kelma, o'tirma*.

2. **-in** shakli ot yasovchi, ravish yasovchi hamda fe'ning nisbat shaklini (lug'aviy) hosil qiluvchi qo'shimcha sifatida omonimlik hosil qiladi. Masalan: Ot: *Ekin, tiqin*. Ravish: *qishin-yozin, birin-ketin*. Fe'ning nisbat shakli: *ko'rinmoq, bilinmoq*.

3. **-l** shakli fe'l yasovchi hamda otlarning egalik shakli bilan omonimlik hosil qiladi. Fe'l: *boyi, tinchi*. Otlarning egalik shakli: *kitobi, daftari*.

4. **-gl** shakli ot yasovchi grammatik shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *supurgi, sezgi*.

5. **-kl** shakli ot yasovchi grammatik shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *tepki*.

6. **-ql** shakli ot yasovchi grammatik shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *chopqi, tutatqi*.

7. **-choq** shakli ot yasovchi hamda otlarning kichraytirish shakli bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *o'yinchoq*. Otlarning lug'aviy shakli: *qo'zichoq*.

8. **-k** qo'shimchasi ot yasovchi hamda fe'ning shaxs-son shakli bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *elak, tilak*. Fe'ning shaxs-son shakli: *keldik, bordik*.

9. **-lk** shakli ot yasovchi hamda fe'l yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *ko'rik*. Fe'l: *birik, kechik*.

10. **-lq** shakli ot yasovchi hamda fe'l yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *chopiq*. Fe'l: *zo'riq, yo'liq*.

11. **-q** qo'shimchasi ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *taroq, so'roq*.

12. **-oq** qo'shimchasi ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *o'roq*.

13. **-lm** qo'shimchasi ot yasovchi hamda otlarning egalik shakli (sintaktik) bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *terim, bilim*. Otlarning egalik shakli: *hayotim, osmonim*.

14. **-kor** ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *paxtakor, shifokor*.

15. **-don** shakli ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *guldon*.

16. **-llk** qo'shimchasi ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *yaxshilik, do'stlik*.

17. **-ch** qo'shimchasi ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *ovunch, ishonch*.

18. **-siz** qo'shimchasi ravish yasovchi shakl, bog'lama (sintaktik) hamda fe'ning shaxs-son shakli (sintaktik) bilan omonimlik hosil qiladi. Ravish:



*so'zsiz, izsiz. Bog'lama: o'quvchisiz, talabasiz. Fe'ning shaxs-son shakli: ke-libsiz, borgansiz.*

19. **-qin** qo'shimchasi ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *bosqin, toshqin.*

20. **-a** qo'shimchasi ot, fe'l, ravish yasovchi hamda fe'ning ravishdosh shakli (lug'aviy) bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *sharshara, qahqaha.* Ravish: *taqqa, shartta.* Fe'l: *qiyna, o'yna.* Fe'ning ravishdosh shakli: *borq boshladi, ko'rq boshladi.*

21. **-g'in** shakli ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *Qirg'in, yong'in.*

22. **-chi** qo'shimchasi ot yasovchi hamda yuklama bilan shakldoshlik hosil qiladi. Ot: *ishchi, terimchi.* Yuklama: *kel-chi, borgin-chi.*

23. **-qoq** qo'shimchasi ot yasovchi shakl bilan omonimlik hosil qiladi. Ot: *botqoq.*

### Sifat darajalari

Belgining ortiq yoki kamlik jihatidan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday ma'no ifodalovchi shakllar esa **daraja shakllari** deyiladi. Sifatning quyi-dagi to'rt xil darajasi mavjud: 1) oddiy daraja; 2) qiyosiy daraja; 3) orttirma daraja; 4) ozaytirma daraja.

1. Belgining odatdagi me'yorda ekanini bildiruvchi va boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sifat shakli **oddiy daraja** deyiladi. Bunday sifatlarda maxsus daraja hosil qiluvchi vosita bo'lmaydi: *shirin, go'zal, oq, qora.*

2. Belgining me'yordan ortiq ekanini bildirgan sifat shakli **orttirma daraja** deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi:

a) oddiy daraja shaklidagi sifat oldidan **eng, g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat, behad** so'zlari keltiriladi: *juda qizil, g'oyat shirin;*

b) oddiy daraja shaklidagi sifatning birinchi bo'g'ini tovush o'zgarishi bilan takrorlanadi: *bus-butun, kap-katta, to'ppa-to'g'ri, qip-qizil, ko'm-ko'k, yam-yashil;*

d) sifatning tarkibidagi birinchi yoki ikkinchi unlini cho'zish orqali hosil qilinadi: *issiq – i:ssiq, achchiq – a:chchiq, uzun – u:zun, chiroyli – chiro:yli.*

3. Belgining me'yordan biroz kam ekanini qiyosan ifodalaydigan sifat shakli **qiyosiy daraja** shakli deyiladi. Qiyosiy daraja **-roq** qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *yaxshiroq, go'zalroq, oddiyroq.*

4. Belgining me'yordan kam ekanini bildiruvchi shakli sifatning **ozaytirma daraja** shakli hisoblanadi. Ozaytirma shakl sifatning oddiy daraja shakli oldiga **sal, biroz, picha, xiyla, nlm** so'zlarini qo'shish orqali hosil qilinadi: *sal/shirin, xiyla kichik, nimpushti, nimqorong'i.* Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan **-(l)mtlr, -(l)sh** qo'shimchalari yordamida ham ozaytirma daraja shakli

yasaladi: *ko'kimtir, oqish, ko'kish*. Bular ichida **-roq** qo'shimchasi **biroz, sal, ba'zan nlm, och** so'zlari bilan sinonim bo'lib keladi. Shuning uchun ko'pincha birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'ladi. Masalan, *qizilroq – sal qizil, biroz qizil, och qizil* kabi.

### Namunalar:

1. Gulzorga to'kilgan *bulturgi* xazon ilma-teshik bo'lib, *jigarrang* tus olgan. 2. Shamning *qizg'ish* shu'lasini kulbaga fayz berib turar edi. 3. Maxsum *kichkinagina, ozg'in, siyrak* soqoli-yu *qop-qora* yuzidan yoshini chamalab bo'lmaydigan bir odam edi. 4. Shunda ulg'aydi bo'yi, Ko'ring bo'ldi yigitcha. *Vazmin, tiyrak, chaqnoq* ko'z, *Sarg'ish* soch-u *oppoq* yuz. 5. U *duduq, xiylagina* *duduq* bo'lishiga qaramay, *sho'x, xushchaqchaq, yaxshigina* askiya ham qilar ekan. 6. *Xira* yorug' ichkariga to'kiladi, gugurtcho'p alanga olib Olim Qodirovning kulcha, *oqish* yuzlarini, *quyuq* kipriklari va *bezovta* chaqnayotgan ko'zlarini bir zum yoritib, asta-asta pasayib o'chadi. 7. Kalishlarni kiyib olaman. – *Sag'al katta-ku!* – deyman sevinganimdan entikib. 8. *Qoramtir* osmon asta-sekin yorisha boshladi. 9. Bo'yi mendan *kattarog'*-u, o'zi *sap-sariq*. 10. Aftidan, ovozim ham hozirgidan *jarangdorroq* edi, shekilli, ko'pgina yig'inlarda she'r o'qish menga topshirilar edi. 11. Bilmadim... Oqshommi *go'zalroq, tongmi?!* Bir-biridan *go'zal*, bir-biridan *fusunkor*. 12. Tilimiz *dag'alroq*, lekin juda boy, rangli, ohori to'kilmagan ertak, doston va qo'shiq ko'p. 13. Uning nazarida, bundan *suyumliroq*, bundan ham *zavqliroq va shavqliroq* ish yo'q edi. 14. Bizning Shahlo o'zi *kichkina* bo'lsa ham, ancha *ziyrak* qiz. 15. Xoltoy *yaxshi* bola chiqdi. Hatto uning qo'ni-qo'shnilari ham bunga tan berishadi. 16. Atrofdagi *go'zal* va *ajoyib* gullar o'sar edi. 17. Baxtiyorning *shalpangqu-loq, jajji* kuchukchasi bor. 18. *Chuqur* va *xayolchan* ko'zlarida *sirli* va *sehrli* bir holat aks etadi. 19. Agar birorta *kichikroq* baliq suv yuziga suzib chiqsa, mushuk bir hamla bilan ushlab olar edi. 20. Dunyoda do'stlikdan *afzalroq, yoqimliroq* narsa yo'q. 21. Go'zallikdan ezgulik *yaxshiroqdir*. 22. Dunyoda johillikdan *dahshatliroq* narsa yo'q. 23. Insonning aqli mushtidan ko'ra *kuchliroqdir*. 24. Nomus jondan ham *qimmatliroq*.

### Sifatlarning ma'no guruhlari

Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi: 1) xususiyat sifatleri; 2) rang-tus sifatleri; 3) maza-ta'm sifatleri; 4) hajm-o'lchov sifatleri; 5) hid sifatleri; 6) makon-zamon belgisini bildiruvchi sifatlar.

Narsalarning (yoki shaxslarning) turli xususiyat-holatlarini bildirgan sifatlar *xususiyat* sifatleri, hajmi, vazni, o'lchovi va shaklini bildirgan sifatlar *hajm-o'lchov* sifatleri, o'rin va vaqtga nisbatan belgilarini bildirgan sifatlar *makon-zamon* sifatleri deyiladi. Narsalarning rang-tusini bildirgan sifatlar *rang-tus* sifatleri, maza-ta'mni bildirgan sifatlar *maza-ta'm* sifatleri, hidini bildirgan sifatlar *hid* sifatleri deyiladi.



— **Xususiyat bildiruvchi sifatlar:** *aqlli, hushli, dono, ulug', eski, yangi, xursand, quvnoq, g'amgin, sho'x, kamtar, notanish.*

**Hajm-o'lchov bildiruvchi sifatlar:** *katta, kichik, ulkan, aylana, qalin, uzun, qisqa, keng, past, baland.*

**Makon-zamon bildiruvchi sifatlar:** *ertalabgi, kechki, qadimgi, yozgi, bul-turji.*

**Hid bildiruvchi sifatlar:** *badbo'y, xushbo'y, sassiq, muattar.*

**Rang-tus bildiruvchi sifatlar:** *qora, oq, sariq, pushti, yashil, ko'k.*

**Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar:** *nordon, achchiq, shirin, taxir.*

### **Namunalar:**

Temur baland qadli, uzun bo'yi, tik qomatli, go'yo u qadimiy pahlavonlar avlodidan bo'lib, keng peshanali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, aiyovib bo'lalig, rangi oq-u qizil yuzlik, lekin doq'siz, bug'doyrang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkaları keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersogol, o'ng oyoq-qo'li cho'loq va shol, ikki ko'zi bamisoli ikki sham bo'lsa-da, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozli edi. U o'limdan qo'rqmas, yoshi saksonga yetgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgi-yu ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biror narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi. Temur tamg'asining naqshi «rosti rusti» bo'lib, bu «haqgo'y bo'lsang najot toparsan» demakdir.

### **Asliy va nisbiy sifatlar**

Belgini to'g'ridan to'g'ri ifodalaydigan va uni darajalab ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan sifatlar **asliy** sifatlar deyiladi: *go'zal, chiroyli, shirin, oq, aqlli, yuzaki.*

Belgini to'g'ridan to'g'ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlangan holda ifodalaydigan va daraja ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan sifatlar **nisbiy** sifatlar deyiladi: *yo'zgi, do'ppili, soyaki, g'ishtin, vassali, ko'chma, derazali, devoriy, soyaki, paxtali, chillaki.*

### **Namunalar:**

1. Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina (asliy), g'ishtin (nisbiy) uycha bor. 2. Temur yuksak (asliy) insoniylik xususiyatlariga ega bo'lgan buyuk (asliy) shaxs edi. 3. Uning jussasi kichkina (asliy) bo'lsa ham, yuzlari jiddiy (asliy), boqishlari o'tkir (asliy), ovozi esa jarangdor (asliy). 4. Yonbag'irlarda rango-rang tovlanib, xushbo'y (asliy) atrini taratayotgan gullarga nazar tashlayman. 5. U oltmishlarga borib qolgan bo'lsa-da, yoshlardek ikki beti qip-qizil (asliy), serg'ayrat (nisbiy) va tavakkalchi (asliy) odam edi.

## Sifatlarning otlashuvi

Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi. Ya'ni sifat va sifatlanmish birligida sifatlanmish ishtirok etmaydi. Bunday vaqtda uning ma'nosi ham sifatga yuklanadi. Natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega bo'ladi va ot bajargan sintaktik vazifalarda keladi.

### Namunalar.

1. Yoshroqlari olovga yaqinroq, keksalari esa olovdan uzoqroq o'tirar edi. 2. Dono, aqllilar hech qachon yo'ldan adashmaydi. 3. Endi senlar o'qib oq-qorani taninglar, – deydi Xoliyor amaki. – Hozir dunyo ilmi odamlarniki. 4. Bilimli biladi bilim hurmatin, Bilimsiz ne bilgay bilim qiymatin. 5. Yomon-u yaxshini xulqidin anglag'il, Yomoni yomon, yaxshini yaxshi bil. 6. Yomon bilan yo'ldosh bo'lsang Yomondan burun o'lasan. Yaxshi bilan sirdosh bo'lsang Yaxshilik bilan unasan. 7. Dono – durdan a'lo. 8. Baxilning qo'lida oy bo'lsa olamni yoritmas. 9. Kattaga katta bo'l, kichikka kichik. 10. Hunarli o'lmas, hunarsiz kun ko'rmas. 11. Achchiqni achchiq kesar.

## Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Sifatlar tuzilishiga ko'ra sodda, qo'shma, juft va takroriy bo'ladi.

1. **Sodda sifatlar** bir asosdan tashkil topadi. Masalan, *yaxshi, kattaroq, baland, aqlli, muattar, kuzgi, qishki, maymunsimon, ilmiy* kabi.

### Namunalar.

1. Barcha eziguliklar zamirida xosiyatli orzular yotadi. 2. Tuproq qatlami qalin, sersuv yerlarda o'sgan archalar yo'g'on va bo'ydor bo'ladi. 3. Atrofdagi hovlilardan ko'tarilgan tutunlar ko'kimtir, mayin mavj bilan tinig, sovuq havoda suzadi. 4. Qo'limda bitta sigir bor. Jonivor juda sersut, qaymog'i suzsangiz bir enlik keladi. 5. Bu bog'larda juda oq qizg'ish, nafis, havorang marmardan qurilgan ko'rkam binolar, ko'shklar, kichik-kichik saroylar ko'zga tashlanadi.

2. **Qo'shma sifatlar** ikki va undan ortiq asosdan tashkil topadi. Qo'shma sifatlar, asosan, qo'shib yoziladi: *sofdil, shirinsuxan, mehmondo'st, erksevar, ochko'z, sheryurak* kabi. Qo'shma sifatlar quyidagi hollarda qo'shib yoziladi.

Tarkibida *ham, rang, xush, bop, sifat, talab, baxsh, kam, yarim, g'ayri, umum, aro* kabi so'zlar ishtirok etgan qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *hamshahar, umumbashariy, xushbo'y, hammabop, kulrang, g'ayritabiiy, umuminsoniy, millatlararo, maymunsifat, kamhosil, yarimavtomat*.

Narsani boshqa bir narsaga qiyoslash orqali hosil qilingan qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *qo'yko'z, sherdil, bodomqovoq*.

Ikkinchi qismida *-r (-ar), -mas* qo'shimchasi qatnashgan qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: *ertapishar, ishyoqmas* kabi.

Qo'shma sifatlarning tarkibiy qismi quyidagi turkumlardan tashkil topishi mumkin:



1. **Ot + ot:** *devqomat, bodomqovoq, sheryurak, darveshsifat, otashnafas, qo'yko'z* kabi.

2. **Sifat + ot:** *sofdil, qattiqqo'l, sho'rpehona, qorasoch, chalasavod, oqko'ngil, shirinso'z, kaltafahm* kabi.

3. **Ravish + ot:** *hozirjavob, kamgap, kamxarj, kamquvvat, kamhosil* kabi.

4. **Olmosh + fe'l:** *o'zbilarmon* kabi.

5. **Son + ot:** *ikkiyuzlamachi, qirqyamoq* kabi.

6. **Ot + fe'l:** *tilyog'lama, tinchliksevar, mehnatsevar, ichakuzdi, ishyoqmas* kabi.

7. **Olmosh + ot:** *o'zboshimcha*.

8. **Ravish + fe'l:** *tezyurar, ertapishar, cho'rtkesar, tezoqar* kabi.

9. **Ot + sifat:** *tepakal, nonko'r, xonavayron, jig'ibiyron* kabi.

10. **Son + fe'l:** *beshotar* kabi.

### **Namunalar:**

1. Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi. 2. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. 3. Milliy mafkuramizda milliylik umumbashariy g'oyalar bilan uyg'unlashib ketgan. 4. Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi. 5. Ona yerning xushbo'y tafti mast qiladi kishini. 6. U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo'lsa, bu xushqad, xushsurat. 6. Samig' aka elliklardan oshgan, tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash, shirinso'z odam. 7. O'zbek xalqi mehmondo'st xalq. 8. Ko'z oldimdan ichakuzdi qiliqlar qilayotgan qiziqchilar, toshlarni osmonga irg'itib o'ynatayotgan polvonlar ketmasdi. 9. Osmono'par koshonalar, yangi libos kiygan cho'l-u sahrolar tasviri qo'shiq parvozigga esh bo'ladi. 10. Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi. 11. Nodon, kaltafahm odamdan yaxshi gap chiqmaydi. 3. Mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning ko'rki, ishyoqmaslar esa ularning og'riq joyidir. 4. Toshbag'ir odamdan yaxshilik kutma. 5. Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir. 6. Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovunga o'xshaydi.

3. **Juft sifatlar** o'zaro yaqin yoki zid ma'noli asosning juft kelishidan hosil bo'lgan sifatlar hisoblanadi. Juft sifat qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Juft sifatlar *-u, -yu* vositasida bog'lansa, ular o'rtasiga chiziqcha qo'yiladi va ajratib yoziladi: *yakka-yu yagona* kabi.

### **Namunalar:**

1. Kasbning katta-kichiqi bo'lmaydi. 2. Shu payt toshdan tushib kelayotgan sarg'ish-qo'ng'ir ayiqning bahaybat gavdasi ko'rinib qoldi. 3. G'ir-g'ir shaboda turli-tuman giyohlarning hidlarini olib keladi. 4. Baland-past devorlar orasidagi mevalarning oq, pushti, qizil gullariga tabassum bilan qaraysan. 5. Menga o'xshagan esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan. 6. Qo'llari ketmon, o'roq, ayri ushlayverganlaridan g'adir-budur, haqiqiy dehqon edilar. 7.

Ba'zan plidka shokoladmi, arzon-garov qo'g'irchoqmi olib keladi. 8. Shag'al to'kilgan o'ydin-chugur yo'ldan yurish it azobini bersa-da, Yigitali chidadi. 9. Alq'ov-dalg'ov shamol esib turar edi. 10. Shoxlar qurib, ularda yakkam-duk-kam yaproqlargina qoladi.

**Takroriy sifatlari** bir asosning aynan takrorlanishidan hosil bo'lgan sifatlardir. Takroriy sifatlari belgini ta'kidlab, kuchaytirib ifodalaydi. Takroriy sifatlari qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *yangi-yangi, katta-katta, yirik-yirik*.

#### **Namunalar:**

1. O'z onamni elas-elas xotirlayman. Ko'zlari qop-qora, chiroyli. Uzun-uzun kipriklari qilt etmaydi. 2. Qishloq obod bo'lsa, katta-katta ko'chalar tushsa, kim qarshilik qiladi? 3. Kimdir yelpib-yelpib barra-barra go'shtlardan kabob pishiryapti. 4. Yangi-yangi ariqlar kavlab, qo'riqlar ochamiz. 5. Yirik-yirik tomchilar yer-u ko'kni savalay ketdi. 6. To'p-to'p daraxtlar tag'in lipillab orqada qolib ketdi. 7. Ko'chani sho'x-sho'x bolalar to'ldirib o'tishdi. 8. Sayyohlar chagqon-chagqon harakatlar bilan qirga ko'tarila boshlashdi.

### **SON SO'Z TURKUMI**

Sanaluvchi narsalarning son-sanog'ini, miqdorini va tartibini bildirib, *qancha? necha? nechanchi?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar **son** deyiladi.

Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq 23 ta sondan foydalaniladi. Ulardan 9 tasi birlik sonlar: *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz*; 9 tasi o'nlik sonlar: *o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson*; 5 tasi yuzlik, minglik va yuqori sonlarni bildiradi: *yuz, ming, million, milliard*. Bu sonlarning barchasi miqdorga egalik ma'nosini ifodalovchilar sifatida «nol»ga zidlanadi. Nol son miqdorga ega emaslikni bildiradi. Qolgan sonlar birlik sonlarning o'nlik songa qo'shiluvidan (o'n bir, yigirma besh, to'qson to'qqiz), shuningdek, yuzlik va o'ndan yuqori son oldidan birlik, o'nlik sonlarning keltirilishidan (bir yuz ellik ming, to'qqiz milliard ikki yuz million, o'n bir ming besh yuz) hosil bo'ladi.

Sonlar gapda quyidagi **sintaktik vazifalarni** bajaradi:

1. **Otga bog'lansa sifatlovchi aniqlovchi:** Bu veqealardan besh oila zarar ko'rdi. To'nimni yig'ishtirib, Qashqamga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi.

2. **Fe'lga bog'lansa hol (daraja-miqdor holl):** Yetti o'lchab, bir kes. Bu sopol ko'za-chi, so'zimga ishon, Sodiq xizmat qildi ming yil odamga. Bolalar davrani ikki aylandi, qo'l berib ko'rishishdi.

3. **Gapning oxirida kelsa ot kesim:** Ikki karra ikki – *to'rt*. O'nning yarmi – *besh*.

Otlashsa:

1. **Ega:** Ikkalasi ham darsga kechikib keldi. Beshalang bog'ni xazonlardan yig'ishtirib chiqasan.



2. **To'ldiruvchi:** Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitashini olib qo'yganman.

3. **Qaratqich aniqlovchi:** Nihoyat, butunlay holdan toyib, ikkovining qimir-lashga ham majoli qolmay, taxtaday qotib turaverishibdi.

### Sonlarning uslubiy xususiyatlari

Sonlar predmetlarning aniq miqdoriy belgilarini bildiradi. Ana shu xususi-yati bilan miqdor bildiruvchi so'zlardan farq qiladi. Solishtiring: Magazindan kitob oldim (Miqdori bittami, undan ortiqmi, noma'lum). Magazindan ko'p kitob oldim (Miqdori bittadan ortiq, lekin nechtaligi noma'lum). Magazindan o'nta kitob oldim (Miqdorning nechtaligi aniq).

Birdan boshqa sonlarning barchasi predmet bildiruvchi so'zlarga qo'shilib uning bittadan ortiqqligini, ko'pligini ifodalaganligi uchun son bilan birga kel-gan otlar ko'plik shaklini olmaydi. Masalan, olma – olmalar. Lekin ikkita olma, o'nta olmani, ikkita olmalar, o'nta olmalar deb bo'lmaydi. Bu o'zbek adabiy tili uchun me'yorning buzilishi sanaladi.

Sonlarga **-ov, -ala** qo'shimchalari qo'shilib jamlik ma'nosi anglashiladi. Bu qo'shimchalar jamlik ma'nosini ifodalalar ekan, demak, ular bir sonidan boshqa sonlarga qo'shiladi. Masalan, ikkovimiz deyish mumkin, lekin birla-miz deyilmaydi. **-ov** bir soniga qo'shilib jamlikni emas, balki gumon-taxmin ma'nosini bildiradi. Birov olmosh so'z turkumiga mansub. Birov (kimdir) kel-di. **-ov, -ala** qo'shimchalari ikki sonidan yigirma sonigacha qo'shiladi, lekin yigirma soni bu qo'shimchalar bilan qo'llanilmaydi. O'n – o'novi deyish mum-kin, biroq yigirma – yigirmovi – yigirmalasi deyilmaydi. Uch, yetti, to'qqiz, qirq kabi sonlar sehrli sonlar sifatida ham talqin qilinadi.

**Eslatma:** Son yasalmaydi. Boshqa turkumlarning yasalishi uchun asos bo'lishi mumkin: *ikkilanmoq, ikkichi, birlashmoq* kabi.

### Sonning ma'no turlari

#### Miqdor son va uning turlari

Sonlar narsalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlarning miqdori yoki tar-tibini bildiradi. Shunga ko'ra, ular ikki guruhga bo'linadi: 1) miqdor sonlar; 2) tartib sonlar. Miqdor sonlar qanday miqdorni bildirishiga ko'ra sanoq, dona, chama, taqsim, jamlovchi, kasr sonlarga bo'linadi.

1. **Sanoq son.** Son-sanoqni bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi.

Sanoq sonlar yozuvda ko'pincha arab raqami bilan yoziladi.

**Namunalar:**

1. Bolalar davrani ikki aylandi, qo'l berib ko'rishishdi. 2. Oqibat ikkovida baravar yiqildi. 3. Uning mo'ljali besh-olti kilometr yurib qaytish edi, biroq

yangi mashina, to'g'ri va ravon asfalt yo'l havasini keltirdi-yu rayon markaziga tushib chiqishga qaror berdi. 4. Ahmadjon chaqiriq qog'ozini yana bir marta o'qib chiqdi, keyin uni buklab ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. 5. To'tiniso hovlini sotib, ikki yetimni o'z qishlog'i Rafqonga olib keldi. 6. To'nimning etaklarini yig'ishtirib, Qashqamga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi.

**2. Dona son.** Narsalarning miqdorini donalab ifodalaydigan sonlar dona son deyiladi. Donalash ma'nosi **-ta** qo'shimchasidan tashqari *dona* so'zi bilan ham ifodalanadi: *beshta olma – besh dona olma* kabi.

Donalab sanalayotgan narsalarning turini ta'kidlash uchun **-ta** qo'shimchasi o'rnida *bosh* (hayvonlar), *nafar* (shaxslar), *tup* (o'simliklar), *litr* (suyuqlik), *gramm* (og'irlik) kabi so'zlar ham ishlatiladi.

#### **Namunalar:**

1. Kecha tog'ang berib ketgan zog'oradan ikkitasini olib qo'yganman, birgalashib choy ichamiz. 2. Nafis chayqaladi bir tup na'matak Yuksakda shamolning belanchagida, Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul Viqor-la o'shshaygan qoya labida. 3. Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi. 4. Bir tup kessang, o'n tup ek. 5. Jo'jalardan ikkitasini kalxat oldi, qolgan ikki kam o'ttiztasini o'sib tovuq bo'ldi. Sakkiztasini olib qolib, yigirmatasini bozorga olib borib sotib, bitta ona-bola echki olib kelib, bularni ham boqa berdi.

**3. Chama son.** Narsalarning miqdorini chamalab ko'rsatadigan sonlar chama son deyiladi. Ular **-tacha, -lab, -larcha** qo'shimchalari bilan yasaladi: *ikki-uch kun, besh-olti kishi* kabi. Chama sonlar ikki sonini juftlashtirish orqali ham hosil qilinadi. Masalan, *Mashrab bilan Akmal esa o'n besh-yigirma bolaga javobgar.*

#### **Namunalar:**

1. Bekatda o'ntacha odam avtobus kutib turishardi. 2. Barvasta, yoshi ellikka borib qolgan bo'lsa ham, qomati sambitdek tik. 3. Mashrab bilan Akmal esa o'n besh-yigirma bolaga javobgar. 4. Ichkaridan yoshi yetmishlardan oshgan nuroniy bir chol chiqib keldi. 5. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi. 6. Yo'q, uning oldida bundan besh-olti yil ilgarigi yarimta tana emas, katta hayot egasi go'zal hayot qo'shig'ini kuylardi.

**4. Jamlovchi son.** Narsalarning miqdorini jamlab ko'rsatadigan sonlar jamlovchi sonlar deyiladi. Ular **-ov, -ala, -ovlon** (eski shakl) kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi. Jamlovchi sonlar otlashish xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun jamlovchi son qo'shimchalari ko'plik va uch shaxsdagi egalik qo'shimchalaridan birini olib keladi. Masalan, *besh – beshovi – beshovlari, uch – uchalasi – uchalalari, ikki – ikkovlon, ikkalasi* kabi. Misol: To'rtovlon tugal bo'lsa ko'kdagini undirar, oltovlon ola bo'lsa og'zidagin oldirar. Ko'rinib turibdiki, **-ov, -ovlon** birlik sonlarga, ikkidan yuqorisiga qo'shiladi. Bir soniga



**-ov** qo'shimchasi qo'shib, «kimdir» degan ma'noda qo'llanadigan birov so'zi son ma'nosini yo'qotib, olmosh turkumiga o'tgan.

**-ala** qo'shimchasini olgan son egalik qo'shimchasini olmasligi ham mumkin. U vaqtda son otlashmagan bo'ladi. Masalan, *ikkala kishi*.

Jamlovchi son qo'shimchalari unli bilan tugagan sanoq sonlarga (ikki, yetti, olti) qo'shilganida son oxiridagi (asos) **l** unlisi tushib qoladi: *ikki – ikkovi; ikki – ikkalasi olti – oltov; yetti – yettala*.

**1. Taqsim son.** Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan sonlar taqsim son deyiladi. Taqsim sonlar sanoq songa **-tadan** qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilinadi: *ikkitadan, beshtadan* kabi. Taqsim sonlar ikkitadan ortiq predmetlarning bo'laklarga teng ajratilishini ko'rsatadi.

#### **Namunalar:**

1. Azim har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan yigit bo'libdi. 2. Laylak har yili uchtadan bola ochar ekan. 3. U bu yilgi bahorda har yuz ona qo'ydan bir yuz yigirma bittadan qorako'l qo'zisi oldi. 4. Eshakning ustiga ikkitadan bo'lib mindik. 5. Ular ikkitadan bo'lib saf tortishdi.

**6. Kasr sonlar.** Butun miqdorning qismini ifodalovchi sonlar **kasr** son deyiladi. Butun miqdorni bildiruvchi qism ko'pincha chiqish kelishigida keldi: o'ndan bir, uchdan ikki.

$\frac{1}{2}$ ,  $\frac{1}{4}$ ,  $\frac{1}{8}$  ifodalari ikkidandan bir, to'rttdan bir, sakkizdan bir tarzida, shuningdek, yarim, chorak, nimchorak tarzida o'qiladi.

#### **Namunalar:**

1. Bolalar eshakka yem berib, o'zlari ham oz-ozdan non yeb olguncha yarim soat vaqt o'tdi. 2. O'zbekiston Respublikasi maydonining qariyb beshdan to'rt qismi tekislik, oz qismi tog', adir va tog'oldidan iborat. 3. Yo'lning kengligi 10.5 metrni tashkil qiladi. Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi.

*Eslatma:* o'zbek tilida tarixda miqdorni ifodalash uchun **lak** (*yuz ming*), **tuman** (*o'n ming*) sonlari ishlatilgan.

### **Tartib sonlar**

Narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan sonlar tartib son deyiladi. U **-(l)nchi** qo'shimchasi yordamida yasaladi: birinchi, ikkinchi. Tartib sonlar arab raqami bilan yozilganida **-(l)nchi** qo'shimchasi o'rnida arab raqamidan so'ng chiziqcha yoziladi: 9-sinf, 30-dekabr. Tartib sonlar rim raqamlari bilan ifodalanganida chiziqcha qo'yilmaydi: X asr, V sinf.

### **Son shakllarining omonimligi**

Sonning ma'no turini hosil qiluvchi qo'shimchalarning ba'zilari omonim xarakterga ega.

1. **-lab** chama sonni hosil qiluvchi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ravish yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Ravish: *ertalab, haftalab, yillab*.

2. **-larcha** chama sonni hosil qiluvchi lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ravish yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Ravish: *mardlarcha, qahramonlarcha*.

### Hisob (o'lchov) so'zlar

*Bir hovuch suv, ikki qop un, bir xalta turshak, uch etak paxta, o'n chelak suv, bir savat non, besh yashik olma.*

Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanilib bu narsaning o'lchovini bildiradigan so'zlar hisob (o'lchov) so'zlari deyiladi. Tilimizda turli xil o'lchovlar va shu o'lchovlarning o'z birliklari bor. Ular quyidagilar:

O'lchov turlari	O'lchov so'zlar	Tarixiy o'lchov so'zlar
<i>Og'irlik o'lchovlari</i>	<i>Milligramm, gramm, kilogramm, litr, tonna, sentner</i>	<i>Misqol, botmon, paysa, dahsar</i>
<i>Uzunlik o'lchovlari</i>	<i>Millimetr, santimetr, detsimetr, kilometr</i>	<i>Chaqirim, qarich, yog'och, gaz, qalam</i>
<i>Donalik o'lchovlari</i>	<i>Dona, bosh, nafar, tup</i>	<i>Dona, bosh, nafar</i>
<i>Maydon o'lchovlari</i>	<i>Sotix, gektar</i>	<i>Tanob</i>

Yuqorida sanalgan o'lchov birliklarining ayrimlari o'lchanadigan, sanalayotgan predmetning qandayligiga xoslangan bo'ladi. Masalan, *nafar* shaxslarning, *bosh* hayvonlarning, *litrl* suyuqliklarning, *tup* o'simliklarning miqdorini ifodalashga xoslangan: *besh tup daraxt, o'n bosh qo'y, to'rt nafar talaba* kabi.

O'lchov so'zlar ichida ayrimlari faqat o'lchov-hisobni bildirsa, ayrimlari alohida olinganida predmet nomini, matn ichidagina o'lchov birligi ma'nosi-ni anglatadi. Masalan, suyuqlik o'lchovi uchun *paqir (chelak), shisha, bochka*; xashak-o'tinlarni o'lchash uchun *tutam, quchoq, bog'*; uzunlikni o'lchash uchun *qarich, qadam, yog'och* singari so'zlar faqat matn ichidagina qo'llaniladi. Masalan, *besh shisha mineral suv, uch bochka pivo, bir paqir yog'*; *yuz bog' beda, bir quchoq o'tin, bir tutam xashak, uch qarich gazmol, besh qadam yo'l* kabi.

Alohida olinganida esa narsa va hodisalarning nomini bildiradi: *shisha, paqir, qadam* kabi.

Butunning, guruhning yoki to'daning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan o'lchov so'zlarga e'tibor bering: *burda, parcha, varrak (sahifa), og'iz, luq-*



*ma, siqim, tilim (karch), chimdim, qultum, tomchi, qatra, chaqmoq, nimta, to'g'ram, poy, bo'lak, shingil.*

To'dalab, guruhlab ko'rsatishda ishlatiladigan hisob so'zlarga e'tibor bering: *to'da, dasta, bog' (bog'lam), quchoq, moda, nafar, hovuch.*

### Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari

Sonlar tuzilishiga ko'ra **sodda** va **qo'shma** sonlarga bo'linadi. Juft sonlarning aksariyati chama son ma'nosida kelsa, asosning takroridan hosil qilingan sonlardan ravish yasaladi: *birma-bir, bir-bir.*

Bir asosdan iborat sonlar **sodda** son hisoblanadi: *bir, besh, o'n, to'rt* kabi. 23 ta sondan 9 tasi sodda son sanaladi, ya'ni birdan o'ngacha bo'lgan sonlar.

**Qo'shma sonlar** ikki va undan ortiq sonlarning qo'shilishidan tashkil topgan. Masalan, *o'n ikki, bir yuz yigirma, ikki ming uch yuz o'n* kabi. Hozirgi o'zbek tilida qo'shma son tarkibiy qismlarining qat'iy joylashish o'rni bor: yuzgacha bo'lgan sonlarda oldin katta son, undan so'ng kichik son keladi. Masalan, *o'n bir, o'ttiz besh* kabi. Yuzlikdan keyingi sonlarda birlik va o'nlik sonlar ulardan oldin kelishi ham, keyin kelishi ham mumkin. Birlik va o'nlik sonlar yuzlik, minglik sonlarning qayerida kelishiga ko'ra ma'no juda kuchli farqlanadi.

Birlik va o'nlik sonlar yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning oldida kelgan son qancha bo'lsa, yuzlik va undan ortiq sonlar shuncha barobar ortiq son ekani anglashiladi. Masalan, *ikki yuz* degani ikkita yuz deganidir. Aksincha, birlik va o'nlik sonlar yuzlik va undan ortiq sonlardan keyin kelsa, yuzlik va undan ortiq sonlarning birlik, o'nlik sonlar bilan ortganini bildiradi. Masalan, *ikki yuz uch* degani ikkita yuzga uchning qo'shiluvi deganidir.

Sonlarning ishlatilishi va «Al-jome as-sahih» to'plami borasidagi ma'lumotlarga e'tibor qarating:

### «Al-jome as-sahih» to'plami haqida

«Al-jome as-sahih» to'plamini tilga olganimizdayoq Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy xayolimizga keladi. Asar islom olamida Qur'on-dan keyingi va «Kutub as-sitta»dan (olti hadis to'plami) avvalgi manbadir. Mazkur asar haqida muallifning o'zi shunday deydi: «Hadislarni to'plamga kiritishimdan avval g'usl qilib, so'ng ikki rakat istixora namozini o'qir edim. Men bu to'plamdagi hadislarni jami **olti yuz ming** aralash va **ikki yuz mingga** sahih hadislar orasidan ajratib oldim. To'plamni yozish uchun o'n olti yil umrimni sarfladim. Toki bu Alloh bilan mening o'rtamda hujjat bo'lsin uchun» (Imom az-Zahobiy. Siyor a'lom an-nubalo. 12-jild. 391-bet).

To'plam **97 kitob** (fasl) va **3405 bob**dan iborat. To'plamdagi hadislarning soni esa quyidagicha:

Mutaba'at (ketma-ket davom etuvchi) hadislar soni **344 ta**.

Ta'aliq (hoshiyasida izoh bilan kelgan) hadislar soni **1341 ta**.

Takror kelmaydigan mavsula (Muhammad payg'ambarga bog'langan) hadislar soni **2602 ta**.

Takror keladigan hadislar soni **7397 ta**.

«Al-jome as-sahih»ning barcha hadislari **183 ta** sahoba tomonidan rivoyat qilingan, ularning **31 tasi** ayollardir.

To'plamdagi eng ko'p rivoyat qilgan sahobalar alohida beshlikni tashkil qiladi. Uning turlicha nusxalari nashr qilingan. «**Buloq**» nomli **8 jilddan** iborat nusxasi nashr etilgan. Bu sulton Abdul Hamid tasarrufi bilan **besh ming nusxada** chop etilgan.

## OLMOSH SO'Z TURKUMI

**Olmosh** boshqa so'zlar, shuningdek, so'z birikmasi va gap o'rnida almashtirib qo'llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so'roq bildiruvchi so'zlardir. Masalan, *Kitobni ko'p o'qisangiz, undan ko'p hikmat topasiz. Istagim shuki, doimo tinchlik bo'lsin*. Birinchi gapda **undan** olmoshi **kitob** so'zi (ot) o'rnida, ikkinchi gapda **shuki** olmoshi **doimo tinchlik bo'lsin** gapi o'rnida qo'llangan. Olmosh barcha mustaqil so'z turkumlari, hatto yordamchi so'z turkumlari hamda gap o'rnida qo'llanishi mumkin.

Olmoshlar ot, sifat, son, ba'zan fe'l va yordamchi so'zlar o'rnida, gap o'rnida almashinib keladi:

1. **Gul** ochildi. Uning ochilishi kishilarga rohat bag'ishladi. Bu yerda **u** olmoshi **gul** o'rnida qo'llangan. (ot)

2. Gullarning ko'pi **pushti** rangda. **Ana shu** rang menga juda yoqadi. Bu yerda **ana shu** olmoshi **pushti** o'rnida qo'llangan. (sifat)

3. Karim gullarni **uza boshladi**. **Bu** esa bog'bonning jahlini chiqardi. **Bu** olmoshi **uza boshladi** o'rnida qo'llangan. (fe'l)

4. **Va** bog'lovchisi o'zaro teng ma'noli gaplarni bog'laydi. **Bu** teng bog'lovchilar sirasiga kiradi. **Bu** olmoshi **va** o'rnida qo'llangan. (yordamchi so'z)

Olmoshlar garchi mustaqil so'z turkumi bo'lsa ham, atash ma'nosiga ega emas. Olmoshlar shuning uchun «**ichi bo'sh so'zlar**» deb yuritiladi.

**Eslatma:** Olmoshlar yasalmaydi. Boshqa turkumlarning yasalishi uchun asos bo'lishi mumkin: *o'zboshimcha, o'zbilarmon, manman (sifat); o'zidan ketmoq, o'ziga kelmoq (ibora); sizlamoq, sensiramoq (fe'l)*.

## Olmoshning sintaktik vazifalari

Olmosh so'z turkumiga oid so'z gapda barcha bo'laklar vazifasida kela oladi:

1. **Ega:** Men ertaga o'qishga boraman. Kimdir bu voqealarning guvohi bo'lgandir. Barcha baravar o'rnidan turdi. Hech narsa o'z-o'zidan bo'lmaydi.



2. **Kesim:** Bu ona Vatan – barchamizniki. Bu ishlarning bariga sababchi o'zim.

3. **To'ldiruvchi:** Barchamizni yorug' kelajak kutadi. O'zingdan o'zgaqa ishonma.

4. **Aniqlovchi:** Bu xona – akamning xonasi. Uning bari gaplari yolg'on bo'lib chiqdi.

5. **Hol:** U shunday hayajonlandiki, uni bu ahvolda birinchi ko'rishim edi. Qayerdandir qushlarning ovozi eshitildi.

### Ko'rsatish olmoshlari

Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanilib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari deyiladi. So'z ma'nosini aniqlab keluvchi olmoshlar o'zi aniqlayotgan so'zdan oldin qo'llanadi. Masalan: **Bu** daftar meniki.

Bu, shu, u, o'sha, ana, mana so'zlari ko'rsatish olmoshlaridir. Yozuvda mana bu, mana shu, ana bu, ana shu olmoshlari ajratib yoziladi. Ba'zan bu olmoshlar og'zaki nutqda manavi, anavi tarzida talaffuz qilinishi va shunday yozilishi mumkin. Egallik, kelishik hamda **-day, -dek, -qa, -cha** qo'shimchalari qo'shilganida asos bilan qo'shimcha orasida bir **n** tovushi orttiriladi va shunday yoziladi. Masalan, *shunday, o'shancha, shunaqa, o'shanaqa, buncha*.

#### Namunalar:

1. Bu cholni butun yurt izzat qilardi. 2. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning bo'ynida. 3. U Saidiy bilan do'st edi, bu do'stlik otalarini ham munosabatdor qilgan edi. 4. Bu tushmi yo xayol, bu na turli kuy, qayerdan bu qadar qushlar sayrashi? 5. Tog'asining shu odati sababli o'g'li Haydar ham, qizi Tohira ham bu xonadondan bezib ketishdi. 6. G'azab shunday bir daraxtki, mevasi pushaymonlikdan iborat.

#### Ko'rsatish olmoshi gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajara oladi:

1. **Ega:** *Mana bu* – sening xatoying.

2. **Kesim:** Hammasiga aybdor – *bu*.

3. **To'ldiruvchi:** *Shuni* ham tushuntirib bera olmadingmi?

4. **Hol:** U *shunday* hayajonlandiki, hatto atrofidagilarning so'zlarni eshitmay qo'ydi.

5. **Aniqlovchi:** *Bunaqa* bema'ni xayollarga berilmang.

### Kishilik olmoshlari

Uch shaxsdan biriga ishora qiluvchi olmoshlar **kishilik olmoshlari** sanaladi.

**So'zlovchi** – I shaxs (men); **tinglovchi** – II shaxs (sen, siz); **nutqdan tashqari barcha shaxs, narsa, voqea, hodisalar** – III shaxs (o'zga)

**Birlik****Ko'plik**

<i>I shaxs</i>	<i>Men</i>	<i>I shaxs</i>	<i>Biz</i>
<i>II shaxs</i>	<i>Sen</i>	<i>II shaxs</i>	<i>Siz</i>
<i>III shaxs</i>	<i>U</i>	<i>III shaxs</i>	<i>Ular</i>

Ba'zan **biz, siz, ular** birlik ma'nosida ham qo'llaniladi, bunday hollarda ular uslubiy vazifa bajargan hisoblanadi. *Siz, ular* hurmatni ham ifodalaydi, *biz* birlik o'rnida ishlatilganida kamtarlik, bajargan ishida o'zini ta'kidlamaslik ma'nosini bildiradi. Masalan: *Mening uyim o'rniga Bizning uyimiz, Men g'olib chiqdim o'rniga Biz g'olib chiqdik.*

Shuningdek, **siz, ular** yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosini bildiradi. Masalan: *Sen kelding o'rniga Siz keldingiz, U keldi o'rniga Ular keldilar. Siz* hurmat ma'nosini bildirganida ko'pincha ko'plik ma'nosini ifodalash uchun unga **-lar** qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan, *Sizlarga doimo baxt yor bo'lsin.*

Kishilik olmoshlari *men* va *sen* so'zlariga tushum, qaratqich va otning qarashlilik qo'shimchasi qo'shilganida tovush tushishi sodir bo'ladi. *Men + ni = meni, sen + ning = sening, men + niki = meniki.*

**U** kishilik olmoshiga jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kelishigi shakllari hamda egalik shakllari qo'shilsa, **n** tovushi ortadi: *unga, undan, unda, unim* kabi.

«**u**» kishilik olmoshi bilan «**u**» ko'rsatish olmoshi bir xil shaklga ega. **U** ko'rsatish omoshi vazifasida kelganida *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi va o'zi aniqlayotgan bo'lakdan oldin turadi. **U** kishilik olmoshi vazifasida kelganida *kim?* so'rog'iga javob bo'ladi. **U** olmoshining qaysi vazifada kelayotgani u bog'lanayotgan birliklarga ham bog'liq. *U (kishilik) kecha bo'lgan voqealarni aytib berdi. U (ko'rsatish) odam bu g'alvalarni ataylab boshlagan.*

**Kishilik olmoshi quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:**

1. **Ega:** *U* kecha ko'rgan voqealarning barini oqizmay-tomizmay gapirib berdi.

2. **Kesim:** Bularning barchasiga sababchi – *sen*.

3. **Aniqlovchi:** *Mening* ikki onam bor, ikkisi ham mehribon.

4. **To'ldiruvchi:** *Bizni* hayron qoldirgan narsa *sizlarni* ham hayron qoldirishi tabiiy.

### Olmosh o'rnida qo'llanuvchi so'zlar

Olmosh o'rnida qo'llanuvchi so'zlar kishilik olmoshlari o'rnida keldi. Eski o'zbek tilida kamtarlik ifodasi sifatida *men* o'rnida ko'pincha *faqir, kamina, kaminayi kamtarin, qulingiz, bandayi ojizingiz* singari so'z va birikmalar qo'llanilgan. Hozirgi o'zbek tilida ham xuddi shu ma'noda ba'zan *men* olmoshi o'rnida *kamina* so'zi ishlatiladi. *Men* olmoshi o'rnida yuqorida sanalgan so'zlar ega vazifasida qo'llanganida kesim ba'zan III shaxs shaklida, ba'zan esa I shaxs shaklida (asosan, eski o'zbek tilida) bo'lishi mumkin.



1. Faqir hozir taxmin qildimkim, Movarounnahrda ko'chki bosgan buloq, balki, shu yerga kelib qayta ko'z ochgandir? 2. Faqir sizning xizmatingizga bel bog'lagan. 3. Kechirasiz, rais, kamina bugun emas, o'g'lingizni shogirdlikka olgandayoq buni anglagan. 4. Sizni hamisha duo qilib qoluvchi bandavi oijizingiz. 5. Xullas kalom, u mahalda kamina endigina institutni bitirib, yoshlar gazetasiga ishga kelgandim. 6. Sizga ne bo'ldi, ikki haftadan buyon faqiringizni zoriqtirib qo'ydingiz. 7. Kamina ham suhbatlaringizni sog'inganmen.

## O'zlik olmoshi

**O'zlik olmoshi** kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi **o'z** so'zidir.

**O'zim, o'zing, o'zi** so'zlari ba'zan egalik qo'shimchalariga mos kishilik olmoshlari bilan *mening o'zim, sening o'zing, sen o'zing, uning o'zi, u o'zi* tarzida qo'llaniladi va bu vaqtda ko'pincha kishilik olmoshlariga ta'kid ma'nosini yuklaydi.

*Bu ishni o'zim qildim – Bu ishni mening o'zim qildim.*

Yuqorida olmosh yasalish xususiyatiga ega emasligi aytiladi. O'zlik olmoshi sanalgan *o'z-o'zidan, o'z-o'zicha* so'zlari konfensiya usuli bilan **ravish** hamda **modal so'z** vazifasini bajarishi mumkin. Taqqoslang: **Modal so'z:** *O'z-o'zidan*, muammoli nuqtalar hal bo'laveradi. **Ravish:** Ular *o'z-o'zidan* rozilik bildirishdi. **Olmosh:** U *o'z-o'zidan* bu kabi jasoratni kutmagan edi.

### Namunalar:

1. Ikromjon xotinini qoldirib, o'zi idora tarafga ketdi. 2. O'zi bukur, tishi o'tkir, dehqonga o'rtoq. 3. O'zi po'latdan, Dumi yog'ochdan. 4. Maksimichning qo'lidagi pidjagi g'ijimlangan, o'zi terlab, bo'g'riqib ketgan edi. 5. Rostini aytсам, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. 5. O'zi dumaloq, Qor kabi oq.

O'zlik olmoshi nutqda doim turlangan holda yuradi. O'zlik olmoshi tarkibida egalik qo'shimchasi mavjud bo'ladi. Shuning uchun o'zlik olmoshini kishilik olmoshi bilan almashtirish mumkin.

### Namunalar:

1. O'zining (uning) ovozi o'ziga (unga) uzoqdan eshitilganday tuyuldi. 2. O'zim (men) ham hayronman. 3. Qimirlamang biroz o'zingizga (almashtirib bo'lmaydi) keling, – dedi yigit mehribonlik bilan, – uyingizga o'zim (men) kuzatib qo'yaman. 4. Qurvonbibi fotiha to'yidan keyin biroz o'ziga (almashtirib bo'lmaydi) kelgan edi. 5. Bu ishlarni qilgan o'zi (u).

### **O'zlik olmoshi quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:**

1. **Ega:** *O'zim* har joydaman, ko'nglim sandadur.
2. **Kesim:** Hayotning past-balandini ko'rgan odam – *o'zingizsiz*.
3. **To'ldiruvchi:** Sodir bo'lgan voqealarda *o'zimni* ayblamayman.
4. **Aniqlovchi:** *O'z* ukamni nazorat qilolmasam-a?

## So'roq olmoshlari

Shaxs, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, sabab, o'rin, payt haqida so'roqni bildiruvchi olmoshlar **so'roq olmoshlari** deyiladi. So'roq olmoshlari ishtirok etgan gaplar so'roq gap hisoblanadi. Bunday gaplar so'roq ohangi bilan talaffuz qilinadi va yozuvda gap oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. Masalan, *Kim shaxmat to'garagiga qatnashadi?*

<i>Shaxs so'rog'i</i>	<i>kim?</i>
<i>Narsa-hodisa so'rog'i</i>	<i>nima?</i>
<i>Belgi-xususiyat so'rog'i</i>	<i>qanday? qanaqa? qaysi?</i>
<i>Miqdor so'rog'i</i>	<i>qancha? nechta? necha? necha marta? qay darajada? nechanchi?</i>
<i>Sabab so'rog'i</i>	<i>nega? nima sababdan? nima uchun?</i>
<i>Maqsad so'rog'i</i>	<i>nima maqsadda? nega?</i>
<i>O'rin-joy so'rog'i</i>	<i>qayer? qayerni? qayerga? qayerdan? qayerda?</i>
<i>Payt so'rog'i</i>	<i>qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt?</i>

So'roq olmoshi gapda qaysi bo'lakning so'rog'i bo'lib kelsa, o'sha gap bo'lagi vazifasida keladi. **So'roq olmoshi quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:**

1. **Ega:** Bog'dagi gullarni kim uzdi?
2. **Kesim:** Bu ishlarni qilishdan maqsad nima? Ayting, buning uchun nima qilmoq kerak?
3. **To'ldiruvchi:** Nimani xor qilsang, shunga zor bo'lasan. Qo'lingdagi kitobni kimga bermoqchisan?
4. **Aniqlovchi:** Qanday hayot kechirish insonning o'z qo'lida. Kimning kitobini olding?
5. **Hol:** Bu qishloq qayerda joylashgan? Qachon bergan savollarimga javob olaman? Bugun nechanchi sana?

## Belgilash olmoshlari

Shaxs, narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'rnida almashinib, ularning ma'nosini umumlashtirib, jamlab keladi. Mustaqil so'zlar o'rnida qo'llanib uning ma'nosini jamlab, umumlashtirib keluvchi olmoshlar belgilash olmoshlari deyiladi. Demak, belgilash olmoshlari to'pdan ajratilgan yoki jamlab ko'rsatilgan shaxs, narsa-hodisa, belgi, harakat-holatlarini ifodalaydigan olmoshlardir.



### **Hosil qilinishi:**

*Har* so'zi so'roq olmoshlariga, *bir* so'ziga qo'shilib to'pdan ajratilgan shaxs, narsa-hodisa, belgi, harakat-holatlarni ifodalaydi va ajratish olmoshlari ham deyiladi. *Hamma, barcha, bari, butun* olmoshlari shaxs, narsa-hodisa, belgi, harakat-holatlarni jamlab ifodalaydi.

### **Belgilash olmoshi quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:**

1. **Ega:** *Har kim* ekanini o'rar. *Hamma* perronda, *hamma* o'z jigarini qidiradi. *Hamma* nopok, *hamma* egri, yolg'iz siz to'g'ri.

2. **Kesim:** Bu ishlarning sababchisi – *hamma*.

3. **Aniqlovchi:** *Har kimning* qilgan ishi o'ziga tomon yo'naladi. *Barcha* shodlik senga bo'lsin, *barcha* sitamlar menga. *Dildorning bari* gaplari haqiqat edi.

4. **Hol:** *Har qachon* desangiz tayyordirmiz biz.

5. **To'ldiruvchi:** *Har birimizni* farzand ne'matidan bebahra qilmasin.

### **Namunalar:**

1. Agar guzardan hassasini do'qillatib o'tib qolsa, hamma barobar qalqib, to o'tib ketguncha ta'zimda turardi. 2. Har bir bekning navkarlari o'zlariga qarashli yuklarni tuya qo'shilgan og'ir aravalarga ortib kelmoqda edilar. 3. Biznikiga mehmon keldi, Hammasining qoshi qora (loviya). 4. Aybdor o'zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi. 5. Har kimki so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'och, uyolg'on.

## **Gumon olmoshlari**

Shaxs-narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'rnida uning ma'nosini taxminlab, gumonlab keluvchi olmoshlar gumon olmoshlaridir.

### **Hosil qilinishi:**

So'roq olmoshlariga va *narsa* so'ziga *alla-* yoki *-dir* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. *Alla-* qo'shimchasi so'roq olmoshlari oldidan, *-dir* qo'shimchasi esa so'roq olmoshlari ortidan qo'shiladi. Har ikki qo'shimcha asos qism bilan qo'shib yoziladi. *Narsa* so'zi faqat *alla-* qo'shimchasi yordamida gumon olmoshiga aylanadi. *Bir* so'zi *kishi, narsa, nima* kabi so'zlarga qo'shilib bu so'zlarga gumon ma'nosini yuklaydi. Ularni *kimdir, nimadir, qachondir* singari gumon olmoshlari bilan almashtirish mumkin.

Bunday vaqtda *bir* so'zi gumon olmoshi o'rnida qo'llangan bo'ladi. Shu bilan birga, *birov* so'zi ham *kimdir* so'zi bilan erkin almashina olgani uchun gumon olmoshi hisoblanadi.

### **Gumon olmoshlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:**

1. **Ega:** *Kimdir* qarshi so'z aytgan edi, muallim jerkib tashladi. Ayol qalbi tosh bo'lsa ham, allaqayeri paxtadan yumshoq, ipakdan mayin bo'ladi.

2. **Kesim:** Ular sen uchun – *birov*.

3. **To'ldiruvchi:** Qo'msayman birovni – *allakimimni*.

4. **Aniqlovchi:** Hovlida allakimning qorasi ko'rindi. Birovning aybini senga aytgan sening ham aybingni birovga aytadi.

5. **Hol:** Allaqayerdan oyim paydo bo'ldi. Xayolchan g'udranib, negadir o'z-o'zini koyidi.

#### **Namunalar:**

1. Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o'tarmanmi, *allanima* baloga turtinib ketdim. 2. Shorahim ko'z yoshidan hech narsani ko'rmay, *allanimalar* deb g'udrandi. 3. Allaqayerdan oyim paydo bo'ldi. 4. Aniq yili esimda yo'q, Allaqaysi zamonda Bir qishloqda ota-o'g'il Yashar ekan omonda. 5. O'zbek oyim *nimadir* demoqchi edi, Oybodoq dasturxon ko'tarib kirib qoldi.

### **Bo'lishsizlik olmoshlari**

Shaxs-narsa, belgi-xususiyat bildiruvchi mustaqil so'zlar o'rnida kelib uning inkorini bildiradi.

#### **Hosil qillinishi:**

So'roq olmoshlari va *bir, narsa, nima* so'zlari oldidan *hech* so'zining qo'llanishi natijasida hosil bo'ladi. *Hech kim, hech nima, hech qachon, hech qanday, hech qancha, hech narsa* so'zlari bo'lishsizlik olmoshlaridir va ular yozuvda ajratib yoziladi. Bu olmoshlar ishtirok etgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo'ladi.

#### **Bo'lishsizlik olmoshlari quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:**

1. **Ega:** Moziylar sasiga quloq tutgum jim, ustun bo'lgan emas dunyoga hech kim. Yo'q, xo'jayin, qornim to'q, *hech nima* yegim kelmay turibdi.

2. **Kesim:** Qayg'u – *hech narsa*, muhabbat – mangu.

3. **To'ldiruvchi:** Haqing berma *hech kimga*, urho-urho. Hammasi joyida, do'stlar, men *hech kimdan, hech narsadan* xafa emasman.

4. **Aniqlovchi:** *Hech bandaning* boshiga farzand dog'ini solmasin ekan.

5. **Hol:** Hunarli odam *hech qachon* kam bo'lmaydi. Dangasa hech qayerda unmaydi.

### **Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari**

Olmoshlar tuzilishiga ko'ra **sodda, qo'shma, juft va takroriy** bo'ladi.

1. **Sodda olmoshlar** – faqat bir asosdan iborat bo'lgan olmoshlar.

2. **Qo'shma olmoshlar** – ikki asosdan tashkil topgan olmoshlar.

3. **Juft olmoshlar** – bir-biriga mazmunan yaqin olmoshlar. Juft olmosh tarkibi chiziqcha bilan yoziladi.

4. **Takroriy olmoshlar** – bir olmoshning aynan yoki yarim tovush o'zgarishi bilan (masalan, uncha-muncha) takrorlanishidan hosil bo'lgan olmoshlar. Takroriy olmosh tarkibi chiziqcha bilan yoziladi.

1. Ko'rsatish olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra 4 turi ham mavjud: Sodda: shu, o'sha, bu, mana, ana... Qo'shma: mana bu, mana shu, ana o'sha... Juft: u-bu, uni-buni... Takror: uncha-muncha, shu-shu.



2. Kishilik olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra 2 turi mavjud. Sodda: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Juft: *siz-u biz, men-u siz*.

3. O'zlik olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra 2 turi mavjud. Sodda: *o'z*. Takror: *o'z-o'zimga, o'ziga-o'zi*.

4. Belgilash olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra 3 turi mavjud. Sodda: *hamma, bari, barcha, jami, butun...* Qo'shma: *har bir, har qaysi, har qachon...* Takror: *hamma-hamma, bari-bari*.

5. So'roq olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra 3 turi mavjud. Sodda: *kim? nima? qayer?* Qo'shma: *nima qilmoq, nima bo'lmoq*. Takror: *kim-kim? nima-nima?*

6. Gumon olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra 2 turi mavjud. Sodda: *kimdir, qachon, allakim...* Qo'shma: *bir kishi, bir narsa, bir nima*.

7. Bo'lishsizlik olmoshi – olmoshning tuzilishiga ko'ra faqat bir turi mavjud. Qo'shma: *hech kim, hech qachon, hech qayer*.

### Namunalar:

1. Shu-shu Nabijon ham dilni erkalovchi, ham allaqanday iztirobga soluvchi g'alati hislar girdobiga tushib qoldi. 2. Halimaxonni ko'rdim, sira o'zgartmabdi: hamon o'sha-o'sha. 3. Yormat Yo'lchi bilan yonma-yon yurib eski tanish kabi undan-bundan so'zlashib bordi. 4. Mashina yuborsam, u-bularni berib yuborasiz. 5. Mashina yuborsam, u-bularni berib yuborasiz. 6. Biz ona yurt, aziz Vatan debon sog'inch va orziqishlarda yashaymiz, mo'tabar tuprog'imizning har bir qarich yerini, har bir giyohini ko'zimizga surtamiz. 7. Siz Sherali Jo'rayev bugun Toshkentda ijro etgan yangi qo'shiqning ikki kundan keyin Termiz shahridagi ovoz yozish nuqtalarida yangrayotganiga ajablanmaysiz, chunki bilasiz: yaxshi qo'shiq ham xushxabardek tez tarqaladi. (S.Sayyid) 3. Gaplaringizdan juda shodman, lekin mana bu cho'pon, hamma gapdan, hatto mendan, mening hayotimdan ham xabardor bo'lgan Qo'ychi-bor aka kim bo'ldi? 4. Bu bir hikoyat va yo rivoyatdir, balkim, tiriklik quyidaqi aytilgan qo'shiqdir. 5. U ba'zan tojikcha lahjada gapirardi, ba'zan o'zbekcha qochirimlar qilardi. (Sh.Jo'rayev)

## FE'L SO'Z TURKUMI

**Harakat-holat ma'nosini ifodalab**, nima qilmoq? nima bo'lmoq? so'roqlariga javob bo'luvchi so'z turkumi fe'l deyiladi. Fe'ldan anglashilgan harakat va holat ma'lum shaxs yoki narsa tomonidan bajariladi. Ana shu shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi sanaladi.

### Fe'l va uning uslubiy xususiyatlari

Fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra **harakat** fe'llari va **holat** fe'llariga bo'linadi.

**Harakat fe'llari** shaxs va narsalarning jismoniy harakati natijasida ro'y bergan harakatni ifodalaydi. Masalan, *o'tirmoq, turmoq, yugurmoq, chopmoq, otmoq, yemoq* kabi.

**Holat fe'llari** shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan ikkinchi holatga o'tish jarayonini ifodalovchi fe'llar sanaladi. Masalan, *qizarmoq, oqarmoq, fikrlamoq, tus olmoq, o'ylamoq, qotmoq* kabi.

Fe'l qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra bir necha turga bo'linadi:

1. **Yumush fe'llari:** ishladi, mehnat qildi, ter to'kdi va boshqalar.
2. **Tafakkur fe'llari:** o'ylaydi, o'qidi, kashf qildi...
3. **Sezgi fe'llari:** sezdi, his qildi kabi.
4. **Ruhly holat fe'llari:** kuldi, xursand bo'ldi, qayg'urdi, iztirob chekdi.
5. **Nutq fe'llari:** gapirdi, so'zladi, bayon qildi, ifoda qildi, ming'irladi, do'ng'illadi kabi.
6. **Ishora fe'llari:** imo qildi, labini burdi, ko'zini qisdi va boshqalar.
7. **Jismoniy holat fe'llari:** og'ridi, isitmasi chiqdi, xastalandi, sog'aydi, kuchaydi, charchadi kabi.
8. **Tabiiy holat fe'llari:** eridi, muzladi, yotdi, uxladi va boshqalar.
9. **Ko'rish fe'llari:** qaradi, ko'rdi, boqdi, termildi.

Yuqoridagi fe'l turlarining har qaysisi bir necha fe'llarni o'z ichiga oladi. Bu fe'llar harakat-holat ma'nosini qanday ifodalashi bilan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi farqlanishlarni kuzatish mumkin:

1. Harakat-holatning kuchli-kuchsizligiga ko'ra farqlanishi: jilmaymoq – kulimsiramoq – kulmoq.
2. Ijobiy va salbiy bahoga ega bo'lishiga ko'ra: kulmoq – tirjaymoq; so'zlamoq – to'ng'illamoq, ming'irlamoq.
3. Uslubiy xoslanishiga ko'ra: kulmoq (umumiste'moldagi so'z) – tabassum qilmoq (badiiy uslubga xos), so'zlamoq (umumiste'moldagi so'z) – nutq irod etmoq (badiiy uslubga xos) kabi.

Yuqoridagi fe'llarning har qaysisini o'z o'rnida ishlatish nutqning ravonligi, aniqligi va ifodaliligini ta'minlaydi.

#### **Namuna:**

Gul bargini nasim tildi – to'kildi.

Saboga hikoyat qildi – to'kildi.

Falak ishiga boq: bir haftada gul

Chiqdi, g'unchaladi, kuldi – to'kildi. (Umar Xayyom)

Ushbu ruboiy tarkibida 9 ta fe'l: shundan 8 tasida fe'lning munosabat shakllari bilan birga qo'llangan (**boq** fe'li fe'lning munosabat shaklisiz). Ruboiy tarkibida fe'lning tuzilishiga ko'ra 2 turi (sodda, qo'shma: hikoyat qildi, tildi) qatnashgan.

### **O'timli va o'timsiz fe'llar**

Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lana oladigan fe'llar **o'timli fe'l sanaladi**. Tushum kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanolmaydigan fe'llar **o'timsiz fe'l** deyiladi. *Taqqoslang*: kiymoq (nimani?), ko'rmoq (kimni?), orzu



qilmoq (nimani?) – o'timli fe'llar. Chunki bu fe'llar tushum kelishigili shaklga bog'lana oladi. Bunday fe'llarni aniqlash uchun fe'lga bog'lanmoqchi bo'lgan so'zning o'rniga kimni? nimani? qayerni? so'rog'ini keltirib ko'rish kerak. *Qaramoq, jiringlamoq, uxlamoq, jilmaymoq* kabi fe'llar tushum kelishigili so'zga bog'lana olmaganligi bois ular o'timsiz fe'llar sanaladi.

O'timli va o'timsiz fe'llarni *ma'lum vositalar orqali* ham hosil qilish mumkin. O'timsiz fe'llarga *orttirma* nisbat qo'shimchasi qo'shilsa, o'timsiz fe'l o'timli fe'lga aylanadi. Taqqoslang: *jiringladi – jiringlatdi, yig'lamoq – yig'latmoq, quvonmoq – quvontirmoq* kabi.

O'timli fe'llarga *o'zlik* yoki *majhul* nisbati qo'shimchasi qo'shilsa, o'timli fe'l o'timsiz fe'lga aylanadi. Taqqoslang: *taramoq – taralmoq, atamoq – atalmoq, kiymoq – kiyilmoq* kabi.

<i>O'timli fe'llar</i>	<i>O'timsiz fe'llar</i>
<i>almashmoq</i>	<i>jiringlamoq</i>
<i>kiymoq</i>	<i>o'xshamoq</i>
<i>so'roqlamoq</i>	<i>jilmaymoq</i>
<i>so'ramoq</i>	<i>yuzlanmoq</i>
<i>so'rattirmoq</i>	<i>kiyinmoq</i>
<i>quvontirmoq</i>	<i>quvonmoq</i>
<i>joylashtirmoq</i>	<i>joylashmoq</i>
<i>joylashmoq (birgalik nisbat shakli)</i>	<i>(fe'lning vazifaviy shakli)</i>

### Fe'l nisbatlari

Bajaruvchining harakat-holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakli fe'l nisbatlaridir. Fe'ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllari nisbat shakllari, shunday shakllar tizimi esa nisbat kategoriyasi deyiladi.

O'qidi, o'qitdi, o'qishdi, o'qildi fe'llarining o'xshash va farqli tomonlariga e'tibor bering. Ularning hammasi bir xil o'zakdan iborat. Shu bilan birga, ularning hammasi bir xil zamon shakliga (-di) ega. Shunga qaramay, ular bir-biridan ma'lum ma'nolariga ko'ra farqlanadi. Ikkinchi fe'lda fe'l o'zagiga -t qo'shimchasi qo'shilib bir shaxs boshqa shaxsga o'qish harakatini bajartirganini bildiradi. Uchinchi fe'lda esa fe'l o'zagiga -sh qo'shimchasi qo'shilib fe'l o'zagida ifodalangan o'qish harakatining birgalikda bajarilganini, to'rtinchi fe'lda esa fe'l o'zagiga -l qo'shimchasi qo'shilib o'zakdan anglashilgan o'qish harakatining kim tomonidan bajarilgani noma'lumligini ifodalaydi. Ko'rinadiki, yuqoridagi fe'llarning hammasi harakat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shaxs o'rtasidagi munosabatni qanday ifodalashiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Nisbat qo'shimchalari vazifasiga ko'ra lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar sanaladi.

Fe'l 5 ta nisbat shakliga ega: 1. Aniq nisbat. 2. O'zlik nisbat. 3. Majhul nisbat. 4. Orttirma nisbat. 5. Birgalik nisbat.

Nisbat shakllari fe'lning asos qismidan keyin qo'shiladi.

Nisbat turlari	Shakllari	Ma'nolari	Namuna
Aniq nisbat	–	Harakatning ega orqali ifodalangan shaxs tomonidan bajarilishini bildiradi.	O'qidi, kelyapti
O'zlik nisbat	-n (-in), -l (-il)	Harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi.	Yuvindi, kiyindi, qo'zg'aldi
Majhul nisbat	-n (-in), -l (-il)	Harakatni bajaruvchi shaxs noma'lum bo'ladi.	Yuvildi, taraldi, qilindi, bajarildi
Orttirma nisbat	-dir, -tir, -giz, -kiz, -qiz, -gaz, -kaz, -qaz, -t, -ir, -ar, -iz	Fe'l asosidan ifodalangan harakatga da'vat qilingan shaxs ma'nosini bildiradi.	Qoldir, keltirdi, tushir, oqizdi, o'qitdi, qaytardi.
Birgalik nisbat	-sh (-ish)	Fe'l asosidan ifodalangan harakatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganini ifodalaydi.	

### Aniq nisbat

Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli aniq nisbat shakli deyiladi. Aniq nisbatda ish-harakat bajaruvchisi aniq bo'ladi, biroq bu aniqlik maxsus vosita yordamida hosil qilinmaydi. Aniq nisbat grammatik shakliga ega emas.

#### Namuna:

1. Shamol toy ekan, Kuchga boy ekan, Yengil *ko'charkan*, Ko'kka *ucharkan*. 2. Ko'zim *tikdim*, parqu bulutlar *Ko'char* edi zilol va toza. Lochin kabi samolyot *uchar*, *Uchar* edi *solib* ovoza. 3. Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizdan *xabar oldi*. 4. Ra'no *javob berish* o'rniga birdan *yig'ildi*, ancha vaqt ko'z yoshi *to'kib turdi*. 5. Qobil bobo *yugurib borib* do'konxona eshigidan ko'chaga *qaradi*.

### O'zlik nisbat

Bajaruvchining o'z ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli. O'zlik nisbat fe'l asosiga *-(i)n*, *-(i)l* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi. O'zlik nisbatda harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat



tushgan obyekt birlashgan holda bo'ladi. Taqqoslang: *taradi* – *tarandi*, *yuvdi* – *yuvindi*, *maqtadi* – *maqtandi*.

Barcha fe'llar ham o'zlik nisbatda qo'llana olmaydi. Masalan, *dodladi*, *uxladi*, *baqirdi*, *sarg'aydi* kabi. O'zlik nisbat shakllari o'timli fe'lni o'timsiz fe'l shakliga keltiradi: *taramoq* – *taranmoq*, *atamoq* – *atalmoq*, *kiymoq* – *kiyimoq* kabi.

#### Namunalar:

1. Buyuk bobokalonimiz A.Navoiy 1441-yilda tug'ilgan. 2. U yuziga belbog'ini tashlab ko'rpachaga cho'zildi. 3. Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. 4. Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zdan haddan ziyoda sevindi. 5. Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yoq'ildi qorong'i jarga. 6. Yaltiraydi, doim tovlanar Oy nuriga cho'miluvchi tosh.

### Majhul nisbat

Bajaruvchisi noma'lum bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli majhul nisbat shakli deyiladi. Majhul nisbat qo'shimchalari:  $-(i)n$ ,  $-(i)l$  unli va undosh bilan tugashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Gapda harakatni bajaragan shaxs yoki narsa *tomonidan* so'zi bilan birga qo'llanib to'ldiruvchi vazifasini bajarsa, bunday holatda mazkur fe'l shakli majhul nisbat shakli sanaladi. Taqqoslang: *U tarandi* – *Sochi onasi tomonidan tarandi*.

O'zlik va majhul nisbat shakllari aynan bir xil, lekin ular harakat yoki holatning bajaruvchisi aniq yoki noaniqligiga ko'ra farqlanadi. O'zlik nisbatda harakat va holat bajaruvchining o'zi ustida amalga oshirilsa, majhul nisbatda bajaruvchi noaniq bo'ladi.

Ba'zan bir xil shaklga ega so'zlar har ikki nisbat shaklida ham qo'llanishi mumkin. Bunday holatda yuqoridagi qoidalar asosida farqlab olish kerak bo'ladi. Masalan, *ilindi*. Ona qo'lidagi kulchasini bolasiga ilindi (aniq nisbat). Baliq to'rga ilindi (majhul nisbat). Cho'zildi. U yuziga belbog'ini tashlab ko'rpachaga cho'zildi (o'zlik nisbat). Lag'mon ingichka cho'zildi (majhul nisbat). Ochildi. Paxtalar qiyg'os ochildi (o'zlik nisbat). Eshik ochildi (majhul nisbat). Otildi. U onasi tomon otildi (o'zlik nisbat). Gunohsiz insonlar otildi (majhul nisbat).

*Ayir* va *qayir* so'zlariga majhul yoki o'zlik nisbat qo'shimchalari qo'shilsa, tovush tushishi kuzatiladi: *ayir* + *il* = *ayril*, *qayir* + *il* = *qayril* kabi.

*Yemoq* va *demoq* so'zlariga majhul nisbat qo'shimchasi qo'shilsa, tovush ortishi kuzatiladi: *ye* + *il* = *yeyildi*, *de* + *il* = *deyildi*.

#### Namuna:

1. Hozirgi kunda xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda.  
2. Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushnavo bulbul yaratilmagan ekan. 3. Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

## Orttirma nisbat

Bajaruvchining ta'siri bilan boshqa shaxs yoki narsa tomonidan bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli orttirma nisbat deyiladi. Qo'shimchalari: *-t, -dir, -tir, -giz, -qiz, -kiz, -g'iz, -kaz, -gaz, -ir, -ar, -iz*.

Fe'l o'zagidan ifodalangan harakatga da'vat qilingan shaxs ma'nosini bildiradi: *qol-dirdi, kel-tirdi, kir-gizdi, o't-kazdi (o't-kizdi), o'qi-tdi, tom-izdi, qayt-ardi, ko'r-satdi*.

### Orttirma nisbat shakllarining imlosi

1. **-t** unli tovush bilan tugagan fe'l asosiga qo'shiladi: *to'qit, bo'yat, o'qit, ishlat*.
2. **-dir** qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: *yondir, quvdir, bordir* kabi. *Kelmoq, suyulmoq, quyulmoq, uyalmoq* kabi fe'llar bundan mustasno. Bunday fe'llarga orttirma nisbatning **-tir** shakli qo'shiladi.
3. **-tir** jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi: *ostir, o'stir, kes-tir*. **-tir** shakli jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga ham qo'shiladi: *quyultir, suyultir, keltir* kabi.
4. **-lr, -ar, -iz** undosh bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: *shoshir, chiqar, oqiz, o'chir, tomiz* kabi.
5. **-giz, -g'iz** jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *kiygiz, yurgiz, turg'iz* kabi.
6. **-kiz, -qiz** jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi: *yutqiz, ketkiz* kabi.
7. **-kaz, -qaz** nisbat shakli o'tmoq fe'lidan hosil qilinadi. O'tkaz – sinfdan sinfga o'tkazmoq. O'tqaz – ko'chatni o'tqazmoq.

Ba'zan fe'l asosiga orttirma nisbat hosil qiluvchi birdan ortiq qo'shimchalar qo'shilishi mumkin. Masalan, o'qit – o'qittir – o'qittirgiz – o'qittirgizdir, to'ldir – to'ldirgiz, yozdir – yozdirtir kabi. Bunday holatda orttirma nisbat ma'nosi kuchayadi.

1. Tushga yaqin dadam bizga ovqat keltirib berdi. 2. U eng avval malikalar-u nabiralarini Samarqandga jo'natdi. 3. Ko'z ochgani qo'ymaydi alam. Boshim qo'ysam kuydirar bolish, Yupatolmas kitob va qalam, Misralarim ko'tarar nolish. 4. Xos chodir eshigiga osilgan kimxob parda Humoyunning qo'lga mayin va salqin tegdi. Uni bir tomonga surib, tashqariga ko'z yuqurtirdi. 5. Shayxzoda jurnalistika sohasida ham qalam tebratdi.

### Birgalik nisbat

Birdan ortiq bajaruvchi tomonidan birgalikda bajarilgan harakat yoki holatni bildiruvchi fe'l shakli birgalik nisbat deyiladi. Birgalik nisbat shakli unli bilan tugagan fe'l asosiga *-sh*, undosh bilan tugagan fe'l asosiga *-ish* qo'shim-



chasini qo'shish orqali hosil qilinadi. Fe'l asosidan ifodalangan harakat va holatning bir necha shaxs tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

### **Namuna:**

O'tgan yili qishloq jamoasi choyxonani ta'mirlashdi, obod qilishdi. 2. Bir burchakda katta stol atrofida yoshlar o'tirib gazeta, jurnal va kitob o'qishadi, bir burchakda radiodan so'nggi xabar eshitishadi. 3. O'ng tomondagi chor-poyada to'rt-besh kishi o'tirib, qah-qah urib kulishadi.

*Yemoq* va *demoq* so'zlariga birgalik nisbat qo'shimchasi qo'shilsa, tovush ortishi kuzatiladi: *ye + ish = yeyishdi*, *de + ish = deyishdi* kabi.

## **Nisbat qo'shimchalari uslubiyati**

Fe'l asosiga bir necha nisbat qo'shimchalari ketma-ket qo'shilishi mumkin. Bunda fe'lning qaysi nisbatda ekanligini bilish uchun oxirgi nisbat shakli hisobga olinadi. *Kiyintirildi* fe'li tarkibida o'zlik, orttirma hamda majhul nisbat shakllari mavjud. Ushbu fe'l majhul nisbatda deiladi. *O'qittirishdi* – birgalik nisbat, *o'ynattirgizdi* – orttirma nisbatda.

Fe'l nisbatlarini aniqlash chog'ida, albatta, so'zni morfemik tahlilga tortish lozim. *Quvonmoq*, *faxrlanmoq*, *chaqirmoq*, *baqirmoq* kabi fe'llar morfemik tahlil jarayonida aniq nisbat shaklli fe'llar ekanligi aniqlanadi. Chunki birgalik nisbat shakli *-sh* ba'zan *-la* qo'shimchasi bilan yaxlitlanib qolishi mumkin. Ya'ni bu qo'shimcha murakkab so'z yasovchi qo'shimcha vazifani bajaradi. Taqqoslang: *suhbatlashmoq*, *ommalashmoq*, *yordamlashmoq*, *bahslashmoq* kabi. Bu fe'llar aniq nisbatdagi fe'llar sifatida e'tirof etiladi.

Ba'zan bir nisbat ma'nosi o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniladi. Xususan, bosh, ya'ni aniq nisbat ma'nosida birgalik nisbat shakllari ishlatiladi. Masalan, *keldi* – *kelishdi*, *kelyapti* – *kelishyapti*. Ushbu nisbat shakllarining almashish holati hurmat ma'nosi ifodalanganida ro'y beradi. Bundan tashqari, aniq nisbat ma'nosida majhul nisbat shakllaridan foydalaniladi: *qildim* o'rniga *qilindi*, *bajardim* o'rniga *bajarildi* kabi. Bunday holatda kamtarlik ma'nosi ifodalanadi.

## **Nisbat qo'shimchalarining omonimligi**

**-in.** Ot, sifat, ravish yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. *-in* grammatik shakli lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha sifatida so'z yasovchi qo'shimchalar bilan o'zaro shakldosh. Solishtiring: Ot: *tiqin*, *yig'in*. Sifat: *erkin*, *to'lin*. Ravish: *qishin-yozin*, *birin-ketin*. Nisbat shakli: *kiyin*, *bilin*.

**-ar.** Fe'l yasovchi hamda kelasi zamon sifatdosh shakli bilan omonimlik hosil qiladi. Sifatdoshning kelasi zamon shakli bilan lug'aviy shakl yasovchilar doirasida omonimlik hosil qilsa, fe'l yasovchi qo'shimcha sifatida so'z yasovchi shakl bilan shakldosh sanaladi. Solishtiring: Sifatdosh: *oqar* (*suv*), *kelar*. Nisbat shakli: *qaytar*, *chiqar*. Fe'l yasovchi: *ko'kar*, *oqar*.

-**Ir.** Fe'l yasovchi qo'shimcha bilan omonimlik hosil qiladi. Solishtiring: Nisbat shakli: *tushir, qotir*. Fe'l yasovchi: *gapir*.

-**t.** Fe'l yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh. Solishtiring: Nisbat shakli: *ishlat, tezlat*. Fe'l yasovchi: *to'lat*.

-**ish.** Fe'lning vazifaviy shakli harakat nomi hamda sifatning ozaytirma darajasini hosil qiluvchi shakl bilan shakldosh. Demak, o'zaro lug'aviy shakl yasovchilar doirasida omonimlik hosil qiladi. Solishtiring: Nisbat shakli: *kelishdi, borishdi*. Harakat nomi: *o'rganishi (kerak), o'qish (boshlandi)*. Sifat darajasi: *oqish, ko'kish*.

**Navoly asarlari lug'atidan keltirilgan bosh so'zi bilan bog'liq bo'lgan fe'llar sinonimiyasiga e'tibor bering:**

Bosh oqarmoq – sochi oqarmoq, qartaymoq.

Bosh olib chiqmoq – hamma narsaning bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq.

Bosh uchurmak, bosh tushirmoq – o'ldirmoq, boshini kesmoq.

Bosh ura kirishmoq – ko'rina boshlamoq.

Bosh o'g'irlamoq – bosh olmoq, o'ldirmoq.

Bosh o'ynamoq – o'yinda boshni tikmoq, qurbon bo'lmoq.

Bosh indurmak – 1. Ta'zim qilmoq. 2. Pisand qilmoq.

Bosh tortmoq – ko'tarilmoq, yuqorilashmoq.

Bosh chiqarmoq – o'zini tortmoq, o'zini ayamoq, saqlamoq.

Ollida bosh qo'yimoq – o'zini kichik olmoq, itoat qilmoq, iltijo etmoq.

Boshidin quymoq – esidan, yodidan chiqmoq.

Boshdin quymoq – bahridan o'tmoq, kechmoq, tark qilmoq.

Boshiga yetmoq – tepasiga kelmoq, oldiga kelmoq.

Boshi falakdin o'tmoq – ulug' martaba hosil qilmoq.

Xotindin bosh ko'tarmak – itoatda bo'lmoq, chizgan chizig'idan chiqmaslik.

### Fe'lning vazifa shakllari

Fe'lning turli gap bo'laklari vazifasida kelishi uchun xoslangan shakllar fe'lning nisbat shakllari deyiladi. Fe'llar gapda boshqa so'zlar bilan bog'lanib, ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi bo'laklar vazifasini bajariishi mumkin. Buning uchun fe'lning maxsus shakllari kerak. Mazkur shakllar fe'lning vazifaviy shakllari deyiladi.

Fe'lning 4 ta vazifa turi mavjud: **1. Sof fe'l shakli. 2. Harakat nomi shakli. 3. Sifatdosh shakli. 4. Ravishdosh shakli.**

### Harakat nomi

Fe'lning otga xoslangan shakli harakat nomi sanaladi. Harakat nomi shakllari: *-(i)sh, -(u)v, -moq, -mak, -maslik*. Masalan, *sanash, chiqmoq*.



*chizuv, aytish, chaqirish, to'plash, foydalanish, quyimoq, sindirmoq, yopish, ho'plamoq, tanishuv, ishlov.*

**A** yoki **I** unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga harakat nomining **-v** qo'shimchasi qo'shilganida **a** unlisi **o** ga, **I** unlisi **u** ga aylanadi va shunday yoziladi: *ishla + v = ishlov; tani + v = tanuv; o'qi + v = o'quv.*

Harakat nomi otlar kabi egalik, kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi, gapda ular bajaradigan gap bo'lagi vazifasida keladi. Masalan: *Chiroyli yozishni o'rgan! Yozuving yomon emas.*

Harakat nomi garchi otga o'xshagan shakl bo'lsa-da, u fe'lning vazifaviy shakli, shuning uchun bo'lishli-bo'lishsizlik shakliga ega. Harakat nomi boshqa fe'llar kabi fe'lning bo'lishsizlik shakli **-ma** bilan hosil qilinmaydi. Harakat nomi o'zining bo'lishsizlik shakliga ega: **-maslik**. Solishtiring: *O'qish – koni foyda. O'qimaslik – zarar.*

Harakat nomi shakli o'zidan oldin nisbat shakllarini ham qabul qiladi. Solishtiring: *o'qish – o'qittirish, kiyish – kiyintirish.*

### Harakat nomining sintaktik vazifalari

Gapda barcha bo'lak vazifasida kela oladi:

1. **Ega:** *Vatanni sevmok – iymondandur. Takrorlash – ilm olishning onasidir.*

2. **Kesim** (ot kesim): *Maqsadimiz – a'lo o'qish. Yozuvchi turmushni har taraflama o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo'lishi kerak.*

3. **Aniqllovchi:** *Bilim o'qish va takrorlashning mevasidir. Eshitish qobiliyati hammada bo'lishi kerak.*

4. **To'ldiruvchi:** *Boshida tashvishi bo'lishiga qaramay, bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi. Xalqning o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l.*

5. **Hol:** *Yozning tugashida ishlarimiz hal bo'ladi.*

**Namuna:**

1. Biror xalqning axloqini *bilmoq* uchun uning adabiyoti bilan tanish. 2. Qo'ziboy ishga *aralashuvini* ham, *chiqib ketishini* ham bilmay qoldi. 3. Yozuvchi turmushni har taraflama *o'rganishi*, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor *bo'lishi* kerak. 4. Xalqning sha'niga, ming yillar davomida to'plagan obro'–e'tiboriga dog' *tushirishga* hech kimning haqqi yo'q. 5. Vaqtni samarasiz *tortishuvlarga* sarflamaylik. Har bir voqea-hodisaga katta mas'uliyat, xalqimizga xos donolik va aql-zakovat bilan *yondashishimiz* shart.

### Sifatdosh shakli

Fe'lning sifatga xoslangan shakli sifatdosh deyiladi. Sifatdosh fe'l asoslariga **-gan** (**-kan, -qan**), **-adigan, -ydigan, -ayotgan, -r** (**-ar**) kabi shakllarni

qo'shish orqali hosil qilinadi. Sifatdoshlar narsa va shaxslarning belgisini bildirishiga ko'ra sifatlariga o'xshaydi. Sifatlar shaxs va narsaning turg'un, barqaror belgisini bildirsa, sifatdoshlar o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydi. Masalan, *ilmli bola – o'qigan bola, katta daryo – oqar daryo*.

### Sifatdoshlarning zamon shakllari

Sifatdoshlar garchi belgini bildirsa ham, fe'l shakli bo'lgani bois fe'l kabi zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat ma'nolarini ifodalaydi.

**O'tgan zamon sifatdoshi.** *-gan (-kan, -qan)* sifatdoshlari o'tgan zamonga xos belgini ifodalaydi. Bu qo'shimcha unli bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib *-gan* holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan, *o'qigan, yashagan* kabi.

Ba'zan jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib *-kan* holida talaffuz qilinsa ham, *-gan* yoziladi: *ko'chgan, o'sgan* kabi.

Jarangsiz **q** undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganida *-qan*, **k** undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganida *-kan* holida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan, *tiqqan, tikkan* kabi. Bu kabi holatlar fonetik tamoyil asosida yoziladi.

Jarangli **g'** undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilganida *-qan* holida talaffuz qilinsa ham, *-gan* shaklida yoziladi. Masalan, *tug'gan* kabi. Bu holat morfologik tamoyil asosida yoziladi.

#### Namuna:

1. Vahobjon boyagi qiz ko'rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi. (*Said Ahmad*) 2. O'z ko'zim bilan ko'rganlarimni, kechirganlarimni, o'tmish hayot lavhalaridan esimda qolganlarini qalamga olgim kelib qoldi. (*A.Qahhor*) 3. O'z nafsiga asir bo'lgan odam insoniylikni qo'ldan boy beradi. («*Donolar o'giti*» dan)

**Hozirgi zamon sifatdoshi.** *-ayotgan* sifatdoshi **hozirgi** zamon ma'nosini ifodalaydi: *borayotgan, kelayotgan* kabi.

#### Namuna:

1. Endigina ko'tarilib kelayotgan oy sarg'ish nurlar sochib, tun qo'ynida mudrayotgan pastqam uylarning tomlarini, daraxtlarning yalang'och novdalarini yoritib turadi. (*X.To'xtaboyev*) 2. Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir to'da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. (*A.Qodiriy*) 3. Jimirlab oqayotgan daryo bo'yiga borib, yuz-qo'llarini yuvib, bir-ikki qultum suv ichishdi. (*Mirmuhsin*)

**Kelasi zamon sifatdoshi.** *-adigan, -ydigan, -ar* sifatdoshlari kelasi zamonni ifodalaydi: *boradigan, o'ynaydigan* kabi.

#### Namuna:

1. Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi. (*N.Normatov*) 2. Mana endi, Sobirjon o'g'lim, ishlab, ro'zg'orga qarashadigan vaqtingiz bo'ldi.



(Hakim Nazir) 3. Eshon otasining vasiyatiga amal qilib, to'rdan joy tegmaydigan, poygakda choy tegmaydigan bir odam bo'lib yetishibdi. (A.Qahhor)

Sifatdoshning bo'lishsiz shakli fe'llardagi kabi *-ma* qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. *-(a)r* qo'shimchasi bilan hosil qilingan sifatdoshlarga *-ma* qo'shimchasi qo'shilganida tovush almashishi sodir bo'ladi. Masalan, *kelar - kelmas*. «*r*» tovushi «*s*» undoshiga almashadi.

### Sifatdoshlarning sintaktik vazifasi

1. Ega (otlashsa): Hayotni tushunganlar bu yo'lda qoqilmadilar. Bu haqda bu ishni o'ylamay qilib qo'yganlar bosh qotirsin. Arslondan qo'rqqandan ko'ra o'z nafsidan qo'rqqan foydaliroq.

2. Sifatlovchi aniqlovchi (otga bog'lansa): Bu ovoz hali mag'zi ilimagan dalalarga, osmondagi oqimtir yulduzlarga tegib aks sado berayotgandek tuyulardi. Keng fe'l, ketmas davlat bersin. Endigina ko'tarilib kelayotgan oy sarg'ish nurlar sochib tun qo'ynida mudrayotgan pastqam uylarning tomlarini, daraxtlarning yalang'och novdalarini yoritib turardi. Or – bu o'ziga nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir.

3. To'ldiruvchi (otlashsa): Mehmonga aytilganlarni kuzatib yurish mening vazifam edi. Anglaganga aytgin siringni. Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yniga olmaslik ayb. O'z ko'zim bilan ko'rganlarimni, kechirganlarimni, o'tmish hayot lavhalaridan esimda qolganlarini qalamga olgim kelib qoldi.

4. Hol: Bahor kelganida atrof maftunkor bo'lib ketadi. Urush boshlangani-da u hali go'dak edi. Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir to'da uloqchi – chavandozlar uchrab qoldilar.

5. Kesim: Qora daryo hamisha to'lib oggan, lekin hech qachon bunday suvsiz bo'lmagan.

### Sifatdoshning otlashishi

Sifatdoshlar ham xuddi sifat singari otlashish xususiyatiga ega. Sifatdosh bog'langan ot gapda tushib qolib sifatdosh ot bajargan vazifalarni bajaradi, otlashadi. Masalan, *Ko'pni ko'rgan (kishi)lar bu haqda juda yaxshi biladilar. O'qigan (kishi) o'qdan o'zar*.

Sifatdosh otlashib gapda qaratqich aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, hol kabi bo'laklar vazifasini bajaradi.

### Ravishdosh shakli

Fe'lning ravishga xoslangan shakli ravishdosh sanaladi. Ravishdosh harakatning belgisini bildirishi bilan ravishga o'xshaydi. Ravishdosh ham ravish kabi fe'lga bog'lanib uning belgisini bildiradi. **Masalan, piyoda ketdi – yugurib ketdi, ataylab keldi – o'qigani keldi, tez ketdi – shoshilib ketdi.** E'tibor

bering: garchi ikkala holatda ham harakatning belgisi ifodalangan bo'lsa-da, ularning biri ravish, ikkinchi fe'l so'z turkumiga oid so'z.

### Ravishdoshning ma'no turlari

Ravishdoshlar grammatik shakllari orqali quyidagi ma'nolarni hosil qiladi:

1. *-(i)b* va *-a(y)* shakllari ko'proq harakatning **holatini**, ba'zan **payt, sababini** anglatadi: o'ylay-o'ylay topmoq, qo'rqib qirmadi, shoshib kirib kelmoq.

2. *-gan*cha (*-kan*cha, *-qan*cha) shakli **holatini** anglatadi: suvga tikilgancha o'ylanib qolmoq.

3. *-gach* (*-kach*, *-qach*), *-gun*cha (*-qun*cha, *-kun*cha) harakat va holatning paytini anglatadi: musiqa tingach, qorong'u tushguncha, qaynarvermagach olovni kuchaytirmoq.

4. *-gani* (*-qani*, *-kani*) qo'shimchalari harakat va holatning maqsadini anglatadi: o'qigani kelmoq, aylangani kelmoq.

#### Namuna:

1. *Aslida, qosh qorayguncha yetib olish kerak. (O.Muxtor)* 2. *Tog'ga yetgach qo'ylarni o'z holiga tashlab qo'ydi. (Tog'ay Murod)* 3. *Gapni bilib-bilmay gapirmaslik kerak. (U.Hamdamov)* 4. *Yodgor kelib-kelmay hasharni adog'iga yetkazdi. (G'.G'ulom)* 5. *Doirani olgach chalgani odam izlab ketdi. (N.Aminov)* 6. *Tog'ga chiqqach osmonning pastligini his qildi. (Tog'ay Murod)* 7. *Kechga yaqinlashgach havo aynib, shamol turdi. (Oybek)*

### Ravishdosh shakllarining talaffuzi va imlosi

Unli va jarangli undoshlar bilan tugagan fe'l asoslariga ravishdoshning *-gach*, *-gun*cha, *-gan*cha, *-gani* qo'shimchalari qo'shiladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga bu qo'shimchalar qo'shilganida *-kach*, *-kun*cha, *-kan*cha, *-kani* shaklida talaffuz qilinsa ham, *-gach*, *-gun*cha, *-gan*cha, *-gani* tarzida yoziladi.

Bu qo'shimchalar faqat *k* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib *-kach*, *-kun*cha, *-kan*cha, *-kani* holida; *q* undoshi bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib *-qach*, *-qun*cha, *-qan*cha, *-qani* shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Bu holat fonetik tamoyil asosida amalga oshadi.

### Ravishdoshning sintaktik vazifasi

**Hol:** Aka-uka maslahatlashib, tong otguncha shu yerda qolishga qaror qilishdi. Xola, ukam qani, olib ketgani keldim. Gapni *bilib-bilmay* (hol) gapirmaslik kerak.

Ravishdosh harakatning belgisini bildirgani sabab, asosan, gapda hol vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida yetakchi fe'l tarkibida, qo'shma fe'llarning birinchi qismi tarkibida, zamon qo'shimchalaridan oldin qo'llanadi va gapda fe'l kesim vazifasini bajaradi.



## Sof fe'l shakli

Zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ko'rsata oladigan fe'l sof fe'l shakli sanaladi. Masalan, *o'qidi, keldim, borsam* kabi.

### Fe'ning vazifavly shakllari shakldoshligi

1. **-(l)sh**. Lug'aviy shakl yasovchilar doirasida omonimlik hosil qiladi. 1. Harakat nomi shakli: *o'qish, bilmoq, yashamoq, bilmaslik*. 2. Birgalik nisbat: *kelishdi, borishdi, o'tirishdi* kabi. 3. Sifatning ozaytirma darajasi shakli: *ko'kish, oqish* kabi.

2. **-moq**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Harakat nomi: *kelmoq, bormoq*. Ot yasovchi: *quymoq, ilmoq*.

3. **-uv**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Harakat nomi: *ishlov, tanishuv*. Ot yasovchi: *uchrashuv, yozuv*.

4. **-ar**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Sifatdosh: *kelar, oqar*. Orttirma nisbat shakli: *qaytar, chiqar*. Fe'l yasovchi: *ko'kar, oqar*.

5. **-(a)y**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Ravishdosh: *o'qiy boshlamoq*. Buyruq-istak mayli: *boray, kelay*. Fe'l yasovchi: *kupay, ozay, pasay*.

### Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi

*Ishlab chiqdi, ishlab bo'ldi, ishlay boshladi, ishlab yuribdi, ishlab qo'ydi, ishlab yubordi, ishlab yozdi, ishlab turibdi, ishlab ko'rdi* singari so'zlarga e'tibor bersangiz, ularning hammasi bir umumiy ma'noni – *ishlamoq* ma'nosini ifodalaydi. Bu ma'no, asosan, ravishdosh shaklidagi birinchi qismdan anglashiladi. Ikkinchi qism esa birinchi qismdan anglashilgan leksik ma'noga turli qo'shimcha ma'nolarni (harakatning boshlanishi, davomiyligi, tugallanishi, oson bajarilganligi, tez bajarilganligi, harakatni bajarishga urinilganligi kabi) ma'nolarni yuklaydi. Bunday so'zlar ham tuzilishiga ko'ra fe'l + fe'l tarzida bo'ladi. Birinchi fe'l so'zning asosiy leksik ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun u yetakchi fe'l sanaladi. Ikkinchi qismi esa birinchi qismga (yetakchi fe'lga) qo'shilib unga turli xil qo'shimcha ma'nolarni yuklaydi, lekin yetakchi fe'ning leksik ma'nosini o'zgartirib yubormaydi. Undan yangi fe'l hosil bo'lmaydi. Shuning uchun bunday fe'llarga ko'makchi fe'llar deyiladi.

Ko'makchi fe'llar ikki qismdan iborat bo'ladi: yetakchi fe'l va ko'makchi fe'l. Ko'makchi fe'lni qabul qiluvchi ravishdosh shakli **yetakchi fe'l deyiladi**.

O'z mustaqil ma'nolarini yo'qotgan, ravishdoshning **-(i)b, -a, -y** shakllariga qo'shilib asosdan anglashilgan harakat-holatning bosqichlari (boshlanish, davom etish, tugallanish) va tarzini (tezligi, imkoniyatini) ifodalovchi fe'l **ko'makchi fe'l** sanaladi. Ko'makchi fe'l faqat yetakchi fe'l bilan birgalikda

qo'llanadi. Ana shu xususiyati bilan mustaqil qo'llanuvchi olmoq (xatni olmoq – olmoq fe'li o'z leksik ma'nosini yo'qotgan emas), tugatmoq (o'qishni tugatmoq – tugatmoq fe'li o'z leksik ma'nosini yo'qotgan emas), turmoq (o'rnidan turmoq – fe'li o'z leksik ma'nosini yo'qotgan emas), tashlamoq (qog'ozni tashlamoq – fe'li o'z leksik ma'nosini yo'qotgan emas) fe'llaridan farq qiladi.

Ayni shu fe'llar yetakchi fe'l bilan birga ko'makchi fe'l vazifasini bajariganida leksik ma'nosini yo'qotadi: *olmoq – o'qiy olmoq, tugatmoq – o'qib tugatdim, turmoq – o'qib turibman, tashlamoq – o'qib tashladim*. Kuzatgan bo'lsangiz, *olmoq, tugatmoq, tashlamoq, turmoq* fe'llari yetakchi fe'lga qo'shimcha ma'no berish uchun ishlatilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, faqat ko'makchi fe'l vazifasini bajaruvchi alohida fe'llar mavjud emas. Bir qator fe'llar yetakchi fe'l qo'shilganida ko'makchi fe'l vazifasini bajaradi. Ularga quyidagilar kiradi: *boshla, yot, tur, bor, o'tir, bo'l, bitir, bit, ol, ber, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, qara, boq* va boshqalar. Bu fe'llar faqatgina yetakchi fe'lga qo'shilganidagina ko'makchi fe'l vazifasida keladi.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yasama fe'l hisoblanmaydi.

### Ko'makchi fe'l shakllari

Ravishdoshning **-a, -y** shakliga qo'shiluvchi **boshlamoq** ko'makchi fe'li harakatning boshlanishini, **olmoq** ko'makchi fe'li harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalaydi.

**Yurmoq, turmoq, yotmoq** ko'makchi fe'llari ravishdoshning **-(i)b** shakliga qo'shib harakatning davomlilikini bildiradi.

**Yubormoq, tashlamoq, qo'ymoq** ko'makchi fe'llari harakatning tez va oson bajarilishini bildiradi.

**Chiqmoq** ko'makchi fe'li harakatning to'la yakunlanganini bildiradi.

*Boshlamoq, chiqmoq, yotmoq (yurmoq, turmoq)* kabi ko'makchi fe'llar harakat yoki holatning *bajarilish bosqichini* ifodalasa, *olmoq, tashlamoq, qo'ymoq* ko'makchi fe'llari harakat yoki holatning *bajarilish tarzini* ifodalaydi.

#### Namuna:

O'yin-kulgu, askiya yarim kechagacha cho'zilib ketdi. 2. Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi. 3. Bu nima degan gap o'zi, juda jim bo'lib ketdingiz (*ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi yetakchi qismi qo'shma fe'ldan tashkil topgan*). 4. Sahnaga ko'zi tushdi-yu yuragi orqasiga tortib ketdi. 5. Mirsodiq eshikni ochdi-yu sevinib ketdi. 6. Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi (*yetakchi qismi juft fe'ldan iborat*). 7. Dadasining qo'lidan ushlab dikir-dikir sakrab, o'ynoqlab keta berdi (*yetakchi qismi qo'shma fe'ldan tashkil topgan*). 8. Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan qo'rg'on uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib votibdi (*yetakchi qismi juft fe'ldan iborat*).



## Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasiga qo'shimchalarning qo'shillish tartibi

**Nisbat** va **bo'lishsizlik shakllari** yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kelishi mumkin.

**Nisbat:** Unsin ostonadan hatlashi bilan paranjisini yig'ishtirib oldi (yetakchi tarkibida birgalik, orttirma nisbat). Otamiz aravaga qo'shilgan otni yetaklab borardi, xullas, Zovboshiga borishimizni taqiqlab qo'yishgandi uydagilar (ko'makchi tarkibida birgalik nisbat).

**Bo'lishsizlik: a) -ma** shakli yetakchi fe'lga qo'shilganida davomiy bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydi: *o'qib qo'ydi – o'qimay qo'ydi*;

**b) -ma** shakli ko'makchi fe'lga qo'shilganida bir martalik harakat inkori ma'nosini ifodalaydi: *o'qib qo'ydi – o'qib qo'ymadi*;

**d) -ma** shakli ham yetakchi, ham ko'makchi fe'lga qo'shilganida tasdiq ma'nosini ifodalaydi. Ikki inkor qo'shimcha bir tasdiq ma'nosini yuzaga keltiradi: *o'qib qo'yadi – o'qimay qo'ymaydi*.

## Zamon va shaxs-son shakllari faqat ko'makchi fe'lga qo'shilladi

**Namuna:** Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayirib ola boshladik. Umarali o'rnidan turdi-da, tashqariga chiqib ketdi. Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan tor hovlida uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi.

## Fe'ning bo'lishsizlik shakli

Fe'l asosdan ifodalangan harakatning ro'y berish yoki bermasligini bildirgan shakllarga bo'lishli-bo'lishsizlik shakllari deyiladi. Shunga qarab fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga bo'linadi. Bo'lishli fe'llar harakat yoki holatning bajarilganini ko'rsatadi, bo'lishlilik ma'nosi maxsus shakllarga ega emas. Bo'lishsiz fe'llar esa harakat yoki holatning bajarilmaganini ko'rsatadi va maxsus shaklga ega. Fe'ning asosiy bo'lishsizlik shakli **-ma** bo'lib, lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha orqali hosil qilinadi. Masalan, *keldi* – bo'lishli, *kelmadi*, *kelgan emas*, *kelgani yo'q* – bo'lishsiz.

Bo'lishsiz fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi o'ziga xos xususiyatga ega. Bo'lishsizlik ma'nosi *emas* yordamida ifodalanganida shaxs-son qo'shimchasi undan so'ng, *yo'q* yordamida ifodalanganida esa oldin qo'llaniladi.

<i>keldim</i>	<i>kelding</i>	<i>keldi</i>
<i>kelmadim</i>	<i>kelmading</i>	<i>kelmadi</i>
<i>kelgan emasman</i>	<i>kelgan emassan</i>	<i>kelgan emas</i>
<i>kelganim yo'q</i>	<i>kelganing yo'q</i>	<i>kelgani yo'q</i>

Ayrim shevalarda shaxs-son qo'shimchalari **yo'q** so'zidan keyin qo'shila-di. Masalan, *borganim yo'q* o'rniga *borgan yo'qman*, *borganing yo'q* o'rniga *borgan yo'qsan*.

Bo'lishsizlikning uchta yuqoridagi shakli (**-ma, emas, yo'q**) o'rtasida ma'lum ma'no farqlanishi bor.

Sifatdoshning **-gan** shakli uch xil bo'lishsizlik shakliga ega: 1. *Borganim yo'q* – fe'ldan anglashilgan harakatning oddiy inkori (borish kerak edi, lekin bormadi) ma'nosini bildirarmoqda. 2. *Borgan emasman* – umuman bormaganlikni ifodalarmoqda. 3. *Bormaganman* – qat'iy inkorni anglatarmoqda.

Fe'lning vazifa shakllari: harakat nomi, ravishdosh va sof fe'l shakllarida bo'lishsizlik ushbu 3 shakl orqali amalga oshmaydi. Xususan, harakat nomi shaklining maxsus bo'lishsizlik shakli mavjud: **-maslik**. Ravishdosh shaklida bo'lishsizlik, asosan, **-ma** (*kelay, kelmagach, kelguncha* kabi), **-masdan, -may** (*borib-bormay, kelib-kelmasdan* kabi) shakllari vositasida hosil qilinadi. **-gani** (**-kani, -qani**) ravishdosh shakllari orqali hosil qilingan ravishdoshlarni bo'lishsizlik shakliga keltirib bo'lmaydi (*o'qigani – o'qimagani, uxlagani – uxlamagani* kabi).

### Fe'llarning yasalishi

Fe'llar ham boshqa so'z turkumlari kabi tarkibiga ko'ra tub va yasama turlarga bo'linadi. Masalan, *bormoq, kelmoq, o'tirmoq* kabi fe'llar tub fe'llar, *ishlamoq, ta'sir qilmoq, chirs etmoq, borib kelmoq, yig'lamoq* kabi fe'llar yasama fe'llar sanaladi. Yasama fe'llar yasashga asos qismga ma'lum yasovchi vosita qo'shish yordamida hosil qilinadi. Yasovchi vosita qo'shimcha yoki so'z bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra fe'l yasalishi 2 guruhga bo'linadi:

1. Qo'shimcha qo'shish yo'li bilan – affiksatsiya.

2. So'z qo'shish yo'li bilan – kompozitsiya.

Fe'l yasashning eng keng tarqalgan turi qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan hosil qilishdir. Bunday usul bilan fe'l bo'lmagan so'zlardan fe'l yasaladi. O'zbek tilida qo'shimcha qo'shish yo'li bilan (affiksatsiya) fe'ldan fe'l yasalmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida eng faol yasovchi qo'shimcha **-la** qo'shimchasidir. Bu qo'shimcha sondan va fe'ldan boshqa barcha so'z turkumlariga qo'shilib fe'l yasay oladi. Masalan, *oqla* (sifatdan), *ishla* (otdan), *tekisla* (sifatdan), *tezla* (ravishdan), *dodla* (undov so'zdan), *voyvoyla* (undov so'zdan), *gumburla* (taqlidiy so'zdan), *sizla* (olmoshdan).

1. **-la** qo'shimchasi otlarga qo'shilib fe'l yasaganida quyidagi ma'nolarni bildiradi:

a) yasashga asos qismdan anglashilgan narsa-predmet bilan ta'minlash ma'nolarini bildiradi: *o'g'itla, moyla*;

b) narsa-qurol bildiruvchi otlarga qo'shilib shu asbob bilan bajariladigan harakatni bildiradi: *qaychila, arrala, egovla, ketmonla*;



d) yasashga asos qismdan anglashilgan narsani yuzaga keltirish ma'no-sini bildiradi: *urug'la, bolala*.

2. **Sifat va ravishlarga -la** yasovchi qo'shimchasi qo'shilganida yasashga asos qismdan anglashilgan tus, holatga kirish harakatini bildiradi. Masalan, *tekisla, silliqqa, to'g'rila, tezla, tozala* kabi.

3. **-la** qo'shimchasi undov so'zlarga qo'shib yasashga asos qismdan ifodalangan his-hayajon, buyruq-xitoblarning bajarilish harakatini bildiradi: *hihila, ufla, dodla* kabi.

4. **-la** qo'shimchasi taqlid so'zga qo'shib yasashga asos qism ifodalagan tovushning yuz berishini ifodalaydi: *gumburla, taraqla* kabi.

Sifat, ravish, undov va taqlid so'zlarga **-la** yasovchi qo'shimchasi qo'shib fe'l yasaganida yasovchi qo'shimchasi *qil, et, de* singari *ko'makchi* fe'llar bilan sinonimlik munosabatda bo'ladi va ularni ko'pincha biri o'rnida ikkinchisini qo'llash imkoniyati tug'iladi. Masalan, *tekisla – tekis qil, silliqqa – silliq qil, ufla – uf de, dodla – dod de, gumburla – gumbur et, taraqladi – taraq etdi* kabi. Lekin doimo emas. Masalan, *tezlani tez qilga* almashtirib bo'lmaydi.

**Eslatma!** **-la** fe'l yasovchi qo'shimcha lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha vazifasini bajaradi: *quv – quvla, sava – savala, silta – siltala, chayqa – chayqala, opich – opichla* kabi.

**Eslatma!** 1. **-la** fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan **-ta** (*izla – ista*), **-ga, -ka** (*hidla – iska*) holida ham talaffuz qilinadi.

2. **-la** fe'l yasovchi qo'shimchasi ba'zan bilan qo'shimchasining qisqargan shakli **-la** (*qo'l-la – qo'l bilan* bajarib bo'lmaydi) hamda **-la** (**-oq, -yoq** yuklamasi bilan ma'nodosh) yuklamasi bilan (*kelib-la ketdi – keliboq ketdi*) omonimik munosabatda bo'ladi. Shuning uchun **-la** yasovchisini so'zga kuchaytiruv-ta'kid ma'nosini yuklaydigan **-la** yuklamasidan farqlash kerak. Masalan, *kelib-la ketdi – keliboq ketdi, qo'lla (madad qil) va qo'l-la (qo'l bilan)*.

Hozirgi o'zbek tilida **-la** qo'shimchasidan tashqari yana quyidagi qo'shimchalar yordamida fe'l yasaladi:

**-a:** *son – sana, qiyin – qiyina, o'yin – o'yna* kabi. Asosan, ot, sifat va undov so'zdan fe'l yasaydi.

**-sa:** *suvsa* kabi. Otdan fe'l yasaydi.

**-lash:** *suhbat – suhbatlash, omma – ommalash, asabiy – asabiylash, birga – birgalash, gap – gaplash, bir – birlash* kabi. Ot, sifat, ravish, sondan fe'l yasaydi.

**-l:** *boy – boyi, tinch – tinchi, chang – changi* kabi. Asosan, ot va sifatdan fe'l yasaydi.

**-illa:** *chirq – chirqilla, shov – shovulla, gup – gupulla, qur – qurilla* kabi. Faqat taqlidiy so'zdan fe'l yasaydi.

**-ira:** *yarq – yarqira, chirq – chirqira* kabi. Faqat taqlidiy so'zdan fe'l yasaydi.

**-(a)y:** *past – pasay, sust – susay, ko'p – ko'pay, sariq – sarg'ay, oz – ozay* kabi. Ravish, ot va sifatdan fe'l yasaydi.

**-(a)r:** *ko'k – ko'kar, oq – oqar, eski – eskir, qisqa – qisqar, o'zga – o'zgar* kabi. Asosan, ot va sifatdan fe'l yasaydi.

**-sira:** *suv – suvsira, yot – yotsira, tuz – tuzsira, sen – sensira* kabi. Ot, sifat va olmoshdan fe'l yasaydi.

**-(l)k:** *ko'z – ko'zik, kech – kechik, bir – birik* kabi. Son, ot va ravishdan fe'l yasaydi.

**-(l)q:** *yo'l – yo'liq, zo'r – zo'riq.* Ot va sifatdan fe'l yasaydi.

**-lr:** *gap – gapir, ko'p – ko'pir, tuf – tup(f)ir* kabi. Ot, ravish va taqlidiy so'zdan fe'l yasaydi.

**-lan:** *achchiq – achchiqlan, g'urur – g'ururlan, shod – shodlan, ikki – ikkilan* kabi. Sifat, ot, sondan fe'l yasaydi.

### Ayrim fe'l yasovchi qo'shimchalarning imlosi

Fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi quyidagi so'zlarga qo'shilganida tovush o'zgarishi sodir bo'ladi: *o'yln + a = o'yna, qiyn + a = qiyna* (tovush tushishi), *ot + a = ata, son + a = sana* (tovush almashishi).

Fe'l yasovchi **-ay** qo'shimchasi quyidagi so'zlarga qo'shilganida tovush o'zgarishi sodir bo'ladi: *past + ay = pasay, sust + ay = susay, sariq + ay = sarg'ay* (tovush tushishi, tovush almashishi), *ulug' + ay = ulg'ay* (tovush tushishi).

Fe'l yasovchi **-illa** qo'shimchasi tarkibida **u** unlisi yoki **v** undoshi bo'lgan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shilganida tovush almashishi sodir bo'ladi: *shov – shovulla, gup – gupulla, guv – guvulla.*

Fe'l yasovchi **-la** qo'shimchasi quyidagi so'zlarga qo'shilganida tovush tushishi sodir bo'ladi: *yig'l + la = yig'la, ong + la = angla.*

### Fe'l yasovchi qo'shimchalarning shakldoshligi

**-a.** So'z yasovchi hamda lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *son – sana.* Ot yasovchi: *qah-qah – qahqaha.* Ravishdosh shakli: *bora, kela.* Sifat yasovchi: *ko'tar – ko'tara* (savdo).

**-lr.** So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *gap – gapir.* Orttirma nisbat shakli: *tushir, bitir.*

**-lk.** So'z yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *bir – birik.* Sifat yasovchi: *yugur – yugurik.* Ot yasovchi: *ko'r – ko'rik.*

**-iq.** So'z yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *zo'r – zo'riq.* Sifat yasovchi: *yop – yopiq.* Ot yasovchi: *chiz – chiziq.*

**-l.** So'z yasovchi hamda sintaktik shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *boy – boyi.* Ot yasovchi: *qoq – qoqi.* Sifat yasovchi: *qishloq – qishloqi.* Egallik shakli: *kitob – kitobi.*

**-(a)r.** So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *ko'k – ko'kar.* Orttirma nisbat: *chiq – chiqar.* Sifatdosh shakli: *oq – oqar.*



**-sa.** So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Fe'l yasovchi: *suv – suvsa*. Shart mayli shakli: *kel – kelsa*.

### Fe'ning lug'aviy shakllari

Maktab hamda litsey, kollej darsliklarida e'tirof etilmagan bo'lsa-da, fe'llarning lug'aviy shakllari mavjud. Bu shakllar fe'ldan anglashilgan harakat va holatning kuchliligi yoki kuchsizligini bildirish uchun ishlatiladi:

1. Harakat-holatning kuchliligini bildiruvchi shakllar:

**-la/-ala:** quvla, ishqala, quvala, opichla, savala;

**-gila (-kila, -qila, -g'ila):** chopqila, tortqila, tepkila, yugurgila, turtkila, cho'zg'ila, ezg'ila;

**-ga (-ka, -qa):** chayqa, surka, surga;

**-g'i (-qi):** to'zg'i, sizg'i, yulqi.

2. Harakat-holatning kuchsizligini bildiruvchi shakllar:

**-(l)msira:** yig'lamsira, kulimsira;

**-qlra (-lnqlra):** ishonqira, oqarinqira;

**-(l)sh:** qizishdi, to'lishdi, oqarishdi;

**-(l)k:** ko'nik, junjik.

### So'z qo'shish bilan fe'l yasalishi

Yasashga asos qismga yasovchi vosita sifatida *aylamoq, qilmoq, etmoq, olmoq, bermoq* kabi fe'llarni qo'shib ham yasama fe'l hosil qilish mumkin. Masalan, *bir bo'lmoq, javob bermoq, olib kelmoq, sotib olmoq, bayon qilmoq* kabi.

Bunday yo'l bilan qo'shma fe'llar hosil bo'ladi. Qo'shma fe'llar birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar sanaladi. Masalan, *sayr etmoq, taq etmoq, olib kelmoq, bunyod qilmoq*.

Qo'shma fe'llar tarkibi jihatidan ikki xil bo'ladi:

1) **ot + fe'l** tuzilishidagi qo'shma fe'llar. Bunda ot deyilgan keng ma'no nazarda tutilgan bo'lib, birinchi qismi ot, sifat, son, olmosh, undov va taqlid so'zlar bilan ifodalanishi nazarda tutilgan. Bunday qo'shma fe'llarda fe'l sifatida, asosan, **qilmoq, aylamoq, etmoq, bo'lmoq** kabi fe'llar keladi. Masalan, *bayon qilmoq, turmush qilmoq, o'sal bo'lmoq, o'sal qilmoq, bayram qilmoq, yangi bo'lmoq, shunday bo'ldi, taraq etdi, tarbiya qilmoq, eski bo'lmoq, bir bo'lmoq, chirs etmoq* kabi.

Ot + fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llarning ikkinchi qismini tashkil etuvchi fe'llardan *aylamoq* uslubiy xoslangan bo'lib, faqat badiiy uslub doirasida qo'llanadi. **Qilmoq, etmoq, bo'lmoq** fe'llari esa uslubiy betaraf so'zlardir. Masalan, *javob qildi, javob berdi, javob etdi, javob ayladi*;

2) **fe'l + fe'l** tuzilishidagi qo'shma fe'llar. Ikki fe'lning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan fe'llar sanaladi. Bunday qo'shma fe'llar fe'l shaklla-

riga **kelmoq, ketmoq** singari fe'llarni qo'shish bilan hosil qilinadi. Bunday qo'shma fe'llarning birinchi qismi fe'lning **-b (-lb)**, ba'zan **-a** ravishdosh shaklida bo'ladi. Shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik singari qo'shimchalar qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi: *sotib olmoq, olib kelmoq*.

Fe'l + fe'l shakliga ega ko'makchi fe'llar qo'shma fe'llardan farq qiladi. Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. Masalan, *borib keldi (ham bordi, ham keldi)*, ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanganida ko'makchi fe'li so'z shakli hosil bo'ladi. Masalan, *o'qib chiqdi (o'qidi, lekin chiqmadi, balki o'qishni tamomladi, tugatdi)*. Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.

### Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari

**Fe'llar tuzilishiga ko'ra 4 xil bo'ladi:** 1) *sodda* fe'llar; 2) *qo'shma* fe'llar; 3) *juft* fe'llar; 4) *takroriy* fe'llar.

**Sodda fe'llar** bir asosdan tashkil topadi. *Sodda tub fe'llar* asos holatida ish-harakat va holatni anglatadi. Masalan, *qurmoq, ketmoq*.

**Sodda yasama fe'llar** so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa so'z turkumlaridan yasaladi: *shod – shodlanmoq, gap – gapirmoq, guv – guvillamoq, tez – tezlamoq* kabi.

#### Namuna:

1. Ko'klam. Butun mavjudot qaytadan yasharmogda. (Mirtemir) 2. Xadichaning uzunchoq sarg'ish yuzi qizardi. (O'.Hoshimov) 3. Usta temirni cho'g'ga solib bolq'alaydi, cho'zadi, yassilaydi, yana olovga soladi. (Oybek) 4. Bir-birimiz bilan tezda eski qadrdonlardek suhbatlashdik. (G'.G'ulom) 5. Mirtursun Xalifaning terakzoriga, u qadamini sekinlatdi. (X.Sultonov)

**Qo'shma fe'llar** birdan ortiq asosdan tashkil topib, asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shib bo'lmaydigan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi fe'llar sanaladi. Masalan, *sayr etmoq, taq etmoq, olib kelmoq, bunyod qilmoq*.

Qo'shma fe'llar tarkibi jihatidan ikki xil bo'ladi:

1) **ot + fe'l** tuzilishidagi qo'shma fe'llar. Bunda ot deyilgan keng ma'no nazarda tutilgan bo'lib, birinchi qismi ot, sifat, son, olmosh, undov va taqlid so'zlar bilan ifodalanishi nazarda tutilgan. Bunday qo'shma fe'llarda fe'l sifatida, asosan, **qilmoq, aylamoq, etmoq, bo'lmoq** kabi fe'llar keladi. Masalan, *bayon qilmoq, turmush qilmoq, o'sal bo'lmoq, o'sal qilmoq, bayram qilmoq, yangi bo'lmoq, shunday bo'lmoq, taraq etmoq, tarbiya qilmoq, eski bo'lmoq, bir bo'lmoq, chirs etmoq* kabi.

Ot + fe'l tuzilishidagi qo'shma fe'llarning ikkinchi qismini tashkil etuvchi fe'llardan *aylamoq* uslubiy xoslangan bo'lib, faqat badiiy uslub doirasida qo'llanadi. *Qilmoq, etmoq, bo'lmoq* fe'llari esa uslubiy betaraf so'zlardir. Masalan, *javob qildi, javob berdi, javob etdi, javob ayladi*;



2) **fe'l + fe'l** tuzilishidagi qo'shma fe'llar. Ikki fe'lning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan fe'llar sanaladi. Bunday qo'shma fe'llar fe'l shakllariga **kelmoq, ketmoq** singari fe'llarni qo'shish bilan hosil qilinadi. Mazkur qo'shma fe'llarning birinchi qismi fe'lning **-b (-lb)**, ba'zan **-a** ravishdosh shaklida bo'ladi. Shaxs-son, zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik singari qo'shimchalar qo'shma fe'lning ikkinchi qismiga qo'shiladi: *sotib olmoq, olib kelmoq*.

**Eslatma!** Fe'l + fe'l shakliga ega bo'lgan ko'makchi fe'llar qo'shma fe'llardan farq qiladi. Qo'shma fe'llarning har ikkala qismi o'zining lug'aviy ma'nosini saqlagan bo'ladi. Masalan, *borib keldi (ham bordi, ham keldi)*, ikkinchi qismi o'z ma'nosida qo'llanganida ko'makchi fe'lli so'z shakli hosil bo'ladi. Masalan, *o'qib chiqdi (o'qidi, lekin chiqmadi, balki o'qishni tamomladi, tugatdi)*. Qo'shma fe'l qismlari ajratib yoziladi.

**Namuna:**

1. Xamir yaxshi qorilsa, barakasi ham yaxshi bo'ladi. – dedi Matqovul. (M.Ismoilij) 2. Hakim bobo har bir niholni parvarish qilardi. (Sh.Rashidov). 3. Shunday o'ylasangiz yanglishasiz, – deb e'tiroz bildirdi Abdulkarim. (I.Abdurahmonov)

**Juft fe'llar** ikki fe'l juftligidan tashkil topgan, bitta so'roqqa javob bo'luvchi va bitta gap bo'lagi vazifasida keluvchi fe'llardir. Juft fe'llar **ish-harakatning tez va kutilmaganda** ro'y berishini ifodalaydi. Juft fe'l qismlari doimo chiziqcha bilan yoziladi. *Oldi-berdi, bordi-keldi, ur-yiqit* kabi juft so'zlar **ot turkumiga o'tgan so'zlar** hisoblanadi.

**Namuna:**

1. Qayerga qadami yetsa, u yerni birpasda saranjom qiladi-qo'yadi. – deb o'yladi ichida O'ktam. (Oybek) 2. U soy yoqalab yotqizilgan omonat toshlardan sakrab-hakkalab, ohista yurib kelardi. (X.Sultonov) 3. Ana, hech narsa bo'lmagandek, yayrab-quv nab, ochilib-sochilib yurishibdi. (E.A'zam) 4. Oyim to'yxonadan chiqdi-yu yelib-yugurib xizmat qilib ketaverdi. (O'.Hoshimov)

**Takroriy fe'llar** asosni takrorlash bilan hosil bo'lgan juft fe'llar **takroriy fe'llar** ham deyiladi. Takroriy fe'l qismlari chiziqcha bilan yoziladi. Masalan, *ishlay-ishlay, kuta-kuta, o'yladi-o'yladi*.

### Fe'llarning munosabat shakllari

Fe'l asoslariga qo'shilib gapda kesim vazifasida qo'llanilishiga xoslovchi shakllar **fe'lning munosabat shakllari** deyiladi. Fe'llarning **zamon, mayl, shaxs-son** qo'shimchalari **munosabat shakllari** sanaladi. Bu shakllarga ega har qanday fe'l gapda kesim vazifasida keladi. Yuqoridagi ma'no va shakllardan xoli bo'lgan fe'l asosi **fe'lning noaniq shakli** sanaladi, bu shakl **-moq** qo'shimchasi yordamida ifodalanadi.

## Fe'llarning zamon shakllari

*Keldim, kelyapman, kelaman* fe'llarining uchalasi ham I shaxsni bildiradi, lekin ular harakatning nutq momentiga nisbatan qachon bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan farq qiladi. **Fe'ldan anglashilgan harakatning nutq momentlga nisbatan bajarilishi yoki bajarilmaslik paytini bildiradigan shakllarga zamon shakllari, ana shunday shakllar tizimi zamon kategoriyasi deyiladi.**

Zamon turini belgilashda so'zlanayotgan nutq vaqti asosiy tayanch nuqta hisoblanadi. Shunga ko'ra fe'l uchta zamon shakllariga ega: *o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.*

**O'tgan zamon shakllari** harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan oldin bo'lganini bildiradigan fe'l shakllari o'tgan zamon shakllari sanaladi. O'tgan zamon shakllari fe'l asoslariga **-di, -b, -gan (-kan, -qan)** qo'shimchalarini va ulardan so'ng shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

**-di** qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli so'zlovchining bevosita o'zi ko'rgan harakat va holatni bildiradi. Bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining **-m, -k (qoldim, qoldik), -ng, -ngiz (qolding, qoldingiz)** shakllari qo'llaniladi:

**-b (-ib)** qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon shakli ilgari ro'y bergan harakat va holatning so'zlovchi tomonidan eshitib bilinganini yoki oldindan kutilgan harakatning amalga oshganini ifodalaydi va bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining **-man, -miz, -san, -siz, -di (-lar)** shakllari qo'shiladi.

**-gan** qo'shimchasi bilan yasalgan o'tgan zamon qo'shimchasi harakat va holatning ilgariroq bajarilganini bildiradi, bu qo'shimchadan so'ng shaxs-son qo'shimchasining **-man, -miz, -san, -siz** shakllari qo'shiladi.

**O'tgan zamon shakllarida to'liqsiz fe'lning ishlatilishi.** *Edi, emish, ekan* fe'llari to'liqsiz fe'llar sanaladi. Bu fe'llar yetakchi fe'lning zamon shakllaridan so'ng keladi, shaxs-son qo'shimchalari to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: *kelgan ekansan* (eding, emishsan), *kelayotgan ekansan* (eding, emishsan). *Edi, emish, ekan* to'liqsiz fe'llari **-di, -mish, -kan** shaklida ham qo'llanadi. Masalan, *borgandi, borganmish, kelarkan.*

### Namuna:

1. O'sha kuni u rost gapirgan edi. (O.Muxtor) 2. Gumbazdagi chiroyli qandilda turli xil shamlar yonib turgan emish. 3. U kelinning og'zidan gapini uzib olqanday tez-tez gapirar emish. (Cho'lpon)

**Hozirgi zamon shakllari.** Harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtda yuz berishini ifodalaydigan fe'l shakllari hozirgi zamon shakllari sanaladi. Hozirgi zamon shakllari fe'l asoslariga **-yap, -moqda, -(a)yotib** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi. Shaxs-son qo'shimchalari zamon qo'shimchalaridan so'ng qo'shiladi.

**-yotir, -yotib** shakllari unli bilan tugagan fe'l asoslariga, **-ayotir, -ayotib** shakllari esa undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shiladi, ya'ni **-yapti,**



*-moqda* shakllari fe'l asosiga qo'shilsa, *-yotir* va *-yotib* shakllari o'zidan oldin *-a* ravishdosh shaklini talab qiladi: *kelayotir, ishlayotir, kelayotib, ishlayotib*. *-yap* shakli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga qo'shilib *-ayap* holida talaffuz qilinsa ham, *-yap* yoziladi.

Hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanadi: *-yapti* uslubiy betaraf (neytral) shakl bo'lsa, *-moqda, -yotir* yozma nutq uslubiga xosdir.

#### **Namuna:**

1. Sen ko'rmayapsan, oshna, oy botib, yulduzlar birin-ketin so'nib boryapti. (O.Yoqubov) 2. O'qishlar boshlanib, o'quvchilar ham maktabga kelyapti. («Gulxan»dan) 3. Yo'llarning chekkasidagi gullar barchaga salom berayotir. («G'uncha»dan) 4. Ko'chadagi shamchiroqlar xira-xira shu'la sochmoqda. (Tog'ay Murod) 5. Ko'chaga chiqayotib orqasiga bir qarab qo'ydi. (Tog'ay Murod)

**Kelasi zamon shakllari.** Harakat yoki holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yuz berishini bildiradigan fe'llar kelasi zamon fe'llari deyiladi. Kelasi zamon ma'nosi *-jak, -ar, -ur, -gusi, -gay (-kay, -qay)* qo'shimchalari orqali hosil qilinadi. Bu zamon shakllari fe'l asoslariga *-a, -y, -(a)r* qo'shimchalarini va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan ham hosil qilinadi. Bu shakllar ba'zan harakatning doimiy, har uch zamonga oidligini ham ifodalaydi. Masalan, *Akam kollejda o'qiydi*.

Undosh bilan tugagan fe'l asoslariga kelasi zamonning *-y, -r*, bo'lishsiz fe'l shakllariga esa *-s* qo'shimchasi qo'shiladi. *-(a)r* shakli kelasi zamonni gumon, taxmin yo'li bilan ifodalaydi.

Bulardan *-ada, -ar* uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, *-ajak, -gay, -ur, -gusi* shakllari badiiy va publitsistik uslubga xosdir.

Uslubiy betaraflik belgisiga ko'ra *-adi* va *-ar* shakllari bir guruhga mansub bo'lsa, ular ifodalayotgan harakatga gumon-taxmin ma'nosini bildirish-bildirmasligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. *-adi* bunday ma'noga ega bo'lmasa, *-ar* taxmin-gumon ma'nosiga ega.

**Eslatma!** Ba'zan turli zamonga mansub bo'lgan shakllar o'zaro almashinib qo'llanishi kuzatiladi. Masalan, *Tanklar, zambaraklar ag'anab yotibdi*. *Bir jangchining peshonasi bog'langan, bir jangchining esa yelkasidan qon oqmoqda*.

O'tgan zamonda bo'lib o'tgan voqealarga tinglovchini olib kirish, ularni uning ko'z oldiga olib kelish maqsadida hozirgi zamon shakli ishlatilgan.

#### **Mayl shakllari**

1. Bordim, bording, bordi. 2. Boray, borgin, borsin. 3. Borsam, borsang, borsa. 4. Bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchisiz singari bormoq fe'lining turli shakllari ma'nosiga e'tibor bering. Birinchi guruhdagilar bilan

ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi guruhdagilar zamon ma'nosi bilan farq qiladi. Birinchi guruhdagilar o'tgan zamoni, qolgan guruhdagilar kelasi zamoni bildiradi. Ular o'rtasidagi farq faqat shu bilangina cheklanmaydi. Yuqoridagi to'rt guruhdagi fe'llar so'zlovchining harakatga bo'lgan munosabatiga ko'ra ham farqlanadi. Birinchi guruhdagi fe'llar harakat-holatni uning bajarilgan vaqti bilan bog'liq holda ifodalaydi. Harakat-holatning bajarilish-bajarilmasligi aniq bilinib turadi. Ikkinchi guruhdagi fe'llarda harakatni bajarishga buyruq ma'nosi, uchinchi guruhdagi fe'llarda harakatning bajarilish sharti ma'nosi, uchinchi guruhda esa harakatning bajarilish ma'nosi ifodalanadi va bu guruhning har qaysisi ana shu ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi. So'zlovchining fe'ldan anglashilgan harakat-holatga munosabatini bildirgan fe'l shakllari *mayl shakllari*, shunday shakllar tizimi esa *mayl kategoriyasi* deyiladi.

**Fe'l asosida ifodalangan harakat-holat haqidagi xabar, buyruq-istak, shart ma'nolarini ifodalovchi fe'l shakllari mayl shakllari deyiladi.**

Fe'llarning mayllari to'rtta:

Mayl turlari	Shakllari	Namuna	Ma'nolari
<i>Xabar mayli (ijro mayli)</i>	–	<i>Keldim, kelyapman, kelaman, kelding, kelyapsan, kelasan, keldi, kelyapti, keladi</i>	<i>Harakat-holatning bajarilish-bajarmasligi xususida xabar, darak beradi.</i>
<i>Buyruq-istak mayli</i>	<i>-(a)y, -(a)ylik, -(i)ng, -(i)ngiz, -(l)nglar, -sin, -sinlar</i>	<i>O'qiy, yozay, boraylik, kelsin, borsinlar, olinglar, beringiz</i>	<i>Harakat va holatni bajarishga da'vat etish ma'nosini bildiradi.</i>
<i>Shart mayli</i>	<i>-sa</i>	<i>Borsam, borsang, kelsak, kelsangiz</i>	<i>Shart bo'lgan harakatni ifodalaydi.</i>
<i>Maqsad mayli</i>	<i>-moqchi</i>	<i>O'qimoqchiman, bormoqchi, uchrashmoqchisan, yig'lamoqchimi?</i>	<i>Harakat va holatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi.</i>

**1. Xabar mayli (ijro mayli)** harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi haqidagi xabar, darakni ifodalovchi fe'l shakli sanaladi.

Xabar mayli maxsus ko'rsatkichga ega emas, bu mayl fe'l asosiga **zamon va shaxs-son** qo'shimchalarini qo'shish orqali shakllanadi. Shuning uchun xabar maylidagi fe'llar har uchala zamoni va shaxsni ko'rsata oladi. Masalan, *keldi, boryapman, o'ynadik*.



**Namuna:**

1. Bola chaqqonlik bilan o'zini suvga otdi. (S.Mengnorov) 2. Kabob uchun shahardan zira-piralarni ham olib chiqib qo'ydik. (P.Qodirov) 3. Otasi Qo'qonning Madalixon madrasasida bir necha yillar mudarris bo'lib ishlagan. (A.Qodiriy) 4. Cho'pon gapiradi, xotini aytadi, o'g'li chaqiradi. (Sh.Xolmirzayev)

**Buyruq-istak mayli** harakat va holatni bajarish yoki bajarmaslik haqidagi buyruq, istak, iltimos, maslahat ma'nolarini bildirgan fe'l shaklidir. Buyruq-istak mayli shakllari fe'l asoslariga quyidagi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi: **-(a)y, -(a)yin, -gin, -(i)ng, -sin, -(a)ylik, -(i)nglar**.

Buyruq-istak mayli shakllari shaxslarga taqsimlangan.

Birlik	Ko'plik
-(a)y, -(a)yin	-(a)ylik
-(i)ng, -gin (-kin, -qin)	-(i)nglar
-sin	-sinlar

**Fe'lining zamon, shaxs-son qo'shimchalarisiz qismi II shaxs buyruq-istak maylini ifodalaydi.** Masalan, *bajar, o'qi, o'tir, kel* kabi. Bu qismga buyruq-istak ma'nosini kuchaytirish uchun **-gin** qo'shimchasini qo'shish ham mumkin, shuning uchun bu ikki shakl ma'nodosh sanaladi: *kel – kelgin, bor – boring* kabi.

**Namuna:**

1. Sinalmagan otning sirtidan o'tma. (Maqol) 2. Akangni chaqir, bugungi faoliyati uchun javob bersin. (O.Muxtor) 3. Odamlarni chaqiringlar, ekinzorlarni ko'rib qo'ysin. (Said Ahmad) 5. Lolazorga chigaylik. (I.To'lakov)

**Shart mayli** – boshqa bir harakat va holatning bajarilishi yoki bajarilmasligi uchun shart bo'lgan harakat hamda holatni, shuningdek, istak-xohishni bildirgan fe'l shakli, u **-sa** qo'shimchasi yordamida yasaladi. Masalan, *kelsa, o'ynasa, gapirsa* kabi. Shart mayli *edi, ekan* to'liqsiz fe'llari bilan kelganida orzu-istak ma'nosini bildiradi. **-sa edi** shakli ba'zan **-saydi** tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. Masalan, *borsaydi, uxlasaydi* kabi. Shart mayli shakli *kerak* so'zini olib kelganida taxmin-gumon ma'nosini bildiradi. Masalan, *qilsa kerak, sezsa kerak* kabi.

**Namuna:**

1. Odam bo'laman desang kamtarlikni odat qil. 2. Agar kishi halol mehnat qilsa, u shon-shuhrat qozonadi. Agar do'stim ko'p bo'lsin desang, hech kimga dushmanlik qilma. («Hikmatnoma»dan) 3. Ko'z yoshi to'kib ariq qazisang, kulib-kulib suv ichasan. (Maqol) 4. Yomg'ir tezroq tinsa edi, suvoqni yakunlar edik. (Yo'ldosh Sulaymon)

**Maqsad mayli** harakatning biror maqsadda bajarilishini bildiradi. Grammatik shakli **-moqchi**. Masalan, *bormoqchi, qaytmoqchisan* kabi.

## Shaxs-son shakllari

Fe'ldan ifodalangan harakat va holatni bajaruvchi shaxsni bildirib, fe'lni kəsim sifatida shakllantiruvchi, ega bilan bog'lab keluvchi shakllar **shaxs-son** shakllaridir. Demak, shaxs-son fe'ldan ifodalangan harakatning shaxslarga munosabatini bildiradi. Fe'llarning I va II shaxsi maxsus shakllar orqali ifodalanadi. *III shaxsda esa zamon qo'shimchalari shaxs ma'nosini ham ifodalaydi.* O'tgan zamonning *-di* hamda kelasi zamon shart mayli *-sa* shakllaridan so'ng *-m, -ng, -k, -ingiz* qo'shimchalari; ravishdosh, sifatdosh shakllari hamda sof fe'lning hozirgi zamon shakllaridan so'ng *-man, -miz, -san, -siz* qo'shimchalari qo'llaniladi. Fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari bilan birga qo'llanishi **tuslanish** deyiladi.

Shaxs-son asosi	Shaxs	Birlik	Ko'plik	Namuna
a) o'tgan zamon xabar maylining <i>-di</i> shakli;	1.	<i>-m</i>	<i>-k</i>	<i>Keldim, kelding, keldi, kelsak, kelsangiz, kelsalar</i>
	2.	<i>-ng</i>	<i>-ngiz</i>	
	3.	<i>(-)</i>	<i>-lar</i>	
b) kelasi zamon shart mayli <i>-sa</i>	1.			<i>Borganman, borgansan, boryapsiz, bormoqdasiz, borayotirmiz</i>
	2.	<i>-man</i>	<i>-miz</i>	
	3.	<i>-san</i>	<i>-siz</i>	
a) o'tgan zamon xabar maylining <i>-gan</i> shakli;	1.	<i>-man</i>	<i>-miz</i>	<i>Borganman, borgansan, boryapsiz, bormoqdasiz, borayotirmiz</i>
	2.	<i>-san</i>	<i>-siz</i>	
	3.	<i>-di</i>	<i>-dilar</i>	
b) hozirgi zamon aniq maylining shakllari: <i>-yap, -moqda, -yotir, -yotib</i>	1.	<i>-man</i>	<i>-miz</i>	<i>Borganman, borgansan, boryapsiz, bormoqdasiz, borayotirmiz</i>
	2.	<i>-san</i>	<i>-siz</i>	
	3.	<i>-di</i>	<i>-dilar</i>	
Kelasi zamon buyruq-istak mayli	1.	<i>-(a)y</i>	<i>-(a)yluk</i>	<i>O'qiylik, o'qigin, o'qisinlar, o'qiy</i>
	2.	<i>-gin</i>	<i>-(i)nglar</i>	
	3.	<i>-sin</i>	<i>-sinlar</i>	

### Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiyati

Ba'zi holatlarda birinchi shaxsni ifodalash uchun II shaxs qo'shimchasi, shuningdek, birlik ma'nosini ifodalash uchun ko'plik qo'shimchalari qo'llanishi mumkin. Bunday holatlar ma'lum uslubiy maqsadda ro'y beradi. Masalan, *Yurasan, yurasan, hech masofa kamaymaydi – Yuraman, yuraman, hech masofa kamaymaydi.*

Ikkinchi va uchinchi shaxs birlik shakllari o'rnida ko'plik shakli qo'llanilgan, shaxs ko'pligi emas, balki shaxsga hurmat ma'nosi ifodalanadi. Masalan, *Dadam keldilar. Siz juda yoqimli kuyladingiz. So'zlang. (A.Qodiriy)*

Ayrim o'zbek shevalarida shart maylidan keyin qo'shiladigan shaxs-son shakllari o'rniga o'tgan zamonning *-gan* shakli, hozirgi va kelasi zamon shakllaridan keyin ishlatiladigan shakl qo'llaniladi. Masalan, *borsa* o'rniga *borsamiz, borsavuz.*

II shaxs buyruq mayli qo'shimchalari o'rniga III shaxs buyruq mayli qo'shimchalari ishlatiladi. Masalan, *kiring* o'rniga *kirsinlar; o'tiring* o'rniga *o'tirsinlar.* Bunday holat o'zidan katta yoki obro'li kishilarga nisbatan qo'llanib hurmat ma'nosi ifodalanadi.



## Shaxs-son qo'shimchalarining shakldoshligi

**-m.** So'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar hamda o'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Ot yasovchi: *to'plam*. Egalik shakli: *onam*. Shaxs son-shakli: *keldim*.

**-ng.** O'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Egalik shakli: *xonang*. Shaxs son-shakli: *bording*.

**-ngiz.** O'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Egalik shakli: *opangiz*. Shaxs son-shakli: *kuyladingiz*.

**-miz.** O'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Egalik shakli: *ukamiz*. Ismni kesimga xoslovchi shakllar (bog'lama): *o'quvchimiz*. Shaxs-son shakli: *kelganmiz*.

**-man.** O'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Ismni kesimga xoslovchi shakllar (bog'lama): *talabaman*. Shaxs-son shakli: *bor-yapman*.

**-san.** O'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Ismni kesimga xoslovchi shakllar (bog'lama): *qo'rqoqsan*. Shaxs-son shakli: *sezgansan*.

**-siz.** O'zaro sintaktik shakl yasovchilar doirasida omonim bo'ladi. Ismni kesimga xoslovchi shakllar (bog'lama): *ustozsiz*. Shaxs-son shakli: *bergansiz*.

## RAVISH SO'Z TURKUMI

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va *qanday? qayer (-ga, -da, -dan)? qachon? qancha?* so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar ravish deyiladi.

Ravish harakat va holatning belgisini bildirishi bilan sifatlardan farq qiladi. Ravish harakatning belgisini bildirgani bois, asosan, fe'lga bog'lanadi. Masalan, *zo'rg'a gapirmoq, olg'a intilmoq, biroz xavotirlanmoq* kabi. Sifatning ozaytirma darajasida ba'zan ravishlar sifatga bog'lanib kelishi mumkin: *sal katta, biroz qo'rqoqroq* kabi.

### Ravishlarning ma'no turlari

Ravishlar quyidagi ma'no turlariga ajraladi:

№	Ma'no turlari	Ma'nosi	So'roqlari	Namuna
1.	<i>Holat ravishi</i>	<i>Harakat-holatning qay tarzda bajarilishini bildiradi.</i>	<i>qanday? qay holatda? qanaqa?</i>	<i>qo'qqisdan, bexosdan, sekin, tez, yayov, piyoda, darhol</i>
2.	<i>Payt ravishi</i>	<i>Harakat-holatning bajarilish paytini bildiradi.</i>	<i>qachon? qachongacha? qachondan?</i>	<i>bugun, kecha, avval, hozir, doim, erta-indin, yaqinda</i>

3.	<i>O'rin ravishi</i>	<i>Harakat-holatning bajarilishi o'rnini bildiradi.</i>	<i>qayer? qayerda? qayerdan? qayerga?</i>	<i>oldinda, olisda, uzoqdan, yaqindan, yuqoriga, pastga</i>
4.	<i>Miqdor-daraja ravishi</i>	<i>Harakat-holatning miqdor-darajasini bildiradi.</i>	<i>qancha? qanchagacha?</i>	<i>ancha, picha, sal-pal, biroz, qittay</i>
5.	<i>Maqsad-sabab ravishi</i>	<i>Harakat-holatning maqsad va sababini bildiradi.</i>	<i>nimaga? nima uchun? nima maqsadda?</i>	<i>atay, ataylab, qasddan, jo'rttaga, nolloy, noilojlikdan</i>

**1. Holat ravishi.** Harakat-holatning qanday holda bajarilganini bildirgan va qanday? qay holda? qay tarzda? so'roqlariga javob bo'luvchi ravishlar *holat ravishlari* deyiladi. Holat ravishlariga *asta, sekin, jim, yayov, chindan, qo'q-qisdan, to'satdan, piyoda, majburan, tasodifan, astoydil, eskicha, qatorasiga, birma-bir, yakkama-yakka, yonma-yon, bafurja, arang, zo'rg'a, mardlarcha* kabi ravishlar kiradi.

**Holat ravishlari** *qo'qqisdan, to'satdan, birdaniga, birdan* singari ravishlar harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelganini ifodalaydi.

*To'satdan* ravishi ayrim shevalarda *to'sindan* holida ham talaffuz qilinadi. Bunda u dialektal variant hisoblanadi.

**Namuna:**

1. Shu payt uydan – yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini ishqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshlashdi. (Sh.Xolmirzayev) 2. O'rtancha botir qo'rqmadi, jim turdi. (Ertakdan) 3. Bular piyoda asta-sekin o'rdaga bordilar. (Ertakdan) 4. Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizajagini aytdi. (Mirmuhsin) 5. Tinglar edim betinim Uzun tunlar yotib jim. (H.Olimjon) 6. Ikki oshna kechki salqin bilan piyoda yo'lga tushibdi. (O'.Umarbekov) 7. Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. (O'.Hoshimov) 8. Jo'raboyev ham jimgina o'tirib hammaga razm soldi. (Sh.Rashidov)

**2. Payt ravishi.** Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini bildirib, *qachon?* so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar *payt ravishlari* deyiladi. Payt ravishlariga *endi, hozircha, so'ngra, hanuz, hamisha, doimo, hamon, dastlab, erta-indin, qishin-yozin, kecha-kunduz* kabilar kiradi.

**Namuna:**

1. Keyin u yoqqa o'tamiz deb o'ng tarafdagi oynavand uyga ishora qildi. 2. Jiydazordan hozirgina keldim. 3. Ertaga chigit ekishni boshlaymiz. 4. Uni buguncha tinch qo'y. 5. Yolg'on gapga ishonmang, erta-yu kech daladaman. 6. Yarim kechadan keyin Salmon otaning uyqusi butunlay qochdi. 7. Ertaindin rejani to'ldirgani haqidagi xushxabarni topshirmoqchi. (Yo'ldosh Sulaymon)



**3. O'rin ravishi.** Harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik o'rnini bildirib, *qayer?* so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar *o'rin* ravishlari deyiladi. O'rin ravishlariga **olg'a, ichkari, tashqari, yuqori, quyl, uzoqdan, yaqindan, oldinda** kabilar kiradi.

**Namuna:**

1. Tashqariga chiqib G'afurjon boydan ketishga izn so'raydi. 2. Sher qo'ziga ko'zi oldidan nari ketishi uchun ruxsat bermay qo'ydi. 3. Salmon ota gapni uzoqdan boshladi. 4. Idoraga yaqin qolganida Nuriddin otga qamchi urdi. 5. Oldinda Shirinbuloq qishlog'i butun bo'y-basti bilan yastanib yotardi. (*Sh.Sa'dulla*)

**4. Miqdor-daraja ravishi.** Harakat-holatning bajarilishdagi miqdor-darajasini bildirib, *qancha?* so'rog'iga javob bo'luvchi ravishlar *miqdor-daraja* ravishlari sanaladi. Miqdor-daraja ravishlari: **sal, picha, ko'p, oz, kam, ancha, xiyla, biroz, qittay, juda, nihoyatda, bir talay.**

**Namuna:**

1. Yaxshiligingiz sira-sira yerda qolmaydi. 2. Qaddini rostlab, eshikni uzoq taqillatdi. 3. Abdushukur bu yerdan tezda chiqib ketish payiga tushdi. 4. Bo'ying sal cho'zilsin, birorta duradgor usta topilsa, shogirdlikka topshiraman. 5. U aravani Nuriddin minganini ko'rib xiyla yengil tortdi. 6. Ko'p o'tmay hamma ichkariga taklif etildi. 7. Kunduzi o'ralashib yurganlardan bu yerda qittay ham qolmagan. (*Yo'ldosh Sulaymon*)

**1. Maqsad-sabab ravishlari.** Harakat-holatning bajarilish maqsadi va sababini bildiruvchi ravishlar maqsad-sabab ravishlari deyiladi. Maqsad-sabab ravishlariga **ataylab, atayin, noiloj, noilojilkdan, jo'rttaga, qasddan** kabilar kiradi. Maqsad-sabab ravishlari miqdori u qadar ko'p emas.

**Eslatma! Yaqinda, uzoqda, nari-beri** kabi ravishlar ravishning bir necha ma'no turi sifatida ishlatiladi. **Qiyoslang: Nari-beri:** *U darsni nari-beri (holat) tayyorladi – Partalarni nari-beri (o'rin) surdik. Uzoqdan:* *Uzoqdan (o'rin) bir odamning qorasi ko'rindi – Salmon ota gapni uzoqdan (payt) boshladi – Eshikni uzoq (miqdor-daraja) taqillatdi. Yaqinda:* *Yaqinda (payt) keldi – Yaqinda (o'rin) joylashgan – Sizni yaqindan (holat) bilmoqchiman.*

### Ravishlarning yasalishi

Ravishlar ham boshqa turkumlar kabi tarkibiga ko'ra tub va yasama turlarga bo'linadi. Hech qanday yasovchi qo'shimchalarsiz qo'llanadigan ravishlar **tub ravishlar** deyiladi. Masalan, *ertaga, kecha, bugun, olg'a* kabi. Asos qismga yasovchi vositalar qo'shib hosil qilingan ravishlar **yasama ravishlar** deyiladi. Masalan, *qishin-yozin, birma-bir, mardona, yangicha* kabi. Yasama ravishlar yasashga asos qismga yasovchi qo'shimcha qo'shish yordamida yoki so'zlarni bir-biriga qo'shish orqali hosil qilinadi.

Yasashga asos qism ot, sifat, olmosh, sifatdosh, ba'zan ravish bo'lishi mumkin. Quyidagi qo'shimchalar ravish yasash uchun xizmat qiladi:

- cha**: yangicha, eskicha, hozircha, o'zicha kabi;
- larcha**: mardlarcha, do'stlarcha, qardoshlarcha kabi;
- lab**: saharlab, haftalab, tonnalab kabi;
- ona**: itoatkorona, do'stona, fidokorona kabi;
- lay (-layin)**: tiriklay, tiriklayin, butunlay kabi;
- n (-ln)**: ertan-kechin, qishin-yozin, ochin-to'qin, ostin-ustin kabi;
- chasiga**: erkakchasiga, xotinchasiga kabi;
- an**: taxminan, majburan, vijdonan kabi;
- namo**: uyalgannamo kabi.

### Ravish yasovchi qo'shimchalarning shakldoshligi

-**cha**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. -**cha** qo'shimchasi *otlardagi kichraytirish-erkalash* qo'shimchasi bo'lgan -**cha** bilan omonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *yosh yigitcha - yigitcha ishladi*. Bu o'rinda -**cha** qo'shimchasining omonimligi asosida leksema omonimligi vujudga kelgan: 1. *Kichkina yigit*. 2. *Yigit kabi*.

-**cha** qo'shimchasining bu ikki vazifasi urg'u bilan ham farqlanadi. Kichraytirish-erkalash ma'nosini bildiruvchi -**cha** qo'shimchasi urg'u oladi. Ravish yasovchi -**cha** qo'shimchasi esa urg'u olmaydi. Bunday so'zlarda urg'u -**cha** qo'shimchasidan oldingi bo'g'inga tushadi.

-**cha** qo'shimchasini tushirib qoldirib, bu qo'shimchani olgan so'z oldidan kichkina so'zini qo'yish mumkin bo'lsa, -**cha** qo'shimchasi otning kichraytirish-erkalash shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan, *quti-cha – kichkina quti, uycha – kichkina uycha* kabi.

-**cha** o'rniga *-dek, kabi, singari* ko'makchilarini qo'shish mumkin bo'lsa, u ravish yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Masalan, *yigitcha – yigit kabi (singari)*.

-**lab**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Ravish yasovchi: *ertalab, haftalab, oylab*. Chama son shakli (lug'aviy): *minglab, yuzlab* kabi.

-**larcha**. So'z yasovchi va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida shakldoshlik hosil qiladi. Ravish yasovchi: *mardlarcha, qahramonlarcha*. Chama son shakli (lug'aviy): *yuzlarcha, minglarcha* kabi.

Ravishlar tub va yasama ravishlarga bo'linadi. Yasama ravishlar qo'shimchalar qo'shish, asos qismni juft va takror qo'llash yo'li bilan hosil qilinadi.

### Takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasallishi

So'zlarni takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasallishi mumkin. Bu holatda ular quyidagi turkumlardan tashkil topadi:

1. *Ot + ot* (qator-qator, tun-kun, yildan yilga, hovuch-hovuch, qadam-baqadam, uyma-uy, eson-omon).



2. *Sifat + sifat* (uzundan uzun, ochiqdan ochiq)
3. *Fe'l + fe'l* (uzil-kesil, turib-turib, qo'sha-qo'sha, qo'yarda-qo'ymay, bilinar-bilinmas).
4. *Ravish + ravish* (oldinma-keyin, nari-beri).
5. *Olmosh + olmosh* (o'z-o'zidan, o'z-o'zicha, o'zidan o'zi).
6. *Son + son* (birma-bir).
7. *Taqlid so'z + taqlid so'z* (taqa-taq, shart-shurt) va boshqalar.

**Eslatma!** Ba'zi ravishlar tarkibida **-ga, -dan** kelishik qo'shimchalari, **-i (-si)** III shaxs birlik son egalik qo'shimchasi yaxlitlanib qolgan. Bu so'zlar asos va qo'shimchalarga ajratilmaydi, bir morfema sifatida qaraladi. Masalan, *tubdan, rostdan, to'satdan, birdan, zimdan, qo'qqisdan, birdaniga, so'ngra, avvallari, kechalari, kunduzi, kechasi* kabi.

### Ravishlarning sintaktik vazifasi

Ravish gapda, asosan, hol vazifasini bajaradi.

1. Hol: *U maktabgacha yayov ketdi. Ertaga birga boramiz. U bu ishni ataylab qildi. Bu borada sal xavotirimiz bor edi. Yaqinroqda bir odamning qorasi ko'rindi.*
2. Kesim (ot kesim): *Bugun qiladigan ishlarimiz juda ko'p.*
3. Aniqlovchi (sifatlovchi): *Buning uchun ko'p kitob o'qimoq lozim. Uzoq-yaqin yerlardan juda ko'p mehmonlar tashrif buyurishgan edi.*
4. Qaratqich aniqlovchi (otlashsa): *Urush ko'plarning yostig'ini quritdi.*
5. To'ldiruvchi (otlashsa): *Bu voqea ko'plarni hayratda qoldirdi.*
6. Ega (otlashsa): *Asalning ham ozi yaxshi.*

### Ismlar

So'zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so'zlarni *otlar, fe'llar, yordamchilarga* ajratgan edilar.

Hindlarning tilshunoslik g'oyalari bilan oziqlangan arablar so'zlarni uchga: *ismlar, fe'llar, yordamchilarga* bo'ladilar.

Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu so'zlarni ana shunday uchga ajratadi. Faqat keyinchalik yunonlar ismlar ichidan *sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni* chiqaradilar.

G'arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an'anaga amal qilib mustaqil so'zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to'rtta so'z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar o'rnida almashinib keluvchi so'zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so'zlar nomi bilan birlashtiradilar.

Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda ismlar nomi bilan o'rganib kelganlar.

Bu so'z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko'plik shakllari bilan o'zgaradi. Shuning uchun mazkur shakllar faqat otlargagina emas, balki son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifatdash va taqlid so'zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so'zlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lab keladi. Bu esa egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarish xususiyatiga ega so'zlarni ismlar atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**Ismlarning egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi turlanish deyiladi.**

**Namuna:**

1. Ena buvining xayoli allaqayoqlarga borib keldi (3 ta turlangan ism). 2. Kimyoqar ba'zi ilmlar haqida suhbatlashganidan keyin uning zehniga, ma'lumotning kengligiga ta'ajublanganligini yashirmadi (9 ta turlangan ism). 3. Oradan ikki kun o'tgandan keyin kechqurun Tesha Saidiyning huirasiga keldi (3 ta turlangan ism bor). 4. Yuzimdagi yomg'ir tomchilarini yengim bilan sidi-rib, tepamga qaradim (4 ta turlangan ism).

### Ismlarning lug'aviy va munosabat shakllari

Ismlarning **ko'plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash, belgining daraja** kabi ma'nolarini bildiruvchi qo'shimchalar ismlarning lug'aviy shakllari sanaladi. Masalan, *kitoblar, uycha, kattaroq, meniki* kabi.

**Egalik, kelishik, -man, -miz, -san, -siz, -dir** qo'shimchalariga ega bo'lgan shakli ismning munosabat shakli deyiladi. Demak, ism asoslariga qo'shilib ularni boshqa so'zlarga bog'lab kelish va gap bo'laklarini shakllantirishga xizmat qilgani uchun **egalik, kelishik, -man, -san, -dir** qo'shimchalari **munosabat shakllari** deyiladi. **Munosabat shakli** sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar sirasiga kiradi.

### Ismlarning egalik shakllari

Ismlarga qo'shilib asos va qismdan ifodalangan narsa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarining uch shaxsdan biriga qarashlilikini bildiradigan shakllar **egalik shakllari** deyiladi.

Shaxs, son	Birlik	Ko'plik
<i>I shaxs</i>	<i>-m, -lm</i>	<i>-miz, -lmiz</i>
<i>II shaxs</i>	<i>-ng, -ing</i>	<i>-ng, -ingiz</i>
<i>III shaxs</i>	<i>-si, -i</i>	<i>-(lar)i</i>



**Viloyat, shahar, tuman, korxon, muassasa** nomlarida qo'llanilgan */// shaxs egalik qo'shimchasi* shaxsga qarashlilik ma'nosini emas, balki **xoslik, umumd, ajratilganlik ma'nosini** ifodalaydi. Shu bois bunday birikmalarda oldingi qism qaratqich kelishigida qo'llanmaydi. Masalan, *Boburning bog'i* emas, *Bobur bog'i*, *Orolning dengizi* emas, *Orol dengizi*.

**Namuna:** Alisher Navoiy bog'i, o'qish kitobi, Toshkent shahri, Do'stlik tumani, Jizzax viloyati, Mustaqillik bayrami.

**-l, -si** egalik qo'shimchasi bir qator so'zlarda qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan bog'lanmaydi. Bunday so'zlarda ular yaxlitlanib qolgan. O'z vazifasini yo'qotgan. **Namuna:** 1. *Kechasi uxlaydi, kunduzi ishlaydi*. 2. *Tuni bilan mijja qoqmadi*. 3. *Kechasi bilan uxlamagan*.

**Eslatma!** Agar gapdagi bu kabi so'zlar o'zidan oldin qaratqich kelishigini qabul qila olsa, ot vazifasini bajarsa, bu holatda egalik qo'shimchasi o'z vazifasini bajargan bo'ladi. Masalan, *Yozning kechasida atrof naqadar go'zal bo'ladi-ya!!!*

Agar bu so'z ravish vazifasini bajarsa, bu holatda egalik qo'shimchasi yaxlitlanib qolgan sanaladi. Masalan, *Yarim kechasi bog'dan kimningdir ovozi eshitildi*.

**Sifatdosh va harakat nomlari** tarkibidagi egalik qo'shimchalari **harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini** bildiradi. Shuning uchun qaratqich kelishigini olgan shaxs bildiruvchi so'zning qo'llanishiga ko'pincha ehtiyoj bo'lmaydi.

**Namuna:**

1. Bo'zchi bilganin to'qir, Baxshi bilganin o'qir. 2. Boqqaning ikki echki, o'shqirganing yer tebratar. 3. Mulla bilganin o'qir, Tovuq ko'rganin cho'qir. 4. Mehnat qilib topqaning – Qand-u asal totqaning. 5. Bilqaningni eldan ayama. 6. To'g'ri gap tuq'qaningga yoqmaydi. Chin do'st tuq'ishqaningdan afzal.

### Egalik qo'shimchali so'zlarning imlosi

Egalik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida 3 xil turdagi tovush o'zgarishi sodir bo'ladi.

1. **Tovush almashishi:** *terak, qishloq, bolalik, tirnoq, bilak, ko'zoynak, chelak, parrak, kiprik, oppoq, so'roq, buyruq, sog'liq, yurak, elak, kurtak, taroq, qillq* singari ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganida asos qismning oxirgi **k, q** tovushi **g** va **g'** tarzida talaffuz qilinadi hamda shunday yoziladi: *terak + i = teragi; qishloq + i = qishlog'i; bolalik + i = bolaligi* kabi.

**Nok, chok, tuk** singari bir bo'g'inli, *idrok, ishtirok, ravnaq, huquq, ittifoq, axloq* singari ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganida asos qismda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi: *noki, choki, tuki, idroki, ishtiroki, ravnaqi, huquqim, ittifoqi, axloqim* kabi.

2. **Tovush tushishi:** *qorin, o'g'il, ko'ngil, singil, og'iz, bo'g'iz, bo'yin, qo'yin, bag'ir, burun, o'rin, yarim, zahar, shahar* kabi **l, u, a** unlisi ishtirok etgan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganida **l, u, a** tushib qoladi hamda shun-

day yoziladi. Masalan, *qorin + i = qorni; singil + im = singlim; burun + l = burni; shahar + im = shahrim* kabi.

**3. Tovush ortishi:** a) *u, bu, shu, o'sha* ko'rsatish olmoshlariga egalik qo'shimchalari qo'shilganida so'z asosida *n* tovushi ortadi va bu yozuvda ham aks etadi. Masalan, *shu + im = shunim; u + ingiz = uningiz* kabi;

b) **mavqe, avzo, obro', parvo, mavzu** kabi so'zlarga I va II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganida asosda *y* tovushi ortadi va shunday yoziladi: *obro' + im = obro'yim; mavqe + ing = mavqeying* kabi.

**Eslatma!** Egalik qo'shimchalari asosga birdan ortiq ketma-ket qo'shilishi mumkin. Masalan, *singlisi, yarmisi, o'shanisi, bunisi, unisi* kabi. Asosan, III shaxs birlik sondagi egalik qo'shimchasi qo'shiladi.

### Egalik qo'shimchalarining uslubiyati

Egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik ma'nolari asosida zidlanishi ayrim vaqtlarda buziladi. Sunday paytda ko'plik shakli o'zi qo'llanayotgan narsa-hodisaning birdan ortiqligini emas, balki hurmat ma'nosini bildiradi. Masalan, *Onamiz dam olgani ketdilar*.

II shaxs egalik qo'shimchasining ko'plik shakli ko'pincha «siz»lash ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, *opang* («sen»siraganini bildiradi) – *opangiz* («siz»lashni bildiradi).

Bunday hodisa III shaxs egalik qo'shimchalarining birlik va ko'plik shakliga ham daxldordir. Masalan, *opasi* («sen»lashni bildiradi) – *opalari* («siz»lashni bildiradi).

Badiiy uslubda tilimizning bunday imkoniyatidan personajlar xarakterini ochishda ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, *Xo'jayinning itlari*. (A.Qahhor) It hurmatga sazovor emas. Lekin xo'jayiniga laganbardorlik shunday kuchliki, uning itiga ham ana shunday munosabat bildiriladi.

### Kelishik shakllari

Ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar kelishik shakllari sanaladi. Kelishik shakllari doimo tobe so'zga qo'shiladi. Masalan, *kitobni olmoq, maktabga bormoq, mendan katta* kabi.

*Kelishik shakllari ko'makchilar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Kelishiklar orqali ifodalangan grammatik ma'no aniq, ko'makchilar orqali ifodalangan grammatik ma'no mavhum* bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, yo'nalish ma'nosida aniq seziladi. Masalan, *maktabga ketdi* – *maktab tomon ketdi*.

O'zbek tilida oltita kelishik shakli mavjud.

1. **Bosh kelishik.** Ismlarning bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu shakl *kim? nima? qayer?* so'roqlarining biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha **ega, ot kesim, undalma** vazifalarida keladi. Masalan:

1. *Toshkent* – *O'zbekistonning poytaxti* (ega).



2. *Bilim manbai – kitob* (ot kesim)

3. *Toshkent, munchalar go'zalsan!* (undalma)

2. **Qaratqich kelishigi** qo'shimchasi **-ning**. Qaratqich kelishigi shaklidagi so'z – *qaratqich*. *Qaralmish* – qaratqich bog'lanib kelgan so'z. Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelantirib bog'lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning qaratqich shaklidagi ismlarga qarashli ekanini bildiradi. Masalan, *mening (qaratqich) kitobim (qaralmish)*. Qaratqich shaklini olgan so'z gapda har doim **qaratqich aniqlovchi** vazifasini bajaradi.

Qaratqich – qaralmish munosabati quyidagi 4 holatda uchraydi.

1. *Qaratqich belgisiz, qaralmish belgili: maktab bog'i.*

2. *Qaratqich belgili, qaralmish belgisiz: bizning maktab.*

3. *Qaratqich belgili, qaralmish belgili: sening xonang.*

4. *Qaratqich belgisiz, qaralmish belgisiz: o'rik danak, yong'oq mag'iz, bozor ko'cha, daftar varaq.*

Qaratqich qo'shimchasi ba'zi o'rinlarda belgili, ba'zi o'rinlarda belgisiz qo'llanadi. *Xususiylik, aniqlik* ma'nosi ifodalanganida bu kelishik belgili ishlatiladi: *uyning eshigi. Umumiylik, noaniqlik* ma'nosi esa belgisiz shakl orqali ifodalanadi: *shahar ko'chasi*.

Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganida ko'p hollarda qaratqich kelishigi tushib qoladi. Biroq qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa so'z qo'llansa, qaratqich qo'shimchasi albatta belgili qo'llanadi. Masalan, *maktab bog'i – maktabning chiroyli bog'i*.

Qaratqich kelishigi *atoqli otlar, olmoshlar, sifatdoshlar, otlashgan so'zlar*ga qo'shilganida tushib qolmaydi. Masalan, Ahmad(ning) kitobi, kelganlar(ning) barchasi, sen(ning) ukang kabi.

Qaratqich kelishigi qo'shimchasi she'riyatda **-n, -lm** shakllari orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *Yer kurrasini boshin tang'idik. O'zbekiston – Vatanim manim*.

Qaratqich kelishigi o'zidan keyingi qaralmishning egalik shaklida bo'lishini taqozo qiladi.

Nutqda **qaratqich kelishigi shakli chiqish kelishigi** shakli bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Masalan, *kelganlarning barchasi – kelganlardan barchasi*.

**Tushum kelishigi** qo'shimchasi **-ni**. Tushum kelishigi shaklini olgan so'z doimo **o'timli** fe'lga bog'lanadi, *kimni? nimani? qayerni?* so'roqlariga javob bo'lib, doimo vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Tushum kelishigi **-ni** shaklida yoziladi. She'riy til va og'zaki nutqda **-n, -di, -ti, -l** shakllarida qo'llanishi mumkin: *Har fasl o'z ishin qilar. Adl qulog'i-la eshit holimi*.

Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l yonma-yon kelganida ko'p hollarda tushum kelishigi tushib qoladi: *kitob o'qidim*. Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l orasida boshqa bir so'z ishlatilsa, tushum kelishigi shakli

tiklanadi. Masalan, *tarvuz yedim – tarvuzni to'yib yedim*. Tushum kelishigi atoqli otlar, olmoshlar, otlashgan so'z va sifatdoshlarga qo'shilganida har doim belgili qo'llanadi. Tushum kelishigi shaklining belgili, belgisiz qo'llanishi ma'noning aniq va mavhumligiga ta'sir ko'rsatadi. Tushum kelishigi shakli belgili qo'llansa, ma'no aniq: *kitobni o'qimoq* – aniq bir kitobni o'qimoq, belgisiz qo'llansa, *kitob o'qimoq* – qandaydir kitobni o'qimoq.

Ba'zan nutqda qaratqich shakli va tushum kelishigi shakllarini bir-birini o'rnida ishlatish holatlari uchraydi. Bu esa uslubiy xatoliklarni yuzaga chiqaradi. Qaratqich kelishigi egalik qo'shimchasi mavjud otga bog'lansa, tushum kelishi shakli har doim o'timli fe'lga bog'lanadi. Qiyoslang: *kitobning varag'i – kitobni o'qimoq*.

Tushum kelishigi shakli she'riyatda *-n* shakli orqali beriladi. Masalan, *Qalbiq yaraladi oxir odamzod*.

Tushum kelishigi shakli boshqa kelishik shakllari bilan sinonimik munosabatga kirishadi:

1. Tushum kelishigi – jo'nalish kelishigi: *otga minmoq – otni minmoq*.
2. Tushum kelishigi – o'rin-payt kelishigi: *bog'ni kezmoq – bog'da kezmoq*.
3. Tushum kelishigi – chiqish kelishigi: *nonni yemoq – nondan yemoq*.

**Jo'nalish kelishigi** qo'shimchasi **-ga (-ka, -qa)**. *Ichkari, tashqari* kabi so'zlardagi *-karu, -qaru* qo'shimchalari jo'nalish kelishigining arxaik varianti sanaladi.

Jo'nalish kelishigi shaklidagi so'z gapda o'rin holi, payt holi, to'ldiruvchi kabi vazifalarni bajaradi.

1. O'rin holi o'rin-joy otlariga qo'shilib *qayerga?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Kecha Chirchiqqa birga borgan edik*.

2. Payt holi payt otlariga qo'shilib *qachonga?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Yig'ilishni uchlarqa tayin qilganmiz*.

3. To'ldiruvchi shaxs va narsa otlariga qo'shilib *kimga? nimaga?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Akbarga kecha jo'natgan xatlaringni berdim*.

4. Kesim gap so'ngida kelsa. Masalan, *Bu kitoblarning barchasi – menga*.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi 3 shaklga ega qo'shimchalar sirasiga kiradi. *K* undoshi bilan tugagan so'zlarga *-ka*, *q* undoshi bilan tugagan so'zlarga *-qa* shakli qo'shiladi. Bu yozilishi tamoyili fonetik tamoyil asosida amalga oshadi. Masalan, *qishloqqa, terakka, bilakka, ishqqa* kabi. Jo'nalish kelishigi shaklining boshqa qo'llanish holatlari morfologik yozuv asosida amalga oshiriladi. Masalan, *bog'ga, ishga, bug'ga, oyga* kabi.

Jo'nalish kelishigi shakli boshqa kelishik shakllari bilan sinonimik munosabatga kirishadi:

1. Jo'nalish kelishigi – tushum kelishigi: *gapingizga tushunmadim – gapingizni tushunmadim*;



2. Jo'nalish kelishigi – chiqish kelishigi: *o'qiganiga xursandman – o'qiganidan xursandman.*

**O'rin-payt kelishigi** qo'shimchasi **-da**. O'rin-payt kelishigidagi ism gapda to'ldiruvchi, o'rin holi va payt holi kabi vazifalarni bajaradi.

1. O'rin holi o'rin-joy otlariga qo'shilib *qayerda?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan.*

2. Payt holi payt otlariga qo'shilib *qachonga?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Novdalarni bezab g'unchalar, Tongda aytdi hayot otini.*

3. To'ldiruvchi shaxs va narsa otlariga qo'shilib *kimga? nimaga?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Siz aytayotgan shoirida bu xususiyatlarning hech biri mavjud emas.*

4. Kesim gapning oxirida kelsa. Masalan, *Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir.*

O'rin-payt kelishigi shakli boshqa kelishik shakllari bilan sinonimik munosabatga kirishadi:

O'rin-payt kelishigi – tushum kelishigi: *gulzorda aylanmoq – gulzorni kezmog.*

**Chiqish kelishigi** qo'shimchasi **-dan**. Chiqish kelishigidagi ism gapda to'ldiruvchi, o'rin holi va payt holi kabi vazifalarini bajaradi.

1. O'rin holi o'rin-joy otlariga qo'shilib *qayerdan?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Dalalarda, ko'chalarda, uylardagi ariqlarda sharqirab soy oqadi.*

2. Payt holi payt otlariga qo'shilib *qachondan?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Kunlardan bir kuni Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi.*

3. To'ldiruvchi shaxs va narsa otlariga qo'shilib *kimdan? nimadan?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befara odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirishmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishlari tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi.*

4. Sabab holi ba'zan ayrim otlar, sifat-doshlar va boshqa so'zlarga qo'shilib *nima sababdan?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan, *Tipratikanni tutsangiz, tikkanini hurpaytirib olganidan unga qo'l tekkizib bo'lmaydi.*

Chiqish kelishigi shakli tushum kelishigi shakli o'rnida ishlatilishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor. *Tushum* kelishigidagi so'z *butunni*, *chiqish* kelishigidagi so'z *qismni* bildiradi: *uzumni yemoq (aniq uzum, hammasini) – uzumdan yemoq (aniq uzum, qismini), nonni yemoq (aniq non, hammasini) – nondan yemoq (aniq non, qismini), suvni ichmoq (aniq suv, hammasini) – suvdan ichmoq (aniq suv, qismini).*

## Kellishik shakllarining imlosi

Qaratqich, tushum kelishigi shakllari kishilik olmoshlari: *men, sen* olmoshlariga qo'shilganida bitta *n* tovushi tushib qoladi. Masalan, *men + ni = meni, sen + ning = sening* kabi.

Jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shakllari ko'rsatish olmoshlari: *shu, o'sha, bu* kabi olmoshlarga qo'shilsa, bitta *n* tovushi ortadi. Masalan, *shunga, o'shandan, bunga, bunda* kabi.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi 3 shaklga ega qo'shimchalar sirasiga kiradi. *K* undoshi bilan tugagan so'zlarga *-ka, q* undoshi bilan tugagan so'zlarga *-qa* shakli qo'shiladi. Masalan, *qishloqqa, terakka, bilakka, ishqqa* kabi. Bu holat fonetik yozuv tamoyiliga asoslanadi.

## Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar

Kesim ega bilan shaxs-sonda moslashadi. Ism orqali ifodalangan kesimlar shaxs-sonni bildiruvchi maxsus *-man, -mlz, -san, -slz, -dlr* qo'shimchalari, shuningdek, *bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq; ekan, emish, emas* so'zlari vositasida ega bilan moslashadi. Ot kesimlarni ega bilan moslashtiruvchi bunday vositalar *bog'lamalar* hisoblanadi. Bog'lamalar orqali zamon, shaxs-son, mayl kabi ma'nolar ot kesimga qo'shiladi. Masalan, *Men o'quvchiman. -man* bog'lamasi orqali ega bilan ot kesim moslashib I shaxs, hozirgi zamon, bo'lishlilik ma'nolari ifodalangan.

Harakat nomi bilan ifodalangan kesim tarkibida kerak, darkor, shart, lozim so'zlari bo'lganida kesimni ega bilan moslashtiruvchi shaxs-son (egalik) qo'shimchasi harakat nomiga qo'shiladi.

### Namuna:

1. Men o'qishim kerak. 2. Sen o'qishing kerak. 3. U o'qishi kerak.

*Bo'lmoq* bog'lamasi hozirgi zamon va kelasi zamonda ishlatilishi mumkin. Masalan: 1. Men shifokor bo'laman (hozir). 2. Men shifokor bo'laman (kelajakda).

Agar *bo'lmoq* so'zi bog'lama vazifasida kelsa, unda *bo'lmoq* so'zi o'rnida boshqa bog'lamani almashtirib qo'llash mumkin. 1. *Men shifokor bo'laman (hozir) – Men shifokorman.* 2. *Men shifokor bo'laman (kelajakda) – Men shifokor(man)* deb bo'lmaydi. Demak, birinchi gapda *bo'lmoq* fe'li bog'lama vazifasini bajargan.

*Hisoblanmoq, bo'lmoq, sanalmoq* kabi bog'lama vazifasidagi so'zlar o'z ma'nosida ishlatilsa, ular bog'lama emas, mustaqil fe'l hisoblanadi. Masalan, *Men bilan hisoblashishingga to'g'ri keladi. Sanalayotgan so'zlarning barchasi ot so'z turkumiga oid. Yig'ilgan narsalarni ikki bo'laman.*

*Edi, ekan, emish, emas* kabi so'zlar to'liqsiz fe'llar sanaladi. Agar bu fe'llar ot kesim bilan birga qo'llansa bog'lama, fe'l kesim bilan birga qo'llansa to'liqsiz fe'l vazifasini bajaradi. Masalan, *Men o'quvchi edim – bog'lama. Men kelgan edim – to'liqsiz fe'l.*



## Yordamchi so'zlar

Atash ma'nosiga ega bo'lmagan, ma'lum so'roqlarga javob bo'lmaydigan va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelmaydigan so'zlar yordamchi so'zlardir. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifasini bajaradi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklama kiradi.

### Ko'makchi

Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi *bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin* kabi so'zlar ko'makchi hisoblanadi. Demak, ko'makchilar so'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so'zlar ko'makchilar deyiladi.

Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra ko'makchilar sof (asl) va vazifadosh ko'makchilarga bo'linadi.

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin. Masalan, *Bolalar bog'chasiga hadya qildim. Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Dalaga ketdi – dala tomon ketdi.*

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylik bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosi, ikkinchi gapda sabab ma'nosi, uchinchisida yo'nalish ma'nosi mavjud. Ana shu umumiy ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyroq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa, bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: *Samarqandga ketdi – Samarqand tomon(ga) ketdi.*

### Sof ko'makchilar

Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelashtirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar **sof ko'makchi** deyiladi. *Bilan, sari, sayin, uchun, kabi, qadar, singari, uzra, tufayli, haqida, birga, holda* kabi ko'makchilar sof ko'makchilardir.

### Namuna:

1. Barchasidan qovun soz, Paykal uzra dumalar. (R.Isoqov) 2. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamgina bo'lib qolmay, buyuklikning ayni o'zidir. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur» kitobidan) 3. Abdulla Oripovga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi. («Vatan adabiyoti») 4. U hamma qishloq bolalari kabi yoshlikdan mehnatga kirishgan bo'lsa-da, ammo o'yinga ham vaqt topar edi. (Oybek) 5. Shunday qilib, ish borgan sari katta bo'lar va ish katta bo'lgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi og'irlashar edi. (A.Qahhor)

Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuvda ko'makchi doimo ajratib yoziladi. Masalan, *osmon uzra* birikmasida *uzra* so'zi sof ko'makchi bo'lgani uchun urg'u olmaydi, bunda urg'u osmon so'zining oxirgi bo'g'iniga tushadi.

Ba'zan *bilan*, *uchun* ko'makchilari badiiy uslubda *-la*, *-chun* shaklida qo'llanadi va chiziqcha bilan yoziladi. Masalan, *Qalam-la men to'qiyman qo'shiq*, *U – insonga, elga xizmatim*. (Zulfiya) *Bu ishlarni sen-chun* qildik.

### Vazifadosh ko'makchilar

Leksik ma'nosini saqlagan holda gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaruvchi so'zlar vazifadosh ko'makchilar sanaladi. *Ost*, *yon*, *ust*, *orqa*, *ro'para*, *oldin*, *avval*, *keyin*, *so'ng*, *tomon*, *qosh*, *bo'ylab*, *qarab*, *ko'ra*, *deya*, *deb*, *atab* singari so'zlar vazifadosh ko'makchilar sirasiga kiradi. *Ustida* (ish ustida), *ostida* (ozodlik bayrog'i ostida), *oldida* (vijdoni oldida), *orasida*, *orasiga* (xalq orasiga), *boshida* (yo'l boshida), *qarab* (Toshkentga qarab yurmoq), *bo'ylab* (daryo bo'ylab) ko'makchilarini misol keltirish mumkin. Bunday so'zlar ko'makchi vazifasida kelganida atash ma'nosini yo'qotadi, shuning uchun ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydi. O'zi qo'shilgan so'z bilan bitta so'roqqa javob bo'ladi. O'zi qo'shilayotgan so'z bilan bir xil gap bo'lagi bo'lib keladi. Agar so'roqqa javob bo'lsa, mustaqil so'z vazifasini bajaradi.

### Namuna:

1. Avval (*ravish*) o'yla, keyin (*ravish*) so'yla. 2. Bu kitob qo'lga tushganidan keyin (*ko'makchi*) bosh ko'tarmay mutolaaga tushdi. 3. Siz bilan ham-suhbat bo'lmasdan avval (*ko'makchi*) boshqacha xayolda edim. 4. Devor usti (*ot*) yomg'irdan iviy boshladi. 5. Kitob ustida (*ko'makchi*) uzoq ishladi. 6. Mirzo Ulug'bek kechalari shu yerda o'tirib mutolaa qilishni suyar, suyuqlik jadvali ustida (*ko'makchi*) ham shu yerda ishlar edi. 7. Oradan ancha vaqt o'tganidan so'ng (*ko'makchi*) Shiroq o'tovdan chiqdi. 8. Gap futbol ustida (*ko'makchi*) ketardi. 9. Qoziq ustida (*ot*) qor turmas. 10. Orqadan (*ravish*) chuqur soy oqardi. 10. Muxbirimiz telefon orqali (*ko'makchi*) xabar berdi.



## Ko'makchilarning ma'no turlari

Ko'makchilar yetakchi so'zga bog'lanib unga turli qo'shimcha ma'no yuklaydi. Masalan, *sababli, tufayli, uchun* maqsad ma'nosini; *tomon, qarab, sari, bo'ylab* yo'nalish ma'nosini; *haqida, to'g'risida* ko'makchilari fikr mavzusi ma'nosini; *kabi, singari* ko'makchilari o'xshatish, qiyoslash ma'nosini; *qadar* ko'makchisi chegara ma'nosini ifodalaydi.

### Ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligi

**-dek** qo'shimchasi narsa-hodisa, belgi-xususiyatga o'xshatishni ifodalaydi va shu ma'noda *kabi, singari, yanglig'* ko'makchilari bilan ma'nodoshlikni hosil qiladi. Masalan, *Oy... (-dek, -day, kabi, singari, yanglig')* ravshan.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi yo'nalish ma'nosida *tomon, bo'ylab* ko'makchilari bilan ma'nodosh. *Dala... (-ga, tomon, bo'ylab) ketmoq.*

### Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari

**Bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, chog'li, bo'ylab** kabi ko'makchilar **bosh kelishik** shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Masalan, *daftar bilan, men kabi, ukam singari, sen uchun, borgan sari, ulg'aygan sayin, sohil bo'ylab.*

**Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq** kabi ko'makchilar **jo'nalish kelishigi** shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Masalan, shunga *ko'ra*, shunga *qaramay*, ishiga *yarasha*, buyruqqa *asosan*, muammoga *doir.*

**Tomon** ko'makchisi **bosh va jo'nalish** kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Masalan, maktab *tomon*, maktabga *tomon.*

**Keyin, bo'lak, boshqa, o'zga, tashqari, buyon, oldin, boshlab, avval** kabi ko'makchilar **chiqish kelishigi** shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Masalan, shundan *so'ng*, shu ishdan *keyin*, undan *bo'lak*, sendan *o'zga*, kechadan *boshlab*, ishdan *tashqari.*

**Old, ost, ust, tagida, qoshida** kabi ko'makchilar **qaratqich kelishigi** shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Bunday hollarda ba'zan kelishik qo'shimchasi qo'llanmasligi ham mumkin. Masalan, *mening oldimda.*

#### Namuna:

1. Kozimbek mashinani yo'lga chiqarib, qishloq tomon yurdi. (*A.Qahhor*) 2. Qish o'tib, bahor kelishi bilan Qorabog'da o'tkaziladigan qurultoyda Boyazidning ustiga yurishga qaror qilindi. (*Xurshid Davron*) 3. Yomonlikdan chiqqan aks sado har qadam sayin zaiflasha boradi, bora-bora o'chib yo'q bo'ladi. (*Sh.Rashidov*) 4. Kecha Jannat xola o'g'lining oldiga borganida soqoli o'sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofaga kirib qolganini ko'rgan edi. (*Said Ahmad*) 5. Markaziy xirurgiya klinikasining bosh vrachi Mirsidiq Jalilov bir haftadan beri Namanganda dam olardi. (*O'.Umarbekov*) 6. Bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra sizning oldingizdan o'tib, ra'yingizni

bilishga to'g'ri keldi. (*Oybek*) 7. Yomonlarning qoshida yalinish yaxshilar ishi emas. 8. Insonning fe'l-atvoriga qarab unga baho berishadi. 9. To'ydan keyin nog'ora chalmoq – nodonlar ishi. 10. Bitmas-tuganmas bilimning tagida mashaqqatli mehnat yotadi. 11. Donolar oldida doim eshituvchi bo'l.

### Bog'lovchilar

Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlar bog'lovchilar deyiladi.

Bog'lovchilar sof va vazifadosh bog'lovchilarga bo'linadi. Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar **sof bog'lovchilar** sanaladi: *va, lekin, ammo, biroq* kabi. Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi yordamchilar **vazifadosh bog'lovchi** sanaladi. Masalan, *bilan* ham ko'makchi, ham bog'lovchi; *-u, -yu, -da* yuklama-bog'lovchilar; *balki* modal so'z va vazifadosh bog'lovchi vazifasini bajaradi.

*Bilan* ko'makchisi ba'zan uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganida bog'lovchi vazifasini bajaradi: *qalam bilan daftar oldim*. O'zaro tobe bog'lanuvchi so'zlarni bog'lab kelganida ko'makchi vazifasini bajaradi: *qalam bilan yozdim*.

Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra **teng va ergashtiruvchi** bog'lovchilarga bo'linadi.

### Teng bog'lovchilar

Uyushiq bo'laklar va gaplarni o'zaro bog'lab keluvchi bog'lovchilar teng bog'lovchilar sanaladi. Teng bog'lovchilar uyushiq bo'lak va gaplarni bog'lash bilan birga ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro'yobga chiqaradi. Shunga ko'ra teng bog'lovchilar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari: *va, hamda, bilan, ham..., ham, -u, -yu, -da*.
2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq, balki, -u, -yu, -da*.
3. Ayiruv bog'lovchilari: *goh..., goh, dam..., dam, ba'zan..., ba'zan, bir..., bir, yo..., yo, yoki, xoh..., xoh*.
4. Inkor bog'lovchisi: *na..., na*.

### Biriktiruv bog'lovchilari

*Va, hamda, bilan, ham..., ham, -u, -yu, -da* bog'lovchilari biriktiruv bog'lovchilari sanaladi. **Biriktiruv bog'lovchilari** uyushiq bo'laklarni va uyushiq gaplarni o'zaro biriktirib keluvchi bog'lovchilar sanaladi. Biriktiruv bog'lovchilariga **va, hamda** sof bog'lovchilari, **bilan** ko'makchi bog'lovchisi, **-u (-yu), -da, ham** yuklama bog'lovchilari mansubdir. Bulardan **ham** bog'lovchi vazifasida takror holda qo'llaniladi. Masalan, *Jo'shadi buloqning kumush yoshlari, ham mungli, ham shirin jildirashlari*.



Ba'zan ham bog'lovchisi yakka qo'llanish ham mumkin. Masalan, *Men ham sen buni bilishimiz kerak edi.*

*-u (-yu), -da* o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi, lekin uyushiq bo'laklar o'rtasiga vergul qo'yilmaydi.

*Bilan* bog'lovchisi sof ko'makchi bo'lib, uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganida bog'lovchi vazifasini bajaradi. Bunday holatda *bilan* bog'lovchisi o'rnida va bog'lovchisini almashtirib qo'llash mumkin. Masalan, *Xatni qalam bilan (va bog'lovchisini almashtirib bo'lmaydi) yozdim. Endi buva bilan (va bog'lovchisini almashtirish mumkin) nevara teng odamday gaplashishadi.*

Biriktiruv bog'lovchilari bo'laklarni bog'lash bilan birga payt va sabab-natija munosabatidagi bog'langan qo'shma gaplarni bog'laydi (*Bog'langan qo'shma gap mavzusiga qarang*).

#### **Namuna:**

1. Millat tushunchasi hamisha Vatan bilan (*ko'makchi*) yonma-yondir, misoli jism-u jondir. (B.Qosimov) 2. Endi buva bilan (*bog'lovchi*) nevara teng odamday gaplashishadi. (O'.Umarbekov) 3. Odam odam bilan (*ko'makchi*) tirik. (A.Qahhor) 4. Yer bilan (*bog'lovchi*) suv egizak, bir-biriz yashay olmaydi. (Gazetadan) 5. Eshon bilan (*bog'lovchi*) Kifoyatxon qulay bir joyni topib bularni kuzatishardi. (A.Qahhor) 6. Anavilarning fojiasi shuki, ular baxt bilan (*bog'lovchi*) baxtsizlikni farqlay olmaydi. (Nazar Eshonqul) 7. Jiyda esa bahor paytlari butun shaharni o'zining hidi bilan (*ko'makchi*) to'ldirardi. (Nazar Eshonqul) 8. Mehmonlarga non bilan (*ko'makchi*) yuz tutdilar. («Gulxan»dan) 9. Pirimqul Qodirov bilan (*bog'lovchi*) Odil Yoqubov xonaga kirib keldilar. (E.Vohidov) 10. Ustod bilan (*bog'lovchi*) shogird ko'rishib bo'lguncha olisroqda iymanib turgan Qalandar bilan (*bog'lovchi*) Muhammad Xisrav ham yaqinroq kelib, salom berishdi. (O.Yoqubov)

### **Zidlov bog'lovchilari**

O'zaro zidlik munosabatida bo'luvchi uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bir-biriga bog'lab keluvchi bog'lovchilar zidlov bog'lovchilari deyiladi. *Ammo, lekin, biroq, balki, -u, -yu, -da* bog'lovchilari zidlov bog'lovchilari sirasiga kiradi. Zidlov bog'lovchilaridan oldin vergul qo'yiladi. Zidlov bog'lovchilaridan *ammo, lekin, biroq* – sof bog'lovchi. *Balki* so'zi va *-u, -yu, -da* yuklamalari ko'pincha zidlov bog'lovchisi vazifasida qo'llaniladi va bunday hollarda vazifadosh bog'lovchi hisoblanadi. *Balki* so'zi modal so'z vazifasini bajaradi. *Balki* so'zi modal so'z vazifasini bajarganida gumon ma'nosini bildiradi. Modal so'z vazifasini bajargan holatda gapning boshida undan keyin, gap o'rtasida ikki tomondan, oxirida uning oldidan vergul qo'yiladi. Agar zidlov bog'lovchi vazifasini bajarsa, ikki gap o'rtasida joylashadi, boshqa zidlov bog'lovchilari kabi o'zidan oldin vergul bilan ajratiladi.

**Taqqoslang:** 1. Bo'rondan so'ng Olimjonning brigadasidagi ishlar ozaymadi, balki (*bog'lovchi*) yana ko'paydi. (Sh.Rashidov) 2. Xalqni qo'rqitgan emas, balki (*bog'lovchi*) xalq dardiga sherik bo'lgan odam marddir. 3. Sobir nafaqat o'qishda, balki (*bog'lovchi*) sportda ham eng faol o'quvchi. (M.Qosimova) 4. Balki, (*modal so'z*) ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir. (O'.Hoshimov) 5. Inson go'zalligi bilan emas, balki (*bog'lovchi*) mehnati bilan kamol topadi. (M.Qosimova)

-u (-yu), -da yuklamalari zidlov bog'lovchilari vazifasini ham bajaradi va vazifadosh bog'lovchi sanaladi. Bunday holatlarda yuklama-bog'lovchi o'rni-da sof zidlov bog'lovchilaridan birini almashtirish mumkin. Masalan, *Men gapiryapman-u, (ammo) xayoling boshqa joyda.*

Zidlov bog'lovchilari nafaqat gaplarni, balki bo'laklarni ham bog'laydi. Masalan, *Sobir nafaqat o'qishda, balki sportda ham eng faol o'quvchi.*

### Ayiruv bog'lovchilari

O'zaro bog'lanayotgan bo'lak yoki gaplardan birini boshqasidan ayirib ko'rsatuvchi bog'lovchilar **ayiruv bog'lovchilari** sanaladi. *Yo..., yo, yoxud..., yoxud, goh..., goh, dam..., dam, bir..., bir, ba'zan..., ba'zan, xoh..., xoh* bog'lovchilari ayiruv bog'lovchilari sanaladi. *Yo..., yo, yoxud..., yoxud, goh..., goh, dam..., dam, xoh..., xoh* kabi bog'lovchilar sof bog'lovchilar sanaladi. Shulardan *bir..., bir, ba'zan..., ba'zan* bog'lovchilari vazifadosh bog'lovchilardir. Vazifadosh bog'lovchilar takror qo'llanganidagina bog'lovchi vazifasini bajaradi. Masalan, *Bir mening, bir uning yuziga qarardi. Ba'zan yomg'ir yog'adi, ba'zan quyosh chiqadi.*

*Ba'zan, bir* so'zlari yakka holda qo'llansa mustaqil so'z turkumi (*ba'zan - ravish, bir - son*) vazifasini bajaradi. Ayiruv bog'lovchilarida takror qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchisi oldidan yozuvda vergul qo'yiladi. Masalan, *Yo bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg'or ishini.*

*Yo va yoki* ayiruv bog'lovchilari yakka holda ham qo'llanishi mumkin. Yakka holda qo'llanganida tinish belgisi ishlatilmaydi. Masalan, *Suzmoqdami yo chaqmoqda, Suv tagidan ne topmoqda?*

Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalangan voqea-hodisaning galma-gal ro'y berishini yoki ulardan faqat bittasi yuzaga chiqishini ta'kidlaydi (*Bog'langan qo'shma gaplar mavzusiga qarang*).

### Inkor bog'lovchisi

Uyushiq bo'lak va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi *na..., na* yordamchisi inkor bog'lovchisi sanaladi. Bunda gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi. Ana shu xususiyatiga ko'ra inkor yuklamalaridan farq qiladi. Inkor yuklamalari qatnashgan gaplarning kesimi inkor shaklida bo'ladi. Masalan, *Na qo'shiq, na kulgi, na churq etgan ovoz eshitiladi (bog'lovchi).*



To'rt mucham sog', do'stlarim bor havas qilgulik, Nolimayman na kelajak, na o'tmishimdan (*yuklama*).

Na..., na inkor bog'lovchisi gaplarni, bo'laklarni bog'laydi. Masalan, Na kampirning, na Qoratoyning yupatishlari kor qildi (*bo'lak – qaratqich aniqlovchi*). Na sen nazar qilding holimga bir bor, Na men ayta oldim senga biror so'z (*sodda gaplarni bog'lagan*).

### Ergashtiruv bog'lovchilari

O'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar ergashtiruv bog'lovchilari deyiladi.

Ergashtiruv bog'lovchilarining turlari	Vazifasi	Misollar
<i>Aniqlov bog'lovchisi</i>	<i>Gap bo'laklari va gaplarni tobelantirib bog'laydi.</i>	<i>Ya'ni</i>
<i>Sabab bog'lovchisi</i>	<i>Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi sabab ma'nolarini ifodalaydi.</i>	<i>Chunki, negaki</i>
<i>Shart bog'lovchilari</i>	<i>Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi shart ma'nolarini ifodalaydi.</i>	<i>Agar, agarda, basharti, garchi, mabodo</i>
<i>Maqsad bog'lovchisi</i>	<i>Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi maqsad ma'nolarini ifodalaydi.</i>	<i>Toki</i>
<i>Qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari</i>	<i>Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi qiyoslash va o'xshatish ma'nolarini ifodalaydi.</i>	<i>Go'yo, go'yoki, xuddi</i>

### Sabab bog'lovchilari

Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi sabab ma'nosini ifodalaydi. **Chunki, negaki** bog'lovchilari sabab bog'lovchilari hisoblanadi. Yozuvda bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi.

**Namuna:** 1. Qo'rqqoq do'st dushmandan xavflidir, chunki dushmandan ehtiyot bo'lasan, ammo do'stga ishonasan. (L.Tolstoy) 2. Xalq bunday yoliborishlarga quloq solmadi, chunki g'isht qolipdan ko'chgan edi. (A.Qodiriy)

### Aniqlov bog'lovchisi

Gap bo'laklarini va gaplarni tobelantirib bog'laydi. Aniqlov bog'lovchisi – **ya'ni**. Gap bo'laklarni izohlab, aniqlab keladi. Yozuvda ya'ni bog'lovchisidan oldin doimo vergul qo'yiladi.

### **Namuna:**

1. U ilonni aldagani uchun, ya'ni unga dunyodagi eng tansiq taom ilon-niki emas, qurbaqaning go'shti ekanligini aytgani uchun ta'qibga uchragan emish. 2. Bu holda mazkur so'zlar adabiy ilmlarni, ya'ni til va adabiyot bilan bog'liq ilmlarni anglatadi. 3. Til o'z vazifasini bajarmasa, qo'l ishga tushadi, ya'ni insoniy munosabat o'rnini hayvoniy xatti-harakat oladi. 4. O'sha davrlarda adabiyot tarixi darsi xronologik va tematik xarakterga ega emas edi, ya'ni adabiyot tarixi dars sifatida o'tilmasdi.

### **Maqsad bog'lovchisi**

Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi maqsad ma'nosini ifodalaydi. Maqsad bog'lovchisi – **toki**. Yozuvda bu bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

**Namuna:** 1. Sen shunday yashaginki, toki boshqalar seni ko'rib havas qilsinlar. 2. Bu masalani sinfda muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin.

### **Shart bog'lovchilari**

Gap bo'laklari va gaplarni tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi shart ma'nosini ifodalaydi. *Agar, agarda, basharti, garchi, mabodo* kabi bog'lovchilar shart bog'lovchilari sanaladi.

**Namuna:** 1. Agar yo'ldan ozib, bir xato qilsam, Kibr paydo qilsam, topilur davo. 2. *Shundaylar bo'lmasa* agar dunyoda, bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.

### **Qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi**

Gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi, ular o'rtasidagi qiyoslash, o'xshatish ma'nolarini ifodalaydi. *Go'yoki, go'yo, xuddi* qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari sanaladi. Yozuvda bu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi.

Qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari ergash gapning boshida keladi. Masalan, *Uy jimjit*, **go'yo** *butun olam uyquga ketgan*.

### **Bog'lovchilarning uslubiyati**

Bog'lovchilar bir guruhga mansub bo'lsa ham, bir-biridan uslubiy xoslanishga egaligi bilan farqlanadi.

Biriktiruv bog'lovchisi sifatida oddiy so'zlashuv uslubida ko'proq **bilan** (minan) ko'makchisi ishlatiladi. *Va, ham, hamda* yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan.



Zidlov bog'lovchisi sifatida so'zlashuv uslubi uchun *ammo*, *lekin* bog'lovchilarining birikkan holda *ammo-lekin* (ammolek) shakli ko'proq ishlatiladi. Lekin bog'lovchisining *lek*, *vale* (valekin) shakllari ham badiiy uslubga xoslangan.

Ayiruv bog'lovchilaridan *yoxud*, *yoinki* yozma nutq uslubidagina (publististik, badiiy uslub) qo'llaniladi.

Aniqlov bog'lovchilari faqat yozma nutq uslubida qo'llaniladi. Sabab bog'lovchilaridan *chunki*, *shu sabab*, *shu tufayli* ko'proq yozma nutq uslubiga xos.

Shart bog'lovchilaridan *garchi* yozma nutq uslubi uchun xoslangan. Chog'ishtiruv bog'lovchilaridan *xuddi* uslubiy betaraf, *go'yo* yozma nutq uchun xoslangan.

### Yuklamalar

So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalar yuklamalar deyiladi.

Yuklamalar ikkiga bo'linadi:

1. So'z yuklamalar: *axir*, *hatto*, *faqat*, *ham*, *xuddi*, *go'yo*, *go'yoki*, *naq*, *hech*, *sira*, *nahotki*, *na...*, *na*.

2. Qo'shimcha yuklamalar: *-mi*, *-chi*, *-gina* (*-kina*, *-qina*), *-dir*, *-u*, *-yu*, *-da*, *-a*.

Qo'shimcha holiday yuklamalar so'zga qo'shib yozilishi yoki chiziqcha bilan ajratilishi mumkin.

1) *-mi*, *-oq* (*-yoq*), *-dir*, *-gina* (*-kina*, *-qina*) yuklamalari so'zga qo'shib yoziladi;

2) *-ku*, *-da*, *-u* (*-yu*), *-a* (*-ya*), *-chi* yuklamalari so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Yuklamalarning ma'no turlari	Yuklamalar
<i>so'roq-taajjub yuklamalari</i>	<i>-mi</i> , <i>-chi</i> , <i>-a</i> ( <i>-ya</i> )
<i>kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari</i>	<i>hatto</i> , <i>-ku</i> , <i>ham</i> , <i>nahotki</i> , <i>-u</i> , <i>-yu</i> , <i>-da</i> , <i>-oq</i> ( <i>-yoq</i> ), <i>axir</i> , <i>g'irt</i>
<i>ayiruv-chegaralov yuklamalari</i>	<i>-gina</i> ( <i>-kina</i> , <i>-qina</i> ), <i>faqat</i> , <i>atigi</i> , <i>xolos</i>
<i>o'xshatish-qiyoslash yuklamalari</i>	<i>go'yo</i> , <i>go'yoki</i> , <i>xuddi</i> , <i>naq</i>
<i>gumon yuklamalari</i>	<i>-dir</i>
<i>inkor yuklamalari</i>	<i>na...</i> , <i>na</i> , <i>hech</i> , <i>sira</i> , <i>aslo</i>

Yuklamalar ham *xuddi* ko'makchi, bog'lovchilar singari *sof* va *vazifadosh* yuklamalarga bo'linadi. Ular haqida yuklamaning ma'no turlari haqida to'xtalganda ma'lumot beramiz.

## Yuklamalarning ma'no turlari

**So'roq-taajjub yuklamalari:** *-mi, -chi, -a (-ya)*. Gap mazmuniga so'roq-taajjub ma'nosini yuklovchi yordamchi so'zlar so'roq-taajjub yuklamalari deyiladi. *-mi* so'zga qo'shib, qolganlari chiziqcha bilan yoziladi.

**Namuna:**

1. Siz shu maktabda o'qiysizmi? 2. Ba'zan ko'cha-ko'yda ham bir narsalarni topib oladi-ya. 3. Ha. Siz-chi?

**Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari** – gapning ma'lum bir bo'lagi yoki butun gap ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab keluvchi yuklamalar.

*Hatto, ham, nahotki, axir, g'irt* singari so'z, *-ku, -u (-yu), -da, -oq (-yoq)* qo'shimchalari kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridir.

*-u, -yu, -da, ham* kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari vazifadosh yuklama sanaladi. *-u, -yu, -da* yuklamalari bog'lovchi vazifasida ham keladi. *Ham* yuklamasi takror qo'llansa biriktiruv bog'lovchisi sifatida so'z yoki gaplarni bir-biriga bog'laydi. Yakka qo'llansa, o'rniga *-da* kuchaytiruv-ta'kid yuklamasini qo'yish orqali bog'lovchi yoki yuklama ekanligini farqlash mumkin. Taqqoslang:

**Namuna:**

1. Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-**da!** **Nahot, axir**, so'ngi dam **ham** Farzandingni o'ylasang. O'shanda dadam **ham** frontda edilar. 2. Shundoq deydi-**yu**, egasi ming poylasin, o'g'ri – bir. 3. Necha marta uchrashay dedim-**ku**. 4. Yurtimiz yaqin kunlarda bundan-**da** go'zalroq, bundan-**da** farovonroq bo'lishiga ishonaman. 5. Ajralishar ular, **hattoki**, ismlarin so'rashmaslar **ham**. 6. Hoy, ehtiyot bo'l, bola!

**Ayiruv-chegaralov yuklamalari** – o'zi qo'shilayotgan so'zning ma'nosini ayirib-chegaralab keluvchi yuklamalar. **Faqat, -gina (-kina, -qina), atligi, xolos** kabi yuklamalar ayiruv-chegaralov yuklamalari sanaladi. Bulardan *faqat* sof yuklama, *-gina (-kina, -qina)* vazifadosh yuklama. *-gina* otlarning erkalash-kichraytirish qo'shimchasi vazifasini ham bajaradi. Taqqoslang: *onagina* (*erkalash-kichraytirish*) – *onamgina* (*yuklama*).

**Namuna:** 1. Faqat daraxtlar, ariqlar, ko'priklargina tanish. (A.Muxtor) 2. Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin. 3. Ulardan faqat birga oldirilgan suratgina yodgor qoladi, xolos.

**O'xshatish-qiyoslash yuklamalari** – so'z yoki gapga o'xshatish-qiyoslash ma'nosini yuklovchi *go'yo, go'yoki, xuddi, naq* kabi yuklamalar.

**Namuna:**

1. Otasining xuddi o'zi. (*Oybek*) 2. Go'yo sharpa o'tganday bo'ldi. (*H.Olimjon*) 3. U so'zlar, tirilib kelarlar go'yo Birga qonli jangga kirgan o'rtoqlar. (*E.Vohidov*) 4. Baland cho'qqilarni, adirlarni, daraxtlarni bosib qolgan qor bu yerda shunday iliq va mayin ko'rinadiki, go'yo tog'ga qor tushgan emas, mayin oq kigiz yopilgan. (*O.Yoqubov*) 5. Tog'laring tegrangda go'yo Bo'g'ma



ajdar bo'ldi-yu, Ikki daryo – ikki chashming, Chashmi giryon, o'zbekim.  
(E.Vohidov)

**Gumon yuklamasi** *-dir*. Gap mazmuniga gumon ma'nosini yuklaydi. Bu yuklama *-man*, *-san* qo'shimchalari qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo'shimchasi *-dir* bilan shakldoshdir. Mazkur yuklama urg'u olmaydi.

Solishtiring: *Suv hayot manbaidir* (bog'lama) – «*O'lsa o'lgandir, bunga nima janjal!*» – *deb qo'ydi tag'in birov* (yuklama).

**Inkor yuklamasi** – gap mazmuniga inkor ma'nosini uqtiruvchi *hech*, *sira*, *aslo na...*, *na* kabi so'zlar. *Na...*, *na* yuklamasi vazifadosh bo'lib, bog'lovchi vazifasini ham bajaradi. *Na...*, *na* bog'lovchi bo'lsa, kesimi tasdiq shaklida bo'ladi. Agar yuklama vazifasini bajarsa, kesimi inkor shaklida bo'ladi.

Taqqoslang: *Ko'nglimni tutolmas na ov, na o'yin, Nimadir izlardim, bilmayman o'zim* (yuklama); *Na g'olib, na mag'lub bir so'z dey oldi* (bog'lovchi).

**Namuna:** 1. Yurmasman hech behishtni izlab, Topolmasam chekmasman alam. (A.Oripov) 2. Hayratga tushmasman bu holdan sira. Dunyo bu – quvg'indi ohuday yelar. (A.Oripov) 3. Hayosizda or bo'lmas, aslo vafodor bo'lmas. (Qo'shiqdan)

### Sof va vazifadosh yuklamalar

**Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari** *-u* (*-yu*), *-da*, *ham* bog'lovchi vazifasini bajaradi. *-u*, *-yu*, *-da* yuklama-bog'lovchilari biriktiruv bog'lovchisi vazifasida kelganida *va* bog'lovchisini, zidlov bog'lovchisi vazifasida kelganida *ammo* (*lekin*, *biroq*) bog'lovchilari o'rniga qo'yish orqali ularning vazifalarini aniqlash mumkin. **Taqqoslang:** *Bahor keldi-yu* (*va*) *daraxtlar gulladi. Umrlar o'tar-u*, (*lekin*) *kitoblar yashar*.

*-da* yordamchisi yuklama vazifasida kelganida ko'pincha uning o'rniga ham yuklamasini qo'yish mumkin: *Choy qaynatib ichishni-da* (*ham*) *unutdi*.

*Na...*, *na* inkor yuklamasi inkor bog'lovchisi vazifasida keladi. Bunda ular kesimi tasdiq (*bog'lovchi*) yoki inkor (*yuklama*) bo'lishiga ko'ra farqlanadi.

*-dir* gumon yuklamasi bog'lama *-dir* bilan vazifadoshlik hosil qiladi.

### Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari

Yuklamalardan *-ku*, *na...*, *na* yuklamalari yozma nutq uslubi uchun xoslangan bo'lsa, qolganlari uslubiy betaraf yuklamalar sanaladi.

Ham yuklamasi bog'lovchi vazifasidayam qo'llaniladi. Bunday vaqtda qaysi vazifada (yuklama yoki bog'lovchi vazifasida) kelayotganligini farqlash kerak.

Ikkita o'zaro teng munosabatga kirishgan so'zlarni bog'lab **va** bog'lovchisi bilan almashtirish mumkin bo'lsa, **ham** bog'lovchi vazifasida qo'llangan bo'ladi. Ham yordamchisi qo'llanilgan jumla tarkibiga **hatto** yordamchisiniyam qo'llash mumkin bo'lsa, **ham** yordamchisi yuklama vazifasida, ya'ni o'z

vazifasida qo'llanilgan bo'ladi. **Solishtirng:** Soli ham Karim keldi. Hatto Karim ham keldi. Birinchi gapda bog'lovchi, ikkinchi gapda esa yuklama.

Ko'p o'rinda bir yuklamaning o'rnida ikkinchisini almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, *Faqat (yolg'iz) sen kelmading.*

**Eslatma!** *-gina (-kina, -qina)* shakllari ot, sifat, ravishga qo'shilib ma'noni kuchaytirish, erkalash, ta'kidlashga xizmat qiladi. Masalan, *ukaginam, qizgina, yaxshigina, ko'pgina, ozgina* va b.

### Undov so'zlar

His-hayajon, buyruq-xitob, haydash-chaqirish ma'nolarini ifodalovchi so'zlar undov so'zlar deyiladi. Undov so'zlar xuddi modal so'zlar kabi qo'shimchalar olib o'zgarmaydi. Masalan, *hoy* so'zi egalik, kelishik qo'shimchalarini olmaydi. Unga yasovchi qo'shimchalar qo'shilib yangi so'z yasalmaydi.

Ayrim undov so'zlar otlashganida, ya'ni ot vazifasida kelganida egalik qo'shimchasini olishi mumkin. Masalan, *Oh! olamni tutdi.* Bu o'rinda *ohi nima?* so'rog'iga javob bo'lib, oh deyishning, nola qilishning nomini bildirib kelgan.

**Undovlar** ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. His-hayajon undovlari.
2. Buyruq-xitob undovlari.

Yozuvda undov so'zlardan keyin vergul qo'yiladi. Undovlardan oldin kelganida esa undan keyin vergul qo'yilmaydi.

Undovlar boshqa so'zlar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Ba'zan kishilarning undov so'z orqali ifodalagan his-hayajonini, buyruq-xitobini tasvirlash uchun undov so'zlarga *demoq, solmoq, urmoq, tortmoq* singari fe'llar qo'shilib keladi va qo'shma fe'llar hosil bo'ladi: *voy demoq, dod solmoq, oh urmoq, oh tortmoq, pisht demoq.*

**His-hayajon undovlari** kishilarning quvonchi, erkalash-erkalanish, rohatlanish, hayron qolish, norozilik, g'azab-nafrat, og'riq singari hissiyotlarini ifodalaydi: *dod, voy, eh, uf, obbo, o'-hu, urra, voy* kabi.

His-hayajon undovlarining o'zi gap bo'lib kelishi yoki gap tarkibida kelib uni undov gapga aylantirishi mumkin. Bunday gaplar oxiriga doimo **undov belgisi** qo'yiladi.

**Buyruq-xitob** undovlari kishilarning diqqatini tortish, jonivorlarni haydash, chaqirish va to'xtatish uchun ishlatiladi. Masalan, *kisht, pisht, chuh-chuh, hey, o'v, hoy, ey, chip-chip, chu, pish-pish* kabi.

Undovlar undov ohangi bilan ajralib turadi, lekin undov ohangi xilma-xildir. Bir undov so'z turli ohang bilan talaffuz qilinib, turli xil ma'nolarni ifodalashi mumkin. Masalan, *Hay-hay, qanday mazali (rohatlanish, zavqlanish); Hay-hay, tegma (buyurish); Hay-hay, yigitlar, bu yoqqa (undash, ta'kidlash); Hay-hay, shakkoklik qilmang (fikrdan qaytarish)* kabilar.



Nutq jarayonida so'zlovchilarning *yoshi, amali* nuqtayi nazaridan undovlardan foydalanish ham ma'lum darajada farq qiladi. Xususan, o'zidan katta yoshdagilarga murojaat qilinganida yoki ma'lum lavozimni egallagan shaxslarga uning qo'l ostida ishlayotgan shaxslar *hoy* deb murojaat etmaydi yoki *balli* undovi kattalar tomonidan kichiklarning qilgan yo qilayotgan ishlaridan mamnunligini ifodalash, ular mehnatini baholash maqsadida ishlatiladi, lekin kichiklar tomonidan bunday undov orqali baho berilmaydi.

Shuningdek, undovlar *og'zaki, so'zlashuv, badiiy*, qisman *publitsistik* uslubda keng qo'llanilib, *rasmiy* va *ilmiy* uslubda qo'llanilish doirasi cheklangan. Ba'zan xat janrida, ma'lum voqea-hodisalar bayoni yuzasidan o'zaro maktublarda undovlar qo'llanilishi mumkin. Rasmiy doiralarning xatlarida undovlar qo'llanilmaydi. Sababi, rasmiy doiralarning xatlari har qanday ehtirolardan xoli bo'ladi.

### Undov so'zlarning gapdagi vazifasi

#### Otlashsa:

1. **Ega:** Oh olamni tutdi.
2. **To'ldiruvchi:** Uning dod-voyiga odam tez to'plandi.
3. **Qaratqich aniqlovchi:** Ohining dudi olamga soldi nazar.
4. **Kesim:** Dunyo tashvishlaridan, razil odamlaridan dod.

**Namuna:** 1. **E-e**, yeb bo'пти, Ko'kyol deydilar uni! – dedi Isoy bobo kuyib-pishib. (N.Fozilov) 2. **Voy-bo'**, – deb yubordi u. – Yerimiz muncha chiroyli! Globusning o'zginasi-ya! (A.Bo'riboyev) 3. **O**, muazzam Enasoy daryosi! (Ch. Aytmatov) 4. **Oh**, bizning odamlar, dilcash odamlar... (S.Zunnunova) 5. **Chu**, nari tur, arzandam, tagingni tozalab qo'yay endi. (Oybek) 6. **Uf**, chanqadim-e, munchayam kun isib ketdi. (Oybek) 7. **O-ho**, gapda sizga hech kim yetolmaydi... **Hay**, menga qarang! – dedi jiddiyat bilan Zumrad. (Oybek) 8. **Hay**, ichkari kir, chag'ir-chug'urdan qulog'im bitdi. (Oybek) 9. To'xta, **hey**. Bir daqiqa to'xtab, tingla uning baxt qo'shig'ini. (Mirtemir) 10. **Oh**, shu chog'da uning qoramtir yuziga boqsangiz... (Mirtemir)

### Taqlid so'zlar

Narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so'zlar taqlid so'zlar deyiladi. Taqlid so'zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Tovushga taqlid so'zlar.
2. Holatga taqlid so'zlar.

Narsalarning ovoziga taqlidni bildiruvchi so'zlar *tovushga* taqlid so'zlar sanaladi. Masalan, *g'a-g'a, di-dit, taraq, gumbur-gumbur, shov-shuv, qars-qurs, tap, sharaq, shalop, shitir-shitir*.

Narsalarning holatiga taqlidni bildiruvchi so'zlar *holatga* taqlid so'zlar hisoblanadi: *lip-lip, jimir-jimir, yalt-yuft, lapang-lapang, dik-dik*.

Asos qismning aynan takrorlanishidan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo'lgan taqlid so'zlar takror taqlid so'zlar sanaladi. Masalan, *gumbur-gumbur, gurs-gurs, chars-churs, taq-tuq, yarq-yurq*.

Takror taqlid so'zlar qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi.

Taqlid so'zlar egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi, turlanadi, gapda ot bajargan vazifalarda keladi. Masalan, *Shamolda barglarning shitir-shitir eshitiladi. Daryoning shov-shuvidan quloqlarimiz bitib qolayozdi.*

Taqlid so'zlarning barchasidan fe'l yasaladi: *shovullamoq, gumburlamoq, dupurlamoq, taraqlamoq, miltillamoq, yaltillamoq* kabi.

### Taqlid so'zlarning sintaktik vazifasi

1. Ega (*otlashsa*): Otlarning dupur-dupuri eshitildi.
2. Sifatlovchi aniqlovchi (*otga bog'lansa*): Zavodning mashina bo'limidan gurs-gurs zarb uzluksiz eshitilib turardi.
3. To'ldiruvchi (*otlashsa*): Tiqir-tiqiringni yig'ishtir.
4. Hol (*fe'lga bog'lansa*): Ahmad buni ko'rib dir-dir titradi. To'rtta sava-g'ich bilan **tap-tap** urib par singari qilib titibdi. Jigarim otashga tegardi **jlz-jlz**.

### Modal so'zlar

Bayon qilinayotgan fikrga so'zlovchining ishonch, gumon, quvonch, afsuslanish munosabatini yoki fikrning tartibi, xulosasini bildirgan so'zlar **modal so'zlar** deyiladi. Modal so'zlar gap tarkibida boshqa so'zlardan vergul bilan ajratiladi.

№	Modal so'zlarning ma'nolari	Modal so'zlar
1.	<i>Ishonch</i>	<i>Albatta, shaksiz, shubhasiz</i>
2.	<i>Tasdiq</i>	<i>Darhaqiqat, haqiqatan, to'g'ri, mayli</i>
3.	<i>Gumon</i>	<i>Ehtimol, chamasi, balki, aftidan, menimcha, shekilli</i>
4.	<i>Achinish</i>	<i>Afsus, afsuski, atang</i>
5.	<i>Quvonch</i>	<i>Xayriyat, shukur</i>
6.	<i>Ajablanish</i>	<i>Ajabo</i>
7.	<i>Fikrni dalillash</i>	<i>Masalan, jumladan, binobarin</i>
8.	<i>Fikrning tartibi</i>	<i>Birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor</i>
9.	<i>Fikrni xulosalash</i>	<i>Demak, xullas, umuman, alqissa</i>
10.	<i>Fikrni birovga nisbatlanganligi</i>	<i>Fikri ojizimcha, aytishlaricha, ma'lum qilishlaricha</i>

**Modal so'zlar** ham sof va vazifadosh modal so'zlarga bo'linadi. Faqat modal ma'no uchun xoslangan so'zlar **sof modal** so'zlar sanaladi: **haqiqatan, dar-**



haqiqat, albatta, afsuski, attang, shekilli, avvalo, masalan, avvalambor, xullas, koskhi. Modal ma'noda ham qo'llangan **aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz, umuman, taxminan** singari so'zlar **vazifadosh** modal so'zlar hisoblanadi.

**Namuna:** 1. Shubhasiz (*modal so'z*), biz g'olib chiqamiz. Bizning g'olib chiqishimiz shubhasiz (*sifat*). 2. Aftidan (*modal so'z*), u yolg'on gapiryapti (*modal so'z*). Uning yolg'on gapirayotgani aftidan (*ot*) bilinib turardi. 3. Balki (*modal so'z*), siz haqdirsiz. Siz emas, balki (*bog'lovchi*) u haqdir. 4. Bo'ron bo'lishi ehtimol (*ot*), qizim (*modal so'z* emas). Ehtimol (*modal so'z*), bu onasidan yagona esdalik. 5. Chamasi (*modal so'z*), hammaning og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga. Gulchehraning chamasi (*ot*) to'g'ri chiqdi. 6. Onajonim, balki (*modal so'z*), bir kun men ham shoir bo'larman. U nafaqat kattalarga, balki (*bog'lovchi*) kichiklarga ham shunday muomalada bo'lar edi. 7. Aftidan (*modal so'z*), G'ulomjon bu g'alvalarni ataylab boshlagan. 8. Uning «ko'cha bolasi» ekanini aftidan (*ot*) bilib olish qiyin emas edi.

**Namuna:**

1. Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. (Sh.Xolmirzayev) 2. Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi. (O'.Umarbekov) 3. – Opangiz: «Ukam qaynanasini boqib yotipti», – deb o'yladi, shekilli-da! (X.To'xtaboyev) 4. Lekin me'morning, avvalo, raiyat, qolaversa, saltanat oldidagi mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrda shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l qo'ymas edi. (Mir-muhsin) 5. Yomg'ir yog'yapti, shekilli, deb o'ylab boshini ichiga tiqib yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog'idan tutib xaltaga solaman. (G'afur G'ulom)

## So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari

### Sodda va qo'shma so'zlar, ularning uslubiyati

So'zlar tuzilishiga ko'ra 4 turga bo'linadi: 1. *Sodda so'zlar*. 2. *Qo'shma so'zlar*. 3. *Juft so'zlar*. 4. *Takroriy so'zlar*.

Faqat bir asosdan tashkil topgan so'zlar **sodda so'zlar** deyiladi. Masalan, *keldi, yondirishdi, yigitlarga, g'allachilik, lalmikor, yettinchi, o'rikzor* kabi.

Sodda so'zlar garchi bir asosdan tashkil topsa ham, tarkibida grammatik shakl qo'llanishi mumkin. Shunga ko'ra sodda so'zlar **tub** va **yasama** kabi ikki turga bo'linadi. Masalan, *gulzor* so'zi tuzilishiga ko'ra bir asosdan iborat bo'lgani uchun *sodda so'z*, tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'lgani bois tarkibiga ko'ra *yasama so'z* sanaladi. *Gulga* so'zi ham *sodda so'z*, yangi so'z yasalmagani, tarkibida yasovchi qo'shimcha bo'lmagani bois bu so'z tarkibiga ko'ra *tub so'z* deyiladi.

Demak, sodda so'zlar tarkibiga ko'ra 2 turga bo'linadi. 1. **Tub so'z**. 2. **Yasama so'z** (*Bu haqda so'z yasalashi bo'limiga qarang*).

Ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topib, bitta so'roqqa javob bo'ladigan so'zlar **qo'shma so'zlar** deyiladi. Masalan, *ko'ksulton, gulto'jixo'roz,*

*qo'lgop, har kim, hech vaqt, har zamon, o'n bir, o'ttiz uch, qabul qilmoq, javob bermoq, fikr aylamoq, bodomqovoq, shirinso'z* kabi.

Qo'shma so'zlar tilning tarixiy taraqqiyoti davomida ikki va undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topgan, lekin hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan bu birikuv o'z kuchini yo'qotib, bir so'zga aylanib qolgan bo'ladi. Shuning uchun qo'shma so'z tarkibida alohida so'z bo'lib ko'ringan qismlar (*kunga – boqar, beshik – tervatar, namoz – shom – gul*) hozirgi o'zbek tilida so'zlik xususiyatini yo'qotgan, bir so'z tarkibidagi ma'noli qismlar (morfemalar) sanaladi.

Qo'shma so'zlar bitta so'z bo'lganidan ularning qismlari orasiga boshqa ma'noli qismni kiritib bo'lmaydi. Masalan, *kungaboqar* so'zining *kunga* qismidagi *-ga* ni boshqa kelishiklar bilan almashtirishning iloji yo'q. Shuningdek, bu qism egalik, ko'plik shakllarini ham olmaydi. Ana shu xususiyati bilan so'z birikmasidan va sodda so'zning ko'makchi fe'lli shaklidan farq qiladi. **Solishtiring:** *uxlab chiqdi – uxlamay chiqdi; kunga qaradi – kun qaradi*. Qo'shma so'zlar qismlari birikib bitta so'zning tarkibiga aylangani uchun ular ko'pincha sodda so'zlar bilan sinonimik munosabatda bo'ladi. Masalan, *o'sal qilmoq – uyaltirmoq, oq qilmoq – haydamoq, bayon qilmoq – so'zlamoq, kamchiqim – pishiq, shifobaxsh – dori, hamnafas – yaqin*.

Qo'shma so'zlar ham qo'shib, ham ajratib yoziladi. Qo'shma olmosh, fe'l va sonlar har doim ajratib yoziladi. Qo'shma sifat, qo'shma ot, qo'shma ravish ham ajratib, ham qo'shib yoziladi. Birinchi so'zi *bir, har, hech* olmoshlari bo'lgan qo'shma so'zlar, qo'shma sonlar doimo ajratib yoziladi. Qolgan barcha qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi. *Birpas, biryo'la* kabi ayrim so'zlar bundan mustasno.

### **Juft va takroriy so'zlar hamda ularning uslubiyati**

Bir-biriga yaqin yoki qarama-qarshi ma'noli ikki o'zakning qo'shiluvidan tashkil topgan so'zlar juft so'zlardir. Juft so'z o'zaklari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qishin-yozin, bugun-erta, yaxshi-yomon, do'st-dushman* kabi. Agar juft so'zlar *-u, -yu* yuklamalari bilan bog'lansa, birinchi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *shahar-u ko'chalar, kecha-yu kunduz* kabi.

Juft so'zlar doimo ikki qismdan iborat bo'ladi. 1. Bu qismlar o'zaro *ma'nodosh so'zlardan* tuzilishi mumkin. Masalan, *aqlli-hushli, gul-rayhon, erta-indin, ota-ona* kabi. 2. O'zaro *zid ma'noli so'zlardan* tuziladi. Masalan, *erta-kech, oldin-ketin, kecha-kunduz, issiq-sovuq, tun-u kun, yer-u osmon* kabi.

Juft so'zlar ko'pincha yangi ma'noga ega bo'ladi va sodda so'zlar bilan ham sinonim bo'lishi mumkin. Masalan, *qishin-yozin – doimo, erta-kech – hamisha, bugun-erta – yaqinda* kabi. Bunday juft so'zlarda tasviriylik, ta'kid ma'nosi kuchliroq. Masalan, *qishin-yozin* (juft so'z) *tinmaydi* jumlasida *doimo*



(sodda so'z) *tinmaydi* jumlasiga nisbatan tasviriyroq, ta'sirchanroqdir. Juft so'zlar ma'noni umumlashtirish xususiyatiga ham ega. Masalan, *idish-tovoq* (ro'zg'or buyumlari), *qalam-daftar* (o'quv quroli), *ko'ylak-lozim* (sarupo), *nari-beri* (tez) kabi.

Bir o'zakning ikki marta takrorlanishidan hosil bo'lgan so'zlar **takroriy so'zlardir**: *yal-yal*, *katta-katta*, *kelib-kelib*, *hamma-hamma*, *bir-bir* kabi.

So'z takrorida qismlar turli shaklda bo'ladi, shunga ko'ra ular quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Har ikki qism bir xil shaklda: *tog'-tog'*, *tez-tez*, *ko'p-ko'p* kabi.

2. Birinchi qism chiqish kelishigida, ikkinchi qism bosh va jo'nalish kelishigida: *ko'pdan ko'p*, *naridan beri*, *yildan yil(ga)* kabi.

3. Birinchi qism bilan ikkinchi qism o'rtasida *ba-*, *-ma* qo'shimchalari qo'yiladi: *yuzma-yuz*, *qadam-baqadam*, *dam-badam*, *eshikma-eshik* kabi. Takroriy so'zlar qismlari o'rtasida *-ma*, *ba-* qo'shimchalari qo'yilganida *-ma* birinchi qism oxiriga, *ba-* esa ikkinchi qism boshiga qo'shiladi.

4. Ikkinchi qismning birinchi tovushi fonetik o'zgarishga uchraydi: *osh-non*, *ora-chora*, *odam-podam* kabi.

Ba'zi takror so'zlar orqali yangi ma'no hosil bo'ladi: *uncha-muncha* (sal, oz). Ba'zilari esa so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash, umumlashtirish uchun ishlatiladi: *tez-tez* (tezlikni kuchaytirish), *sira-sira* (ma'noni ta'kidlash) kabi.

So'zlarni **takrorlash va juftlash yo'li** bilan **ravish** yasalganida ular quyidagi so'z turkumlaridan bo'ladi:

1. *Ot – ot* (qator-qator, tun-kun, yildan yilga).

2. *Sifat – sifat* (uzundan uzun, ochiqdan ochiq).

3. *Fe'l – fe'l* (uzil-kesil, turib-turib, qo'sha-qo'sha, qo'yarda-qo'ymay, bilinar-bilinmas).

4. *Ravish – ravish* (oldinma-keyin, nari-beri).

5. *Olmosh – olmosh* (o'z-o'zidan, o'zi-o'zicha, o'zidan o'zi).

6. *Son – son* (birma-bir).

7. *Taqlid so'z – taqlid so'z* (taqa-taq, shart-shurt) kabi.

### **Qisqartma so'zlar (abbreviatura) va ularning uslubiy xususiyatlari**

Inson o'z faoliyatida doimo oz mehnat sarflab ko'proq natijaga erishishga urinadi. Bunday nutqiy faoliyat natijasida bir qancha barqaror birikmalarni qisqartirish yo'li bilan qisqartma so'zlar vujudga keladi va nutqiy ixchamlikka erishiladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti – BMT, Ichki ishlar boshqarmasi – IIB kabi.

Qisqartma so'zlar **abbreviatura** ham deyiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, qisqartirish yangi so'z yasash emas, chunki qisqartirish faqat so'zning shakliga oid bo'lib, ma'noga ta'sir etmaydi. Shu-

ning uchun qisqartma so'z barqaror so'z birikmasining, to'g'rirog'i, murakab nomning qisqartirilgan variantidir (ko'rinishidir). Qisqartma so'zlarni aytishimiz bilan uning to'liq, kengaygan ko'rinishi xotiramizga keladi. Masalan, *DTM – Davlat test markazi*, *DTS – Davlat ta'lim standartlari*.

Qisqartirish turli yo'l bilan amalga oshiriladi.

1. Barqaror so'z birikmasi birinchi qismining birinchi tovushlari (harflari) asosida: *BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)*, *YTRK (Yoshlar teleradiokompaniyasi)* kabi.

2. Barqaror so'z birikmasi birinchi qismining birinchi bo'g'ini, qolgan qismlarining birinchi tovushlari (harflari) asosida: *O'zROAK (O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi)*, *O'zAS (O'zbekiston adabiyoti va san'ati)*.

3. Barqaror so'z birikmasi birinchi va ikkinchi qismlarining birinchi bo'g'ini, qolgan qismlarining to'la ko'rinishi: *O'zmashxolding*.

4. Birinchi qismning birinchi bo'g'ini, qolgan qismlarning to'la ko'rinishi: *O'zmevaxolding*, *Uzdunrobota* kabi.

Mustaqillik davrida respublikamizning boshqa davlatlar bilan munosabatlari kengayishi, yangi qo'shma korxonalarining ko'payayotgani tilimizni ham turli-tuman qisqartma so'zlar bilan boyitmoqda. Masalan, *O'zmashxolding*, *Anteks* kabi. Qisqartma so'zlar, asosan, *yozma nutq* uslubiga xosdir. Bunday so'zlar dastlab yozma nutq uslubida vujudga keladi va nutqimizda faollashib, hamma uchun tushunarli bo'lgandan so'ng keyinchalik *og'zaki so'zlashuv uslubiga o'tadi*.



## SINTAKSIS

Biz foydalanayotgan til turli birliklardan, vositalardan iborat. Ularning har biri tilda o'zining muhim vazifasini bajaradi. Tahlil qilinganda til birliklari ajratiladi, aniqlanadi va izohlanadi. Quyidagi birliklar til birligi sifatida ishlatiladi:

**Gap** – til birligi.

**So'z birkmasi** – til birligi.

**So'z** – til birligi.

**Tovush** – til birligi.

**Qo'shimcha** – til birligi.

So'zlarning tildagi muayyan qonun-qoidalar asosida o'zaro birikuvidan **so'z birkmasi** va **gaplar** hosil bo'ladi. **So'z birkmalari** va **gaplar** o'z qurilishi hamda ifoda mazmuniga ko'ra farqlanadi.

So'z birkmalari va gaplarning qurilishi hamda ifoda xususiyatlarini o'rganuvchi til bo'limi **sintaksis** deyiladi. Sintaksis yunoncha «syntaxis» so'zidan olingan bo'lib, yopishtirish, bog'lash demakdir. Demak, so'zlarning va gaplarning o'zaro bog'lanish qonun-qoidalarini, ularning xillarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi sintaksis sanaladi. Sintaksis so'zlarning bir-biriga bog'lanishi hamda gap tuzilishi qonun-qoidalarini o'rgangani uchun unda: 1) **so'z birkmasi sintaksisi**; 2) **gap sintaksisi** kabi bo'limlar mavjud.

Har qanday til o'zining nutq tovushlari, so'zlari (iboralari) va qo'shimchalaridagi imkoniyatlarini sintaksisda, ya'ni gap qurilishida namoyon qiladi.

### Gapda so'zlarning bog'lanishi

*Bog'larda mevalar qiyg'os pishgan gapida bog'larda so'zi pishgan so'ziga* -da kelishik qo'shimchasi yordamida bog'lanyapti.

Gapda so'zlarning bog'lanishi faqat grammatik bog'lanish bilan cheklanib qolmaydi. Bog'lanayotgan so'zlar mazmuniy tomondan ham o'zaro muvofiq bo'ladi. Masalan, *gullamoq* so'zi *gul chiqarmoq* ma'nosi bilan gullash xususiyatiga ega narsalarni bildiruvchi so'zlarga bog'lanadi: *o'rik gulladi, jiyda gulladi* kabi; lekin *tosh, loy, suv* kabi so'zlar bilan bog'lana olmaydi. *Yashnadi, rivojlandi* ma'nosi bilan yashnashi mumkin bo'lgan turli jamoa, tashkilot, mahalla nomlarini bildiruvchi so'zlarga ham bog'lanadi: *qishloq gulladi, litsey gulladi* kabi. Ko'rinadiki, o'zaro bog'lanayotgan so'zlarda mazmuniy uyg'unlik bo'ladi.

Bir so'zning boshqa so'zga ma'lum grammatik vositalar (grammatik qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) yordamida bog'lanishi *grammatik bog'lanish* hisoblanadi.

Gapda so'zlarning bog'lanishi ikki xil bo'ladi: a) *teng bog'lanish*; b) *tobe bog'lanish*.

**Teng bog'lanish** – bir xil gap bo'lagi vazifasida kelib, ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'luvchi bo'laklarning o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi yordamida bog'lanishi teng bog'lanish sanaladi.

Masalan, *Kitob va daftar, kitobni o'qimoq*. Bularning birinchisida kitob va daftar so'zi va teng bog'lovchisi yordamida; ikkinchi bog'lanishda kitobni so'zi o'qimoq so'ziga *-ni* tushum kelishigi yordamida bog'langan. Birinchi bog'lanish teng bog'lanish, ikkinchi bog'lanish tobe bog'lanish deyiladi.

*Ular Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy baytlarini tahlil qilib o'tirishardi*. Ushbu gapda so'zlar o'zaro teng va tobe aloqada bog'langan.

Teng bog'lanish:

*Hofiz*

*Navoiy*

*Bedil baytlari*

*Fuzuliy*

*Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy* – teng bog'lanish.

Tobe bog'lanish:

a) *ular tahlil qilib o'tirishardi*;

b) *baytlarini tahlil qilib o'tirishardi*.

Odatda, o'zaro teng bog'langan bo'laklar bir xil gap bo'lagi vazifasida keladi va, asosan, bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Ularni o'zaro bog'lovchi vosita sifatida teng bog'lovchilar yoki sanash ohangi ishtirok etadi. Yuqoridagi gapdagi barcha teng bog'langan birliklar **kimning?** so'rog'iga javob bo'lib, qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan.

Teng bog'lanishli so'zlar teng bog'lovchilar tomonidan bog'lanadi. Masalan, *Xonaga chaqqon, ammo semiz ayol kirib keldi. Na men, na u bu haqda biror so'z deya oldik. U nafaqat kattalarga, balki kichiklarga ham shunday munosabatda bo'lar edi. Birinchilikni goh unisi, goh bunisi olar edi*.

Odatda, teng bog'lanish bo'laklar orasida va gaplar orasida ham uchraydi. So'zlar orasidagi teng bog'lanish **so'z qo'shilmasi**, gaplar o'rtasidagi teng bog'lanish **bog'langan va bog'lovchisiz qo'shma gapni** vujudga keltiradi. Bog'langan qo'shma gaplarda gaplar o'zaro teng bog'lovchilar bilan bog'lanisa, bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ohang yordamida bog'lanadi.

**Tobe bog'lanish** – bir bo'lakning boshqa bo'lakka kelishik, shaxs-son, zamon qo'shimchalari, ko'makchilar, so'z tartibi va ohang yordamida bog'lanishi.

Tobe bog'lanish har doim ikki qismdan iborat bo'ladi: **1. Tobe qism. 2. Hokim qism.**

Tobe bo'lak hokim bo'lak bilan kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalari, ko'makchi va ohang yordamida bog'lanadi. Bunday bog'lanish ikki xil sintaktik birlikni vujudga keltiradi: **gap va so'z birikmasi**.

Shaxs-son qo'shimchalari yordamida bog'lanish **gapni**, kelishik, ko'makchi, egalik shakllari yordamidagi bog'lanish **so'z birikmasini** hosil qiladi.



**Taqqoslang:** Gul ochildi (shaxs-son, zamon qo'shimchasi yordamida bog'langan) – gap; gulning ochilishi (qaratqich va egalik qo'shimchasi yordamida bog'langan) – so'z birikmasi.

Gaplar o'rtasidagi tobe bog'lanish ergashgan qo'shma gaplarni hosil qiladi. Sodda gapning o'zi ham bir butunlikda tobe bog'lanish sanaladi. Chunki barcha bo'laklar kesimga nisbatan tobe bo'lak sanaladi. Kesim boshqa bo'laklarga nisbatat hokim bo'lak vazifasini bajaradi.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlar grammatik va ma'no jihatidan birikib **so'z birikmasi**ni hosil qiladi. So'z birikmasi ham **hokim so'z** va **tobe so'z**dan tuziladi. Hokim so'z va tobe so'zning o'rni qat'iy. Hokim so'z har doim tobe so'zdan keyin keladi. Masalan, *qizil gul, maktabga bormoq*.

Tobe so'z hokim so'zni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi. Ma'nosi izohlanayotgan so'z esa hokim so'zdir.

Turli turkum so'zlari hokim so'z vazifasida kela oladi. So'z birikmasi hokim so'zning qaysi turkumga oid so'z bilan ifodalanishiga qarab ikki guruhga bo'linadi: **otli so'z birikmasi**, **fe'lli so'z birikmasi**.

**Otli so'z birikmasida** hokim so'z ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi: shaharning *ko'chalari*, hammasidan *katta*, chumchuqning *chug'ur-chug'uri*, o'quvchilarning *beshtasi*, beqiyos *o'lka*, katta *qishloq*.

**Fe'lli so'z birikmasida** hokim so'z fe'l bilan ifodalanadi: kitobni *o'qimoq*, dafarga *yozmoq*, tez *yugurmoq*, ohista *gapirmoq*, ta'sirli *so'zlamoq*, zavq bilan *o'qimoq*.

### **So'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikish usullari**

Tobe bo'lak hokim bo'lakka ma'lum bog'lovchi vosita yordamida bog'lanadi. Kelishik, ko'makchi va ohang tobe qismga, egalik qo'shimchasi esa hokim qismga qo'shiladi. Masalan, *mavzuni gapirmoq, tiniq osmon, hayotni tushunmoq, maktab bog'i* kabi.

Demak, so'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikish usullari 3 ta.

1. **Boshqaruv.** Tobe so'zning hokim so'zga **tushum**, **jo'nallish**, **o'rin-payt** va **chiqish** kelishigi qo'shimchalari yoki **ko'makchilar** yordamida bog'lanishi **boshqaruv** deyiladi: do'stlarni hurmat qilmoq, g'alaba **uchun** kurashmoq, yaxshilarga g'amxo'rlik qilmoq, sharoitga **ko'ra** yondashmoq.

Agar hokim bo'lak belgi bildiruvchi so'zlar bilan (sifat, ravish) ifodalانب, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi so'z chiqish kelishigi orqali bog'lanadi. Bunday bog'lanishda sifat va ravish boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Uni quyidagi shakl orqali ifodalash mumkin:

**-dan** + belgi bildiruvchi so'z: *oydan go'zal, asaldan shirin, otdan past, hammadan sekin, bizdan ko'p*.

**Boshqaruv shakli ot + fe'l shaklida uchraydi.** Bunday holatda hokim so'zning ma'no talabi bilan tobe so'z ma'lum kelishik shakllari va ko'makchilar bilan birga qo'llanadi. Uni quyidagi shakl orqali ifodalash mumkin:

-ni + fe'l: uzumni yemoq;

-dan + fe'l: maktabdan qaytmoq;

-ga + fe'l: ishga bormoq;

-da + fe'l: she'rlarida aks etmoq.

Bunday bog'lanishlarda ba'zi kelishik qo'shimchalar sinonimik munosabatga kirishadi. Biroq ular bir-biridan quyidagi ma'no nozikliklariga ko'ra faqrlanadi. Taqqoslang:

1. Uzum ye – har qanday uzum.

2. Uzumni ye – so'zlovchi va tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan aniq uzum.

3. Uzumdan ye – so'zlovchi va tinglovchi uchun ma'lum bo'lgan aniq uzum va undan bir qism.

### **Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi**

Boshqaruvli bog'lanishda tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida ham bog'lanadi. Masalan, *osmon uzra parvoz qilmoq*, *Toshkent tomon yo'nalmoq*, *kitob haqida suhbatlashmoq*, *istiqlol uchun kurashmoq* kabi.

Ba'zan kelishik va ko'makchilar birgalikda qo'llaniladi. Bunday vaqtda kelishik tobe so'z oxiriga yoki ko'makchi oxiriga qo'shilishi mumkin. Masalan, *dala tomon ketmoq – dalaga tomon ketmoq – dala tomonga ketmoq*.

**Eslatma!** Tobe bo'lak hokim bo'lakka ko'makchilar yordamida bog'langanida ko'p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo'llanishi mumkin. Natijada kelishik qo'shimchalari va ko'makchilari sinonimiyasi vujudga keladi.

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, ular o'rtasida ma'lum ma'no farqlanishi mavjud. Kelishik qo'shimchasi yordamida bog'langanida hokim bo'lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo'nalish nuqtasi aniq, ko'makchi yordamida bog'langanida esa noaniq bo'ladi. **Qiyoslang:**

maktabdan chiqdi – maktab tomondan chiqdi;

maktabga ketdi – maktab tomonga ketdi;

maktab tomon ketmoq – maktabga tomon ketmoq.

**Namuna:**

1. Ba'zi xo'rozlar raqibi bilan bir cho'qishib, so'ng chekkada turib tomosha qiladi. Ba'zi xo'rozlar raqibini bir cho'qishib, so'ng chekkada turib tomosha qiladi. 2. Mahallada duv-duv gaplarni tarqatdi. Mahalla orqali duv-duv gaplarni tarqatdi. 3. Botirning ahvoli uchun achindi. Botirning ahvoliga achindi. 4. Ashulalarida Vatanni madh etadi. Ashulalari orqali Vatanni madh etadi.

**2. Moslashuv.** Tobe so'zning hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'zning esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanishi moslashuv deyiladi: kitobning muqovasi, xonalarning kattarog'i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.



Tobe bo'lak hokim bo'lakka qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchasi yordamida bog'langanida ikki tomonlama bog'lanish ro'y beradi. *Tobe bo'lak qaratqich kelishigi qo'shimchasini oladi. Bunday bog'lanishda tobe qism qaratqich, hokim qism qaralmish deb nomlanadi.*

Ko'pincha qaratqich kelishigi yoki egalik qo'shimchasi, ba'zan esa har ikisi ifodalanmaydi. Buni quyidagi shakl orqali ifodalash mumkin:

a) -ning (do'stimning) + -si (onasi)

b) -0 (maktab) + -si (bog'i)

d) -ning (bizning) + - 0 (Vatan)

Qaratqich kelishigi doimo tushib qolavermaydi. U quyidagi hollarda, albatta, qo'llaniladi (*kelishik shakllariga qarang!*):

a) qaratqich bilan qaralmish o'rtasida boshqa so'z kelsa: *derazaning qora oynasi;*

b) qaratqich atoqli otlar va olmoshlar bilan ifodalanganida: *Ahmadning daftari, mening daftarim kabi.*

Yuqorida ta'kidlanganidek, qaratqich va qaralmish munosabatida qaratqich hamda egalik qo'shimchalarining ifodalanishi to'rt xil ko'rinishga ega. Bu ko'rinishlar o'rtasida ma'lum mazmuniy va uslubiy farqlanish bor. **Taqqoslang:**

1) daftarning varag'i – varaq so'zlovchi va tinglovchi uchun aniq bitta daftar;

2) daftar varag'i – umuman, daftar;

3) bizning daftar – I shaxs ko'plikdagi olmoshlar uchun xos;

4) daftar varaq – so'zlashuv uslubiga xos.

Kuzatgan bo'lsangiz, birinchi bog'lanish o'rtasida aniqlik-noaniqlik ma'nosi mavjud. 4-bog'lanish esa birinchi va ikkinchi bog'lanishga nisbatan so'zlashuv uslubida ko'proq ishlatiladi. Uchinchi bog'lanishda esa qaratqich va qaralmish shaxs olmoshlari bilan qo'llanganida ishlatiladi.

### **Qaratqich va tushum kelishiklaridan o'rinli foydalanish**

Qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari bir-biriga shakl jihatidan juda yaqin. Shuning uchun og'zaki so'zlashuvda qaratqich kelishigi o'rnida ham ko'pincha tushum kelishigi qo'shimchasi qo'llaniladi. Masalan, *olmaning sharbati* o'rniga *olmani sharbati* deyiladi. Natijada yozuvda ham ko'pchilik og'zaki so'zlashuv ta'sirida shunday yozib qo'yadi. Bunday xatodan qutulish uchun hokim so'zning ifodalanishiga e'tibor berish kerak.

**Eslatma!** Agar hokim bo'lak sof fe'l bilan ifodalansa va bu fe'l kimni? nimani? qayerni? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zni talab qilsa, tobe bo'lak tushum kelishigida qo'llanadi, hokim bo'lak egalik qo'shimchasini olgan ot, ba'zan harakat nomi va siftdosh bilan ifodalansa, tobe bo'lak qaratqich kelishigida qo'llanadi. Masalan:

-ning (ot) + egalik (ot): gulning hidi;

-ni (ot) + fe'l: qalamni olmoq.

**3. Bitishuv.** So'z birikmalari tarkibidagi tobe va hokim so'zning hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanishi **bitishuv** deyiladi: *tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o'quvchi, mehribon murabbiy.*

Bitishuvchi so'z birikmalari ravish + fe'l, sifat + ot, ot + fe'l shakllari orqali yuzaga chiqadi.

Ot + fe'l shaklli bitishuvli so'z birikmalarda ko'makchilar o'z vazifasini yo'qotib bitishuvli so'z birikmasini hosil qiladi. Masalan, *zavq bilan o'qimoq, qunt bilan tinglamoq* kabi. Bunday holatlarda ko'makchi ot bilan yaxlitlanib ketgan bo'ladi. Tobe so'zga so'roq berilgan paytda ko'makchi mustaqil so'z bilan bir butunlik hosil qilgani seziladi: *qunt bilgan (qanday?), zavq bilan (qanday?).*

Ravish + fe'l ko'rinishidagi bog'lanishda ravish tarkibida yaxlitlanib qolgan jo'nalish hamda chiqish kelishigi shakli o'z vazifasini yo'qotgani bois ular bitishuvli so'z birikmasi sanaladi. Masalan, *tubdan o'zgarmoq, birdan javob bermoq, jo'rttaga baqirmoq, to'satdan kelib qolmoq* kabi.

Sifat + ot ko'rinishli bitishuvli so'z birikmalarida hokim va tobe so'zning o'rni almashitirilsa, gap yuzaga keladi. Masalan, *tiniq osmon (so'z birikmasi) – osmon tiniq (gap), chiroyli gul (so'z birikmasi) – gul chiroyli (gap), sertashvish hayot (so'z birikmasi) – hayot sertashvish (gap).*

### So'z birikmasi va so'z

So'z birikmalari ham so'zlar kabi narsa, belgi, harakatni atashga xizmat qiladi. Lekin so'z – leksik hodisa, so'z birikmasi – grammatik hodisa. So'z birikmasi narsa, belgi yoki harakatni yakka holda emas, balki ikki va undan ortiq so'zlarning o'zaro aloqaga kirishuvi orqali ifodalaydi.

Masalan, **kitob** so'zi bir narsaning umumlashgan oti bo'lib, yolg'iz tushunchani ifodalaydi, **o'rtog'inning kitobi** birikmasida esa faqat kitob ma'nosining o'zi emas, balki o'rtog'imga tegishli kitob tushunchasi ifodalanadi.

So'z birikmalarida ma'no, tushuncha ancha aniq va ravshan bo'ladi.

Taqqoslang: *nor – erkak tuya, g'o'nan – ikki yashar ot, ezma – sergap odam.*

Shuning uchun lug'atlarda so'zning ma'nosini ochib berishda so'z birikmalaridan foydalaniladi. Masalan, *Olqor – yovvoyi tog' echkisi.*

### So'z birikmasi va qo'shma so'z

So'z birikmasida ham, so'zda ham qismlar bir xil so'z turkumlariga oid bo'lishi, har ikkalasi ham bir xil grammatik shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu ularning shakliy o'xshashligidir.

**Farqi:**

1. So'z birikmasidagi qismlar ma'no mustaqilligini saqlaydi. Qo'shma so'z tarkibidagi qismlarning ma'nosi esa saqlanmagan bo'lib, qo'shma so'zning



umumiy ma'nosi orqali anglashiladi. Masalan, *kitobni olmoq* birikmasida *kitob* so'zi ham, *olmoq* so'zi ham ma'no mustaqilligiga ega. *Ko'kterak* qo'shma so'zida *ko'k* va *terak* so'zlari ma'no mustaqilligini yo'qotib, bir umumiy ma'noni bildiradi.

2. So'z birikmasidagi qismlar orasida grammatik aloqa sezilib turadi, qo'shma so'z qismlari orasidagi grammatik aloqa esa yo'qolgan bo'ladi. Masalan, *ukam uchun olmoq* birikmasida *tobe* va *hokim* so'z ko'makchi yordamida bog'langan. *Gulto'jxo'roz* so'zidagi so'zlar o'rtasida grammatik aloqa sezilmaydi.

3. So'z birikmasini tashkil qilgan qismlarning har biriga alohida-alohida so'roq berish mumkin: *kitobni* (nimani?) o'qimoq, *uydan* (qayerdan?) chiqmoq kabi. Qo'shma so'zlarga esa yaxlit bir savol berish mumkin: *kungaboqar* (nima?), *kamquvvat* (qanday?) kabi.

4. So'z birikmasining qismlari o'zaro mustaqil so'z urg'usini saqlagan bo'ladi (uyning eshigi, xatni o'qidim), qo'shma so'z esa umumiy bir urg'uga ega bo'ladi (oqko'ngil, bilaguzuk). Qo'shma so'zlarning ko'pchiligi tarixan so'z birikmalari asosida yuzaga kelgan.

#### **Namuna:**

1. Dori bosh og'rig'ini (so'z birikmasi) darrov qoldirdi. «Boshog'rigini (qo'shma so'z) ko'paytirmang», – dedi o'qituvchimiz. 2. Qayerdandir oqqushlar (so'z birikmasi) uchib keldi. Bola jarohatlangan oqqushni (qo'shma so'z) davoladi. 3. Qiziqchi qizil ishton (so'z birikmasi) kiygan edi. Qizilishton (qo'shma so'z) daraxt po'stlog'i orasidagi qurtlarni terib yeydi. 4. Qizil urug'dan (so'z birikmasi) ungan ko'chatlar sog'lom rivojlandi. Qizilurug' (qo'shma so'z) kechroq unadi, lekin ko'p hosil beradi. 5. Rahimjon ma'yus holda so'ri suyanchig'iga qo'l qo'ydi (so'z birikmasi). Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga qo'l qo'ydi (qo'shma so'z).

### **So'z birikmasi va turg'un bog'lanma**

1. So'z birikmasida so'zlar o'zaro erkin bog'langan bo'ladi: tushuncha anglatadi, turg'un bog'lanmalarda (iboralarda) esa so'zlar ma'noviy butunlik uchun birlashgan – yaxlitlangan bo'ladi va bir leksik ma'no anglatadi. Masalan, *maktabga bormoq* birikmasida so'zlar erkin bog'langan, tushunchani ifodalaydi. *Yog' tushsa yalaguday* iborasida so'zlar ma'nosini yo'qotib yaxlitlikda bir umumiy ma'noga ega, *toza* so'ziga teng kelib bir leksik ma'noni bildiradi.

2. Turg'un bog'lanmaga (iboraga) bir so'z sifatida qaraladi, lug'atlarda so'zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so'zlar kabi ma'no ifodalaydi. Masalan, *ko'zini yog' bosgan* iborasi mag'rurlangan, *yog' tushsa yalagudek* iborasi toza, *to'nini teskari kiyib olmoq* iborasi qaysarlik qilmoq ma'nosini beradi, ammo bu ma'nolarni oddiy emas, obrazli tarzda ifodalaydi.

3. So'z birikmalaridagi so'zlarni erkin bog'langani uchun almashtirish mumkin, turg'un bog'lanmalardagi (iboralardagi) so'zlarni almashtirib bo'lmaydi, ular bir ma'no ifodalash qonuniyati asosida turg'unlashgan, yaxlitlangan bo'ladi: bo'yniga qo'ymoq (iqror qilmoq), ko'nglidan o'tkazmoq (o'ylamoq), o'pkasi yo'q (hovliqma) kabi.


4. So'z birikmasi va turg'un bog'lanma gapda o'xshash shaklda uchrashi mumkin, lekin biri tushuncha, biri leksik ma'no ifodalaydi. Masalan, hozirgina qizcha ushlab olgan tog' *kapalagi uchib ketdi* – so'z birikmasi. Sigirning ahvolini ko'rdi-yu uning ham *kapalagi uchib ketdi* – turg'un bog'lanma (ibora).

#### Namuna:

1. Yigit oqimga qarshi suzib ariqning boshiga yetdi (so'z birikmasi). Qo'rsiligi, bema'ni gaplari axiri uning boshiga yetdi (ibora). 2. Shifokor dorini bolaning qulog'iga quydi (so'z birikmasi). Ota-bobolar nomini doim esda tutish kerakligini o'g'lining qulog'iga quydi (ibora). 3. Semiz qo'y go'shti o'z yog'ida qovurildi (so'z birikmasi). Yakka qolgan Hasanboy vijdon azobida o'z yog'ida qovurildi (ibora). 4. «Qizingizning ko'zlari yaxshi ko'radi», – dedi hakim (so'z birikmasi). «Shahzoda falon mahallada yashovchi kosibning qizini yaxshi ko'radi», – dedi tabib (ibora).

### So'z birikmalari zanjiri

Gap tarkibida bir so'z birikmasidagi hokim so'z boshqa bir so'zga tobe'langan, bir hokim so'z bir necha tobe so'z yoki bitta tobe so'z bir necha hokim so'zga aloqador bo'lgan hollarda **so'z birikmalari zanjiri** yuzaga keladi. So'z birikmasidagi tobe va hokim so'zlar orasida bir necha boshqa so'zlar hamda so'z birikmalari kelishi mumkin.




Kuzatgan bo'lsangiz, birinchi so'z birikmasi zanjirida 4 ta so'z birikmasi mavjud: *chinni piyola*, *gulli piyola*, *paxta gulli*, *paxta gulli chinni piyola*. So'z birikmasi zanjiri tarkibidagi barcha so'zlar bilvosita va bevosita *piyola* so'ziga bog'lanadi. Ya'ni so'z birikmasi zanjiri *piyola* so'zi atrofida birlashadi. Birikmadagi hokim tobe munosabatiga e'tibor bering: *chinni piyola* birikmasida




*piyola*, *gulli piyola* birikmasida *piyola*, *paxta gulli* birikmasida *gulli* so'zi, *paxta gulli chinni piyola* zanjirida *chinni piyola* birikmasi hokim so'z sifatida keladi. *Paxta gulli chinni piyola* so'z birikmasi zanjiridagi barcha so'z birikmalari tarkibidagi so'zlar o'zaro bitishuv birikish usuli asosida birikkan.


So'z birikmasi zanjirida qo'shimcha ma'lumot berish uchun qo'shilgan har bir so'z tobe so'z vazifasini bajaradi. Hokim so'z kengayib boradi. **Taqqoslang:**




*Uch kundan beri shimoldan esgan mayin shamol* so'z birikmasi zanjirida 5 ta so'z birikmasi mavjud: *mayin shamol*, *shimoldan esgan*, *shimoldan esgan shamol*, *uch kundan beri esmoq*. So'z birikmasi zanjiriga nisbatan hokim tobe munosabatiga e'tibor bering:



So'z birikmalari zanjiri bilvosita va bevosita bir bo'lakka bog'lanadi va bir bo'lak atrofida birlashadi. Masalan, *Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar* gapidagi barcha so'z birikmalari kesim atrofida birlashgan.







*daraning pillapoya kabi yotiqroy yerlaridan yuqoriga intilmoq*

Kishi moliga suq podsholarni ko'p ko'rgan Binoiy o'n olti yoshli Boburning bunchalik halolligidan juda qattiq ta'sirlandi gapida 2 ta so'z birikmasi zanjiri mavjud bo'lib, ularning biri ega atrofida, biri kesim atrofida birlashgan.

**Ega:**



**Kesim:**



Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi gapida ham so'z birikmasi zanjiri 2 ta bo'lib, ular ega va kesim atrofida birlashgan.



Ega:

zindonda yotishi

Darveshalining zindonda yotishi

Kesim:

olovini to'ldirmoq

dushmanlik olovini to'ldirmoq

yuragida dushmanlik olovini to'ldirmoq

Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldirmoq

Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi gapida 4 ta so'z birikmasi (*yaxshi tasvirlab berdi – bitishuv, fe'lli; miqyosini tasvirlab berdi – boshqaruv, fe'lli; ishlarning miqyosi – moslashuv, otli; sahrodagi ishlar – bitishuv, otli*), 1 ta so'z birikmasi zanjiri mavjud. So'z birikmasi zanjiri kesim atrofida birlashgan.

yaxshi tasvirlab berdi

miqyosini tasvirlab berdi

ishlarning miqyosini tasvirlab berdi

sahrodagi ishlarning miqyosini tasvirlab berdi

### So'z birikmalarida tobe va hokim so'z munosabati

So'z birikmalari tarkibidagi hokim so'zlar qaysidir so'zga nisbatan tobe, qaysidir so'zga nisbatan hokim so'z vazifasini bajarishi mumkin. Demak, gapda so'z birikmalari tarkibidagi so'zlar ham hokim, ham tobe so'z vazifasini bajaradi. Masalan, Badanni junjituvchi sovuq shamol izg'ib qoldi. Ushbu gapda 2 ta so'z birikmasi (*junjituvchi shamol, badanni junjituvchi*), 3 ta tobe bog'lanish (*junjituvchi shamol, badanni junjituvchi, shamol izg'ib qoldi*) mavjud. So'z birikmalari taqqoslang:

*junjituvchi shamol* (shamol – hokim, junjituvchi – tobe)  
*badanni junjituvchi* (badanni – tobe, junjituvchi – hokim)

Gapdagi *junjituvchi* so'zi ham hokim, ham tobe so'z vazifasini bajargan. Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitdi gapida **6 ta** so'z birikasi mavjud.

*xomushgina silkitmoq*

*darpardani silkitmoq*

*kirayotgan shamol*

*tabaqasidan kirmoq*

*ochiq tabaqa*

*derazaning tabaqasi*

Ushbu gap tarkibidagi so'zlar orasida *tabaqa* va *kirayotgan* so'zlari ham hokim, ham tobe so'z vazifasida kelgan.

### So'z birikmasi va gap

So'z birikmasi ham, gap ham so'zlarning grammatik aloqaga kirishuvidan yuzaga keladi. So'z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirgan holda anglatadi. Gap esa ma'lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapning markazi kesimdir. U kesimlik qo'shimchalari bilan shakllangan bo'ladi. Demak, gap so'z birikmasidan kesimlik belgisining mavjud bo'lishi va bo'lmasligiga ko'ra farqlanadi.

**Taqqoslang:** *Qiziqarli mashg'ulot – Mashg'ulot qiziqarlidir. Oydin kecha – Kecha oydindir. Maqolani o'qimoq – Maqolani o'qidim. Qattiq sovuq – Sovuq qattiqdir. O'qishli asar – Asar o'qishli.*

### Gap haqida umumiy ma'lumot

**Gap** biror voqea-hodisa haqidagi xabarni, so'roqni yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikdir. Gap so'z birikmasidan kesim va ega yoki faqat kesim bo'laklariga aloqador grammatik asosga egaligi bilan farq qiladi. so'z birikmasi **tushuncha**, gap esa **fikr** ifodalaydi. Grammatik asosda gapning fikriy mundariyasi ifodalanadi. Bu fikriy mundarija fe'l kesimning **mayl** va **zamon** ma'nolari bilan bog'liq bo'ladi.

Masalan, *Bolalar ishlayaptilar. Ozoda rasm chizmoqda* gaplari ish-harakatning hozirgi zamonda bo'layotganidan darak beradi. *Siz dalaga borasizmi? Sen hikoyani o'qingmi?* gaplari o'tgan zamonda bo'lgan ish-harakat haqida so'roqni bildiradi. *Siz she'rni o'qing. Siz shu ishni bajarib qo'ysangiz* gaplari istak-buyruq ma'nosiga ega.

Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan, ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi.

Biz morfologiya bo'limida o'rgangan kelishik, egalik, son, shaxs-son qo'shimchalari, shuningdek, ko'makchi va bog'lovchilar sintaksisda so'zlar-



ni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Ayrim hollarda gapdagi so'zlar tartib va ohang yordamida ham o'zaro bog'lanadi. Masalan, *Oq paxtalar ochildi, Te-raylik quvnab-quvnab*. Bu gapda oq va paxtalar so'zlari bir-biri bilan so'z tartibi orqali bog'langan.

Har bir gap biror maqsad-mazmunni ifodalaydi. Og'zaki nutqda ana shu mazmunga mos keladigan tugal ohang bo'ladi. Ohang, ayni paytda, gaplarni bir-biridan ham ajratib turadi.

**Ohang** gap uchun eng muhim belgidir. Ayrim so'z (Kuz. Tong.) yoki so'z birkmalarini tugallik ohangi bilan aytsak, gap yuzaga keladi va biror fikr-maqсад anglashiladi: Ko'm-ko'k dala. G'arbiy chegaralardan biri.

Ayni bir sodda gapning ohangini o'zgartirish orqali ba'zan uch xil mazmun ifodalash mumkin: *Buvijonim keldilar. Buvijonim keldilar! Buvijonim keldilar?*

### **Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari**

Har bir gapda ma'lum bir maqsad, niyat yoki his-hayajon ifodalanadi. So'zlovchi biror narsa, voqea-hodisa haqida xabar qiladi yoki o'ziga no-ma'lum bo'lgan narsa va voqea-hodisalar to'g'risida ma'lumot olishni istaydi, tinglovchiga biror ishni bajarish bo'yicha buyruq-xitobni bildiradi. Gaplar ana shu maqsadlariga ko'ra turlicha quriladi; o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, alohida ohang bilan talaffuz etiladi.

So'zlovchining so'zlash maqsadiga xoslangan gap turlari gapning **ifoda maqsadiga ko'ra turlari** deyiladi. Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar 4 turga bo'linadi: 1) **darak** gaplar, 2) **buyruq** gaplar, 3) **so'roq** gaplar, 4) **istak** gaplar.

### **Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari**

Siz ma'lum bir axborotni boshqalarga yetkazmoqchi bo'lsangiz darhol shu maqsadingizga muvofiq keladigan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Bunday gaplarning xarakterli xususiyati shundaki: 1) kesimi tasdiq yoki inkor shaklida turgan aniqlik maylidagi fe'llar bilan, ba'zan tasdiq yoki inkor shaklidagi otlar bilan ifodalanadi; 2) yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisani tasdiq yoki inkor qilish yo'li bilan ifodalaydi; 3) darak ohangi bilan talaffuz qilinadi; 4) darak ohangi gap oxiriga qarab pasayib boradi; 5) gap bo'laklari to'g'ri tartibda joylashadi.

**Eslatma!** Kesimi aniqlik maylidagi fe'llardan, tasdiq yoki inkor ma'nosini bildiruvchi otlardan ifodalanib, biror voqea-hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplar darak gaplar deyiladi.

Masalan, Ana bu – bizning bog'imiz.

Yozuvda darak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Ba'zan darak gaplardagi gap bo'laklarining me'yordagi tartibi o'zgarishi mumkin.

Masalan:

a) Urug'chilik instituti shahar markazidan xiyla chetda joylashgan;

b) Shahar markazidan urug'chilik instituti xiyla chetda joylashgan;

d) Xiyla chetda joylashgan Urug'chilik instituti shahar markazidan uzoqda edi.

Darak gaplardagi bunday uch xil gap bo'laklarining tartibi gapning umumiy mazmunini bir xil ifodalasa ham, lekin uslubiy xoslanganlik va gap bo'laklaridan birining ahamiyatlilik darajasini ifodalashiga ko'ra o'zaro farqlanadi: **a** va **b** gaplar kitobiy uslubga, **d** gap esa so'zlashuv uslubiga xoslangan. So'zlashuv uslubida maqsadga qarab bo'laklarning o'rni o'zgartiriladi.

Darak gaplar ma'lum axborotni tasdiq va inkor yo'li bilan ifodalaydi. Kesi-mi bo'lishsiz fe'llardan, yo'q, emas so'zlarini olgan sifatdosh va otlardan ifodalangan gaplar darak-inkor gaplar sanaladi.

**Eslatma!** Ba'zan gapning inkor shakli orqali tasdiq ma'nosi ifodalanadi. Bunday vaqtda ikkita inkor shakli qo'llanilib gapga tasdiq ma'nosini beradi. Masalan, *o'qimay qo'ymayman*. Inkor shakli orqali ifodalangan tasdiq ma'no-si tasdiq shakli orqali ifodalangan tasdiq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

### So'roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

O'zingizga noma'lum voqea-hodisa haqida axborot olish uchun tarkibida so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari yoki so'roq ohangi bo'lgan gap shaklini (qolipini) tanlaysiz. Masalan, uyingizga kimdir keldi, lekin bu shaxsning kimligini bilmaysiz. Ana shu shaxs haqida aniq ma'lumot olish uchun kim keldi deb so'raysiz va so'rog'ingizga kelgan shaxs haqida aniq ma'lumot olasiz. Demak, **so'roq gaplar** so'roq ma'nosini bildirgan gaplardir.

So'roq gaplar 3 xil yo'l bilan hosil qilinadi:

1. So'roq olmoshlari yordamida. Bunday so'roq gaplar so'roqqa javob bo'luvchi so'zni talab qiladi. Masalan:

– *Nechanchi sinfda o'qiysan?*

2. So'roq yuklamalari yordamida. -mi, -chi yuklamalari so'roq yuklamalar sanaladi. Yozuvda -mi yuklamasi so'zga qo'shib, -chi, -a, -ya yuklamalari so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Bunday so'roq gaplar ha yoki yo'q javoblarni talab qiladi. *Ha* va *yo'q* so'zlarini javob tarzida qo'llab, so'ngra unga izoh beriladi. Masalan:

– *Sen akademik litseyda o'qiysanmi?*

– *Ha, men akademik litseyning bitiruvchi o'quvchisiman.*

– *Bu litseymi?*

– *Ha, bu litsey.*

3. So'roq ohangi yordamida. Bunday gaplarni ohang yordamida vujudga keltirish mumkin. *Tunda yo'lga chiqamiz. Tunda yo'lga chiqamiz?*

Gapning biror bo'lagini takrorlash orqali ham so'roq gap hosil qilinadi. Bunday holatlar taajjub, ajablanish, gapga tushunmaslik kabi ma'nolarda ishlatiladi. Masalan: *Bugun bora olmayman. Bugun?*



## So'roq gaplarning uslubiy xususiyatlari

Ba'zan nutqda so'rash uchun emas, ma'lumotni yetkazish, buyurish uchun ham so'roq gap shakllaridan foydalanamiz. Bu esa uslubiy bo'yoqdorlikni yuzaga keltiradi, gaplar orasida sinonimik munosabat hosil bo'ladi. Shunga ko'ra **asl so'roq gaplardan** tashqari so'roq shaklli **so'roq-darak gaplar** hamda **so'roq-buyruq gaplarni** ajratamiz.

1. *So'roq-darak gaplar* – ritorik so'roq gaplar. Ba'zan darak ma'nosini ifodalash uchun so'zlovchi darak shaklidan (qolipidan) emas, balki so'roq gap shaklidan (qolipidan) foydalanadi. Ritorik so'roq gaplar javob talab qilmaydi. Bunday so'roq gaplarning javobi gapning ichida bo'ladi. Masalan: *Buni kim bilmaydi? (Hamma biladi.)*

So'roq gap kesimi bo'lishsiz fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa tasdiq darak gap ma'nosini; aksincha, bo'lishli fe'llar bilan ifodalangan bo'lsa inkor darak gap ma'nosini bildiradi. Qiyoslang:

*Onalarni kim ham e'zozlamaydi? – Onalarni hamma ezozlaydi.*

*Bu daraxtni kesishga kim jur'at qiladi? – Bu daraxtni kesishga hech kim jur'at qilmaydi.*

So'roq gap orqali ifodalangan darak ma'nosi darak gap orqali ifodalangan darak ma'nosidan kuchliroq bo'ladi.

1. *So'roq-buyruq gaplar*. So'roq gap shakli orqali darak gap ma'nosi ifodalanganidek, so'roq gap shakli orqali buyruq ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Masalan: – *Yurmaysanmi?* («yuring» ma'nosida); *Yozmaysanmi?* («yoz» ma'nosida)

So'roq gap orqali ifodalangan buyruq gap ma'nosi buyruq gap orqali ifodalangan buyruq ma'nosidan kuchliroq bo'ladi. Bunday so'roq gaplar so'roq-buyruq gaplar deyiladi.

## Buyruq gaplar

Ma'lum bir harakat-holatni, voqea-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka tinglovchini da'vat etmoqchisiz. Ana shu joyda kesimi buyruq maylidagi fe'llardan ifodalangan gaplardan foydalanasiz. Masalan, *Oldin o'yla, keyin so'yla*.

Kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanib, buyurish, da'vat qilish ma'nolarini bildirgan gaplar **buyruq gaplar** deyiladi. Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe'llar orqali ifodalanadi. Masalan, *Bugungi ishni ertaga qo'yma*.

**Eslatma!** Buyruq gaplarning buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalangan kesimi ba'zan tushib qolishi mumkin, lekin uning izi nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan, *Hamma paxta terimiga!*

Buyruq gap oxiriga nuqta, ba'zan undov belgisi (his-hayajon bilan aytilsa) qo'yiladi.

Buyruq gaplarning kesimi aniqlik nisbati, II shaxs, buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Masalan, *Chekmang!*

Ba'zan majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanishi ham mumkin. Masalan, *Ishga qabul qilinsin*.

### Buyruq gaplarning uslubiy xususiyatlari

**Eslatma!** Ayrim hollarda III shaxs buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gapning kesimi II shaxs ma'nosida qo'llaniladi. Masalan, *Chekmaning o'rniga Chekilmasin. Uyga kiring o'rniga Uyga kirilsin*. Bunday vaqtda *Ittifoq mulozamat bildirish, kesatliq* kabi ma'nolar ifodalanadi.

Buyruq gapning kesimi, odatda, gap oxirida keladi. Ba'zan buyruqni kuchaytirish, do'q-po'pisa ma'nosi ifodalanganida kesim gap boshida keladi. Masalan, *Qo'lingizni oling o'rniga Oling qo'lingizni* kabi.

### Istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari

Nutq jarayonida boshqalarga o'zingizning istak-xohishingizni bayon qilgingiz kelsa ana shu maqsadingizga muvofiq kesimi shart-istak maylidagi fe'l bilan ifodalangan gap shaklini tanlaysiz. Masalan, *Toshkentga borsam. Mustaqillik maydonini ko'rsam*.

Kesimi shart-istak maylidagi (-sa) fe'llar orqali ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi. Masalan:

*Qanday yaxshi,  
Bog'larda gul ko'karsa.  
Qanday yaxshi,  
Do'stlar safi ko'paysa.*

*Qanday yaxshi,  
Do'stlar senga ishonsa.  
Qanday yaxshi,  
Quvontirsa, quvonsa. (Po'lat Mo'min)*

### Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari

So'zlovchining gapga his-hayajoni qo'shilish yoki qo'shilmasligiga ko'ra gaplar 2 turga bo'linadi:

- 1) **his-hayajonsiz gaplar;**
- 2) **his-hayajon (undov) gaplar.**

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak, buyruq, so'roq, istak gaplariga so'zlovchining his-hayajoni qo'shilishi natijasida his-hayajonli gaplar hosil qilinadi. *Ey Vatan! Polvonlaring bor bo'lsin! Uyg'oq bo'lsin!* (Y.Eshbek)

So'zlovchining hayajoni qo'shilmagan har qanday darak, so'roq, buyruq, istak gaplar his-hayajonsiz gaplar deyiladi. His-hayajon gaplar **undov gap** atamasi bilan ham nomlanadi. Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi.



His-hayajonli gaplar quyidagi yo'llar orqali hosil qilinadi:

1. *Qancha, naqadar, qanday, shunchalar* so'zlari bilan: *Naqadar go'zal manzara!*

2. Undov so'zlar bilan: *Ur-ra! Ertaga borar ekanmiz!*

3. Kesimni gapning oldida keltirish bilan: *Oh, naqadar go'zal ona tabiat!*

Agar so'roq gaplar his-hayajon ohangi bilan aytilsa, so'roq va undov belgisi birga ishlatiladi. Avval so'roq, keyin undov belgisi qo'yiladi: *Qo'shiqdan kim bahra olmaydi?!*

### Sodda gap haqida umumiy ma'lumot

Sodda gap tarkibida kesimlik shakllariga ega bitta kesim bo'ladi. Sodda gap tarkibidagi barcha bo'laklar shu kesim atrofida birlashadi. Qo'shma gap tarkibida esa ikki va undan ortiq (uyushmagan) kesim bo'ladi.

Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplar **sodda** (bir grammatik asosli) va **qo'shma** (ikki va undan ortiq grammatik asosli) gaplarga bo'linadi.

**Qiyoslang:**

*Bu shaharda tanish-bilish yo'qligi Mirzayevga shu bugun bilindi.*

*Kampirning ko'zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi.*

Sodda gaplar eganing ishtirok etish yoki etmasligiga ko'ra ikkiga bo'lindi: **egasl mavjud** gaplar (**Biz yangi filmni tomosha qildik**) va **egasiz** gaplar (**Yangi filmni tomosha qildik**).

Sodda gaplar ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etgani yoki etmagani ko'ra **sodda yig'iq** gaplar (**Kamola kirib keldi**), **sodda yoyliq** gaplarga (**Kamola darvozadan shoshilib kirib keldi**) bo'linadi.

### Sodda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari. Yig'iq va yoyliq gaplar

Fikrimizni birgina kesim orqali ham bayon qila olamiz. Shuning uchun gapning eng kichik ko'rininshi faqat kesimdan iborat bo'lgan gaplardir. Kesimning ma'nosini kengaytirish ehtiyoji tug'ilganida boshqa bo'laklardan foydalaniladi.

Kesim va kesimdan boshqa bo'laklarning ishtirok etishiga ko'ra (ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etishiga ko'ra) gap 2 turga bo'linadi:

1. **Yig'iq gaplar.**

2. **Yoyliq gaplar.**

Faqat kesimdan (ega va kesim) tashkil topgan gaplar **yig'iq gaplar** sanaladi. Masalan, *Keldim. Kuz.*

Kesimdan tashqari boshqa bo'laklar (ikkinchi darajali bo'laklar) ishtirok etgan gaplar **yoyliq gaplar** sanaladi. Masalan, *U yoyilib kuldi.*

### To'liq va to'llqsiz gaplar

Dialogik matnda fikrni ifodalash uchun har doim ham kerak bo'ladigan barcha bo'laklar ishtirok etavermaydi. Nutqni ixchamlashtirish, ortiqcha

so'zlardan qutulish uchun so'zlashuv jarayonida ba'zi bo'laklarni tushirib ishlatishga to'g'ri keladi. Bu bo'laklarning o'rni nutqiy vaziyatda bilinib turadi. Oldingi gap orqali anglashiladi.

Gaplar o'z bo'laklarining to'la ifodalangani yoki ifodalanmay qolganiga (tushib qolganiga) ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. To'liq gaplar.
2. To'liqsiz gaplar.

To'liq va to'liqsiz gaplar, odatda, dialoglarda beriladi. To'liq yoki to'liqsiz gap ekanligini solishtirish uchun qolip gap dialogda beriladi.

Biror bo'lagining ifodalanmagani sezilmaydigan, fikr ifodalash uchun zarur bo'lgan hamma bo'laklari saqlangan gaplar to'liq gaplar sanaladi. Masalan:

- *Shoira o'zi yozgan she'rni o'qidi.*
- *Shoira nimani o'qidi?*
- *Shoira o'zi yozgan she'rni o'qidi.* (To'liq gap)

Suhbat nutqida matn ichida qo'llanib, biror bo'lagi tushirib qoldirilgan va u nutq sharoitidan anglashilib turadigan gaplar to'liqsiz gaplar deyiladi. Masalan:

- *Sherali qani?*
- *Ichkarida.*

To'liqsiz gap uchun zaruriy umumiy qoida va qonuniyatlar mavjud emas. Qaysi bo'lakning qoldirilish kerakligini va qaysi bo'lakni tushirish mumkinligini faqat nutq sharoiti belgilaydi.

To'liqsiz gaplarda xohlagan bo'lak tushirib qoldirilishi mumkin. Masalan:

#### **1. Kesim va to'ldiruvchi:**

- *Seni qurol ushlashga qaysi nomard majbur qildi?*
- *Vijdonim, xalqimning amri.*

#### **2. Ega va to'ldiruvchi:**

- *Siz ham she'r yozyapsizmi?*
- *Yozyapman.*

#### **3. Ega, kesim, to'ldiruvchi:**

- *Ishni men kimdan qabul qilib olayotirman?*
- *Qo'mita a'zosidan.*

#### **4. Hol:**

- *Kim muzeyga bormoqchi?*
- *Hammamiz boramiz.*

### **Gapning tuzilishiga ko'ra turlari**

Nutqimizdagi gaplar bir yoki ikki grammatik asosdan tuzilishi mumkin. Kesim gapning asosiy grammatik asosi sanaladi. Shu jihatdan gaplar ikkiga bo'linadi: 1) **sodda gaplar**; 2) **qo'shma gaplar**.

Grammatik asosi bitta bo'lib, ma'lum bir fikrni (ba'zan unga qo'shimcha ravishda his-hayajonni) ifodalovchi gaplar **sodda gap** deyiladi: *Shahnoza*



*o'qidi. Shahnoza kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni o'qidi. Shahnoza shu kitobni hayajon bilan o'qidi.*

Ikki va undan ortiq grammatik asosdan tashkil topib, murakkabroq fikr anglatuvchi gap **qo'shma gap** deyiladi: *Shu payt eshik ochildi va hovliga harbiycha kiyingan bir yigit kirib keldi. Bilimli o'zar, bilimsiz to'zar. Odam borki, odamlarning naqshidir.*

### **Gapning bo'laklarga ajratilishi**

Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap tarkibidagi o'zaro tobe bog'lanishda bo'lgan so'zlardan bittasi tobe bo'lak, ikkinchisi hokim bo'lak vazifasini bajaradi. Tobe bo'lak hokim bo'lakka bog'lanib hokim bo'lak talab etgan sintaktik vazifada keladi. Ana shu vazifa gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

**Eslatma!** Gap tarkibida tobe bog'lanib ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi so'z yoki so'z birikmasi **gap bo'lagi** sanaladi.

Faqat mustaqil so'zlargina gap bo'laklari vazifasini bajaradi. Har bir gap bo'lagi boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi, ya'ni har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi. Masalan, *Dildora kecha uchrashuv haqida zavqlanib gapirdi* gapida quyidagi gap bo'laklari mavjud: *Dildora* (kim?) – ega, *kechagi* (qachongi? qaysi?) – aniqlovchi, *uchrashuv haqida* (nima haqida?) – to'ldiruvchi, *zavqlanib* (qay tarzda?) – hol, *gapirdi* (nima qildi?) – kesim.

So'zlar quyidagicha sintaktik aloqaga kirishgan: 1) *Dildora gapirdi*; 2) *zavqlanib gapirdi*; 3) *uchrashuv haqida gapirdi*; 4) *kechagi uchrashuv*.

Gap bo'laklari 5 ta: kesim, ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol.

Demak, gap bo'lagi tobe bog'lanish doirasida, tobe qism vazifasida kelgan bo'lak hisoblanadi. Uning qaysi bo'lak vazifasida kelayotgani hokim bo'lakka nisbatan aniqlanadi.

Gapda kesimgina boshqa bo'laklarga nisbatlanmagan holda aniqlanadi, chunki uning kesim ekanini kesimlik shakllari ko'rsatib turadi. Shuning uchun uni gap tarkibidan topish qiyinchilik tug'dirmaydi. Qolgan bo'laklar kesimga nisbatan aniqlanadi. Boshqa bo'laklar javob bo'lishi lozim bo'lgan so'roqlar kesimga qarab belgilanadi. Masalan, *Sen Pushkinning sevgan malagi* gapida *kim?* so'rog'iga *kesim* vazifasidagi *malagi* bo'lagida bog'lanadi. *Kim?* so'rog'iga javob bo'luvchi bo'lak ega vazifasida keladi. Demak, ega ham kesimga nisbatan belgilanadi.

**Eslatma!** Gapning gap sifatida shakllanishida muhim bo'lgan, uning mazmuniy va grammatik markazi hisoblanuvchi bo'lak – kesim. Shuning uchun u gapning eng muhim bo'lagi, bosh bo'lak sanaladi.

Ega kesimga ergashib kesimda ifodalangan belgi, harakat-holatning bajaruvchisini ko'rsatadi va kesimdan keyingi bo'lak sanaladi.

To'ldiruvchi va hol bo'laklari kesim bilan tobe munosabatga kirishib ularni to'ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shuning uchun ular ikkinchi darajali bo'laklar deb yuritiladi.

Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo'laklarga bog'lanib ularning ma'nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo'lak bilan munosabatda bo'lsa, shu bo'lak bilan birgalikda bitta gap bo'lagi, birikmali gap bo'lagi bo'lib keladi.

Aniqlovchi shu birikmali gap bo'laklarining bo'lagi sifatida keyingi bosqichda ajralib chiqadi.

Shunday qilib, gap bo'laklari bir necha darajalarga bo'linadi:

1. Bosh bo'laklar: kesim, ega.
2. Ikkinchi darajali bo'laklar: to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi.

### Kesim va uning ifodalanishi

Kesim gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi.

Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda katta. U hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi.

Kesim *nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? (ba'zan nechanchi? qanday?)* so'roqlariga javob bo'ladi.

Kesimlik ma'nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Kesimlik ma'nolari shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, modal shakllar orqali ifodalanadi. Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin.

Masalan, *yozmasaydim: yoz – ma* (tasdiq-inkor) – *say* (mayl) – *di* (zamon) – *m* (shaxs-son). Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma'nolarini ifodalaydi.

Masalan, *keldi: kel – di* (o'tgan zamon, III shaxs, tasdiq, aniqlik mayli) yoki *o'quvchiman: o'quvchi – man* (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik mayli).

Ba'zan kesimlik ma'nolari nol shakl orqali ifodalanadi. Masalan, *Kel* (kelasi zamon, II shaxs, tasdiq-buyruq mayli) yoki *Men o'quvchi* (I shaxs, hozirgi zamon, tasdiq, aniqlik).

*Ishlasang, tishlaysan* maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi *nima qilsang?*, ikkinchisi *nima qilasan?* so'roqlariga javob bo'ladi. *Otam – o'qituvchi* gapidagi o'qituvchi so'zi kesim hisoblanib, *kim?* degan so'roqqa javob bo'ladi. Ikki gapdagi kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra faqrlanadi. Shunga ko'ra kesim ikki turga bo'linadi. Kesim qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil turga bo'linadi: **1. Fe'l kesim. 2. Ot kesim.**



## Fe'l kesim va ot kesim

Fe'ning turli shakllari orqali ifodalanib nima qilmoq, nima bo'lmoq so'roqlariga javob bo'ladigan kesim **fe'l kesim** deyiladi.

Fe'l kesimlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) sof fe'l kesimlar: Men maktabga **boraman**. Mo'tabar eshikni sekin yopib **chiqib ketdi**;

b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim: Uy egasi dasturxonni oldiga **yozguncha** Fotima ham barkashni olib keldi. (*S.Ahmad*) Motor **gurillab**, mashina oldinga intildi;

d) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: It **hurar** – karvon **o'tar**. Po'lat xatni kecha **yuborgan**.

Fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so'z) bilan, shuningdek, fe'ning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesim **ot kesim** deyiladi. Ot kesimlar quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: Teshaboy ashaddiy **dushman**-u siz xizmatini qilayotgan depo xo'jayini **do'stmi?** (*M.Ismoilij*) Yaxshi ro'zg'or – **jannat**, yomon ro'zg'or – **do'zax**. (*Maqol*)

2. Sifat bilan: Usti **yaltiroq**, ichi **qaltiroq**. (*Maqol*) Mingbuloq o'zi **yaxshi**, suv **serob**, lekin u **qarovsiz**. Uning Vohid Mirobiddinov haqidagi gaplari ham qiziq.

3. Son bilan: Birniki – **mingga**, mingniki – **tumanga**. (*Maqol*) Bu **birinchi**si. Ikki marta ikki – **to'rt**. Sanasangiz – sanamasangiz ham hammasi **qirqta**.

4. Olmosh bilan: Maqsadim – **shu**. O'zim har joydaman, ko'nglim **sandadur**. (*Muqimiy*) Oltita bolani bag'riga olgan Mahkam taqachi – **shu**.

5. Ravish bilan: Sizdan umidim **ko'p**.

6. Modal so'z bilan: Yo'qoling, siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim **yo'q**. Tabiatda hech qanday sirli kuch ta'sirida ro'y beradigan narsa **yo'q**.

7. Harakat nomi bilan: Burchimiz – a'lo **o'qish**. Chin so'zni yolg'on demak xo'b emas, dog'i bori chin **degulik emas**. (*A.Navoiy*) Bu qarorni amalga oshirishdagi birinchi qadam – **o'qish**, o'qiganda ham a'lo **o'qish edi**. Tez **hal qilish kerak**, talabgorlar ko'p (ravish).

Fe'l kesimlar shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl ma'nolarini kesimlik (fe'l) orqali ifodalaydi. Ot kesimlarda esa otni kesim qilib shakllantirish uchun maxsus vositalar (-man, -san, -dir, bo'la (-man, -san, -di), hisoblana (-man, -san, -di), sana (-man, -san, -di) qo'shiladi. Masalan:

*U o'quvchi (dir).*

*U o'quvchi hisoblanadi.*

*U o'quvchi sanaladi.*

**Ot kesimni shakllantiruvchi bunday vositalar bog'lama deyiladi.**

Bog'lama ba'zan qo'llanmasligi ham mumkin. Bunday vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi. Masalan, *U o'quvchi*.

### Sodda kesim va murakkab kesim

Kesimlar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda kesim va murakkab kesim. Birgina so'z bilan ifodalangan kesim **sodda kesim** deyiladi: *Paxta va til-ladan yurt bezanadi. Alisher Navoiy – g'azal mulkinging sultoni*.

Ikki va undan ortiq so'z bilan ifodalangan kesim **murakkab kesim** deyiladi: *Ayozli kunlar asta-sekin o'tib borayotir. Uchrashuv qiziqarli bo'ldi*.

Murakkab kesim tarkibidagi so'zlardan biri yordamchi so'zlardan (ko'makchi fe'l, bog'lama, nisbiy so'zlardan) bo'lishi mumkin.

#### Namuna:

*Dugonam tashqariga ko'z qirini tashladi. Keksa bog'bon ko'm-ko'k ajriq ustida o'tirib hordiq chiqardi. Boshqa xonada bolalar uxlab qolishibdi. Men kutib olishim kerak. Fikrlar o'ziniki bo'lsin.*

### Murakkab ot kesimlarning tuzilishi

Murakkab ot kesimlar **ot** (keng ma'noda) + **bog'lama** vazifasida kelgan yordamchi fe'l yoki ko'makchi fe'l tarzidagi qo'shiluvdan hosil bo'ladi. Bunda asosiy ma'no otdan anglashiladi, **ko'makchi** yoki **to'liqsiz fe'l** qo'shimcha ma'no bildiradi va kesimning ega bilan bog'lanishini ta'minlaydi. Masalan, *Men talaba bo'laman*.

Kesim bilan egani bog'lashga xizmat qiluvchi bunday so'zlar **bog'lama** deyiladi. Bog'lamalar asl mustaqil ma'nosini to'la yoki qisman yo'qotib yordamchi vazifasiga ko'chgan. Ularning vazifasi fe'l bo'lmagan so'zlar bilan qo'shilib kesimni shakllantirish, ya'ni mayl, zamon, shaxs-son ma'nolarini ifodalashdan iborat.

Kesimni shakllantirishga xizmat qiladigan bunday bog'lamalar **bo'l-, edi, ekan, emish, hisoblan-, sana-** kabi yordamchilardir.

**Kerak, zarur, darkor** so'zlari ham bog'lama vazifasida qo'llanadi.

#### Namuna:

1. O'sha kuni sovuq qattiq **edi**. 2. Bu katta ahamiyatga ega **hodisa hisoblanadi**. 3. Men **kutib olishim kerak**. 4. Akam **talaba bo'ldi**. 5. Fikrlar **o'zing-niki bo'lsin**. 6. Ular **besh kishidan iborat edi**. 7. Qo'shni xona doimo **ozoda bo'ladi**. 8. Chaqaloqni **bir ko'rgim keldi**. 9. So'zga **chiqishing zarur**. 10. Ham-masini **aytib berishing darkor**.

### Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi

Kengaygan birikma va iboralar yaxlit holda bitta gap bo'lagi bo'lib keladi hamda o'z ichida boshqa bo'laklarga ajratilmaydi. Bunday kesimlar tuzilishiga ko'ra murakkab kesimlar sanaladi.



## Namuna:

*Respublikamizning eng nufuzli bilim dargohi O'zbekiston Milliy universitetidir (birikma bilan). Toshkent – O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir (birikma bilan). U birdaniga to'nini teskari kiyib oldi (ibora bilan).*

### Kesimning kengaygan birlikma bilan ifodalanishini kuzating:

1. *Vazifamiz – bilim maskanlarida hamisha a'lo o'qish. Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad – milliy o'zligimizni chuqurroq anglash. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratishdir. Komil insonlardagi olijanob xislat – o'tmishni unutmazlik.*

## Ega va kesimning moslashuvi

Ega kesim bilan grammatik va mazmun tomonidan bog'langani uchun doimo kesimning shakliga mos shaklda turadi. Eganing kesim shakliga mos (shaxs-son) shaklda kelishi moslashuv deyiladi.

Masalan, *talabaman* kesimi I shaxs birlikda turganligi uchun uning egasi ham I shaxs birlikdagi olmosh – *men*. Yoki *ishlaysiz* kesimi II shaxs birlikda turgani uchun uning egasi ham II shaxs birlikdagi olmosh – *siz*.

Kesim ega bilan ba'zan son shakli bo'yicha moslashmasligi mumkin.

1. Ega narsa, hayvonlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganida kesim bilan moslashmaydi. Masalan, *Qushlar sayraydilar* emas, *qushlar sayraydi*. Ushbu gapda ega shaxsda moslashgan, biroq sonda moslashmagan.

2. Gapning kesimi *sifat, son* kabilar bilan ifodalanganida ega bilan kesim moslashmasligi mumkin. Masalan: *Zokirning otasi, onasi, ukasi, hatto opasi ham sap-sariq. Kelgan mehmonlar – beshta*. Ushbu gapda ham ega va kesim shaxsda moslashgan, biroq sonda moslashmagan.

3. Ega tarkibida *ko'p, kam, oz, beshta* kabi so'zlar ishlatilsa ham, kesim ko'plikda emas, birlikda qo'llanadi. Masalan, *Ko'p odamlar keldi*. Ushbu gapda ham ega va kesim shaxsda moslashgan, biroq sonda moslashmagan.

4. *Men* olmoshi o'rnida almashib qo'llanuvchi *kamina, kaminayi kamtariningiz, bandayi ojizingiz, faqiringiz* kabi so'zlar ega vazifasida kelsa, kesim I va III shaxsda qo'llanadi. Masalan, *Kamina bu ishni bajardi*. Ega va kesim shaxsda moslashmagan.

5. Hurmat ma'nosida ishlatilganida ega va kesim sonda moslashmasligi mumkin. Masalan, *Dadam keldilar*.

**Eslatma!** Kesim ot kesim bo'lib, uning kesimlik shaklini ko'rsatuvchi bog'lamalar qo'llanilmasa, u vaqtda kesim ohang yordamida shakllanadi.

Ot kesimning kesimlik shakllari maxsus ifodalanmay, ohang yordamida shakllanganida tugallangan ohangni ifodalash uchun ega bilan kesim o'rtasiga yozuvda tire qo'yiladi. Masalan, *Ro'paradagi bino – maktab. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Samarqand – azim shahar.*

## Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi

Quyidagi hollarda ot kesim va ega orasiga tire qo'yiladi:

**1. Ot kesim kesimlik qo'shimchalarisiz yoki bog'lamasiz qo'llanganida:**

Tinchlik – farovon hayot manbai. Uch karra uch – to'qqiz.

**2. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, kesim tarkibida bog'lama yoki kesimlik qo'shimchasi bo'lmaganida:**

**O'qish – ulg'ayish.** Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat. Maqsadim – o'qimoq.

**3. Ega ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganida:**

**Bu** – siz uchun katta sinovdir.

**4. Kesim ko'rsatish olmoshi bilan ifodalanganida:**

Taniganim – shular. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi – shu.

**5. Eganing ma'nosi ta'kidlab ko'rsatilganida:**

**Men** – mana shu minglarning biriman. **Urush** – quyon ovi emas. **Sen** – bizni ozod etuvchisan.

**Ega bilan kesim orasida quyidagi hollarda tire qo'yilmaydi:**

**1. Ot kesim tarkibida bog'lama ishtirok etsa:**

Respublikamizning eng nufuzli bilim dargohi O'zbekiston Milliy universitetidir. Akam uchuvchi bo'ladi.

**2. Kesim sifat, son, modal so'z, ravish bilan ifodalansa:**

Toshkent go'zal. Tabiatda hech qanday sirli kuch ta'sirida ro'y beradigan narsa yo'q. Sanasangiz ham, sanamasangiz ham hammasi qirqta. Kelajakda orzularim ko'p.

**3. Agar ega bilan kesim orasida ham yordamchisi bo'lsa:**

Bular ham a'lochi. Mening opam ham talaba. Sharifa ham to'quvchi.

**Namuna:**

Ochiq yuzlilik – bekning yaxshi fazilatlaridan biri. 2. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik – nodonlar ishi. 3. Fisq-fasod – qut-saodat dushmani. 4. Vazirlik – ulug' ish. 5. Tamagirlik – kishining boshiga bitgan balo. 6. So'zga chechanlik – kirishimlilik alomati. So'zi go'zalning ishi ham yurishadi. Xotira baquvvatligi – elchiga ziynat. 7. Sirni eshitishga qobil bo'lgan ikki kishi bor: ularning birinchisi – vazir, boshqasi – kotib. 8. Bu dunyodagi eng yirik yov – nafsing. 9. Qorin to'ysa, arpa ham, holva ham bir xil – ikkalasi ham ortib qolaveradi. 11. Ko'ngil chopmagan ishni qilish – xatar. (*«Qutudg'u bilig»dan*)

**Namuna:**

1. Qo'l yuguri – oshga, til yugurigi – boshga. 2. Mehmonlarning aksariyati o'rta yoshli, o'ttiz-qirq orasidagi odamlar edi. 3. Yaxshining gapi – moy, yomonning gapi – loy. 4. Hosilning otasi – suv, onasi – yer. 5. Yaxshi niyatli kishilarning ahdi – shu. 6. Mardga o'lim yo'q. 7. Ozod yuraklarga baxt nuri to'lgan.



## Mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari

Tilimizda shart mayli shakli (**istak gaplar bundan mustasno**) nomustaqil kesimlik shaklini yasashga xizmat qiladi. Bunday kesimli gaplarning mustaqil ravishda qo'llanishi uchun maxsus nutqiy sharoit talab etiladi.

Shaxs-son va zamon shakllaridagi fe'l kesimlar hamda bog'lamali va bog'lamasiz ot kesimlar mustaqil kesimlardir.

Shart mayli shakli gap o'rtasida kelsa nomustaqil kesim sanaladi.

### Namuna:

1. Yomg'ir yog'sa (*nomustaqi kesim*), cho'llar yashnaydi (*mustaqil kesim*). 2. Tuyog'iga ursang (*nomustaqi kesim*), shoxi zirqiraydi (*mustaqil kesim*). 3. Razm solsangiz (*nomustaqi kesim*), bu rasmda ko'p narsani ko'ra olasiz (*mustaqil kesim*). 4. Mehmonlar kelsa (*nomustaqi kesim*), biz ularni yaxshi kutib olamiz (*mustaqil kesim*).

## Ega va uning ifodalanishi

Gap kesimining qo'shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak **egadir**. Ega, asosan, *kim? nima?* so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi, egalik va ko'plik shakllarini qabul qilishi mumkin.

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. **Ot** bilan: **Aziz** o'sha kitobni o'qidi. Milt-milt yonib turgan **chiroq** birozdan so'ng o'chdi.

2. **Olmosh** bilan: **Sen** o'zingni maqtama, seni **birov** maqtasin.

### Otlashganda:

3. **Son** bilan: **Ikkalasi** ham chiqib ketishdi.

4. **Sifatdosh** bilan: **O'qigan** o'qdan o'zar, **o'qimagan** turtkidan shoshar.

5. **Sifat** bilan: **Yaxshilar** ko'paysin, **yomon** qolmasin.

6. **Ravish** bilan: Ko'p so'zning **ozi** yaxshi, oz so'zning **o'zi** yaxshi.

7. **Harakat nomi** bilan: **O'qish** jafoli, keti vafoli.

8. **Taqlid so'z** bilan: **Qars** ikki qo'ldan chiqadi.

9. **Modal so'z** bilan: **Bor** so'zlaydi, **yo'q** o'ylaydi.

### Namuna:

1. **Aqlli** (sifat) o'zini ayblar, **aqlsiz** (sifat) – do'stini. (*Maqol*) 2. O'lmas (ot) noxushlik bilan qovun pallasidagi non quyuqlariga qaradi. (*Y.Shukurov*) 3. Birlashgan (sifatdosh) o'zar, birlashmagan (sifatdosh) to'zar. (*Maqol*) 4. Mastura (ot) Mashrabning ko'ziga qadalib qaradi. (*O.Yoqubov*) 5. Yalqov bilan anqov (sifat) – dushman uchun katta ov. (*Maqol*) 6. Kamtarlik (ot) kishiga zeb-u ziynatdir. (*Maqol*) 7. Yaxshi (sifat) qand yedirar, yomon (sifat) pand yedirar. (*Maqol*) 8. Qo'shni xonadan qizlarning qahqahasi (ot) eshitildi. (*A.Qahhor*)

## Egali va egasiz gaplar

Sodda gaplar egali (shaxsli) va egasiz (shaxssiz) bo'lishi mumkin. Egasi mavjud bo'lgan gaplar shaxsli gaplardir. Masalan, **Biz** bugun Samarqandga jo'naymiz. Egasi mavjud bo'lmagan gaplar shaxssiz gaplardir. Masalan, **Bu**gun Samarqandga jo'naladi. Birinchi gapda ega (biz) ishtirok etgan, ikkinchi gapda esa ishtirok etmagan, kesimdan ifodalangan ish-harakatning kim tomonidan bajarilishi ma'lum emas.

## Egasi yashiringan gaplar

Egasi yashiringan gaplar ikki turlidir:

1. Egasi (shaxsi) ma'lum gaplar.
2. Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar.

## Egasi ma'lum gaplar

**Egasi ma'lum gaplarda** gapning egasi matndan, nutq sharoitidan, kesimning shaxs-son shakllaridan ma'lum bo'lib turadi. Bunday gaplarning kesimi, odatda, **I va II shaxs** shaklida bo'ladi.

Masalan:

1. Shaftolizor bog'larni ko'rdim.
2. Derazadan ko'chaga tikilaman.
3. Topshiriqni o'z vaqtida bajaring.
4. So'zimning ustidan chiqaman.
5. Yaqin kunlarda yakuniy test sinovlaridan o'tamiz.

**Eslatma!** Kesimi majhul nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan gaplarda egani tushirishning imkoni yo'q. **Masalan**, Mana, **uy** ham qurildi, **suv quvurlari** o'tkazildi, **elektrlashtirish** va **gazlashtirish ishlari** bitkazildi. Bir soat o'tar-o'tmas **hovli** supurildi, so'rida **xontaxta** va **dasturxon** tuzaldi, hovli yuziga **suvlar** sepildi, hovuz bo'yi, xontaxta ustiga ko'chma **chiroqlar** o'rnatildi.

## Egasi umumlashgan gaplar

**Egasi umumlashgan gaplarda** gapning umumiy mazmuni barcha shaxslarga aloqador bo'ladi. Bunday gaplarning kesimi **II va III shaxs** shakllarida keladi:

Maqol va matallar, hikmatli so'zlar, odat tusiga kirgan rasm-rusumlarni bayon etuvchi gaplarda ega, asosan, umumlashgan bo'ladi.

**Namuna:** 1. Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. 2. Sog'liq tilasang, ko'p yema, izzat tilasang, ko'p dema. 3. Yaxshilikni minnat uchun qilmaydilar. 4. Nimani eksang, shuni o'rasan.

## Egasiz gaplar

**Egasiz gaplarda** ega umuman bo'lmaydi va gap ma'nosidan anglashilmaydi. Egasiz gaplar **shaxsi noma'lum gaplar**, **atov gaplar**, **so'z-gaplar** kabi 3 turga bo'linadi.



## Shaxsi noma'lum gap

**Shaxsi noma'lum gaplarda** kesim fe'l bilan ifodalanadi va ish-harakatni bajarishga imkoniyat, zaruriyat, shart, tilak, istak kabi ma'nolarni ifodalab keladi. Bunday gaplar **kesimining eng muhim belgisi** uning tarkibida egalik qo'shimchasi yo'qligidir. Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi, lekin uni gapda ifodalab bo'lmaydi.

Bunday gaplarning kesimi quyidagicha bo'ladi:

1) kesimi *harakat nomi + zarur, mumkin, kerak, lozim, darkor, shart, joiz* shaklidagi murakkab ot kesim bilan ifodalanadi:

Vazifani **bajarish kerak**. Bugun to'garakka **borish kerak**;

2) -sa bo'ladi, -sa bo'lmaydi fe'llari bilan ifodalanadi:

Bu ishni birga **qilsa bo'ladi**. Hammasini **tuzatsa bo'lmaydi**;

3) kesimi *to'g'ri keladi, to'g'ri kelib qoldi, to'g'ri kelib qoladi, to'g'ri kelmaydi* kabi fe'llar bilan ifodalanadi:

Yo'lda biroz to'xtashga **to'g'ri kelib qoldi**. Ko'nglida armon qolmasin deb, chilyosin ham qildirishga **to'g'ri keldi**.

## Atov gaplar

**Atov gaplar** so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisani, narsa-buyum yoki davrni jonli gavalantirishga, uning xotirasida yoki xayolida ular bilan aloqador voqea-hodisalarni tiklashga xizmat qiluvchi muhim tasviriy vositadir. Atov gaplar, asosan, **aniqlik** maylining **hozirgi-kelasi**, ba'zan esa **o'tgan zamon** shakllaridagina keladi.

Atov gaplar bitta so'zdan iborat bo'lishi ham, aniqlovchilar bilan kengayib kelishi ham mumkin. Shunga ko'ra atov gaplar **yig'iq** va **yoyliq** kabi turlarga bo'linadi. Atov gaplar turli xildagi sodda va murakkab aniqlovchilar bilan be-malol kengayadi. Atov gap kengaygan harakat nomi bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday atov gaplar **yoyliq atov gaplar** sanaladi.

**Namuna:**

1. Bahor (*yig'iq atov gap*). Kunlar iliqlashgan. Bodom qiyg'os gullagan. Yerdan binafsha-yu maysalar bosh ko'tarmoqda. 2. Maktab (*yig'iq atov gap*). Yoshligimning oltin davri shu dargohda o'tdi. 3. Sentyabrning boshlari edi (*yoyliq atov gap*). Talabalikning ilk kunlari edi. 4. Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi (*yoyliq atov gap*). 5. Amu-Buxoro kanali (*yoyliq atov gap*). Qaqragan ming-ming gektar yerlarga hayot suvi olib kelgan qudratli inshoot. 6. Yam-yashil o'tov (*yoyliq atov gap*). Hulkar bu yerga kelsa qanday quvonadi. 7. Qip-qizil saraton quyoshi (*yoyliq atov gap*). Muloyim jilmayib saxovat bilan nur socha boshladi.

## So'z-gaplar

Bir so'zdan iborat bo'lib, tarkibga ajralmaydigan, boshqa so'zlar bilan kengaya olish imkoniyatiga deyarli ega bo'lmagan gaplar **so'z-gaplar** deyiladi.

Ular tasdiq, inkor, so'roq, taajjub, his-hayajon kabilarni ifoda etib, matn bilan bog'liq bo'ladi. So'z-gaplar, asosan, modal va his-hayajon munosabatlarini ifodalagani uchun ham ko'proq dialogik, ba'zan monologik nutqqa xosdir.

Masalan:

- Sog'lig'ingiz yaxshimi?
- Rahmat. Tuzukman.
- Ertalab uchrashamiz-da.
- Albatta. Bekatda. Soat 9 da.
- Qabulga birga kiramizmi?
- Yo'q. Avval siz kiring.
- Bo'pti. Ma'qul.
- Oh-o! Savollaringiz tugamaydi-ku. Mayli, marhamat.

Kishilar o'rtasidagi oddiy muomalada tez-tez ishlatilib turadigan bir so'z yoki iboralar (birliklar) so'z-gaplar vazifasida qo'llanadigan bo'lib qolgan: *assalomu alaykum, yoqimli ishtaha, marhamat, salomat bo'ling, qulluq, osh bo'lsin, yaxshi boring, xush ko'rdik, labbay, jonim bilan, bajonidil* kabi.

So'z-gaplar sifatida modal so'z va undov so'zlar kelishi mumkin. Modal so'zlar sintaksis bo'limida kirish so'zlar deyiladi. So'z-gap va kirish so'zlar gapda boshqa bo'laklar bilan birga qo'llanish-qo'llanmasligiga ko'ra farqlanadi. So'z-gaplar diaologik nutqda ishlatiladi, javob tariqasida ishlatiladi. So'z-gaplar oldingi gapga munosabat shaklida namoyon bo'ladi. Gapdagi boshqa bo'laklar bilan birga ishlatilsa kirish so'z vazifasini bajaradi. Ikkala holatda ham ular boshqa bo'laklar bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Modal so'z: *yo'q* va *bor* so'zlari boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishish mumkin. **Taqqoslang:**

- *Bu ishni qila olasanmi?*
- *Albatta (so'z-gap).*
- *Bu ishlarni amalga oshirgan odam men, albatta (kirish so'z).*
- *Endi so'zingizdan aynimang, xo'pmi?*
- *Yo'q (so'z-gap).*
- *Sen bilan adi-badi aytishga vaqtim yo'q (modal so'z).*

### **Ikkinchi darajali bo'laklar**

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari ega va kesimga tobelanib ularni to'ldiradi, izohlaydi, aniqlaydi.

To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol – ikkinchi darajali bo'laklar.

To'ldiruvchi va hol kesim bilan tobe munosabatga kirishib uning ma'nosi-ni izohlab, to'ldirib keladi. Aniqlovchi yuqoridagi barcha bo'laklarga bog'lanib ularning ma'nosini izohlab keladi. Gapda qaysi bo'lak bilan munosabatda bo'lsa, shu bo'lak bilan birgalikda bitta gap bo'lagi, birikmali gap bo'lagi bo'lib keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar barcha mustaqil so'z turkumlari va alohida so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin.



Barcha ikkinchi darajali bo'laklar kesimga bevosita va bilvosita bog'lanadi. Ularning vazifasi ham kesimga qarab belgilanadi. Barcha bo'laklar kesimga so'roq berish orqali aniqlanadi. Masalan, *Bugun kechagi majlisning muhokamasi bo'lib o'tdi* gapida *bo'lib o'tdi* kesimiga ega, payt holi (*muhokamasi, bugun*) bevosita bog'langan. Sifatlovchi aniqlovchi va qaratqich aniqlovchi (*kechagi, majlisning*) bilvosita bog'langan.

### Hol va uning ifodalanishi

Hol fe'l kesimga bog'lanib harakat va holatning belgisini: holatini, paytini, o'rnini, maqsadini, sababini, miqdor-darajasini bildiradi. Hollar *qanday? qay holatda? qay tarzda? qayerda? qayerdan? qayerga? qachon? nima uchun? nega? qancha? necha marta? nima maqsadda? nima sababdan* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Hollar hamisha gap markazi – kesimga tobelanadi.

Hol doimo fe'l kesimga bog'lanadi. Masalan, *Quyosh ko'kdan mo'ralab qarar* gapida *qarar* so'ziga *mo'ralab* so'zi bog'lanib undan anglashilgan harakatning tarzini; *ko'kdan* so'zi *qarar* so'ziga bog'lanib uning o'rnini bildiradi. Ba'zan hol ot kesimga ham bog'lanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o'rnini bildiradi. Masalan, *Andijonda o't yoqsam, O'shda tutuni*.

Ayrim paytlarda hol kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi mumkin. Hol bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra hollar mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linadi.

**Eslatma!** To'g'ridan to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollar mustaqil hollar deyiladi. Masalan, *Dalalarda boshlanadi ish*. Bu gapda *qayerda?* so'rog'iga javob bo'luvchi *dalalarda* o'rin holi *nima qiladi? nima bo'ladi?* so'rog'iga javob bo'luvchi fe'l kesimga tobe bog'lanib kelyapti. Shuning uchun u mustaqil holdir.

**Eslatma!** Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hollar deyiladi. Masalan, *Daladan charchab kelgan yigit tezda uxlab qoldi*. Bu gapda *qayerdan?* so'rog'iga javob bo'luvchi *daladan* so'zi kesim vazifasidagi fe'lgamas, aniqlovchi tarkibidagi fe'lga bog'lanib kelgan. Tahlil qilinganida *daladan charchab kelgan* birikmasi birgalikda aniqlovchi vazifasini bajarganini kuzatish mumkin. Aniqlovchi tarkibidagi *daladan* so'zi aniqlovchining bo'lagi bo'lgan. *Daladan* so'zi nomustaqil hol vazifasini bajargan.

Hollar barcha mustaqil so'z turkumlari hamda modal so'z, taqlid so'z bilan ham ifodalanishi mumkin.

Hollar ravish so'zlar, kelishik shaklidagi va ko'makchili otlar bilan, sifat, son, taqlid so'z va undovlar bilan, fe'lning xoslangan shakllari bilan ifodalanishi mumkin.

Hollar sodda (bir so'zdan) va murakkab (ikki va undan ortiq so'zdan iborat) tuzilishga ega bo'ladi. Murakkab hollar takror so'zlar, so'z birikmasi, iboralar, kengaygan birikmalar bilan ifodalanadi.

### Namuna:

1. Ayol sochlari parishon, oyog'lari valang, yoqasi ochiq (*birikma*) ko'chaga otildi. 2. Tursunali bir-bir bosib (*birikma*) minbarga chiqdi va dona-dona (*takroriy so'z*) gapirdi. U vazifaning muhimligini takror-takror (*takroriy so'z*) ta'kidladi. 3. O'g'lining to'yini ko'rolmadi bechora, dunyodan ko'zi ochiq (*ibora*) ketdi. 4. Urush boshlanganida (*birikma*) u hali ko'krakdan ajralmagan go'dak edi. 5. Tiniq suvdan hovuch-hovuch (*takroriy so'z*) oldi, qonib-qonib (*takroriy so'z*) ichdi. 6. Shodmonbek zarbdan ko'zi tinib (*ibora*) hushidan ketdi. 7. Sharifa bilan Nasiba arazlashganida (*kengaygan birikma*) Durdona ularni yarashtirib qo'ydi.

### Holning ma'no turlari

Hollar harakat va holatning qanday belgisini bildirishiga ko'ra quyidagi ma'no turlarga bo'linadi:

1. **Ravish holl.**
2. **Payt holl.**
3. **O'rin holl.**
4. **Miqdor-daraja holl.**
5. **Maqsad holl.**
6. **Sabab holl.**

### Ravish holi

Ravish holi ish-harakatning qay tarzda bajarilganini bildirib, *qanday? qanday qilib? qanday ahvolda?* so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan, *Shoir shamning uchini ayaylab kesdi. Siz indamay o'tirar edingiz. «Lasetti» yangi asfalt yo'lda tez yurib ketdi.*

Ravish holi ravish, fe'l va ko'makchili otlar bilan ifodalanadi. Ravish holi kesi-mga **bitishuv yo'll** bilan bog'lanadi, ko'pincha o'zi ergashgan so'zdan oldin keladi.

### Namuna:

U o'ychan ko'zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi. (*S.Nazar*) 2. Ko'p so'zlama, oz so'zla, oz so'zlasang ham, soz so'zla. (*Maqol*) 3. Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig'laganicha narigi uyga kirib ketdi. (*A.Qahhor*) 4. Yig'lab-yig'lab marza olsang, o'ynab-o'ynab sug'orasan. (*Maqol*) 5. To'g'ri yursang, murodingga oson yetarsan. 6. Shamol q'ir-q'ir esardi.

### Payt holi

Ish-harakat yoki holatning bajarilish paytini bildirib, *qachon? qachongacha? qachondan beri? qay vaqt?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: *Buqun poytaxt mardlar sha'niga Bir ming to'pdan yo'lladi salom. Har yili 1-sentabrda Mustaqillik kuni keng nishonlanadi.* Payt holi ko'pincha ot yoki payt ravishi bilan, shuningdek, son birikmalari bilan ifodalanadi. Bundan **besht yil ilgari, o'sha kundan beri, shu yildan boshlab** shaklidagi so'z birikmalari ham birgina payt holi sanaladi.



### Namuna:

1. Po'latjon juda erta, hammadan oldin uyg'ondi. (*Oydin*) 2. Sal o'tmay Shirinoy daladan qaytib keldi. (*O.Yoqubov*) 3. Ota yuz-qo'llarini yuvganidan so'ng sal nariga borib o'tirdi. (*Hamza*) 4. Bunda bor harorat, muhabbat, shafqat.

### O'rin holi

Ish-harakatning o'rnini bildirib, *qayerga? qayerda? qayerdan?* kabi so'roqlarga javob bo'luvchi hollar o'rin hollari deyiladi. O'rin holi o'zi ergashgan so'zga boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. O'rin hollari *o'rin otlari + -ga, -da, -dan, o'rin ravishlari, ot + ko'makchilar* bilan ifodalanadi.

### Namuna:

1. Poyezd bizni Toshkentda qoldirib, Moskvaga yo'l oldi. 2. Shu yerdan boshlanur daryo va quyosh. 3. Uy ichida odam ko'p edi. (*O'.Hoshimov*) 4. Tevarakda gala-gala chumchuqlar to'xtovsiz chirqillashadi. (*Oybek*) 5. Ota yuz-qo'llarini yuvganidan so'ng sal nariga borib o'tirdi. (*Hamza*)

### Daraja-miqdor holi

Ish-harakatning miqdorini va darajasini bildirib, *qancha? nechta? necha marta? qay darajada?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladigan so'zlar daraja-miqdor hollari sanaladi. Daraja-miqdor holi sonlar bilan, miqdor ravishlari bilan, *marta* so'zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi.

### Namuna:

1. Paxta to'g'risida ko'p yozdi. (*A.Qahhor*) 2. Shu gapni besht marta takrorladi. 3. Hozirgacha g'o'za uch marta chopiq qilindi. (*Gazetadan*) 4. Umringda necha marta asal yegansan? (*A.Qahhor*). 5. Ko'p so'zlama, oz so'zla, oz so'zlasang ham, soz so'zla. (*Maqol*) 6. Nodonga yuz aytsang ham, befoyda.

### Maqsad holi

Ish-harakatning maqsadini bildirib, *nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani?* so'roqlariga javob bo'ladigan hollar maqsad hollari deyiladi. Masalan, *Qoratoy do'stining do'v-daragini surishtirish uchun yelib-yugurdi.* (*Oybek*) *Bolalar o'ynab kelgani ko'chaga chiqib ketdi.* (*Oybek*) Maqsad holi maqsad ravishdoshlaridan, ot yoki fe'llardan keyin *uchun, deb, maqsadida, maqsadi bilan* kabi so'zlarni keltirish orqali, shuningdek, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olgan harakat nomi (ish otlari) yordamida ifodalanadi.

### Namuna:

1. Hammamiz umid bilan mehnat qildik, rohatini ham ko'raylik. (*Oybek*) 2. Eshik oldi gul hovuz, Gul tergal kelganmiz. (*Qo'shiqdan*) 3. O'quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi. 4. Bir chimdim uxlash uchun ko'zini

yumdi. (Oybek) 5. Muzaffar aka, bular atayin sizni izlab kelibdi. 6. U qasddan Suqsuroyni xonga olib berdi. (A.Eshonov)

### Sabab holi

Ish-harakatning sababini bildirib, *nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli?* kabi so'roqlarga javob bo'ladigan so'zlar sabab holi vazifasini bajaradi. Masalan, *Tinchlik tufayli yurt obod. Yaxshi o'qigani uchun u mukofotlandi. Qul Tarlon shodligidan To'xtatilmadi yig'idan.* (H.Olimjon)

Sabab holi -**lik**, -**sizlik** qo'shimchalarini olgan otlar, -**gani** qo'shimchali sifatdoshlar va **sababli**, **uchun** ko'makchi qurilmalar bilan ifodalanadi.

#### Namuna:

1. Joni halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi. (A.Mahkam) 2. Salima darsni yaxshi tayyorlagani uchun maqtovg'a sazovor bo'ldi. (Gazetadan) 3. Boshqa hech narsasi yo'qligi uchun bitta-yu bitta ho'kizini berib yubordi. (Oybek)

### To'ldiruvchi va uning ifodalanishi

**To'ldiruvchi** fe'l kesimga bog'lanib predmetlik ma'nosini ifodalovchi va *kimni? nimani? kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kim bilan? nima bilan?* singari so'roqlarga javob bo'luvchi ikkinchi darajali gap bo'lagidir.

*Men undan (kimdan?) so'radim: Mehringni qo'yib, bunchalar saralab gul (nimani?) terding kimga? Gulidan (nimadan?) ko'zini (nimani?) uzmayin singlim Asta javob berdi: – O'aituvchimga (kimga?).*

To'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakat-holat, belgi-xususiyat bilan bog'langan predmetni bildirgani tufayli ot, olmosh va otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi.

To'ldiruvchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. **Ot bilan:** Dilshod maktubni xolasiga berib, ko'chaga chiqib ketdi. (M.Ismoilij) Mansurov odamlar bilan xayrlashdi.

2. **Otlashgan sifat bilan:** Yaxshiga qora yuqmas, yomonga el boqmas (Maqol)

3. **Otlashgan son bilan:** Beshni beshga qo'shsak, o'n bo'ladi.

4. **Otlashgan sifatdosh bilan:** Bilmaqandan bilgan yaxshi, to'g'ri ishni qilgan yaxshi. (Maqol)

5. **Harakat nomi bilan:** Uning kulib boqishlarini bir zum ham unutmayman.

6. **Taqildiy so'z bilan:** Tagir-tuquringni yig'ishtir.

7. **Otlashgan modal so'z bilan:** Yo'qni yo'q deydi, borni bor deydi.

8. **Otlashgan ravish bilan:** Urush ko'plarni sarson qildi.

9. **Otlashgan undov so'z bilan:** Dodini eshitishga toqatim yo'q.

10. **Olmosh bilan:** Bu voqea hammani hushyorlikka chorlaydi.

To'ldiruvchilar boshqa gap bo'laklari kabi birikmali holda ham qo'llaniladi:



Men uning qo'zal siymosida qalbim ko'zqusini, visol orzusini, umidim gulshanini ko'rardim. (M.Qoriyev) O'qituvchining pedagogik mahorati u tarbiyalagan shogirdlarning bilimdonligi bilan o'lchanadi. O'qituvchida zilol chashmadek tuganmas mehr va bilim bo'lmoq'i kerakligini unutmang. Bola bir guruh janqchilarni botqoqlikdan xatarsiz o'tkazib qo'vganini aytdi.

To'ldiruvchilar yordamida aytilmoqchi bo'lgan fikr ravshanlashadi: Oyni (*etak bilan*) yopib bo'lmas. Odam (*mehnatda*) sinaladi. Bu gaplardagi *etak bilan, mehnatda* bo'laklari yordamida so'zlovchining niyati to'la ochilgan.

**Namuna:**

1. Elga el qo'shilsa – davlat, eldan el ketsa – mehnat. (Maqol) 2. U lkromionni frontga ana shunday kuzatib qolgan edi. (*Said Ahmad*) 3. Bu kitobni ukam uchun oldim. 4. Yaxshini maqtagan yarashur, yomonni maqtagan adashur. (Maqol) 5. Ko'rganni eshitgan yengibdi. (*Maqol*) 6. Qiy-chuy bilan ularni yengib bo'lmaydi. 7. Birni birov beradi, ko'pni – mehnat. (*Maqol*)

To'ldiruvchi doimo gapning kesimi bilan bog'lanadi. Agar u bog'langan so'z kesim bo'lib shakllanmagan bo'lsa, ana shu so'z bilan birgalikda kesimga nisbatan bitta gap bo'lagi vazifasida keladi. Bunday vaqtda u gapning emas, bo'lakning bo'lagi sanaladi. Masalan, *Onamdan eshitgan gaplarni aytdim*. Bu yerda *onamdan eshitgan gaplarni* birikmasi *nimalarni?* so'rog'iga javob bo'lib, kesimga bir butun holda bog'lanadi. Bu birikmali to'ldiruvchi o'z ichida qismlarga bo'linadi: *onamdan eshitgan* (qanday?) gap. *Qanday?* so'rog'iga javob bo'luvchi *onamdan eshitgan* birikmali aniqlovchi o'z ichida yana tarkibiy qismlarga bo'linadi: *onamdan* (kimdan?) *eshitgan*.

Shunday qilib, to'ldiruvchilar kesimga to'g'ridan to'g'ri bog'lanish bog'lanmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: **1) mustaqil to'ldiruvchilar; 2) nomustaqil to'ldiruvchilar.**

**Eslatmal** To'g'ridan to'g'ri kesimga tobe bog'lanib keladigan to'ldiruvchilar mustaqil to'ldiruvchilar deyiladi. Masalan, *Seni sog'indim* gapida *kimni?* so'rog'iga javob bo'luvchi *seni* so'zi fe'l kesimga (*sog'indim*) bog'lanib kelgan **mustaqil to'ldiruvchidir.**

**Eslatmal** Kesim vazifasida kelmagan, o'zi bog'langan fe'l bilan bog'langan to'ldiruvchilar nomustaqil to'ldiruvchilar deyiladi. Shuning uchun bunday bo'laklar bo'lakning bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, *Dangasaning non yeyishini ko'r* gapidagi *dangasaning non yeyishini* birikmasi *nimani?* so'rog'iga javob bo'lib, birikmali to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Birikmali gap bo'lagi esa *kimning? nimaning?* so'rog'iga javob bo'luvchi aniqlovchi (*dangasaning*) va to'ldiruvchini (*nonni*) o'z ichiga olgan. Bu bo'lak tarkibidagi *non* bo'lagi nomustaqil to'ldiruvchi, bo'lakning bo'lagidir.

To'ldiruvchi hokim so'z bilan qanday bog'lovchi vosita yordamida bog'lantirishiga ko'ra 2 xil bo'ladi: **1. Kelishikli to'ldiruvchilar. 2. Ko'makchili to'ldiruvchilar.** Masalan, *ukam uchun* – ko'makchili to'ldiruvchi, *ukamga* – kelishikli to'ldiruvchi.

To'ldiruvchilar hokim bo'lakdan anglashilgan harakatiga, munosabatiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Vositali to'ldiruvchi.
2. Vositasiz to'ldiruvchi.

### Vositall to'ldiruvchi

Hokim so'zning *kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kim uchun? nima uchun? kim haqida? nima haqida? kim bilan? nima bilan?* kabi so'roqlariga javob bo'lib keladigan kengaytiruvchilari vositali to'ldiruvchilar deyiladi. Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish, ba'zan o'rin-payt kelishiklari yoki uchun, bilan, orqali, xususida, to'g'risida kabi ko'makchilarni olgan so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi.

#### Namuna:

1. Otdan baland, itdan past. 2. Ochko'z – molga qul, saxiy – elga hokim. 3. Qishloqqa aftobusda ketaman. 4. Bo'layotgan voqealar televideniye orqali namoyish qilinmoqda. 5. Bu borada sen bilan hamfikir ekanligimdan xursandman. 6. Azamat – futbolchilarimizga sardor. 7. Chizmani kitobdan daftarga ko'chirdim. 8. Chaqmoqning yalt-yultidan bola qo'rqdi.

### Vositasiz to'ldiruvchi

Belgili va belgisiz tushum kelishigi shakllari bilan ifodalangan to'ldiruvchilar vositasiz to'ldiruvchilar deyiladi. Vositasiz to'ldiruvchilar *kimni? nimani? qayerni?* so'roqlariga javob bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchilar o'timli fe'llarga bog'lanadi. Masalan, *o'rganmoq (nimani)* – o'timli fe'l, *jiringlamoq fe'li -ni* shaklli so'zga bog'lana olmagan uchun o'timsiz fe'l deyiladi.

Tushum kelishigi shakli belgili va belgisiz bo'lishi mumkin. Belgisiz qo'llansa ham, vositasiz to'ldiruvchi hisoblanaveradi. *Kecha she'r (-ni) yodladim.*

#### Namuna:

1. Zebi onasining beradigan javobini (*ot*) ilgaridan bilardi. (*Cho'lpon*) 2. Qarilari kutadi mehmon (*ot*), pazandasi yopadi shirmon (*ot*). Kelinlari aytadi alla (*ot*), qo'shiqchisi kuylaydi yalla (*ot*). (*H.Olimjon*) 3. Birni (*son*) kessang, o'nni (*son*) ek. (*Maqol*) 4. O'tirganlar otning dupur-dupurini (*taqlid so'z*) baralla eshittishdi. 5. Yashashni (*harakat nomi*) istasang, ishlashni (*harakat nomi*) o'rgan. 6. Bechoraning oh-u dodini (*undov so'z*) tinglang, uni (*olmosh*) xushnud qiling. 7. Yurgan (*sifatdosh*) daryo, o'tirgan (*sifatdosh*) bo'yra deydilar.

### Aniqlovchi va uning ifodalanishi

Aniqlovchi gapning biror bo'lagini aniqlaydigan ikkinchi darajali gap bo'lagi sanaladi. Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning qandayligi, kim-



ga yoki nimaga qarashli ekanini bildirib, *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta? kimning? nimaning?* singari so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagi aniqlovchidir.

Aniqlovchi aniqlab kelgan bo'lak aniqlanmish deyiladi. Aniqlovchilar narsa-buyumning rang-tusi, mazasi, hajmi, kimga yoki nimaga qarashlilikini bildiradi.

Aniqlovchi ega, ot kesim, to'ldiruvchi, holga bog'lanib keladi. Masalan: *Bahaybat samolyot (ega) yerga ohista qo'ndi. Salimjon – a'lochi o'quvchi (ot kesim). Ilg'or ishchilarga (to'ldiruvchi) mukofotlar topshirildi. Mehnat faxriylari bilan yangi bog'da (hol) uchrashdik.*

Aniqlovchilar narsa-buyum, shaxsning qanday belgisini ifodalashiga ko'ra 3 turga bo'linadi: **1. Sifatlovchi aniqlovchi. 2. Qaratqich aniqlovchi. 3. Izohlovchi aniqlovchi.**

### Sifatlovchi aniqlovchi

Hokim bo'lakdan anglashilgan narsaning belgisini (*hajmi, shakli, maza-ta'mi, rang-tusi, miqdori, tartibini*) bildiradigan aniqlovchi sifatlovchi aniqlovchi deyiladi. Sifatlovchi aniqlovchilar *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? nechta?* so'roqlariga javob bo'ladi.

Sifatlovchi aniqlovchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Sifat bilan: Uning ziyrak qo'ng'ir ko'zlarida horg'inlik bor edi. (*S.Anorboyev*)
2. Son bilan: Tepalikdagi chinor, **Ikki tup** sadaqayrag'och **to'rt-besh** kishilik talay supalarga soya solib turardi. (*A.Qahhor*)
3. Olmosh bilan: Qirlardan esayotgan mayin shabada **ana shu** ajoyib gullarning g'unchalarini yozmoqda. (*I.Rahim*)
4. Ot bilan: **Kumush** qishdan, **zumrad** bahordan qolishmaydi kuzning ziy-nati. (*Uyg'un*)
5. Ravish bilan: **Uzoq-yaqin** yerlardan odamlar yig'ila boshladi. (*Oybek*)
6. Sifatdosh bilan: Mayin **esgan** shabada ko'nglimizni chog' qildi.
7. Modal so'z bilan: **Zarur** ishlarimizni bitirdik.
8. Taqlid so'z bilan: Zavodning mashina bo'limidan **gurs-gurs** zarb uzluksiz eshitilib turardi. (*Oybek*)

Sifatlovchi aniqlovchilar ba'zan o'ziga qarashli so'zlar bilan birikmali holda qo'llanadi: **1. Jamilovning egnida oq shohi kitel, sariq koverkot shim, oyog'ida kavkazcha etik, boshida chust do'ppi edi. 2. Yuzida bilinar-bilinmas chechak o'rni qolgan, keng peshonali, sochlarini o'ng tomonga silliq targa-gan jurnalist shoirga bir qarab qo'ydi. (S.Anorboyev) 3. Daraxtni undiradi-gan, o'stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq ha-yotidan olingan ilhomdir. 4. Bagirgandan ko'ra maromi bilan sekinroq qilin-gan ta'na quloqqa yaxshiroq kiradi, zehnga yaxshiroq o'rnashadi. 5. Uydan**

chiqayotgan odam atrofga olazarak bo'lib qaradi. Buxoroni tomosha qilishqa keladigan sayyohlar shu mehmonxonada yashaydilar.

Aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdoshlar birikmali qo'llanib sifatdoshi qurilmani hosil qiladi: *bilinar-bilinmas chechak o'rni qolgan, keng peshonali, sochlarini o'ng tomonga silliq taragan (jurnalist).*

**Namuna:**

1. Ko'm-ko'k (sifat) g'o'zalar hosilga kirib, nishonasi gulga, guli ko'sakka aylanmoqda. (*Rahmat Fayziy*)
2. Bu (olmosh) kishining fe'l-atvori menga juda yoqib tushdi. (*G'afur G'ulom*)
3. Mahallada duv-duv (taqlid so'z) gap tarqaldi.
4. Aytilgan (sifatdosh) so'z – otilgan (sifatdosh) o'q. (*Maqol*)
5. Sanjar sakkiz-inchi (son) sinfda o'qiydi.
6. Besh-olti (son) keksa yig'ilishib maslahat qilishdi.
7. Ko'cha tomondan qurs-qurs (taqlid so'z) oyoq tovushi keldi. (*Said Ahmad*)

### Qaratqich aniqlovchi

Gapning biror shaxs yoki narsa-buyumga qarashlilikini, xosligini bildirgan bo'lak qaratqich aniqlovchi deyiladi. Qaratqich aniqlovchi *kimning? nimaning? qayerning?* singari so'roqlarga javob bo'lib, qaratqich kelishigi shakli bilan ifodalanadi. Qaratqich aniqlovchi har doim qaralmishiga tobelenadi. Qaralmish tarkibida esa egalik qo'shimchasi mavjud bo'ladi. Qaratqich va qaralmish munosabati qaratqichli birikma deyiladi.

Qaratqich aniqlovchilar qaralmish bilan munosabatga kirishganida quyidagicha shakllanadi:

- 1) qaratqich va qaralmish belgisi keladi (**daraxtning bargi**);
- 2) qaratqich belgisiz, qaralmish belgisi keladi (**direktor xonasi**);
- 3) qaratqich va qaralmish belgisiz keladi (**o'rik danak, yong'oq mag'iz**);
- 4) qaratqich belgisi, qaralmish belgisiz keladi (**bizning qishloq**).

Qaratqich aniqlovchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: Shiftga osig'lig' qirqinchi chiroqning qalpog'i uy devorlarining tepa yog'iga cho'ziq soya solgan. (*Hamid G'ulom*)
2. Otlashgan sifat bilan: Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, yomonning yomonligi tegar tor yerda. (*Maqol*)
3. Otlashgan son bilan: Birining ko'zi qora, ikkinchisining ko'zi ko'k edi. O'nning yarmi – besh.
4. Olmosh bilan: Bizning eshon – kabobpazlarning piri.
5. Otlashgan sifatdosh bilan: So'raganning bir yuzi qora, bermaqanning ikki yuzi qora.

**Namuna:**

1. Dutor torlarining jarangi Zumradning tovushiga qo'shilib ketdi. (*Oy-bek*)
2. Mana shu o'yin-kulgular, qo'shiqlar, kuylar yosh va keksalarning diliga orom hamda quvonch bag'ishlagan lola sayli yaqindagina bo'lgan edi. (*Sh.Rashidov*)
3. Yosh yigitning yuragiday qaynab, jo'sh urib turgan



zilol suvli buloqni ko'z yoshi bulog'i deb ataganlari qiziq. (S.Anorboyev)  
5. Qorong'i dala jimjit. Faqat hasharotlarning chirillashi, suvning shildir-shildir oqishi eshitiladi. (S.Nazar)

### Izohlovchi

Izohlovchi shaxs va narsani boshqacha nom bilan aniqlaydi. Shaxsning yoshi, millati, jinsi, qarindoshligi, kasb-kori, laqabi, lavozimi, unvoni kabi belgilarini bildiradi. Demak, izohlovchi predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlab keladi. Masalan, *akademik Habib Abdullayev, Jo'ra soatsoz, dutorchi qizlar* kabi. Izohlovchi quyidagi belgilarni bildiradi:

1. Unvon, amal: Kapitan Mansurov so'zladi. Anjumanda direktor Xoliqov ham qatnashdi.

2. Mashg'ulot, kasb: Oshpaz Shukur, qulchi Nizom va duradgor Vahobjon yetib kelishdi.

3. Yosh, jins, qarindoshlik: O'sha kuni Mavjuda xola bilan Sobir amaki foydali nasihatlar qildilar.

4. Laqab: Jalil sovuq va Juman pismiqning askiyalarini eshitdik.

5. Taxallus: Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yirik nasriy asarlar muallifidir.

Izohlovchi tobelangan so'z izohlanmish deyiladi. Izohlovchi aniqlovchi sifatlovchi aniqlovchidan farq qiladi. Izohlovchi, asosan, ot so'z turkumi bilan ifodalanib *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi. Sifatlovchi aniqlovchi esa sifat + ot shaklida bo'ladi. Masalan, *tiniq osmon* (sifatlovchi aniqlovchi) – muhandis Hakimov (izohlovchi aniqlovchi).

Aniqlovchili so'z birikmalarining izohlovchi-izohlanmish turida izohlovchi va izohlanmishning o'rnini almashtirish ma'noga ham, so'z birikmasidagi so'zlararo munosabarlarga ham ta'sir etmaydi. *Ayol hamshira* birikmasida *ayol* izohlovchi, *hamshira* izohlanmish bo'lsa, *hamshira ayol* birikmasida *hamshira* izohlovchi, *ayol* izohlanmish sanaladi.

Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganida izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasiga tire qo'yiladi. Masalan, *Erk kuychisi – Abdulhamid Cho'lpon she'rlarini sevib o'qiyman*.

*Hayotning poyonsiz ummoni ichra*

*Bor shunday g'ariblar – temirlar hissiz. (A.Oripov)*

### Gap bo'laklarining tartibi

O'zbek tilida gap bo'laklarining joylashish tartibi, asosan, erkin bo'lsa-da, ular gapda ma'lum grammatik qoidalar asosida joylashadi. Odatda, gapda ega va unga bog'langan bo'laklar oldin, kesim va unga bog'langan bo'laklar keyin joylashadi, ba'zan aksinchasi ham bo'ladi: *Bu yo'llar menga tanish – Menga tanish bu yo'llar*.

Eganing ko'proq gap boshida, kesimning asosan gap oxirida, holning kesimdan oldin, to'ldiruvchining kesimdan oldin, aniqlovchining egadan oldin kelishi odatdagi, me'yoriy tartibdir.

Lekin nutqda doim ham gap bo'laklarining odatdagi tartibi saqlanavermaydi, gapdan ko'zda tutilgan umumiy fikrga qo'shimcha ma'no, uslubiy yuk berish uchun tartib o'zgartirilishi mumkin.

1. Kecha samolyotda Farg'onadan Toshkentga akam ketdi.
2. Kecha akam samolyotda Toshkentga Farg'onadan ketdi.
3. Kecha akam Farg'onadan Toshkentga samolyotda ketdi.
4. Akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga kecha ketdi.
5. Kecha akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga ketdi.

Bunday holat gap urg'usi olgan gap bo'laklarida kuzatiladi. Mantiqiy urg'u kesim oldidagi so'zga tushgan.

Gap bo'laklari tartibining o'zgartirilishi *inversiya* deyiladi.

Gap bo'laklari odatdagi va o'zgargan tartibining nutqda o'z qo'llanilish o'rni bor. Odatdagi tartib ilmiy asarlar uslubi uchun, o'zgargan tartib og'zaki nutq va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos.

### Gapning uyushiq bo'laklari haqida ma'lumot

Bir umumiy bo'lakka tobe bog'lanuvchi, bir xil sintaktik vazifa bajaradigan, o'zaro teng bog'lovchilar va sanash ohangi yordamida bog'langan, ko'pincha bir xil so'roqqa javob bo'luvchi ikki yoki undan ortiq bo'laklar **uyushiq bo'laklar** deyiladi. Uyushiq bo'laklar o'zaro quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Sanash ohangi bilan aytiladi.
2. Bir xil so'roqqa javob bo'ladi.
3. Bir xil grammatik shaklga ega bo'ladi.
4. Bir xil sintaktik vazifa bajaradi.
5. O'zaro teng bog'lovchilar yoki ohang yordamida bog'lanadi.
6. Barcha bir so'zga tobe bo'lib bog'lanadi.

Gapning **barcha bo'laklari uyushib kelishi mumkin**. Uyushiq bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar yoki ohang orqali birikadi. Uyushiq bo'laklar **bir so'zdan** iborat bo'lishi, **birikmali** shaklda yoki **kengaygan birikma** shaklida bo'lishi mumkin. Masalan, U kitobni. daftarni. qalamni (so'z shaklida) oldi. Rangi o'chgan, umri kechgan kuz quli (birikma shaklida)... egil. Yuzida bilinar-bilinmas chechak o'rni qolgan, keng peshonali, sochlarini o'ng to-monga silliq taragan (kengaygan birikma shaklida) jurnalist shoirga bir qarab qo'ydi.

Yuqorida ko'rgan misollarda **gap bo'laklarining uyushish holatini** kuzatdik. Masalan, *Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy* gapida hol uyushgan. *Eshilib, to'lg'onib* so'zlari *ingranadi* so'ziga bog'langan. Bundan tashqari, gapda **bo'lakning bo'laklari ham uyushib kelishi** mumkin. *Rangi o'chgan, umri kech-*



gan kuz guli ... egil (Cho'lpon) gapida rangi o'chgan, umri kechgan bo'laklarining har ikkisi qanday? so'rog'iga javob bo'lib, kuz guli bo'lagiga tobe bog'langan. Bu bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida teng bog'langan eganing aniqlovchilari sifatida bo'lakning uyushiq bo'laklari hisoblanadi.

Gapning barcha bo'laklari uyushib kelishi mumkin.

**Namuna:**

1. Ichkaridagi gilos, tashqaridagi o'rik daraxtlari (ega uyushgan) qiyg'os gullagan // Ichkaridagi va tashqaridagi (sifatlovchi aniqlovchi uyushgan) gilos daraxtlari qiyg'os gullagan // Ichkaridagi va tashqaridagi gilos hamda o'rik daraxtlari (sifatlovchi aniqlovchi va ega uyushgan) qiyg'os gullagan. 2. Salomatning singlisi, Akramning ukasi (ega uyushgan) – 6-sinf a'lochilari // Salomatning va Akramning (qaratqich aniqlovchi uyushgan) singillari 6-sinf a'lochilari // Salomat va Akramning singil va ukalari (qaratqich aniqlovchi va ega uyushgan) – 6-sinf a'lochilari. 3. Qirlardagi lolalar va tog' etaklaridagi binafshalar (ega uyushgan) kishiga huzur bag'ishlaydi // Qirlardagi va tog' etaklaridagi (sifatlovchi aniqlovchi uyushgan) lolalar kishiga huzur bag'ishlaydi // Qirlardagi va tog' etaklaridagi lolalar va binafshalar (sifatlovchi aniqlovchi va ega uyushgan) kishiga huzur bag'ishlaydi.

### Uyushgan bo'laklarning shakllari va ularda teng bog'lovchilarning qo'llanilishi

**Eslatma!** Uyushgan bo'laklarning xarakterli xususiyati shundaki, ular bir xil grammatik shaklda bo'ladi.

Bu grammatik shakllarning qo'llanilishi ikki xil:

1. Grammatik shakllar uyushgan bo'laklarning har birida takrorlanadi:

*Yam-yashil vohalarga.*

*Badiiy lavhalarga.*

*She'riy sarlavhalarga*

*Boy ekansan, Farg'ona.*

Bunday vaqtda uyushgan bo'laklarning har biri ta'kidlangan bo'ladi.

2. Grammatik shakllar uyushgan bo'lakning eng oxirida qo'llanilib, hammasi uchun tegishli bo'ladi:

*Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo'lishdi.*

Bunday vaqtda sanalayotgan bo'laklarning har qaysisi ta'kidlanmaydi, balki sanab ko'rsatiladi.

**Eslatma!** Uyushgan bo'laklar o'zaro teng bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi yordamchi so'zlar (*ham, -u (-yu), na..., na... yuklamalari, bilan ko'makchisi*) va sanash ohangi yordamida bog'lanadi.

Uyushgan bo'laklar biriktiruv bog'lovchisi bo'lgan va, hamda, bog'lovchi vazifasidagi bilan yordamida bog'langanida ular ko'pincha takrorlanib keladi.

*Adol bilan o'yinchi Sora;*

*Asal bilan quvnoq Ruxsora...*

Bunday vaqtda uyushgan bo'laklar orqali shaxs, predmetlarning **guruh-guruh ekani ifodalanadi**.

Ana shunday ma'no ifodalanganida *va, hamda, bilan* bog'lovchilari bir-biri bilan erkin almashinib keladi. *Va, hamda, bilan* bog'lovchilari ikkidan ortiq uyushgan bo'laklar tarkibida bir marta qo'llansa, uyushiq bo'laklarning oxirgi juftligi orasida keladi va **sanashning tugallanganini** bildiradi: *Bog'imizda o'rik, shaftoli, gilos va olmalar bor*.

Uyushgan bo'laklar ikki a'zodan iborat bo'lib, biriktiruv munosabatini bildirsa, bu a'zolar o'rtasida *va, bilan, -u (-yu)* bog'lovchilari ishlatiladi.

**Taqqoslang:**

*Bir sevgikim, jon berur tanga,*

*Faqat Zaynab-u Omonlarga xos.*

Bu yerda *Zaynab-u Omonni Zaynab va Omon, Zaynab bilan Omon* deb ishlatish mumkin.

Uyushiq bo'laklar otlar bilan ifodalanganida *va, hamda, bilan* o'zaro almashinadi. Fe'llar bilan bog'langanida esa *va, hamda, -u (-yu)* o'zaro almasha oladi, lekin *va* bog'lovchisi o'rniga *bilan* bog'lovchisini qo'yib bo'lmaydi.

**Masalan:**

*Keldi va ketdi.*

*Keldi-yu ketdi.*

*Keldi bilan ketdi* shaklini hosil qilib bo'lmaydi. Uyushiq bo'laklar o'zaro sanash ohangi yordamida bog'lanib, har birining ma'nosi ta'kidlanganida har bir bo'lak oxirida *ham* yuklamasi qo'llaniladi: *Sen ham, u ham farishta emas*.

Uyushgan bo'laklar o'zaro ayiruv munosabatida bo'lganida ular o'rtasida *yo, yoki, yo..., yo, ba'zan..., ba'zan, dam..., dam* singari bog'lovchilar qo'llaniladi. Masalan, **Yo kitob, yo ruchka olaman**.

**Eslatma!** *Yo, yo..., yo, yoki* bog'lovchilari uyushgan bo'laklardan birini tasdiqlab, ikkinchisini esa inkor etib bog'laydi.

Masalan, *Yo daffarni, yo kitobni beradi* gapi ma'nosiga e'tibor bering. Faqat bittasi yuzaga chiqqanini bildiradi.

*Ba'zan..., ba'zan, dam..., dam, goh..., goh* kabi bog'lovchilar yordamida bog'langanida esa uyushgan bo'laklarning navbatma-navbatligi ifodalanadi.

**Taqqoslang:** *Goh o'ynaydi, goh yig'laydi*. Ana shunday ma'no ifodalanganida *ba'zan..., ba'zan, dam..., dam, goh..., goh* kabi bog'lovchilar bilan o'zaro almashinib keladi.

Uyushgan bo'laklar o'zaro zidlik munosabatida bo'lganida ular o'rtasiga zidlov bog'lovchilari (*ammo, lekin, biroq*) qo'yiladi. Masalan, *Hammasini tinglardim, ammo o'xshashini topmasdim aslo*. (H.Olimjon)

**Na..., na...** uyushgan bo'lakli gapning kesimi tasdiq shaklida bo'lganida ham, inkor shaklida bo'lganida ham qo'llanaveradi. Agar uyushiq bo'lakli gap kesimi tasdiq shaklida bo'lsa, **na..., na...** uyushgan bo'laklarni o'zaro



bog'lash va gapni inkor gapga aylantirish vazifasini bajaradi. Aksincha, gapning kesimi inkor shaklida bo'lsa, **na...**, **na...** uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lash va ularning ma'nosini ta'kidlash vazifasini bajaradi.

**Qiyoslang:** *Na Salim, na Karim keldi – Na Salim, na Karim kelmadi.*

Uyushiq bo'lak ohang yordamida bog'lansa, ular vergul bilan ajratiladi. Agar uyushgan bo'laklar guruh-guruh bo'lib kelsa, guruhlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi. Masalan, *Bog'imizdagi mevalar: olma, o'rik, behi; polizdagi sabzavotlar: tarvuz, qovun, handalaklar ko'zni quvontiradi.*

### **Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zning qo'llanilishi**

Uyushgan bo'lakli gaplarda uyushiq bo'laklarning ma'nosini jamlovchi bo'laklar **umumlashtiruvchi so'z (bo'lak)** sanaladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklarning ma'nosini umumlashtirgani bois bu qism umumlashtiruvchi ma'noli so'zlar (olmoshlar, otlar, fe'llar (otlashgan sifatdash) va hokazo), so'z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin. Uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi so'zning ma'nosini izohlab, aniqlab keladi.

Uyushgan bo'laklar narsa va hodisalarni, belgi-xususiyatlarni alohida-alohida ifodalasa, umumlashtiruvchi so'z ularning hammasini jamlagan holda ifodalaydi. Shunga ko'ra uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasida xususiylilik-umumiylik, jins-tur munosabati mavjud bo'ladi. Uyushgan bo'laklar **xususiylikni, jinsni**; umumlashtiruvchi so'z esa **umumiylikni, turni** bildiradi.

Uyushgan bo'laklar qaysi grammatik shaklda bo'lsa va qanday so'roqqa javob bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham ko'pincha ana shunday shaklda bo'ladi va shunday so'roqqa javob beradi. Grammatik shakllar ba'zan uyushiq bo'lakka emas, umumlashtiruvchi so'zga qo'shiladi. Bunday holatda grammatik shakl barcha uyushiq bo'laklarga tegishli bo'ladi. Masalan, *Bog'dagi olma, o'rik, shaftoli – barcha mevalardan terdik.* Ushbu gapda to'ldiruvchi uyushgan.

Uyushgan bo'laklar qaysi bo'lak bilan tobe munosabatda bo'lsa, umumlashtiruvchi so'z ham shu bo'lak bilan tobe aloqada bo'ladi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. .

Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so'zdan so'ng ikki nuqta (:) qo'yiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan keyin kelsa, uyushiq bo'laklardan so'ng tire (–) qo'yiladi.

#### **Namuna:**

1. Yig'ilishda hech kim: na Sa'dulla, na Akbarali bu haqda gapirmadilar.
2. Na qor, na yomg'ir, na to'fon va na bo'ron – hech narsa dovyuraklarni qo'rqitmadi.
3. Hammasi: quyosh ham, oy ham, daryo-yu dengiz ham, tog'-u cho'llar ham yigitga yordam beribdi.
4. Yaxshi xislatlari bor: oppoq

soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il-qizlarni ham, ko'cha-ko'ydagi begona bolalarni ham – xullas, barchani sizlab gapirardi. 5. Bittangiz: yo Shahobiddin yoki siz so'zga chiqasiz.

Yaxshi xislatlari bor: oppoq soqoli bilan farzandlarini ham, nevaralarini ham, qo'shni o'g'il-qizlarni ham, ko'cha-ko'ydagi begona bolalarni ham – xullas, barchani sizlab gapirardi gapida umumlashtiruvchi so'z va uyushiq bo'laklar o'rtasida kirish so'z – *xullas* ishlatilgan. Bunday holatlarda uyushiq bo'laklardan so'ng tire, umumlashtiruvchi bo'lakdan oldin vergul, kirish so'zdan oldin tire qo'yiladi.

### Uyushiq kesim

Bu gap tarkibida ikki va undan ortiq atov birliklari (so'z, ibora, so'z birikmalari) bilan ifodalangan kesim bo'lib, kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanadi, barchasiga aloqador ko'p kesimli gap *kesimi uyushgan sodda gap* sanaladi.

Kesimi uyushgan sodda gap grammatik asosning ko'pligi bilan qo'shma gaplarga o'xshab ketadi. Biroq ular bir-biridan tubdan farq qiluvchi grammatik hodisalardir. Kesimi uyushgan sodda gaplarda nechta grammatik asos bo'lishidan qat'i nazar, ega bitta bo'ladi, kesimlar tarkibidagi grammatik shakl oxirigisiga qo'shiladi. Shakllangan, ya'ni kesimlik shakllariga (tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolariga) ega kesim alohida bir hukmni ifodalaydi, muayyan gap markazini tashkil eta oladi. Shuning uchun ikki va undan ortiq shakllangan kesimli gaplar *qo'shma gaplar* sanaladi. Qo'shma gaplarda ham bir grammatik asosning alohida bo'laklari bo'ladi. Kesim tarkibidagi grammatik shakllar ham biriga qo'shiladi. Har bir kesim mustaqil shakllanadi.

#### Namuna:

1. Siz a'lochi va jamoatchisiz (uyushiq kesim). Siz a'lochisiz va jamoatchisiz (qo'shma gap). 2. Biz harbiy uchuvchi va vatan posbonlari bo'lamiz (uyushiq kesim). Biz harbiy uchuvchi bo'lamiz va vatan posbonlari bo'lamiz (qo'shma gap). 3. Men bu masalani uqqan va yechganman (uyushgan kesim). Men bu masalani uqqanman va yechganman (qo'shma gap). 4. Biz voqea sodir bo'lgan joyga borishimiz, hammasini o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz va ishonch hosil qilishimiz kerak (uyushgan kesim). Biz voqea sodir bo'lgan joyga borishimiz kerak, hammasini o'z ko'zimiz bilan ko'rishimiz kerak va ishonch hosil qilishimiz kerak (qo'shma gap). 5. Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turishardi (uyushgan kesim). Do'kondorlar molini maqtab turishardi va xaridorlarni chorlab turishardi (qo'shma gap).

### Uyushiq ega

Bir sodda gap tarkibida birdan ortiq ega qator kelishi mumkin. Sodda gap kesimiga bir xil munosabatda bo'lib, sanash ohangi bilan aytiluvchi bir-



dan ortiq eganing ketma-ket kelishi **uyushiq ega** hisoblanadi. Uyushiq egalar bir-biri bilan sanash ohangi yoki bog'lovchilar yordamida bog'lanadi: *Bu yerning ob-havosi, iqlimi va sharoiti yaxshi edi. Siz bilan biz oddiy haqiqatni tushunmagan ekanmiz.*

#### **Namuna:**

1. Shu payt hovliga Davron aka bilan Iskandarov kirib kelishdi. (Y.Shukurov) 2. Bog'chada yosh-yosh qizchalar va o'g'il bolalar davra qurib o'ynashmoqda. 3. Siz bilan biz ulug' ishga bel bog'ladi. (H.G'ulom) 4. Bir necha qo'sh ho'kiz, ot, omoch-bo'yinturuqlar ham shular nomiga yozildi. (H.G'ulom) 5. Pulemyot, multiqlarning ovoziga xotin-xalaj, bola-chaqalarning yi'isi, dod-voyi qo'shilib ketdi. (O'.Umarbekov)

### **Uyushiq hol**

Bir xil mazmun-munosabatining (yo tarz, yo o'rin, yo payt va boshqa munosabatlarning) bir necha holning o'zaro sanash ohangi bilan teng bog'lanib kelishi **uyushiq hol** deyiladi. Masalan, **Tomlardan**, ivigan **devorlardan** bug' ko'tarila boshladi. *Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.* U dam hazil bilan, dam jiddiy so'rardi.

Uyushiq bo'laklarda bir so'z turkumi uyushishi yoki har xil turkumlardan tashkil topishi ham mumkin. Masalan, *Podsho goh kulib, goh jiddiy, goh o'y bilan quloq solardi.* Ushbu gapdagi uyushgan hollar **fe'l, sifat hamda ko'makchill** otdan tashkil topgan. *Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi* gapida esa uyushiq hollar **fe'l va sifat** so'z turkumiga oid so'zlardan tashkil topgan.

Bir sodda gap tarkibida yonma-yon, qator kelgan bir necha payt holi hamma vaqt uyushiq bo'lavermaydi. Masalan, *U kecha ertalab biznikiga kelib ketdi* gapida ikkita payt holi (*kecha, ertalab*) bor. Lekin ular uyushiq emas: bundagi *ertalab* holi *kecha* holi ma'nosidagi paytni chegaralab, aniqlashtirib beradi.

#### **Namuna:**

1. Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bog'otlarda (*o'rin holi*) chumchuqlar chirqillashadi. (M.Ismoiliy) 2. Qush goh pastlab, goh ko'tarilib (*ravish holi*) bir joyda uchib turdi. (Y.Shukurov) 3. Dadasi har kuni ishga ketishda ham, ishdan qaytishda ham (*payt holi*) uni qo'liga olar, suyar va gaplariga, qiliqlariga zavq bilan kular edi. (Oybek) (bundan tashqari, mazkur gapda kesim: *olar, suyar, kular edi*; to'ldiruvchi: *gaplariga, qiliqlariga* uyushgan) Endi qizlar charchashib, terlashib... tog'ning ustiga chiqib olishdi. («*Gulnor pari*»)

### **Uyushiq to'ldiruvchi**

Gapdagi ikki va undan ortiq to'ldiruvchi bir xil ma'noni (shaxsni yoki narsani) bildirib, bir xil shaklda (kelishik shaklida yoki ko'makchilar bilan) kelsa va sanash ohangiga ega bo'lsa, ular uyushiq to'ldiruvchilardir. Masalan,

*Taram-taram olmalarni, asl nashvatilarni, po'sti yupqa luchchak shaftolilarni, qaymoqqa o'xshash anjirlarni aytmay sizmi, bay-bay. (Oybek)*

Har xil ma'noni bildirgan, turli shakllarda kelgan to'ldiruvchilar uyushiq bo'lavermaydi. Masalan, *Bu daftarni senga oldim* gapidagi *daftarni* va *senga* to'ldiruvchilari uyushmagan. Chunki ularning biri (daftarni) narsa-buyum ma'nosini, ikkinchisi (senga) atalganlik ma'nosini ifodalaydi.

#### **Namuna:**

1. Insonlar ongida ona tabiatga mehr, yer, suv, olovni e'zozlash ustuvor bo'lgan. 2. Olgan bilim va tajribangiz, odob-axloq, kasb-hunar bobidagi kamolingiz faqat yaxshilikka, bunyodkorlikka buyursin, avvalo. O'zingizga, butun el-yurtimizga baxt-u saodat keltirsin. 3. Respublikamiz maktablari o'quvchi hamda o'qituvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashni ko'ngildagidek yo'lga qo'yaylik. 4. Qizlar urchuq bilan charxda ip yigirish, mato to'qish, liboslar tikishni ham bilishlari lozim. («Avesto») 5. Yurtni balo-qazodan himoya eta oladigan o'q'lonlarga, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan pok niyat avlodlarga olqishlar bo'lsin. («Avesto») 6. «Avesto»da yigitlar kurash tushishni, chavandoz bo'lishni, mol boqa olishni, chorvani yirtqich hayvon va qaroqchilardan muhofaza qila bilishni o'rganishlari shartligi aytiladi. 7. Ona Vatanga muhabbat, xalq, millat birligi, uning kelajak istiqboli, hayot farovonligi va tinchligini dildan jo'shib kuyladilar. (*Gazetadan*)

### **Uyushiq aniqlovchilar**

Narsa-buyumlarning bir turdagi belgilarini (yo rang-tusini, yo ma'za-ta'mini, yo son-sanog'ini) bildirgan birdan ortiq aniqlovchilar uyushiq aniqlovchilardir. Masalan, *Bog'imizda oq, qizil, pushti gullar ochildi.*

Shuningdek, bir narsa-buyumning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchilar ham uyushiq aniqlovchilar sanaladi. Masalan, *Chaqaloq kichkina, dumaloq va oppoq qo'llarini cho'zib menga talpinar edi.*

Uyushiq aniqlovchilar o'zaro sanash ohangi bilan teng bog'lanadi va aniqlanmishga baravar tobe bo'ladi.

Qaratqich aniqlovchilar uyushib kelganida ulardagi **-ning** qo'shimchasi ba'zan barcha bo'laklarda saqlanadi, ba'zan esa oxirgi aniqlovchiga qo'shildi, u oldingilariga ham taalluqli bo'ladi. Masalan, *To'lainning, Ozodaning va Shoironing ukalari bog'chada tarbiyalanadilar – To'lain, Ozoda va Shoironing ukalari bog'chada tarbiyalanadilar.*

#### **Namuna:**

1. U to'qayzorda sassiqlarining, gamishlarning, gulni payhon qiluvchi to'ng'izlarning ko'pligidan ajablanmaydi. 2. Ikki kundan so'ng uning xonasiga hali yigirmaga to'lmagan qiz bilan yoshi ellikdan oshgan, odmi kiyingan, ootmadan kelgan ayol kirib keldi. Uning sho'xligi, o'yinqaroqligi bililib turib-



di. 3. Sochlari jingalak, rangi oq-sariqqa moyil, ko'zlari o'tkir boquvchi tabib yigit: «Nima gap? Qayeringiz og'riyapti?» – deb ham o'tirmay, avval Zaynabning ikki kaftini ko'rdi, tirnoqlarini ohista ezdi, so'ng bilak tomirini ushlab, boshini quyi eggancha, nimanidir ziyraklik bilan tinglayotganday jim qoldi. 4. Maxdum bo'ychan, olago'sht, siyrakmo'y, oqtan, istarasi issiq bir domla edi. (A.Qodiriy) 5. Tog' etaklaridan nafis qullarning, xushbo'y qiyohlarning hidlari anqiydi. (Oybek) 6. Munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko'k, qizil, oq, pushti, sariq, qora gullari yulduzlardek yashnab, uyga bir hayotiylik berar edi. (A.Qodiriy)

### Ajratilgan bo'laklar

Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang bilan ajralib turuvchi bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi. Demak, gapning ajratilgan bo'laklari o'zlari aloqada bo'lgan bo'laklarning ma'nosini izohlab, bo'rttirib, aniqlashtirib yoki ta'kidlab keladi. Ular boshqa bo'laklardan maxsus to'xtam bilan ajralib gap urg'usini oladi. Masalan, *Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga – Roziyani avvalqiday shod, qo'zal ko'rish niyatiga – Sattor bir lahzada yetdi. Sizga, o'rta bo'yli qizqa, atlas juda yarashibdi.*

Ajratilgan bo'laklar: a) **bir bo'lak** holda keladi: *Boyagi yigitning, Avazning, qo'li gul ekan*; b) **birikmall** holda keladi: *Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Sidiqjonga hamroh bo'lib qolibdi.*

Ajratilgan bo'lak o'zi izohlayotgan bo'lakdan doimo keyin keladi va yozuvda **vergul, tire**, ba'zan **qavs** bilan ajratiladi.

Ajratilgan bo'laklar gapdagi qaysi bo'lakka oidligiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ajratilgan hollar, ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan to'ldiruvchilar.

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar **mazmunan murakkablashadi**.

Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, *Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas.* (O'.Usmonov)

Bu gapda birinchi axborot – *Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi* gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot – *Tursunali akaning katta olimligi* ajratilgan bo'lak orqali ifodalanadi.

Yuqorida bayon qilinganidek, ajratilgan bo'laklar **ikki xil vazifani bajaradi**:

**a) ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;**

**b) ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.**

Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

**Eslatma!** Ajratilgan bo'laklar yuqoridagi vazifaga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:

- a) tartibni o'zgartirish;  
b) bir nomni boshqacha nomlash.

### Tartibni o'zgartirish orqali gap bo'laklarini ajratish

Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi. Ba'zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganida so'zlovchi uning odatdagi tartibini o'zgartirib, sifatlanmishdan keyin keltiradi. Natijada sifatlovchi gapning boshqa bo'laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchining ma'nosi odatdagi tartib bo'yicha qo'llangan sifatlovchiga nisbatan bo'rttiriladi, alohida ta'kidlanadi. Gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismga aylanadi. Bundan tashqari, gapda ravish holining tartibi o'zgartirilsa ham ajratilgan bo'lak vazifasini bajaradi. Taqqoslang: *Bir zum dengizga betuyg'u boqqil* – *Bir zum dengizga boqqil betuyg'u*.

**Eslatma!** Tartibi o'zgartirilgan, lekin sifatlovchilik xususiyatini saqlab qolgan sifatlovchi aniqlovchilar (ba'zan ravish holi) ajratilgan bo'lakka aylanadi.

Masalan, *Bu o'zbek yigiti – tanti, mehribon*.

Taqqoslang: *Rangi o'chgan, Umri kechgan kuz guli, Bir yo'li pastroq egil. (Abdulhamid Cho'lpon) Kuz guli – Rangi o'chgan, Umri kechgan.*

**Eslatma!** Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo **vergul** bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarning **o'zi uyushgan bo'lib**, ichida vergul bilan ajratilgan bo'lsa, ajratilgan bo'lak boshqa bo'laklardan **tire** bilan ajratiladi. Masalan, *Kuz guli – Rangi o'chgan, Umri kechgan.*

#### Namuna:

1. Ko'kdagi oy tanhodir, yakka-yu volg'iz.

2. Shoyon mehnatingning nishonasi bu –  
Qora qoshlaringga qo'ngan chang, g'ubor.

Suvoriy ekansan – zahmating ezgu,

Zamona Barchini – mehnatkash, dildor.

3. Yo'lim boshladi to kezdin dala-tog',

Kezdim ne yurtlarni – chiroyi tengsiz.

4. Qozoq sahrosi – bu beaded sahro,

Xayolday bepoyon, cheksiz va yiroq.

5. Bir zum dengizga ham boqqil betuyg'u.

Dema, o'ylarimday u teran tengsiz.

6. Angladimki, olamda

Yurt tanho, Vatan tanho,

Nokaslar emas, yo'q, yo'q,

Yolg'iz sen baland, tanho.

7. Ba'zan o'ylab deyman, ne bo'lardi, gar

Qudratni ko'rgazsa tabiat hassos.

8. Qo'llarim ko'ksimda, betinch, betoqat



Ta'zimlar qilurman senga ushbu dam.

U – menmi, u – senmi, kim bo'lma, faqat

Senga insof bersin, uchinchi odam! (A.Oripov)

### Izohlash orqali gap bo'laklarini ajratish

Nutq jarayonida ko'pchilikka noma'lum so'zni qo'llasangiz, tinglovchiga tushunarli bo'lishi uchun uning yoniga ma'lum bo'lgan so'zni qo'yib bayon qilasiz. Masalan, *Lingvistika – tilshunoslik, mening sevgan fanim bo'ladi.*

Ba'zan ma'nosi umumiyroq bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlashtirish uchun uning yoniga konkretroq, aniqroq ma'no bildiruvchi so'zni keltirasiz. Masalan, *Bog'chadagi do'stimni – Qodirni ko'rib qoldim.*

Ayrim hollarda esa ma'lum bir narsani boshqa narsaga o'xshatib ularning nomini yonma-yon ishlatamiz. Masalan, *Shu farzandimning – ko'zim qorasi-ning – elning ardog'ida bo'lishini xohlayman.*

Natijada bir tushunchaning ikkita nomi vujudga keladi. Ikkita nom bo'lishi, har ikki nomning bir xil so'roqqa javob bo'lishi, har ikkisining bir xil grammatik shaklda bo'lishi bilan bunday ajratilgan bo'laklar uyushgan bo'laklarga o'xshaydi.

**Solishtiring:** *Unda, Halimning ukasida, qiziqarli kitoblar ko'p.* Bu gapdagi *unda, Halimning ukasida* bo'laklari ikki kishini bildirsa va sanash ohangi bilan talaffuz qilinsa uyushgan bo'lak, bir kishini bildirib, ikkinchisi birinchisidan biroz to'xtamdan so'ng pastroq ohang bilan talaffuz qilinsa ajratilgan bo'lak bo'ladi.

**Eslatma!** Bunday ajratilgan bo'laklar gapning boshqa bo'laklaridan *vergul*, ba'zan *tire* bilan ajratiladi.

**Namuna:**

1. Komil buvaning uyi shu yong'oqzorning ichida – Bo'riiarning oqg ustida emish. 2. Dadam sharqirab oqib yotgan ariq bo'yida, bir tup sadaqa-yraq'och tagida to'xtadi. 3. Ovqatdan keyin ayvonda, xontaxta atrofida o'tirib choy ichdik. 4. Chindan ham bomba ancha orqaga – o'rmonzorga borib tushadi. 5. Yangi yil kechasi – nemislar mast-alast bo'lib Rojdestvo bayrami qilayotganida hujumga o'tdik! 6. Endi u rosmana raisga – Umar zakunchiga aylangan edi. 7. Ochil akaning daftari ancha nariga – o'tlar ustiga otilib ketgan, varaqlari ochilib xira oydinda oqarib ko'rinardi. 8. Biz – er-xotin yog' zavodida ishlaymiz. 9. Qo'zivoy hammani har yoqqa surib, uch-to'rt qadam orqaga, Sherzod cho'ngavib o'tirgan doska tomonga tisarildi.

Ajratilgan bo'laklar o'zaro grammatik shakllarining bir xil bo'lishi, bir xil so'roqqa javob bo'lishi, bir xil sintaktik vazifa bajarishi, vergul bilan ajratilishi kabi xususiyatlari bilan o'xshash. Biroq ular bir-biridan farqlanuvchi turli bo'laklar sanaladi. Ajratilgan bo'lak alohida ohang bilan aytilsa, uyushiq bo'lak sanash ohangi bilan aytiladi. Ajratilgan bo'lakda ketma-ket kelayotgan so'zlar

bir tushunchani bildirsa, uyushiq bo'lakda sanalayotgan so'zlar turli ma'nolarni bildiradi. Masalan, *Nasihatimni, otangning so'zini (ajratilgan bo'lak) unutmam – Nasihatlarimni, o'rgatganlarimni, xatolarimni unutmam (uyushiq bo'lak).*

### **Ajratilgan ega, ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hol, ajratilgan aniqlovchi**

Gapning hamma bo'laklari ajratilishi mumkin. Qaysi gap bo'lagining so'rog'iga javob bo'lsa, ajratilgan bo'lak o'sha gap bo'lagining nomi bilan yuritiladi.

**Ajratilgan ega** – o'zidan oldingi eganing ma'nosini aniqlab keladi. Masalan, *Biz, sizning do'stlaringiz yo'l qo'yilgan xato halokatga olib borguncha indamay turarmidik. (Sh.Rashidov)*

**Namuna:**

1. Biz, ota-o'g'il uydan chiqib bobomning hovlisiga bordik. (Said Ahmad) 2. Orqada turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlar orasiga urdi. (A.Qahhor) 3. Biz mana shu xo'jalik hayotidan nafis film, ya'ni kartina yaratmoqchimiz. (A.Qahhor)

**Ajratilgan hol** – o'zidan oldin kelgan holning ma'nosiga aniqlik kiritadi. Ajratilgan bo'lak vazifasida ko'pincha o'rin, payt hollari keladi: *Hu ana shu joyda, taxta ko'prikning ostida, kichik bir buloq bor.*

**Namuna:**

1. Dadam shu atrofdan – qishloqning chiqaverishidan – do'kon qidirdi. 2. Cho'pon otadan bir chaqirimcha pastlikda, Boysunning naq bo'yida, uch-to'rt tup jiyda o'sgan bir xilvat joy bor. 3. Men ko'rsatilgan stulga – to'rga o'tib o'tirdim. 4. Shoirning kulbayi vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog'i Feruz va Bog'i Mahmud kabi ko'rkam bog'lar atrofida joylashgan edi. 5. Biz Xorazmda, Ma'mun saroyida besh yil birga xizmat qilganmiz, begim. 6. Yaxshiyam, Sulton Mahmud yoshlik chog'larida, yuragida insof va adolat tuyg'usi tamoman so'nib bitmagan mahallarda, Nargizabonu sabab sobiq g'ulomi Qutlug'qadamning daxlsizligi to'g'risida birdan bir adolatli farmon bergan ekan. 7. Endi bu hibsdan, o'laksa hidi angiqan jahannamdan tiriklayin chiqa oladimi, yo'qmi – bu yog'i yolg'iz Oллоhga ayon. 8. Axsi – Movarounnahrda, Sayhun bo'yida joylashgan bo'lib, mashhur shaharlardan edi.

**Ajratilgan to'ldiruvchi** o'zidan oldin kelgan to'ldiruvchining ma'nosini izohlaydi, unga aniqlik kiritadi. Vositasiz to'ldiruvchi ham, vositali to'ldiruvchi ham ajratilgan bo'lak sifatida qo'llanishi mumkin: *Nasihatimni, otangning so'zini, esingda tut. Xatni uning o'ziga, Muqaddasga, bering.*

**Namuna:**

1. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish motam! (Oybek) 2. Bektemirga, sobiq sodda cho'ponga, komandirning fikri g'oyat yoqdi. (Oybek) 3. Bu xabar ko'plarni, shu jumladan, Mahkamni ham juda quvontirdi. (P.Qodirov)



**Ajratilgan aniqlovchi** shaxs yoki narsaning belgisini, kimga yoki nimga qarashlilikini ta'kidlab, ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Masalan, *Qobil bobo, yalangbosh, yalangoyog, eshik yonida dag'-dag' titraydi. Bizning, o'quvchi yoshlarning, o'zimizga yarasha or-nomusimiz bor.*

**Ajratilgan izohlovchilar**, asosan, izohlanmishdan keyin keladi va o'ziga xos ohang bilan aytiladi. Ajratilgan izohlovchilar ko'pincha egaga taalluqli bo'ladi: *O'g'lim, go'zichog'im, orom olyapti. Birozdan so'ng Hasan aka, fizika o'qituvchisi, kirib keldi.*

## Kiritmalar

So'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarini ifodalovchi sintaksis birliklari kirish so'zlar deyiladi. Kiritmalar gapning, xususan, matnning umumiy mazmuniga aloqador bo'lsa-da, gapdagi biror bo'lak bilan hokim-tobelik aloqasiga kirmaydi, shuning uchun ular gapdagi boshqa bo'laklardan yozuvda vergul, tire, ba'zan qavslar bilan, talaffuzda esa kichik to'xtamlar bilan ajratiladi.

Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig'i, inkori va hokazo), fikrning birovga nisbatlanishi (mansubligi, aloqadorligi), o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi (birinchidan, ikkinchidan va hokazo), fikriga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi.

1. Ishonch munosabati: **albatta, shaksiz, shubhasiz**. Masalan, *Bu iltimosingizni, albatta, bajaraman.*

2. Gumon munosabati: **balki, ehtimol, chamasi, shekilli**. Masalan, *Balki, kelib qolar.*

3. Tasdiq munosabati: **to'g'ri, darhaqiqat, haqiqatan**. Masalan, *To'g'ri, bu litsey binosi.*

4. Achinish munosabati: **afsus, afsuski, attang**. Masalan, *Afsus, men yordam berolmadim.*

5. Fikrga yakun yasash munosabati: **alqissa, xullas, demak**. Masalan, *Xullas, o'qishlar yaxshi.*

6. Fikrning kimga qarashli ekanligi: **menimcha, uning ta'kidlashicha, fikri o'ljimcha, aytishlaricha**. Masalan, *Menimcha, eng yaxshisi shu.*

7. Fikrning tartibi: **birinchidan, ikkinchidan, avvalo, avvalambor**. Masalan, *Avvalo, men unday demoqchi emasman.*

8. Quvonch munosabati: **xayriyat, shukr**. Masalan, *Xayriyat, hammasi o'z iziga tushib ketdi.*

9. Ajablanish munosabati: **ajabo**. Masalan, *Ajabo, bularning hammasi o'ngimda bo'lib o'tdi.*

10. Fikrni dalillash: **masalan, jumladan**. Masalan, *Jumladan, barchamiz bu ishga mas'ulmiz.*

Kiritmalar barcha bo'laklar kabi **sodda va murakkab** bo'ladi. Sodda kiritmalar **so'zlar va so'z-gaplar bilan**, murakkab kiritmalar esa **so'z birikmalari, kengaygan birikmalar va gaplar bilan** ifodalanadi.

**Namuna:**

1. Afsuski (*sodda*), hali o'zlashtirilmagan yerlar juda ko'p. 2. Menimcha (*sodda*), oqil va sodiq er o'z rafiqasi uchun eng bebaho bezakdir. 3. Dunyoda hech bir xalq to'g'ri kelolmas, mening bilishimcha (*murakkab*), sening elingga.

### **Kirish so'zlarning uslubiy xususiyatlari**

Kiritmalar ham uslubiy xoslanish xususiyatiga ega. Shuning uchun so'zlovchi o'zi qo'llayotgan nutq uslubiga muvofiq keladiganini qo'llaydi. Masalan, *shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, fikri ojizimcha, avvalambor* kabi kirish so'zlar uslubiy xoslangan so'zlardir. Ulardan *shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, demak, avvalambor, fikri ojizimcha* so'zlari kitobiy uslubga xos. Kitobiy uslubga xos bu so'zlar o'z ichida ichki xoslanishga ega: *shaksiz, fikri ojizimcha* badiiy uslubga xos; *bayon qilinishicha* publitsistik uslubga xos. Shuning uchun har qaysi kirish so'zini o'z o'rnida ishlatish madaniy nutq belgisi sanaladi.

### **Undalma**

So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va predmetni ifodalab gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan so'z yoki so'zlar birikmasi undalma deyiladi.

So'zlashish jarayonida tinglovchining diqqatini o'z nutqingizga qaratish uchun ko'pincha uning nomini aytib yoki *opa, aka, singil, tog'a, amma, xola* kabi so'zlar orqali murojaat qilasiz. Ba'zan tinglovchiga murojaatni ifodalovchi so'zni qo'llash orqali unga shaxsiy munosabatingizni ifodalaysiz. Masalan, *Arpangizni xom o'ribmanmi, uka. Do'ndiq'im, o'ynoqlab yuratur. Onajonim, balki, bir kun Aytganingday bo'lar to'y.*

Undalma gapni **murakkablashtiruvchi vosita** sanaladi.

**Undalmalar so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgani uchun ko'pincha shaxs bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi.** Shuning uchun undalmali gaplarning kesimi ko'pincha I va II shaxs-son shakllarida bo'ladi. Undalma alohida ohang bilan ajratib aytiladi. Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi sababli uning o'rne erkin bo'ladi, lekin undalma gapning qayerida kelishiga ko'ra alohida-alohida vazifa bajaradi.

So'zlovchi tinglovchining diqqatini nutq jarayoniga jalb etishni maqsad qilib olsa, undalma gap boshida keladi. So'zlovchi tinglovchilarga murojaat etish orqali unga subyektiv munosabatini ifodalashni maqsad qilib olsa, undalma gap o'rtasi va oxirida keladi. Masalan, *Nechun kerak bo'ldi senga ko'zyoshim, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am?! Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo – Sen beshik emassan, dorsan, tabiat.*



Badiiy nutqda undalma shaxs bildirmaydigan jonli, hatto jonsiz predmetlar ham undalma vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Qani, ayt, maqsading nimadir sening, Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang.* (A.Oripov)

**Eslatma!** Undalmalar nutq jarayoniga undalغان, diqqati jalb qilingan shaxs-predmetlar bo'lgani uchun bosh kelishikda turadi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi, lekin undash ohangi bilan talaffuz qilinishi va kesim bilan moslashmasligi bilan egadan farqlanadi.

**Taqqoslang:** Ahmad keldi. Ahmad – ega. Kesim bilan grammatik bog'langan. Ahmad, keldi. Ahmad – undalma. Kimningdir kelganligi Ahmadga aytilyapti, kesim bilan grammatik bog'lanmaydi. Undash ohangi bilan talaffuz qilinadi.

**Eslatma!** Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Undalma gap boshida kelsa, undan so'ng, o'rtada kelsa, ikki tomondan, oxirida kelsa, undan oldin vergul qo'yiladi. Gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalmadan so'ng undov belgisi qo'yilishi ham mumkin. Masalan, *Odamlar! Eshitmadim demanglar.*

Undalmalar *yig'iq* hamda *yoyiq* kabi 2 turga bo'linadi. Birgina so'zdan iborat, aniqlovchi yoki izohlovchisi bo'lmagan undalmalar *yig'iq undalmalar* deyiladi. O'ziga qarashli aniqlovchisi yoki izohlovchisi bor undalmalar *yoyiq undalmalar* sanaladi. Masalan, *Jahonga vuz tutgan O'zbekistonim (yoyiq), sening har bir yutug'ing mening yutug'imdir. Sobir (yig'iq), eski oshnalaringni topib keldim. Vatanimiz muvaffaqiyatini ko'rolmaydigan quzgunlar (yoyiq), ayting, O'zbekistonning taraqqiyotiga kim g'ov bo'la oladi?!*

Undalmalar uyushib kelishi ham mumkin. Masalan, *Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, singillar, sizga shu haqda murojaat qilamiz.*

### Undalmalarning uslubiyati

Undalmalar tinglovchining diqqatini kuchliroq jalb etish, emotsionallikni ta'minlash, hayron qolish ma'nosini ifodalash uchun ko'pincha *ey, hoy, voy* kabi undovlar bilan birgalikda keladi. Bunday undovlar ko'pincha undalma oldidan qo'llaniladi. Masalan, *Hoy o'rtoqion, quloq soling so'zimga.*

Ba'zan undalmadan so'ng *ey, ho, ov, -u (-yu)* kabi undovlar ham ishlatiladi: *Karimjon-u (ov, ey, ho), bu yoqqa keling.* Bu vaqtda undalma orqali ifodalangan shaxs yoki predmet so'zlovchidan uzoq masofada ekani ifodalanadi.

**Eslatma!** Undalmalar oldidan undov so'zlar ishlatilganida yozuvda undalma bilan undov so'zlar orasiga hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi. Masalan, *Seni unutilmas yuragim aslo, ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo.*

**Eslatma!** Undov so'zlar undalmadan so'ng kelganida undov bilan undalma chiziqcha bilan ajratib yoziladi. Masalan, *Gulnora-uy, bu yoqqa kel.*

Undalmalar ko'pincha I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasini olib keladi. Bunday vaqtda undalma vazifasida kelayotgan tinglovchi so'zlovchiga yaqin ekanligini, erkalash, suyish ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.

Ayrim hollarda undalma nutqda tushib qolib, uning o'rnida undovlar qo'llaniladi. Masalan, Hoylar, bu yoqqa kelinglar. Hoy, chilim keltir.

Undalma o'rnida *hoy* kelganida tinglovchiga hurmatsizlik, mensimaslik ma'nosi ifodalanadi.

Ba'zan er-xotin bir-biriga murojaat etganida III shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi bilan kelgan undalmadan foydalaniladi. Masalan, Oyisi, keling. Dadajonisi, choy iching kabi.

### Kiritma gaplar

Nutq jaryonida so'zlovchi muayyan tushuncha yoki fikrga qo'shimcha ma'lumot bergisi keladi. Ana shu qo'shimcha ma'lumot ifodalovchi qism boshqa bo'laklardan to'xtam va pastroq ohang bilan talaffuz qilindi. Ana shu qo'shimcha ma'lumotlar **kiritma gap** deyiladi. Kiritma gaplar so'zlovchi bir fikrni ifodalayotgan paytda shu fikrga oid izoh, qo'shimcha axborot berish ehtiyoji bilan qo'llanadi. Masalan, Uni tanishsa kerak (Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam kam), bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi. (O' Umarbekov) Bu gapdagi asosiy axborot uni tanishsa kerak, bir bola kosada yaxna choy olib chiqdi qismi orqali ifodalangan. Farg'onada bir-birini tanimaydigan odam yo'q qismi esa gapning asosiy qismi tarkibidagi tanishsa kerak bo'lagi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotni ifodalaydi.

**Eslatma!** Bu qo'shimcha ma'lumot ifodalovchi qism gapdan tushirib qoldirilsa ham, gapning asosiy ma'nosiga ziyon yetmaydi.

Kiritma gaplar yozuvda qavs ichida, ba'zan vergul yoki tire bilan ajratilgan holda beriladi. Talaffuzda ular kichik to'xtamlar va ovoz balandligi bilan ajratiladi.

Kiritma gaplar, asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot bergani uchun ko'pincha gap o'rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi.

Kiritma gaplar juda keng qo'llaniladigan soha dramatik nutqdir. Bu nutqda qahramon nutqi qay tarzda bayon etilishi remarkalarda (personaj nomi bilan nutqi oralig'idagi qavslarda) ko'rsatib boriladi.

#### Namuna:

1. Chinorning yonish voqeasi (uning tafsilotini ikkinchi bobda bayon qilgan edfk) jamoaga asta-sekin ma'lum bo'la boshladi. 2. Shokir sartarosh (tumanda uni hamma taniydi, siz ham tanisangiz kerak) o'g'lini uylantirmoqchi bo'libdi. 3. «O'tkan kunlar» (siz bu romanni o'qigansiz, albatta) o'zbek



romanchiligi tarixida alohida o'rin egallaydi. 4. Musobaqada Rahimberdi (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.

#### **Namuna:**

1. Ko'zlari bo'taloqning ko'zlariday javdirab turgan bu yosh, hurkak malakni (uning ismi ham jismiga monand – Qorako'z begim edi!) amirga Buxoro hokimi Alp Tegin in'om qilib yuborgan. 2. Mana, bir oydan oshdi, G'aznadan maxfiy elchi Abulvafo Sariq kelib Ibn Sino hazratlarini topolmay noumid qaytib ketdi hamki, amir har on, har daqiqa G'aznadan sovuq xabar kutib (qunohkor bandangni o'zing kechirgaysen. Xudovandi karim!) betoqat bo'ladi, kechalari mijja qoqmay chiqadi. 3. Sarpardaning chap tomonida, baland qilib to'shalgan oq kigizlar ustida... boshiga qora telpak, egniga uzun qora jun chakmon kiygan bir odam... (Yo Rab! Bu odam Sulton Mahmud G'aznaviy edi!) uzala tushib yotardi! 4. Mirzajon aka (bizda birovni o'ta hurmat qilsang, yosh bo'lsa ham aka deymiz, men ham u kishini aka degim keladi)... muloyim kulimsirab qo'ydi. 5. Shundan keyin Saltanatni o'ninchi sinfni bitiruvchilar kechasida (bu to'yga odatdagiday hammamiz yig'ilgan edik) ko'rdim. (*O.Yoqubov*)

#### **Sodda va qo'shma gaplar**

Gapni gap qilib turgan asosiy belgi uning kesimlik (predikativlik) belgisi ekanligidan xabaringiz bor. Gapning kesimlik belgisi kesimlik ma'nolarini (zamon, shaxs-son, tasdiq, inkor, modallik (mayllik) ifodalovchi kesimlik shakllari orqali ifodalanadi. Kesimlik ma'nosini ifoda etgan har qanday sintaktik birlik gap sanaladi. Masalan, *Borma + sa(y) + di + m. Ko'm-ko'kdala*. Bu gaplarning birinchisida kesimlik ma'nolari alohida-alohida kesimlik shakllari: tasdiq-inkor ma'nosi **-ma** shakli orqali, modal (mayl) ma'no **-sa(y)** shakli orqali, zamon ma'nosi **-di** shakli orqali shaxs ma'nosi **-m** shakli orqali ifodalanmoqda. Ikkinchi gapda ham shu kesimlik ma'nolarining hammasi: tasdiq, aniqlik (modal ma'no), hozirgi zamon, I shaxs ma'nolari anglashiladi, lekin ular moddiy ko'rsatkichlarga ega emas. Nol ko'rsatkich orqali umumiy tarzda ifodalangan. Ana shu ma'nolar mavjudligi uchun ham u sintaktik birlik gap sanaladi.

**Gap uchun muhim belgi kesimlik belgisining miqdori** gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi.

Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega gap **sodda gap** deyiladi. Masalan, Jaloliddin Manguberdi mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G'arbda dong taratdi.

Ikki va undan ortiq sodda gapning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan hamda ohang tugalligiga ega butunlik **qo'shma gap** sanaladi. Masalan, Quvonarlisi shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musiqashunosligimizga asos soldi.

Demak, qo'shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topadi.

**Eslatma!** Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning grammatik munosabati deganda shu sodda gaplarning bir-biri bilan ma'lum grammatik vositalar (bog'lovchilar, yuklamalar, olmoshlar, ohang) yordamida bog'lanishi tushuniladi. Mazmuniy munosabati deganda esa qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuniy muvofiqligi tushuniladi.

Har qanday sodda gap o'zaro bog'lanib qo'shma gapni hosil qilavermaydi. Faqat o'zaro mazmuniy muvofiq bo'lgan gaplarga bir-biri bilan bog'lanib qo'shma gapni tashkil etadi. Masalan, *Qor yog'di va gullar ochildi; Bahor keldi, paxta terimi boshlandi* deb bo'lmaydi, chunki bu gaplar bir-biri bilan mazmunan muvofiq kelmaydi.

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar alohida qo'llangan sodda gaplar bilan teng emas. Alohida qo'llangan sodda gaplar grammatik, mazmun va ohang tugalligiga ega bo'ladi, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar esa bunday xususiyatga ega emas. Ularning har biri garchi gapning asosiy belgisini o'zida namoyon etsa ham, grammatik, mazmun va ohang tugalligi qo'shma gapning oxirida namoyon bo'ladi. Shuning uchun qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar alohida-alohida gaplar emas, balki bir umumiy gapning qismlari sanaladi. Bir qismning ohangi ikkinchi qismni talab qilib turadi. Masalan, *Suv keldi – nur keldi*.

### **Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar**

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalar hisoblanadi. Qo'shma gap qismlari quyidagi bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi:

1. Bog'lovchilar: a) teng bog'lovchilar; b) ergashtiruvchi bog'lovchilar.
2. Bog'lovchi vazifasidagi vositalar: a) *bo'lsa, esa, deb*; b) *-u (-yu), -da, -ki* yuklamalari; d) nisbiy so'zlar; e) *shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, shu bois* singari ko'makchili qurilmalar; f) shart mayli qo'shimchasi *-sa*.
3. Ohang.

### **Qo'shma gaplar tasnifi**

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch guruhga bo'linadi: 1. Bog'langan qo'shma gaplar. 2. Ergashgan qo'shma gaplar. 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

### **Bog'langan qo'shma gap**

Qismlari teng bog'lovchilar, *bo'lsa, esa, yo'qsa* so'zlari, *-u (-yu), -da* yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar hisoblanadi.



Qolip: □ → □

**Namuna:**

1. Sarbon shunday dedi-da, quchog'ini ochib Abu Bakr tomon kela boshladi. 2. To'lagan ro'molchasini cho'ntagidan oldi va boshqatdan qatladi-da, yana cho'ntagiga solib qo'ydi. 3. Uzun bir yog'och topdi-da, asta olmani o'ziga tomon «hayday» boshladi, ammo olma quvlik qilib yigitni aldar, yog'och uchi tegishi bilanoq suvga bir sho'ng'ib yana «qochib» qolardi. 4. Yo'q, faqat meni bilishmaydi, lekin boshqalarni, jumladan, seni ham yaxshi bilishadi. 6. Hujrasiga qaytdi-yu o'ylay boshladi. 7. Asalxon e'tibor bilan tingladi-yu, javob berish o'rniga indamay yo'lida keta berdi. (*Muhammad Ali*)

### **Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap**

Biriktiruv bog'lovchisi qo'shma gapning **payt, sabab-natija** munosabatlarida bo'lgan qismlarini bog'lab keladi. *Va, hamda, -u, -yu, -da, ham...*, *ham* biriktiruv bog'lovchilari sanaladi. Qismlari o'rtasida sabab-natija munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda ikkinchi qism oldidan *natijada* so'zini qo'yish mumkin bo'ladi. Masalan, *Anor so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. Anor so'zlar (va) natijada Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar.*

Ba'zan *-u (-yu), -da* yuklamalari ham biriktiruv bog'lovchilari bajargan vazifalarni bajaradi.

**Namuna:**

1. Umar uch qadamda bir to'xtab nafasini rostlay-rostlay tepaga zo'rg'a yetdi, qopni ag'dardi-yu muvozanatni saqlay olmay o'tirib oldi (*sabab-natija*). 2. Gulchehra «piq» etib kuldi-da, cho'zilib tugunni oldi (*payt*). 3. Mashhur qora qashqa ayg'irining chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi (*payt*). 4. To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi (*payt*). 5. Inobat qizishib ketib pisandaga o'tganini endi payqadi va uyalib yerga qaradi (*sabab-natija*). (*O.Yoqubov*) 6. Ro'paradagi g'orning bag'ridan qora tutun ko'tarildi va u yerdan yo'tal tovushi eshitildi (*sabab-natija*). (*H.Olimjon*)

### **Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap**

Zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham ifodalaydi. Zidlov bog'lovchilari gapning ikkinchi qismi boshida qo'llanadi va qo'shma gap qismlari vergul bilan ajratiladi. *Ammo, lekin, biroq, balki* zidlov bog'lovchilaridir.

*-u (-yu), -da* yuklamalari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida zidlash, ketma-ketlik munosabati mavjudligini bildiradi.

### Namuna:

1. Ashula nihoyasiga yetdi, lekin bir zumdan keyin yana yangi tovush parvoz qildi. (*Oybek*) 2. Bu daraxtning bo'yi baland, lekin mevasi kam. (*Oybek*) 3. Oy yoritadi, lekin isitmaydi. 4. Ba'zilar hordiq chiqarishga kirishdilar-u ba'zilar podalari izidan cho'lga qarab ketdilar. (*Sh.Xolmirzayev*) 5. Umrlar o'tar-u, kitoblar yashar. 6. Mayli, siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman. (*Oybek*)

### Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap

Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalangan voqea-hodisaning galma-gal ro'y berishini yoki faqat bittasining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. *Goh... , goh, ba'zan... , ba'zan, bir... , bir, dam... , dam, yo... , yo, yoki* ayiruv bog'lovchilari sanaladi.

*Yo (yoki)* bog'lovchisi yolg'iz holda ham, takror holda ham qo'llanishi mumkin. Qolgan ayiruv bog'lovchilari takror holda qo'llaniladi va yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. *Yo* va *yoki* ayiruv bog'lovchisi voqea-hodisaning faqat bittasi yuzaga chiqishini bildiradi.

### Namuna:

1. *Yo* siz keling, yo men boray. (*Qo'shiq*) 2. Goh osmonni tutib ashula yangraydi, goh allaqayerdan garmon tovushi eshitiladi. (*Oybek*) 3. Tansiq goh shap-shup suv kechib yuradi, goh uning oyoqlari yelimday loyga botadi. (*Oybek*) 4. Mashinaning nuqsoni bo'lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog'i yasaladi. (*A.Qahhor*) 5. Yo zardo'zi to'ning to'zibmi qoldi, Yoki so'kildimi suvsar telpaging. (*M.Lermontov*)

### Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap

*Na... , na* inkor bog'lovchisi sanaladi. Inkor bog'lovchisi bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ularda ifodalangan harakat-holat yoki belgining inkorini bildiradi. Shuning uchun bunday bog'langan qo'shma gaplarda kesimlar bo'lishli shakldagi fe'llar yoki *bor, mavjud* kabi so'zlar orqali ifodalansa-da, mazmun inkor tarzida anglashiladi. Yozuvda takror qo'llanayotgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

### Namuna:

1. Oradan uch kun o'tdi hamki, Mahmuda na birovga biron ish aytdi, na murod-u maqsadini surishtirdi. (*Nabi Jaloliddin*) 2. Ko'kda na bitta yulduz ko'rinadi, na undan tushishi mumkin bo'lgan bir qatim nur. (*Ulug'bek Hamdam*) 3. Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida ma'no bor. (*Oybek*) 4. Sel na odamni ayadi, na dov-daraxtni tinch qo'ydi. (*O'.Umarbekov*)

### Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gap

*Bo'lsa, esa* so'zlari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qiyoslash va zidlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. *Bo'lsa,*



esa so'zlari qiyoslanuvchi bo'lakdan so'ng keladi. Bo'lsa, esa so'zlari ikki zid ma'noli so'zni bog'lasa, zidlash munosabati yuzaga chiqadi.

#### **Namuna:**

1. Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam **esa** o'zining sharaf-u shonini asraydi (*qiyoslash*). 2. Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik **bo'lsa** uni saodatga boshlaydi (*zidlash*). 3. Yaxshilik qilmoqlik ulug' fazilatdir, buning qadriga yetmaslik **esa** illatdir (*zidlash*). 4. Oy tunda kerak, aql **esa** kunda kerak (*qiyoslash*). 5. To'g'ri til tosh yoradi, egri til **esa** bosh yoradi (*zidlash*). 6. Yaxshidan bog' qoladi, yomondan esa dog' qoladi (*zidlash*).

#### **Ergashgan qo'shma gaplar**

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar hisoblanadi.

Ergashgan qo'shma gaplar, tarkibida nechta gap bo'lishidan qat'i nazar, doimo ikki qismdan tashkil topadi: 1) bosh gap; 2) ergash gap.

Mazmuni izohlanayotgan gap bosh gap, bosh gap mazmunini izohlayotgan gap ergash gap sanaladi. Ergashgan qo'shma gaplar, asosan,  $\square \leftarrow \circ$  yoki  $\circ \rightarrow \square$  qolipida bo'ladi.

Ergashgan qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra so'z birikmalariga o'xshaydi. So'z birikmasidagi so'zlar nechta bo'lishidan qat'i nazar, doimo 2 qismdan: hokim va tobe so'zlardan tashkil topadi. Ergashgan qo'shma gaplar ham gaplar ikki qismdan iborat bo'ladi: bosh gap ergash gap. So'z birikmasi bilan ergashgan qo'shma gaplar qismlarining o'rni qat'iy yoki qat'iy emasligi jihatidan farq qiladi. So'z birikmasida hokim so'zning o'rni qat'iy, ergashgan qo'shma gapda bosh gapning o'rni qat'iy emas.

Ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

**1) ergashtiruvchi bog'lovchilar; 2) ko'makchili qurilmalar (*shuning uchun, shu sababli, shu tufayli*); 3) yuklamalar (*-ki*); 4) nisbiy so'zlar; 5) *deb* so'zi.**

#### **Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar**

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti yoki qiyosini bildirgan ergash gaplar bosh gapga sabab (*chunki, negaki*), maqsad (*toki*), shart (*agar, agarda, basharti, mabodo*), qiyoslash-chog'ishtiruv (*go'yo, go'yoki, xuddi*) ergashtiruvchi bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Sabab, maqsad, qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchilari *ergash gap boshida* qo'llanadi va ergash gap bosh gapdan so'ng keladi. Bunday vaqtda yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. Qolip:  $\square \leftarrow \circ$ .

**Shart bog'lovchilari** gap boshida keladi. Ergash gap kesimi shart maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunday ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi.

Ko'pincha shart bog'lovchilari qo'llanmasa ham, shart mayli shakli qo'shma gap qismlarini bog'layveradi. Qolip:  $\circ \rightarrow \square$ .

**Ergashtiruvchi bog'lovchilar** o'zining ma'nosiga mos ravishda ergash gapga maqsad, shart, o'xshatish, sabab kabi ma'nolarni beradi. Shuning uchun ergash gapli qo'shma gaplar **sabab ergash gapli qo'shma gaplar, maqsad ergash gapli qo'shma gaplar** kabi mazmuniy turlarga ham bo'linadi.

**Namuna:**

1. Ozigina hovliqib turishsa ham, cho'chishsa ham mayliga, negaki keyin yelkalaridan yuk arigan mahali tuyadigan shodliklari ham shunga yarasha bo'ladi. (*M.M.Do'st*)  $\square \leftarrow \circ$
2. Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlar berur.  $\square \leftarrow \circ$  (*A.Qodiriy*)
3. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, qo'yo yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. (*Oybek*)  $\square \leftarrow \circ$
4. Bu masalani sinfda keng muhokama qilamiz, toki boshqa qaytarilmasin. («*G'uncha*»)  $\square \leftarrow \circ$
5. Vijdonni asrangiz har nedan ortiq, Bobolardan qolgan bu noyob tortiq Toki avlodlarga yetolsin omon. (*A.Oripov*)  $\square \leftarrow \circ$
6. Agar boshingga qilich kelsa ham, to'g'ri gapir.  $\circ \rightarrow \square$  (*9-sinf*)

### **Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar**

Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga **shuning uchun, shu sababli, shu tufayli** singari ko'makchili qurilmalar vositasida bog'lanadi. Ular bosh gap tarkibida keladi. Qolip:  $\circ \rightarrow \square$ .

**Namuna:**

1. Uning bunday odati yo'q edi, shuning uchun yigit hayron bo'lib biroz qarab turibdi. (*A.Qahhor*)
2. Yozi bilan tinimsiz mehnat qildik, shu sababli mo'l hosil oldik. (*Olimjon Xoldor*)
3. Olimlar har yerda aziz va hurmatlidir, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.
4. O'zimiz juda cho'llab kelgan edik, shuning uchun kechirdik. (*A.Qodiriy*)

### **Deb so'zl yordamida ergashgan qo'shma gaplar**

Bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini, sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga ko'pincha deb so'zi yordamida bog'lanadi va ergash gapning kesimi III shaxs buyruq mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Bunday gaplar tarkibidagi deb so'zi uchun ko'makchisi bilan ma'nodosh sanaladi, shu bois bir-biri bilan erkin almashina oladi. Ergash gaplar yozuvda vergul bilan ajratiladi. Ergash gapning kesimi buyruq va shart maylidagi, shuningdek, kelasi zamon fe'llari bilan ifodalanganida, asosan, maqsad ma'nosi, o'tgan zamon fe'llari bilan ifodalanganida esa, asosan, sabab ma'nosini bildiradi. Qolip:  $\circ \rightarrow \square$ .

**Namuna:**

1. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb (*maqsad*) qo'lingga. (*H.Olimjon*)
2. Shu mo'jaz uyimda yonsin deb (*maqsad*) chiroq, Ne aziz zotlarga yondosh-



dim gohi. (A.Oripov) 3. Kamalakdek rango-rang Bo'lsin deb, (*maqsad*) san'at, tillar, Asrlarcha qildim jang. (E.Vohidov) 4. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb (*maqsad*) sevgan elimda. (H.Olimjon)

### Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar

Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanganida shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita ham sanaladi. Bunday ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish yoki chiqmaslik **shartini**, **paytini** bildiradi. Yozuvda ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. Qolip: ○→□.

#### Namuna:

1. Yerga mehringni bersang, u senga rizq beradi, seni to'ydiradi. (E.Samandar) 2. Esli-hushli do'stlaringiz bo'lsa, biznikiga olib kelarsiz. (M.M.Do'st) 4. Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, ukalaringnikiga ketib qolaman. (S.Ahmad) 5. Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. (Maqol) 6. Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kirar teshikdan. (Maqol) 7. Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan. (Maqol)

### Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga **-ki** yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bu yuklama bosh gap kesimi tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan vergul bilan ajratiladi. Ba'zan bu bo'lak qo'llanmasligi ham mumkin, ammo uning o'rni bilinib turadi. Qolip: □←○.

#### Namuna:

1. Shunday odamlar borki, ular bilan gaplashib bahra olasan. (Hamid Gulom) 2. Shunga ishonchim komilki, qasd qilganlar past bo'ladi. (Shuhrat) 3. Shuni angladimki, inson qobiliyati cheksiz ekan. 4. Shunday birliklar borki, ularni pul birligida o'lchab bo'lmaydi. (Azim Suyun) 5. Aybingiz shuki, juda ko'ngilchansiz. 6. Odam borki, odamlarning naqshidir, Odam borki, hayvon undan yaxshidir. (A.Navoiy)

### Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar

Ergash gap tarkibida qo'llanuvchi *kim, nima, qancha, qanchalik, qanday, qayer* kabi so'roq olmoshlari va *bosh gap tarkibida* unga javob bo'lib keluvchi *shu, o'sha, shuncha, shunchalik, shunday* kabi olmoshlar bir-biriga nisbatan qo'llangani, biri ikkinchisini taqozo etgani uchun **nisbiy so'zlar** hisoblanadi. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Qolip: ○→□

#### Namuna:

1. Siz Hindistonda neniki ko'rgan bo'lsangiz, shularning hammasini jam etib bir kitob yozmog'ingiz darkor. (A.Qayumov) 2. Qalandarov yugurdagini «Eshon

hoj!» deb chaqirganida Saida ganchalik xursand bo'lgan bo'lsa, hujrani ko'rib shunchalik ta'bi tirriq bo'ldi. (*A.Qahhor*) 3. Kimning ko'ngli to'ri bo'lsa, uning o'zi ham to'g'ri bo'ladi. (*Maqol*) 4. Bu Vatanni jon bilan saqlashga, Cho'lpon, hozir o'l, Kimki qasd etsa anga, kiysin pushaymondin kafan! (*Cho'lpon*)

### Havola bo'lakli gaplar

Qo'shma gap tarkibida faqat ergash gaggina bosh gapga ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanib qolmaydi. Ko'pincha bosh gap tarkibida ham ergash gapni taqozo etadigan, uning mavjud bo'lishiga ishora (havola) qiladigan ko'rsatish olmoshlari qatnashadi. Ergash gap *shu* olmoshining ma'nosini izohlaydi, uning ma'nosiga teng keladi.

Masalan, *Shunday odamlar borki, odamlarning naqshidir. Toleyim shulki, Vatanda bir guliston tanladim. Kim ko'p kitob o'qisa, o'sha ko'p biladi.*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda havola bo'lak qanday gap bo'lagi vazifasida kelsa, ergash gap ham shunday gap bo'lagi nomi bilan yuritiladi.

**Eslatma!** Yuqoridagi gaplarda *shunday, shulki, o'sha* bo'laklarining mazmuni ergash gap orqali izohlanadi. Ular ergash gapga ishora qiladi. Shuning uchun bunday bo'laklar havola bo'laklar sanaladi. Bunday bo'laklar qatnashgan qo'shma gaplar esa havola bo'lakli qo'shma gaplar deyiladi.

Havola bo'lakli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapga havola bo'lakdan tashqari *-ki* va *-sa* shakllari yordamida bog'lanadi. Bulardan *-ki* bosh gap kesimi oxiriga, *-sa* esa ergash gap kesimi oxiriga qo'shiladi.

1. Shu... -ki...

2. Kim... -sa...

Demak, nisbiy so'z va ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar ***havola bo'lakli qo'shma gaplar*** sanaladi. Masalan, *Kimning himmati baland bo'lsa, uning qadr-qimmatini baland bo'ladi. Hunar shunday otdirki, u mingan kishini rohat va e'tibor manziliga yetaklaydi.*

### Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gaplar bilan ma'nodoshligi

Tarkibida ko'rsatish olmoshi mavjud ergashgan qo'shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo'lagi o'rniga qo'yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin. Masalan: 1. *Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi – Ko'p o'qigan ko'p biladi.* 2. *Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo – Dunyoning kengga keng, torga tortligini biling.*

Havola bo'lakli qo'shma gaplarni doimo sodda gapga aylantirish mumkin, chunki qo'shma gapning ergash gap qismi bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining umumiy mavhum ma'nosini konkretlashtirish, izohlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun ergash gapni bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi o'rniga qo'yish mumkin bo'ladi. Natijada ergash gap bosh gap tarkibidagi



ko'rsatish olmoshi bajargan gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Qo'shma gap esa sodda gapga aylanadi.

Masalan, *Kim mehnatdan qochmasa, unga tole kulib boqadi – Mehnatdan qochmaganga tole kulib boqadi. Shunga aminmanki, ertamiz bugungidan porloqroq bo'ladi – Ertamiz bugungidan porloqroq bo'lishiga aminman.*

**Eslatma!** Ko'rinadiki, bir axborotni ikki xil gap – sodda va qo'shma gap orqali ifodalash mumkin.

Garchi gapning bu ikki turi bir xil mazmun ifodalash jihatidan umumiylikni tashkil etsa ham, lekin ular ma'noni ta'kidlash, uslubiy xoslanish jihatidan farq qiladi. Havola bo'lakli qo'shma gaplar ko'proq kitobiy uslubga xos va sodda gaplardagiga nisbatan ma'no ta'kidlangan bo'lsa, sodda gaplar uslubiy betaraflik xususiyatiga ega bo'ladi.

**Namuna:**

1. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni sherik qilib olishim mumkin – Men siz ishonch bildirgan kishingizni sherik qilib olishim mumkin. 2. Shunga xursandmizki, bolalar o'z yo'lini topib ketishdi – Bolalar o'z yo'lini topib ketishganiga xursandmiz. 3. Tilagimiz shuki, hammangiz el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo'linglar – Tilagim hammangizning el xizmatiga kamarbasta farzandlar bo'lishingizdir.

### Kesim ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gap kesim ergash gap deyiladi.

Kesim ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1. Ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki** (*shuki, shundayki, shundaki, shu bo'ldiki, shunday ekanki...*) □←○.

2. Nisbiy so'z + **-sa** (*Kim... -sa, o'nakinidir, kim... -sa, o'shadir, nima... -sa, shudir.*) ○→□.

**Namuna:**

1. Endi sizlarga muborak topshiriq shuki, har biringiz alohida-alohida ketasiz. (*M.Mansurov*) 2. Toleyim shulki, jahonda bir guliston tanladim. (*H.Olimjon*) 3. Muhammad Yusuf ijodining o'ziga xos xususiyati shundaki, u juda oson o'qiladi, sodda, xalqchil. (*O.Sharafiddinov*) 4. Buning natijasi shu bo'ldiki, To'laganning qanshariga musht tushdi. (*A.Qahhor*) 5. Keragi shuki, bu miqqiyni ham boqish kerak. (*G'.G'ulom*) 6. Qizig'i shundaki, shu ko'rinishiga ovozi muloyim edi. (*F.Musajonov*) 7. Eng yaxshi yo'l shuki, yaxshi do'st yor-u diyordan ayrilishni ixtiyor etmaydi. 8. O'tgan ota-bobolarning xulosasi shuki, shirin so'z odamlarning qalbini bog'lovchi zanjirdir. 9. Qisqa gap shuki, odam so'zi bilan taniladi, axloqi bilan maqталadi. 10. Donolarning o'giti shundayki, so'zning lazzati uni gapirishda emas, balki eshitishdadir. 11. Xalqning xulosasi shuki, xudbin odam hech qachon elga qayishmaydi. 12. Yutug'imiz shundaki, har bir xodim o'z vazifasini biladi va uni vijdonan bajaradi.

## Ega ergash gapli qo'shma gap

Bosh gap tarkibidagi ega vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gap ega ergash gap deyiladi.

Ega ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1. Ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki** (*shunisi... -ki, shu narsa... -ki*) □←○. Bunday gaplarda **-ki** bosh gapning kesimi tarkibida uchraydi. Ba'zan gapda ko'rsatish olmoshi tushib qolishi mumkin: *Qiziqki, u bu gapni nega aytgan ekan?*

2. Nisbiy so'z + **-sa** (*kim... -sa, ... u..., nima... -sa, o'sha...*) ○→□. Bunday gaplarda **-sa** shart mayli shakli ergash gapning kesimi tarkibida uchraydi. Bosh gap tarkibida nisbiy so'z (javobi, ko'rsatishi) tushib qolishi mumkin: *Kim yoshlikdan chiniqsa, yorug' kelajakka erishadi.*

**Namuna:**

1. Shu narsa qiziqki, uyquda ham miya o'z faoliyatini to'xtatmaydi. («*Fan va turmush*») 2. Kim izlansa, u, albatta, maqsadiga yetadi, 3. Kimki rostgo'y bo'lsa, u el o'rtasida qadr topadi. («*Tafakkur gulshani*») 4. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshladi. (*Oybek*) 5. Kim erta bahordan dalaga chiqib ter to'ksa, u kuzda mehnatining rohatini ko'radi. 6. Anvarga shunisi qiziq tuyuldi, bu yerda daraxtlar bir chiziq ustida saf turadi. (*A.Qodiriy*) 7. Bu savollardan (shu narsa) ma'lum bo'ldiki, aybnoma uydirma emas. (*A.Qahhor*) 8. Bir narsa aniqki, ahvol yomon. (*A.Muxtor*) 9. Kimki taqdirga tan bersa, u hayot to'lqinida g'arq bo'lib ketadi. (*O.Yoqubov*) 10. Kimki birovga yomonlik qilsa, u shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi. 11. Kim ilm urug'ini sep-sa, u ulug'lik mevasini teradi. 12. Shu narsa aniqki, tarixini yaxshi bilmagan odam oxir-oqibatda qul sifatida kun kechiradi. (*Muhammad Ali*)

## Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap

Bosh gap tarkibidagi aniqlovchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gap aniqlovchi ergash gap deyiladi.

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1. Ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki** (*shunday... -ki, shunaqa... -ki*) □←○. Bunday gaplarda **-ki** bosh gapning kesimi tarkibida uchraydi. Ba'zan gapda ko'rsatish olmoshi tushib qolishi mumkin: *Odamlar borki, ularni ko'rib hayotni anglaysan.*

2. Nisbiy so'z + **-sa** (*kim... -sa, ... uning..., nima... -sa, o'shaning..., qaysi (ot)... -sa, o'sha...*) ○→□. Bunday gaplarda **-sa** shart mayli shakli ergash gapning kesimi tarkibida uchraydi. Bosh gap tarkibida nisbiy so'z (javobi, ko'rsatishi) tushib qolishi mumkin: *Kimki yolg'on gapirsa, el orasida obro'yi past bo'ladi.*

**Namuna:**

1. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi. (*Hikmatli so'z*) 2. Sevgi shunday navbahorki, u tikondan gul qilur. (*E.Vohi-*



dov) 3. Bu suvni ichganidan so'ng kim yolg'on so'zlasa, uning qulog'i o'sib ketarmish. (*Ertakdan*) 4. Kim yalqov bo'lsa, uning qo'lida obod yer ham xarob bo'ladi. (*Sobir Abdulla*) 5. Men senga shunday narsalar keltirayki, ularni tushingda ham ko'rmagansan. (*Oybek*) 6. Kimning quroli bilim bo'lsa, uning kelajagi porloq. (*J.Abdullaxonov*) 7. Shunday odamlar borki, kelajakni oldindan bashorat qila oladilar. («*Fan va turmush*») 8. Kim birovga yaxshilik qilsa, uning obro'yi baland bo'ladi. («*Tafakkur gulshani*»)

### To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap

Bosh gap tarkibidagi to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gap to'ldiruvchi ergash gap deyiladi.

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap quyidagicha hosil qilinadi:

1. Ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki** (*shuni... -ki, shundan... -ki, shunga... -ki...*) □←○. Bunday gaplarda **-ki** bosh gapning kesimi tarkibida uchraydi. Ba'zan gapda ko'rsatish olmoshi tushib qolishi mumkin: *Unutmangki, siz kelajagimizsiz.*

2. Nisbiy so'z + **-sa** (*kim... -sa, ... uni..., nimaga.. -sa, o'shanga...*) ○→□. Bunday gaplarda **-sa** shart mayli shakli ergash gapning kesimi tarkibida uchraydi. Bosh gap tarkibida nisbiy so'z (javobi, ko'rsatishi) tushib qolishi mumkin: *Kim qilgan ishidan quvonsa, hayot ham go'zal ko'rinadi.*

#### Namuna:

1. Ahmadjon faqat shuni biladiki, dushman bu tepalikni haddan tashqari ko'p o'qqa tutdi. (*A.Qahhor*) 2. Bu o'rinda shuni aytish kerakki, qalandarovlarni o'sha davr hayoti yarata boshlagan edi. (*M.Qo'shjonov*) 3. Qalbingiz nimani buyursa, siz menga shuni buyuring. (*P.Qodirov*) 4. (Shuni) Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan afzal. 5. Shuni anglamoq kerakki, ota-ona uchun farzanddan yaqinroq kishi yo'q. 6. Shundan ehtiyot bo'lingki, birovning ota-onasini haqorat qilgan odam o'zining ota-onasini ham haqoratlagan bo'ladi. 7. Shuni hamisha yodingizda saqlangki, birovga yolg'on gapirish eng katta gunohdir. 10. Shuni unutmangki, do'stlar bilan suhbat qurmoq gullar orasida sayr qilmoqdan xushdir. 11. Shu narsani esdan chiqarmangki, odam odam bilan uchrashadi, tog' tog' bilan uchrashmaydi. 12. Kimki bo'lsa dilozor, undan el-u yurt bezor.

### Hol ergash gapli qo'shma gap

Bosh gap tarkibida hol vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi yoki bosh gap orqali ifodalangan mazmunning sababi, sharti, payti, holati, miqdor-darajasi kabilarni bildirgan ergash gap hol ergash gap deyiladi.

Hol ergash gapli qo'shma gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1. Ko'rsatish olmoshi tarkibidagi **-ki** (*shunday + (fe'l)... -ki, shunchalik + (fe'l)... -ki*) □←○. Bunday gaplarda **-ki** bosh gapning kesimi tarkibida uchraydi.

2. Nisbiy so'z + **-sa** (*qayer... -sa, ... o'sha yerga..., qanchalik... -sa, shunchalik...*) ○→□. Bunday gaplarda **-sa** shart mayli shakli ergash gapning kesimi tarkibida uchraydi. Bosh gap tarkibida nisbiy so'z (javobi, ko'rsatishi) tushib qolishi mumkin: *Qayerda ahillik bo'lsa, rivojlanish bo'ladi.*

3. **-sa** shart mayli vositasida.

4. Sabab bog'lovchilari vositasida.

5. Maqsad bo'lovchilari vositasida.

6. Shart bog'lovchilari vositasida.

**Namuna:**

1. Oqsoqol qayerda bo'lsa, o'sha joyda ish bir tartibda boradi. (*O'.Hoshimov*) 2. Dutor chalib o'tirsam, tori uzilib ketdi. (*Qo'shiqdan*) 3. Oyna opa xatni oxirigacha o'qiy olmadi, chunki hovlining eshigini kimdir taqillata boshladi. (*Sh.Xolmirzayev*) 4. Sizni qo'rqib ketmasin deb, kechqurun bezovta qilmadik. (*Nazir Safarov*) 5. Boshingga tashvish tushmasa, qaytib kelmasding. (*Said Ahmad*) 6. Hali Onaxonning bilmaganlari shu qadar ko'p ediki, so'rab oxiriga yetolmasday ko'rindi. (*A.Muxtor*) 7. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut-baraka bo'ladi. («*Tafakkur gulshani*») 8. O'simlikni qanchalik yaxshi parvarish qilsang, shuncha mo'l hosil olasan. 9. Soy qanchalik tez oqsa, u shunchalik sayoz bo'ladi. («*Tafakkur gulshani*») 10. Odamlar ishdan qolmasin deb, marosimni soat besh yarimga tayin etganmiz. (*Said Ahmad*) 11. Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergan noningiz harom bo'lg'ay. (*P.Qodirov*) 12. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam. (*G'afur G'ulom*) 13. Yana ikki ko'z ham berdim, yov kelganda ko'rsin deb. (*H.Olimjon*)

### Bog'lovchisiz qo'shma gap

Tarkibida sodda gaplar mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, maxsus bog'lovchi vositalarsiz, faqat ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar sanaladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap quyidagi qolip asosida hosil qilinadi: □ – □.

Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarini yozuvda ajratish uchun vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul kabi tinish belgilari ishlatiladi.

**I. Vergul.** Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqea-hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi:

1. Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar, qizlar maktab hovlisini sumpurdilar.

2. Ruboiyni ichida o'qidi, yuzini tabassum qopladi. (*Oybek*)

3. Yana uvlar dahshat shamoli, Ko'kni qora bulut quchadi. (*Temur Fattoh*)



4. Avval ular bizga yetib olishain, keyin birga jo'namiz. (*X To'xtaboyev*)
  5. Kuz keldi, yig'im terim boshlandi. (*Qamchibek Kenja*)
  6. Yog'ib yubordi-da yomg'ir, nihoyat, o'mon dil qulfini zamanga sochdi.  
(*T.Sodiqova*)
  7. Bulbul sayrar, ohumchuq chirqirar, Xabar berar asl zotidan. (*H.Olimjon*)
  8. Siddiqjon te'ktadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi. (*A.Qahhor*)
  9. Sabr bila bog'liq ish ochilur, Ishda oshiqqan ko'p toyilur. (*A.Navoiy*)
  10. Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz  
chiroyli bo'lsin! (*Hadisdan*)
  11. Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi, yuragim gursillagan-  
cha o'rnimdan turib ketaman. (*O'.Hoshimov*)
  12. Kumush cho'yshab yopib dalalar, qor qo'ynida uxlab qoladi. (*Uyg'un*)
  13. Qattiq charehagan edim, nima deb javob berganimni bilmayman.  
(*Said Ahmad*)
  14. Zal jim, xalq parda ochilishini kutar edi. (*A.Qahhor*)
  15. Kechasi shamol tindi, yo'l azobidan horigan kishilar qattiq uyquga  
ketdilar. Oyim endi o'rnimdan turavotgan edi, oshik shahd bilan ochildi.
  16. Bir vaqt dasturxon yozildi, turli taomlar kirdi.
  17. Quyosh tik ko'tarilgan, uning o'tashi yer yuzini yondirishga qasd qil-  
ganidek avjga mingan edi.
  18. Yangi shahar ko'chalari quruq va toza, ilk bahor shamollari yoqimli esadi.
  19. Havo ochiq, quyoshning iliq nuri qirov bosgan marzalardan yengil  
bug' ko'tariladi.
  20. Uning vajohatini ko'rib Zaynab cho'chidi, salom berishni ham unutdi.  
(*T.Malik*)
  21. Meni ham olib ket, gado bo'lsang gado bo'laman, ado bo'lsang sening  
yo'lingda ado bo'laman. (*S.Siyoyev*)
  22. Tilingni o'z ixtiyoringda asra, so'zingni ehtiyot bilan so'zla. (*A.Navoiy*)
  23. G'ayratlning yuragi qaynar, g'ayratsizning yuragi o'ynar. (*Maqol*)
  24. Odamning turli fe'l-atvorli do'stlari bo'ladi, hammasi bilan fe'luga, ta-  
biatiga qarab yaxshi muomala qilish zarur. (*M.Mahmudov*)
  25. Vaqtida aytiladigan so'zni asrama, aytmaz so'z tevaragiga yo'lama.  
(*A.Navoiy*)
  26. Yurtim, dalalaring bebaho, tuprog'ing tabarruk. (*T.Murod*)
  27. Agar biron asarim kitobxon og'ziga tushsa, mendan oldin u sevinib  
ketardi. (*S.Ahmad*)
- II. Ikki nuqta.** Qo'shma gap qismlari orasida izohlash, aniqlash, tushuntirish munosabatini ifodalaydi.
1. Bizning qarorimiz shu: hasharda barchamiz faol ishtirok etamiz.
  2. Orzum shul: o'chmasin yongan chirog'ing. (*A.Oripov*)
  3. Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir: tun yarmidan og'ganida  
birdan uyg'onib ketasiz. (*O'.Hoshimov*)

4. Mening bir jaydari falsafamdir shu: hargiz iltimosga kuning qolmasin. (A.Oripov)

5. Qiz uni ushlab olgani urindi, juda qiynalib ketdi: qo'llariga tikan kirdi, yuzi va bilaklari timdalandi. (A.Qahhor)

6. Borliq jim: har bitta darchada zangori shu'lalar porlaydi. (E.Vohidov)

7. Omon ovchining ov sarguzashtlari ko'plarni qiziqtirdi: ko'plari hikoya eshitish uchun kelardi. (Sh.Xolmirzayev)

8. Saida bunga juda suyundi: demak, hisobot yuzasidan bo'ladigan muzo-kara juda qizg'in tus oladi.

9. Urilmoq ham foyda: pishiq bo'lasiz, tajriba hosil qilasiz.

10. Faqat bitta iltimos: bir bayt o'qiyman, shuni yaxshilab eshiting.

11. Tilmoch bitta qadam bosib eshikka tomon borarkan, aylanib orqasiga qaradi: keng zal bo'm-bo'sh, xuddi yetimchadek ko'rinadi.

12. Ko'm-ko'k yopiqli uzun stol ustida sud a'zolaridan birining ko'zoynak qutichasi qolib ketgan; zal o'rtasidagi og'zi ochiq pechdan o'tinning charsillab yongani eshitaladi.

13. Chol undan balandroq keldi: men brigadirlikdan tushmayman deb chiqib ketdi.

14. Qayerdadir xo'roz qichqirdi: tong otishi yaqinlashgan.

15. Bir necha nafas shunday turgach, ko'zlarini yumdi: nur yo'qolibdi. (T.Malik)

16. Yaxshisi shu: har kuni savob ish qilishga odatlan.

17. Elning bir so'zi bor: o'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.

18. Axir, shu qarorga keldilar: bolalarni buvimga topshiradigan va akam o'zi bilan shaharga olib ketadigan bo'ldi.

19. Suv keldi: giyoh bitmas cho'llar obod bo'ldi.

20. Dam o'tmay Chotqol yonbag'irlaridagi go'zal vohada oqshom o'z husn-jamolini namoyon etdi: shahar va qishloqlarda yulduzsimon elektr chiroqlari ko'zni qamashtirib porladi.

21. Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman. (A.Qahhor)

**III. Tire.** Yordamchisiz bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro zidlansa, o'xshatilsa, shart qilib qo'yilsa, ular orasida tire ishlatiladi:

1. Hamal keldi – amal keldi.

2. Suv keldi – cho'llarda hayot boshlandi.

3. Yuragida qanday dard bor – mana bu menga sir.

4. To'rt mashina o'g'it yubordik – fermerlarga vaqtida taqsimlansin.

5. Suv keldi – nur keldi.

6. G'animlar duch kelar – jang bo'lar puxta.

7. Eshakni yaydoq minib bo'lmaydi – yiqilasan kishi.

8. Qor yog'di – don yog'di.

9. Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.



10. Yurgan daryo – o'tirgan bo'ya.
11. Shu payt ko'ksiga beozor botib turgan narsa – tuproqli tumori yodiga tushibdi. (*N.Jaloliddin*)
12. Ishning ko'zini bil – dala ham obod, choyxona ham.
13. Men tirikman – o'lja bo'lmaydi otim.
14. Donoga ishora – nodonga kaltak.
15. Kimki mehnatning zo'rini qilibdi – odamning sarasi ana shu.
16. Qirq to'rt so'mdan yigirma yetti so'mni olib tashladik – o'n yetti so'm qoldi.
17. Endi nima bo'lib shundoq bo'lganini aytib o'tishga fursatim yo'q – idorada odamlar kutib o'tiribdi. (*A.Qahhor*)

**IV. Nuqtali vergul.** Qo'shma gap qismlari mazmunan yaqin bo'lmagan yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqealarni bildirgan va bir necha tinish belgilari qo'llangan hollarda nuqtali vergul ishlatiladi:

1. Xadicha xola bolalik chog'idagi singari uning beliga non tugib berdi, peshonasidan o'pdi, duo qildi; irim qilib o'zi kuzatgani chiqmadi.
2. Kampirning jig'ibiyroni chiqdi; ombordan olib chiqqan bir savat paxtasi bilan chig'irig'ini ko'tarib, vaysagancha, uyiga kirib ketdi.
3. Istiqlol davri bolalari g'ayratli, shijoatli; ko'zida chaqini, ko'ksida yolqini bor. (*Dilshod Rajab*)
4. Ertaga cho'qqini egallaymiz; sovuq qattiq emas, shamol bo'lishi ham kutilmaydi.
5. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (*A.Oripov*)
1. Navoiy Husayn Boyqaro qoshiga kirib vaziyatni tushuntirdi; isyonchi valiahdi bilan mustahkam sulh barpo etish kerakligini talab qildi.
2. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u sening uchun ko'zgudir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi?
3. Qish oxirlamoqda, qorlar erigan, hamma joyda loygarchilik; yo'lda arava tugul, piyoda ham zo'rg'a, qo'rqa-pisa qadam bosadi.

#### **Qo'shma gap turlarining ma'nodoshligi**

Bahor keldi, gullar ochildi (*bog'lovchisiz qo'shma gap*).

Bahor keldi, shuning uchun gullar ochildi (*ergashgan qo'shma gap*).

Bahor keldi va gullar ochildi (*bog'langan qo'shma gap*).

**Yoki:**

Bir kishi ariq ochadi, ming kishi suv ichadi (*bog'lovchisiz qo'shma gap*).

Bir kishi ariq ochadi va ming kishi suv ichadi (*bog'langan qo'shma gap*).

Bir kishi ariq ochsa, ming kishi suv ichadi (*ergashgan qo'shma gap*).

**Yoki:**

Yurt tinch – sen tinch (*bog'lovchisiz qo'shma gap*).

Yurt tinch, shuning uchun sen tinch (*ergashgan qo'shma gap*).

Yurt tinch va sen tinch (*bog'langan qo'shma gap*).

Yuqoridagi ma'lumotlar qo'shma gaplarning doimo ikki va undan ortiq sodda gaplardan tashkil topishi, qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar uning qismlari ekanligi, ana shu tarkibiy qismlar bir-biri bilan ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishi, qismlari qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar quyidagi uch turga bo'linishi haqida ma'lumotga ega bo'ldingiz: 1) qismlari teng bog'lovchilar yoki bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gaplar; 2) qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida yoki bir qismning kesimi nomustaqil shaklda turgan qo'shma gaplar; 3) qismlari maxsus bog'lovchi vositalarsiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar.

Bularning birinchi turi bog'langan, ikkinchi turi ergash gapli, uchinchi turi esa bog'lovchisiz qo'shma gap hisoblanishini bildingiz.

**Eslatma!** Qo'shma gap qismlari teng bog'lovchilar yordamida ham, ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida ham bog'lanmasa, ular bir-biri bilan ohang yordamida bog'lanadi. Ana shunday qo'shma gaplar ohang yordamida bog'langan qo'shma gaplar yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi.

Ohang yordamida bog'langan qo'shma gap qismlari o'rtasida turli xil ma'no munosabatlari bo'ladi. Masalan:

**Ziddlik:** *Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.*

**Sabab:** *Qo'ng'iroq chalindi, dars boshlandi.*

**Payt:** *Dalasida o'smas tikonlar, cho'llarida chopmas ilonlar.*

Bunday ma'nolar bog'langan va ergash gapli qo'shma gap qismlari o'rtasida ham mavjudligidan xabaringiz bor. Ana shu ma'no umumiyligi asosida bunday qo'shma gaplar o'zaro sinonimik munosabatda bo'ladi.

**Masalan:**

*Ko'prikni biz qurdik, dushmanlar o'tdi.*

*Ko'prikni biz qurdik, lekin (ammo) dushmanlar o'tdi.*

**Esda saqlang.** Yuqoridagi ikkita qo'shma gap qismlari o'rtasida bir xil ma'no munosabati – ziddlik (birinchi gap ma'nosi bilan ikkinchi gap ma'nosi o'rtasida ziddlik bor) munosabati ifodalangani uchun bu ikki gap bir-biri bilan sinonim sanaladi.

Ular o'rtasidagi farq faqat qo'shma gap qismlari o'rtasida qanday bog'lovchi vosita ishlatilishidadir. *Anor so'ylar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.* (*H.Olimjon*) Bunda qo'shma gap qismlari o'rtasida payt munosabati ifodalangan. Qo'shma gap tarkibidagi ikkita sodda gap bir paytda ro'y berayotgan ikkita voqea-hodisani (birinchisi – Anorning so'zlashi, ikkinchisi – Zaynab qalbining qaltirashi) ifodalaydi. Ikkala qism va bog'lovchisi qatnashmagan holda ohang yordamida ham bog'lanishi mumkin: *Anor so'ylar, Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar.* Bu vaqtda bog'langan qo'shma gap emas, balki bog'lovchisiz, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap hisoblanadi.



**Eslatma!** Qo'shma gap qismlari o'rtasida sabab-natija (bir sodda gap sababni, ikkinchisi esa undan kelib chiqqan natijani bildiradi) munosabati mavjud bo'lsa, bunday qo'shma gaplar ergash gapli qo'shma gap shaklida ham, bog'langan qo'shma gap shaklida ham, ohang yordamida bog'langan qo'shma gap shaklida ham ifodalanishi mumkin.

**Masalan:**

*Paxtalar qiyg'os ochildi, terim avjiga chiqdi.*

*Paxtalar qiyg'os ochildi, shuning uchun terim avjiga chiqdi.*

*Paxtalar qiyg'os ochildi va terim avjiga chiqdi.*

Yuqoridagi uchta qo'shma gap sabab-natija umumiy ma'nosi bilan o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, lekin qo'shma gapning qaysi turiga mansubligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Ko'rinadiki, bir xil ma'noni turli qo'shma gap shakllari orqali ifodalash mumkin. Shu bois ulardan nutqda o'rinli foydalana olish nutq madaniyatiga ega bo'lishda katta ahamiyatga ega.

Demak, qo'shma gaplar qanday bog'lovchi vositalar bilan bog'lanishiga ko'ra 3 turga bo'lingan. Bu bog'lovchi vositalar orqali bir-biriga yaqin mazmundagi gaplar hosil qilinishi mumkin. Zidlik, sabab, shart, payt munosabatlari bog'lovchisiz, bog'langan, ergashgan qo'shma gaplar bilan ifodalanishi mumkin. Shunga ko'ra ular bir-biriga ma'nodosh bo'la oladi.

### **Murakkab qo'shma gaplar**

Turli bog'lovchi vositalar yordami bilan o'zaro bog'langan uch va undan ortiq gaplarning bir butunligi murakkab qo'shma gap deyiladi.

Murakkab qo'shma gaplar to'rt guruhga bo'linadi: 1) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap; 2) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap; 3) aralash murakkab qo'shma gap; 4) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap.

#### **Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar**

Tarkibida ikki va undan ortiq ergash gaplar mavjud bo'lgan gaplar bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap sanaladi.

**Namuna:**

1. Xalqimiz shuni istaydiki, yurtimiz tinch bo'lsin (1), turmushimiz farovon bo'lsin (2), mustaqilligimiz barqaror bo'lsin (3).

2. Odamlarimizning huquqiy ongi yuksak bo'lsa (1), har kim o'z haqini tanisa va o'zini o'zi himoya qilishni bilsa (2), demokratik jamiyatga erishgan bo'lamiz.

3. Kimning bilagida kuchi bo'lsa (1), kim ishning havosini olsa (2), kim qilayotgan ishidan bir nima chiqarishiga ishonsa (3), o'sha zarbdor bo'ladi.

4. Tol ekdik suv bo'yiga, soya-salg'in bo'lsin deb (1), q'ayrat qilgan botirlar votib damin olsin deb (2).

5. Shunday bo'lmog'iga barcha asoslar bor edi, chunki ular bir qishlog'da o'sib-ulg'aygan edilar (1), birining asrori unisiga besh qo'lday ayon edi (2).

6. To'g'risi shuki, keksa professor unga yoqib qolgan edi (1), uning samimiy maslahatlaridan qoniqadi (2), doim bu odamga munosib bo'lishga tirishar edi (3).

7. Agar siz yoqtirgan odam sizga mehr-muhabbatini ayamasa (1), e'tibor bilan qarasa (2), bu olam-olam quvonch bag'ishlaydi.

8. Kun shu qadar isidiki, chumchuqlarning ham ovozi chiqmay qoldi (1), hamma o'zini salqinga oldi (2).

9. Hosilimiz mo'l bo'lsa (1), uyimiz donga to'lsa (2), turmush bo'lar farovon.

10. Reja bajarilsa (1), dasturxon mo'l bo'lsa (2), yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa (3), tantanalar qishgacha davom etaveradi.

11. Boshimda tegirmon toshi yurgizsinlar (1), etimni nishtar bilan tilsinlar (2), men sizdan ajralmayman.

### **Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar**

Tarkibida ikki va undan ortiq bosh gaplar mavjud gaplar bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap sanaladi.

#### **Namuna:**

1. G'anim kelsa, xonumoni kul bo'lur (1), o'z yurtida pachaqlash ma'qul bo'lur (2).

2. Boshimda o'ynar qamchilar (1), qon ko'zlarimdan tomchilar (2), bir benavo gul yanchilur (3), ozodkorim kelmasa.

3. Qo'shnilaring ko'nsa, hammalaring verlarinqni qo'shib yaxlit qilinglar (1), bir kunda haydab beraman (2).

4. Bu gap kutilmagan bo'lsa ham, Mirhamidxo'ianing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq yuzi oqarishdi (1), oq oralagan cho'qqi soqoli xiyol titradi (2).

5. Butun dunyoga ma'lumki (1), siz ham unutmangki (2), Orolni saqlab qolish hammamizning burchimizdir.

6. Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri-dili ochiladi (1), tanasiga quvvat yuguradi (2).

7. Kimdir mendan zulm emas, mehr topa olsa, bu – mening eng katta yutug'imdir (1), insonlarga tekkan eng katta foydamdir (2).

8. Chindan ham odam yurakdan yayrab kulsa, soq'lig'i yaxshilanadi (1), yengil tortadi (2), ruhi tetiklashadi (3), ishtahasi ochiladi (4), umri uzayadi (5).

9. O'zbek yoshlarining peshonasi shuning uchun ham yorug' (1), iqboli balandki (2), ularning O'zbekistondok jannatmonand yurti bor.



## Aralash murakkab qo'shma gaplar

Tarkibida ergashgan, bog'langan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar mavjud bo'lsa, aralash murakkab qo'shma gaplar hisoblanadi.

### Namuna:

1. Akang armiyadan kelsa, issiqxonani ishga solamiz, lekin sen akangga yordamchilik qilasan. (*Gazetadan*)

2. Ko'lga yetib kelsak, birdaniga miltiq gumburladi va suv yuzida pitir-  
layotgan ikki-uchta o'rdak ko'rindi. (*Mirza Karim*)

5. Shuni unutmaki, sen yer farzandisan va yerni ardoqlash, uni obod qilish sening vazifangdir. (*Yo'ldosh Sulaymon*)

6. Qiz avval qo'rqdi, otasi uning Sidiqjon bilan so'zlashib turganini emas, bog'ga tushganini bilsa ham, terisiga somon tiqadi – bu xususda otasining qamchisidan qon tomar edi; keyin yangi bir olamga kirib, otasining qamchisini ham, jingul ostida pisib yotgan kurk tovuqni ham unutdi. (*A.Qahhor*)

7. She'r shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. (*A.Oripov*)

8. Har kimning zari bo'lmasa-da, ammo hunari bo'lsa, dunyoda hech bir xavf-u xatar bo'lmaydi, shuning uchun kishi hunar ziynati bilan bezanmog'i lozim.

9. Bilginkki, hunarsiz kishi quruq savlatdir, quruq savlat esa qotib turgan suratga o'xshaydi.

10. Keyinroq ham ko'zimiz tushib turardi, biroq endi u shunday bir yuksaklikda va qamrovi shu qadar keng ediki, bu kengliklar bizga o'xshash jo'n odamlarning shuuriga sig'masdi.

11. Bilmaydikki, ishining chatog'i chiqqanida Chorshanbi emas, uning o'zi qochib ketadi, Chorshanbi qurg'ur tagiga suv ketishi bilan mening yonimga yugurib keladi, men uni qutqarib qolaman, ikki o'rtada Suyarqul ukamizning qurbon bo'lgani qoladi. (*M.M.Do'st*)

12. Shuni unutmangki, siz kelajagimizsiz va butun umidimiz sizlardan.

13. Quvishga quvdim-u, hali ham ichim achiydi, bola bechora nima gunoh qilibdi?!

14. Uni tanib olish qiyin edi, chunki yelkalari kengaygan, qiyofasi ancha keskinlashgandi va katta ko'zlari dumaloq shakl olgan edi. (*Oybek*)

15. Agar kishi o'z hirslaridan ustun tura olsa, u o'zidagi bor nuqsonlarini yo'q qila oladi va ular yaxshi sifatlarga aylanadi.

16. Hovlida qarindosh-u qo'ni-qo'shnilar ham yurishadi, nariroqda esa doshqozon to'la sumalak qaynaydi, ayollardan kimdir uni kovlab turadi, atro-fida ikki-uch kampir choy ichib o'tirishadi, bolalarning qo'llarida esa yog'och qoshiq, galma-gal qozon girdiga yopishardilar. (*Ulug'bek Hamdam*)

17. Insonlik mohiyati baxt-saodatga erishuvdir, inson bu maqsadni o'zining oliy g'oyasi va istagiga aylantirsa, u baxt-saodatga erishadi. (*Forobiy*)

18. Esida bor; otasi bilan mana shu o'rindiqqa o'tirsa, mototsikl degan qattiq ovoz chiqarib yurib ketdi-yu nevara qo'rqqanidan otasini mahkam quchoqlab, ko'zlarini yumib oldi. (*Tog'ay Murod*)

19. Hirot, tashdan qaraganda, avvalgiday tinch, hamma o'z ishi bilan mashg'ul bo'lganday ko'rinsa ham, lekin kosib-hunarmandlar, dehqonlar hali g'azabdan tushmagan edilar. (*Oybek*)

20. Birov sening aybingni yuzingga aytsa, so'zini qaytarma, chunki u se-ning uchun ko'zgu dir; ko'zgu xira bo'lib qolsa, boshqa aybingni ko'rsatadimi? (*Alisher Navoiy*)

### Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar

Bir turdagi uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan gaplar qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar deyiladi.

#### Namuna:

1. Avliyolar bosgan tuproq aziz derlar,  
Qat-qatidan chiqaverar ekan sirlar,  
Har tuproqdan har kun o'tmas axir pirlar,  
Ko'kragimni hayrat tiklar, Temur bobo.
2. O'zbekning kurashi hamisha halol,  
Unda yo'qdir g'irrom, yo'qdir yomonlik.  
Doimo do'stlarga tilaydi kamol,  
Tilaydi barchaga do'stlik, omonlik.
3. Dam qushlar ovozi yangraydi, dam daryoning shovullashi eshitiladi,  
dam musiqa sadosi jaranglaydi.
4. Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, bahordan darak keladi.
5. O'sha yillar mashoq terar edik, mol boqardik, g'o'za jo'yakka kultivat-siya yurgizardik.

### Ko'chirma gapli qo'shma gap

So'zlovchi ba'zan o'z nutqida birovning gapini aynan keltiradi. Birovning aynan keltirilgan gapi **ko'chirma gap**, so'zlovchining gapi esa **muallif gapi** deyiladi. Muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topgan qo'shma gap ko'chirma gapli qo'shma gap deyiladi.

Ko'chirma gapli qo'shma gaplar doimo ikki qismdan: muallif gapi va ko'chirma gapdan tashkil topadi.

Muallif gapi (M) va ko'chirma gap (K) bir-biriga nisbatan turlicha joyla-shishi mumkin, bunda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

**I. M: «K». M: «K?» M: «K!»**

Mahmud Koshg'ariy shunday degan edi: «Belgi bo'lsa, odam yo'ldan, aqli bo'lsa, so'zdan adashmaydi».

O'qituvchi so'radi: «Bugungi darsga hamma tayyormi?»



Men dedim: «Hayot gullarga to'la gulzor ekan!»

II. M: «K», – m. M: «K?» – m. M: «K!» – m.

Agar ikki muallif gapi o'rtasida kelgan ko'chirma gap darak gap bo'lsa, qo'shtirnoqdan so'ng vergul qo'yiladi.

Anbar Otin: «Haqiqat so'zlarin so'zlaganda Ani yodlab, qulog'ingga ilib yur», – deb yozadi.

Onam: «Nima bo'ldi?» – deb so'radilar.

III. «K», – m. «K?» – m. «K!» – m.

«Hunar va odobi bo'lmagan kishidan baxt va davlat ketadi», – deydi Mahmud Koshg'ariy

«Qanday yangiliklar bor?» – deb so'radi.

«Erta bahor yaqin do'stlar!» – deb qichqirar edi.

IV. «K, – m, – k». «K, – m. – K». «K... – m. – K». «K? – m. – K».

«K! – m. – K».

«So'z san'atining qudrati shundaki, – deydi Asqad Muxtor, – u hayotda aynan bo'lmagan narsalarga, hodisalarga jon kirgizib yuboradi».

### O'zlashtirma gap

Nutq jarayonida so'zlovchi o'z nutqida o'zgalarning gapidan ikki xil yo'l bilan foydalanadi: 1) o'zganing hech o'zgarishsiz nutqqa olib kirilgan gapi ko'chirma gap: «*Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz*», – deydi Alisher Navoiy; 2) mazmuni saqlanib, shakli o'zgartirilgan gap o'zlashtirma gap hisoblanadi: *Alisher Navoiy tilga ixtiyorsizlikning elga e'tiborsizlik ekanligini yozgan.*

### Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish

O'zganing gapi ko'chirma gap orqali ham, o'zlashtirma gap orqali ham berilishi mumkin. Bunday vaqtda ko'chirma gap va o'zlashtirma gap ma'nodosh bo'ladi.

Ko'chirma gap quyidagi shakliy o'zgarishlar yo'li bilan o'zlashtirma gapga aylantiriladi:

1. Darak gap shaklidagi ko'chirma gap **kesimi** tushum kelishigidagi sifat-dosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan to'ldiruvchiga, **egasi** qaratqich aniqlovchiga aylantiriladi.

Muallif gapining **kesimi** vazifasidagi dedi so'zi aytdi so'ziga almashtirildi. Muallif gapining **egasi** o'zlashtirma gap egasi bo'lib gap boshida keladi. Masalan: «*Yoshlarimiz istiqboli porloq*», – dedi o'qituvchimiz. *O'qituvchimiz yoshlarimiz istiqbolining porloqligini aytdi.*

2. So'roq, buyruq shaklidagi ko'chirma gaplar darak shakliga aylantiriladi. Masalan: «*Salima qanday o'qiyapti?*» – deb so'radi onasi. *Onasi Salimaning qanday o'qiyotganini so'radi.*

3. Ko'chirma gap tarkibida **undov, kirishlar** tushirib qoldiriladi. **Undal-ma chiqish kelishigidagi to'ldiruvchiga** aylantiriladi. Masalan: «*Voy, nima qildim?*» – *deb so'radi u. U nima qilganligini so'radi.*

4. Egasi II shaxs kishilik olmoshida ifodalangan bo'lsa, u I shaxs kishilik olmoshiga aylantiriladi. Masalan. *Gulchi: «Sizga yordam bera olamanmi?» – deb so'radi. Gulchi menga yordam bera olish-olmasligini so'radi.*

5. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganida ko'chirma gapli qo'shma gap sodda gap shaklini oladi. Masalan: «*Keldim*». – *dedi Ochil kulib Ochil kulib kelganligini aytdi.*

### **Matn – eng yirik sintaktik birlik**

Har qanday og'zaki va yozma nutq parchasi matn (makromatn) hisoblanadi. Matn mikromatnlarning o'zaro mazmuniy va grammatik bog'lanishidan nosil bo'ladi.

**Esiatma!** Bir necha gaplarning o'zaro grammatik va mazmuniy bog'lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo'lgan qo'shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og'zaki nutq parchasi mikromatn hisoblanadi.

Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asar makromatn deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning «O'g'ri» hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar «o'g'irlik» umumiy mavzusi ostida birlashgan.

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi. Ular quyidagilardan iborat: ***bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar, takroriy bo'laklar, olmoshlar, sinonimlar.***

Masalan: *Karimjon a'lo o'qish va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.*

Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan *u* olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan *Karimjon* o'rnida kelib ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog'laydi. Shuning uchun *u* olmoshi matn qismlarini bog'lovchi, ya'ni matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

Mikromatnni hosil qilishda ***takrorlar*** eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog'lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo'yoqdorlik hosil qiladi.

#### **E'tibor bering:**

*Olti oykim she'r yozmayman, yuragim zada.*

*Olti oykim o'zgalarga tilayman omad.*

*Olti oykim do'stlarim ham pana-panada*

*Iste'dodim so'nganidan qilar karomat. (A.Oripov)*

Takrorlar gap oxirida qo'llanilishi ham mumkin.

*Angladimki, olamda*

*Yurt tanho, Vatan tanho,*



*Band etgan xayolimni  
Tengsiz shul chaman tanho.  
Nokaslar emas, yo'q, yo'q,  
Onajonim she'riyat,  
Topgan toj-taxtim mening  
Jonajonim she'riyat. (A.Oripov)*

### **Ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn**

**Ma'lumotnoma matn**da bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot berilgan.

Bunday matnda so'zlarning ko'chma ma'nolaridan, tilning badiiy-tasviriy vositalaridan deyarli foydalanilmaydi, voqea-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

**Ijodiy-tavsifiy matn** so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki xabar, ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tavsifiy vositalar, dalillar bilan ta'riflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardan. **Ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar**, shuningdek, **insho** ham ijodiy-tavsifiy matn ko'rinishlaridir.

### **Insho - ijodiy mehnat**

**Insho** arabcha so'z bo'lib, «yaratish», «bino qilish», «qurish», «yuzaga keltirish», «yozuv», «ijod» ma'nolarini beradi. Hozirgi tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan «ijodiy yozma ish» ma'nosida qo'llaniladi.

Insho muallif ma'lum bir mavzu asosida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon qiluvchi kichik bir asardir. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikriy, tafakkuriy ko'nikmasi, bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi.

Insho – ijodiy mehnatning oliy ko'rinishi, murakkab aqliy mehnat jarayoni. U muallifdan fikrlarni zarur dalillar asosida mantiqan izchil va badiiy tarzda, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri izhor etishni talab qiladi. Shuning uchun ma'lum mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid badiiy-hayotiy manbani, unga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqish, tezis (qisqa ifoda) yaratish, dalillash uchun ko'chirmalarni yig'ish, xomaki rejani shakllantirib olish talab qilinadi.

**Didaktik maqsadlarga** ko'ra insholar ikki xil bo'ladi: a) ta'limiy insholar; b) sinov insholari.

**Ta'limiy insholar** sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi.

**Sinov insholari** o'rgatilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash uchun yirik mavzular tugaganidan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida, olimpiadalarda o'tkaziladi.

Insho *mazmun-mohiyatiga* ko'ra 3 turli bo'ladi:

1. Adabiy mavzudagi insholar.
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar.
3. Erkin mavzudagi insholar.

**Adabiy mavzudagi insholarga** adabiyot darsligida qayd qilingan, o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladigan insholar kiradi. Muayyan badiiy asar yoki undagi qahramonlar haqidagi insho adabiy mavzudagi inshodir. Bunday mavzudagi inshoda biror asar yoki qahramonlar taqdiri tahlil qilinadi: 1. «*Mehrobdan chayon*» romanida xonlik tuzumi illatlarining fosh etilishi 2. «*Alpomish*» dostonida qahramonlik tasviri.

**Adabiy-ijodiy mavzudagi insholarga** adabiyot darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining ijodiy munosabati (shaxsiy fikrlari) qo'shib ifodaladigan insholar kiradi. Adabiy-ijodiy mavzudagi inshoda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdirini tahlil qilishda o'quvchi o'z mustaqil fikri bilan yondashadi. Ya'ni adabiy-ijodiy inshoda ijodiy fikrlashga katta e'tibor beriladi. Bu insho turining adabiy mavzudagi inshodan farqi ham shunda. Masalan: 1. *Men sevgan adib*. 2. «*Sen yetim emassan*» she'ridan olgan taassurotlarim. 3. *Abdulla Qahhor – kichik hikoyalar ustasi*.

**Erkin mavzudagi insholar** adabiyot fani dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Boshqacha aytganda, o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi insholar erkin mavzudagi insholardir. Erkin mavzudagi insholarda o'quvchining bir mavzu bo'yicha turli fanlardan olgan bilimlari va uning taassurotlari birgalikda ifodalanadi. Masalan: 1. *O'zbekiston – Vatanim manim*. 2. *Inson har narsadan ulug'*.

**Rivoya insho.** Biror voqeani izchil tasvirlashda rivoya elementi qo'llaniladi. Hayotdagi ayrim voqealar, hodisalar, masalan, bayramlar, turli xil marosimlar, safar taassurotlari bunday ko'rinishdagi insholar uchun material bo'lib xizmat qiladi. Rivoya insho yozish uchun insho yozayotgan shaxs voqealarni shaxsan boshidan kechirgan yoki eshitgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'quvchi voqealarni eslashi, rasmlardan foydalanishi ham mumkin.

**Muhokama insho.** Bunday turdagi insholarda sinfda o'tkaziladigan bahs, munozara material vazifasini o'taydi. Muhokama inshoda o'quvchidan o'z fikrini asoslash va dalillash maqsadida mantiqqa jiddiy e'tibor berish, mustaqil fikrlash va muhokamada faol ishtirok etish talab qilinadi. Masalan: «Vatanni asrab-avaylash deganda nimani tushunaman?», «Baxt nima?», «XXI asr insoniyatga nimalar olib keladi?» kabi mavzular.

**Tasviriy insho.** Bunday insholarda narsa va hodisalar, shaxslarga xos belgilar, ularning boshqalaridan farqlari ko'rsatiladi, taqqoslanadi. Emotsionallikni hosil qilish uchun kishilar portreti, manzaralar tasviri badiiy ifodalanadi, o'xshatishlar, sifatlashlar ishlatiladi. Shuningdek, unda oddiy tasvir elementlaridan ham unumli foydalaniladi. Shaxslar va manzaralar ko'z oldiga keltirilib, ularning timsollari



gavdalaniradi. Tasviriy insholar o'quvchilarning fikrini o'stiradi, ulardagi kuza-tuvchanlik qobiliyatini rivojlantiradi va yozma nutqni kengaytiradi.

### **Inshoda epigraf**

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha **epigraf** deyiladi.

**Epigraf**, odatda, rejaning keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chekkasiga yoziladi. Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi.

Inshoda epigraf bo'lishini qat'iy talab deb tushunmaslik lozim, u tamoman ixtiyoriydir. Lekin mavzuga va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf bo'lsa, inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko'rsatadi.

### **Insho nazariyasi va amaliyoti**

Savodxonlik darajasini tekshirishning sinalgan usullaridan biri **Insho** sanaladi. Shu o'rinda insho va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida biroz to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Insho quyidagi ikki bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Inshoning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.
2. Uni oqqa ko'chirib yozish.

Inshoning qoralama nusxasi ishning dastlabki bosqichi bo'lganligi uchun unda o'chirilgan, so'zlarning o'rnini almashtirilgan, jumlar tuzatilgan o'rinlarning bo'lishi tabiiy. Qoralama nusxadagi bunday tuzatishlar ish tekshirilayotganida xato hisoblanmaydi va ular hisobga olinmaydi. Insho tekshiruvchi hatto ba'zi bir paytlarda oq nusxadagi jumalarning g'alizligini aniqlashtirish maqsadida qoralama nusxaga uni solishtirishi, agar unda jumla to'g'ri tuzilgan bo'lsa, oq nusxadagi xatoni hisobga olmasdan ketishi ham mumkin. Bu esa amaldagi qoidalarga muvofiq bo'ladi. Qoralama nusxada ham insho uchun reja tuziladi. Fikrlar izchillik asosida, aniq va lo'nda shakllarda bayon qilinadi. Qoralama nusxani haddan tashqari bo'yab, inshoni o'ta e'tiborsizlik bilan yozish maqsadga muvofiq emas.

### **Insho rejasi va unga qo'yiladigan asosiy talablar**

Reja inshoning tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Har tomonlama o'ylab tuzilgan, o'zida insho mavzusining hamma jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja yarim insho demak. U inshoning nihoyatda ixcham, lo'nda shakllardagi o'ziga xos ko'rinishidir.

Insho rejasi ikki xil: **sodda va murakkab** ko'rinishda bo'ladi.

Odatda, erkin va ijodiy mavzulardagi insholar yozilayotganida yoki aniq bir yozuvchining ijodiga baho berilayotganida sodda shakldagi insho rejala-

ridan foydalaniladi. Bunda rejadagi har bir band ixcham va sodda gaplardan iborat bo'ladi. Sodda shakldagi insho rejasi tuzilayotganida mavzuga har tomonlama mos keladigan materiallardan, xalq maqollaridan va ibratli gaplardan, hikmatli so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Sodda ko'rinishdagi reja namunalari insho mazmunining nihoyatda ixchamlashtirilgan shakllari deyish ham mumkin, negaki yaxshi tuzilgan sodda rejalar inshoning yo'nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilligi haqida aniq bir tasavvur berishi turgan gap.

### Sodda ko'rinishdagi reja namunalari

Bunday tipdagi insho rejalaridagi tartib arab raqamlari bilan belgilanadi va ulardan keyin nuqta qo'yiladi.

**Namuna:** «Do'st bilan obod uying...»

Reja:

1. Do'stlik so'zining ma'nosini men qanday tushunaman?
2. Do'st boshga kulfat tushganda sinaladi.
3. Do'stlik, birodarlik insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

Sodda ko'rinishdagi insho rejaları tuzilayotganida undagi gaplar tarkibini 1), 2), 3) ... shaklida arabcha raqamlar bilan belgilash va ulardan keyin yopiluvchi qavsni qo'yish, shuningdek, ularni a), b), d) tarzida belgilash tavsiya etilmaydi. Tartibni belgilashning eng maqbul yo'li arab raqamlarini qo'yib, ulardan so'ng nuqta ishlatishdir. O'quvchilar tomonidan tuzilgan rejalarda undan keyin qanday tinish belgisini ishlatish kerakligi ham haligacha hal etilmagan masalalardan biridir. Sababi, o'quvchilar «Reja» deb yozganlaridan so'ng ba'zan hech qanday tinish belgisini ishlatmaydilar, gohida esa undan keyin nuqta belgisini qo'yadilar. Shuningdek, rejadan so'ng ikki nuqtani ishlatish ham tez-tez uchrab turadi. Shu o'rinda mazkur holatning qaysinisi amaldagi qoidalarga to'g'ri keladi degan savol paydo bo'lishi turgan gap. Hozirgi o'zbek adabiy tilining imlo qoidalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ya'ni «*Sarlavhadan keyin hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi*», «*Xabar, darak ma'nosidagi atov gaplarning oxirida nuqta qo'llaniladi*» degan qoidalarga asoslansak, har uchala holatda ham to'g'ri va qonuniy yo'l tutgan bo'lamiz. Biz mazkur tavsiyanomamizda «Izoh ma'nosidagi so'zlardan keyin ikki nuqta qo'yiladi» degan qoidaga rioya qilgan holda reja deb yozgandan keyin ikki nuqta ishlatishni (Reja:) ma'qul ko'rdik. Zero, har qanday reja umumlashiruvchi so'z, uning ostidagi gaplar esa rejaning izohi, uning maqsadiga bo'ysunuvchi mantiqiy davomidir.

**Namuna:**

Mavzu: «Mustaqillik deganda men nimani tushunaman?»

Reja:

1. Ozodlik va erk uchun kurashish xalqimizning azaliy xususiyatlaridan biridir.



2. Mustaqillik bayraming qutlug' bo'lsin, ona O'zbekiston!

3. Istiqlol va istiqbol.

**Eslatma!** Yuqoridagi mavzu bo'yicha o'quvchining istak-xohishiga ko'ra murakkab ko'rinishdagi insho rejalari tuzish ham mumkin. Insho yozilayotganida sodda ko'rinishdagi insho rejalari bilan bir qatorda insho mavzularining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib murakkab ko'rinishdagi insho rejalari ham tuzilishi kuzatiladi. Bunday tipdagi reja namunalari tuzilayotganida o'quvchilar insho mavzulariga alohida diqqat-e'tibor bilan yondashmoqlari lozim, chunki adabiy-badiiy va adabiy-ijodiy xarakterdagi insholarning aksariyati voqealarga boy, rang-barang timsollar galereyasiga ega, g'oyaviy hamda badiiy jihatdan pishiq-puxta, mukammal asarlarning mazmuniga asoslangan bo'ladi. Bu esa insho yozilayotgan paytda o'ziga xos murakkab vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

### **Murakkab ko'rinishdagi reja namunalari**

Murakkab ko'rinishdagi reja namunalari sodda rejalaridan «Kirish», «Asosiy qism», «Xulosa» tarzida o'ziga xos tarkibiy qismlarga bo'linishi bilan keskin farqlanib turadi. Bundan tashqari, har bir qismning o'zi bo'lakchalarga bo'linib ketishi mumkin. Murakkab rejalarda tinish belgilarining qo'llanilishi ham birmuncha e'tiborni jalb qiladi.

**Namuna:**

*Mavzu: «Alisher Navoiy lirikasida insonni sevish va adolatparvarlik g'oyasining berilishi»*

*Reja:*

*I. Kirish. Alisher Navoiyning lirik merosi haqida ma'lumot.*

*II. Asosiy qism:*

*1. Alisher Navoiy lirikasining g'oyaviy yo'nalishlari to'g'risida.*

*2. Shoir asarlarida chinakam insoniy fazilatlarining ulug'lanishi.*

*3. Shoir she'rlarida inson timsoli.*

*4. Navoiy asarlarida adolatparvarlik g'oyalarining tarannum etilishi.*

*III. Xulosa. Shoir g'oyalari amalda.*

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi insho rejalarida tinish belgilarining ishlatilishi sodda ko'rinishdagi insho rejasiga qaraganda birmuncha murakkabroq. Murakkab ko'rinishdagi insho rejalari uchun rejaning quyidagi tiplarini namuna sifatida tavsiya qilish mumkin.

*Mavzu: «Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanidagi Anvar obrazi»*

*Reja:*

*1. Kirish. Abdulla Qodiriyning nasriy asarlari haqida ma'lumot.*

*II. Asosiy qism:*

*1. Anvar timsoli orqali ilm olishga ishtiyoqmand, qobiliyatli yoshlar xarakterining berilishi.*

2. Anvar – o'z so'zida sobit turadigan sadoqatli do'st.
3. Anvar timsolida vafodorlik va pokdomonlik tuyg'ularining ulug'lanishi.
4. Anvar timsoli yordamida ijtimoiy tuzumdan norozilik kayfiyatlarining berilishi.

III. Xulosa. Anvar timsolining tarbiyaviy ahamiyati.

Yoki:

Mavzu: «Abdulla Oripov she'riyati va zamonamiz»

Reja:

I. Kirish. Abdulla Oripovning she'riy asarlari haqida ma'lumot.

II. Asosiy qism:

a) Abdulla Oripovning she'rlarida ona O'zbekiston go'zalliklarining ulug'lanishi;

b) shoir asarlarida zamondoshlarimiz obrazi;

d) Abdulla Oripov she'rlarida istiqloq mavzusining yoritilishi.

III. Xulosa. Abdulla Oripov asarlari bizni hayotni sevishga chaqiradi.

Bundan tashqari, insho rejaları yana ham murakkablashtirilib, «Asosiy qism»dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o'z ichida mayda bo'lakchalarga bo'lib yuborilishi mumkin:

Mavzu: «Nodira ijodiga tavsif»

Reja:

I. Kirish. Nodiraning adabiy merosi haqida qisqacha ma'lumot.

II. Asosiy qism:

1. Nodira ijodida chinakam insoniy tuyg'ularning ifodalanishi.

2. Shoira she'rlarida xalqparvarlik g'oyalarning aks ettirilishi.

3. Nodira – vafodor yor va sevimli ona.

III. Xulosa. Nodira asarlarining tarbiyaviy ahamiyati.

Xullas, insho rejasini tuzishda o'zbek tilining imlo qoidalariga rioya qilgan holda ish tutishni tavsiya etamiz. O'rni kelganda shuni ham alohida ta'kidlashni istardikki, ayrim ro'znoma va oynomalarimiz, xususan, «Yosh kuch», «Mushtum», «Guliston» jurnallari tahririyati, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftanomasi jamoasi, «Turkiston» gazetasidagi xodimlar, shuningdek, nashriyotlardagi mutaxassislar davr talabidan kelib chiqqan holda ko'plab ruscha-baynalmilal so'zlarni etimologik (grafik) tamoyil emas, fonetik tamoyilga ko'ra ular qanday aytilsa, yozuvda shunday shaklda bermoqdalar. Masalan, *sex*, *aprel*, *sirk*, *oktabr* singari. Bundan tashqari, nomlarning – atamalarning ishlatilishida xilma-xilliklar juda ko'payib ketdi. Shunday paytlarda o'quvchilarda qaysinisi to'g'ri: «Klassik adabiyotmi, mumtoz adabiyot?», «Samolyot deb yozsak to'g'ri bo'ladimi yoki tayyora?», «Internatsional o'rniga baynalmilalni qo'llasak to'g'rimi?» degan qator savollar paydo bo'lishi tabiiy.

Bu o'rinda tilimiz uchun qayg'urayotgan, uning obro'si uchun jon kuydirayotgan hamyurtlarimizning til borasidagi har qanday xatti-harakatlarini



qo'llab-quvvatlasak arziydi, lekin ular tomonidan tavsiya qilinayotgan holatlar hali mutaxassislar tomonidan imlo qoidalariga muvofiq ravishda qonunlashtirib berilganicha yo'q. Shuning uchun o'quvchilar o'z insholarida hozirgi imlo qoidalarimizdan chetga chiqqan misollarga murojaat etadigan bo'lsalar, buni alohida raqam bilan belgilab, so'ng varaqning pastiga izohlab ketishlarini, ya'ni ongli ravishda o'sha so'z yoki iboradan foydalanganliklari haqida belgi qo'yib yozishlarini so'rardik. Shundagina tekshiruvchi tomonidan bunday so'zlar xato hisoblanmasligi mumkin, aks holda, ikki o'rtada kelishmovchiliklar chiqishi tabiiy.

**Donish** – bilim, ma'lumot

**Dubulg'a** – tig' yoki o'qdan saqlanish uchun temir yoki po'latdan ishlangan bosh kiyimi

**Durroj** – kaklikka o'xshash qush

**Ganj** – xazina, boylik

**Jig'a** – bosh kiyimga taqiladigan ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi

**Kamarbasta** – xizmatga tayyor, bel bog'lagan

**Kulliyot** – biror narsaning yig'indisi, to'plam

**Nor** – erkak tuya; badandagi qizg'ish dog'

**Ranj** – ozor, alam; mehnat

**Sardoba** – usti gumbaz shaklidagi g'isht qurilma bilan berkitilgan sun'iy hovuz

**Sarbon** – 1) karvonboshi, karvon; 2) to'lboshchi, rahnamo

**Xilqat** – yaratilgan, bunyodga kelgan narsa yoki kimsa

**Zavja** – rafiqa, qayliq

**Chilvir** – ingichka pishiqliq arqon, arg'amchi

## ILOVALAR

### I. So'z yasalishi (Affiksatsiya)

#### Qo'shimchalar tasnifi:

#### Otning lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalari

N <sup>o</sup>	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	-lar	Son kategoriyasi (Ko'plik)	1. Kitoblar, qushlar 2. Furqatlar, Cho'lponlar 3. Dadamlar, xolamlar 4. Mirzacho'llar, Gulistonlar 5. Unlar, yog'lar 6. Ko'zlar, boshlar	1. Sof ko'plik 2. Umumlashtirish 3. Hurmat 4. Hududiy kenglik 5. Tur, nav 6. Kuchaytirish
2.	-jon	Erkalash sh.	Anvarjon, Saidjon	
3.	-xon	Erkalash sh.	Dilfuzaxon, Saidaxon	
4.	-bek	Erkalash sh.	Asadbek, Sardorbek	
5.	-oy	Erkalash sh.	Kelinoy, Maftunaoy	
6.	-boy	Erkalash sh.	Turg'unboy, Qurbonboy	
7.	-loq -aloq	Erkalash sh.	Qizaloq, bo'taloq	
8.	-gina, -kina, -qina	Erkalash sh.	Opaginam, qizginam	
9.	-cha	Kichraytirish sh.	Uycha, ro'molcha	
10.	-choq	Kichraytirish sh.	Qo'zichoq, toychoq	
11.	-chak	Kichraytirish sh.	Kellinchak, tugunchak	
12.	-kay	Kichraytirish sh.	Bolakay	
13.	-niki	Qarashlilik sh.	Ukamniki, kitobniki	

#### Otning sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalari

N <sup>o</sup>	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	-m	Egalik sh.	Onam, ukam	I shaxs birlik
2.	-im	Egalik sh.	Kitobim, ahvolim	I shaxs birlik
3.	-ng	Egalik sh.	Xonang, bolang	II shaxs birlik
4.	-ing	Egalik sh.	Daftaring, huquqing	II shaxs birlik
5.	-i	Egalik sh.	Yurti, og'zi	III shaxs birlik
6.	-si	Egalik sh.	Uyasi, otasi	III shaxs birlik
7.	-miz	Egalik sh.	Opamiz, otamiz	I shaxs ko'plik
8.	-imiz	Egalik sh.	Kitobimiz, yo'limiz	I shaxs ko'plik



9.	-ngiz	Egalik sh.	Xonangiz, oilangiz	II shaxs ko'plik
10.	-ingiz	Egalik sh.	Shahringiz, tilingiz	II shaxs ko'plik
11.	-lari	Egalik sh.	Qalamlari, bog'lari	III shaxs ko'plik
	-ning	Kelishik sh.	Mening, mavzuning	Qaratqich k.
13.	-ni	Kelishik sh.	Bizni, atrofni	Tushum k.
14.	-ga, -ka, qa	Kelishik sh.	Gulga, yoqqa, ko'kka	Jo'nalish k.
15.	-da	Kelishik sh.	Tabiatda, bahorda	O'rin-payt k.
16.	-dan	Kelishik sh.	O'tmishdan, qishdan	Chiqish k.
17.	-man	Bog'lama	O'quvchiman, baxtliman	I shaxs birlik
18.	-san	Bog'lama	Odamsan, aqllisan	II shaxs birlik
19.	-dir	Bog'lama	Kitobdir, qizildir	III shaxs birlik
20.	-miz	Bog'lama	Xursandmiz, hayajondamiz	I shaxs ko'plik
21.	-siz	Bog'lama	O'jarsiz, go'zalsiz	II shaxs ko'plik
22.	-lar	Bog'lama	O'quvchi(lar)	III shaxs ko'plik

### Ot yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

No	Qo'shimcha	Misollar	Yasalishi	Turi
1.	-a	Sharshara, qahqaha, do'mbira	Taqlid so'zdan	
2.	-a	Xaroba, vayrona, aylana	Sifat va fe'ldan	
3.	-ak	Qarsak, xurrak	Taqlid so'zdan	
4.	-at	O'lat, ko'chat	Fe'ldan	
5.	-at	Ko'kat	Sifatdan	
6.	-at	Ma'naviyat, madaniyat	Sifatdan	
7.	-archilik	Ocharchilik	Sifatdan	
8.	-bin	Folbin	Otdan	
9.	-bon	Xazinabon, bog'bon	Otdan	
10.	-boz	Dorboz, masxaraboz	Otdan	
11.	-vchi	Haydovchi, o'quvchi	Fe'ldan	
12.	-uvchi	Quruvchi, yozuvchi	Fe'ldan	
13.	-v	Saylov, tergov	Fe'ldan	
14.	-gar	Misgar, zargar	Otdan	
15.	-garchilik	Loygarchilik, odamgarchilik	Otdan	
16.	-garchilik	Xafagarchilik, namgarchilik	Sifatdan	
17.	-gi	Supurgi, sevgi	Fe'ldan	
18.	-ki	Turtki	Fe'ldan	
19.	-qi	Chopqi	Fe'ldan	
20.	-g'u	Tuyg'u	Fe'ldan	

21.	-gir	Fazogir, obgir	Otdan
22.	-gich	Suzgich, kulgich	Fe'ldan
23.	-kich	Ko'rsatkich, muzlatkich	Fe'ldan
24.	-qich	Tutqich, ochqich	Fe'ldan
25.	-g'ich	O'chirg'ich, chizg'ich	Fe'ldan
26.	-gun	Surgun	Fe'ldan
27.	-qun	Uchqun	Fe'ldan
28.	-qin	Toshqin, bosqin	Fe'ldan
29.	-g'in	Quvg'in, yong'in	Fe'ldan
30.	-goh	Qarorgoh, oromgoh, saylgoh	Otdan
31.	-go'y	Maslahatgo'y, duogo'y	Otdan
32.	-doq	Qovurdoq	Fe'ldan
33.	-diq	Qoldiq	Fe'ldan
34.	-don	Kuldon, guldon, tuzdon	Otdan
35.	-dor	Muhrdor	Otdan
36.	-dak	Yugurdak	Fe'ldan
37.	-do'z	Zardo'z, etikdo'z	Otdan
38.	-dosh	Sinfdosh, sirdosh	Otdan
39.	-zor	Gulzor, shaftolizor	Otdan
40.	-ik	Teshik, bitik	Fe'ldan
41.	-im	Terim, bilim	Fe'ldan
42.	-iq	Chopiq, qiliq	Fe'ldan
43.	-uq	Yutuq, buyruq	Fe'ldan
44.	-lldoq	Chiyildoq, hiqildoq	Taqlid so'zdan
45.	-indi	Cho'kindi, chiqindi	Fe'ldan
46.	-in	Ekin, yig'in	Fe'ldan
47.	-ndi	Chirindi	Fe'ldan
48.	-iston	Qabrison, bog'iston	Turdosh otdan
49.	-iston	O'zbekiston, Turkmaniston	Atoqli otdan
50.	-ich	Cho'mich, o'pich	Fe'ldan
51.	-kov	Go'rkov	Otdan
52.	-k	Elak, bezak	Fe'ldan
53.	-kash	Suratkash, qalamkash, aravakash	Otdan
54.	-kor	Paxtakor, san'atkor	Otdan
55.	-lik	O'zlik	Olmoshdan
56.	-lik	Bolalik, toshkentlik	Otdan
57.	-lik	Eskilik, yaxshilik	Sifatdan
58.	-lik	Tezlik, sekinlik	Ravishdan



59.	-lik	<i>Borlik, yo'qlik</i>	<i>Modal so'zdan</i>
60.	-lik	<i>Ikkilik, to'rtlik</i>	<i>Sondan</i>
61.	-loq	<i>O'tloq, qumloq</i>	<i>Otdan</i>
62.	-m	<i>Chidam, to'plam</i>	<i>Fe'ldan</i>
63.	-um	<i>Unum, tuzum</i>	<i>Fe'ldan</i>
64.	-um	<i>Qultum</i>	<i>Taqlid so'zdan</i>
65.	-ma	<i>Ko'rgazma, qo'llanma</i>	<i>Fe'ldan</i>
66.	-moq	<i>Quymoq, ilmoq</i>	<i>Fe'ldan</i>
67.	-machoq	<i>Bekinmachoq, quvlashmachoq</i>	<i>Fe'ldan</i>
68.	-mand	<i>Hunarmand</i>	<i>Otdan</i>
69.	-mish	<i>O'tmish, kechmish</i>	<i>Fe'ldan</i>
70.	-movchilik	<i>Yetishmovchilik, kelishmovchilik</i>	<i>Fe'ldan</i>
71.	-navis	<i>Romannavis, g'azalnavis</i>	<i>Otdan</i>
72.	-on	<i>To'zon</i>	<i>Fe'ldan</i>
73.	-ot	<i>Ma'lumot</i>	<i>Sifatdan</i>
74.	-oq	<i>O'roq, yotoq</i>	<i>Fe'ldan</i>
75.	-noma	<i>Pandnoma, jangnoma</i>	<i>Otdan</i>
76.	-paz	<i>Oshpaz, somsapaz</i>	<i>Otdan</i>
77.	-soz	<i>Soatsoz, aravaso</i>	<i>Otdan</i>
78.	-furus	<i>Halvofurus, nosfurus</i>	<i>Otdan</i>
79.	-xon	<i>Kitobxon, g'azalxon</i>	<i>Otdan</i>
80.	-xona	<i>Mehmonxona, oshxona</i>	<i>Otdan</i>
81.	-xo'r	<i>Odamxo'r, merosxo'r</i>	<i>Otdan</i>
82.	-ch	<i>Quvonch, o'kinch</i>	<i>Fe'ldan</i>
83.	-inch	<i>Qo'rqinch</i>	<i>Fe'ldan</i>
84.	-cha	<i>Tushuncha, qizilcha</i>	<i>Fe'l va sifatdan</i>
85.	-choq	<i>O'yinchoq</i>	<i>Otdan</i>
86.	-chi	<i>Ishchi, gulchi</i>	<i>Otdan</i>
87.	-chi	<i>Qiziqchi</i>	<i>Sifatdan</i>
88.	-chi	<i>Tomchi, suyunchi</i>	<i>Fe'ldan</i>
89.	-chi	<i>Ikkichi, beshchi</i>	<i>Sondan</i>
90.	-chillik	<i>Dehqonchilik</i>	<i>Otdan</i>
91.	-chilik	<i>Arzonchilik, xafachilik</i>	<i>Sifatdan</i>
92.	-chiq	<i>Suyanchiq, yopinchiq</i>	<i>Fe'ldan</i>
93.	-shunos	<i>Tilshunos, adabiyotshunos</i>	<i>Otdan</i>
94.	-q	<i>Sanoq, so'roq</i>	<i>Fe'ldan</i>
95.	-qoq	<i>Botqoq</i>	<i>Fe'ldan</i>
96.	-ham	<i>Hamkasb, hamshahar</i>	<i>Ot</i>

## Sifatning lug'aviy shakli yasovchi qo'shimchalari

No	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	-mtir	<i>Ozaytirma daraja shakli</i>	<i>Qoramtir</i>	
2.	-imtir	<i>Ozaytirma daraja shakli</i>	<i>Oqimtir, ko'kimtir</i>	
3.	-ish	<i>Ozaytirma daraja shakli</i>	<i>Oqish, ko'kish</i>	
4.	-roq	<i>Qiyosiy daraja shakli</i>	<i>Qizilroq, qoraroq</i>	

## Sifat yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

No	Qo'shimcha	Misollar	Yasalishi	Turi
1.	-a	<i>Ko'tara, to'la</i>	<i>Fe'ldan</i>	
2.	-aki	<i>Yuzaki, og'zaki, chillaki</i>	<i>Otdan</i>	
3.	-aki	<i>Zo'raki, xomaki</i>	<i>Sifatdan</i>	
4.	-aki	<i>Shartaki</i>	<i>Taqlidiy so'zdan</i>	
5.	-aro	<i>Millatlararo, davlatlararo</i>	<i>Otdan</i>	
6.	-aro	<i>O'zaro</i>	<i>Olmoshdan</i>	
7.	-arli	<i>Zerikarli, ishonarli</i>	<i>Fe'ldan</i>	
8.	-arli	<i>Qiziqarli</i>	<i>Sifatdan</i>	
9.	-ag'on	<i>Chopag'on, qopag'on</i>	<i>Fe'ldan</i>	
10.	-aqay	<i>Chapaqay</i>	<i>Sifatdan</i>	
11.	Ba-	<i>Bahavo, badavlat</i>	<i>Otdan</i>	
12.	Be-	<i>Beaql, beg'ubor</i>	<i>Otdan</i>	
13.	Bad-	<i>Badfe'l, badnafs</i>	<i>Otdan</i>	<i>affiksoid</i>
14.	Bar-	<i>Barkamol, barqaror</i>	<i>Otdan</i>	<i>affiksoid</i>
15.	-baxsh	<i>Rohatbaxsh, hayotbaxsh</i>	<i>Otdan</i>	
16.	-bin	<i>Kaltabin, xudbin</i>	<i>Sifatdan</i>	<i>affiksoid</i>
17.	-boz	<i>Xotinboz, qimorboz</i>	<i>Otdan</i>	
18.	Bo-	<i>Boobro', boxabar</i>	<i>Otdan</i>	
19.	-bop	<i>Ommabop</i>	<i>Otdan</i>	
20.	-bop	<i>Hammabop, bizbop</i>	<i>Olmoshdan</i>	
21.	-vash	<i>Devonavash</i>	<i>Sifatdan</i>	
22.	-vly	<i>Zamonaviy, oilaviy</i>	<i>otdan</i>	
23.	-vor	<i>Umidvor, ulug'vor</i>	<i>Ot va sifatdan</i>	
24.	-vuch	<i>Iskovuch, hurkovuch</i>	<i>Fe'ldan</i>	



25.	-gar	<i>Hiylagar, nag'magar</i>	<i>Otdan</i>
26.	-gi	<i>Kuzgi, yozgi</i>	<i>Otdan</i>
27.	-gi	<i>Avvalgi, so'nggi</i>	<i>Ravishdan</i>
28.	-ki	<i>Qishki, pastki, ustki</i>	<i>Ot, sifat, ravishdan</i>
29.	-gin	<i>G'amgin</i>	<i>Otdan</i>
30.	-g'in	<i>So'lg'in</i>	<i>Fe'ldan</i>
31.	-qin	<i>Jo'shqin</i>	<i>Fe'ldan</i>
32.	-gir	<i>Sezgir</i>	<i>Fe'ldan</i>
33.	-qir	<i>Topqir, chopqir</i>	<i>Fe'ldan</i>
34.	-qur	<i>Uchqur</i>	<i>Fe'ldan</i>
35.	-diq	<i>Tashlandiq</i>	<i>Fe'ldan</i>
36.	-don	<i>Bilimdon, qadrdon</i>	<i>Otdan</i>
37.	-dor	<i>Vafodor, guldor</i>	<i>Otdan</i>
38.	-dosh	<i>Darddosh, asosdosh</i>	<i>Otdan</i>
39.	-i	<i>Qishloqi, qozoqi</i>	<i>Otdan</i>
40.	-iy	<i>Uzviy, diniy</i>	<i>Otdan</i>
41.	-ik	<i>Egik</i>	<i>Fe'ldan</i>
42.	-iq	<i>To'liq, ochiq</i>	<i>Fe'ldan</i>
43.	-imli	<i>Sevimli, yoqimli</i>	<i>Fe'ldan</i>
44.	-in	<i>To'kin, to'lin</i>	<i>Fe'ldan</i>
45.	-in	<i>Erkin, g'ishtin</i>	<i>Otdan</i>
46.	-inch	<i>Shoshilinch, tiqilinch</i>	<i>Fe'ldan</i>
47.	-k	<i>Chirik, o'ksik</i>	<i>Fe'ldan</i>
48.	-q	<i>Quruq, dumaloq</i>	<i>Fe'ldan</i>
49.	-kash	<i>Mehnatkash, dardkash</i>	<i>Otdan</i>
50.	-kor	<i>Ehtiyotkor, isyonkor</i>	<i>Otdan</i>
51.	-li	<i>Aqli, suvli</i>	<i>Otdan</i>
52.	-lik	<i>Bayramlik, kiyimlik</i>	<i>Otdan</i>
53.	-ma	<i>Burama, qaynatma</i>	<i>Fe'ldan</i>
54.	-mas	<i>Yengilmas, o'tmas</i>	<i>Fe'ldan</i>
55.	-mand	<i>Kasalmand, ayolmand</i>	<i>Ot va sifatdan</i>
56.	-namo	<i>Telbanamo</i>	<i>Sifatdan</i>
57.	No-	<i>Noahil, noodatiy</i>	<i>Sifatdan</i>

58.	-ndi	Asrandi	Fe'ldan	
59.	-nok	G'amnok	Otdan	
60.	-omuz	Kinoyaomuz, ibratomuz	Otdan	
61.	-oq	Qo'rqqoq, qoloq	Fe'ldan	
62.	-parast	Maishatparast, mansabparast	Otdan	
63.	-saro	Motamsaro	Otdan	
64.	Ser-	Sersuv, serunum	Otdan	
65.	-siz	Uyatsiz, aqlsiz	Otdan	
66.	-simon	Odamsimon, sharsimon	Otdan	
67.	-xo'r	Poraxo'r	Otdan	affiksoid
68.	-xo'r	Tekinxo'r	Sifatdan	affiksoid
69.	Xush-	Xushqad, xushsurat	Otdan	
70.	-ch	Tinch, jirkanch	Fe'ldan	
71.	-chan	Ishchan, harakatchan	Otdan	
72.	-chak	Kuyunchak	Fe'ldan	
73.	-cha	Eskicha, o'zbekcha	Ot va sifatdan	Otga bog'lansa
74.	-chiq	Sirpanchiq, qizg'anchiq	Fe'ldan	
75.	-chil	Dardchil, xalqchil	Otdan	
76.	-choq	Maqtanchoq, erinchoq	Fe'ldan	
77.	-shumul	Olamshumul	Otdan	
78.	-q	Dumaloq, quvnoq	Fe'ldan	
79.	-qi	Sayroqi, o'ynoqi	Fe'ldan	
80.	-qoq	Urishqoq, yopishqoq	Fe'ldan	
81.	Ham-	Hamdard, hamjihat	Otdan	

### Sonning lug'aviy shakl yasovchi shakllari

No	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	-ta	Dona son sh.	Beshta, ikkita	
2.	-ov	Jamlovchi son sh.	Ikkov, yettov	
3.	-ovlon	Jamlovchi son sh.	Yettovlon, beshovlon	
4.	-ala	Jamlovchi son sh.	To'rtala, uchala	
5.	-tadan	Taqsim son sh.	To'rttadan, oltitadan	



6.	-lab	Chama son sh.	O'nlab, yuzlab	
7.	-larda	Chama son sh.	O'nlarda, beshlarda	
8.	-tacha	Chama son sh.	Beshtacha, o'ntacha	
9.	-inchi	Tartib son sh.	Beshinchi, uchinchi	
10.	-nchi	Tartib son sh.	Oltinchi, ikkinchi	

**Izoh: Son yasalmaydi.**

### Olmoshning lug'aviy shakl yasovchi shakllari

No	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	Alla-	Gumon olmoshi sh.	Allanima, allakim	Allavaqt ravish bo'ladi
2.	-dir	Gumon olmoshi sh.	Kimdir, qayerdir	

**Izoh: Olmosh yasalmaydi.**

### Ravish yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

No	Qo'shimcha	Misollar	Yasallishi	Turi
1.	-an	Tasodifan, vijdonan	Otdan	
2.	-an	Majburan, qat'iyon	Sifatdan	
3.	Be-	Betanim, bemalol (fe'lga bog'lanib)	Otdan	
4.	-siga	Qatorasiga	Otdan	
5.	-siga	Ertasiga	Ravishdan	
6.	-asiga	Uzunasiga, tikkasiga	Sifatdan	
7.	-dek	O'qdek, itdek	Otdan	
8.	-dek	Doimgidek, avvalgidek	Sifatdan	
9.	-day	Yashinday	Otdan	
10.	-lab	Yaxshilab	Sifatdan	
11.	-lab	Yillab, haftalab	Otdan	
12.	-lab	Ko'plab	Ravishdan	
13.	-lay	Tiriklay, butunlay	Sifatdan	
14.	-larcha	Bolalarcha, qahramonlarcha	Otdan	
15.	-larcha	Mardlarcha, telbalarcha	Sifatdan	
16.	-li	Tashvishli (ko'rinadi), hayajonli (gapirmoq)	Otdan	
17.	-in	Qishin-yozin	Otdan	
18.	-in	Ochin-to'qin	Sifatdan	
19.	-ligicha	Xomligicha, butunligicha	Sifatdan	
20.	-ona	Do'stona	Otdan	
21.	-ona	Oqilona, odilona	Sifatdan	

22.	-siz	Tashvishsiz (ko'rinadi), daraksiz	Otdan
23.	-cha	Erkakcha, qishloqcha	Otdan
24.	-cha	Eskicha, yangicha	Sifatdan
25.	-cha	O'zicha	Olmoshdan
26.	-cha	Hozircha	Ravishdan
27.	-chasiga	Erkakchasiga, qishloqchasiga	Otdan
28.	-chasiga	Ochiqchasiga, yangichasiga	Sifatdan
29.	-chang	Ko'ylakchang	Otdan

### Fe'ning lug'aviy shakl yasovchi shakllari

№	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	-ma	Bo'lishsizlik sh.	Kelma, o'ynama	
2.	-ish/-sh	Harakat nomi sh.	O'qish, sevish, takrorlash	
3.	-uv	Harakat nomi sh.	Tanishuv, ishlov	
4.	-moq	Harakat nomi sh.	Sevmoq, anglamoq	
5.	-mak	Harakat nomi sh.	Bermak, termak	
6.	-maslik	Harakat nomi sh.	O'qimaslik, takrorlamaslik	Bo'lishsizlik
7.	-ar	Sifatdosh sh.	Oqar, kelar	Kelasi zamon
8.	-gan	Sifatdosh sh.	Kelgan, gullagan	O'tgan zamon
9.	-ayotgan	Sifatdosh sh.	Borayotgan, o'tayotgan	Hozirgi zamon
10.	-adigan	Sifatdosh sh.	Keladigan, sevadigan	Kelasi zamon
11.	-ydigan	Sifatdosh sh.	O'qiydigan, bog'laydigan	Kelasi zamon
12.	-ib	Ravishdosh sh.	Borib, terib	Holat, payt, sabab ma'noalarini bildiradi
13.	-a(y)	Ravishdosh sh.	O'qiy, harakatlana	
14.	-gach/ -kach/-qach	Ravishdosh sh.	Sezgach, uxlagach	Payt ma'noli
15.	-guncha/ -kuncha/ -quncha	Ravishdosh sh.	Eltguncha, bitguncha	Payt ma'noli
16.	-gancha/ kancha / qancha	Ravishdosh sh.	Qaqqaygancha, boqqancha	Holat ma'noli sh.
17.	-sa	Shart mayli sh.	E'tiroz bildirsa, kulsa	



18.	-gin/ -kin/ -qin	Buyruq-istak mayli sh.	Yozgin, tortgin
19.	-sin	Buyruq-istak mayli sh.	Yuklatilsin, ishlansin
20.	-ay	Buyruq-istak mayli sh.	Boray, qolay
21.	-aylik	Buyruq-istak mayli sh.	Eltaylik, qoplaylik
22.	-sinlar	Buyruq-istak mayli sh.	Jo'natsinlar, olsinlar
23.	-moqchi	Maqsad mayli	Kelmoqchi, tugatmoqchi
24.	-in (-n)	O'zlik nisbati sh.	Kiyindi, tebrandi
25.	-il (-l)	O'zlik nisbati sh.	Cho'zildi (o'zi)
26.	-i(-l)	Majhul nisbat sh.	Yaratildi, o'qildi
27.	-in (-n)	Majhul nisbat sh.	Tarjima qilindi, bilindi
28.	-(i)sh	Birgalik nisbat sh.	Boshlashdi, sezishdi
29.	-t	Orttirma nisbat sh.	Tugat, boshlat
30.	-tir	Orttirma nisbat sh.	Quyultir, keltir
31.	-dir	Orttirma nisbat sh.	Sezdir, bildir
32.	-ir	Orttirma nisbat sh.	Tushir, qochir
33.	-ar	Orttirma nisbat sh.	Chiqar, qaytar
34.	-iz	Orttirma nisbat sh.	Oqliz, tomiz
35.	-kaz	Orttirma nisbat sh.	O'tkaz, bitkaz
36.	-qaz	Orttirma nisbat sh.	O'tqaz
37.	-giz	Orttirma nisbat sh.	Yurgiz, ko'rgiz
37.	-kiz	Orttirma nisbat sh.	O'tkiz, ketkiz
39.	-qiz	Orttirma nisbat sh.	Yutqiz
40.	-g'iz	Orttirma nisbat sh.	Turg'iz, to'lg'iz
41.	-it	Orttirma nisbat sh.	Kirit, yurit
42.	-gan	O'tgan zamon sh.	Borgan, kelgan
43.	-di	O'tgan zamon sh.	Sezdi, otdi
44.	-ib	O'tgan zamon sh.	Kulib(san), shoshib(di)
45.	-yap	Hozirgi zamon sh.	Qolyap(tl), bilyap(man)
46.	-moqda	Hozirgi zamon sh.	Olmoqda, yetmoqda
47.	-(a)yotir	Hozirgi zamon sh.	Berayotir, qo'rqayotir
48.	-(a)yotib	Hozirgi zamon sh.	Uxlayotib, ichayotib
49.	-gusi	Hozirgi zamon sh.	Qilgusi, o'xshagusi

50.	-moqchi	Kelasi zamon sh.	Jo'natmoqchi, hal qilmoqchi	
51.	-ar	Kelasi zamon sh.	Qolar, tishlar	
52.	-adi	Kelasi zamon sh.	Teradi, qoladi	
53.	-ajak	Kelasi zamon sh.	Kelajak, berajak	
54.	-ur	Kelasi zamon sh.	Borur, olur	
55.	-imsira	Kuchsiz daraja sh.	Kulimsira, yig'lamsira	
56.	-ish	Kuchsiz daraja sh.	Oqarish(di), to'lish(di)	
57.	-la	Uslubi ma'no beradi	Ishqala, quvla	
58.	-a	Uslubi ma'no beradi	Urna, quvna	
59.	-gila	Uslubi ma'no beradi	Yugurgila	
60.	-kila	Uslubi ma'no beradi	Tepkila, turtkila	
61.	-qila	Uslubi ma'no beradi	Tortqila, chopqila	
62.	-g'ila	Uslubi ma'no beradi	Ezg'ila, cho'zg'ila	
63.	-qa	Uslubi ma'no beradi	Chayqa	
64.	-g'l	Uslubi ma'no beradi	To'zg'l	
65.	-qira	Kuchsiz daraja sh.	Ishonqira, oqarinqira	

### Fe'ning sintaktik shakl yasovchi shakllari

№	Qo'shimcha	Nomi	Misollar	Izoh
1.	-m	Shaxs-son shakli	Keldim, o'qidim	I shaxs birlik
2.	-ng	Shaxs-son shakli	Sotding, kulding	II shaxs birlik
3.	-k	Shaxs-son shakli	Boshladik, xohladi	I shaxs ko'plik
4.	-ngiz	Shaxs-son shakli	O'tirdingiz, shoshdingiz	II shaxs ko'plik
5.	-lar	Shaxs-son shakli	O'ynadilar, kuyadilar	III shaxs ko'plik
6.	-man	Shaxs-son shakli	O'tiribman, yozibman	I shaxs birlik
7.	-san	Shaxs-son shakli	Yuborgansan, intilibsan	II shaxs birlik
8.	-di	Shaxs-son shakli	Kelgandi, kiygandi	III shaxs birlik
9.	-miz	Shaxs-son shakli	Boryapmiz, joylabmiz	I shaxs ko'plik
10.	-siz	Shaxs-son shakli	Ogohlantirgansiz, uyalibsiz	II shaxs ko'plik
11.	-dilar	Shaxs-son shakli	O'tirgandilar, yogandilar	III shaxs ko'plik



## Fe'l yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar

<b>№</b>	<b>Qo'shimcha</b>	<b>Misollar</b>	<b>Yasallishi</b>	<b>Turi</b>
1.	-a	<i>Yasha, osha</i>	<i>Otdan</i>	
2.	-a	<i>Shildira, jildira</i>	<i>Taqlid so'zdan</i>	
3.	-ar	<i>Ko'kar, oqar</i>	<i>Sifatdan</i>	
4.	-i	<i>Boyi, tinchi</i>	<i>Sifatdan</i>	
5.	-i	<i>Ranji, changi</i>	<i>Otdan</i>	
6.	-illa	<i>Shovulla, gupulla</i>	<i>Taqlid so'zdan</i>	
7.	-ik	<i>Birik</i>	<i>Sondan</i>	
8.	-ik	<i>Kechik</i>	<i>Ravishdan</i>	
9.	-ik	<i>Ko'zik</i>	<i>Otdan</i>	
10.	-iq	<i>Yo'liq, orziq</i>	<i>Otdan</i>	
11.	-iq	<i>Dimiq, zoriq</i>	<i>Sifatdan</i>	
12.	-ir	<i>Gapir</i>	<i>Otdan</i>	
13.	-it	<i>Berkit</i>	<i>Sifatdan</i>	
14.	-ira	<i>Yarqira, miltira</i>	<i>Taqlid so'zdan</i>	
15.	-ay	<i>Pasay, susay</i>	<i>Sifatdan</i>	
16.	-ay	<i>Ko'pay, ozay</i>	<i>Ravishdan</i>	
17.	-ay	<i>Kuchay</i>	<i>Otdan</i>	
18.	-y	<i>Qoray, keksay</i>	<i>Sifatdan</i>	
19.	-la	<i>Oqla, yaxshila</i>	<i>Sifatdan</i>	
20.	-la	<i>Angla, ishla</i>	<i>Otdan</i>	
21.	-la	<i>Dodla, uhla</i>	<i>Undov so'zdan</i>	
22.	-la	<i>Charaqla, ho'pla</i>	<i>Taqlid so'zdan</i>	
23.	-la	<i>Tezla, sekinla</i>	<i>Ravishdan</i>	
24.	-la	<i>Sizla, senla</i>	<i>Olmoshdan</i>	
25.	-lan	<i>Zavqlan, jonlan</i>	<i>Otdan</i>	
26.	-lan	<i>Shodlan, achchiqlan</i>	<i>Sifatdan</i>	
27.	-lan	<i>Ikkilan</i>	<i>Olmoshdan</i>	
28.	-lash	<i>Suhbatlash, ommalash</i>	<i>Otdan</i>	
29.	-lash	<i>Osonlash, qiyinlash</i>	<i>Sifatdan</i>	
30.	-lash	<i>Tezlash</i>	<i>Ravishdan</i>	
31.	-lash	<i>Birlash</i>	<i>Sondan</i>	

32.	-r	Eskir, qisqar	Sifatdan	
33.	-sit	Kamsit, aybsit	Ot va sifatdan	
34.	-sira	Sensira, sizensira	Olmoshdan	
35.	-sira	Yotsira, begonasira	Sifatdan	
36.	-sira	Suvsira, qonsira	Otdan	
37.	-t	To'lat	Sifatdan	
38.	-g'ar	Jamg'ar	Olmoshdan	
39.	-qar	Boshqar	Otdan	

## So'z yasallishi (Kompozitsiya)

### So'zga so'z qo'shish

#### Ot

No	Yasallishi	Misollar	Izoh
1.	Ot + ot	Guldasta, lolaqizg'aldoq, ko'zmunchoq, toshbaqa, xo'rozqand, atirgul, tilxat, karvonboshi, gultojixo'roz...	
2.	Sifat + ot	Ko'ksulton, achchiqtosh, oqbo'yin, boychechak, oqsoqol, ko'rshapalak...	
3.	Ot + fe'l	Beshiktebratar, o'rinbosar, husnbuzar, dunyoqarash...	
4.	Son + ot	Beshariq, mingoyoq, qirqog'ayni, to'rtburchak, uchburchak...	
5.	Ot + sifat	Oshko'k, gelbeor, ustabuzarmon...	
6.	Fe'l + ot	Savacho'p	
7.	Son + fe'l	Beshotar	

#### Sifat

No	Yasallishi	Misollar	Izoh
1.	Ot + ot	Sohibjamol, sheryurak, bodomqovoq, devqomat, sarvqomat...	
2.	Olmosh + olmosh	Manman	
3.	Ot + sifat	Nonko'r, xonavayron, jig'ibiyron, boshqorong'i...	
4.	Sifat + ot	Qattiqqo'l, shirins'o'z, balandparvoz, sovuqqon, kaltafahm...	
5.	Ravish + fe'l	Cho'rtkechar, ertapishar, tezpishar...	
6.	Son + ot	Ikkiyuzlamachi, qirqyamoq	
7.	Olmosh + ot	O'zboshimcha...	



8.	<i>Ot + fe'l</i>	<i>Vatanparvar, tinchliksevar, mehnatsevar, tilyog'lama...</i>	
9.	<i>Olmosh + sifat</i>	<i>O'zbilarmon</i>	
10.	<i>Ravish + ot</i>	<i>Kamgap, kamxarj, hozirjavob, kamqon, kamsuqum...</i>	
11.	<i>Fe'l + fe'l</i>	<i>Yebto'ymas...</i>	

### Ravish

<b>No</b>	<b>Yasalishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Ko'rsatish olmoshi + ot (yer, yoq, ora, o'rta)</i>	<i>Shu yer, shu yoq, bu orada, shu o'rtada...</i>	
2.	<i>Ko'rsatish olmoshi + ot (kun, oy, vaqt, on, asno)</i>	<i>Shu kun, o'sha vaqt, shu oy, o'sha asnoda...</i>	
3.	<i>Belgilash olmoshi + ot</i>	<i>Har yil, har kun, har vaqt, har zamon, har taraf...</i>	
4.	<i>Belgilash olmoshi + ravish</i>	<i>Har doim</i>	
5.	<i>Son + ot</i>	<i>Bir nafas, bir on, bir boshdan, bir dam, bir kun...</i>	
6.	<i>Tayyor o'zlatirilgan</i>	<i>Bajonidil, baholi qudrat...</i>	
7.	<i>Gumon olmoshi + ot</i>	<i>Aflavaqt, allamahol, allazamon...</i>	

### Fe'l

<b>No</b>	<b>Yasalishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Ot + fe'l</i>	<i>Parvoz qilmoq, ta'sir etmoq, na'ra tortmoq, tavof etmoq, sajda qilmoq...</i>	
2.	<i>Sifat + fe'l</i>	<i>Shod bo'lmoq, xafa bo'lmoq, abgor bo'lmoq, barbod bo'lmoq...</i>	
3.	<i>Son + fe'l</i>	<i>Bir bo'lmoq</i>	
4.	<i>Taqlid so'z + fe'l</i>	<i>Chirs etmoq, yarq qilmoq, milt etmoq, shuv etmoq...</i>	
5.	<i>Undov so'z + fe'l</i>	<i>Uh tortmoq, dod demoq, pisht demoq, oh urmoq...</i>	
6.	<i>Fe'l + fe'l</i>	<i>Sotib olmoq, borib kelmoq, ko'rib chiqmoq, ishlab chiqarmoq, olib chiqmoq...</i>	

## Juftlashtirish va takrorlash yo'li bilan so'z yasash

### Ot

<b>№</b>	<b>Yasalishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Ot + ot shaklli ikkala qismi ma'no anglatadigan so'zlar</i>	<i>Baxt-saodat, dasht-biyobon, fisq-fasod, sharaf-shon, aql-zakovat, kuch-qudrat, o'y-xayol</i>	<i>O'zaro sinonim</i>
2.	<i>Ot + ot shaklli ikkala qismi ma'no anglatadigan so'zlar</i>	<i>Bosh-oyoq, do'st-dushman, yer-u ko'k, savol-javob, shoh-u gado</i>	<i>O'zaro antonim</i>
3.	<i>Ikkinchi qismi lug'aviy ma'noga ega emas</i>	<i>Ko'cha-ko'y, yasan-tusan, meva-cheva, zahar-zaqqum...</i>	
4.	<i>Ikkala qismi ham mustaqil qo'llana olmaydigan so'zlar</i>	<i>Adi-badi, g'idi-bidi, ashqol-dashqol, lash-lush...</i>	
5.	<i>Ot + ot shaklli takrorlash yo'li</i>	<i>Varaq-varaq, yor-yor</i>	
6.	<i>Fe'l + fe'l</i>	<i>Ko'tara-ko'tar, chopa-chop</i>	

### Sifat

<b>№</b>	<b>Yasalishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Sifat + sifat shaklli ikkala qismi mustaqil qo'lana oladigan so'zlar</i>	<i>Boy-badavlat, sog'-salomat, telba-teskari, ajoyib-g'aroyib</i>	<i>O'zaro sinonim</i>
2.	<i>Ot + sifat shaklli ikkala qismi mustaqil qo'llana oladigan so'zlar</i>	<i>Fahm-farosat</i>	<i>O'zaro sinonim</i>
3.	<i>Sifat + sifat shaklli ikkala qismi mustaqil qo'llana oladigan so'zlar</i>	<i>Baland-past, yaxshi-yomon, issiq-sovuq</i>	<i>O'zaro antonim</i>
4.	<i>Ravish + ravish shaklli ikkala qismi mustaqil qo'lana oladigan so'zlar</i>	<i>Uzoq-yaqin</i>	<i>O'zaro antonim</i>
5.	<i>Sifat + sifat shaklli ikkinchi qismi ma'no anglatmaydigan so'zlar</i>	<i>Kalta-kulta, eski-tuski, olakula, yengil-yelpi...</i>	
6.	<i>Ikkala qismi ham lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlar</i>	<i>Apoq-chapoq, aji-buji, o'poq-so'poq</i>	
7.	<i>Sifat + sifat shaklli takroriy so'zlar</i>	<i>Shirin-shirin, katta-katta, yaxshi-yaxshi</i>	
8.	<i>Ot + ot shaklli takroriy so'zlar</i>	<i>Burda-burda, yo'l-yo'l, tanga-tanga, xilma-xil</i>	



## Ravish

№	<i>Yasallishi</i>	<i>Misollar</i>	<i>Izoh</i>
1.	<i>Ravish + ravish</i>	<i>Oldinma-keyin, nari-beri, erta-indin, hali-beri...</i>	
2.	<i>Ot + ot</i>	<i>Tun-u kun</i>	
3.	<i>Fe'l + fe'l</i>	<i>Uzil-kesil, bilinar-bilinmas...</i>	
4.	<i>Ot + ot shaklli takroriy so'zlar</i>	<i>Qator-qator, yildan yilga</i>	
5.	<i>Sifat + sifat</i>	<i>Uzundan uzun, ochiqdan ochiq...</i>	
6.	<i>Fe'l + fe'l</i>	<i>Turib-turib, qo'sha-qo'sha, qo'yarda-qo'ymay</i>	
7.	<i>Olmosh + olmosh</i>	<i>O'z-o'zidan, o'zidan o'zi, o'z-o'zicha...</i>	
8.	<i>Son + son</i>	<i>Birma-bir</i>	
9.	<i>Taqlid + taqlid so'z</i>	<i>Taqa-taq, shart-shurt</i>	

## So'z yasallishi (Konversiya)

### Ot

№	<i>Hosil bo'lishi</i>	<i>Misollar</i>	<i>Izoh</i>
1.	<i>Sifatdan</i>	<i>Achchiq-chuchuk, yosh, qari, issiq, sovuq, ko'k (o'simlik, pul birligi)</i>	<i>Xil-xussiyat, holat, rang-tus bildirgan sifatdan ko'chgan</i>
2.	<i>Sondan</i>	<i>Uch, yetti, yigirma, qirq, to'qqiz-to'qqiz</i>	<i>Aza va marosimlarni bildiradi</i>
3.	<i>Taqlid so'zdan</i>	<i>Ditdit, popop, ququ, tutu</i>	<i>Bolar tilida ishlatilib shu shaklga kelgan</i>
4.	<i>Fe'ldan</i>	<i>Oldi-berdi, bordi-keldi, dedi-dedi, keldi-ketdi, chaqirdi</i>	
5.	<i>Harakat nomi shaklidagi juft va takroriy fe'ldan</i>	<i>Yozuv-chizuv, to'ntarish, o'zgarish, tintuv, to'lov, o'quv...</i>	
6.	<i>Qo'shimchasiz fe'l asosdan</i>	<i>Kengash, shish, el, kurash...</i>	
7.	<i>Qo'shimchasiz fe'l asosdan tarkib topgan juft fe'ldan</i>	<i>Ur-yiqit</i>	

## Sifat

<b>№</b>	<b>Hosil bo'lishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Otdan</i>	<i>Yo'l-yo'l, mosh-guruch</i>	
2.	<i>Sodda fe'ldan</i>	<i>Daydi, qari, och, chalkash, yanglish, aralash, tutash</i>	
3.	<i>Juft fe'ldan</i>	<i>Oldi-qochdi, kuydi-pishdi</i>	

## Olmosh

<b>№</b>	<b>Hosil bo'lishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Sondan</i>	<i>Birov, biron, biror</i>	

## Ravish

<b>№</b>	<b>Hosil bo'lishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	<i>Otdan</i>	<i>Ertal, indin, kechqurun, kecha, burun...</i>	
2.	<i>Taqlid so'zdan</i>	<i>Shartta, taqqa, tappa...</i>	
3.	<i>Sifatdan</i>	<i>Uzluksiz, tugal, baralla, bafurja, vaqtli, omonsiz, muttasil, bafurja...</i>	
4.	<i>Fe'ldan</i>	<i>Qayta, o'ta, uzil-kesil...</i>	

## Qo'shimchalarning omonimligi

### Sintaktik shakl yasovchilar doirasida

<b>№</b>	<b>Qo'shimcha</b>	<b>Vazifasi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	-m	<i>Egalik sh.</i>	<i>Ukam, oilam</i>	
		<i>Shaxs-son</i>	<i>Keldim, qaradim</i>	
2.	-ng	<i>Egalik sh.</i>	<i>Ukang, oilang</i>	
		<i>Shaxs-son</i>	<i>Kelding, qarading</i>	
3.	-man	<i>Bog'lama</i>	<i>O'quvchiman</i>	
		<i>Shaxs-son</i>	<i>O'qiganman</i>	
4.	-san	<i>Bog'lama</i>	<i>Kattasan</i>	
		<i>Shaxs-son</i>	<i>Uxlabsan</i>	
5.	-miz	<i>Bog'lama</i>	<i>Bizmiz</i>	
		<i>Shaxs-son</i>	<i>Otlanganmiz</i>	
6.	-siz	<i>Bog'lama</i>	<i>Ikkinchisiz</i>	
		<i>Shaxs-son</i>	<i>Qayg'uribsiz</i>	



### Lug'aviy shakl yasovchilar doirasida

<b>No</b>	<b>Qo'shimcha</b>	<b>Vazifasi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	-(i)sh	Harakat nomi sh.	O'qish, xayrlashish	
		Birgalik nisbati sh.	Chiqarishdi, qarashdi	
		Sifatning ozaytirma darajasi sh.	Oqish, qizg'ish	
2.	-ar	Orttirma nisbat sh.	Chiqar, oqar	
		Kelasi zamon sifatdoshi sh.	Borar, toshar	

### Sintaktik va so'z yasovchilar doirasida

<b>No</b>	<b>Qo'shimcha</b>	<b>Vazifasi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	-m	Egalik Shaxs-son shakli	Qayg'urdim Xolam	
		Ot yasovchi qo'shimcha Sifat yasovchi	To'plam, bog'lama Qaram	
2.	-i	Egalik sh	Kitobi	
		Fe'l yasovchi Sifat yasovchi	Boyi, tinchi Qishloqi	
3.	-k	Shaxs-son	Bordik	
		Ot yasovchi Sifat yasovchi	Elak Chirik	
		Fe'l yasovchi	Birik	
4.	-siz	Bog'lama Shaxs-son sh.	Qo'polsiz Unutganman	
		Sifat yasovchi Ravish yasovchi	Aqlsiz, hushsiz So'zsiz	
5.	-qa	Jo'nalishi kelishishigi sh.	Yoqqa, o'rtoqqa	
		Fe'l yasovchi	Loyqa, qisqa	unumsiz

### Sintaktik va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida

<b>No</b>	<b>Qo'shimcha</b>	<b>Vazifasi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Izoh</b>
1.	-lar	Shaxs-son sh.	Aytdilar, berdilar	
		Ko'plik sh.	Kitoblar, qalamlar	

## Lug'aviy shakl yasovchi va so'z yasovchilar doirasida

№	Qo'shimcha	Vazifasi	Misollar	Izoh
1.	-ma	<i>Fe'lining bo'lishsizlik shakli</i>	<i>O'tirma, qayg'urma</i>	
		<i>Ot, sifat yasovchi</i>	<i>Qo'llanma, qatlama, burama</i>	
2.	-v	<i>Harakat nomi sh.</i>	<i>Ishlov</i>	
		<i>Ot yasovchi q.</i>	<i>O'quv, saylov</i>	
3.	-moq	<i>Harakat nomi sh.</i>	<i>Oqimoq, takrorlamoq</i>	
		<i>Ot yasovchi</i>	<i>Quymoq, ilmoq</i>	
4.	-ar	<i>Sifatdosh, orttirma nisbat sh.</i>	<i>Oqar, borar</i>	Oqar so'zi fe'l asosdan yasalgan bo'lsa, lug'aviy shakl yasovchi sanaladi.
		<i>Fe'l yasovchi</i>	<i>Oqar, qizar</i>	
5.	-t	<i>Orttirma nisbat sh.</i>	<i>O'qit, to'qit</i>	
		<i>Fe'l yasovchi sh.</i>	<i>To'lat</i>	
6.	-ir	<i>Orttirma nisbat sh.</i>	<i>Tushir, oshir</i>	
		<i>Fe'l yasovchi</i>	<i>Gapir</i>	
7.	-ay	<i>Buyruq-istak mayli sh.</i>	<i>Boray, olay</i>	
		<i>Fe'l yasovchi</i>	<i>Pasay, ko'pay</i>	
8.	-in	<i>Fe'l nisbati sh.</i>	<i>Kiyin, artin</i>	
		<i>Ot, sifat, ravish yasovchi q.</i>	<i>Ekin, to'kin, qishin-yozin</i>	
9.	-sa	<i>Shart mayli sh.</i>	<i>Aytsa, qaytsa</i>	
		<i>Fe'l yasovchi q.</i>	<i>Suvsa</i>	
10.	-chak	<i>Otlarning erkalash-kichraytish sh.</i>	<i>Kelinchak</i>	
		<i>Sifat yasovchi q.</i>	<i>Kuyunchak</i>	
11.	-choq	<i>Otlarning erkalash-kichraytish sh.</i>	<i>Qo'zichoq</i>	
		<i>Sifat, ot yasovchi q.</i>	<i>O'yinchoq, erinchoq</i>	
12.	-lab	<i>Sonning lug'aviy sh.</i>	<i>Yuzlab, minglab</i>	
		<i>Ravish yasovchi q.</i>	<i>Yillab, ertalab</i>	



13.	-cha	Otlarning erkalash-kichraytish sh.	Ro'molcha, uycha	
		Ravish yasovchi q.	Erkakcha, eskicha	
14.	-xon	Otlarning erkalash-kichraytish sh.	Azizaxon, Gulnoraxon	
		Ot yasovchi	G'azalxon, kitobxon	
15.	-larcha	Sonning lug'aviy sh.	Minglarcha	
		Ravish yasovchi q.	Mardlarcha, vahshiylarcha	

### So'z yasovchillar doirasida

No	Qo'shimcha	Vazifasi	Misollar	Izoh
1.	-a	Ot	Sharshara, qahqaha	
		Sifat	Ko'tara, to'la	
		Fe'l	Sana, yasha	
2.	-be	Sifat	Beaql, beg'ubor	
		Ravish	Bedarak, betinim	
3.	-bin	Ot	Folbin	
		Sifat	Kaltabin, nekbin	
4.	-boz	Ot	Kaptarboz, dorboz	
		Sifat	Xotinboz, va'daboz	
5.	-gar	Ot	Zargar, savdogar	
		Sifat	Hiylagar, ig'vogar	
6.	-gi	Ot	Supurgi, sevgi	
		Sifat	Kuzgi, bahorgi	
7.	-ki	Ot	Tepki	
		Sifat	Ichki	
8.	-qi	Ot	Chopqi	
		Sifat	Sirtqi, tashqi	
9.	-gir	Ot	Fazogir, jahongir	
		Sifat	Sezgir	
10.	-g'ich	Ot	O'chirg'ich	
		Sifat	Yulg'ich	
11.	-gin	Ot	Tizgin	
		Sifat	G'amgin	
12.	-qin	Ot	Toshqin, to'lqin	
		Sifat	Jo'shqin	

13.	-go'y	Ot	<b>Maslahatgo'y, nasihatgo'y</b>
		Sifat	<b>Xushomadgo'y</b>
14.	-diq	Ot	<b>O'rindiq, qoldiq</b>
		Sifat	<b>Tashlandiq</b>
15.	-don	Ot	<b>Guldon, kuldon</b>
		Sifat	<b>Bilimdon, gapdon</b>
16.	-dosh	Ot	<b>Sindosh, mahalladosh</b>
		Sifat	<b>Darddosh, sirdosh</b>
17.	-ik	Ot	<b>Teshik, ko'rik</b>
		Sifat	<b>Geologik, realistik</b>
18.	-iq	Ot	<b>Chopiq, to'piq</b>
		Fe'l	<b>Yo'liq, dimiq</b>
		Sifat	<b>Yopiq, ochiq</b>
19.	-in	Ot	<b>Yig'in, ekin</b>
		Sifat	<b>Erkin, to'lin</b>
		Ravish	<b>Qishin-yozin, ostin-ustin</b>
20.	-inch	Ot	<b>Sevinch, qo'rqinch</b>
		Sifat	<b>Shoshilinch, tiqlinch</b>
21.	-kor	Ot	<b>Paxtakor, sholikor</b>
		Sifat	<b>O'ymakor, zulmkor</b>
22.	-kash	Ot	<b>Aravakash, suratkash</b>
		Sifat	<b>Zahmatkash, dardkash</b>
23.	-lik	Ot	<b>Yoshlik, bolalik</b>
		Sifat	<b>Ko'rpalik, bayramlik</b>
24.	-m	Ot	<b>To'plam, chidam</b>
		Sifat	<b>Qaram</b>
25.	-indi	Ot	<b>Chiqindi, chirindi</b>
		Sifat	<b>Yig'indi (gap)</b>
26.	-i	Fe'l	<b>Boyi, ranji</b>
		Sifat	<b>Qishloqi, qozoqi</b>
27.	-namo	Sifat	<b>Majnunnamo, darveshnamo</b>
		Ravish	<b>Hazilnamo</b>
28.	-oq	Ot	<b>O'roq, yotoq</b>
		Sifat	<b>Qo'rqoq</b>
29.	-ch	Ot	<b>Ishonch, o'kinch</b>
		Sifat	<b>Tinch, jirkanch</b>
30.	-choq	Ot	<b>O'yinchoq</b>
		Sifat	<b>Erinchoq, tortinchoq</b>



31.	-k	Ot	Elak, tilak
		Sifat	Chirik
		Fe'l	Kechik, birik
32.	-q	Ot	So'roq, sanoq
		Sifat	Yumaloq, qaynoq
33.	-cha	Sifat	O'zbekcha, andijoncha (kuy)
		Ravish	Hozircha, eskicha
34.	-siz	Sifat	Hayosiz, hidsiz
		Ravish	So'zsiz, navbatsiz

### Sinonim qo'shimchalar

#### Sifat

No	Qo'shimcha	Qaysi qo'shimcha bilan	Misollar
1.	-li	-kor	Itoatli – itoatkor
		-dor	Shirali – shirador
		ba-	Savlatli – basavlat
		Ser-	Sutli – sersut
		Bo-	Obro'li – boobro'
		-don	Bilimli – bilimdon
2.	-chi	-shunos	Adabiyotchi – adabiyotshunos
		-kash	Aravachi – aravakash
		-kor	G'allachi – g'allakor
3.	-siz	Be-	Hayosiz – behayo
		No-	O'rinsiz – noo'rin
4.	-ish	-imtir	Oqish – oqimtir
5.	-ov	-ala	Beshov – bashala
		-ovlon	Ikkov – ikkovlon
6.	-sira	-sa	Suvsira – suvsa
7.	-ni	-dan	Uzumni yemoq – uzumdan yemoq
		-da	Bog'ni kezmoq – bog'da kezmoq
8.	-ning	-dan	Kelganlarning biri – kelganlardan biri
9.	-ga	-ni	Otga min – mashinaga min
10.	-moqda	-yapti	Bormoqda – boryapti
		-(a)yotir	Kelmoqda – kelayotir
		-(a)yotib	Sezmoqdaman – sezayotibman

### Antonim qo'shimchalar

<b>No</b>	<b>Qo'shimcha</b>	<b>Qaysi qo'shimcha bilan</b>	<b>Misollar</b>
1.	-li	-siz	Aqlli – aqlsiz
		Be-	Iboli – beibo
		No-	O'rinli – noo'rin
2.	Ser-	Be-	Sero't – beo't
3.	Ba-	-siz	Badavlat – davlatsiz
4.	Bo-	-siz	Boobro' – obro'siz
5.	Be-	-dor	Beshira – shirador
6.	-dor	-siz	Shirador – shirasiz



## QISQACHA OMONIMLAR LUG'ATI

### A

**A** zidlov bog'lovchisi (ammo, lekin o'rnida); so'roq yuklamasi

**A** o'zbek alifbosining birinchi harfi

**Absolut** (r) (sif.) Mutlaq, boshqa narsalarga qiyoslanmagan

**Absolut** (r) (ot) o'zgarmas (ruh)

**Adash** (fe'l) adashgan, bir poyi almashgan (poyabzal); yanglish, noo'rin

**Adash** (ot) ismi bir xil odamlar

**Afg'on** (a) (ot) faryod, nola

**Afg'on** (a) (ot) xalqning nomi

**Agentlik** (ot) biror tashkilotning joylardagi vakolatxonasi

**Agentlik** (ot) josuslik

**Akkord** (r<ital) musiqa asbobidagi bir xil ohangli klavishlarning bir vaqtda chalinishi

**Akkord** biror ishni bajarishni oxirigacha shartlashmoq

**Aks** (a) jin, ajina

**Aks** teskari ko'rinish yoki qaytgan ovoz; o'jar kishi

**Aksiya** (r<fr) (ot) qimmatbaho qog'oz

**Aksiya** (r<lat) maqsadli harakat

**Aktiv** (r) (ot) biror tashkilot yoki jamoaning ilg'or qismi

**Aktiv** (r) (ot) korxonona yoki tashkilotning mol-mulki, mablag'i

**Aktiv** (r) (sif.) serharakat, g'ayratli

**Alam** (a) (ot) bayroq, tug'

**Alam** (a) (ot) jismoniy yoki ruhiy azob; qasos; g'azab

**Alif** (a) (ot) arab alifbosidagi birinchi harf

**Alif** (r olifa) (ot) qurilishda ishlatiladigan moy

**Alla** gumon olmoshi hosil qiluvchi

birlik

**Alla** go'dakni uxlatishda aytiladigan qo'shiq

**Alla** o'mbaloq oshib yiqilmoq

**Amin** (a) ishongan

**Amin** (a) O'rta Osiyo xonliklaridagi qishloq oqsoqoli yoki soliq undiruvchi kishi

**Amr** (a) buyruq, farmoyish

**Amr** (a) *esk* ish, yumush

**Ananas** (r<isp) tropik mamlakatlarda o'sadigan o'simlik va uning mevasi

**Ananas** eti qizg'ish qovun turi

**Anbar** (a) mumsimon xushbo'y modda

**Anbar** (a) tobutning cho'plariga o'rnatilgan novdalarga yopilgan mato

**Arish** (r *roj*) qora bug'doy

**Arish** arimoq

**Ark** (f-t) (ot) xon yoki amir saroyi

**Ark** (r<ital) (ot) arka

**Arz** (a) og'zaki shikoyat yoki iltimos

**Arz** (a) yer shari

**Arsh** (a) kayf, safo

**Arsh** (a) xudoning taxti; osmon; uyning shifti

**Asr** (a) (ot) quyosh botishidan bir soat oldingi namoz o'qiladigan payt

**Asr** (a) (ot) yuz yil

**Axir** (a) oxiri

**Axir** (a) ta'kid yuklamasi

**Aylan** aylana tarzda harakatlanmoq; sayr qilmoq; boshqa tus olmoq

**Aylan** bo'lmoq

**Aymoq** *esk* aytmoq, demoq

**Aymoq** urug', elat

**Azot** (ko'tarmoq) dast (ko'tarmoq)

**Azot** (r<yunon) kimyoviy element; o'g'it

**B**

**Badhavo** (f-t a) havosi yomon  
**Badhavo** (f-t a) kekkaygan  
**Bahr** (a) (ot) aruz vazni atamasi  
**Bahr** (a) (ot) bahra  
**Bahr** (a) (ot) dengiz, ummon  
**Ball** (f-t) balli  
**Ball** ali desa bali deydi  
**Ballqko'z** ko'zi chaqchaygan  
**Ballqko'z** sho'rxok yerlarda o'sadigan o'simlik turi  
**Balo** (a) (ot) ofat, falokat  
**Balo** (a) o'z ishiga usta, uddaburon  
**Balq** ko'pchimoq, ko'tarilmoq  
**Balq** yarqiramoq; yashnamoq  
**Band** (f-t) (sif.) bo'sh emas  
**Band** (f-t) (ot) dasta, tutqich; bo'g'in  
**Band** (f-t) (ot) hujjatning raqamlangan qismi  
**Band** (f-t) (ot) tugun, bo'g'ov  
**Banda** (f-t) (ot) xudoning quli; qaram kishi  
**Banda** (r<ital)(ot) bosqinchi to'da  
**Bank** (r<f<ital) (ot) pul muomalasi bilan shug'ullanuvchi tashkilot; xazina  
**Bank** (ot) o'yinda tikilgan pul  
**Banka** (r *bank*) (ot) bank  
**Banka** (r) (ot) shisha yoki metalldan yasalgan silindrsimon idish  
**Baqa** (ot) qurbaqa  
**Baqa** (ot) tegirmonning parrakdan kuch olib toshini aylantiradigan metall qismi  
**Baqaloq** (ot) hayvonning tuyoq bilan iligi orasi  
**Baqaloq** (sif.) semiz  
**Barak** (f-t) (ot) chuchvara  
**Barak** (r-f) (ot) vaqtincha qurilgan yog'och uy  
**Baravariga** *kmk* evaziga, badaliga

**Baravariga** *rvsh* bir vaqtda  
**Bargak** (f-t) (ot) ayollar boshga taqadigan ziynat  
**Bargak** (f-t) (ot) danagi olingan turshak  
**Barot** (a) (ot) hukmdor tomonidan berilgan ozodlik xati; unvon haqidagi yorliq  
**Barot** (a) (ot) qamariya hisobida sakkizinchi oy  
**Bas** (a) (ot) bahs  
**Bas** (f-t) (predk. so'z) bo'ldi, yetar, demak  
**Bijirla** (fe'l) bijir-bijir gapirmoq  
**Bijirla** qaynab yotmoq  
**Biq-biq** qaynamoq  
**Biq-biq** semiz  
**Bitik** butov, bekik  
**Bitik** yozuv, xat  
**Bitish** kelishmoq, ahdlashmoq  
**Bitish** tugamoq  
**Biy** (a)(ot) *esk* qabila boshlig'i, qozoq va qirg'izlarda oqsoqol  
**Biy** (ot) ochiq, yaydoq (dala)  
**Biy** (ot) zaharli o'rgimchak  
**Biy** (ot) *sheva* bibi  
**Biyron** (f-t) so'zamol  
**Blyron** (f-t) tobiga yetkazib qovurilgan  
**Blok** (r<ingl) (ot) arqonli g'altak orqali yuk ko'taradigan mashina  
**Blok** (r<ingl) (ot) davlatlarning ayrim ittifoqi  
**Blok** (r<ingl) (ot) katta binolardagi ayrim xona  
**Blok** (r<ingl) (ot) katta g'isht bo'lagi  
**Bo** (f-t) bilan  
**Bo** (f-t) yana  
**Bod** (f-t) (ot) revmatizm  
**Bod** (f-t) (ot) shamol, yel  
**Boks** (r<ingl) erkaklarning soch qo'yish usuli



- Boks** (r<ingl) kasalxonadagi maxsus ajratilgan xona
- Boks** (r<ingl) charm qo'lqopli sport turi
- Bor** mavjud
- Bor** (f-t) (hisb. so'z) marta, daf'a
- Bor** (r<lot) (ot) kimyoviy element
- Boslm** (ot) og'irlik kuchi
- Boslm** (rvsh.) tin olmay, surunkasiga (*bosim ishladi*)
- Bosim** (ot) urg'u
- Bosirlq** tin olmay, surunkasiga
- Bosirlq** yomon tush
- Bosma** (ot) balandga yuk osib qo'yiladigan richag
- Bosma** (sif.) nashr etilgan, nashr
- Boshllq** (ot) oyoq kiyimining yuza va yon qismi
- Boshllq** (ot) rahbar
- Boshoq** *esk* (ot) kamon o'qi
- Boshoq** (ot) o'simlikning don o'ragan qismi
- Bron** (r) band
- Bron** (r) zirh
- Burun** (ot) dengizga turtib chiqqan quruqlik
- Burun** (ot) hidlash a'zosi
- Burun** (rvsh.) ilgari
- Burch** (ot) burchak
- Burch** (ot) o'tash lozim bo'lgan vazifa
- But** (predk. so'z) butun
- But** (ot) oyoq
- Bedona** (f-t) bir-ikki yashar mol terisidan qilingan charm
- Bedona** (f-t) donasiz uzum
- Begona** (f-t) beklarga xos
- Begona** (f-t) yot, qarindosh emas, notanish
- Behtar** (f-t) *esk* afzal, yaxshiroq
- Behtar** (f-t) qulupnayning bir turi
- Bek** (sif.) berk, yopiq
- Bek** *tar*(ot) unvon; erkaklar ismining qismi; xo'jayinga murojaat so'zi
- Bel** (ot) gavdaning yag'rindan pastki qismi; biror narsaning o'rtasi
- Bel** (ot) yer qazishda ishlatiladigan yog'och sopli metall asbob
- Bela** (fe'l) beshikka yotqizmoq
- Bela** (fe'l) yuqadigan narsalarga botirmoq
- Beoqibat** (f-t+a) (sif.) natijasiz
- Beoqibat** (f-t+a) (sif.) unutuluvchan
- Betla** (fe'l) jur'at qilmoq, botinmoq
- Betla** (fe'l) sahifalarni raqamlamoq
- Bez** (r *byaz*) (ot) surpdan pishiroq gazlama turi
- Bez** (sif.) surbet
- Bez** (ot) tirik organizmda zarur modda ishlab chiqaruvchi qism
- Besh** (rvsh.) (battar) o'ta darajada
- Besh** (*son*) 4 va 6 orasidagi butun son
- Beshak** (f-t+a) (sif) shubhasiz
- Beshak** (f-t+a) (ot) ertapishar qovun turi
- Bo'ktargi** (ot) egarga bog'langan yengil yuk
- Bo'ktargi** (ot) ko'chmanchi yirtqich qush
- Bo'l** (fe'l) parchalamoq, kesmoq, bo'laklamoq, taqsimlamoq, uzmoq, ajratmoq
- Bo'l** (fe'l) yuz bermoq, yaramoq, joylashmoq, o'smoq, erishmoq, kelib chiqmoq
- Bo'lak** (ot) grammatik termin (gap bo'lagi)
- Bo'lak** (ot) qism, parcha
- Bo'y** (ot) hid
- Bo'y** (ot) qomat
- Bo'ydor** (f-t) (sif.) novcha
- Bo'ydor** (f-t) (sif.) xushbo'y
- Bo'yin** (ot) bosh bilan yelka oralig'i

**Bo'yin geog** (ot) ajralib qolgan quruqlik birlashadigan joy  
**Bo'yin** (ot) haydalayotgan yer maydonining u boshidan bu boshigacha bo'lgan 120 – 150 metrcha keladigan masofa  
**Bo'z** (ot) ekin ekilmagan unumdor yer  
**Bo'z** (ot) oq-sarg'ish dag'al gazlama  
**Bo'zchi** (ot) katta yaproqli mayda boshoqli o'simlik turi  
**Bo'g'ma** bo'g'ib qo'yiladigan yoqali  
**Bo'g'ma** difteriya  
**Bo'g'ma** ilonning turi  
**Bo'g'oz** (ot) ikki suv havzasini tutash tiruvchi tor suv yo'li  
**Bo'g'oz** (sif.) qornida bolasi bor  
**Bo'sh** (sif.) mo'rt, pishiq bo'lmagan; lapashang  
**Bo'sh** (sif.) xoli, ichida hech narsa yo'q  
**Bo'sha** (fe'l) ipini uzmoq  
**Bo'sha** (fe'l) lavozimini, ishini tark etmoq; xoli bo'lmoq  
**Bo'sha** (fe'l) yumshamoq, solqilanib qolmoq

## D

**Daf** (a) doira  
**Daf** (a) uzoqlatish (daf bo'l)  
**Dahyakchi tar** (ot) dahyak (hosilning o'ndan biri) solig'ini beruvchi dehqon  
**Dahyakchi tar** (ot) dahyak (hosilning o'ndan biri) solig'ini yig'uvchi amaldor  
**Dam** (f-t) (bog'l.) ayiruv bog'lovchisi  
**Dam** (f-t) (ot) kosiblikda olovga havoni haydovchi garmonsimon moslama

**Dam** (f-t) (ot) nafas; orom; issiq, hovur  
**Dam** (f-t) (ot) on, payt, vaqt, kez  
**Dam** (f-t) (ot) tig' (pichoqning tig'i)  
**Dandana** (f-t) (ot) narsaning tishsimon qismi  
**Dandana** (f-t) (ot) tishli mola, sixmola  
**Dard** (f-t) koyish so'zi (Dard! Balo!)  
**Dard** (f-t) og'riq, kasallik; tashvish  
**Dasta** (f-t) (ot) sop, narsaning ushlanadigan maxsus joyi  
**Dasta** (f-t) (ot) chillak  
**Dastak** (f-t) (ot) oyoq kiyimining aylangan orqa qismi  
**Dastak** (f-t) (ot) richag  
**Davlat** (a) (ot) boylik, mulk  
**Davlat** (a) (ot) hokimiyat organi va siyosiy tashkilotlariga ega mustaqil mamlakat  
**Doira** (a) (ot) aylana, to'garak  
**Doira** (a) (ot) childirma, daf  
**Dol** (a) (ot) arab alifbosidagi harf  
**Dol** (sif.) egri, bukik  
**Dom** (a) (ot) tuzoq, sirtmoq  
**Dom** darak  
**Dong** (rvsh) (dong qotmoq)  
**Dong** (ot) shon-shuhrat  
**Doroyi** (f-t) (ot) uzum navi  
**Doroyi** (f-t) (ot) o'rishi xom, arqog'i ishqorlangan ipakdan tayyorlangan harir gazlama  
**Dov** (f-t) (sif.) qaddi baland va yo'g'on  
**Dov** (f-t) (ot) qimorda o'rtaga tikilgan narsa, pul, mablag'  
**Dov** (f-t) (ot) talab, da'vo  
**Dovul** (ot) kuchli bo'ron  
**Dovul** (ot) nog'oraga o'xshash asbob  
**Dog'** (f-t) kuchli qizdirish (dog'langan yog')



**Dog'** (f-t) (ot) narsalarning boshqa narsa ta'sir qilgan joyi; isnod  
**Dog'** (f-t) (ot) g'am, alam, qayg'u  
**Dunyo** (ot) boylik  
**Dunyo** (ot) olam, koinot  
**Devon** (f-t) (ot) *adab* she'riy to'plam  
**Devon** (f-t) *tar* (ot) majlis; oliy bosh idora  
**Do'l** (f-t) (ot) muz holidayi yog'in  
**Do'l** (f-t) (ot) tegirmonning bug'doy solinadigan tepa qismi

## E

**E** achinish, afsuslanishni ifodalovchi so'z  
**E und ayn oy**  
**Ekipaj** (r-fr) (ot) ayrim texnikalarni birgalikda boshqaruvchi jamoa  
**Ekipaj** (ot) o'tli yengil arava, fayton  
**El** (ot) «l» harfining nomi  
**El** (ot) biror joyning odamlari  
**Elchilik** (ot) biror davlatga maxsus yuborilgan delegatsiya  
**Elchilik** (ot) elga xos urf-odatlar  
**Em** (ot) «m» harfining nomi  
**Em** (ot) shifo, dori-darmon  
**En** (ot) «n» harfining nomi  
**En** (ot) kenglik, kattalik  
**En** (ot) *sheva* chorva hayvonining qulog'iga qo'yiladigan belgi  
**Er** (ot) «r» harfining nomi  
**Er** (ot) xotinning jufti, erkak  
**Eri** (fe'l) suyulish, suyuqlanish  
**Eri** (ot) xotinning jufti  
**Erish** (sif.) nojo'ya, yarashmaydigan  
**Erish** (fe'l) qo'lga kiritmoq  
**Es** (ot) «s» harfining nomi  
**Es** (ot) aql, hush, xotira  
**Es** (fe'l) shamolning mayin harakati  
**Essiz** (sif.) aqlsiz, xotirasi past

**Essiz** achinish so'zi (aslida eh, siz!)  
**Et** (ot) go'sht, badan  
**Et** (fe'l) qilmoqni ifodalovchi fe'lining buyruq shakli  
**Et** (fe'l) *sheva* aytmoq, demoqni ifodalovchi fe'lining buyruq shakli  
**Etap** (r<fr) bosqich, davr  
**Etap** (r<fr) surgundagi kishilar guruhini boshqa joyga jo'natish harakati  
**Etiket** (r<fr) (ot) biror jamiyatga xos muomala qoidalari  
**Etiket** (r<fr) (ot) etiketka, yorliq  
**Esh** (fe'l) eshishni ifodalovchi fe'lining buyruq shakli  
**Esh** (ot) yo'ldosh, quvvat

## F

**Farq** (ot) ajratilgan sochning o'rtasi  
**Farq** (ot) o'xshashsizlik, tafovut  
**Fokus** (r<lot) (ot) *fiz* singan nurning kesishuv nuqtasi  
**Fokus** (r<lot) (ot) ko'z ilg'amas chaqqonlik bilan harakat qilish asosidagi o'yin  
**Fon** (r<fr) (ot) surat olinadigan narsaning orqa plani  
**Fon** (r<grek) (ot) tovush balandligi darajasi  
**Fe'l** (ot) so'z turkumi nomi  
**Fe'l** (ot) xulq-atvor, xarakter  
**Feodal** (r<lot) (ot) katta yer egasi  
**Feodal** (r<lot) (sif.) zulmkor

## G

**Gaj** (f-t) (sif.) gajak  
**Gaj** (f-t) (sif.) ters, teskari  
**Gap** (f-t) (ot) fikr ifodasi  
**Gap** (f-t) (ot) navbat asosidagi ul-fatchilik, ziyofat  
**Gaz** (f-t) (ot) 0,71 sm ga teng uzun-

lik o'lchovi  
**Gaz** (f-t) yulg'un  
**Gaz** (r<fr) (ot) yupqa harir gazlama  
**Gaz** (r<goll) (ot) zarralari kuchsiz bog'langanligi tufayli har qanday bo'shliqni to'ldirib turadigan yengil modda  
**Gazak** (f-t) (ot) ichkilik ustidan yeyiladigan ovqat  
**Gazak** (ot) yaraning sovuqdan yiringlagan joyi  
**Giperbola** *adab* mubolag'a  
**Giperbola** *geom* egri chiziq  
**Grafik** (r<yunon) (ot) grafikada ijod qiluvchi rassom  
**Grafik** (r<yunon) (ot) chiziqlar vositasida tasvirlash  
**Gul** (f-t) qizamiq natijasida badanda paydo bo'ladigan toshma  
**Gul** (f-t) o'simlikning gulbarg, changdon va gulkosadan iborat qismi; naqsh, bezak  
**Gulband** (f-t) (ot) gulni tutib turuvchi novda  
**Gulband** (f-t) (ot) pichoqning das-tasini tig'iga bog'lab turuvchi metall halqa

## H

**Had** (a) (ot) *mat* tenglamadagi son  
**Had** (a) (ot) chegara, tugaydigan joy  
**Hadis** (a) (ot) *din* Muhammad alay-hissalom o'g'it va ibratlari  
**Hadis** (a) (ot) kurash, kuch sinashish  
**Hal** ajrim, yechim (*hal qilmoq*)  
**Hal** (ot) oltin yoki kumush kukunidan qilingan bo'yoq  
**Havo** (a) (ot) atmosfera, fazo  
**Havo** (a) (ot) kibr, dimog'

**Havo** (a) (ot) kuy, ohang  
**Havodor** (a+f-t) (sif.) kibrli, dimog'dor  
**Havodor** (a+f-t) (sif.) toza havoli  
**Havodor** (a+f-t) (ot) to'yda san'atkorlarga beriladigan pul  
**Himo** biror ishni bajarishga yordam, ko'mak  
**Himo** imo  
**Hur** (a) (ot) *din* jannatdagi go'zal qiz  
**Hur** (a) (sif.) erkin, ozod  
**Hur** (fe'l) vovillamoq  
**Huzur** (ot) oldi, qoshi, qabuli  
**Huzur** (ot) rohat, halovat  
**He** «h» harfining nomi  
**He** (*und.*) norozilikni ifodalovchi so'z

## I

**Iborat** (a) *esk* iboralar  
**Iborat** (a) tashkil topgan, tuzilgan  
**Ideal** (r<fr) (sif.) bekam-u ko'st  
**Ideal** (r<fr) (ot) eng ezgu g'oya, tilak  
**Ikkilik** ikki misrali she'r  
**Ikkilik** yo u yoqlik, yo bu yoqlik bo'ladigan, hal bo'lishi gumon  
**Ilmoq** mix, qoziq, ilgakka osib qo'ymoq  
**Ilmoq** narsa illinuvchi ilgak; kinoya  
**Insho** (a) yozma ish turi  
**Insho** qilmoq, barpo qilmoq  
**Iroq** uzoq, olis  
**Iroq** shashmaqom tizimidagi oltinchi maqom nomi  
**Irq** (a) *esk* insoniyatning shakliy o'xshashligi asosidagi bir guruhi  
**Irq** yuz, yanoq  
**Ivi** nam tortib yumshamoq  
**Ivi** quyulib qolmoq (qon, sut-qatiq haqida)



**Ich** (ot) ichki bo'shliq  
**Ich** (fe'l) suyuqlikni yutish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli

## J

**Jabr** (a) (ot) adolatsizlik, azob  
**Jabr** (a) (ot) *esk* algebra  
**Jar** (a Jahr) (ot) xabar, ovoz (jar solmoq)  
**Jar** (f-t) (ot) chetlari o'pirilgan soylik, chuqurlik  
**Javra** hadeb gapiravermoq  
**Javra** yomg'irda ivib ketmoq  
**Jaz** (r djaz<ingl) (ot) turli, ko'pincha urib va puflab chalinadigan musiqa asboblardan tuzilgan orkestr  
**Jaz** (ot) jon achitadigan og'riq  
**Jaz** (tql. so'z) jazillash ovozi yoki holatiga taqlid  
**Jaz** (ot) yog'iga qovurilgan go'sht  
**Jin** (a) (ot) go'yoki pastqam joylarda yashovchi, biror dardga chaluvchi maxluq  
**Jin** (r djin<ingl) (ot) paxta tozalaydigan mashina  
**Jir** (r) (ot) yog', moy  
**Jir** (ot) qo'shiq, ashula  
**Jiz** jon achitadigan og'riq  
**Jiz** yog'iga qovurilgan go'sht  
**Jish** go'sht  
**Jish** polapon  
**Joy** (f-t) (*rvsh*) bafurja, bamaylixotir (*joyroq boraman*)  
**Joy** (f-t) yer, nuqta, yuza, makon, o'rin  
**Jo'nash** birgalikda qo'zg'almoq  
**Jo'nash** rivojlanmoq, avj olmoq (*gulxan jo'nashdi*)  
**Jo'r** (sif.) hamohang, uyg'un  
**Jo'r** (ot) to'rg'aylar sirasiga kiruvchi

sayroqi qush  
**Jo'ra** (f-t) (ot) ikki bo'lakdan iborat bir kiyimli mato (*bir jo'ra atlas*)  
**Jo'ra** (f-t) (ot) og'ayni, oshna

## K

**Kadr** (r<fr) (ot) bitta surat, yakka rasm  
**Kadr** (r<fr) (ot) xodim, mutaxassis  
**Kamar** (f-t) (ot) bel yoki shimga taqiladigan qayish  
**Kamar** (ot) g'orsimon o'yiq  
**Kapital** (r<lot) (ot) boylik hosil qiluvchi vositalar majmuyi  
**Kapital** (r<lot) (sif.) boshdan oyoq (ta'mir)  
**Karam** (a) (ot) marhamat, muruvvat, himmat  
**Karam** (f-t) (ot) hosili barglar o'ramidan iborat poliz ekini  
**Kasr** (a) (ot) birovning yomon ta'siri oqibati  
**Kasr** (a) (ot) butunning qismlari  
**Ket** (fe'l) jo'namoq  
**Ket** (ot) oxir, nihoya  
**Kez** (ot) palla, payt  
**Kez** (fe'l) sayr qilmoq, aylanib yurmoq  
**Kech** (fe'l) bahridan o'tmoq  
**Kech** (fe'l) suvlikdan o'tmoq  
**Kech** (*rvsh.*) vaqtida bo'lmaslik  
**Kir** (sif.) iflos, isqirt, dog'li  
**Kir** (fe'l) kirish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli  
**Kirish** bajarishni boshlamoq  
**Kirish** kirish joyi, darsning boshlanish vaqti  
**Kly** bilyard cho'pi  
**Kly** kiyimni tanaga olmoq  
**Kisht** (und.) ayrim jonivorlarni hay-

dash uchun ishlatiladi  
**Kisht** (und.) shaxmat o'yinida ogohlantirish  
**Kul** (fe'l) xursandlik holatidagi ovoz  
**Kul** (ot) yonishdan hosil bo'lgan chiqindi  
**Kunda** (rvsh.) har kuni  
**Kunda** (ot) to'nka  
**Kunda** (ot) yog'och kishan  
**Kurash** qor yoki boshqa biror narsani maxsus asbob bilan urib tozalash  
**Kurash** yiqitib g'olib bo'lishga asoslangan musobaqa  
**Kuy** (ot) musiqa taronasi  
**Kuy** (fe'l) kuchli issiq ta'sirida qoraymoq  
**Kuya** (ot) narsalarning kuyishidan hosil bo'lgan qurum  
**Kuya** (ot) qurti matolarni yeydigan kichkina kapalak  
**Ko'k** (sif.) havorangli, moviy  
**Ko'k** (ot) osmon  
**Ko'k** (ot) ko'kat  
**Ko'k** (ot) yirik-yirik chok  
**Ko'ra** (ot) kabob pishiriladigan asbob  
**Ko'ra** (fe'l) ko'rmoq fe'lining ravishdosh shakli  
**Ko'za** *din* ro'za tutmagan kishi  
**Ko'za** suv solish uchun ishlatiladigan sopol idish  
**Ko'ch** (ot) bir joydan ko'chayotganda olib ketiladigan narsalar  
**Ko'ch** (fe'l) ko'chish harakatini ifodalovchi fe'lining buyruq shakli

## L

**Lang** (f-t) *esk* cho'loq, oqsoq  
**Lang** keng (ochiq)

**Langar** (f-t) dorboz qo'lida tutgan muvozanat cho'pi  
**Langar** (f-t) kema bog'lab qo'yiladigan moslama, changak  
**Laqqa** (rvsh.) osongina, paqqos (*laqqa ishondi, laqqa tushdi*)  
**Laqqa** (ot) tangachasiz, mo'ylovli yirtqich baliq  
**Lava** (r) shaxtada ko'mir qatlami yoppasiga qazib olinadigan joy  
**Lava** (r<ital) vulqon natijasida oqib chiqadigan tog' jinsi  
**Lom** (a) arab alifbosidagi «l» tovushini ifodalovchi harf  
**Lom** (r) misrang  
**Lozim** (a) (ot) ayollarning ishtoni  
**Lozim** (a) bajarilishi shart bo'lgan, kerak, zarur  
**Luqma** (a) (ot) bir chaynam, bir yutum  
**Luqma** (a) (ot) birov gapirayotganda boshqa tomonidan qo'shiladigan so'z, ibora

## M

**Ma'mur** (a) (ot) boshqarish huquqiga ega mansabdor  
**Ma'mur** (a) (rvsh.) obod va farovon  
**Malay** malay xalqi  
**Malay** xizmatkor  
**Man** (a) taqiq  
**Man** *sheva* men  
**Mandarin** (r<isp) (ot) janubda o'sadigan sitrus o'simligi va uning mevasi  
**Mandarin** (r<portug) (ot) Xitoyning feodalizm davridagi davlat arboblarga yevropaliklar tomonidan berilgan nom



- Manot** (a) *din* arablarning islomdan oldin ma'budalaridan biri
- Manot** *sheva* so'm ma'nosida
- Mansab** (a) amal, lavozim
- Mansab** *geog* daryoning ko'l, dengiz yoki boshqa daryoga quyiladigan joyi
- Marka** (r<nem) Germaniya va Finlyandiya pul birligi
- Marka** (r<nem) konvertga yopishtiriladigan pochta haqini ko'rsatuvchi qog'oz
- Martaba** (a) (ot) lavozim, e'tibor, nufuz
- Martaba** (a) (hisob. so'z) marta, qatla
- Mastak** (f-t) kaklikning modasi
- Mastak** (f-t) g'alla ekinlari orasida o'sadigan doni zaharli o'simlik
- Maston** (f-t) ayyor, jodugar
- Maston** (f-t) mastona, xumor
- May** (f-t) uzumdan tayyorlangan musallas, ichimlik
- May** apreldan keyingi va iyundan oldingi oy nomi
- Mag'iz** (f-t) qattiq po'choqli mevalarning ichki qismi
- Mag'iz** kiyim, ko'rpa kabilarning chetiga bostirilgan adip
- Mil** (a) (ot) *esk* soatning strelkasi
- Mil** (a) (ot) miltiqning stvoli
- Mil** (r-milya<ingl) (ot) turli davlatlarda turli qiymatga ega bo'lgan uzunlik o'lchovi dengiz mili (1852 metr), geografik mil (7420 metr)
- Mingboshi** (ot) pilla qurti ipak o'rashi uchun qo'yiladigan o't turi
- Mingboshi** (ot) qishloq oqsoqoli, qo'shin boshlig'i
- Modda** (ot) bo'lim, qism, bob tashkil etuvchi narsa
- Modda** (ot) jismlarni tashkil etuvchi narsa
- Moya** asos, o'zak
- Moya** urg'ochi tuya
- Mumiyo** (a) (ot) ko'pincha qizg'ish po'kak rangli bo'yoq
- Mumiyo** (a) (ot) suyaklarni davolash uchun ishlatiladigan mumsimon organik modda
- Mumiyo** (ot) kimyoviy yo'l bilan qotirilgan jasad
- Murtak** embrion
- Murtak** yiringlagan, yallig'langan tomoq bezlari
- Muruvvat** (a) qism, vint
- Muruvvat** (a) yaxshilik, saxovat
- Musallas** (a) (ot) *adab* uchlik she'r
- Musallas** (a) (sif.) uchburchak
- Musallas** (a) (ot) xonaki, qo'lbola uzum vinosi
- Mushak** (f-t) muskul
- Mushak** (f-t) rang-barang yonuvchi modda bilan to'ldirilgan snaryad
- Mushak** (f-t) sabzining uchi to'mtoq turi
- Mushtariy** (a) *esk* xaridor, oluvchi
- Mushtariy** (a) *esk* Yupiter sayyorasi
- Me'da** (a) oshqozon
- Me'da** (a) terida oq rang hosil qiladigan kasallik
- Metrik** (r<yunon) (ot) *adab* she'r vazni haqidagi ta'limot
- Metrik** (r<yunon) (sif.) metrga oid
- Metrik** (r<yunon) metrik o'lchovlar sistemasi
- Metrik** (r<polyak) tug'ilganligi haqida guvohnoma
- Mo'rcha** (f-t) yevropacha hammom
- Mo'rcha** (f-t) chumoli, qumursqa

## N

**Na** (f-t) *bg'l* ayiruv bog'lovchisi  
**Na** (f-t) ne, nima  
**Nor** (a) (ot) olov, o't, gulxan  
**Nor** (f-t) (ot) anor  
**Nor** (f-t) (ot) badandagi qizg'ish dog'  
**Nor** (ot) bir o'rkachli erkak tuya  
**Nota** (r<lot) (ot) bir davlatning boshqa davlatga murojaatnomasi  
**Nota** (r<lot) (ot) tovushning shartli yozma belgisi  
**Novvot** (f-t) to'qimachilik dastgohida tayyor mato o'raladigan yog'och valik  
**Novvot** (f-t) shakar qiyomidan tayyorlangan qattiq kristall modda  
**Novcha** daroz, baland bo'yli  
**Novcha** qarol, xizmatkor  
**Nozik** (f-t) (ot) kashtachilikda ishlatiladigan munchoq  
**Nozik** (f-t) (sif.) nafis, latif  
**No'sh** (f-t) ichish  
**No'sh** (f-t) kuzda tiqib ekilgan piyoz

## O

**Obi** (f-t) kashtachilikda to'g'ri chiziq shaklidagi gul  
**Obi** (f-t) tayyor nonning unga nisbatan suv ta'sirida yuzaga kelgan og'irligi  
**Obida** (a) *esk* xudojo'y, taqvodor ayol  
**Obida** (a) qabrga o'rnatilgan yodgorlik; arxeologik yodgorlik  
**Oi** (sif.) qizil rangning turi  
**Oi** (fe'l) qo'l bilan tutmoq; ixtiyoriga olmoq  
**Olmos** (ot) zaharli, sariq gulli o't

**Olmos** (ot) shaffof, qimmatbaho tosh  
**Olchin** dastasi uzun katta to'qmoq  
**Olchin** o'zbek urug'laridan birining nomi  
**Ombor** (a) (ot) devor tagidagi suv o'tadigan quvur  
**Ombor** (a) (ot) ko'p miqdordagi narsalar saqlanadigan bino  
**Omil** (a) mohir, omilkor  
**Omill** (a) sabab  
**Ong** ilvasin, o'lja  
**Ong** kishining fikrlash qobiliyati  
**Oq** farzandni la'natlash, undan voz kechish (*oq qildi*)  
**Oq** (sif.) qor, sut rangidagi  
**Oq** (fe'l) suyuqlikning bir tomonga qarab yo'nalishi  
**Oqibat** (a) nihoya, yakun, natija  
**Oqibat** (a) qadrdonlik tuyg'usi, yaxshi munosabat  
**Oqin** (ot) baxshi, shoir  
**Oqin** (sif.) oqib turadigan  
**Oqsil** hayvonlar kasalligi  
**Oqsil** organizmlardagi modda  
**Ora** eski hisobdagi zulqada oyining boshqacha nomi (*ora oyi*)  
**Ora** ikki narsaning oraliq'i, o'rtasi  
**Orden** (r<lot) katolik mazhabi monaxlari uyushmasi  
**Orden** (r<lot) turli daraja va nomdagi medaldan yuqori turuvchi nishon  
**Original** (r<lot) (ot) asl nusxa  
**Original** (r<lot) (sif.) o'ziga xos, o'xshashi yo'q  
**Oriy** (f-t) ha, rost, shunday  
**Oriy** (sanskrit) hind-yevropa xalqlarining umumiy nomlaridan biri  
**Ort** (fe'l) ko'paymoq  
**Ort** (fe'l) yukla  
**Ortiq** badandagi ortiqcha joy  
**Ortiq** oshiq, ko'p, a'lo



**Ot** (fe'l) irg'it, uloqtir  
**Ot** (ot) ism, nom, shuhrat, dong  
**Ot** (ot) yakka tuyoqli ish-ulov uy hayvoni  
**Ota** (ot) farzandi bor kishi; qari kishi; asoschi; mehribon  
**Ota** (ot) orol  
**Otar** otadigan (*tong otar*)  
**Otar** qo'y to'dasi, poda  
**Otliq** (sif.) mashhur kishi  
**Otliq** (ot) suvoriy  
**Otsiz** (sif.) ismsiz  
**Otsiz** (sif.) oti yo'q  
**Otsiz** (ot) chayonning xalq tilidagi atamasi  
**Ovloq** kishilardan xoli joy  
**Ovloq** ov qilinadigan joy  
**Oxir** (a) nihoyasi, chegarasi  
**Oxir** (f-t) oxur, molga yem-xashak solinadigan maxsus joy  
**Oylik** (ot) oy maoshi  
**Oylik** (sif.) oy mobaynida  
**Oyoq** (ot) *esk* kosa, idish  
**Oyoq** (ot) tirik mavjudotlarning yurish a'zosi; narsalarning ko'tarib turadigan qismi  
**Oz** (fe'l) adashmoq (yo'ldan ozmoq)  
**Oz** (rvsh.) me'yordan kam  
**Oz** (fe'l) vazn tashlamoq  
**Ozg'in** adashgan (yo'ldan ozgan)  
**Ozg'in** eti qochgan, vazn tashlagan  
**Og'iz** (ot) yeyish a'zosi  
**Og'iz** (ot) sigirning tug'ishdan keyingi ilk suti  
**Osh** (ot) issiq ovqat  
**Osh** (ot) palov  
**Osh** (ot) terini oshlashda ishlatiladigan modda  
**Osha** (*ko'm.*) oshib (*tog'lar osha keldim*)  
**Osha** (fe'l) oshni hovuchlab yemoq  
**Och** (fe'l) kirish yoki chiqishga im-

kon tug'dirmoq; boshlamoq  
**Och** (sif.) kuchsiz, rangi past (rang haqida)  
**Och** (sif.) ovqat tusab qolgan  
**Och** (fe'l) ochiq holatga keltirmoq

## P

**Palak** (f-t) (ot) kashtachilik mahsuloti  
**Palak** (f-t) (ot) poliz o'simligining yerda yoyilib yotgan tanasi  
**Palang** (f-t) orqalab yuk tashishda ishlatiladigan maxsus yostiqla  
**Palang** (f-t) yo'lbars  
**Palata** (r<lot) (ot) qonun chiqaruvchi organ  
**Palata** (ot) davolash maskanidagi alohida xona  
**Palla** (ot) (f-t) tarozining tarelkasi  
**Palla** (ot) (f-t) vaqt, payt  
**Paqir** (ot) *esk* ikki tiyinlik chaqa  
**Paqir** (ot) suyuqlik saqlanadigan silindrik idish  
**Par** (f-t) (ot) parranda pati  
**Par** (r *para*) (sif.) juft  
**Par** (r) (ot) bug'  
**Partiya** (r<nem) (ot) guruh, otryad. to'p  
**Partiya** (r<nem) (ot) siyosiy tashkilot  
**Parcha** (f-t) (ot) butunning qismi  
**Parcha** (f-t) (ot) kimxob mato  
**Passiv** (r<lot) (ot) *his* majburiyat va qarzlarni majmuyi  
**Passiv** (r<lot) (sif.) loqayd  
**Pat** (r<lot) shaxmatdagi durangning bir turi  
**Pat** parranda pari  
**Paxmoq** bir tomoni tukli ip gazlama  
**Paxmoq** tartibsiz o'sib ketgan

**Pashmak** (f-t) (ot) *bot* sho'ralar oilasiga mansub tanasi qalin tola va tangachalar bilan qoplangan bir yillik o'simlik

**Pashmak** (f-t) (ot) holvaning bir turi

**Pilla** (f-t) tishdagi shish kasalligi

**Pilla** (f-t) g'umbak

**Pix** (ot) mog'or, po'panak

**Pix** (ot) erkak parranda oyog'idagi kuchli muguz

**Pok** (f-t) paqqos, butunlay (*pok o'lay dedim*)

**Pok** (f-t) top-toza

**Polka** (r) erkaklarning soch qo'yish usullaridan biri

**Polka** (r<chex) raqs turi

**Port** (r<fr) paroxodlar to'xtaydigan joy

**Port** tqI *port etib uchib ketdi*

**Posira** tar yer uchastkasi

**Posira** yig'ilgan, g'amlangan narsa

**Pozitiv** (r) ijobiy

**Pozitiv** (r) negativdan olingan nusxa

**Prospekt** (ot) bosilmagan asarning rejasi

**Prospekt** (ot) shohko'cha

**Personal** (r<lot) bir kishiga tegishli

**Personal** (r<lot) mutaxassislar guruhi

**Pesh** (f-t) afzal

**Pesh** (f-t) fursat o'tmasdan, darrov (pesh topshirib kelmoq)

**Pesh** (f-t) old tomon

**Peshband** (f-t) fartuk

**Peshband** (f-t) qo'lni oldinga qilib bog'lamoq

## Q

**Qadoq** (ot) 400 grammcha keladigan og'irlik o'lchovi

**Qadoq** (ot) *ayn* chega (tarelkani qadoqlamoq (yamamoq))

**Qadoq** (ot) terida ishqalanish natijasida paydo bo'lgan qabariq

**Qalin** (ot) kelin tomonga beriladigan mablag'

**Qalin** ko'ndalang o'lchami katta

**Qani** (olmsh.) ko'rinmay turgan narsaning o'rnini aniqlashda ishlatiladigan so'roq olmoshi

**Qani** (*und*) qistash, undash ma'nosi ni bildiruvchi undash (*qani, bo'l*)

**Qarshi** tarafdor bo'lmagan, muxolif

**Qarshi** shahar nomi

**Qatron** (a) ayrim narsalardan qizdirib olingan qora quyuq modda

**Qatron** (a) obdan kuydirilgan

**Qavs** (a) (ot) ikkita tik yoy

**Qavs** (ot) o'n ikki burjning biri

**Qayin** (ot) er yoki xotin tomondagi qarindoshni ifodalovchi so'zning qismi

**Qayin** (ot) shimol daraxtining bir turi

**Qayish** (fe'l) ko'maklashmoq

**Qayish** (ot) tasma, kamar

**Qazi** (fe'l) yerdan chuqur hosil qilmoq

**Qazi** (ot) otning to'sh va peshnob go'shtidan yo'gon ichakka solib tayyorlangan mahsulot

**Qil** (fe'l) amalga oshirmoq

**Qil** (ot) soch, yol, dum

**Qir** (fe'l) narsani boshqa bir narsa bilan tirnab tozalash harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli

**Qir** (ot) yassi cho'ziq tepalik

**Qir** (fe'l) yoppasiga o'ldirish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli

**Qiron** (ot) ikki sayyoraning duch kelishi

**Qiron** (ot) qirg'in



- Qirq** (fe'l) kesmoq
- Qirq** (son) o'ttizdan keyingi o'nlik son
- Qiy** (fe'l) qaychi bilan kesmoq
- Qiy** (ot) qo'yning go'ngi
- Qiyiq** (ot) belbog', qars
- Qilyiq** (sif.) kesilgan
- Qilyiq**(sif.) qisiq (qiyiq ko'z)
- Qiyiq** (ot) xato (qing'ir ishning qiyig'i)
- Qiyima** (fe'l) biror narsani qiymaslikni ifodalovchi fe'lning buyruq shakli
- Qiyima** (sif.) chopilgan, maydalgan go'sht
- Qiyom** (a) (ot) tush payti
- Qiyom** (ot) shakardan qilingan quyuq sharbat
- Qizilcha** (ot) qizamiqqa o'xshash yuqumli kasallik
- Qizilcha** (ot) qizil lavlagi
- Qizliq** (sif.) ajablanarli, hayratli
- Qizliq** (ot) qizib turgan
- Qon** (ot) organizmdagi qizil rangli suyuqlik
- Qon** (fe'l) to'ymoq
- Qop** (fe'l) qopish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli, tishlamoq
- Qop** (ot) xaltadan katta, qanordan kichik idish
- Qopla** (fe'l) qopga solmoq
- Qopla** (fe'l) sathni to'liq egalla
- Qoq** (sif.) quruq, nami sira qolmagan; oriq, suyakdan iborat
- Qoq** (rvsh.) xuddi, naq, o'zi
- Qoq** (ot) *sheva* tosh ustida to'plan-gan yomg'ir suvi
- Qoqi** (ot) quriganda urug'i to'zib uchib yuradigan sariq gulli o'simlik
- Qoqi** (ot) quritilgan meva
- Qoqla** (fe'l) bor pulini, narsasini sarf qilmoq (*cho'ntakni qoqlamoq*)
- Qoqla** (fe'l) suvini qochirmoq,
- qurutmoq
- Qor** (ot) suv zarralarining havoda muzlab tushishi
- Qor** (fe'l) aralashtirmoq (*Xamir qormoq*)
- Qot** (fe'l) qattiq holatga kelmoq
- Qot** (fe'l) qo'shmoq (*mastavaga qat-qot qotmoq*)
- Qovoq** (ot) *esk* mayxona, pivo bari
- Qovoq** (ot) ko'z kosasini qoplovchi teri
- Qovoq** (ot) palak otib o'sadigan va yirik hosilli o'simlik turi
- Qozon** (fe'l) ovqat pishiriladigan idish
- Qozon** (fe'l) qo'lga kiritmoq
- Qochmoq** (fe'l) hayvonlarning homi-lador bo'lishi
- Qochmoq** (fe'l) uzoqlashmoq; yuzini berkitmoq
- Quloq** (r *kulak*) (ot) sobiq SSSRda inqilob davrida boyligi tortib olinib surgun qilingan ijtimoiy qatlam
- Quloq** (ot) ariqdan suvni dalaga ajratish joyi
- Quloq** (ot) eshitish a'zosi; ayrim narsalarning ushlash uchun mo'ljal-langan joyi
- Qulcha** (ot) kichik yoshdagi qul
- Qulcha** (rvsh) qul kabi
- Qumri** (ot) bargi uzun, rangi oq-sa-riq gulli o't
- Qumri** (ot) kaptarlar oilasiga kiradi-gan g'urrakning bir turi
- Qur** (ot) davra, doira
- Qur** (hisb. so'z) marta, daf'a, qatla
- Qur** (ot) o'rmonda yashovchi, tovuqqa o'xshash ovlanadigan qush
- Quroq** (ot) katta varrak
- Quroq** (ot) quruqlikda o'sadigan qiyoq
- Quroq** (ot) har xil bo'laklardan qilin-

gan narsa  
**Quv** (sif.) mug'ombir, ayyor  
**Quv** (ot) oqqushning bir turi  
**Quv** (*rvsh*) kutilmaganda, behad  
*(rangi quv oqardi)*  
**Quv** (fe'l) yugurtirib haydamoq  
**Quymoq** (fe'l) suyuqlikni biror idish-  
ga to'kmoq  
**Quymoq** (ot) tuxumli ovqat turi  
**Qo'ltiq** (ot) *geog* quruqlik ichiga  
suqulib kirgan suvlik  
**Qo'ltiq** (ot) qo'lning yelka bilan tu-  
tashgan yerida hosil bo'lgan burchak  
**Qo'r** (ot) olovi o'chgan cho'g'  
**Qo'r** (ot) g'amlangan narsa, zaxira  
boylik  
**Qo'tos** (ot) yovvoyi qoramol turi  
**Qo'tos** (ot) *sheva* bo'yinga taqiladi-  
gan bezak buyumi  
**Qo'y** (ot) go'sht va sut olish uchun  
boqiladigan uy hayvoni  
**Qo'y** (fe'l) o'rinlashtirmoq  
**Qo'zi** (fe'l) kuchli ravishda yuzaga  
kelmoq (*g'azabi qo'zidi*)  
**Qo'zi** (ot) qo'yning bir yoshga yet-  
magan bolasi  
**Qo'sh** (sif.) ikkita, juft  
**Qo'sh** (ot) safardagi qo'nish joyi

## R

**Rang** (f-t) (ot) qiyozga o'xshash  
o'simlik  
**Rang** (f-t) (ot) tus, ko'rinish  
**Rang** (r<nem) (ot) unvon, daraja  
**Rasm** (ot) surat  
**Rasm** (ot) urf-odat  
**Rom** (f-t) (ot) deraza ramkasi  
**Rom** (f-t) (ot) fol  
**Rom** (f-t) (ot) spirtli ichimlik turi  
**Rom** (f-t) (sif.) o'ziga qaratish, jalb

qilish  
**Ruh** (a) (ot) his-tuyg'u  
**Ruh** (a) (ot) kimyoviy element  
**Reaksiya** (r<lot) (ot) aks ta'sir  
**Reaksiya** (r<lot) (ot) qarshi kurash

## S

**Sad** (a) qal'a yoki shahar qo'rg'oni  
**Sad** (a) yuz (*sad bor – yuz marta*)  
**Sadr** (a) *tar* diniy amaldor  
**Sadr** (a) zikrdagi jazava holati  
**Safar** (a) (ot) biror yerga borish  
**Safar** (a) (ot) qamariya hisobida  
ikkinchi oy (*safar oyi*)  
**Salib** (a) but, krest  
**Sallib** (a) o'tsimon, bir pallali ko'p  
yillik o'simlik  
**Salla** (a) (ot) erkaklar boshga o'ray-  
digan mato  
**Salla** (a) (ot) *sheva* o'rama (ovqat)  
**Sana** (fe'l) donalab hisoblash  
**Sana** (ot) voqea sodir bo'lgan vaqt  
**Sandal** (toj.) (ot) mahalliy isitish  
qurilmasi, tancha  
**Sandal** (yunon) (ot) poshnasiz oyoq  
kiyimi, sandalet, shippak  
**Sano** (a) (ot) *din* xudo sha'niga  
aytilgan maqto'v  
**Sano** (a) (ot) makkajo'xoringning turi  
**Sarf** (a) (ot) *esk* morfologiya  
**Sarf** (a) (ot) xarajat  
**Sari** (*ko'm*) tomon, qarab  
**Sarl** (sif.) sariq  
**Sarl** (sif.) *sheva* eng yaxshi, sara  
**Sarparda** (f-t) *mus* pardali musiqa  
asbobining pardasi va musiqiy kalit  
**Sarparda** (f-t) soyabonli aravaning  
pardasi  
**Savdo** (f-t) (ot) mol ayirboshlash;  
savdodan tushgan pul; uylanish va



- erga tegish
- Savdo** (f-t) (ot) turmush tashvishlari va hangomalari; biror narsa yoki kishiga intilishdagi telbalik holati
- Sazo** (f-t) (ot) ko'pchilik oldidagi jazo
- Sazo** (f-t) (ot) sado, tovush, ovoz
- Siltama** (fe'l) kuch bilan keskin tortmaslik
- Siltama** (ot) ovqat turi
- Slm** (f-t) (ot) kumush, nuqra
- Slm** (ot) ip ko'rinishidagi metall mahsulot
- Slnf** (a) (ot) bir xil yoshdagi bolalar o'qiydigan guruh va ularning o'qish xonasi
- Slnf** (a) (ot) guruh
- Slnfdosh** (a+f-t) (ot) bir turkumga mansub
- Slnfdosh** (a+f-t) (ot) bir sinfda o'quvchi yoki o'qigan bolalar
- Slr** (a) (ot) maxfiy tutilgan, no-ma'lum narsa
- Slr** (r) (ot) pishloq
- Slr** (ot) metall buyumning bo'yog'i
- Sira** (ot) qator
- Sira** (*rvsh*) mutlaqo, hech
- Sirkor** sirlangan, bo'yalgan
- Sirkor** sirni biladigan
- Sollq** (ot) davlat foydasiga undiriladigan mablag'
- Sollq** quyi osilgan (*qovog'i soliq*)
- Son** (ot) oyoqning tizza bilan tos o'rtasi
- Son** (ot) sanoq, hisob, raqam
- Soz** (f-t) (sif.) buzuq emas
- Soz** (f-t) (ot) musiqa asboblarning umumiy nomi
- Soz** (f-t) (sif.) yaxshi, tuzuk, durust
- Soz** (f-t) (ot) *sheva* qamishzor, qamish
- Sog'** (sif.) kasal emas
- Sog'** (fe'l) yelindan qo'l bilan sutni chiqarmoq
- Soch** (ot) bosh tolasi
- Soch** (fe'l) tarqatmoq
- Soch** (ot) chumchuqsimonlar oilasiga mansub kichkina sayroqi qush
- Sochliq** (ot) sochib tashlangan narsa
- Sochliq** (ot) yuz-qo'l uchun ishlatiladigan mato
- Sochma** (fe'l) sochib tashlamaslik harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli
- Sochma** (sif.) sepma, sochiladigan
- Stavka** (r) (ot) qo'mondon qarorgohi
- Stavka** (r) (ot) to'lovlar me'yori
- Sud** (r) (ot) jinoiy ish va da'volarni ko'ruvchi davlat organi
- Sud** (f-t) (ot) foyda
- Sumalak** (ot) navro'z taomi
- Sumalak** (ot) qorning erishidan hosil bo'lgan naysimon muz
- Suq** (sif.) ko'z tegishi, suqlanishga olib keluvchi ruhiy ta'sir
- Suq** (fe'l) suqish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli
- Sur** (sif.) (f-t) surx (qizil) so'zining buzilgan shakli
- Sur** (sif.) bezbet, bez
- Sur** (sif.) dudlangan, qoqlangan
- Sur** (fe'l) siljitmoq
- Surgl** (ot) ichni suradigan dori
- Surgl** (ot) sochiq, lungi
- Surma** (f-t) kumushsimon oq mo'rt metall; shu metallga ega pardoz bo'yog'i
- Surma** (sif.) suriladigan, surilma (*surma stof*)
- Suyul** erkalatgan sari haddidan oshmoq
- Suyul** suyuq holga kelmoq
- Suz** (fe'l) hayvonning shox bilan

urishi

**Suz** (fe'l) suvda qo'l va oyoq bilan harakat qilmoq

**Suz** (fe'l) suyuqlikni bir narsadan o'tkazib tozalamoq

**Suz** (fe'l) tayyor ovqatni idishlarga solmoq

**Suzgich** (ot) baliqning yonidagi qanotsimon a'zo

**Suzgich** (ot) suyuqlik o'tkazib tozalanuvchi vosita

**So'k** (fe'l) haqorat qilmoq

**So'k** (ot) tozalangan tariq

**So'k** (fe'l) chokni tarqatish

**So'kish** (fe'l) haqorat qilish

**So'kish** (fe'l) tikish ipini tarqatish

**So'lliq** otning suvlug'i

**So'lliq** so'ligan

**So'm** (ot) katta chipqon

**So'm** (sif.) lahm (so'm go'sht)

**So'm** (ot) pul birligi

**So'qmoq** (fe'l) urmoq, tushirmoq, tez-tez yemoq (ovqatni so'qmoq)

**So'qmoq** (ot) yolg'izoyoq yo'l

**So'r** (fe'l) lablar bilan ichga tortmoq

**So'r** (fe'l) so'ramoq

**So'zak** (f-t) qattiq sovqotish natijasida oyoq uchlarida paydo bo'ladigan og'riq

**So'zak** (f-t) siydik yo'li yallig'lanishidan hosil bo'lgan kasallik

**So'zan** (f-t) (ot) etikdo'zlarning maxsus ignasi

**So'zan** (f-t) (ot) aksiyaning bir turi

## T

**Tabaqa** (ot) eshik-derazaning bir tomoni

**Tabaqa** (ot) ijtimoiy guruh

**Taloq** (a) (ot) nikohni buzish

**Taloq** (ot) qorajigar

**Tan** (f-t) (ot) kishiga tegishli ulush, hissa

**Tan** (f-t) (ot) tana, gavda

**Tana** (f-t) (ot) tananing boshdan pastki va oyoqdan yuqori qismi

**Tana** (f-t) (ot) ikki yoshli urg'ochi buzoq

**Tanish** (fe'l) tanimoq

**Tanish** (sif.) begona emas

**Tap** (tqf) ikki narsaning bir-biriga urilishidagi bo'g'iq ovoz

**Tap** (ot) cho'chish (*tap tortmaslik*)

**Taqa** (fe'l) juda yaqin keltirmoq

**Taqa** (ot) ulov tuyog'ining tagiga qoqiladigan metall

**Taqa** (sif.) *sheva* juftning biri, toq

**Tar** (f-t) (sif.) ho'l (tar meva)

**Tar** (tqf) tarillagan ovoz

**Tark** (a) etmoq, voz kechmoq

**Tark** (f-t) bukilgan, taxlangan, tax

**Tavr** belgi, tamg'a

**Tavr** xil, tur, ko'rinish

**Taxt** (f-t) (ot) hukmdorning hashamatli o'rindig'i

**Taxt** (f-t) tayyor, shay

**Ter** (fe'l) donalab yig'moq

**Ter** (ot) isiganda badandan chiqadigan suyuqlik

**Tik** (sif.) tikka

**Tik** (fe'l) chok hosil qilmoq

**Til** (ot) jonli mavjudotning og'zidagi uzun etdan iborat a'zo; fikr ifodalash vositasi

**Til** (fe'l) tilim-tilim qilmoq

**Tilm** (f-t) (ot) usti yopiq bozor

**Tim** (*yukl*) kuchaytiruv yuklamasi (*tim qora*)

**Tiyn** (ot) bir so'mning yuzdan biriga teng chaqa

**Tiyn** (ot) olmaxon

**Tish** (ot) *so'zl* tashqari



**Tish** (ot) yeyish, tishlash uchun ishlatiladigan a'zo; narsaning uchli qismi  
**Tobla** (fe'l) narsani olov, issiq taftida qizdirmoq  
**Tobla** (fe'l) pishitmoq  
**Tol** (ot) daraxt turi  
**Tol** (fe'l) toliqish  
**Tol** (fe'l) cho'mmoq (xayolga tolmoq)  
**Tom** (sif.) haqiqiy, asl  
**Tom** (ot) imoratning usti  
**Tom** (ot) kitob, jild  
**Tom** (fe'l) tomchi holida tushmoq  
**Topishmoq** (ot) jumboq  
**Topishmoq** (fe'l) topishga yordam bermoq  
**Topishmoq** (fe'l) uchrashmoq, ko'rishmoq  
**Toq** (ot) binoning peshtoqi  
**Toq** (sif.) ikkiga bo'linmaydigan  
**Tor** (f-t) (ot) musiqa asbobi  
**Tor** (sif.) ensiz  
**Tor** (ot) kir yoyiladigan ip  
**Tor** (ot) cholg'u asbobining ovoz chiqaruvchi ipi  
**Tos** (ot) kir yuvish tog'orasi  
**Tos** parcha, kimxob  
**Tos** (ot) sonning yuqori qismi (tos suyagi)  
**Tovla** (fe'l) aylantirmoq  
**Tovla** (fe'l) narsani olov, issiq taftida qizdirmoq  
**Tovon** (ot) oyoqning kafti  
**Tovon** (ot) zararni qoplash uchun beriladigan mablag'  
**Toy** (ot) ikki yashar ot  
**Toy** (fe'l) sirg'anib ketmoq  
**Toy** (ot) o'ram  
**Tosh** (ot) qattiq jins  
**Tosh** (ot) sakkiz chaqirim uzunlikdagi masofa

**Tosh** (fe'l) suyuqlikning qirg'oqdan chetga chiqishi  
**Tuf** (*tq/*) tupurish ovozi  
**Tuf** (ot) g'ovak tog' jinsli qurilish materiali  
**Tuman** (ot) atmosferaning quyi qatlamidagi havoning suv yoki muz zarralari  
**Tuman** (ot) viloyat yoki shaharning tarkibiy qismi  
**Tuman** (son) o'n ming  
**Tur** (fe'l) tinch holatda bo'lmoq, tik bo'lish  
**Tur** (ot) xil, nav  
**Tus** (ot) Iroqdagi qadimiy shahar nomi  
**Tus** (ot) rangning ko'rinishi, tashqi alomat  
**Tut** (ot) barglari ipak qurti uchun ishlatiladigan daraxt  
**Tut** (fe'l) ushlab olmoq  
**Tutash** (fe'l) tutun hosil qilish  
**Tutash** (sif.) uzilmaydigan  
**Tutin** qarindoshdek munosabat bog'lamoq  
**Tutin** urinmoq, harakat qilmoq  
**Tutuq** duduq  
**Tutuq** imlo belgisi  
**Tutuq** tutib qo'yilgan  
**Tuxmak** (f-t) ko'zga qon quyilishi  
**Tuxmak** (f-t) vohalarda o'sadigan sariq gulli o'simlik  
**Tuymoq** his qilmoq  
**Tuymoq** maydalamoq  
**Tuymoq** *sheva* do'pposlamoq  
**Tuyg'un** (ot) katta yoshli qarchig'ay  
**Tuyg'un** (ot) qirg'iy va qar-chig'ayning erkagi  
**Tuyg'un** (sif.) sezgir, tezfahm  
**Tuz** (ot) karta donalaridan eng katta ochkoga ega turi

**Tuz** (ot) ovqatga ishlatiladigan kimyoviy modda  
**Tuz** sayhon, tekis yer  
**Tush** (ot) quyosh tikkaga kelgan payt  
**Tush** (ot) uyquda ko'rinadigan obraz  
**Tepkilli** (sif.) tepki vositasida ishlaydigan  
**Tepkilli** (ot) terlamaning bir turi  
**Tepchl** mayda qavimoq  
**Tepchl** suyuqlikning yuzaga chiqishi  
**Terl** (ot) badanning tashqi qoplamasi  
**Terl** (ot) xamirli taom  
**Termit** (r<yunon) (ot) poroshoksi-mon modda  
**Termit** (r<lat) (ot) yog'ochni yeydigan qumursqa  
**To'la** (sif.) butun hajmi band bo'lgan  
**To'la** (fe'l) olingan narsaning evaziga haq, pul bermoq  
**To'p** (f-t) (ot) koptok  
**To'p** (tq/) yumshoq narsaning yerga urilishidan chiqadigan ovoz  
**To'p** (ot) to'da  
**To'q** (sif.) mag'zi butun  
**To'q** (sif.) quyuq rang  
**To'q** (sif.) to'yib ovqatlangan  
**To'qishmoq** (fe'l) to'qishga yordam bermoq  
**To'qishmoq** (fe'l) to'qnash kelmoq  
**To'qol** (ot) xotin ustiga olingan xotin  
**To'qol** (sif.) shoxsiz mol  
**To'r** (ot) poygakdagi joyning aksi  
**To'r** (ot) tolaning katak-katak qilib to'qilishidan hosil bo'lgan mato; ov asbobi  
**To'smoq** (fe'l) yosh bolani ushlab turib hojat qildirmoq  
**To'smoq** (fe'l) o'tolmaydigan qilmoq

## U

**U** (ot) alifbodagi harf nomi  
**U** (olmsh.) kishilik olmoshi  
**U** (olmsh.) ko'rsatish olmoshi  
**Ular** (olmsh) III shaxs ko'plikdagi kishilik olmoshi  
**Ular** (ot) qirg'ovullar oilasiga mansub yirik tog' qushi  
**Ulash** (fe'l) tarqatmoq  
**Ulash** (fe'l) ulanib ketmoq  
**Uloq** (fe'l) adashmoq, uzoq joylarga ketmoq  
**Uloq** (ot) echking bolasi  
**Uloq** (ot) ot bilan o'ynaladigan milliy sport turi  
**Uloq** (sif.) ulangan, bir necha bo'lakdan iborat  
**Un** (ot) donning kukuni  
**Un** (ot) ovoz, tovush  
**Un** (fe'l) o'sib yuzaga chiqmoq (*bug'doy undi*)  
**Unli** ichiga un solingan  
**Unli** undoshga zid nutq tovushi; ovozli  
**Ura** jangchilarning jangovar nidosi  
**Ura** (rvsh) birdaniga va tezlik bilan (*ura qochdi*)  
**Ustun** (sif.) kuchli, ortiq  
**Ustun** (ot) tomni ko'tarib turuvchi tayanch yog'och  
**Uy** (ot) kishilarning yashash joyi  
**Uy** (fe'l) to'plamoq, yig'moq  
**Uyala** (fe'l) uya qurmoq  
**Uyala** (fe'l) yotgan joyida turolmay qolmoq  
**Uyush** (fe'l) a'zoda qon yurishmay qolmoq  
**Uyush** (fe'l) birgalikda harakat qilmoq  
**Uzel** (r) (ot) ayrim narsalarning kesishgan joyi (aloqa uzeli, temiryo'l)



uzeli)

**Uzel** (ot) kemalarning tezlik o'lchovi

**Uch** (ot) biror narsaning o'tkir tomoni; narsaning oxiri yoki boshi

**Uch** (fe'l) havoda harakatlanish

**Uch** (son) ikki bilan to'rt orasidagi butun son

**Uchlik** (ot) narsaning uchiga kiydiriladigan qism

**Uchlik** (ot) uch kishidan iborat vakolatli komissiya

**Uchuq** (ot) shamollash natijasida chiqadigan lab toshmasi

**Uchuq** (sif.) cheti sinib tushgan, siniq

## V

**Volta** (r) (ot) yupqa ip gazlama

**Volta** (r<ital) (ot) elektr toki zanjiriga ulangan ikki elektrod orasida hosil bo'ladigan cho'g' yoy

## X

**Xalos** (a) ozod qilish, qutulmoq

**Xalos** (a) *sheva* faqat, faqatgina

**Xasm** (a) bironing ixtiyoridagi kishi

**Xasm** (a) raqib, g'anim

**Xayr** (a) (ot) tilanchiga beriladigan sadaqa

**Xayr** (a) (undv. so'z) xayrlashganda aytiladigan so'z

**Xonim** (ot) ayollarga murojaat so'zi

**Xonim** (ot) xamir ovqat turi

**Xor** (f-t) (sif.) bee'tibor, kamsitilgan

**Xor** (r<yunon) (ot) vokal ashulalarni birga ijro etuvchi jamoa

**Xrom** (r<yunon) (ot) kumush tusli kimyoviy element

**Xrom** (r<yunon) (ot) xrom tuzlari bilan ishlov berilgan yaltiroq va yumshoq teri

**Xo'jalik** biror kishiga xo'jayinlik

**Xo'jalik** ishlabchiqarish vositalari majmuyi; ro'zg'or

**Xo'rda** (f-t) (ot) guruchli suyuq ovqat

**Xo'rda** (f-t) g'adir-budir joylari sil-liqlangan, tekis

## Y

**Yalang** (sif.) ochiq, bo'sh, bosh kiyimsiz

**Yalang** (rvsh) hamisha, nuqul (yalang kuladi)

**Yara** (ot) jarohat

**Yara** (fe'l) kerakli bo'lmoq; kuchi yetmoq

**Yarash** (fe'l) mos kelmoq

**Yarash** (fe'l) xafagarchilikni tugatmoq

**Yashar** (fe'l) yosh bo'lib ko'rinmoq

**Yashar** (sif.) yoshli, yoshda

**Yigirma** (son) 19 dan keyingi va 21 dan oldingi butun sanoq son

**Yigirma** (fe'l) yigirishni bajarmaslikka undovchi bo'lishsizlik fe'li

**Yilqlchi** (ot) baliqchilar oilasiga mansub hasharotlar bilan ovqatlanuvchi sahro qushi

**Yilqlchi** (ot) ot boquvchi kishi

**Yo** (f-t) (*bog'l*) yoki, yoxud

**Yo** (a) *und* (yo ollo!)

**Yo** (ot) *esk* yoy, kamon

**Yopiq** (sif.) bekitib qo'yilgan

**Yopiq** (ot) otga yopiladigan mato

**Yoq** (fe'l) ma'qul bo'lmoq

**Yoq** (ot) taraf, tomon

**Yoq** (fe'l) o't oldirmoq

**Yoqa** (ot) kiyimning bo'yin qismi  
**Yoqa** (ot) sohil, chekka, chet  
**Yoqut** (a) (ot) tovlanuvchi qimmatbaho tosh  
**Yoqut** (ot) millat nomi  
**Yorg'i** (ot) *sheva* arra  
**Yorg'i** (ot) *sheva* jarima  
**Yoy** (ot) kamon  
**Yoy** (fe'l) tarqat, yoz  
**Yoz** (ot) bahordan keyingi, kuzdan oldingi fasl  
**Yoz** (fe'l) qog'ozga fikrlarni tushirish  
**Yoz** (fe'l) yoy, tarqat, to'sha  
**Yozil** (fe'l) dam olmoq  
**Yozil** (fe'l) ro'yxatga kirmoq  
**Yog'** (ot) moy, mol va o'simlikning shunday mahsuloti  
**Yog'** (fe'l) qor va yomg'ir kabilarning havodan tushishi  
**Yosh** (ot) ko'z suyuqligi  
**Yosh** (sif.) umr o'lchovi; qari emas  
**Yugan** (ot) guli sariq, baland bo'yli ko'p yillik o'simlik  
**Yugan** (ot) ulov, uy hayvonlarini boshqarish uchun og'zidan o'tkazilgan moslama  
**Yupqa** (sif.) qalinning ziddi (*yupqa qog'oz*)  
**Yupqa** (ot) xamir ovqatning turi  
**Yut** (fe'l) tomoqdan o'tkazmoq  
**Yut** (fe'l) uy hayvonlarining ochlikdan qirilishi  
**Yut** (fe'l) yengmoq  
**Yuz** (son) 99 dan keyingi, 101 dan oldingi butun son  
**Yuz** (ot) odam boshining old tomoni; yuza; sath  
**Yem** (ot) hayvonlarga beriladigan don  
**Yem** (ot) oyoqda yeyilishdan paydo bo'lgan shish

**Yeng** (ot) kiyimning qo'l chiqib turadigan qismi  
**Yeng** (fe'l) yeyishga undovchi buyruq fe'li  
**Yo'rg'a** (ot) beshikning bir tekis tebranishi uchun uning oyoqlari ostiga ko'ndalang o'rnatilgan yoysimon yog'och moslama  
**Yo'rg'a** (ot) mayda qadam tashlab tez yuruvchi ot yoki eshak  
**Yo'sin** (ot) ish-harakatning amalga oshish tarzi  
**Yo'sin** (ot) zax yerlarda tosh va daraxtlar ustida o'sadigan ildizsiz o'simlik

## Z

**Zang** (f-t) (ot) metallning namda oksidlanishi natijasi  
**Zang** (f-t) (ot) tokning ildizga yaqin qari qismi  
**Zang** (f-t) (ot) tovushli signal berish uchun moslangan metall buyum  
**Zangilla** (f-t) (ot) *tib* singa kasalligi  
**Zangilla** (f-t) (ot) zangi (negr)lar raqsi  
**Zaxm** (f-t) (ot) badanga yetgan jarohat  
**Zaxm** (f-t) (ot) tanosil kasalligi, sifillis  
**Zil** (ot) bir-biriga urib chalinadigan musiqa asbobi  
**Zil** (sif.) og'ir, qo'zg'atib bo'lmaydigan  
**Zir** (*taql*) larzadan tebranuvchi narsaning tovushiga taqlid  
**Zir** (*yukl*) ish-harakatning tez va takroriyiligini bildiradi (*zir yugurmoq*)  
**Zomin** (a) (ot) sababchi, aybdor  
**Zomin** (a) (ot) tuman nomi



**O'**

**O' und** chaqirish so'zi  
**O'** o'zbek alifbosidagi harf nomi  
**O'l** esk bo'l (*oshiq o'ling*)  
**O'l** (fe'l) o'lmoq harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli  
**O'lan** (ot) qo'shiq  
**O'lan** (ot) o't, maysa  
**O'ng** (sif.) gavdaning yurak yo'q tomonidagi a'zolari (o'ng qo'l)  
**O'ng** (ot) narsaning sirt tomoni, chapning ziddi  
**O'ng** (sif.) qulay  
**O'ng** (fe'l) rangini yo'qotmoq  
**O'ng** (ot) tushga zid holat  
**O'ng** yaxshilanmoq, rivojlanmoq  
**O'pka** (ot) gina, kudurat  
**O'pka** (ot) nafas olish a'zosi  
**O'q** (ot) *geom* to'g'ri chiziq  
**O'q** (ot) ikki g'ildirakni tutashtirgan qism  
**O'q** (ot) paykon, miltiq va unga o'xshash qurollarning snaryadi  
**O'qlov** (fe'l) o'q joylash  
**O'qlov** (ot) *sheva* o'qlog'i, xamir yoyish asbobi  
**O'r** (ot) jarlikning ziddi, tepaga yo'nalgan qiyalik  
**O'r** (sif.) o'jar, johil  
**O'r** (fe'l) o'rish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli  
**O'ra** (fe'l) o'rash harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli  
**O'ra** (ot) choh, chuqur  
**O'rama** (ot) o'ralgan narsa  
**O'rama** (fe'l) o'ramaslik harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli  
**O'rim** bir necha tolani bir qilib tayyorlangan narsa  
**O'rim** o'simliklarni o'rish jarayoni

**O'rta** (ot) ikki nuqtaning bir xil uzoqlikdagi oralig'i  
**O'rta** (fe'l) kuydirmoq (*o'rtadi, yor, o'rtadi*)  
**O'sma** (ot) o'simta  
**O'sma** (fe'l) o'smoq fe'lning bo'lishsiz shakli  
**O'sma** (ot) o'tsimon o'simlik  
**O't** (ot) jigardan ajralgan suyuqlikka ega xaltacha shaklidagi ichki a'zo  
**O't** (ot) olov, gulxan  
**O't** (ot) yashil o'simlik, alaf  
**O't** (fe'l) o'tish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli  
**O'ta** (fe'l) begona o'tlardan tozalamoq  
**O'ta** (fe'l) bajarmoq  
**O'tar** qo'y podasi, suruv  
**O'tar** o'tadigan, o'tkinchi  
**O'tli** (sif.) yonib turuvchi  
**O'tli** (sif.) o't o'sgan  
**O'y** (ot) fikr, xayol  
**O'y** (fe'l) chuqurcha hosil qilmoq  
**O'z** oldinga o'tib ketmoq  
**O'z** o'zlik olmoshi  
**O'ch** (sif.) nihoyatda berilgan, hirs qo'ygan  
**O'ch** (ot) qasos, qasd  
**O'ch** (fe'l) o'chish harakatini ifodalovchi fe'lning buyruq shakli

**G'**

**G'alcha** bo'yi past, pakana  
**G'alcha** o'z tilidan boshqasini tushunmaydigan; gap uqmaydigan  
**G'ijim** buklanish natijasida taxi buzilgan  
**G'ijim** siqim, changal  
**G'oz** (ot) kuch, quvvat (kaloriya)

(*g'oz* yo'q material, *g'oz* yo'q ovqat)

**G'oz** (ot) o'rdakdan katta, bo'yni uzun suv qushi

## Sh

**Shablon** (r-nem) (ot) andaza, qolip, namuna

**Shablon** (ot) siyqasi chiqqan, chaynalgan fikr, gap

**Shak** (a) ro'zadan oldingi arafa kuni (*shak kuni*)

**Shak** (a) shubha, gumon

**Shakarak** (f-t) (ot) qovun turlaridan biri

**Shakarak** (f-t) (ot) o'simlikning shira biti

**Shama** (ot) ichilgan choyning cho'kindisi

**Shama** (ot) piching, kinoya, pichingli ishora

**Shamsiya** (a) (ot) *esk* zontik

**Shamsiya** (a) (ot) quyosh yili hisobi

**Shart** (a) (ot) o'zaro kelishuv

**Shart** (ot) kuch, quvvat (sharti ketib parti qolgan)

**Shart** (*tq/*) keskin ovozga taqlidni bildiradi

**Shayton** (ot) *din* odamlarni yo'ldan ozdiruvchi afsonaviy maxluq

**Shayton** (ot) duradgorlik va qurilishda sath tekisligini ko'rsatuvchi asbob

**Shashka** (r) (ot) sport o'yini turi

**Shashka** (r) (ot) taxtacha shaklida zichlangan portlovchi modda

**Shilliq** qurtning bir turi

**Shilliq** yelimsimon yopishqoq modda

**Ship** (*tq/*) yurish ovoziga taqlid

**Ship** (ot) xonaning tepa qismi

**Ship** (ot) yirik dengiz balig'i, fili

**Shira** (f-t) (ot) mevadan tayyorlangan suyuq sharbat

**Shira** (f-t) (ot) o'simlik shirasidan oziqlanadigan mayda bit

**Shirchoy** (f-t+x) (ot) ildizi bo'yoq va ishqorga boy o'simlik turi

**Shirchoy** (f-t+x) (ot) sutli choy

**Shol** (f-t) (ot) jundan to'qilgan qalin mato

**Shol** (ot) biror tana a'zosining ishlaymay qolishi, falaj

**Shol** (ot) bo'yinga kiydirib qo'yiladigan jazo taxtasi

**Shom** (ot) asrdan keyingi namoz va u o'qiladigan vaqt

**Shom** (ot) shahar nomi

**Shon** (f-t) (ot) poyabzal qo'njining qolipi

**Shon** (ot) hurmat, e'tibor, sharaf

**Shona** (f-t) *esk* (ot) taroq

**Shona** (f-t) (ot) g'o'za guli

**Shovul** (r shavel) ovqatga ishlatiladigan otquloqqa o'xshash o'simlik

**Shovul** g'uj-g'uj (*g'o'zaning shovul ko'saklari*)

**Shox** (f-t) (ot) asosiy dala arig'i

**Shox** (f-t) (ot) daraxt va butaning butog'i

**Shox** (f-t) (ot) hayvonlarning boshidagi suyaksimon o'simta, a'zo

**Sheva** (f-t) qonun, ish; noz-karashma

**Sheva** (f-t) tilning mahalliy doiradagi ko'rinishi

**Sho'r** (f-t) (ot) toleyi past

**Sho'r** (f-t) (ot) uzumning g'unchasi

**Sho'r** (f-t) (sif.) o'tkir tuzli

**Sho'rlik** ovqatning tuzi ko'pligi

**Sho'rlik** toleyi past, baxtsiz



## Ch

**Chakak** oyoq kiyimining yuzasi bilan dastagining birlashgan qismi

**Chakak** pastki jag'

**Chakka** (ot) tomdan sizib o'tgan tomchi

**Chakka** (ot) chekka, chet

**Chakki** durust

**Chakki** suzma

**Chalma** kiyimning chetiga tikiladigan jiyak

**Chalma** molning tappisidan hosil bo'lgan, yaxlit holga kelgan yoqilg'i

**Chalma sheva** salla

**Chaman** (ot) gulzor

**Chaman** (sif.) sustkash, kasal (*chaman ot*)

**Chang** (f-t) (ot) panja, changal (*chang solmoq*)

**Chang** (f-t) (ot) sim torlariga qo'sh cho'p bilan urib chalinadigan musiqqa asbobi

**Chang** (ot) mayda zarra yoki kukun holiday tuproq

**Changal** (f-t) (ot) panja, changal

**Changal** (f-t) (ot) tikanli butalar, o'simliklar qoplami

**Changchi** (ot) o'simlik gulidagi urug'lantiruvchi chang yetishtiruvchi qism

**Changchi** (ot) chang chaluvchi sozanda

**Chapla** (fe'l) qo'l kafti bilan pala-partish to'g'ri kelgan joyga surkash

**Chapla** (fe'l) chap tomondan yoki yon tomondan bildirmay o'tish

**Chplash** arazlashgan, munosabatlari buzilgan

**Chplash** ranglar qorishgan, pala-partish surtilgan

**Chaq** (fe'l) meva danaglni yorish

**Chaq** (fe'l) o't oldirish (zajigalka, gugurtga nisbatan)

**Chaqa** (ot) kichik jarohat, yara

**Chaqa** (ot) oddiy metallardan yasalgan tanga

**Chaqa sheva** (ot) chaqaloq

**Chaqir** (fe'l) kelishga undash

**Chaqir** (sif.) uchli, qirrali

**Chaqmoq** (fe'l) gazandaning zaharlashi

**Chaqmoq** (ot) chaqishdan hosil bo'lgan bo'lak (bir chaqmoq qand)

**Chars tq/** narsalarning sinishidan yoki yonishidan chiqadigan ovoz

**Chars** to'rs, qo'rs, betgachopar

**Charxchi** (ot) kichik sayroqi qushning nomi

**Charxchi** (ot) charx yasovchi, narsalarni charxlovchi kishi

**Chaylr** saksovullar oilasiga mansub, panjaga o'xshab o'sadigan yovvoyi o'simlik

**Chaylr** tolalari mahkam yopishgan narsa, pishiq, mustahkam

**Chigil** o'zbek urug'laridan birining nomi

**Chigil** chigal, chalkash

**Chil** (ot) kurash sportidagi oyoqni chalish harakati

**Chil** (ot) tog'larda yashovchi kaklikdan kichik ovlanadigan qush

**Chln** (sif.) rost, to'g'ri

**Chln** (ot) Xitoy

**Chippak** shippak, sandal

**Chippak** chippakka chiqmoq (behuda, bekor bo'lmoq)

**Chiq** (fe'l) ustiga ko'tarilmoq

**Chiq** (tql) chiqillash ovoziga taqlid so'zi

**Chirt** (tql) uzilish natijasidagi ovoz

**Chirt** (rvsh.) shartta, keskin (*chirt*)

*burildi)*

**Chitir** pilla qurtiga pilla o'rash uchun  
qo'yiladigan cho'l va adir o'simligi

**Chitir** *tq/* kuchsiz tovushlarning biri-  
ga nisbatan ishlatiladigan taqlid

**Chop** (ot) nashr

**Chop** (fe'l) yugurish harakatini ifo-  
dalovchi fe'lning buyruq shakli

**Chopar** (ot) xabarchi

**Chopar** (fe'l) chopadi, yuguradi

**Chor** (f-t) (son) to'rt, to'rtta

**Chor** (r uap) (ot) podsho

**Chog'** (sif.) kichik, tor (*tufli chog'roq  
keldi*)

**Chog'** ko'tarinki, xush (*kayfi chog'*)

**Chog'** (ot) payt, vaqt

**Chog'** (ot) chama, taxmin (o'n  
chog'li)

**Chochiq** sochilgan

**Chochiq** sochiq, lungi

**Chumak** mevaning pishish holati  
(chillakilar chumak urdi)

**Chumak** *sheva* jo'mrak

**Churrak** kavkazliklarning noni

**Churrak** o'rdakdan kichik ovlanadi-  
gan qush

**Chuv** (ot) aravada g'ildirakni tutib  
turuvchi cho'p

**Chuv** (ot) qimorda yutqaziq holati

**Chuv** (*und*) otni haydash uchun  
ishlatiladi

**Chuvak** qotma, oriq, ozg'in

**Chuvak** shippak turi

**Chuvla** (fe'l) otni «chuv» deb hay-  
damoq

**Chuvla** (fe'l) chuvillashmoq

**Chek** (ot) hissa, ulush

**Chek** (fe'l) imzolash

**Chek** (fe'l) iste'mol qilish; tortish  
(azob chekish, papiros chekish)

**Chek** (ot) pulga teng keladigan  
hujjat

**Chek** (ot) chekka, nihoya, chet

**Chekka** *ayn* (ot) chakka, peshona-  
ning ikki cheti

**Chekka** (ot) chet, chegara

**Chetan** (ot) aravaning bir turi

**Chetan** (ot) daraxtning qizil yoki  
sarg'ish shoda-shoda mevali turi

**Chechak** (ot) badanda suvli pufak-  
cha hosil qiluvchi bolalar kasalligi

**Chechak** (ot) endi ochilayotgan gul

**Cho'pchak** (ot) yoqiladigan mayda  
quruq shox-shabba

**Cho'pchak** (ot) topishmoq

**Cho'qin** (fe'l) onda-sonda bir nar-  
sani cho'qimoq

**Cho'qin** (fe'l) xristianlarning ibodat  
qilishi

**Cho't** (r *schyot*) (ot) hisob mosla-  
masi; taxmin, mo'ljal; foyda

**Cho't** (sif.) qiyin (*bu ishni bajarish  
bizga cho't emas*)

**Cho't sheva** (ot) tesha



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'rayeva Z. Ona tili: 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
4. Qodirov M., Ne'matov H., Abdurahmonova M., Sayfullayeva T. Ona tili: 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
5. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili: 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014.
6. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning I bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent: Ilm ziyo, 2010.
7. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning II bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent: Ilm ziyo, 2010.
8. Nurmonov A., Sobirov A., Mahmudov N., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning III bosqich talabalari uchun darslik. – Toshkent: Ilm ziyo, 2010.
9. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2014.

## MUNDARIJA

<b>TIL TARIXI. O'ZBEK TILINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI</b> .....	3
Dunyo tillari.....	3
Dunyo tillari tizimida o'zbek tilining tutgan o'rni .....	4
O'zbekiston Respublikasining Qonuni .....	5
Davlat tili haqida .....	5
Mashhur ijodkorlar tomonidan ishlatilgan so'zlar miqdori .....	7
Til jozibasini aks etgan misralar.....	7
Manbalarda o'zbek xalqi madhi.....	8
O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari.....	8
O'zbek tilshunosligi bo'limlari .....	12
O'zbek tilshunosligi rivojiga hissa qo'shgan tilshunoslar .....	13
<b>FONETIKA</b> .....	17
Nutqiy faoliyat .....	17
Nutq tovushlarining uch tomoni.....	18
Tovushlarning birlashtiruvchi va farqlovchi belgilari .....	19
Tovush va fonema.....	19
Fonemalar tasnifi .....	20
Unlilar tasnifi.....	21
Undoshlar tasnifi.....	21
Fonema va harf .....	22
Bo'g'in va uning turlari.....	23
Urg'u va uning turlari .....	23
Ohang va uning nutqdagi ahamiyati.....	25
<b>GRAFIKA</b> .....	26
O'zbek yozuvi tarixi .....	26
Hozirgi alifboda unlilarning ifodalanishi .....	26
Hozirgi alifboda undoshlarning ifodalanishi .....	26
Fonetik o'zgarishlar .....	27
<b>ORFOGRAFIYA</b> .....	29
O'zbek tilining imlo qoidalari.....	29
Unlilar imlosi.....	30
Undoshlar imlosi.....	30
Asos va qo'shimchalar imlosi .....	31
Qo'shib yozish.....	32
Ajratib yozish .....	33
Bosh harflar imlosi.....	33
Chiziqcha bilan yozish.....	34
Bo'g'in ko'chirish qoidalari.....	34
O'zbek alifbosi.....	35
<b>ORFOEPIYA (TALAFFUZ) VA IMLO</b> .....	36
Unli tovushlar talaffuzi va imlosi .....	36



A unlisining talaffuzi va imlosi .....	36
O unlisining talaffuzi va imlosi .....	36
I unlisining talaffuzi va imlosi.....	37
E unlisining talaffuzi va imlosi.....	37
U unlisining talaffuzi va imlosi .....	37
O' unlisining talaffuzi va imlosi .....	38
Qator kelgan unlilar talaffuzi va imlosi .....	38
Undosh tovushlar talaffuzi va imlosi .....	39
B – p undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	39
V – f undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	39
G – k undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	39
D – t undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	39
Z – s undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	40
J – sh undoshlarining talaffuzi va imlosi.....	40
G' – q undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	40
X – h undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	41
M – n undoshlarining talaffuzi va imlosi .....	42
Ch – ng harflarining talaffuzi va imlosi.....	42
Qo'sh undoshlar talaffuzi va imlosi .....	42
Qator undoshlar talaffuzi va imlosi.....	43
Tutuq belgisining vazifalari.....	43
<b>PUNKTUATSIYA .....</b>	<b>44</b>
Tinish belgilarining qo'llanilish asoslari .....	44
Nuqta va uning qo'llanishi.....	44
Vergul va uning qo'llanishi .....	45
So'roq belgisi va uning qo'llanishi .....	45
Undov belgisi va uning qo'llanishi.....	46
Qavs va uning qo'llanishi .....	46
Ko'p nuqta va uning qo'llanishi .....	47
Tire va uning qo'llanishi.....	48
Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rinlari.....	49
Ikki nuqta va uning qo'llanishi.....	50
Nuqtali vergul va uning qo'llanishi .....	51
Tinish belgilarining qo'shaloq holda ishlatilish o'rinlari .....	51
Tinish belgilari ishlatilgan gaplar.....	52
<b>MORFEMIKA .....</b>	<b>60</b>
Asos (yetakchi morfema).....	60
Qo'shimchalar (ko'makchi morfemalar).....	60
Morfemalarning agglyutinatativ tabiati.....	62
Old qo'shimchalar va ularning xususiyatlari.....	63
Qo'shimchalarda shakldoshlik .....	64
Qo'shimchalarning ma'nodoshligi.....	65
Qo'shimchalarda zid ma'nolilik .....	65
Nutqda bir asosli so'zlardan foydalanish.....	66

<b>SO'Z YASALISHI</b> .....	67
So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot .....	67
So'z yasalishi tizimi .....	67
So'z yasalish usullari .....	68
So'z yasash jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar .....	69
<b>ADABIY TIL HAQIDA MA'LUMOT</b> .....	70
Adabiy til shakllari .....	70
Adabiy til .....	70
Qo'llanilish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so'zlar .....	71
Shevaga xos so'zlar yoki dialektizmlar .....	71
O'zbek tili leksikasining boyish manbalari .....	72
Neologizmlar .....	73
Eskirgan so'zlar .....	73
Uyadosh so'zlar .....	73
Tasviriy ifoda .....	74
<b>ATAMASHUNOSLIK (TERMINOLOGIYA)</b> .....	75
Atamalar .....	75
Atamashunoslik muammolari .....	75
<b>LEKSIKOLOGIYA</b> .....	77
So'z va leksema .....	77
Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar .....	78
Ko'chma ma'no va uning turlari .....	80
Metafora va uning uslubiyati .....	80
Metonimiya va uning uslubiy xususiyatlari .....	82
Sinonimlar va uning uslubiy xususiyatlari .....	83
Vazifadoshlik va uning uslubiyati .....	84
Kinoya .....	85
Tag ma'no .....	85
So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari .....	85
Omonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	85
Sinonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	87
Antonimlar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	88
Paronimlar va ularning uslubiyati .....	89
<b>NOMSHUNOSLIK (ONOMASTIKA)</b> .....	91
<b>PAREMIOLOGIYA</b> .....	93
Barqaror birikmalar .....	93
Frazeologizmlar – iboralar .....	93
Iboralarning qo'shma so'z va so'z birikmalaridan farqi .....	95
Maqollar .....	95
Matallar .....	96
Hikmatli so'zlar – aforizmlar .....	96



<b>LEKSIKOGRAFIYA (LUG'ATSHUNOSLIK)</b> .....	98
Ensiklopedik (qomusiy) lug'atlar va ulardan foydalanish .....	98
Filologik lug'atlar va ularning turlari .....	99
Izohli lug'at. Tarjima lug'at. Ulardan foydalanish .....	100
Imlo lug'ati va undan foydalanish .....	101
Etimologik lug'at va undan foydalanish .....	102
<b>USLUBIYAT (STILISTIKA)</b> .....	103
Nutq uslublari tasnifi .....	103
So'zlashuv uslubi .....	103
Publitsistik uslub .....	104
Badiiy uslub .....	105
Ilmiy uslub .....	106
Rasmiy uslub .....	107
<b>GRAMMATIKA</b> .....	109
<b>MORFOLOGIYA</b> .....	109
So'z turkumlari .....	110
Mustaqil so'z turkumlari .....	110
Ot so'z turkumi .....	110
Otlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	110
Otlarning tarkibiga ko'ra turlari .....	111
Atoqli otlar va ularning imlosi .....	111
Shaxs nomlari va ularning imlosi .....	111
Joy nomlari va ularning imlosi .....	111
Tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari .....	112
Tarixiy sana va bayram nomlari .....	113
Suv havzalari va inshootlari nomlari .....	113
Turdosh otlar .....	113
Shaxs otlari .....	113
Narsalar otlari .....	114
O'rin-joy otlari .....	115
Faoliyat-jarayon otlari .....	116
Aniq va mavhum otlar .....	116
Otlarning lug'aviy shakllari .....	117
Son shakllari .....	117
Otlarning kichraytirish va erkalash shakllari .....	119
Sifat so'z turkumi .....	119
Sifat yasovchi qo'shimchalar va ularning imlosi .....	120
Sifat yasovchi qo'shimchalarning uslubiy xususiyatlari .....	121
Sifat yasovchi qo'shimchalarning omonimligi .....	122
Sifat darajalari .....	123
Sifatlarning ma'no guruhlari .....	124
Asliy va nisbiy sifatlar .....	125
Sifatlarning otlashuvi .....	126
Sifatlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	126

Son so'z turkumi.....	128
Sonlarning uslubiy xususiyatlari .....	129
Sonning ma'no turlari .....	129
Miqdor son va uning turlari.....	129
Tartib sonlar .....	131
Son shakllarining omonimligi .....	131
Hisob (o'lchov) so'zlar .....	132
Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	133
«Al-jome as-sahih» to'plami haqida .....	133
Olmosh so'z turkumi.....	134
Olmoshning sintaktik vazifalari .....	134
Ko'rsatish olmoshlari .....	135
Kishilik olmoshlari .....	135
Olmosh o'rnida qo'llanuvchi so'zlar .....	136
O'zlik olmoshi .....	137
So'roq olmoshlari .....	138
Belgilash olmoshlari.....	138
Gumon olmoshlari .....	139
Bo'lishsizlik olmoshlari .....	140
Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	140
Fe'l so'z turkumi.....	141
Fe'l va uning uslubiy xususiyatlari.....	141
O'timli va o'timsiz fe'llar.....	142
Fe'l nisbatlari.....	143
Aniq nisbat.....	144
O'zlik nisbat .....	144
Majhul nisbat .....	145
Orttirma nisbat.....	146
Orttirma nisbat shakllarining imlosi .....	146
Birgalik nisbat .....	146
Nisbat qo'shimchalari uslubiyati .....	147
Nisbat qo'shimchalarining omonimligi.....	147
Fe'lning vazifa shakllari .....	148
Harakat nomi .....	148
Harakat nomining sintaktik vazifalari .....	149
Sifatdosh shakli .....	149
Sifatdoshlarning zamon shakllari .....	150
Sifatdoshlarning sintaktik vazifasi.....	151
Sifatdoshning otlashishi.....	151
Ravishdosh shakli.....	151
Ravishdoshning ma'no turlari .....	152
Ravishdosh shakllarining talaffuzi va imlosi .....	152
Ravishdoshning sintaktik vazifasi .....	152
Sof fe'l shakli .....	153
Fe'lning vazifaviy shakllari shakldoshligi.....	153
Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi .....	153
Ko'makchi fe'l shakllari .....	154



Ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasiga qo'shimchalarning qo'shilish tartibi.....	155
Zamon va shaxs-son shakllari faqat ko'makchi fe'lga qo'shiladi.....	155
Fe'lining bo'lishsizlik shakli.....	155
Fe'llarning yasalishi.....	156
Ayrim fe'l yasovchi qo'shimchalarning imlosi.....	158
Fe'l yasovchi qo'shimchalarning shakldoshligi.....	158
Fe'lining lug'aviy shakllari.....	159
So'z qo'shish bilan fe'l yasalishi.....	159
Fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari.....	160
Fe'llarning munosabat shakllari.....	161
Fe'llarning zamon shakllari.....	162
Mayl shakllari.....	163
Shaxs-son shakllari.....	166
Shaxs-son qo'shimchalarining uslubiyati.....	166
Shaxs-son qo'shimchalarining shakldoshligi.....	167
Ravish so'z turkumi.....	167
Ravishlarning ma'no turlari.....	167
Ravishlarning yasalishi.....	169
Ravish yasovchi qo'shimchalarning shakldoshligi.....	170
Takrorlash va juftlash yo'li bilan ravish yasalishi.....	170
Ravishlarning sintaktik vazifasi.....	171
Ismlar.....	171
Ismlarning lug'aviy va munosabat shakllari.....	172
Ismlarning egalik shakllari.....	172
Egalik qo'shimchali so'zlarning imlosi.....	173
Egalik qo'shimchalarining uslubiyati.....	174
Kelishik shakllari.....	174
Kelishik shakllarining imlosi.....	178
Ismlarni kesimga xoslovchi shakllar.....	178
Yordamchi so'zlar.....	179
Ko'makchi.....	179
Sof ko'makchilar.....	179
Vazifadosh ko'makchilar.....	180
Ko'makchilarning ma'no turlari.....	181
Ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligi.....	181
Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari.....	181
Bog'lovchilar.....	182
Teng bog'lovchilar.....	182
Biriktiruv bog'lovchilari.....	182
Zidlov bog'lovchilari.....	183
Ayiruv bog'lovchilari.....	184
Inkor bog'lovchisi.....	184
Ergashtiruv bog'lovchilari.....	185
Sabab bog'lovchilari.....	185
Aniqlov bog'lovchisi.....	185
Maqsad bog'lovchisi.....	186
Shart bog'lovchilari.....	186

Qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi .....	186
Bog'lovchilarning uslubiyati .....	186
Yuklamalar .....	187
Yuklamalarning ma'no turlari .....	188
Sof va vazifadosh yuklamalar .....	189
Yuklamalarning uslubiy xususiyatlari .....	189
Undov so'zlar .....	190
Undov so'zlarning gapdagi vazifasi .....	191
Taqlid so'zlar .....	191
Taqlid so'zlarning sintaktik vazifasi .....	192
Modal so'zlar .....	192
So'zlarning tuzilishiga ko'ra turlari .....	193
Sodda va qo'shma so'zlar, ularning uslubiyati .....	193
Juft va takroriy so'zlar hamda ularning uslubiyati .....	194
Qisqartma so'zlar (abbreviatura) va ularning uslubiy xususiyatlari .....	195
<b>SINTAKSIS</b> .....	197
Gapda so'zlarning bog'lanishi .....	197
So'z birikmasida so'zlarning o'zaro birikish usullari .....	199
Tobe bo'lakni hokim bo'lakka bog'lovchi kelishik qo'shimchalari va ko'makchilar sinonimiyasi .....	200
Qaratqich va tushum kelishiklaridan o'rinli foydalanish .....	201
So'z birikmasi va so'z .....	202
So'z birikmasi va qo'shma so'z .....	202
So'z birikmasi va turg'un bog'lanma .....	203
So'z birikmalari zanjiri .....	204
So'z birikmalarida tobe va hokim so'z munosabati .....	207
So'z birikmasi va gap .....	208
Gap haqida umumiy ma'lumot .....	208
Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari .....	209
Darak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	209
So'roq gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	210
So'roq gaplarning uslubiy xususiyatlari .....	211
Buyruq gaplar .....	211
Buyruq gaplarning uslubiy xususiyatlari .....	212
Istak gaplar va ularning uslubiy xususiyatlari .....	212
Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra turlari .....	212
Sodda gap haqida umumiy ma'lumot .....	213
Sodda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari. Yig'iq va yoyiq gaplar .....	213
To'liq va to'liqsiz gaplar .....	213
Gapning tuzilishiga ko'ra turlari .....	214
Gapning bo'laklarga ajratilishi .....	215
Kesim va uning ifodalanishi .....	216
Fe'l kesim va ot kesim .....	217
Sodda kesim va murakkab kesim .....	218
Murakkab ot kesimlarning tuzilishi .....	218
Kesimning birikmalar va iboralar bilan ifodalanishi .....	218



Ega va kesimning moslashuvi .....	219
Ot kesim va ega orasida tirening ishlatilishi.....	220
Mustaqil va nomustaqil kesimlik shakllari.....	221
Ega va uning ifodalanishi .....	221
Egali va egasiz gaplar.....	222
Egasi yashiringan gaplar .....	222
Egasi ma'lum gaplar .....	222
Egasi umumlashgan gaplar.....	222
Egasiz gaplar.....	222
Shaxsi noma'lum gap .....	223
Atov gaplar.....	223
So'z-gaplar.....	223
Ikkinchi darajali bo'laklar .....	224
Hol va uning ifodalanishi.....	225
Holning ma'no turlari .....	226
Ravish holi .....	226
Payt holi.....	226
O'rin holi .....	227
Daraja-miqdor holi .....	227
Maqsad holi .....	227
Sabab holi .....	228
To'ldiruvchi va uning ifodalanishi.....	228
Vositali to'ldiruvchi.....	230
Vositasiz to'ldiruvchi .....	230
Aniqlovchi va uning ifodalanishi .....	230
Sifatlovchi aniqlovchi.....	231
Qaratqich aniqlovchi .....	232
Izohlovchi.....	233
Gap bo'laklarining tartibi .....	233
Gapning uyushiq bo'laklari haqida ma'lumot .....	234
Uyushgan bo'laklarning shakllari va ularda .....	235
teng bog'lovchilarning qo'llanilishi.....	235
Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zning qo'llanilishi.....	237
Uyushiq kesim .....	238
Uyushiq ega .....	238
Uyushiq hol.....	239
Uyushiq to'ldiruvchi .....	239
Uyushiq aniqlovchilar.....	240
Ajratilgan bo'laklar .....	241
Tartibini o'zgartirish orqali gap bo'laklarini ajratish.....	242
Izohlash orqali gap bo'laklarini ajratish .....	243
Ajratilgan ega, ajratilgan to'ldiruvchi, .....	244
ajratilgan hol, ajratilgan aniqlovchi .....	244
Kiritmalar .....	245
Kirish so'zlarning uslubiy xususiyatlari .....	246
Undalma.....	246
Undalmalarning uslubiyati.....	247

Kiritma gaplar .....	248
Sodda va qo'shma gaplar .....	248
Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalar .....	249
Qo'shma gaplar tasnifi .....	250
Bog'langan qo'shma gap .....	250
Biriktiruv bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap .....	250
Zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap .....	251
Ayiruv bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap .....	251
Inkor bog'lovchisi yordamida bog'langan qo'shma gap .....	252
Bo'lsa, esa so'zlari yordamida bog'langan qo'shma gap .....	252
Ergashgan qo'shma gaplar .....	252
Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar .....	253
Ko'makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo'shma gaplar .....	253
Deb so'zi yordamida ergashgan qo'shma gaplar .....	254
Shart mayli vositasida ergashgan qo'shma gaplar .....	254
Ko'rsatish olmoshli ergashgan qo'shma gaplar .....	255
Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar .....	255
Havola bo'lakli gaplar .....	256
Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gaplar bilan ma'nodoshligi .....	256
Kesim ergash gapli qo'shma gaplar .....	257
Ega ergash gapli qo'shma gap .....	258
Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap .....	258
To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap .....	259
Hol ergash gapli qo'shma gap .....	259
Bog'lovchisiz qo'shma gap .....	260
Qo'shma gap turlarining ma'nodoshligi .....	263
Murakkab qo'shma gaplar .....	265
Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar .....	265
Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar .....	266
Aralash murakkab qo'shma gaplar .....	267
Qismlari uyushgan murakkab qo'shma gaplar .....	268
Ko'chirma gapli qo'shma gap .....	268
O'zlashtirma gap .....	269
Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish .....	269
Matn – eng yirik sintaktik birlik .....	270
Ma'lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn .....	271
Insho – ijodiy mehnat .....	271
Inshoda epigraf .....	273
Insho nazariyasi va amaliyoti .....	273
Insho rejasi va unga qo'yiladigan asosiy talablar .....	273
Sodda ko'rinishdagi reja namunalari .....	274
Murakkab ko'rinishdagi reja namunalari .....	275
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>278</b>
I. So'z yasalishi (Affiksatsiya) .....	278
Otning lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalari .....	278
Otning sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalari .....	278



Ot yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar .....	279
Sifatning lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalari .....	282
Sifat yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar .....	282
Sonning lug'aviy shakl yasovchi shakllari .....	284
Olmoshning lug'aviy shakl yasovchi shakllari .....	285
Ravish yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar .....	285
Fe'lning lug'aviy shakl yasovchi shakllari .....	286
Fe'lning sintaktik shakl yasovchi shakllari .....	288
Fe'l yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar .....	289
So'z yasalishi (Kompozitsiya) .....	290
So'zga so'z qo'shish .....	290
Ot .....	290
Ravish .....	291
Fe'l .....	291
Juftlashtirish va takrorlash yo'li bilan so'z yasash .....	292
Ot .....	292
Sifat .....	292
Ravish .....	293
So'z yasalishi (Konversiya) .....	293
Ot .....	293
Sifat .....	294
Olmosh .....	294
Ravish .....	294
Qo'shimchalarning omonimligi .....	294
Sintaktik shakl yasovchilar doirasida .....	294
Lug'aviy shakl yasovchilar doirasida .....	295
Sintaktik va so'z yasovchilar doirasida .....	295
Sintaktik va lug'aviy shakl yasovchilar doirasida .....	295
Lug'aviy shakl yasovchi va so'z yasovchilar doirasida .....	296
So'z yasovchilar doirasida .....	297
Sinonim qo'shimchalar .....	299
Sifat .....	299
Antonim qo'shimchalar .....	300
Qisqacha omonimlar lug'ati .....	301
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</i> .....	325

*Ilmiy-ommabop nashr*

**Orzigul HAMROYEVA**

**ONA TILI  
MA'RUZALAR TO'PLAMI**

**Muharrir:** Abdulla SHAROPOV  
**Badiiy muharrir:** Bahriddin BOZOROV  
**Texnik muharrir:** Nodir RAHIMOV  
**Sahifalovchi:** Xurshid IBROHIMOV  
**Musahhih:** Elbek JUMANOV

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 25.08.2016-y.

Bosishga ruxsat etildi: 17.09.2018-y.

Gazeta qog'ozi. Qog'oz bichimi 84x108 <sup>1</sup>/<sub>32</sub>.

Helios garniturası. Ofset usulida bosildi.

Hisob-nashriyot t: 17,8. Shartli b.t.: 17.6.

Adadi: 5000 nusxa.

Buyurtma №91/292.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>A</sup>-mavze 42-uy.

**Tel.:** (+99871) 217-16-77

**e-mail:** akademnashr@mail.ru

**web-site:** www.akademnashr.uz

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi.  
100097, Toshkent sh., Bunyodkor shohko'chasi, 44.





ISBN 978-9943-4727-0-9



9 789943 472709

